



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

TARJIMASHUNOSLAR FORUMI – 2023

(Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari)

2023-yil 14-dekabr, Toshkent

ФОРУМ ПЕРЕВОДОВЕДОВ – 2023

*(Материалы международной научно-практической
конференции)*

Ташкент, 14 декабря 2023 г.

TRANSLATION FORUM – 2023

(Proceedings of the international scientific conference)

December 14, 2023. Tashkent

“TARJIMASHUNOSLARI FORUMI – 2023” (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari). –Toshkent: TDSHU, 2023. – 474 b.

UO‘K: 81’25

KBK: 81.2-7

T - 23

Ushbu to‘plamdan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 2023-yil 27-apreldagi 39-sonli bayoni va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2023-yil 12-maydagi 118-sonli “2023-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘iga binoan 2023-yilning 14 dekabr kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida “Tarjimashunoslar Forumi – 2023” **Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman** ishtirokchilari, ushbu ilmiy yo‘nalishda tadqiqotlar olib borayotgan respublika OTMlarining professor-o‘qituvchilari, mutaxassislar va yosh tadqiqotchilarning tarjima tarixi, nazariyasi, amaliyoti va tanqidi, sinxron tarjima, shuningdek, xalqaro jurnalistikaga oid mavzular yoritilgan maqola va tezislari o‘rin olgan.

Tuzuvchi va mas’ul muharrir: filol.f.d., professor v.b. **Xayrulla Hamidov**

Konferensiya tashkilotchilari:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi Konfutsiy nomidagi o‘zbek-xitoy instituti

Tashkiliy qo‘mita:

prof. G.Rixsiyeva – rais

prof. v.b. X.Hamidov

prof. S.Nasirova

dots. R.Sharipov

dots. N.Ismatullayeva

Taqrizchilar:

dots. Ergash Ochilov

dots. Nargiza Ismatullayeva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2023-yil 02-dekabrda 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2023

© TDSHU huzuridagi Konfutsiy nomidagi o‘zbek-xitoy instituti

*“Tarjimashunoslar Forumi – 2023”
Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari toplamining
ushbu soni
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
tashkil etilganining **105** yilligi,
Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika
kafedrasini tashkil etilganining **12** yilligi,
taniqli adabiyotshunos olim,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi,
Xalqaro Bobur mukofoti sovrindori,
filologiya fanlari doktori, professor
G‘aybulla Salomov tavalludining **91** yilligiga*

BAG‘ISHLANADI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori
Gulchehra Shavkatovna RIXSIYEVAning
KIRISH SO‘ZI

Muhtaram O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi vakillari!
Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Avvalambor, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti jamoasi nomidan “Tarjimashunoslar forumi-2023” xalqaro ilmiy anjumanining barcha mehmonlariga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahnamoligida mamlakatimizda barcha sohalar qatorida ilm-fan taraqqiyoti sohasida ham qator islohatlar olib borilmoqda.

“2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ta‘lim, madaniyat, fan, adabiyot, san‘at va sportni rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish muhim vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Mahkamasi Rayosatining 2023-yil 27-apreldagi 39-sonli bayoni va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2023-yil 12-maydagi 118-sonli “2023-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘iga binoan 2023-yilning 11-12-dekabr kuni o‘tkazilayotgan “Tarjimashunoslar forumi-2023” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani, O‘zbekistonda tarjimashunoslik sohasini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda mahalliy va xorijlik olimlar, Turkiya, Xitoy, Eron, Tojikiston va boshqa mamlakatlardan kelgan xorijiy olimlarning ilmiy g‘oyalari va tajribasini birlashtiradi.

2012 yildan buyon respublika miqyosida o‘tkazib kelingan va so‘nggi yillarda xalqaro ilmiy-amaliy anjuman darajaiga ko‘tarilgan ushbu forum o‘zbek tarjimashunoslida o‘ziga xos brendga aylandi, desak xato bo‘lmaydi. O‘tgan 11 yil mobaynida forum tarjimashunoslik masalalari, tarixi va nazariyasi, tarjima amaliyoti va tanqidi muammolari, tarjimashunoslik fanlarini o‘qitish, xalqaro jurnalistika va boshqa masalalarni qamrab olgan xalqaro maqomga ega bo‘ldi. O‘zbekiston tarjimashunos olimlari tomonidan ko‘plab ilmiy maqolalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, antologiyalar nashr etilib, tarjimashunoslik fanining rivojiga katta hissa qo‘shilmoqda.

Tarjima asarlari milliy adabiyotimizning muhim bir bo'lagini tashkil etayotgan bugungi kunda ana shu ma'naviy boylikni asrash, uni e'zozlab, kelajak avlodlarga yetkazish, shuningdek, adabiyotimiz orqali xalqaro aloqalarimizni yanada kuchaytirish universitetimiz oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Jahon adabiyoti namunalarining tarjima orqali madaniy hayotimizga kirib kelishi tarjimashunoslik va chog'ishtirma tilshunoslik sohalarining rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Yuz yillar davomida dunyo xalqlarning milliy madaniyati, an'analari, urf-odatlari, dunyoqarashi, hayotni anglash falsafasi, badiiy tafakkuri, qolaversa, yashash tarzi haqida tasavvur hosil qilishda tarjima muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Millatimizning badiiy tafakkuri oynasi bo'lmish adabiyotimiz durdonalarini xorijiy tillarga tarjima qilish ishini keng miqyosda amalga oshirish esa bugungi kunda yanada dolzarb masalaga aylanganligini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar, tarixiy hujjatlar tasdiqlab turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4680 sonli qaroriga ko'ra ta'lim muassasamizga universitet maqomi berildi. Sharqshunoslik sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, ilm-fanni jadal rivojlantirish, professor-o'qituvchilarning salohiyati, pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borish, talabayoshlarni sharqona qadriyatlar asosida tarbiyalashni takomillashtirish maqsadida bir qator dolzarb vazifalar belgilab berildi. Ular orasida yangi Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati hamda Xalqaro jurnalistika ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochish masalasi ham bor.

Bu o'quv yili songgida Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrasida doirasida uchta ta'lim yo'nalishi va ikki magistratura mutaxassisliklaridan 150 ga yaqin talaba va magistrant bitiradi.

Bugungi forum universitet oldiga qo'yilgan vazifalar doirasida faoliyatimizni tanishtirish, ayniqsa, tarjimashunoslikning barcha yo'nalishlarida kadrlar tayyorlashning muhim jihatlarini muhokama qilish, o'zbek adabiyoti namunalarini sharq tillariga va jahon adabiyotining yetuk asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish masalalari

yuzasidan mutaxassislar va olimlar bilan fikr almashish uchun katta bir ilmiy maydon bo‘lishi shubhasiz.

“Tarjimashunoslar Forumi – 2023” to‘plamining ushbu soni Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tashkil etilganining 105 yilligi, Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrasida tashkil etilganining 12 yilligi, taniqli adabiyotshunos olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Xalqaro Bobur mukofoti sovrindori, filologiya fanlari doktori, professor G‘aybulla Salomov tavalludining 91 yilligiga bag‘ishlangan bo‘lib, undan bugungi anjuman ishtirokchilari hisoblangan taniqli tarjimonlar va sohaning eng ko‘zga ko‘ringan olimlari hamda TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasida ushbu ilmiy yo‘nalishda tadqiqotlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, mutaxassislar va yosh tadqiqotchilarning tarjima tarixi, nazariyasi, amaliyoti va tanqidi, sinxron tarjima, shuningdek, xalqaro jurnalistikaga oid dolzarb mavzular yoritilgan ilmiy maqolalari o‘rin olgan.

Respublikamiz va undan tashqarida tanilgan adabiyotshunos, tilshunos va tarjimashunos olimlarning ushbu Forumga ishtirok etish uchun ma‘ruza mavzulari va maqolalarini tashkiliy qo‘mitaga yuborganliklari anjumanning nufuzi va saviyasini ko‘rsatmoqda. TDSHU professorlari, dotsentlarining forum tashkiliy qo‘mitasiga yuborgan ilmiy maqolalari ham shular jumlasidandir.

Bugungi anjumanga ishtirok etayotgan muhtaram mehmonlar, aziz ustozlar va o‘zbek tarjimashunosligining jonkuyarlari bo‘lgan taniqli olimlar va tadqiqotchilarga Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rahbariyati va jamoasi nomidan minnatdorchilik bildirgan holda, anjuman ishiga muvaffaqiyat tilayman. Fursatdan foydalanib, barcha ishtirokchilarga va hamkor tashkilotlarimizga samarali va konstruktiv hamkorlik uchun, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrasida jamoasiga ushbu anjumanni tashkil etish va o‘tkazishdagi mehnatlari uchun o‘zining samimiy minnatdorligimni bildirmoqchiman.



TARJIMASHUNOSLIK TARIXI VA XX ASR IKKINCHI YARMI TARJIMACHILIGINING RIVOJLANISH TAMOYILLARI

SHARQ TARJIMASHUNOSLIGINING MUSTAHKAM POYDEVORI

DSc. **Xayrulla HAMIDOV**, TDSHU professori v.b., Toshkent, O‘zbekiston
Tel: 90 960 06 23; E-mail: hamidovx@gmail.com

PhD. dotsent **Nargiza ISMATULLAYEVA**, TDSHU “Tarjimashunoslik va
xalqaro jurnalistika” kafedrasini mudiri v.b., Toshkent, O‘zbekiston
Tel: +998 99 867 10 88; Email: ismatullayeva.nargiza@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola ikki qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasini qisqacha tanitilib, olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatlar, Sharq tarjimachiligining fandagi o‘rni haqida, ikkinchi qismida esa o‘zbek tarjimashunosligi maktabi asoschisi professor G‘aybulla as-Salom tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlab yil davomida o‘tkazilgan tadbirlarning ilmiy-ma‘rifiy ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tarjimashunoslik maktabi, tarjima ilmi, sharq tarjimashunosligi, badiiy tarjima, “Til va tarjima”, “Tarjima san’ati”.

Аннотация. Данная статья состоит из двух частей. В первой части авторы коротко знакомят читателей с кафедрой «Переводоведение и международной журналистики» Ташкентского государственного университета востоковедения, ведут речь о проводимой на кафедре научно-исследовательской и творческой работы, роли восточного переводоведения в науке, а во второй части – о значении мероприятий, проводимых в течение года, посвященных 90-летию со дня рождения основателя школы узбекского переводоведения, профессора Гайбуллы Саломова.

Ключевые слова: узбекская школа переводоведения, наука о переводе, восточное переводоведение, художественный перевод, «Язык и перевод», «Искусство перевода».

Abstract. This article consists of two parts. In the first part, the authors briefly introduce readers to the department of “Translation Studies and International Journalism” of the Tashkent State University of Oriental Studies, talk about the role of Oriental translation studies in science, and in the second part – about the importance of events held throughout the year dedicated to the 90th anniversary of the birth of founder of the school of Uzbek translation studies, professor Gaybulla Salomov.

Key words: Uzbek school of translation studies, translation science, oriental translation studies, literary translation, “Language and translation”, “The art of translation”

*Ijodiy fikrlaydigan, iste'dodli va shijoatli
yoshlarimiz istiqbolda turkiy dunyoning yangi
Renessansini barpo etishiga ishonchim komil.
Bu yo'lda ularga buyuk ajdodlarimiz yaratgan
ilmiy kashfiyotlar va ma'naviy meros
mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi.*

Sh.Mirziyoyev

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrası mamlakatimiz uchun oliy ma'lumotli, yuqori malakali, iste'dodli tarjimon va tarjimashunos kadrlar yetishtirib beruvchi yirik kafedra bo'lish bilan birga, ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi, yosh falsafa doktorlari chiqaruvchi ilmiy markazga ham aylanishga ulgurdi. Kafedra ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklarini tamomlagan mutaxassislardan ayrimlari xorijda ham mehnat qilib, malaka oshirib, ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Respublika tarjimashunoslari va ijodkor jamoatchiligining e'tirofiga ko'ra, universitetimizning “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrası O'zbekistondagi turdosh oliy ta'lim muassasalari ichida sohaning eng ko'zga ko'ringan o'quv va ilmiy markazlardan biri hisoblanib, o'tgan qisqa davr ichida tarjimashunoslik va amaliy tarjima sohasida faol ilmiy tadqiqotlar va tarjimachilik faoliyatlari bilan o'zini namoyon qila oldi (Z.Isomiddinov).

O'quv va ilmiy faoliyati, yo'nalishi bevosita tarjimachilik, tarjimashunoslik, sinxron tarjima hamda xalqaro jurnalistika, bundan tashqari o'ndan ortiq sharq tillarini asosiy o'rganilayotgan sharq tili sifatida o'rganish bilan bog'liq bo'lgan kafedraning ochilganiga **12** yil bo'ldi va ana shu qisqa muddat ichida uning ilmiy salohiyati **16** % dan salkan **70** % ga ko'tarildi. 2011-yil **6** nafar o'qituvchi va **25** nafar talaba, **4** nafar magistrant bilan ochilgan eng yosh kafedra 12 yil ichida misli ko'rilmagan darajada yuksaldi. Bugungi kunda kafedradagi **3** ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va **2** ta magistratura mutaxassisligida salkam **400** nafar talaba tahsil olmoqda, **30** ga yaqin professor-o'qituvchi ularga saboq bermoqda. Kafedrada yuksak salohiyatga ega bo'lgan **20** ga yaqin tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchi ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan **12** yil ichida **100** ga yaqin o'quv, o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar nashr etildi. Mualliflar orasida tajribali professor-o'qituvchilar qatorida yosh mutaxassislari ham bor. Yaratilgan o'quv va ilmiy adabiyotlardan bir qismi kafed-

rada o‘qitilayotgan tarjima nazariyasi, amaliyoti va tanqidi hamda o‘ndan ziyod ixtisoslik fanlariga doir darslik va o‘quv qo‘llanmalari, monografiyalar, terminlar lug‘atlari, ilmiy maqolalar to‘plamlari hamda sharq tillari (xitoy, koreys, hind, urdu, fors, dariy, pushtu, arab, turk tillari)dan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan sharq tillariga qilingan badiiy tarjimalar o‘rin olgan terma kitob-xrestomatiyalar, tarjima almanaxlari va boshqa turli kitoblardir. Bunga qo‘shimcha qilib 30 ga yaqin ilmiy maqolalar va turli darajadagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamlari, tarjima asarlari, shuningdek, o‘tgan asrda chop qilingan va bugunga kelib bebaho ilmiy merosga aylanayotgan tarjimashunoslikka oid ilmiy va o‘quv adabiyotlarining qayta tahrir etilib chop etilgan versiyalari, kafedra a‘zolarining xorijiy ilmiy jurnallarda bosilgan 60 dan ziyod ilmiy maqolalari, OAK ro‘yxatiga kirgan respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan 100 ga yaqin ilmiy maqolalari, O‘zbekistonda va xorijda bo‘lib o‘tgan Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari to‘plamlarida berilgan 100 ga yaqin ilmiy maqola va tezislar, respublika miqyosida va oliy ta‘lim muassasalariaro o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari to‘plamlarida bosilgan 100 dan ziyod ilmiy maqola va tezislarini ham sanab o‘tish mumkin.

Kafedrada o‘zbek adabiyoti atoqli namoyandalarining yubiley sanalari munosabati bilan ularning asarlari xorijiy tillarga tarjima qilinib tarjima kitoblari, monografiya va risolalar yozilib, nashr qilinib kelinmoqda. Muhammad Yuzuf tavalludining 60 yillik (2014), 70 yillik (2024-yilda rejalashtirilgan), Chingiz Aytmatov tavalludining 90 qilligi (2018), Abdulla Qodiriy tavalludining 125 yillik (2019), Abdulla Oripov (2021-y.), O‘tkir Hoshimov (2021-y.) va Omon Matjon (2023-y.) tavalludining 80 yillik yubiley sanalariga bag‘ishlab alohida kitoblar nashr qilindi.

Kafedrada keng miqyosli ma‘naviy-ma‘rifiy, ilmiy-ijodiy ishlar, xususan yirik tarjimachilik ishlari, tarjima nazariyasi, amaliyoti va tanqidiga oid ilmiy tadqiqot ishlari, respublika miqyosida va xorijda amalga oshirilayotgan nashrlar ko‘rgazmasini o‘tkazish va kelgusi yil buni maxsus jurnal ko‘rinishida har yarim yilda bir martadan nashr etib universitet va uning tashqarisidagi keng jamoatchilikka yetkazish rejalashtirilmoqda. Yuksak salohiyatli sharqshunos tarjimonlar, tarjimashunos olimlar va yetishib kelayotgan navqiron, dinamik, serg‘ayrat xalqaro jurnalistlarimizning sa‘y-harakatlari bilan ushbu tashabbusimiz o‘z samarasini beradi, deb umid qilamiz. O‘ylaymizki, bu bilan kafedramizda faol olib borilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar, ustoz-shogird tizimiga asoslangan ilmiy va ijodiy faoliyatlar universitet hamda respublika miqyo-

sida ma'lum bo'ladi, hatto kafedramiz va universitetimizning ilmiy, adabiy aloqalar sohasidagi, xalqaro doiradagi mavqei, obro'-e'tibori, o'rni haqida keng tasavvur hosil bo'ladi [XH,4-6].

* * *

Barchaga yaxshi ma'lum, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya darajasidagi ushu FORUM har yili o'zbek tarjimashunoslik ilmining asoschisi G'aybulla Salomovning tavallud kuni – 11 dekabrda an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinadi. Shu o'rinda yaqinda ustozimizning 90 yillik yubiley sanasiga bag'ishlab O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida ham adabiy-ma'rifiy kecha tashkil etildi. Quyida shu tadbir haqida qisqacha ma'lumot berishni ma'qul topdik.

Bir guruh ijodkorlar, adabiyotshunos olimlar, tarjimonlar, olimning farzandi, nabiralari, shogirdlari hamda universitetimizning bo'lajak tarjimon va jurnalist talabalari, ustozlari faol ishtirok etgan tadbirda olimning **“Tanlangan asarlar”**i, **“G'aybulloh as-Salom zamondoshlar xotirasida”** [G'S,280-283] hamda **“Tarjima san'ati”** maqolalar to'plamining 7-kitobi taqdim qilindi.



Yubiley kechasida Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari, shoir G'ayrat Majid, O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari Zuhridin Isomiddinov, Sultonmurod Olimov, "Jahon adabiyoti" jurnali bosh muharriri Ahmadjon Meliboyev, filol. f.d. Roviyajon Abdullayeva, filol. f.d. Xayrulla Hamidov, dots. Odiljon Safarov va boshqalar so'zga chiqib, tarjima ilmini o'zbek so'zshunosligining muhim bir tarmog'iga aylantirgan ustoz G'aybulla Salomov o'tgan XX asrning 60-yillaridan "Tarjima san'ati" to'plamlarini nashr ettirishga ham bosh-qosh bo'lib, uning olti kitobini chop qildirganligini ta'kidladilar.

Adabiyotshunos olim, tarjimon, O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov o‘z nutqida G‘.Salomovning o‘zbek fani, badiiy tarjimashunosligi, ilmiy tarjimachiligidagi mislsiz o‘rni, ustozning murabbiylik faoliyati, olim asos solgan va uzoq yillar boshqargan "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasining faoliyati, uning ilm-fanga qo‘shgan hissasi haqida gapirib, olimning safdoshlari, yetishtirgan oltmishga yaqin shogirdlaridan S.Olimov, Z.Sodiqov, X.Rahimov, X.Isomiddinov, R.Abdulloyeva, O.Safarovlarni, hatto olimning farzandlari, nabiralarining ismlarini birma-bir sanab o‘tdi, 1966 yilda nashr etilgan “Til va tarjima” nomli monografiyasi, “Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir” risolasi (1961), 1978 yilda nashr etilgan “Tarjima nazariyasiga kirish”, “Tarjima nazariyasi asoslari” (1983) va boshqa bir nechta darslik va qo‘llanmalari, o‘tgan asarning 70- 80-yillarida nashr etilgan alohida olti kitobdan iborat “Tarjima san’ati” fundamental tadqiqotlar ko‘pchilik tarjimon va tarjimashunos mutaxassislariga yaxshi ma’lum va mashhur ekanligini alohida ta’kidladi.

Taniqli jurnalist Ahmadjon Meliboyev G‘.Salomovning yirik tahrir ustasi bo‘lganligiga alohida urg‘u berib, mamlakatimizda tahrir ishining bugungi ahvoli qanday ayanchli ekanligiga e’tibor qaratdi va misollar keltirdi. Shuningdek, filologiya fakulteti qoshida G‘.Salomov nomidagi tarjimachilik kafedrasini ochilishini taklif qilib ustozning asarlari dasturil-amal ekani, xotiralari har doim yoddaligini aytdi.


Respublika yozuvchilar uyushmasining tarjima kengashi raisi Zuhridin Isomiddinov bugun ustozni eslash va u yaratgan kitoblarning yangi nashri bilan tanishish asosiy maqsad ekanligini ta’kidlab, ilgari tarjimalar rus tili orqali qilingan bo‘lsa, bugunga kelib o‘nlab xorijiy tillardan bevosita tarjimalar amalga oshirilayotganligi, bundan tashqari, bugun nafaqat badiiy tarjimaga, balki ilmiy va boshqa turli tarjimalarga ham e’tiborli bo‘lish kerakligini ta’kidladi.

“Ustoz birinchi navbatda fan arbobi edi, – deydi bugun o‘zi ham katta ustoz bo‘lib qolgan filol.f.d. Sulonmurod Olimov, – Shogirdlariga juda kuyunchakligi bilan ajralib turardi. Ilmni izchil davom ettirgan, umrini adabiyotga, fanga bag‘ishlagan ustozlar qatorida edilar”. U o‘z so‘zida G‘.Salomovning chinakaf fan arbobi, bu unvon boshqa, olimlik boshqa narsa ekanligiga alohida urg‘u berdi.

Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, G‘.Salomov tarjima nazariyasi faniga asos solish bilan bir qatorda qomusimizning tamal toshini ham qo‘ygan, ma’naviyatimizga, publitsistika rivojiga katta hissa qo‘shganlardan biri hisoblanadi. G‘aybulloh as-Salom merosi o‘zbek xalqi-

ning intellektual va ma'naviy mulkiga aylanib bo'lgan va ular olimning "ikkinchi" umri bo'lib davom etmoqda.

Olim yaratgan fundamental tadqiqotlar ko'pchilik tarjimon va tarjimashunos mutaxassislarga yaxshi ma'lum va mashhur. Bugungi kunda G'.Salomov asarlari havolada keltirilmagan biron bir mukammal tarjimashunoslik tadqiqoti yo'q, desak mubolag'a bo'lmaydi. Demak, ustozning nomini yashatish, merosini yanada chuqur o'rganish va kelajak avlod ham foydalanishi uchun ularni qayta nashr ettirish kerak. Chunki, olimning yuqorida sanab o'tilgan asarlari nodir kitoblar sirasiga kirgan va ularni topish unchalik ham oson emas. Bu asarlar nashr etilganiga 50-60 yil bo'lgan va ularning "jonli" kitob holida topish oson bo'lmagani kabi, elektron nusxalarini topib o'qish unchalik samara bermayapti. Demak, asarlarni qayta nashr etish kerak. Ana shu vaziyatni hisobga olib 2016-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (o'sha payt institut bo'lgan) Tarjimashunoslik kafedrasida G'aybulla Salomovning 1978-yilda nashr etilgan **"Tarjima nazariyasiga kirish"** [TNK] darsligi qayta tahrir qilinib, universitet miqyosida foydalanish uchun lotin alifbosida nashr etildi va darslik sifatida ta'limga joriy etildi. Bu yil esa ushbu kitob qayta nashrdan, 1966-yilda chop etilgan **"Til va tarjima"** [TT] monografiyasi bilan birga qayta tahrir qilinib, chop etildi. 1961-yilda nashr etilgan va bugun ham o'zining ilmiy qimmati va dolzarbligini yo'qotmay kelayotgan **"Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir"** va **"Tarjima nazariyasi asoslari"** nomli asarlari ham qayta nashrga tayyor. Gap shundaki, ustoz yaratgan asarlar bugun ham xuddi kecha yozilgan dolzarb ilmiy tadqiqotlar o'laroq e'tirof etilayotgan bo'lsa-da, zamonaning zayli, ham kitoblarda sho'ro davriga xos ayrim so'z va istilohlarning "kirib qolgan"i sir emas (sovet, oktabr inqilobi, sotsialistik realizm, marksizm va b.). Qayta ishlab nashr qilish chog'ida biz kitoblarni bunday so'z va istilohlardan imkon doirasida "xalos qilish"ga harakat qildik.



G‘.Salomov tuzgan va o‘zbek tarjimashunosligida ro‘y bergan tarixiy voqea sifatida e‘tirof etilgan yirik tadqiqot ishlaridan yana biri 1961-1985-yillar davomida 6 marta nashr etilgan **“Tarjima san‘ati”** maqolalar to‘plamining 7-sonini mana bugun qo‘limizga olib turibmiz va 8-sonini tayyorlash ishlari boshlab yuborilgan.

Shuni ham ta‘kidlash lozimki, Umrini ilmu ma‘rifatga, ijodga bahshida etgan alloma – G‘aybulla Salomovning “Men suv ichgan daryolar”, “Ey, umri aziz”, “Ezgulikka chog‘lan, odamzod”, “Halollik bozorda sotilmaydi” kabi o‘nlab benaho kitoblari muxlislarining ma‘naviy mulkiga aylanib bo‘lgan.

Shu o‘rinda taniqli olim, akademik Akmal Saidovning quyidagi so‘zlarini keltirib o‘tishni joiz bildik. Ustoz shunday yozadilar: “Yaxshidan bog‘ qoladi”, deydi xalqimiz. Yaxshi olimdan-chi? Albatta, avvalambor, ko‘z nuri va qalb qo‘rini, aqlu zakovatini, ta‘bir joiz bo‘lsa, butun umrini sarflab yaratgan ilmiy maktabi qoladi. G‘aybulla Salomov o‘zidan shunday maktab qoldirgan mavlono zotlardandir. Olim o‘z maqolasida G‘.Salomov ilmiy maktabiga xos bo‘lgan *tarjima va xalqaro adabiy aloqa, qiyosiy adabiyotshunoslik birga o‘rganilishi lozimligi, bu jarayonda qiyosiy tilshunoslik yutuqlariga tayanilishi, til va adabiyot hodisalari birgalikda olib qaralishi shartligi, tarjimashunoslikda uslublar chog‘ishtirilishi, muallif uslubi va tarjimon uslubi to‘qnash kelishi, yozuvchi uslubi tarjimon uslubi orqali reallashishi, tarjima keng ma‘nodagi ijodkorlik, ammo u asarni o‘zgartiradigan ijodkorlik emasligi, buning “o‘zgalor orqali o‘zini, o‘zi orqali o‘zgalarni namoyon etish” san‘ati ekanligi, badiiy tarjimada ichki sharh – interpretatsiya bo‘lib turishi, biroq bunda me‘yorni saqlash darkorligi, tarjimashunoslik umumfilologik ilm bo‘lib, uni bir soha bilan chegaralab qo‘yish noo‘rinligini asosiy prinsiplar sifatida sanab o‘tadi. G‘aybulloh as-Salom fikricha, tarjimashunoslik – qomusiy fan bo‘lib, u o‘z tarkibiga tarix, nazariya va tanqid, adabiyot nazariyasi, qiyosiy adabiyotshunoslik va tipologiya, til, grammatika, uslubiyot, lug‘at, xalq og‘zaki ijodi, atamashunoslik, iborasozlik (frazologiya), maqolshunoslik va matalshunoslik (paremiologiya), falsafa, mantiq, etnografiya, ruhshunoslik (psixologiya), bayon va insho, matnshunoslik, mamlakatshunoslik kabi fanlarni qamraydi [AS,12].*

G‘aybulla Salomovning ilm-fan rivoji yo‘lidagi samarali xizmatlari tufayli tarjimashunoslik – ikki tildagi matnni chog‘ishtirish yoki bir tildagi ma‘noning ikkinchi tilda aks etishini aniqlashgina emas, balki o‘zbek tilining salohiyati, boyligi va imkoniyatlarini ko‘rsatish, jahon adabiyotini milliy zaminda qayta yaratish ekani tan olindi va tarjimashu-

noslik shu jarayonni umumfilologik aspektda tadqiq qiladigan fan ekanligi aniqlandi. Bugun ustoz G'aybulloh as-Salomning badiiy tarjimachilik va tarjimashunoslikka doir ilmiy-nazariy asarlari kutubxonalarda, Internetda izlab-topib o'qilayotgan nashrlar sirasiga kirib ulgurdi.

G'aybulla Salomov mamlakatimizda eng ko'p shogirdlar tarbiyalagan zahmatkash olimlardan biridir. Bizdagi ma'lumotlarga qaraganda, domlaning ilmiy rahbarligida 67 kishi fan nomzodi, 8 kishi fan doktori bo'lgan. Ular orasida mamlakatimizning ko'zga ko'ringan fan va madaniyat xodimlari, jamoat arboblari bor. Darhaqiqat, "G'aybulla Salomovning o'zbek tarjimashunosligi maktabi" deya nom olgan ilmiy maktab mamlakatimiz, hattoki jahon ilm-fani ravnaqida beqiyos o'ringa ega. Bu maktab istiqlol yillarida adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va tarjima sohalari rivojiga ayniqsa munosib hissa qo'shib kelmoqda. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining "Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika" kafedrasida buning yorqin o'rnidir.

Xulosa. O'zbek tarjimashunoslik ilmining asoschisi, adabiyotshunos olim, muharrir, mutarjim, noshir G'aybulloh as-Salomning farzandi Nazira as-Salom u kishining ijodi, ilmiy faoliyatiga bo'lgan hurmat va davlatimizning e'tibori uchun minnatdorlik bildirib, yangi kitoblar taqdimotidan quvonganini ta'kidlab, taqdim qilinayotgan kitoblarning dunyo yuzini ko'rishida mehnatlari singan barcha ijodkorlar, olimlar, xususan Z.Isomiddinov, X.Hamidov va boshqa insonlar, G'.Salomovning barcha hamkasblari, sodiq shogirdlariga o'z minnatdorchiligini bildirdi.

Ustozning ruhlari shod, oxiratlari obod bo'lsin!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[XH] – Hamidov Xayrulla. Tarjima va tarjimashunoslik (Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrasida faoliyatiga bir nazar). Risola. – Toshkent: 2023. – 68 b.

[G'S] – Хамидов Х. Олимнинг "иккинчи" умри. Файбуллоҳ ас-Салом замондошлари хотирасида. – Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 2022. – 336 b.

[AS] – Saidov Akmal, Qiyosiy adabiyotshunoslik tizimida tarjimashunoslik (*professor G'aybulla Salomov ilmiy faoliyati misolida*). Tarjimashunoslar forumi – 2022. Translation Forum – 2022 (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami). 1-kitob – Toshkent: TDSHU, 2022. Volume 2 | Special ISSUE 28 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7. - 447 b.

[TNK] – Salomov G'aybulla, Tarjima nazariyasiga kirish. darslik. – Toshkent: TDShI, 2016. –192 b. (Qayta nashrga tayyorlovchi: X.Hamidov).

[TT] – Salomov G'aybulla, Til va tarjima (monografiya). – Toshkent: TDShI, 2016. –324 b. (Qayta nashrga tayyorlovchi: X.Hamidov).



“ЛИСОН УТ-ТАЙР”ДА НАЗИРАВИЙЛИК ВА ТАРЖИМАВИЙЛИК СИНТЕЗИ

Султонмурод ОЛИМ, филология фанлари доктори, Тошкент амалий фанлар университети профессори, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, Тошкент, Ўзбекистон.
Тел: +998-99-514-43-74. E-mail: smo54@mail.ru

Аннотация. Мақолада буюк ўзбек шоири ва мутафаккири Алишер Навоийнинг “Фоний” тахаллуси билан ёзилган “Лисон ут-тайр” достони назиравийлик ва таржимавийлик синтези сифатида таҳлил этилади. Адабиётшуносликда “назира” ва “таржима” сўзлари борлигидан фойдаланган ҳолда “назиравийлик” ва “таржимавийлик” деган истилоҳлар илк бор илмий муомалага киритилади. Шу тариқа Навоийнинг “Хамса”си таркибидаги беш маснавий “назира” бўлса, бу дostonнинг “таржима-назира” экани исботланади.

Калит сўзлар: Алишер Навоий, дoston, “Лисон ут-тайр”, “Хамса”, назира, таржима, назиравийлик, таржимавийлик, таржима-назира.

Аннотация. В докладе анализируется поэма, написанная псевдонимом “Фани”, “Язык птиц” (“Лисан ут-тайр”) великого узбекского поэта и мыслителя Алишера Навои как синтез подражательства и переводчества. Исходя из существования в литературоведении слов “подражание” и “перевод” впервые употребляются новые научные термины “подражательство” и “переводчество”. Таким образом доказывается то, что если поэмы, находящиеся в составе “Пятерицы” (“Хамсы”) Навои являются подражанием, тогда “Язык птиц” является переводом-подражанием.

Ключевые слова: Алишер Навои (Фани), поэма, “Язык птиц”, “Пятерица”, подражание, перевод, подражательство, переводчество, перевод-подражание.

Abstract. The report analyzes the poem written under the pseudonym “Fani”, “The Language of Birds” (“Lisan ut-tair”) by the great Uzbek poet and thinker Alisher Navoi as a synthesis of imitation and translation. Based on the existence of the words “imitation” and “translation” in literary studies, new scientific terms “imitation” and “translation” are used for the first time. Thus, it is proven that if the poems that are part of the “Five” (“Khamsa”) of Navoi are an imitation, then “The Language of Birds” is an imitation translation.

Key words: Alisher Navoi (Fani), poem, “The Language of Birds”, “Five”, imitation, translation, imitation, translation, translation-imitation.

Тасаввуфда уч нарса шарт қилиб қўйилади: 1) истеъдод; 2) пир; 3) тавфиқ [1, 542]. 3-шартнинг изоҳи шуки, пирнинг нияти билан муриднинг нияти ўртасида кучли мувофиқлик бўлиши – зарур. Яъни пир ҳам сидқидилдан муридига бор билим ва қобилиятини юқтириши, мурид ҳам пирдан камоли ихлос билан бу билим ва қо-

билиятни олишга интилиши – керак. Шунинг ҳисобга олсак, биз Фаридиддин Атторнинг Фонийнинг мазкур достонига асос, яъни доминанта бўлган “Мантиқ ут-тайр” (“МТ”) билан “Лисон ут-тайр” (“ЛТ”) ўртасида қарама-қаршилик эмас, аксинча, яқинлик излашимиз лозим.

Буни “ЛТ”да муаллифнинг ўзи алоҳида таъкидлаган. Достоннинг “*Қушларнинг фано ҳусулидин бақо вусулига еткони*” деб номланган 169-бобида шоир Аттор достони моҳиятига нақадар содиқ қолганини шундай баён этади:

*Мен деб истиғфор қилдим, ё Илоҳ,
Айтмас сўздин санга қилдим паноҳ.*

*Ўз қошимдин солмадим бу навъ тарҳ,
Айладим Аттор асрорини шарҳ.*

*Офатимни нуктадин сен асрагил,
Кимга пайравмен – назора айлагил.*

*Мен галат қилсам, анга йўқтур галат, –
Ким камол авроқиға кўп сурди хат.*

*Сўзда табъим гар галатқа қилди майл,
Ҳодийи комил сўзига қил туфайл.*

*Сендин айтиб, мен анга пайрав бўлуб,
Афв қил журмум, ўзунг узрум қўлуб [2, 271].*

Бу – достондаги халафнинг салафга муносабатини аниқлаштириб олиш учун ўта муҳим бир парча ҳисобланади. Шоир “ЛТ”ни битаётганда ўзидан янгилик қўшмагани, балки Аттор сирларинигина шарҳлаганини қайд этяпти. Аллоҳ таолога мурожаат орқали ундан кимга пайравлик қилаётганига эътибор қаратишини сўраяпти. “*Мен хато қилсам ҳам, Аттор хато қилмайди, чунки у юксак камолот эгаси эди*”, – деяпти. “*Мабодо, мендан хато топсанг ҳам, уни ўша комил йўлбоиши, яъни Аттор туфайли юз берган, деб ҳисобла*”, – дея илтижо айляпти. Шоир Худо ва унга етиш йўлини таърифлашда Атторга пайравлик қилганини алоҳида таъкидлаяпти. Навоийнинг “Хамса”даги достонларида халафнинг салаф ва унинг асарига бу қадар садоқатини кўрмаймиз.

“ЛТ” сирларини кашф этиш амалда “МТ” сирларини билиб олиш сари ташланган қадам ҳам эканини унутмаслигимиз – керак. Шоирнинг ўзи бу маснавийида шундай имкон борлигини қайд этиб кетган. Е. Э. Бертельс Навоийнинг тенг ҳуқуқли оҳорий иждоқор эканини илман исботлаб кўрсатиш учун “ЛТ”ни танлаб, айнан салафига энг яқин тарзда яратилган достон орқали фикрини исбот-

лашни ният қилган. Бироқ бундан қарийб бир аср илгари ёзилган мазкур тадқиқотда олимнинг мақсади кўпроқ Агтор ва Фоний асарлари ўртасидаги тафовутларни бўрттириб кўрсатишдан иборат бўлиб қолган эди. Адабиётшуносликнинг эндиги вазифаси эса – бу буюк қалам соҳиблари дostonлари ўртасидаги ялпи вобасталикни очишдан иборат. Ана шунда “ЛТ”да форсий-туркий адабиёт, шу асосда эса форсий-туркий тамаддун синтезини бир ялпи ҳодиса сифатида тўлиқ кўра оламиз.

“Девони Фоний”да шоир қайси ғазалини кимнинг асарига назира қилиб битганини “*Татаббуъи Махдум дар таври Хоҷа*” [3, 304], “*Табаббуъи Мир дар таври Хоҷа*” [3, 444; 470], “*Татаббуъи Шайх дар таври Махдум*” [4, 36], “*Дар ҳамон тавр*” [4, 104], “*Дар ҳамон услуб*” [4, 105] тарзида аниқ-гиник билдириб кетади.

Адабиётшунослигимизда “*назира*” деган атама – бор. Унинг “*жавобия*”, “*ўхшатма*”, “*татаббуъ*”, “*найрав*”, “*тавр*” каби маънодошлари ҳам фаол қўлланади, “Девони Фоний”да “*Дар ҳамон тавр*” [4, 104], “*Дар ҳамон услуб*” [4, 106] деган қайд-сарлавҳалар “*Татаббуъи Махдум*” [4, 102] деган қайд-сарлавҳадан кейин келгани учун бу икки ғазални ҳам, *Махдум (Жомий) ғазалига татаббуъ*, деб тушунамиз. Илмимизда баъзан “*назира*” (“*жавобия*”, “*ўхшатма*”, “*татаббуъ*”, “*найрав*”) истилоҳлари англлатган ҳодисани нотўғри талқин этиш ҳолларига ҳам дуч келамиз. Бунга бир мисол бор. Мирзобек яратган:

Кўзунг не бало қаро бўлуптур, –

Ким жонга қаро бало бўлуптур, –

матлаъси Навоий замонида аҳли адаб орасида машҳур бўлиб кетади. Бироқ уни битган шоир ёш вафот этади. Ғазал чала қолади. Йиллар ўтганидан кейин Навоий шу бошланма байт асосида ғазал битади. У “*Ғаройиб ус-сиғар*” девонига 161-рақам билан киритилган [қаранг: 5, 145]. Баъзи адабиётшуносларимиз ана шуни ҳам “*татаббуъ*” ҳисоблашади, бу – мутлақо хато. Бошланган, лекин чала қолган асарнинг иккинчи бир ижодкор томонидан охирига етказилиши – бошқа, тайёр асарга 2-қалам соҳибининг жавоб ёзиши эса – бошқа адабий ҳодиса. Шунингдек, “*сайёр сюжет*” деган истилоҳ ҳам – мавжуд. Баъзан айни икки тушунча гўё ўзаро маънодош каби ишлатилаверади. Бу – хато. Чунки “*сайёр сюжет*” тушунчаси билан “*назира*” атамасини аралаштириб юбормаслик – керак. Булар, ҳар қанча бир-бирига яқин тушунчалар бўлгани билан, ўртасида жуда нозик фарқлар ҳам – бор. Ғ. Алиевнинг ёзишича, XIII – XX асрлар мобайнида, асосан, форсий ва туркийда, шу-

нингдек, урду, пуштун, курд, арман ва бошқа тилларда Низомий дostonлари мавзулари ва сюжетлари асосида нақд 600 асар битилган [Қаранг: 6]! Айнан “Хусрав ва Ширин” мавзуси ва сюжети асосида ҳам кўплаб асарлар яратилган, албатта. Уларнинг ҳаммасини, *Низомий дostonига назира*, деб ҳисоблайвериш – мутлақо хато. Юқорида кўрганимиздек, Низомийнинг “Хусрав ва Ширин”и билан Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин”и, табиийки, бир сайёр сюжет асосида яратилган дostonлар ҳисобланади. Аммо “Фарҳод ва Ширин” айнан “Хусрав ва Ширин”га назира эмас. Навоий дostonи Хусрав Дехлавийнинг “Ширин ва Хусрав”ига назира тарзида битилган. Албатта, Хусрав Дехлавийнинг “Ширин ва Хусрав”и Низомий Ганжавийнинг “Хусрав ва Ширин”ига назира. Демак, Навоийнинг дostonи, ўртада Дехлавий дostonи тургани учун, Низомий дostonига билвосита татаббуъ, холос. Бироқ, ялпи олганда, “Хамса” анъанаси бевосита Низомийдан бошланади. Ўзбек адабиётининг кўп асрлик тарихини ҳам озарбойжонлик бу буюк шоир ижодининг кучли таъсирисиз тасаввур этиб бўлмайди. Унинг асарлари юртимизда аср-асрлар мобайнида аслиятда, яъни форсийда мутолаа қилиб келинган. Бу бебаҳо ижод намуналарининг кенг халқ оmmasига етиб бориши учун уни туркийга, яъни ўзбекчага таржима қилиш ҳам давом этаверган. XIV асрдаёқ Қутб Хоразмий унинг “Хамса”сига кирган “Хусрав ва Ширин”ни туркийчалаштирди. У туркий дostonчиликдаги катта ҳодиса ҳисобланади. Чунки XI асрда Юсуф Хос Ҳожибнинг худди Фирдавсий “Шоҳнома”сига бир жавобдек битилган “Қутадғу билиг”идан бошланган туркий ёзма дostonчилик Навоий “Хамса”сигача бўлган жуда катта тараққиёт йўлини босиб ўтди. Айтиш мумкинки, Низомий “Хамса”си ўзбек адабиёти учун Фирдавсий “Шоҳнома”сидан Навоий “Хамса”сигача бўлган саъй-ҳаракатлар даври учун ўзига хос бир кўприк вазифасини ўтади. Навоий “Фарҳод ва Ширин”да:

Деёлгайменки, кўп айлаб тазарруъ,

Буларга айлай олгаймен татаббуъ [7, 475], –

деб ёзади. “Буларга” деганда эса ўзидан олдин форсийда “Хамса” битган Низомий, Дехлавий ва Жомийни кўзда тутди. Гарчи Навоий “Хамса”сидаги ҳар бир дoston, ўзи махсус қайд этганидек, алоҳида-алоҳида дostonга назира бўлса-да, бир сайёр сюжет асосида яратилгани учун шу уч “Хамса”даги дostonларга ё бевосита, ё билвосита татаббуъ ҳисобланади, албатта.

XIV аср иккинчи ярми ва XV аср бошларида яшаб, ижод этган Ҳайдар Хоразмий Низомий “Хамса”сидаги “Махзан ул-ас-

роҳ”ни ўзбекчалаштиришга бел боғлаб, қўлига қалам тутди ва у ҳам, худди Қутб сингари, Низомийдан масаллиқ олиб, ош пиширганини очиқ айтади:

*Менки, пишурдум бу лазиз ошни,
Шайх Низомийдин олиб чошни [8, 203].*

Хуллас, назиранинг бир қатъий талаби – бор, яъни у муайян бир асарга ўхшатма бўлиши – шарт, қандайдир бир сюжетдаги бир неча асарга эмас. Кўплар Навоий “Хамса”сини, *Низомий Ганжавий “Хамса”сига жавоб*, деб ҳисоблайди. Бу – жуда умумий тасаввур маҳсулидан бошқа нарса эмас. Юзаки қараганда – шундай, албатта. Чунки “хамса”чиликни Низомий бошлаб берган. Яъни Навоий ҳам худди Низомий “Хамса”сидаги тартиб асосида беш дoston битди. Бу асарлар табиати, сюжет чизиғи ҳам – ўша-ўша. Бироқ, аслида, Навоий фақат “Ҳайрат ул-аброр”нигина Низомий “Махзан ул-асрор”ига жавоб тарзида ёзди, холос. “Фарҳод ва Ширин” – Хусрав Дехлавийнинг “Ширин ва Хусрав”ига, “Лайли ва Мажнун” – Хожу Кирмонийнинг “Гавҳарнома”сига, “Сабъайи сайёр” – Ашраф Марағойининг “Ҳафт пайкар”ига, “Садди Искандарий” – Абдурахмон Жомийнинг “Хирадномайи Искандарий” дostonига назира. Буни Навоийнинг ўзи айтган: *“Бу тўрт девон (“Хазойин ул-маоний” девонлари – С.О.) овозасин чун рубъи маскунга еткурупмен, “Хамса” панжасига панжа урупмен. Аввалким, “Ҳайрат ул-аброр” боғида табъим гуллар очибдур, Шайх Низомий руҳи “Махзан ул-асрор”идин бошимга дурлар сочибдур. Яна чун “Фарҳод ва Ширин” шабистонига хаёлим юз тутубдур, Мир Хусрав (Дехлавий – С.О.) дами “Ширин ва Хусрав” ўтидин чароғимни ёрутубдур. Яна чун “Лайли ва Мажнун” водийсида ишқим пўя уруб, Хожу (Кирмоний – С.О.) ҳиммати “Гавҳарнома”сида нисоримга гавҳарлар еткуруптур. Яна чун “Сабъайи сайёра” расадин замирим боғлабдур, Ашраф (Марағойи – С.О.) “Ҳафт пайкар”ининг етти ҳурвашин пешкашимга яроғлабдур. Яна чун “Садди Искандарий” асосин хотирим муҳандиси солибдур, ҳазрати Махдум (Абдурахмон Жомий – С.О.) “Хираднома”сидин кўси ислоҳ ва имдод чолибдур” [9, 26].*

Бироқ ўзбек адабиётшунослигидаги Навоий “Хамса”си дostonларини қиёсий ўрганишга бағишланган тадқиқотларда муқоясалар кўпроқ қуйидаги чизиқ бўйича олиб борилган: “Ҳайрат ул-аброр” – Дехлавий дostonига; “Фарҳод ва Ширин” – Низомий дostonига; “Лайли ва Мажнун” – асосан, Низомий, қисман, Дехлавий ва Жомий дostonига; “Сабъайи сайёр” – Низомий, Дехлавий дostonлари-

га; “Садди Искандарий” – Низомий, Дехлавий ва Жомий дostonларига қиёсланган. Бундай тадқиқотлар олиб боришга ҳеч ким қарши эмас. Бир сюжет чизиғидаги бир вазнда битилган ҳар қандай 2 ёки бир неча асарни қиёсий ўрганиш, ҳатто, типологик таҳлил этиш – мумкин ва бу – жуда керак ҳам. Лекин бирламчи вазифа асарнинг айнан қайси дostonга назира қилинган бўлса, ўшанга қиёслашдан иборат бўлиши – лозим. Чунки илм учун шу – бирламчироқ, аҳамиятлироқ, эътиборлироқ.

Бироқ назиранинг ҳам тури – кўп. Бошқача айтганда, “ЛТ”нинг назиравийлик хусусияти унинг “Хамса”сига кирган дostonлардаги назиравийлик хусусиятидан кескин фарқ қилади.

“Фарҳод ва Ширин”да Навоий салафларини бирмунча танқид қилади. Мақсади – янги, уларникига кам ўхшаган, улардан кескин ва ёрқин ажралиб турадиган асар яратиш. Дostonнинг 9-бобида буни исботлайдиган далил – етарли. Шоир ўз олдига муайян, аниқ-тиниқ бир дастур қўяди: а) *бир уйга нақш солиш учун, аввало, унинг тарҳи (режаси, лойиҳаси) ҳам зебо (чиройли) бўлиши – керак;* б) *назми қулоққа хуш ёқишидан ташиқари, унинг афсонаси (воқеаси, сюжети) таъбга ўтирадиган бўлиши – лозим;* в) *бунинг учун аввал шу мавзудаги ўтмишда ёзилган асарларни ўрганиб чиқиши – зарур;* г) *шунда, шоядки, сўз айтиувчиларнинг кўзи тушмаган тоза (янги) сўз топилса;* д) *чунки шундай нарсани ёзқи, тарҳинг тоза бўлсин, халқ уни беандоза (чексиз) майл билан (интилиб, қизиқиб) ўқисин:*

*Ани назм этки, тарҳинг тоза бўлғай,
Улуққа майли беандоза бўлғай [10, 44].*

Шоир шундай йўл тутилмаса, нима бўлиши мумкинлиги ҳақидаги саволга жавоб бериб кетишни ҳам унутмаган:

*Йўқ эрса назм қилгонни халойиқ,
Мукаррар айламак сендин не лойиқ?*

*Хуш эрмас эл сўнгинча раҳи сурмак,
Йўлеким, эл югурмиштур, югурмак.*

*Биравким, бир чаманда сойир эрди,
Нечаким, гул очилгон кўрди, терди.*

*Ҳамул ерда эмас гул истамак хўб,
Бу бўстон саҳнида гул – кўп, чаман – кўп [10, 44].*

Бир тилдаги асарга иккинчи тилда жавоб қайтарилдими, бас, энди ундаги оҳорийлик даражаси, сўзсиз-шубҳасиз, ортади. Шу нуқтаи назардан, Навоий “Хамса”си туркийда битилганининг

ўзи биланоқ Деҳлавий “Хамса”сидан кўра оҳорийроқ, деган хулосага келиш учун тўла асос бўла олади.

Хуллас, “МТ” ва “ЛТ” қиёси бир йўла форсий-туркий шеърят вобасталигини кўрсатишга, шеърят равнақида тасаввуфнинг ўрнини ойдинлаштиришга, Ақтор ва Фоний муносабатларини аниқлашга, адабиётлараро синтез қонуниятларини белгилашга, назираларнинг турларини аниқлаштиришга, назиравийлик ва таржимавийлик хусусиятларини муайянлаштиришга, “*таржима-назира*” деган форсий-туркий адабиётлараро ноёб ижодий ҳодисанинг ўзига хос жиҳатларини илман таҳлил этишга хизмат қилади.

Бир асар асосида ёзилган асарга нисбатан “*назира*” атамасини ишлатса, бўлаверар, эҳтимол. Масалан, Хусрав Деҳлавий “Хамса”сига кирган дostonлар Низомий Ганжавий “Хамса”сидаги дostonларга назира, албатта. Бироқ энди Жомий дostonларига ҳам Низомий, ҳам Деҳлавий дostonларига, Навоий дostonларига эса ҳам Низомий, ҳам Деҳлавий, ҳам Жомий дostonларига назира сифатида қараш – мумкин. Чунки буларда назирага назира ёзиш имкони ҳам – бор. Бу иккаласи бир хил жараён ёки айнан ўхшаш ҳодиса эмас. Илмда бир мавзу ва сюжетдаги бир асарга назира билан бир мавзу ва сюжетдаги икки ёки уч асарга назира ўртасида муайян фарқ борлиги кўрсатиб берилиши – лозим.

Навоийда ўзга тил масаласи ҳам ўртага тушади. Бир асарга ўша тилда назира айтиш – бошқа, бир асарга ўзга тилда назира айтиш – бутунлай бошқа масала.

Адабиётшунослик фанида “*таржима*” ва “*назира*” тушунчалари – аввалдан мавжуд. Шулар асосида диссертациямизда “*таржимавийлик*” ва “*назиравийлик*” ифодаларини биз илк бор қўллаяпмиз. Чунки шунга эҳтиёж – мавжуд. Илм ҳамиша янги-янги истилоҳларни олиб кириш орқали ривожланади. Биз фаслни номлашда ана шу янги атамаларни қўллашни маъқул топдик. Чунки, Навоий “Хамса”сидаги дostonлардан фарқли ўлароқ, “ЛТ”да назиравийлик хусусияти таржимавийлик хусусияти билан уйғунлашиб кетган. Бунини шоирнинг дostonни “*таржума расми била*” [2, 295] ёзганини қайд этгани ҳам тўла тасдиқлайди. Ҳолбуки, шоир ўз “Хамса”си дostonларининг бирортаси ҳақида “*таржима*” атамасини ишлатмаган. Аксинча, кўриб ўтганимиздек, уларда имкон қадар оҳорийлик ҳақида сўз боради. Шу ва шунга ўхшаш эътирозларидан ҳам “Хамса”да халафнинг ўз салафлари билан кучли ижодий рақобатга киришгани маълум бўла-

ди. Бу ҳам – билвосита “МТ” ва “ЛТ” ўртасидаги нозик ришталарни аниқлашга хизмат қиладиган бир чизги.

Навоий “Хамса”си яратилаётганда салаф билан халаф ўртасидаги муносабатлар устоз-шогирд муносабатларини эслатади. Жомий Навоийнинг пири эди. Аммо, ҳатто, “Хирадномайи Искандарий” ва “Садди Искандарий” асарлари ўртасидаги муносабатларда ҳам пир-муридлик эмас, фақат устоз-шогирдлик боғланиши устунлик қилади. Чунки “Садди Искандарий” Жомий ва Навоий ўртасидаги пир-муридлик муносабатларини акс эттириш объекти эмас. “Хирадномайи Искандарий” ва “Садди Искандарий” ўртасида, асосан, адабий устоз-шогирдлик муносабатлари акс этган. Бироқ “МТ” ва “ЛТ” муаллифлари ўртасидаги муносабатлар фақат адабий доира билан чегараланмайди: бу ерда устоз-шогирдликдан ташқари, соф тасаввуфона пир-муридлик муносабатлари ҳам юзага чиқади. “ЛТ”да муаллиф ўзини Атторнинг содик муриди янглиғ тутлади.

Бир тилдаги асарга иккинчи тилда жавоб қайтарилдими, бас, энди ундаги оҳорийлик даражаси, сўзсиз-шубҳасиз, ортади. Шу нуқтайи назардан, *Навоийнинг “Хамса”си – туркийда битилгани биланоқ Деҳлавий “Хамса”сидан кўра оҳорийроқ*, деган хулосага келиш учун тўла асос бўла олади. Бу хусусият – “ЛТ”га ҳам бирдай тегишли. Бироқ, шоир “Хамса”сидаги дostonлардан фарқли ўлароқ, бу асарда назиравийлик хусусияти таржимавийлик хусусияти билан уйғунлашиб кетгани учун ҳам шоир:

*Мунчаким назм ичра қилдим иштигол,
Хотиримдин чиқмас эрди бу хаёл, –*

Ким бу дафтарга бериб тавфиқ Ҳақ,

Таржума расми била ёзсам варақ [2, 295], – дейди. “*Бу дафтар*” деганда эса Атторнинг “МТ”и кўзда тутилган, унга шоир қачондир келиб “*таржума расми била*” жавоб ёзишни бир умр ёдидан чиқармаган. Навоий ўз “Хамса”си дostonларида имкон қадар оҳорийлик ҳақида сўз юритади. Шу ва шунга ўхшаш эътирозларидан ҳам “Хамса”да халафнинг ўз салафлари билан кучли ижодий рақобатга киришгани маълум бўлади. Бу ҳам – билвосита “МТ” ва “ЛТ” ўртасидаги нозик ришталарни аниқлашга хизмат қиладиган бир чизги.

“ЛТ”нинг лиро-эпиклик даражаси – ҳатто, “Ҳайрат ул-аброр”даги лиро-эпиклик даражасидан ҳам юқори. Сабаби – б-

достонида шоир бевосита ички, яъни бандаликка хос, инсоний, сўфиёна, тасаввуфона шахсий ҳис-туйғулари, нозик ва олий истак-муддаоларини барча маснавийларидагидан кўра кўпроқ, хўброқ ва очиқ-ошкорароқ тарзда ифодалаган. “*Шайх авсофию ўзининг анга пайравлигда иттисофи*” деб номланган 173-бобда муаллиф яна Атторнинг устозлик қилгани масаласига қайтади, *ёзу қиш Аттор дўконидан шакар олмоқ ниятида юрар эдим, унинг муқаддас руҳи Ари бозидан келиб, худди сўзлай оладиган парранда каби қуш тили мушкулларини ечишда йўл кўрсатди, бу борада мени устодга айлантирди-ю, мен туркий тилда дoston битдим*, дейди у. Кейинги – 174-боб “*Ўзининг Шайх руҳи мададидин анга татаббуъ қилгонга Қақнус тамсили*” деб аталади. Унда, жумладан: “*У – ота, мен – ўғил демоқчи эмасман, балки у – олий сифатли шоҳ-у, мен унга қул*”, – дейди:

Мен демонким, ул отодур, мен – ўғул,

Ул – шаҳи олийсифот, мен банда – қул [2, 248].

Бир асарга ёзилган татаббуъга нисбатан “*жавобия*”, “*назира*”, “*ўхшатма*”, “*пайрав*” атамаларини ишлатса, бўлаверар, эҳтимол. Масалан, Хусрав Деҳлавий “Хамса”сига кирган дostonлар Низомий Ганжавий “Хамса”сидаги дostonларга назира, албатта. Бироқ умумий маънода Жомий дostonлари ҳам Низомий, ҳам Деҳлавий дostonларига, Навоий дostonлари эса ҳам Низомий, ҳам Деҳлавий, ҳам Жомий дostonларига жавобия. Бунда Жомий ва Навоий оҳорий асаргина эмас, жавобия асарга ҳам жавобия ёзган бўлиб чиқади. Бироқ бир муҳим нуқта – бор. Навоий “Хамса”сининг биринчи дostonигина оҳорий асарга, яъни Низомий “Хамса”сининг биринчи дostonига назира. Қолган тўрт дostonнинг бари назирага назира. Кўриниб турибдики, оҳорий асарга назира билан назирага назира битиш жараёни айнан бир хил кечмайди. Келажакда илмда бир мавзу ва сюжетдаги бир асарга назира билан бир мавзу ва сюжетдаги икки ёки уч асарга ёзилган назира ўртасида муаяйн фарқлар борлиги кўрсатиб берилиши – лозим. Навоийга келганда ўзга тил масаласи ҳам ўртага тушади. Бир асарга ўша тилда назира айтиш – бошқа масала, бир асарга ўзга тилда назира битиш – бутунлай бошқа масала.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. *Алишер Навоий*. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 3. – Тошкент: Фан, 1988.

2. *Алишер Навоий*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 12. – Тошкент: Фан, 1996.
3. *Алишер Навоий*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 18. – Тошкент: Фан, 2002.
4. *Алишер Навоий*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 19. – Тошкент: Фан, 2002.
5. *Алишер Навоий*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 3. – Тошкент: Фан, 1988.
6. *Алиев Г. Ю.* Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. – Москва: Наука, 1985.
7. *Алишер Навоий*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 8. – Тошкент: Фан, 1991.
8. Ўзбек адабиёти. 5 жилдлик. 5 томлик. Т. 1. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1959.
9. *Алишер Навоий*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 16. – Тошкент: Фан, 2000.
10. *Алишер Навоий*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 8. – Тошкент: Фан, 1991.



НОЗИМ ҲИКМАТ ВА МАҚСУД ШАЙХЗОДА

Филол. ф. н. Адҳамбек АЛИМБЕКОВ, ТДШУ профессори, Тошкент,
Ўзбекистон

Аннотация: Мақолада машҳур турк шоири Нозим Ҳикмат ва ўзбек адабиётининг йирик намояндаси Мақсуд Шайхзодаларнинг дўстлиги, адабий ҳамкорлиги ҳақида ҳикоя қилинади. Гафур Гулом, Ойбек, Миртемир каби XX аср ўзбек адабиётининг улуғлари турк адабиётини яхши билганлиги ҳақида фикр билдирилади. Мақсуд Шайхзоданинг Нозим Ҳикмат шеърларидан қилган таржималари хусусида сўз юритилади.

Калит сўзлар: Фитрат, Чўлпон, Қодирий, Товфиқ Фикрат, драматург, публицист, Гафурга хат, руҳий яқинлик, “Бир севги афсонаси”

Аннотация: В этой статье рассказывается о дружбе и литературном сотрудничестве известного турецкого поэта Назима Хикмата и великого представителя узбекской литературы Мақсуда Шайхзады. А также говорится о том что такие представители узбекской литературы XX века как Гафур Гулям, Айбек и Миртемир были хорошо осведомлены о турецкой литературе. А также идёт речь о стихах Н.Хикмата переведенных М.Шайхзадой.

Ключевые слова: Фитрат, Чулпан, Кадири, драматург, публицист, письмо Гафур, духовная связь, легенда одной любви.

Annotation: This article dedicated to the friendship and literary collaboration between great Turkish poet Nozim Khikmat and great representative of Uzbek literature Maksud Shaykhzoda. This article **also talks about that** great representatives of Uzbek literature in 20th century such as Gafur Gulom, Mirtemir and Oybek were get acquainted with Turkish literature.

Key words and phrases: Fitrat, Cholpon, Kadiri, Tovfik Fikrat, playwright, publicist, the letter to Gaffur, spiritual connection, “The legend of one love”.

XIX аср охири XX асрнинг биринчи ярмида яшаган кўпгина ўзбек зиёлилари турк адабиётини яхши билганлар. А. Фитрат, А. Қодирий, А. Чўлпон ва бошқа ойдинларнинг (зиёлиларнинг) турк ижодкорлари ҳақида ёзган мақолалари фикримиз далилидир. Ойбек, Гафур Ғулум, Миртемир, Мақсуд Шайхзодалар ҳам туркий халқлар адабиётининг билимдонларидан эдилар. Ойбек ижодининг бошида Товфиқ Фикратдан таъсирланган бўлса, Гафур Ғулум Нозим Ҳикматнинг “Бир севги афсонаси” драмасини таржима қилган, умрининг охиригача Нозим Ҳикмат билан дўстлигини узмай хабарлашиб турган.

Мақсуд Шайхзода ва Нозим Ҳикмат 1926 йили Бокуда учрашганлар. Мана шунда пайдо бўлган дўстлик бир умр давом этди. Шайхзода Нозим Ҳикматнинг кўплаб шеърларини таржима қилиб 1962 йили “65 шеър” (“Давлат бадий адабиёт нашриёти”. Тошкент -1962) номида сўз боши ва изоҳлар билан нашр этдиради. Бу китобга Нозим Ҳикмат сўзбоши ҳам ёзиб беради. Сўзбошида Нозим Ҳикматнинг ўзбек китобхонига юксак ҳурмати сезилиб турибди. “Ўзбек ўқувчиси бутун дунё шеър хазинасидан энг қадрли асарларни ўқиган ва ўқимокдадир. Унинг завқи юксакдир”. Машҳур турк шоирининг бу сўзлари унинг инсоний маданиятидан ҳам далолат беради.

М.Шайхзода ҳам китобга ёзган сўзбошисида Нозим Ҳикмат шахси ва ижоди ҳақида ўз фикрларини билдиради: “Замонамизнинг энг қудратли ва оташин сўз санъаткорларидан бири бўлмиш буюк шоир, драматург, публицист, муҳаррир Нозим Ҳикмат ўзининг бутун ҳаётини, ижодини, орзу ва умидларини, илҳом ва ғайратини инсониятнинг озодлик идеал билан, эзилган синфларнинг адолат йўлидаги курашлари билан, асоратга тушган халқларнинг қутулиш умидлари билан, Ер юзида ягона оилани вужудга келтириши истаклари билан ёнди”. М.Шайхзода шу баҳона озодлик ҳақидаги орзуларини ифода этмоқ истагандир. Руҳий яқинлик бўл-

гани учун ҳам Шайхзода Нозим Ҳикмат шеърларини ўзбек тилида аслиятдек жаранглатгандир.

“Ҳозирги кунда Нозим Ҳикмат фақат турк адабиётидагина эмас, балки бутун прогрессив жаҳон адабиётида ўзига хос овозга эга, оригинал ва ажойиб адиблардан бири ҳисобланади. Ўз жонажон ва аламзада турк халқининг эркини, курашини, орзуларини, аламларини бақувват тароналарда куйлаган шоир, шу билан бирга бутун инсоният оламининг тақдирини ўйлайди”, дея ёзади Шайхзода “Ер юзида бахт ва тинчлик жарчиси” номли сўзбошида.

Атоқли таржимон ва адабиётшунос Иброҳим Ғафуров Шайхзода таржималари ҳақида шундай ёзади: “Шайхзода Нозим Ҳикматни жуда кўп шеърларини таржима қилган бу таржималарда уларнинг бир - бирларига жуда яқин томонлари, бир- бирларига жўр янграган оханглари яққол кўриниб туради.” “Умр дафтари-дан” деган шеърида ўз алғов - далғов умридан хулоса чиқариб, “Мен инсондай яшадим”, деган эди. Шу учтагина сўзнинг нақадар теранлигидан хайратга тушаман. Бу сўзлар Нозим Ҳикматга, унинг ҳаётига, унинг келажак ҳаёли билан битилган мард шеъриятига қанчалар ярашади! Ернинг юраги олов экан. Назаримда, “Мен инсондай яшадим”, деган иборада шоир умрининг асл мазмуни ва моҳиятининг белгилайдиган шундай олов яшириниб ётганга ўхшайди. Ҳа, Нозим Ҳикмат шундай деб айтишга ҳақли эди. Унинг бутун ҳаёти шу сўзлар замирида жуда катта мазмунга монанддир. Шу сўзлар Мақсуд Шайхзода ҳаёти, ижоди, шахсиятига ҳам тўла мос келади”. [3]- Мақсуд Шайхзода замондошлар хотирасида. Ғ. Ғулом номидаги “Адабиёт ва санъат” нашриёти. Тошкент-1983. 144-бет)

Нозим Ҳикматнинг “Орқага қайтмоқни ёқтирмайман мен” сатри шоирнинг курашчанлик руҳини кўрсатиб турибди.

Шунингдек Қуйидаги “Умр дафтари” шеъридан олинган мисралар ҳам шоир юрагидан тўкилгандир:

Мен бўлса хўб ошноман
Ҳар турли ҳижронларга.
Баъзилари ёддан санар
Юлдузларнинг отларин,
Мен эса санайман
Умримнинг ҳасратларин.

“Умр дафтари” шеърда Нозим Ҳикмат бутун ҳаёти моҳиятини очиб берган бўлса, Мақсуд Шайхзода “Ҳаёт дафтаридан” шеърда устоз Нозимга ҳамоҳанг шундай ёзади:

Мен яшамоқ истайман
Уч рақамли бир сонда,
Ёки: Қалдиروقни севганлар
Қўрқмайди қор –ёғиндан,
Тўлқинларнинг фарзанди
Чекинмайди оқиндан.

Нозим Ҳикмат ва Мақсуд Шайхзоданинг шеърларидаги руҳий муштараклик яққол сезилади. Шеърда замонасоз мисралар бўлса ҳам, ҳар икки шоир юқорида келтирганимиз каби мисраларда ҳаётий қарашларини сингдириб кетолган. Шайхзоданинг “Қуёшнинг йўли”, “Қуёш дерки”, “Қуёш, оқшом ва денгиз” каби шеърларида Нозим Ҳикматнинг “Қуёшни ичганлар кўшиғи” тўпламидаги шеърларга ҳамоҳангликни ҳис қиламиз. Икки улуғ шоир ижодидаги эрк, ҳурият мотивларининг кучлилигини сезамиз. Бу руҳий яқинликни, жўровозликни шоирларнинг кўпроқ сарбаст вазнда ижод қилганларида ҳам кўриш мумкин.

Алишер Навоийни суйган ва ижодини яхши билган, Алишер Навоий ҳақида кўплаб илмий мақолалар ёзган М. Шайхзода билан Нозим Ҳикматнинг суҳбатларида Алишер Навоий ҳақида сўз бўлганлини мантиққа мос келади. Нозим Ҳикматнинг ҳам буюк Алишер Навоий шеърятидан хабардорлиги шубҳасиз. Чунки мумтоз турк адабиётининг ривожланишида ҳазрат А.Навоий ижодининг таъсири катта бўлганлиги ҳақида кўплаб турк шоирлари, адабиётшунослари ёзганлар. Нозим Ҳикматнинг “Бир севги афсонаси” драмасининг бош қаҳрамонлари ҳам Фарҳод ва Шириндир. Нозим Ҳикмат ижодида Алишер Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” достонига ўхшаш асарнинг ёзилишида М. Шайхзода билан қурган суҳбатларининг таъсири бўлиши мумкин.

Мақсуд Шайхзода Москвадан даволанаётиб, Ғафур Ғулом хотирасига бағишланган “Ғафурга хат” шеърини чоп этилиши муносабати билан ўша вақтдаги “Совет Ўзбекистони” газетасида ишлатган шоир Жуманиёз Жабборовга 1966 йил 2 сентябрида ёзган хатида шундай жумлалар бор: “Ҳомид” эмас. Бу Абдулҳақ Ҳамид (2.2.1852-12.4.1937) номли машҳур гуманист, турк шоиридир. Раҳматли Ғафур уни кўп яхши кўрар ва аксар шеърларини ёддан билар эди. Бу шоир... Нозим Ҳикматни устози бўлган”.

“Ғафурга хат” шеърида шундай мисралар бор:

Сен Ҳамиднинг шу байтин дердинг серкадар:

“Эвоҳ, на ер, на ёр қолди,

Кўнглим тўла оҳу зор қолди!”

Бу келтирилган парча Абдулҳақ Ҳамиднинг “Мақбар” номли марсиясидан олинган бўлиб, шоир уни Байрутдан қайтаётганда вафот қилган умр йўлдошининг хотирасига бағишлаб ёзганди. Ғафур Ғулом ва Шайхзоданинг суҳбатларида турк адабиётини яхши билган Ғафур Ғулом А. Ҳамид шеърларидан ўқиб берган бўлиши мумкин. Эътиборли жиҳати Ғафур Ғулом нега шу мисраларни такрорлашни хуш кўрганидир. Руҳига мос, айтолмаган гапларини айтишининг йўли бўлгандир.

Абдулла Орипов “Нозим Ҳикмат” шеърида шоир ижодидаги бош ғоя эркинликни улуғлаш эканлигини ифодалаб шундай ёзган:

Жамики шеърпараст, эркпараст инсон,

Ғоянгизни ялов қилиб кўтарди, устоз Нозим,

Шеърингизни олов қилиб кўтарди, устоз Нозим.

Ижодининг бир қисмини таржимага бағишлаган М. Шайхзоданинг жаҳон адабиётидан (Пушкин, Лермонтов, Некрасов, Гейне, Байрон, айниқса, Шекспир) қилган таржималаридан орттирган тажрибаси Нозим Ҳикмат шеърларини муваффақиятли таржима қилганига асос бўлган дейишимиз мумкин.

Ўзбек шоирларининг (Ғ. Ғулом, М. Шайхзода, А. Орипов, Ҳ.Худойбердиева ва бошқа) Нозим Ҳикмат шеърлятидаги эрк, озодлик мавзусига, кураш ғоясига (мотив дейиш ҳам мумкин) эътибор бериши бежизгамас. Нозим Ҳикмат ижодига мурожаат қилишда замонасозлик бўлгандир, аммо моҳиятан қалбдаги, руҳиятдаги эрк, истиқлол истагини қандайдир шаклда ифодалашнинг уддасидан чиқиш дея қарамок керак.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Нозим Ҳикмат. “Бир севги афсонаси”. ЎзДавНашр. Тошкент: 1955.
2. Нозим Ҳикмат. “65 шеър”. “Давлат бадий адабиёт нашриёти”. Тошкент -1962.
3. Мақсуд Шайхзода замондошлар хотирасида. Ғафур Ғулом номидаги “Адабиёт ва санъат” нашриёти. Тошкент-1983.
4. Мақсуд Шайхзода. Дунё боқий. Ғафур Ғулом номидаги “Адабиёт ва санъат” нашриёти. Тошкент-1988.



ОДИЛ ИКРОМНИНГ ТАРЖИМОНЛИК ФАОЛИЯТИГА ҚИСҚАЧА ЧИЗГИЛАР

Бахтиёр ФАЙЗУЛЛОЕВ, академик Бобожон Ғафуров номидаги
Хўжанд давлат университети доценти, филология фанлари номзоди,
Хўжанд, Тожикистон

Тел: (+992) 92 703 66 61. Эл.почта: b.fayz.1961@mail.ru

Аннотация. Мақолада мустақилликдан кейин тожик адабиёти намуналаридан ўзбек тилига қилинган таржималар ҳақида фикр юритилган.

Таянч сўз ва иборалар: аслият, таржима, таржимон, эркин таржима, ижодий таржима, шакл ва мазмун бирлиги, матн, талқин, антология.

Аннотация. В статье представлена информация о новых переводах таджикской литературы на узбекский язык после обретения независимости.

Ключевые слова и выражения: оригинал, перевод, переводчик, вольный перевод, единство формы и содержания, текст, антология.

Annotation. The article provides information on new translation of tajik literature into uzbek in post – independence Tajikistan.

Key words and phrases: original, translation, translator, free translation, creative translation, unity of form and meaning, text, emulate, anthology.

Ҳар бир халқнинг адабиёти ривожда адабий алоқалар муҳим ўрин тутди. Буни тожик ва ўзбек халқлари томонидан яратилган адабиёт намуналари мисолида ҳам кузатиш мумкин. Адабий алоқалар турли кўринишларда намоён бўлади. Шулардан бири–таржимачилиқдир. Унда бир халқ вакиллари томонидан яратилган асарлар бошқа миллат адабиётига таржима воситасида етиб боради ва уларнинг ҳам маънавий мулкига айланади.

XX аср ўзбек адабиёти вакилларидан Чўлпон, Усмон Носир, Абдулла Қаҳҳор, Ғафур Ғулом, Ойбек ва Мақсуд Шайхзода, Ҳамид Олимжон, Миртемир, Эркин Воҳидов ва Абдулла Орипов, Жамол Камол ҳамда Мирза Кенжабек каби ижодкорларнинг таржима масаласига алоҳида эътибор қаратишлари шунчаки тасоддиф эмас эди. Аслида адабиётимизда таржима-чилик узоқ тарихга эга. Буни қардош ва жаҳон халқлари адабиётидан ўзбек тилига қилинган таржималар мисолида кузатиш мумкин. Таржима асарлар туфайли ўзбек адабиётининг олтин хазинаси янги бадиий мукамал асарлар ҳисобига бойиб борганлиги барчага маълум ҳақиқат. Шу билан бирга, таржималар ҳар қандай таржимон учун ҳам муҳим маҳорат мактаби ҳисобланади. Кейинги йилларда бундай анъанани биргина серқирра истеъдод

соҳибби-ҳассос шоир, адабиётшунос олим, сермахсул ижодкор Жамол Камолнинг таржимонлик фаолияти мисолида ҳам кузатиш ўринли-дир. Унинг ўзи бир нечта таржимон қилиши мумкин бўлган катта миқёсдаги таржима ишларини амалга ошира олганлигини зукко адабиётшунос Эргаш Очилов ўз кузатишларида ўринли қайд этади.¹ Дарҳақиқат, Жамол Камол 30 га яқин асар ва 20дан ортиқ шоир шеърларини форс – тожик тилидан ўзбекчалаштириб, китобхонларга тақдим этганлиги истиқлол даври адабий ҳаётида ўзига хос ҳодиса ҳисобланади.

Мустақиллик туфайли ўзбек адабиёти ҳам янги тараққиёт йўлига қадам қўйди. Барча соҳаларида бўлган янгиланиш ҳамда ислохотлар таржима-чиликда ҳам муҳим ютуқларни қўлга киритишга имкон яратди. Буни Тожикистонда яшаб ўзбек тилида самарали фаолият олиб бораётган бир қатор ўзбек шоир ҳамда адибларнинг яратаётган асарлари бунга мисол бўла олади. Хусусан, кейинги йилларда “Ҳамоҳанг кўнгишлар”² шеърӣ тўпламининг юзага келиши узоқ тарихга эга бўлган ўзбек ва тожик адабий алоқалари тараққиётига янги саҳифа бўлиб қўшилди. Мазкур шеърӣ тўпламда Мирзо Турсунзодадан бошлаб – Низом Қосимгача, Лоик Шералидан – Фарзонагача, Гулназар Келдидан – Аҳмаджон Раҳматзодгача бўлган жами 19 та замонавий тожик адабиёти вакилларининг ижодидан танлаб олинган энг сара шеърӣ намуналар ўзбек китобхонларига тақдим қилинганлигини алоҳида таъкидлашимиз жоиз.

“Ҳамоҳанг кўнгишлар”даги таржималар тожикистонлик ўзбек шоир-лари Ўлмас Жамол, Султонмурод Ҳожибоев, Шариф Нуриддин, Жамшид Примов, Авлиёхон Эшон, Эгамназар Соҳибназаров, Абдували Бекмуҳаммад, Дилмурод Ҳожимуродов, Содик Ҳожимурод, Ёқубжон Очиловлар томонидан амалга оширилган. Шунингдек, унда икки қардош халқнинг севимли шоирларига айланган Сирожиддин Саййид ҳамда Асқар Маҳкамнинг устод Лоик Шерали ижодидан ўзбек тилига қилган таржималари ҳам мазкур нашрнинг мундарижасига янада мукамаллик касб этган.

“Ҳамоҳанг кўнгишлар”даги бадиий таржималар сифати ҳамда бадиияти нуқтаи назардан бир – биридан фарқ қилиши,

1. Очилов Э. Жамол Камолнинг таржимонлик маҳорати // ЎТА, 2009, 4-сон. 26 бет.

2. Ҳамоҳанг кўнгишлар. Шеърӣят, Таржималар. – Хужанд: “Мероҷ”, 2018. 240 бет.

шубҳасиз. Уларнинг ютуқлари билан бирга меъёрига етмаган ўринлар ҳам кўзга ташланадики, улар алоҳида таҳлилий мақолаларга мавзу бўлади, албатта.

Мазкур тўпламда Лоиқ Шерали ижодига бошқа шоирларга караганда кенгроқ ўрин ажратилган. Лоиқ шеърларини ўзбек тилида худди аслиятда-гидек жаранглашида таржимонларнинг меҳнати катта эканлигини эътироф этиш адолатдандир. XX аср тожик шеърлятида том маънодаги севимли шоирга айланган, замонавий тожик шеърлятида мисли кўрилмаган инқилоб яратган Лоиқ асарлари таржимасига кўл урган ҳар қандай таржимон учун у чинакам маҳорат мактаби ҳисобланади. Фикримизча, Лоиқ асарлари таржимасига киришган мутаржим биринчи навбатда тожик тилини мукамал билиши билан бирга, Шарқ мумтоз адабиётида шеърлят тили бўлган форс-тожик тилининг бутун жозибасини ҳис эта олиши билан бирга Лоиқ шеърляти сув ичган маънавий булоқлардан ҳам етарли даражада хабардор бўлиши қилинган таржиманинг янада мукамаллигини таъминлайди.

Истьдодли шоир ва моҳир таржимон Асқар Маҳкамнинг устоз Лоиқ хотирасига бағишланган рисоласидаги қуйидаги фикрлари эътиборга лойиқ:

“У (Лоиқ Шерали-Б.Ф.) форс шеърлятининг сўнгги шоири эди, гўё. Кейин устоз мақомига кўтарилди. Лоиқ *шогирдлик* ёки *муридликни* сидки дилдан ўтади. Хожа Ҳофиз даргоҳида *муридлик* қилди. Шайх Саъдийга *таҳорат суви* берди, буюк Мавлавийнинг *остонасин* супурди...”.³ Албатта, бу эътирофда устоз шоирга нисбатан шарқона чуқур эҳтиром ҳиси акс этган.

Маълум бўладики, Лоиқ шеърляти билан тиллашмоқчи бўлган таржимон етарлича ижодий тажрибага, юксак шоирлик ҳамда таржимонлик маҳоратига эга бўлиши билан бирга “*сўз сеҳиргари*” деган номга лоиқ бўлган Ҳофиз Шерозий даҳосидан хабардор бўлиши, Шарқда ахлоқ отаси мақомига эга бўлган Шайх Саъдийнинг панду ўғитларидан баҳраманд бўлган бўлиши, Паҳлавий тилда “Қуръон”,- деган юксак номга лойиқ бўлган Жалолоддин Румийнинг маснавийлари руҳида камолга етган бўлиши лозим. Чунки бу бебаҳо чашмаларидан Лоиқ шеърляти

3. Асқар Маҳкам Оқ китоб. – Душанбе: “Ирфон”, 2008. 392 – бет.

доимо сув ичгани аниқ. Шоирнинг қуйидаги мисралари бунга гувоҳлик беради:

*Мен дўстлар кўнглига баҳор келтирдим
Ошиқлар дилига хумор келтирдим.
Ҳижрон даштларида йўқолганлардан
Салому хушxabар, ёдгор келтирдим.*

*Эй кўз ёш, йўлимнинг соф булоғи бўл,
Эй нола, умримнинг хуш сўроғи бўл.
Кексайган чоғимда асо бўл, қалам,
Эй шеър, тобутимнинг қўнғироғи бўл...⁴*

Бундай бадий мукамал намуналарини тўпламдаги бошқа шоирлар таржималарида ҳам кузатиш мумкин.

Кейинги йилларда тожик ва ўзбек таржималари борасида амалга оширилган салмоқли ишлардан яна бири “Замонавий тожик шеърияти антологияси”⁵нинг яратилиши бўлди. Ундаги таржималар истеъдодли шоир ҳамда зукко таржимон Одил Икром томонидан амалга оширилган. Антологиянинг муҳим жиҳати шундаки, унда Садриддин Айнийдан Лоиқ Шералигача, Фарзонадан Нурали Нурзодгача бўлган жами 60 нафар замонавий тожик шоирлари ижодидан шеърий намуналар таржима қилиниб, ўзбек ўқувчиларига тақдим қилинганлиги шу даврга қадар бу борадаги мавжуд маънавий бўшлиқни тўлдиролди деб бемалол айтиш мумкин. Антологияда берилган икки шеърий таржима хусусида қисқача фикр юритишга ҳаракат қилиб кўрамиз. Биринчи шеър Лоиқ Шерали ижодидан бўлса, иккинчиси эса, Тожикистон халқ шоир Аҳмаджон Раҳмадзод шеърларининг Одил Икром таржимасидаги бадий талқинидир.

Демак, Лоиқ асарлари билан тиллашмоқчи бўлган таржимон етарлича назарий билимга, ижодий тажрибага, шоирлик ва таржимонлик маҳоратига эга бўлиши билан бирга, юқорида номлари юксак эҳтиром билан тилга олинган форс -тожик мумтоз шоирлар ижодидан ҳам етарлича маълумотга эга бўлишига ишора қилинган. Яхшиси, Лойиқнинг ўзбек тилига Одил Икром томондан маҳорат билан таржима қилинган қуйидаги “Бу ёмғирли тунда...” шеърини кузатиш мақсадга мувофиқдир:

*Бу ёмғирли тунда, маҳзун кечада
Онам кулбасини ўйладим бир зум.*

4. Сирождин Сайид. Ватан абадий. Шеърлар. -Тошкент: “Шарақ”, 2001.250-бет.

5. Замонавий тожик шеърияти антологияси. (Тузувчи ва таржимон- Одил Икром) – Хужанд: “Ношир”, 2017. 336 бет.

*Унинг чакка ўтган томини эслаб,
Дилимда бир дунё йиғлади юм-юм.*

*Балки, рўза тутиб Рамазон ойи,
Қилмаган гуноҳин оқлаётгандир.*

*Ифтор чоғи шифтдан томган чаккалар,
Балки қулогига ёқмаётгандир.*

*Эски жойнамозда ўтириб, балки,
Юракдан Худони ўйлайди ҳамон.
Балки наст овозда Парвардигордан
Сўраб ўтиргандир жаннатдан макон...*

*Бир вақт қувноқ эди мунгайган онам,
Узун сочлари ҳам тим қора эди.
Сочидан таралган қатиқнинг ҳиди
Бир хазина эди, бир чора эди.*

*Енгини шимариб тирсакка довур,
Минг битта тадбирни ўйлаб топарди.
Гўё, у тақдирнинг қаттиқ қўлидан
Бизнинг ризқимизни юлқиб оларди...*

Онагинам!

Менинг жаннати онам!

Жойинг жаннатлиги гарчанд тайиндир.

Лекин, томдан чакка ўтган бу кунлар,

Билмайман, негандир, жуда гамгиндир...

Ушбу шеърда онаизорнинг кулбаси, унинг чакка ўтган томи, шунингдек, рамазон ойи, унда тутилган рўза, Яратганга қилинаётган ҳар тунги ибодатлар, онанинг пажмурда қиёфаси бир пайтлар узун бўлган тим қора сочлари ва улардан таралган қатиқнинг ҳиди, тирсакка довур шимарилган енг каби бир-биридан табиий, ҳаётӣ, миллийлик акс этиб турган тимсолу ташбеҳлар ҳамда бетакрор бадий деталлар устод Лойиқ шеъриятида бадииятга қандай нақшланган бўлса, Одил Икром таржимасида ҳам шу ҳолатда мисраларга нақши нигор бўла олганлиги билан шеърхон қалбига яқин ва кадрлидир. Бундай тасвирлар ҳар бир шеър ихлосмандини ўзига таниш ва кадрдон бўлган дунё сари етаклайди. Энг муҳими, шеър-хонда кадрдон зот бўлган Онаи зорни қўмсаш ҳиссини юзага келтиради.

Антологиядаги ҳар битта таржимада ўзига хос жўшқинлик ва чуқур самимияти билан беихтиёр шеърхон қалбига кўчади. Буни шоир Аҳмаджон Раҳмадзоднинг “Онам бор эди...” шеърдаги қуйидаги мисралар мисолида шеърхонда ўзига хос бадий-эстетик завқ беради: *Ман кунун ёд оварам рўи варо,*

*Чўям аз деворҳо мўи варо.
Сар гузорам ёди зонуи варо,
Чун хуморӣ мешавам бўи варо...
Хилқатам, нуру сафоям модарам буд!*

Бу мисралар ўзбек тилида шундай жаранглайди:

*...Мен энди эслайман унинг сиймосин,
Девор ёригидан излайман сочин,
Тиззасин ёдига бош қўйиб сокин,
Ҳидини қўмсайман, асрайман ёдин...
Ул ёруғ талъатим, Онам бор эди...*

Ёки *Сурати ман, сирати ман буд ў,
Сарвати ман, савлати ман буд ў,
Байту шеърам, шуҳрати ман буд ў,
Шавкати ман, давлати ман буд ў,
Маъбади ман буд, худоям модарам буд!* мисраларнинг

ўзбек тилидаги қуйидаги талқинига назар ташлайлик:

*Сувратим эди у, сийратим эди,
Сарватим эди у, савлатим эди,
Шеърим, байтим, шоним, шуҳратим эди,
Шавкатим эди у, давлатим эди,
Оллоҳим, маъбадим, Онам бор эди!...*

Шеърхонни фикрий ҳайратига сабаб бўлган соч билан боғлиқ анъа-навий мазмундаги биргина *бадий топилма* - *яъни, бадий детал* шоир ниятини янада таъсирчан бўлишига қаратилган. Таржимадаги табиийлик, айниса, ўзбек ва тожик оналаригагина хос бўлган миллийлик тасвири ҳамда шеъринг мисраларга ўзигача зеб бериб турган *нидо, ички қофия, ҳожиб ва радиф, ташбеҳ, тарсеъ, такрор, таъдид* каби бадий санъатлар Одил Икромнинг таржимонлик маҳоратидан гувоҳлик беради.

Аслида ҳар қандай асар таржима жараёнида янгиланади. Бу янгиланиш таржимоннинг билими, ҳаётинг тажрибалари, бадий маҳорати ва таржима қилаётган асарининг муаллиф руҳий оламига қай даражада яқинлиги билан боғлиқ. Одил Икром таржималарига ҳам айнан шу нуқтаи назардан ёндошилса мақсадга мувофиқ бўлади. Ўзбек китобхони Аҳмаджон Раҳматзод шеърларининг ўзбек тилида жарангидан баҳраманд бўлиб, уларнинг шунчаки қофиябозликдан, сохта чақириқлардан узоқ бўлган бадииятнинг бетакрор ўзига хос намуналари эканлигига ишонч ҳосил қилиш мумкин. Умуман олганда, Одил Икромнинг таржимонлик фаолияти ўзининг қуйидаги хусусиятлари билан ажралиб туради:

1. Мустақлик даврига қадар ҳам тожик адабиётида кўплаб бадий асарлар ўзбек тилига маҳорат билан ўтирилган. Одил Икром бу анъаналарни давом эттириб, яхлит бир кўринишга эга бўлган бир нечта ижодкорларнинг асарларидан намуналарни танлаб, ҳам шаклан ҳам мазмунан мукамал мазмунга эга таржималарини алоҳида қайд этиш мақсадга мувофиқ.

2. Одил Икром таржималаридаги ўзига хосликдан яна бири таржимон томонидан амалга оширилган таржима асарлар таржимоннинг руҳиятига яқинлиги ҳамда ранг-баранг мавзуларда эканлиги билан характерли. Шунингдек, Одил Икром ҳар бир таржимасида оригинал асарнинг мазмунини ўз таржималарида мукамал сақлашга асосий эътибор қаратадики, бу муҳим аҳамиятга эга. Умуман, бадий асарда мазмун асосий ҳал қилувчи мезонлардан бири эканлигига ўз давридаёқ Алишер Навоий ҳам эътибор қаратиб, қуйидаги назарий фикрни олға сурган:

Назмда ҳам асл анга маъний дурур,

Бўлсин анинг сурати ҳар не дурур...

3. Мутаржим Одил Икромнинг таржималаридаги яна бир ўзига хослик кўзга ташланадики, таржимоннинг Сўзга муносабати, сўздан маҳорат билан фойдалана олиш тажрибасига эга экани юқорида келтирилган шеърларида ҳам намоён бўлган.

Одил Икромнинг кейинги йилларда таржима борасида самарали фаолият олиб бораётгани алоҳида диққатга лойиқ. Жумладан, Жалолиддин Румий-нинг муаззам асари “Маънавий маснавий” таржимасига устоз таржимон-лардан кейин журъат этганлиги унинг таржимон сифатидаги камолотидан дарак беради. Унинг форс-тожик адабиётидан ўзбек тилига қилган таржималари Тожикистон Республикаси мутақиллигининг 31 йиллиги тантаналари кунда Республика Президенти Эмомали Раҳмон томонидан муносиб тақдирланиб, унга Абу Абдуллоҳ Рудакий номидаги Давлат мукофотини берилиши маънавий ҳаётдаги муҳим воқеалардан бири бўлди. Ишонч билан айтиш мумкинки, Одил Икром шеърляти унинг таржимонлик маҳорати келгусида амалга ошириладиган илмий-тадқиқот ишларига мавзу бўлишга арзийди.

Хуллас, ўзининг узоқ асрлик тарихига эга бўлган ўзбек ва тожик адабий алоқалари истиқлолдан сўнг кундан-кун жонланиб бораётгани икки қардош халқ адабиётининг нурли истиқболидан шаҳодат беради. Бундай эзгу мақсад йўлида

амалга оширилаётган таржима асарларининг адабиётимиз ривожигаги ўрни беқиёс эканлигини назардан қочирмаслигимиз зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ҳамоҳанг кўнгиллар. Шеърят, Таржималар. – Хужанд:”Мероҷ”, 2018.
2. Замонавий тожик шеърятини антологияси. Тузувчи ва таржимон Одил Икром) –Хужанд: “Ношир”, 2017.
3. Очилов Э. Жамол Камолнинг таржимонлик маҳорати //ЎТА,2009,4-сон.
4. Асқар Маҳкам. Оқ китоб. – Душанбе: “Ирфон”, 2008.
5. Сирожиддин Саййид. Ватан абадий. Шеърлар. Тошкент: “Шарқ”, 2001.
6. Жалолиддин Румий Маънавий маснавий. Биринчи китоб (Форсийдан Одил Икром таржимаси) – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2021.



АЛИШЕР НАВОЙНИНГ ТАРЖИМОНЛИК МАҲОРАТИ

Filol.f.n. **Ergash OCHILOV**, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, Toshkent,
O‘zbekiston

Тел: +998946204764; E-mail: e-ochilov@mail.ru.

АННОТАЦИЯ. Мақолада Алишер Навоийнинг таржимон сифатидаги фаолияти тўғрисида фикр юритилиб, унинг қаламига мансуб таржималар эркинлик ва ижодийликнинг ажойиб тарздаги омухтаси эканлиги жиҳатидан ҳам таржима, ҳам оригинал асар мақомига эгаллиги кўрсатиб берилди.

Калит сўзлар: таржима, оригинал, тазкира, рубой, эркин таржима, ижодий таржима, маҳорат.

АННОТАЦИЯ. В статье размышляет о деятельности Алишера Навои как переводчика и показывается, что написанные им переводы имеют статус как переводов, так и оригинальных произведений, поскольку являются прекрасным примером свободы и творчества.

Ключевые слова: перевод, оригинал, тазкира, рубаи, вольный перевод, творческий перевод, мастерство.

ANNOTATION. The article discusses about Alisher Navoi's work as a translator and shows that the translations written by him have the status of both translations and original works, as they are a wonderful example of freedom and creativity.

Key words: translation, original, tazkira, rubai, free translation, creative translation, skill.

Кириш. Серқирра ва сермаҳсул истеъдод соҳиби бўлган Алишер Навоий бадий таржима билан ҳам фаол шуғулланган. У Абдурахмон Жомийнинг одоб-ахлоққа оид қирқ ҳадиснинг назмий талқинидан иборат бўлган “Чиҳил ҳадис” (“Қирқ ҳадис”) асарини “Арбаъин” номи остида ўзбек тилига ўгиради. Дўсти ва устозининг 1476–1478 йилларда ўз даъвати билан ёзилган шайху валийлар ҳаёти ва фаолиятига бағишланган “Нафаҳот-ул-унс мин ҳазарот-ил-қудс” (“Пок зотлар ҳузуридан эсанг дўстликнинг хуш ислари”) тазкирасини туркий тилли ўқувчиларни ҳам баҳраманд қилиш мақсадида “Насойим ул-муҳаббат мин шамоийим ул-футувват” (“Улуғлик хушбўйликларини таратувчи муҳаббат шаббодалари”) номи билан таржима қилади. Унинг “Назм ул-жавохир” (“Шеърий дурдоналар”) асари ҳам Ҳазрат Али ҳикматлари асосида тартиб берилган “Наср ул-лаолий” (“Насрий инжулар”) тўпламидаги ҳикматларнинг шеърий таржимаси асосида яратган рубоийлар мажмуаси ҳисобланади. Яна Фаридиддин Атторнинг “Мантиқ ут-тайр” достонига “таржума расми била” жавоб ўлароқ “Лисон ут-тайр” достонини битади. Бу намуналар сўз салтанати соҳибқиронининг таржимавий мероси ҳам салмоқли ва ранг-баранг эканлигидан далолат берди.

Асосий қисм. Алишер Навоий ўзбек таржима адабиётининг ҳам забардаст намояндаларидан бири ҳисобланади. Жумладан, Абдурахмон Жомий асарлари таржимасини ўз даврида айнан у бошлаб берган эди. У устозининг “Нафаҳот ул-унс” тазкираси ва “Чиҳил ҳадис” асарини маҳорат билан ўзбекчалаштиради.

Муҳаммад алайҳиссаломга нисбат бериладиган ҳадисларнинг бирида: “Кимки менинг суннатимга оид қирқ ҳадисни ёдлаб, умматларимга етказса, қиёмат кунида мен уни шафоатимга лойиқ кишилар сафига киргизаман” [3, 828-ҳадис], – деб таъкидланган. Шунга биноан ҳадисларни халқ ичида тарғиб-ташвиқ қилиш ва шу орқали пайғамбар шафоатига эришиш мақсадида кўплаб муҳаддис ва олимлар қирқ ҳадис жам қилиб, уларни шарҳлаганлар. Чунки Оллоҳ расулининг муборак ҳадисларидан ҳеч бўлмаса қирқтасини ўрганиб, уни бошқаларга ўргатиш бу саодатга эришишнинг кафолати бўлган. Кейинчалик бу савобли ишга шоирлар ҳам қўл урганлар. Жумладан, Абдурахмон Жомий одоб-ахлоққа оид қирқ ҳадисни “Чиҳил ҳадис” (“Қирқ ҳадис”)

номи билан шеърга солади. Алишер Навоий эса устозининг ижозати ва дуосини олиб, уларни “Арбаъин” номи остида ўзбек тилига таржима қилади. Лекин у аслиятга эркин ёндашиб, қитъаларни эркин таржима қилганидан улар бир пайтнинг ўзида ҳам таржима, ҳам оригинал хусусиятига эга бўлган дейиш мумкин. Жомий аксар қитъаларининг биринчи байтини ўзига хос кириш тарзида тузиб, ўқувчини ҳадис моҳиятини тушунишга тайёрласа, Навоий кўпинча биринчи байтда ҳадис мазмунини талқин қилиб, иккинчи байтда Жомий фикрларини умумлаштириб, ривожлантириб ва тўлдириб ифодалайди. Чунончи, “Ал-жаннату тахта ақдома уммаҳотикум” ҳадисининг маъноси “Жаннат оналарнинг оёғи остида” (ёки “Оналарнинг қадами теккан жой жаннатдир”) бўлиб, Жомий қитъаси она хизматидан бўйин товламаслик, унинг ҳурматини жойига қўйиш ҳақидаги фикр билан бошланади ва инсон бошидаги улуғлик тожи оналар оёғининг гардидан ҳосил бўлиши таъкидланади. Шундан кейин она оёғи остида тупроқ бўлишга даъват қилиниб, ҳадиснинг мазмуни келтирилган ҳолда, жаннат оналарнинг оёғи остида эканлиги айтилади:

*Сар зи модар макаш, ки тожи шараф
Гард аз роҳи модарон бошад.
Хок шав бар пои ў, ки биҳишт
Дар қадамҳои модарон бошад [1,132].*

Навоий эса биринчи байтда ҳадис мазмунига урғу бериб, иккинчи байтда Жомий байтига ҳамоҳанг байт яратади. Бундай дейишимизнинг сабаби Жомий “Онанинг оёғи тупроғи бўлки, жаннат оналарнинг оёғи остидадир” деса, Навоий “Жаннат боғи висолини истар эсанг, оналар оёғи тупроғи бўл” дейди. Шу тариқа, “аслият хусусиятларини ҳамда таржима-шарҳ услубини бирлаштириб, ўзининг қитъасини яратади... Навоий қитъаси мазмунидан ўхшаш, аммо ижодий асосида майдонга келган мустақил асарга айланган” [1,132–133].

*Оналарнинг оёғи остидадур
Равзаи жаннату жинон боғи.
Равза боғи висолин истар эсанг,
Бўл онанинг оёғи тупроғи [4,593].*

Алишер Навоий 1476–1478 йилларда ўз даъвати билан ёзилган Абдурахмон Жомийнинг шайху валийлар ҳаёти ва фаолиятига бағишланган “Нафаҳот ул-унс” тазкирасидан туркий

тилли ўқувчиларни ҳам баҳраманд қилиш мақсадида уни туркийлаштиришни ўз олдига мақсад қилиб қўяди. Лекин “арабийга вобаста туркий алфоз”да ёзилган “бу китобни турк тилига таржима қила олғаймуман ва ул дақойиқу мушкилотни равшанроқ алфоз ва очуқроқ адо била ўтқара олғаймуман” [4,91] деган андиша ва тараддудда орадан йигирма йил ўтиб кетади. Ниҳоят, бу катта ва қийин, айна пайтда, хайрли ва шарафли ишни амалга оширади.

Маълумки, ўтмишда таржимага муносабат ҳозирги реалистик таржима принципларидан фарқ қилган: таржима ҳам оригинал ижодга тенг қўрилгани учун таржимонлар аслиятга эркин ёндашганлар – давр талаби, ўқувчилар эҳтиёжи, ўзларининг дид ва қарашлари, эстетик принципларидан келиб чиқиб, унга муайян ўзгартиришлар киритганлар, қисқартирганлар, қўшганлар. Навоий ҳам таржима жараёнида Фаридиддин Атторнинг “Тазкират ул-авлиё”сидан “Нафаҳот ул-унс”да бўлмаган 19 та “кибор машойих” зикрини қўшади. Яна “Ҳинд машойихи” ҳақидаги маълумотлар етарли бўлмаганлиги учун қутб ул-авлиё Шайх Фарид Шакаржанждан тортиб то сўнгги машойихгача бўлган 40 дан ортиқ таржимаи ҳолни илова қилади. Аҳмад Яссавийдан то ўзининг замонигача бўлган турк машойихи “зикрларин ва баъзи ҳолоту сўзларин” имкон борича топиб, дарж этади. Жомийнинг ўзини ҳам киритади, юзга яқин етук замондошларини ҳам шунга лойиқ топади. Бугина эмас. Асарни анча-мунча таҳрир қилади, замон аҳлининг унча эҳтиёжи бўлмаган 60 та таржимаи ҳолни қисқартиради, баъзи ўринларни эса тўлдиради, 214 та шайх ҳаёти ҳақидаги маълумотларни қўшади [6,157–182]. Бу ўзгаришлар натижасида “валоят риёзи муҳаббат шамимиға сабаб” бўлгани учун таржимани “Насойим ул-муҳаббат мин шамойим ул-футувват” (“Улуғлик хушбўйликларини таратувчи муҳаббат шаббодалари”) номи билан зийнатлайди [4,91]. Шу тариқа, “Нафаҳот ул-унс”да 616 та шайх ул-машойих ҳақида маълумот берилган бўлса, “Насойим ул-муҳаббат”да улар сони 770 тага етади.

Ўзбек таржимашунослигида “Насойим ул-муҳаббат” “Нафаҳот ул-унс”га қиёсан ўрганилмаган. Ҳолбуки, бундай тадқиқот ниҳоятда муҳим. Ўшанда асарнинг қанчаси таржимаю қанчаси оригинал эканлиги ойдинлашар ва мутаржимнинг таржима асосида деярли янги асар яратгани ва ҳақли равишда

муаллифлик ҳуқуқига эгаллиги илмий асосланар эди. Бунга Ҳофиз Шерозий ҳақидаги мўъжаз бир мақолача қиёси мисолида ҳам ишонч ҳосил қилиш мумкин:

“Вай лисон ул-ғайб ва таржимон ул-асрор аст. Басо асрори ғайбия ва маонийи ҳақиқия, ки дар қисвати сурат ва либоси мажоз боз намудааст, ҳарчанд ки маълум нест, ки вай дасти иродати пире гирифта ва дар тасаввуф ба яке аз ин тоифа нисбат дуруст карда, аммо суханони вай чунон бар машраби ин тоифа воқеъ шуда, ки ҳеч касро ин иттифоқ наяфтод” [2,753].

Таржимаси: “Алар лисон ул-ғайб ва таржумон ул-асрордурлар. Басо асрори ғайбия ва маонийи ҳақиқияки, сурат қисватида ва мажоз либосида адо қилибдурлар. Агарчи маълум эмаски, алар иродат илики бир пирга бермиш бўлғайлар ва тасаввуф тариқида бу тоифадин бирига нисбат дуруст қилмиш бўлғайлар. Аммо сўзлари андоқ бу тоифа машраби била мувофиқ воқеъ бўлубдурки, ҳеч кишига андоқ иттифоқ тушмайдур” [4,493].

Кўриниб турибдики, ўзгартириш, қисқартириш ва тўлдириш қилинмаган ўринларда таржима аслиятга деярли сўзма-сўз мувофиқ. Лекин Жомийнинг умумий маълумот бериш билан кифоялангани Навоийни қониқтирмайди ва шоир ижодининг мазмун-моҳияти, ўзига хос хусусиятлари, бадиий юксаклиги сабабларини очиб берувчи қуйидаги парчани кўшади – бу Ҳофиз меросига берилган холис ва теран илмий баҳо эканлиги билан муҳим аҳамият касб этади:

“Доғи алфоз латифлиғи ва таркиб покизалиғи ва равонлиғи ва адо салосати ва латофати ва маъно ғариблиғи чошнисидин худ аларни таъриф қилмоқ ҳаёт суйин жонбахшлиққа таъриф қилғондек бўлғай”. Яна бир жумла таржима кетади: “Яке аз азизони силсилаи хожагон, қаддасалоҳу таоло асрораҳум. фармудааст, ки: “Ҳеч девон беҳ аз девони Ҳофиз нест, агар марди сўфий бошад”. “Хожалар, қаддасаллоҳу таоло асрораҳум, силсиласидин азизе дебдурки: “Ҳеч девон Ҳофиз девонидин яхшироқ эмас, агар киши сўфий бўлса”.

Шундан кейин мазкур фикрларни ривожлантирувчи ва тўлдирувчи яна бир таъриф келтирилади:

“Бу фақирға андоқ маълум бўлубдур ва машҳур мундоқдурки, Ҳазрати Мир Қосим, қаддасаллоҳу сирраҳу, аларнинг девонини “Қуръони форсий” дер эмишларки, Каломуллоҳ оёти маонийсидин мамлу ва асрору нукотидин машҳурдир”.

Ниҳоят, мақолачани мутаржим муаллиф сўзлари билан якунлайди: “Ва чун ашъори вай аз он машхуртараст, ки ба эрод эҳтиёж дошта бошад, ложарам инони қалам аз он масруф мегардад. Ва вафоти вай дар санаи иснайн ва тасъина ва сабъимиатин (соли 792) будааст, раҳимахуллоҳу таоло”.

“Чун аларнинг ашъори маорифнигори андин машхуррокдурки, иродға эҳтиёж бўлғай. Ҳар ойина қалам инони андин масруф қилинди, Алар етти юз тўқсон иккида оламдин ўтубдурлар”.

Маълум бўладики, “Нафаҳот ул-унс”даги Ҳофиз ҳақидаги маълумотлар Жомийнинг ўзигагина тегишли бўлса, “Насойим ул-муҳаббат”даги фикрлар ҳам Жомийга, ҳам Навоийга тегишли – Навоий уни шоир ижодини характерлайдиган баҳо-хулосалар билан бойитган. Бундай фикрни барча таржимаи ҳоллар ҳақида айтиш мумкин. Жумладан, Низомий ҳақидаги маълумотларни тўла таржима қилиб, фақат охириги абзацни у агар қирқ арбаъин чиқармаганида “Хамса”дай мўъжиза даражасидаги муаззам асарни яратолмаслиги ҳақидаги фикру хулосалари билан бойитиб таржима қилади:

“Таърихи итмоми “Искандарнома”, ки охири китобҳои вай аст, санаи иснайн ва тисъинава хамсимиатин (соли 592) будааст, ки умри вай дар он вақт аз шаст гузашта буда, раҳимахуллоҳуу субҳонаҳу” [2,748].

Мазмуни: “Унинг сўнгги китобларидан бўлган “Искандарнома”нинг ёзилиши санаси иснайн ва тисъинава хамсимиатин (592) бўлиб, бу фурсатда унинг ёши олтмишдан ошган эди, раҳимахуллоҳуу субҳонаҳу”.

Алишер Навоий таржимаси: «Искандарнома» тарихики, аларнинг китобларининг охиридур, беш юз тўқсон иккида экандур. Машхур мундоқдурки, алар сулук айёмида қирқ арбаъин чиқарибдурлар ва тўрт арбаъинни бир дарахт устида чиқарибдурлар. Ҳар ойина бу навъ муфрит риёзатлар тортмағунча бу навъ беш ганжки, аларға насиб бўлубдурки, кўп абъети алфоз жазолатидин ва маъною таркиб салосатидин деса бўлурки, эъжоз сарҳадига етибдур, кишининг илкига кирмак имкон эмас ва умрлари олтмишдин ўтган экандур, валлоҳу аълам» [4, 485].

Мутаржим аслиятдаги биринчи гапни арабча жумлани қисқартирган ҳолда тўла таржима қилади. Шундан кейин ўзининг қирқ арбаъин чиқармағунча бадиият дурдонаси бўлмиш бундай

асарни яролмаслиги ҳақидаги фикрини келтириб, кейин иккинчи гапни таржима қилиб кетади.

Таржимага оригинал асар ва ижодий иш деб қаралган ўтмиш таржима амалиётида бу одатий ҳодиса. Биз ижодийлик ва эркинлик омухтаси бўлган бундай таржима усулини деярли барча ўтмиш таржимонларида кўрамиз.

Ҳаким Саной, Фаридиддин Аттор, Фахриддин Ироқий, Хоқоний Ширвоний ҳақидаги мақолачаларнинг ҳам ўзи муҳим деб ҳисобламаган катта-катта қисмларини таржима жараёнида қисқартириб кетади. Ҳасан Дехлавий ижодидан келтирилган икки рубоидан бирини тушириб қолдиради ва ҳоказо.

Ўша давр адабий тилида форс ва араб сўзлари фаол истеъмолда бўлгани учунми, Навоий таржималари деярли сўзма-сўз аслиятга мувофиқ чиқади. Масалан: “Аз афозили сўфия буд” [2,738] – “Сўфиянинг афозилидин эрмиш” [4,475]. Ёки: “Аз улум баҳраи тамом дошта ва аз одоб насиби комил” [2,738] – “Улумдин тамом баҳраси бор эрмиш ва одобдин комил насиби” [4,475]. Бундай иборалар ўша давр ўқувчиси учун тушунарли бўлган. Ҳозирги тилга эса Саъдий таърифидаги бу ибораларни “Тасаввуф тариқатининг етук намояндаларидан бири эди” ва “барча фанлардан хабардор ва гўзал ахлоқ соҳиби эди” тарзида таржима қилган бўлар эдик.

Келтирилган мисоллар таҳлили Навоийнинг Жомий асарига бир пайтнинг ўзида ҳам эркин, ҳам ижодий муносабатда бўлганлигини кўрсатади: эркинлиги – таржимага оригинал асар каби муносабатда бўлиб, кўплаб ўзгаришлар қилганида бўлса, ижодийлиги – устози фикрларини аслига мувофиқ таржима қилганида.

Алишер Навоийнинг “Назм ул-жавоҳир” (“Шеърӣ дурдоналар”) асари ҳам Ҳазрат Али ҳикматлари асосида тартиб берилган “Наср ул-лаолий” (“Насрий инжулар”) тўпламидаги ҳикматларнинг шеърӣ таржимаси асосида яратган рубоийлар мажмуаси (1485) ҳисобланади [4,30–86].

Ҳазрат Алининг ҳикматли сўзлари дастлаб араб тилида “Каломи амир ал-мўминин Али” номи билан жамланган. Кейин Амр ибн Баҳр ал-Жоҳиз (вафоти – 868\70) уларни саралаб, “Мухтасар ҳикматлар” мажмуасини тузган. Шариф ар-Розий эса (X аср) Ҳазрат Али ҳикматларини “Наҳж ул-балоғат” (“Балоғат йўли”) номи билан яхлит ҳолга келтиради – ундан 498 та ҳикмат

ўрин олган. Рашидиддин Ватвот Ал-Жоҳиз тўпламини “Наср ул-лаолий” ёки “Сад калима” (“Юз калима”) номи билан форс тилига таржима қилади – унда ҳикматларнинг аслияти, форсий таржимаси ва назмий талқини келтирилган.

“Наср ул-лаолий” асосида кўплаб асарлар яратилган. Улар орасида “Назм ул-жавоҳир” ўзига хос тузилиши, мазмун-мундарижасининг кенг ва ранг-баранглиги, бадий мукамаллиги билан ажралиб туради. Алишер Навоий Ал-Жоҳиз тўпамидан 268 та ҳикматни танлаб олиб, рубоий шаклида шеърга солади. Албатта, у Рашидиддин Ватвот мажмуасидан ҳам таъсирланган. Форсийда шеърга солинган бу ҳикматларни мен ҳам туркий тилда назм риштасига тизиб, туркий халқларни баҳраманд этсам деган орзуим бор, дейди унинг ўзи бу ҳақда асар муқаддимасида.

“Назм ул-жавоҳир”нинг яратилишига 3 сабаб кўрсатилади: биринчиси – Ҳазрат Алининг дурдона ҳикматларини шеърга солиш анъанасини давом эттириш ҳаваси, иккинчиси – Ҳусайн Бойқаронинг ўзи ҳақидаги “Рисола”сига жавобан муносиб туҳфа ҳозирлаш нияти, учинчиси – Балхда Ҳазрат Али қабрининг қайта топилиши (1481–82) ва уни бориб таҳқиқ қилиш муносабати билан Ҳазрат Али шахсига азалдан ҳурмати ва ихлоси баланд бўлган Алишер Навоийнинг унинг ҳикматларига қизиқишининг ортиши. Бу сабабларнинг бири унда ният туғдирган, иккинчиси илҳом берган, учинчиси туртки бўлган.

“Назм ул-жавоҳир” 2 қисмдан иборат: муқаддима ва рубоийлар. Муқаддимада Оллоҳ ҳамди, Муҳаммад а.с. наъти, чорёрлар таърифи келтирилиб, сўз ва унинг мартабалари – аъло (юксак), авсат (ўрта) ва адно (тубан) ва хусусиятлари, асарнинг ёзилиш сабаби ва вақти кўрсатилган. Фикрларининг ифодаси ва тасдиғи учун шоир муқаддимада 30 та рубоий келтирган. Бинобарин, “Назм ул-жавоҳир” 298 та рубоийдан иборат. Диққатга сазовор жиҳати шундаки, бу рубоийларнинг барчаси ҳар тўртала мисраси ўзаро қофияланадиган таронаи рубоийдир. Алишер Навоийнинг ўзи бундай рубоийларни рубоия деб атайд.

Албатта, Алишер Навоий Ҳазрат Али ҳикматлари орасидан ислом динининг инсонпарварлик ғоялари инъикоси бўлган ва тасаввуф таълимотининг маънавий камолот масалалари билан боғлиқ жиҳатларига уйғун, айна пайтда ўзининг ижтимоий-фалсафий, маънавий-ахлоқий қарашларига мос намуналарни

танлаб олиб, уларда илгари сурилган фикрларни давом эттирган ва ривожлантирган. Бу рубоийлар асосан тасаввуфий руҳда бўлиб, уларда инсон тарбияси асосий мақсад қилиб олингани бежиз эмас. Ҳазрат Али ҳикматлари Алишер Навоий қалами қудрати билан янада теранлашиб, уларнинг янги қирралари кашф этилган, ривожлантирилган, умуминсоний ғоялар билан бойитилган, бадий юксакликка кўтарилиб, янги ва ўзига хос мазмун-моҳият касб этиб, ҳар бири мустақил асарга айланган. Алишер Навоий назмга солиш билан бу ҳикматларга иккинчи ҳаёт бағишлаган.

Бу рубоийлар Ҳазрат Али ҳикматларининг кенгайтирилган таржимаси ёки шеърӣ изоҳигина эмас, балки улар асосида яратилган оригинал асарлардир. Чунки Алишер Навоий Ҳазрат Али ҳикматларини дастлаб бир-икки мисрада шарҳлаб, кейин уларнинг янги қирраларини очади, шу мавзудаги ўзининг фикру қарашлари билан бойитади ёки аввал ўзининг айна мавзудаги мулоҳазаларини баён қилиб, уларни Ҳазрат Али ҳикматлари билан тасдиқлайди, қувватлайди, ривожлантиради. Масалан, қуйидаги рубоий “Яъс ул-қалби роҳат ун нафси” – “Қалб маъюслиги – жон роҳатидир” ҳикмати асосида яратилган бўлиб, бу фикр биринчи мисрада баён қилиниб, кейинги уч мисрада бу фикр ривожлантирилади ва тўлдирилади:

*Истар эсанг осудалиқ иш тажрид эт,
Фақр ичра ўзунгни мойили тафрид эт,
Кўнглунгни замон баҳрасидин навмид эт,
Нафсингга бу ишни соҳиби жовид эт [4,85].*

Тажрид ва тафрид дунёдан узилиш ва одамлардан четлашиш дегани. Бинобарин, рубоийнинг мазмуни қуйидагича: “Агар хотиржам бўлишни истасанг, дунёвий боғлиқликларни тарк эт, фақр йўлига кириб, одамлардан ўзингни хилватга ол, кўнглингни замон ғаму ташвишларидан халос қилиб, буни нафсингнинг доимий машғулотига айлантир”.

Мана бу рубоий эса “Батн ул-маръи адуввуҳу” – “Кишининг қорни душманидир” ҳикматига асосланган бўлиб, шоир бу борадаги фикрларини баён қилиб, ўз мулоҳазаларини айна ҳикмат билан тасдиқлайди:

*Ҳар кимгаки кўп таом емак фандур,
Билгилки, нажосатқа тани маскандур,
Қорнинг била дўст бўлмасанг аҳсандур,*

Невчунки, эр ўзлига қорин душмандур [4,44].

Алишер Навоийнинг Фаридиддин Атторга ихлос-эътиқоди баланд бўлиб, беш ёшида унинг “Мантиқ ут-тайр” достонини ёд олгани, бир умр унинг ижодидан таъсирланиб, ҳаётининг сўнггида унга “таржума расми била” жавоб айтгани – “Лисон ут-тайр” достонини яратгани маълум. Султонмурод Олим бу асарни татаббу-таржима деб баҳолайди. Чунки шоирнинг ўзи бунда “таржума расми била” жавоб айтганини алоҳида таъкидлайди, яъни бу “асарда назиравийлик хусусияти таржимавийлик хусусияти билан уйғунлашиб кетган” [5,18].

Хулоса. Алишер Навоий қаламига мансуб таржималар таҳлили асосида қуйидаги хулосаларга келиш мумкин:

1. Алишер Навоийнинг ўзбек таржима адабиёти ривожига қўшган ҳиссаси ҳам салмоқли ва ранг-барангдир.

2. Алишер Навоий таржимага оригинал асар сифатида муносабатда бўлиб, уларни қисқартирган, ўзгартирган, ҳар бир таржимага ўзидан қўшган – муаллиф ва мутаржимнинг деярли тенг улушдаги меҳнати натижаси ўлароқ эркинлик ва ижодийлик омуктаси бўлган бу таржималар ҳақли равишда ҳам таржима, ҳам оригинал асар мақомига эга.

3. Алишер Навоийнинг таржимага муносабати, таржималарининг аслиятга нисбати, таржима қилиш принциплари, сўз қўллаш маҳоратини ҳар томонлама кенг ва чуқур ўрганиш ўзбек таржимашунослигининг кун тартибида турган муҳим масалалардан ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

[1] Валихўжаев Б. “Арбаъин ҳадис” ва унинг таржималари \ \ Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари. – Т.: Фан, 1993.

[2] Жомий А. Нафаҳот-ул-унс мин ҳазарот-ил-қудс. – Д., 2013.

[3] Муҳаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар. – Т., 1991.

[4] Навоий А. Тўла асарлар тўплами, 10 жилдлик, 10-жилд. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2011.

[5] Олим С. “Мантиқ ут-тайр” ва “Лисон ут-тайр” қиёсига доир \ \ “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2011, № 4-сон.

[6] Рамазонов Н. “Насойим”нинг ўзига хос хусусиятларига доир \ \ Навоийнинг ижод олами. – Т.: Фан, 2001.



ЎЗБЕКИСТОН ВА ГЕРМАНИЯ АДАБИЙ АЛОҚАЛАРИНИНГ ТАРИХИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИГА ДОИР

Ф.ф.н. Содиржон ЯКУБОВ, Тошкент технологиялар университети “Тил ва таълим технологиялари” кафедраси мудири, доцент, Тошкент, Ўзбекистон

Аннотация. Гётенинг ижоди кўпроқ маърифатпарлик даври адиблари ижодига ўхшаб кетса-да, лекин унинг Веймардаги ижодий фаолияти натижалари ва айниқса бетакрор «Фауст» асарининг яратилиши «маърифатпарварлар»нинг ижодидан фарқли ўларок, кескин бурилиш ясайди.

Калит сўзлар: Гёте, Шиллер, немис адабиёти

Аннотация. Хотя творчество Гете больше похоже на творчество писателей эпохи Просвещения, результаты его творческой деятельности в Веймаре и особенно создание уникального «Фауста» делают резкий поворот в отличие от творчества «Просвещения».

Ключевые слова: Гете, Шиллер, немецкая литература.

Abstract. Although Goethe's work is more similar to the work of the writers of the Enlightenment period, the results of his creative activity in Weimar and especially the creation of the unique “Faust” make a sharp turn in contrast to the work of the “enlightenment”.

Keywords: Goethe, Schiller, German literature

1770-1780 йилларда немис адабиёти ривожда янги давр бошланади. Бу даврда европаликлар ёш адиблар Гете ва Шиллер ижодидан, шунингдек Гердер, Ленц, Клиггер, Шубарт, Бюргер, Фосса каби ёзувчиларнинг еткази асарларидан бахраманд бўладилар. Бу даврда немис адабиёти ўзининг бадиийлиги, ижтимоийлиги, тарихийлиги билан анча юқорига кўтарилдики, ҳеч қайси бир мамлакатда, қисқа бир даврда феодал тузумини чок-чокигача барча иллатларини фош эта оладиган, ҳукмдорларнинг зулмини танқид қилган адабиёт бунчалик тез ривожланмаган эди.

Бу даврда етакчи адиблар ва йирик санъаткорлар, яъни буюк истеъдод эгалари - штюрмерлардан ташкил топган «**Бўрон ва тазъийк**» («Бури и натиска» - Sturm und Drang) ҳаракати вужудга келади. Ҳаракат аъзолари аввало маърифатпарварлик ғояларини илгари суришни давом эттирадилар. Улар Лессинг ўғитларини имкони борича амалда тўлиқ қўллаш мақсадида асосан ижтимоий масалаларни кўтариб чиқишга, камчиликларни танқид қилишга,

инсон онгини яхши томонга ўзгартиришга ва уларни маънавий курашга чорлашга интилишади. Лекин шу билан бирга Лессинг қарашларидан фарқли ўлароқ, «Бўрон ва тазйиқ» ҳаракати ижодкорлари ўз асарларида қаҳрамон образларини – масалан, Вертер, Гец, Карл Моор, Фиеско кабиларни, яъни, аввало ўзига хос феъл-атворга (характерга) эга, ҳиссиётларга берилувчан, пок, ҳаётда ўз ўрнини қидираётган онгли, ақл-мулоҳазали, зиёли шахс, билимли, маънан етилаётган типик инсон образини ва нима учун уларнинг исёнга берилиши сабабларини ифодалашга интилишади.

Иоганн Вольфганг Гетенинг **1770 йиллардаги ижоди** ёш адибга хос бироз қизиққон, ҳиссиётга берилувчан, лекин пок, соғлом, кучга тўлган йигитнинг дастлабки қадами эди. У «Бўрон ва тазйиқ» ҳаракатининг энг фаол аъзоларидан бири эди. Ёшлик даврида Гете лирик шеърлар, **«Гец фон Берлинхинген»** драмасини, **«Ёш Вертернинг изтироблари»** («Страдания молодого Вертера») романини ёзади. Бу асарларида унинг исён туйғусидаги замонавий қаҳрамонларининг ички кечинмаларини, курашини жуда чиройли тарзда, катта бир маҳорат билан тавсирлайди.

Ёш Гете бир неча тарихий тўқнашувлар оқибатига гувоҳ бўлганидан сўнг, у исёний ғоялардан «чекинади», қуролли кучга эга, расман ҳукумат мақомини олган феодал тузумига қарши кураш бефойда эканини ҳис қилади. Чунки, адиб маъносиз жангу жадаллар, бекорчи қон тўкилишларга қарши эди. Лекин, унинг ижод маҳсули - асарлари қаҳрамонлари – **Гец, Прометей ва Фауст** кабилар ўзининг прогрессив ғоялари билан адолатсизликка қарши бош кўтаради.

Гете жамиятда рўй бераётган ноҳақликларни кўрганда ва бу воқеаларга ёш шоир назари билан қараганда изтироб чекади, ёш қони жўш уриб, дардини қоғозга туширишга интилади. Лекин, отасининг тазйиқи оқибатида ўзини «босишга», оила шаънига, яқинлари келажагига зарар етказмасликка тиришади, ўша давр зиёлилари қатори ўзини тутишга ҳаракат қилади.

Гете Майна дарёси бўйидаги Франкфурт шаҳрида туғилган. Гете болалигидан жуда яхши таълим олган, бир нечта тилларни, математика, тарих, география, ҳатто мусиқа ва тасвирий санъатни чуқур ўрганади. Лекин Гете ёшлигидан кўпроқ адабиётга меҳр кўяди, у антик давр адиблари – Гомер ва Овидий ҳамда XVI аср

немис халқ қаҳрамонлари - Тил Эйленшпигел, Гўзал Мелузин ва шильдбюргерлар ҳақидаги эртак ва афсоналардан тортиб, замонавий Европа адибларининг асарларигача барча-барчасини севиб-севиб ўқийди. Ва ана шу адабиётлар таъсирида унинг эстетик қарашлари шаклланади. 1765 йилда Гёте Лейпциг университети ҳуқуқшунослик факультетига ўқишга киради.

1767 йилларда Гёте «Янги кўшиқлар» («Новые песни» - Neue Lieder) номли «Аннетта» туркумидаги шеърлари тўпламини нашр эттиради. Бу китоб ёш шоирнинг А.Шенкопфга бўлган муҳаббати ҳақида бўлиб, бу туркум янгича шакл, ўзига хос услуб ҳамда янги замон нафаси сезилиб турган шеърлардан иборат эди. Гётенинг шеърлари - қадимги мумтоз назмдаги муҳаббат ҳақидаги дабдабали, ўйлаб топилган тўқима сўзлардан иборат шеърлардан фарқли ўлароқ, ҳақиқатдан ҳам мавжуд ёш йигитнинг самимий ҳис-туйғулари, чин дилдан севиши ва армонлари ҳақида эди. Муаллиф севги-муҳаббат бобида қандай кечинмаларни ҳис қилса, худди шу ҳақда ёзишга интилади. Масалан, «Гўзал тун» («Прекрасная ночь» - Die schöne Nacht) шеърида ҳозиргина қиз билан висол гаштини сурган, учрашувда рўй берган ҳаяжонли гўзал туйғулардан маст бўлган бахтли йигитнинг тунда, боғда холи қолган вақтидаги кечинмалари зўр маҳорат билан тасвирланган. Йигит боғда топ-тоза ҳаводан тўйиб-тўйиб нафас олар экан, унинг юрагидаги қувонч, шодлик янада ортганига ўзи ҳам ҳайрон бўлади. Табиат кўйнида роҳатланиб турар экан, у яна ва яна шундай ширин ҳиссиётлар такрорланиши учун, қиз билан яна учрашиш истаги борлигини ҳис қилади.

1770 йилда Гёте ўқишни давом эттириш учун Страсбург университетиغا ўтказди. Бу ердаги ўқиш жараёнида у адиб бўлишга тамоман қарор қилади. У ўзида шоир сифатида истеъдоди борлигини, ёзмаса, сўзлардан маъноли асарлар яратиб, ана шу жараёндан завқланмаса, бундай яшашнинг маъноси йўқдек туюлади. Айниқса унинг Гердер билан учрашуви унинг қарорини янада мустаҳкамлайди. Ўзига хос ёзиш услубига, янгича қарашларга эга бўлган, адабиёт назариясини чуқур ўрганган, халқ орасида анча машҳур бўлган адиб - Гердер - Гётенинг ёзувчилик маҳоратини сезади, уни кўпчилик шоирлар каби ўзга адабиётларга тақлид қилмасликни, шу вақтгача ўрганган бор билимига таяниб, адабиётни қандай ҳис қилса

шундай, олдига мақсад қўйиб, ана шу ғояни ифодалаш учун оддий, маъноли ёзишни таклиф этади. Ва бу таклиф Гётени барча иккиланишларидан осон чиқишига ёрдам беради.

«Мен Гердер ёрдамида – деб ёзади кейинчалик Гёте, - адабиётимиздаги барча янги оқимлар ва йўналишлар ҳақида билиб олдим.» Ёш Гёте устоз Гердер таҳлиллари ёрдамида Шекспир билан янада чуқурроқ танишади, пьесаларни оддий услубда таҳлили қилишни ўрганади. Шекспир асар ёзганда ғояларни ифодалаш учун қандай халқчил услублардан моҳирона фойдаланганини тушуниб этади. Шунда Гёте ҳам Лессинг ва Гердер каби немис адабиётида янги йўналиш даври келганини, яъни демократик йўналишда, жамият масаларига бағишланган бадиий асарлар яратиш зарурлигини тушуниб этади.

Навқирон Гётени энди санъатда, яъни театр сахнасида, шунингдек адабиётда шахс образини яратиш, унинг ички кечинмаларини ифодалаш, қахрамоннинг заиф қусурлари бору, лекин унинг кураши ва ватан учун ўзини қурбон қилишини тасвирлаш каби ўй-мулоҳазалар тинч қўймайди. Энди у эскича ифодалаш услубларидан, фақат мақтовлардан иборат адабиётдан, оилавий масалаларни тасвирлайдиган воқеалардан, ҳукмдорларга нисбатан лаганбардорликка асосланган адабиётдан, цензура талабларидан, яъни «маън этилган мавзулардан ташқари ёзиш»дан воз кечади. Гёте асарларида энди штюрмерлар каби руҳан кучли инсонлар, жамиятдаги камчиликларга қарши курашга бел боғлаган қахрамонлар вужудга кела бошлайди.

Гёте - штюрмер сифатида классик адабиётнинг эскича удумларига қарши чиқаркан, ҳукумат билан халқ орасига нифоқ солиш, зиддиятларни кескинлаштириш мақсад эмасди. Унинг асосий мақсади: халқ ва энди шаклланиб келаётган буржуа синфи вакиллари эски тузумнинг қусурларини чуқур билишини, бундай хатоларни такрорламаслигини истарди.

Гёте Шекспир драматургияси ҳақида: «Англия драмаси ва театри антик давр театрига руҳи ва моҳияти жиҳатидан яқинроқ. Халққа «буюк маъбудларнинг хатоларини» кўрсатиб бериш ҳамда «қалблардаги нозик торларни чертиб, ҳаяжонга солиш» йўли билан ижтимоий масалаларни ечишга ҳаракат қилади» деб ёзади.

Гётенинг буюклиги шундаки, у жаҳон мумтоз адабиётини чуқур ўрганган ҳолда, замонавий реалист-ёзувчи сифатида ижоди

қилди. Жаҳон тарихини чуқур ўрганиш, немис маданиятини дунё халқлари маданияти билан солиштириш йўли билан ўрганиш, моҳиятни таҳлил этиш билан ўз истёждодини чархлади. Замонасида рўй бераётган воқеалар унга ана шу қадимий воқеалар оқибати эканини сезиб, у адиб сифатида асарларида объектив баҳо беришга ўрганди. Шунинг учун, унинг асарларидаги қаҳрамонлар шахсий манфаатлари билан ўралашиб қолмасдан, балки ўз қарашлари билан ижтимоий масалаларга муносабат билдиради, ўз позициясини ҳимоя қилади.

Тарихни ўрганиб, хулоса чиқарар экан, адиб ҳар бир давр ўз қаҳрамонларига эга бўлишини тушунади, шунинг учун «ҳозир»дан тарихни ўзгартирадиган эртанги кун қаҳрамонларини тарбиялаш учун интилади.

Асарларида ички дунёси бой кишиларнинг курашга бўлган муносабатлари моҳирлик билан ифодаланган. Яъни объектив воқеаларга нисбатан муносабатлар субъектив туйғуларга боғланиб кетган. Шеърларнинг таъсир доирасини янада ошириш мақсадида муаллиф антик давр қаҳрамонлари ва халқ афсоналири образларидан ҳам фойдаланади. Бу ўқувчига «таниш» бўлган образлар - ғояларнинг моҳиятини англашга ёрдам беради.

Унинг деярли барча шеърларида аввало инсон ва унинг ички кечинмалари биринчи ўринда туради, одам боласи ким бўлишидан қатъий назар, қай синфдан бўлмасин, бойми-камбағалми уларнинг бари ҳис-туйғуларга, ўз фикри, орзу ва хоҳишларига эга, севишга, севилишга, бахтли бўлишга ҳақли, деб ҳисоблайди муаллиф. Айтиб ўтиш керак, у даврда бундай шеърлар илк дебоча ҳисобланган ва кўпгина адибларни бу шеърларнинг соддалиги, лекин чуқур мулоҳазага бойлиги билан ҳайратга солган. Энг муҳими, бу шеърлар шакл жиҳатидан инсонга, табиатга муҳаббат ҳақида бўлса ҳам, аслида муаллифга тегишли теран фикрлар мужассам эди.

Гёте шеърларида нафақат шахсий мулоҳазаларини, яъни шахарлик зиёли йигитнинг ҳаёти ҳақида, балки оддий деҳқонлар ҳақида ҳам шеърлар ёзгани аслзодаларни ҳайрон қолдиради. «**Кристель**» номли шеърда чин севгидан буюкроқ куч йўқ, муҳаббат туфайли инсон ҳар қандай тўсиқларни енгиб ўтиши, қийинчиликларни енгиши мумкинлиги ҳақида ёзади. «**Фуль қироли**» («Фульский король» - *Der König in Thule*) шеърда эса, инсон ҳаётида рўй берган севгини улуғлайди, унинг қадри ҳақида

ёзди.

Лекин Гёте нафақат севги-муҳаббат ва табиат манзаралари ҳақида, балки фуқаронинг бурчи, жамоага муносабати ҳақида ҳам мукамал шеърлар битган. Унинг сайёҳ ҳақидаги шеърлари айнан тиниб-тинчимас, тақдирга бўйсинмайдиган, кийинчиликлардан кўркмайдиган кучли бир инсоннинг интилишлари, кураши, жамиятда рўй бераётган ҳар бир воқеаларга нисбатан билдирган мулоҳазалари, кўпроқ адолатсизлаққа қарши исёни ҳақида ёзилган.

1772 йилнинг баҳорида ва ёзида Гёте Вецлар шаҳрида адвокатлик амалиётини ўтайди. Вецлар шаҳрида Гёте Шарлотта Буффни севиб қолади. Айнан ўша вақтда адиб ўзининг «**Ёш Вертернинг изтироблари**» («Страдания молодого Вертера» - Die Leiden des jungen Werthers, 1774). романини ёзади. Роман ҳеч қандай бўртиришларсиз, ўта содда ёзилган. Лекин, ёш, мард ва жасур Вертер орқали муаллиф Фридерике Брионга нисбатан муҳаббатини, ички кечинмаларини, дунёқарашини, жамиятда рўй бераётган ўзгаришларга муносабатини ифодалайди. Ёш Вертер севгилиси муҳаббатига эриша олмаслигини сезгандан кейин, унинг қалбида ўзгариш рўй беради, изтиробларига кўпроқ жамиятдаги адолатсизликлар, синфий нотенгликлар сабабчи эканини тушуниб етади ва унда иллатларга нисбатан нафрат пайдо бўлади. Романдаги оддий воқеалар аста-секин ижтимоий масалаларга бориб тақалади. Асар ўзига хос шаклда – яъни фикрларнинг хатлар орқали ифодаланиши ҳам ўша даврда немис адабиёти учун янги лирик услуб бўлди. Китобхон Вертер ҳақида ўқиркан, унинг билимли, ички дунёси бойлигини, қалби пок ва нафис гўзалликдан завқлана оладиган инсон образини кўз олдига келтиради. Лекин ёш Вертер ўсиб-улғаяди, дунё ишларига теран қарашга ўрганади. Бадиий асарда қаҳрамоннинг онгида ўзгариш рўй бериши, оддий одамдан етук инсонга айланиши – XVIII аср немис адабиёти учун ҳам янгилик эди. Гётенинг қаҳрамони соф муҳаббат билан севган бўлсада, ишқий эҳтиросларга, ҳис-туйғуларга берилмайди, ақлдан озиб, бемаъно ҳаракатлар қилмайди, балки ирода кучига таяниб, ақл билан иш тутаяди. Бу роман ёрдамида ҳам муаллиф, ҳам асар қаҳрамони ўзини ўзи енга билади ва бундай ҳаракатни жасорат деб талқин этади.

Гётенинг бу романида Руссонинг ўзига хос ижоди, яъни

сентиментализм удумларига асосланган асарлар таъсири сезилиб туради. Лекин Вертер «ўйлаб топилган», тўқима образ эмас, балки Гётенинг ёшликдаги ишқий севгиси ҳақидаги асар. Роман ўта ҳаётӣ бўлгани учун ҳам, ёш ўқувчиларнинг қалбига яқин, уларни қизиқтирган ҳаётӣ саволларига жавоб топиш мумкин.

Вертернинг ўзини ҳалок этиши бу заифлик белгиси эмас, балки, унинг қалби, танаси, ақли ҳазм қила олмаган, фақат юқори синф вакиллари манфаатига мос келадиган - феодал «ахлоқ ва адаб»га нисбатан қарши исёндири. Агар Вертер шундай яшашни давом эттирса, у ҳам ўз манфаатини ўйлайдиган одамга айланишини сезгани учун шундай қадам ташлаган.

Гёте Италияда жуда кўп илм ва ижод билан шуғулланади. «Ифигения Тавридада», «Эгмонт» драмаси, «Фауст» учун янги сахнага асос бўлган - «Торквато Тассо»ни асарларини ёзади. Бу асарлар Гётенинг аввалги асарларидан анча мукаммалиги ва эстетик дунёқарашининг чуқурлиги билан фарқ қилади. Гёте тарихий воқеаларга субъектив муносабатини анча камайтириб, ҳар нарсага объектив баҳо беради. Сабаби, у инсоннинг (субъектив) шахсий манфаати билан жамиятнинг объектив фаровонлик сари ривожланишини солиштиришга, зиддият омилларини ўрганишга интилади.

«Ифигения Тавридада» («Ифигения в Тавриде» - Iphigenie auf Tauris, 1787) - оқ шеър услубида ёзилган асари қаҳрамони «Вертер» каби ҳаяжонга бериладиган ёки «Гец» каби курашга чанқоқ киши ҳақида эмас, балки ақлли, чуқур мулоҳаза юрита оладиган, оғир-босиқ кишиларнинг ўй-ҳаёллари ҳақидаги мукамал асардир.

«Эгмонт» (Egmont, 1788) фожиали драмасида ҳам Гётенинг дунёқарашиди ўзгаришлар рўй бера бошлагани сезилади. Аслида пьесанинг ёзилиш вақти анча аввал бошлангани учун, штюрмерлар даври адабиётининг нафаси сезилиб турсада, лекин адиб улғайган даврда асарни тугаллаган, шунинг учун, ижтимоий-тарихий воқеаларда қарама-қаршиликларни юзага келтирган ва халқ ҳаракатини қўшган. Бадийликни кучайтириш учун эса, Фландрия ҳаёти, миллий урф-одатларини жуда гўзал тасвирланган. Асар проза услубида ёзилган.

«Вильгельм Мейстернинг таълим олган йиллари» («Годы учения Вильгельма Мейстера» - Wilhelm Meisters Lehrjahre, 1796) романида бош қаҳрамон Вильгельм бой-бадавлат бюргернинг

ўғли бўлиб, ўзига тўқ яшаса-да, лекин оилавий ҳаётдан жуда зерикади. У актриса Марианнани севиб қолгандан кейин театр санъатига қизиқиши ортади. Ҳатто театр труппаси билан кетмоқчи ҳам бўлади. Аммо, Марианнанинг хиёнатидан сўнг, ёлғиз ўзи Германия бўйлаб саёҳатга чиқади. У театрда ижод қилишга, янгича йўналишдаги миллий театр ташкил этишга аҳд қилади. Лекин, ижодкорлар ҳаёти жуда оғир эканини, ўзгаришлар қилиш осон эмаслигини тушунади.

Ёзувчининг ўша вақтда тирик инсон тақдирини бунчалик реал тасвирлаши немис адабиётида катта янгилик эди. Германия адабиётида романтизм равнақ топган вақтда Гёте деярли ёлғиз ўзи реализм асосида ижод қилаётган адиб ҳисобланарди. 1824 йил 14 апрелда Гёте Эккерманга ёзган хатида: «Замонавий адабиёт менинг дунёқарашимга мос келмаяпти. Адиблар субъектив мулоҳазаларини қоғозга тушириш билан банд, объектив баҳо бериш керак бўлганда эса, мен яна якка-ёлғиз бўлиб қоляпман» деб ёзади. Гётенинг ижоди кўпроқ маърифатпарлик даври адиблари ижодига ўхшаб кетса-да, лекин унинг Веймардаги ижодий фаолияти натижалари ва айниқса бетакрор «Фауст» асарининг яратилиши «марифатпарварлар»нинг ижодидан фарқли ўлароқ, кескин бурилиш ясайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

[1] – Н.А. Гуляев, Литературные направления и методы в русской и зарубежной литературе XVII-XIX веков. М.: Просвещение, 1983.

[2] – Н.А. Гуляев, И.П. Шибанов, В.С. Буняев, Н.Т. Лопырев, Е.М. Мандель. История немецкой литературы. Москва, "Высшая школа", 1975 г.

[3] – Т.В. Губская. История немецкой литературы. Средние века – Просвещение. Орск, Издательство ОГТИ, 2010.

[4] – [Аникст А. А.](#) Творческий путь Гёте. М.: [Художест. лит.](#), 1986.

[5] – [Вильмонт Н. Н.](#) Гёте И.В. Из моей жизни. Поэзия и правда / Пер. с нем. [Н. Ман](#); под общей ред. А. Аникста и Н. Вильмонта. Собрание сочинений в 10-ти томах. М.: Художест. Лит., 1976. Т. 3.

[6] – [Жирмунский В. М.](#) Гёте в русской литературе. Л.: Наука, 1981.

[7] – [Свасьян К. А.](#) Гёте. М.: Мысль, 1989.

[8] – Karl Otto Conrady, Goethe - Leben und Werk, Artemis Verlag Zürich 1994, 1040 Seiten.



БИР МЎЖИЗА НАШР ВА УНИНГ ТАРЖИМАСИ ХУСУСИДА

Хуррам РАХИМОВ, ЎДЖТУ профессори, Тошкент,
Ўзбекистон

Аннотация. Сингапур таълим тизими ҳақида сўз борганда “мўжиза” сўзи қўлланилади. Дарҳақиқат, қисқа давр мобайнида дунёдаги энг қашшоқ давлатда муваффақиятли таълим тизимини яратиш ҳукумат бошқарувидаги тўғри ёндашувнинг маҳсули ҳисобланади. Мазкур нашрда ана шу мўжизавий давлат ҳақида ёзилган мўжиза нашр ва унинг таржимони ҳақида мухтасар сўз юритилади.

Калит сўзлар: Сингапур тажрибаси, таржима назарияси, маданиятлараро мулоқот, медиа саводхонлик.

Аннотация. Слово «чудо» используется, когда речь идет о системе образования Сингапура. Фактически создание успешной системы образования в самой бедной стране мира за короткий период времени является продуктом правильного подхода в государственном управлении. В данной публикации кратко рассказывается о чудесном издании, написанном об этой чудесной стране и ее переводчике.

Ключевые слова: опыт Сингапура, теория перевода, межкультурная коммуникация, медиаграмотность.

Abstract. The word "miracle" is used when talking about Singapore's education system. In fact, the creation of a successful education system in the poorest country in the world in a short period of time is the product of the right approach to public administration. This publication briefly describes a wonderful publication written about this wonderful country and its translator.

Key words: Singapore experience, translation theory, intercultural communication, media literacy.

Илму фанга эътибор, жамиятда муаллимларнинг мақомини кўтариш, коррупцияга қарши беаёв курашиш, тадбиркор ва инвесторлар манфаатларини ҳимоя қилиш, мамлакатнинг туризм салоҳиятини кўтариш, кўшни давлатлар билан дўстона алоқаларни мустаҳкамлаш ва бошқа кўплаб устувор вазифаларни амалга оширишда Сингапур тажрибаси Ўзбекистон учун муҳим аҳамиятга эга. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев бошлаган ва амалга ошираётган ислохотларда дунёнинг кўплаб сиёсатдонлари ва экспертлари Хитойнинг собиқ раҳбари Ден Сяопин ҳамда Сингапур асосчиси Ли Куан Юлардагидек ғайрат, шижоат, тиним билмаслик, қоидаларда истисноларга йўл бермаслик каби ҳислатларни кўришади. Бу икки буюк раҳбарлар қаторида Ўзбекистон Президенти ҳам давлат равнақини ёшлар билан боғлаб, таълим

соҳасига алоҳида эътибор қаратиб келмоқда. Бунинг ёрқин исботи сифатида жорий 2023 йилни мамлакатимизда “Инсонга эътибор ва сифатли таълим” йили деб эълон қилиниши яққол мисол бўла олади. Қуйида ана шу йилда режалаштирилгани чора-тадбирларни амалга оширишда жумладан Хитой ва Сингапур давлатлари тажрибасини ўрганиш масаласига эътибор қаратиш барчамиз учун фойдадан холи эмас, албатта.

Сингапур мўъжизаси сирларини ўрганмоқчи бўлган ҳар ким аввало, Ли Куан Юнинг “Учинчи дунёдан биринчи дунёга” асарини синчиклаб ўқимоғи лозим. Унда ғоят оғир шароитда Хитойдек йирик давлат таркибидан ажралиб чиққан, бор мол-мулки ўн уч қаватли ижара уйидангина иборат бўлган Сингапурни қисқа вақт ичида жаҳоннинг иқтисоди бақувват, коррупциядан холи, бугун ҳам шитоб билан ривожланаётган мамлакатига айлантирган, барча дунёвий рейтингларда биринчиликни сақлаб келаётган ушбу мамлакатга узоқ йиллар бошчилик қилган машҳур давлат арбоби Ли Куан Юнинг ноёб тажрибалари ҳақида гап боради.

Сингапур ҳукумати мустақилликка эришганининг илк йиллариданоқ асосий эътиборни таълим тизимида ислохотлар ўтказишга қаратди. Мамлакатда янги мактаблар очилди, миллий дарсликлар ишлаб чиқилди, техник таълим тизими яратилди. Сингапур таълим тизими ҳақида сўз борганда “мўжиза” сўзи қўлланилади. Дарҳақиқат, қисқа давр мобайнида дунёдаги энг қашшоқ давлатда муваффақиятли таълим тизимини яратиш ҳукумат бошқарувидаги тўғри ёндашувнинг маҳсули ҳисобланади.

Сингапур мактаб таълимининг муҳим жиҳати дарслар маҳаллий бўлган хитой, малай, тамил тиллари билан бирга инглиз тилида ўқитилади. Шунинг учун деярли барча сингапурликлар инглиз тилини мукамал билади. Бу эса халқни Европа ва Осиё цивилизацияси ўртасида воситачи сифатида шаклланишига имкон берди. “Агар сингапурликларни инглизча ўрганишга мажбурласам, қаршилик кўрсатишган бўларди. Агар хитой тилини ўрганишга мажбурласам ҳам ишнинг пачаваси чиқарди. Аммо мен инглизча ёки ўз она тилини танлаш ихтиёрини ҳар бир ота-онага қолдирдим. Орадан ўттиз йил ўтди ва инглиз тили Сингапурда етакчи тилга айланди”, деб ёзади Ли Куан Ю.

Сингапур Республикасининг биринчи Бош вазири (1965-2000) Ли Куан Ю (1923-2015) нинг ислохотлари учун бугун мамлакатдаги ҳар бир фуқаро ундан миннатдор. Аввалига баландпарвоз бўлиб туйилган “Учинчи дунёдан биринчи дунёга” шиорини кўп ўтмасдан ҳар бир фуқаро ҳис қила бошлайди.

Шу ўринда эътироф этиш керакки, улуғ донишмандларнинг давлатчиликка доир юқорида келтирилган фикрларининг ҳаётийлигини бугунги Ўзбекистон мисолида яққол кўриш мумкин. Мамлакатимизнинг истиқлол йилларида шаклланган ва кейинги йилларда янги ижтимоий маъно-моҳият касб этган сиёсатида халқимизнинг асрлар синовидан ўтган ҳаётий тажрибалари, улуғ алломаларнинг давлат ва раиятни бошқариш хусусидаги кўрсатмалари, хусусан, Соҳибқирон Амир Темур ўғитларига амал қилиш мавжудлиги сезилади. Шавкат Мирзиёевнинг Президентлик фаолияти халқни тинглашдан бошланди, мамлакат иқтисодиётини либераллаштириш, ижтимоий ҳимояни янада кучайтириш, таълим-тарбия асосларини янгилаш, яхши кўшничилик муносабатларини йўлга қўйиш кейинги йилларда давлат сиёсатининг, айтиш мумкинки, ҳал қилувчи йўналишлари этиб белгиланди. Мактабгача тарбия, Олий таълим вазирлигини инновация ва фан вазирликларининг ташкил этилиши миллий тараққиётнинг янги босқичига ўтишда локомотив ролини бажара бошлади. Бу локомотив фикрлай бошлади. Фикр эса жамиятни ривожланишда, ҳаракатда, соғлом ҳолатда ушлаб туради. Фикр фикрдан унади. Фикрлар хилма-хиллиги ҳаётимизни тараққиёт сари йўналтиради. Фикрсизлик дунёнинг катта бир қисмини титратиб турган шўролар салтанатини инқирозга олиб келди. Фикр ривожига нима туртки беради? Жамият ҳаётидаги умумий эркинлик, фикрлар хилма-хиллиги, танқидга тўғри муносабат, албатта. Матбуотда қиёсий таҳлиллар, аччиқ, аммо ўринли танқид, эътиборга молик таклифлар қанча кўп бўлса, ҳақиқатни англаш, муаммоларнинг адолатли ечимларини топиш имконияти шунча ошади. Ўз-ўзига танқидий муносабатда бўлган, бошқаларга эмас, энг аввало, ўзига, виждонига ҳисобот беришга одатланган, ўз ҳисоботидан биринчи галда ўзи қониқиш ҳосил қиладиган жамият ҳеч қачон кам бўлмаган ва бўлмайди ҳам.

Истиқлол йилларида кечган умримизга танқидий кўз ташлаб, хато-камчиликларни таҳлилдан ўтказиб, халқимизнинг салоҳияти ва имкониятларини чамалаб, ғайрат-шижоатга тўла ёшларимизни руҳлантириб, янги ҳаракатлар стратегиясини қабул қилганимиз, халқни тинглаш, унинг ичида бўлиш, муаммоларини ҳал қилиш давлат идораларининг бирламчи вазифасига айлангани Ўзбекистонда янги уйғониш фасли куртак ёзаётгани, мева тугаётганидан далолатдир. Дунёнинг жуғрофий жиҳатдан бир-бирига тутшиб кетган неча-неча давлатларида диний ва ирқий можаролар авж олиб турган бир пайтда Президентимизнинг “Ўзбекистон ўзаро мулоқот, амалий ҳамкорлик ва яхши қўшничиликни мустаҳкамлашнинг қатъий тарафдоридир. Биз Марказий Осиё мамлакатлари билан ҳеч истисносиз барча масалалар бўйича оқилона мураса асосида ҳамкорлик қилишга тайёрмиз”, деган сўзлари ва бу ниятнинг босқичма-босқич амалга ошаётгани кўпларнинг ҳавасини келтирмоқда.

Алхусус, юқорида биз Сингапур раҳбари қаламига мансуб асар таржимасидан айрим муҳим иқтибослар келтиришга ҳаракат қилдик. Бироқ газетхон ва китобхонларга бу ноёб тажриба ҳақидаги муҳим дастуруламал бўладиган китобнинг ўзини мутолаа қилишни тавсия қилган бўлардик. Таржима тилга олинган барча жабҳаларга оид термин ва тушунчаларнинг ўзбек тилидаги муқобил вариантлари асосида амалга оширилганлигини **таржимоннинг инглиз ва она тилларни мукаммал эгаллаганлиги натижаси** деб биламан. Қуйида бу китобнинг таржимони ҳақидаги мухтасар маълумотнома билан мақоламизга нуқта қўйишни лозим топдикки, чет тиллар мутахассислари ўз фаолиятларида асосий педагогик бурчларини бажариш билан бирга айни пайтда ривожланаётган мамлакатлар сиёсий-иқтисодий ва ижтимоий-маданий ҳаётига оид илмий-оммабоп асарларни ҳам таржима қилишларини ва шу орқали мустақил ватанимиз миллий тараққиётига ўзларининг баҳолу-қудрат ҳиссаларини қўшишларини ҳам тавсия қилган бўлардик. Камина таржимонни муваффақиятли таржима билан табриклайман. Ушбу таржима ҳар қанча мақтов ва тақдирга муносиб асар бўлибди.

Таржимон ҳақида: Мамадалиев Абдумажид Мамасолиевич, 1962 йилнинг 6 октябрида Наманган вилояти, Учқўрғон

туманида ўқитувчи оиласида дунёга келган. Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университетини тамомлаган. Москва давлат лингвистика университетидида илмий тадқиқот ишларини олиб борган. Педагогика фанлари номзоди, доцент. Деярли чорак аср давомида BBC World Service Monitoring халқаро корпорациясида таржимон, муҳаррир ёрдамчиси, бош муҳаррир, катта журналист лавозимларида ишлаган. Таржима назарияси, маданиятлараро мулоқот ҳамда медиа саводхонлик соҳаларида бой тажрибага эга. Ҳозирда Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университетининг Хорижий тиллар факультети декани лавозимида ишлаб келмоқда.



CHINA-UZBEKISTAN RELATIONS CONTINUOUSLY ACHIEVING LEAPFROG DEVELOPMENT

Yanxiong HAN, Lanzhou University, China; Confucius Institute, Tashkent State Oriental University, Tashkent, Uzbekistan

Abstract. Uzbekistan is an important node of the ancient Silk Road, China and Uzbekistan have a long tradition of friendly relations. In recent years, China and Uzbekistan have taken the diplomacy of the heads of state as the lead, and economic and cultural exchanges have become increasingly close and bilateral cooperation has gained momentum. Comprehensive cooperation between the two countries is of great significance to the maintenance of regional security and stability.

Keywords: China, Uzbekistan, relations, development

Abstrakt. O‘zbekiston qadimiy Ipak yo‘lining muhim tugunidir. Xitoy va O‘zbekiston azaldan do‘stona munosabatlarga ega. So‘nggi yillarda Xitoy va O‘zbekiston davlat rahbarlarining diplomatiyasini yetakchi o‘ringa oldi, iqtisodiy va madaniy almashinuvlar tobora yaqinlashib, ikki tomonlama hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Ikki davlat o‘rtasidagi har tomonlama hamkorlik mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Xitoy, O‘zbekiston, munosabatlar, taraqqiyot

Аннотация. Узбекистан является важным узлом древнего Шелкового пути. Китай и Узбекистан имеют давние традиции дружественных отношений. В последние годы Китай и Узбекистан взяли на вооружение дипломатию глав государств, экономические и культурные обмены

становятся все более тесными, а двустороннее сотрудничество набирает обороты. Всестороннее сотрудничество между двумя странами имеет большое значение для поддержания региональной безопасности и стабильности.

Ключевые слова: Китай, Узбекистан, отношения, развитие.

作为古丝绸之路的重要节点，中国与乌兹别克斯坦的传统友好交往由来已久。独立以来乌兹别克斯坦因其重要的地理位置、丰富的自然资源及巨大的市场潜力，战略地位愈发显著。近年来，中乌以元首外交为引领，经济、文化交流日益密切，双边合作势头强劲。米尔济约耶夫总统进行的一系列政策调整也为中乌关系发展注入了新的活力。在乌克兰危机和阿富汗变局叠加，地缘政治风险加剧的背景下，中乌战略伙伴关系不断得到深化巩固，成为动荡变革时代稳定发展的代表。两国的全面合作对维护地区安全与稳定具有重要意义。

一、中乌关系发展不断发展的基础条件

中国与乌兹别克斯坦有悠远的交往关系，而且双方没有历史遗留问题。乌兹别克斯坦独立以来，中乌双方都致力于发展经济，不断摸索适合本国的政治体制和经济发展道路。“一带一路”倡议的提出为双方关系发展提供了新契机。

（一）中乌关系发展的历史基础

乌兹别克斯坦有悠久的历史和文化，丰富的资源，勤劳智慧的人民。乌兹别克斯坦独立以来，对内致力于保持稳定、发展民族经济，对外扩大和邻国以及世界各国的友好交往，并取得了积极的成果。中乌有发展两国良好关系的共同诉求和愿望。古丝绸之路为中国和乌兹别克斯坦关系良好发展奠定了历史基础。中国人民同中亚各国人民的友谊源远流长，历史上乌兹别克斯坦作为丝绸之路的主要通道，曾经对活跃欧亚大陆的商业往来和文化交流，做出过重要贡献。中国和乌兹别克斯坦在历史上有着久远的友好交往的历史，古丝绸之路给中乌两国人民带来了深厚的友谊和文化交流积淀。

中国和乌兹别克斯坦之间没有历史遗留问题。中国与乌兹别克斯坦没有共同边界、没有历史积怨，也不存在边境、水资源纠纷等问题。中国与乌兹别克斯坦关系是一种崭新的关系，因为两国不存在任何历史包袱和遗留问题，双边关系持续深入发展。

（二）中国与乌兹别克斯坦关系发展的现实基础

中国和乌兹别克斯坦两国领导人自建交以来一直致力于两国关系的发展，双方政府在相互尊重主权和领土完整、互不侵犯、互不干涉内政、平等互利、和平共处的原则基础上，发展友好合作关系。中国政府支持乌兹别克斯坦政府为维护民族独立，发展经济所做的努力，支持乌兹别克斯坦加入联合国和其他国际组织。乌兹别克斯坦政府承认中国政府关于维护中国领土完整的立场，只同作为中国唯一合法政府的中国政府建立和保持关系。中乌关系进一步发展符合两国人民根本利益，有助于维护亚洲和世界的和平、稳定与安全。两国建立了牢固的共同合作的现实基础。

中国和乌兹别克斯坦特殊的地缘位置为双方经济合作提供了机遇。中国濒临太平洋，有众多基础设施完善的出海口，而乌兹别克斯坦地处欧亚两大洲的连接点，是欧亚政治、经济和文化交往的桥梁和纽带。在世界经济文化交往密切的今天，中乌两国发展全面的政治、经济和文化互利合作关系不仅是必要的，而且是非常迫切的。中国可借助乌兹别克斯坦的桥梁贯通丝绸之路经济带，加快中吉乌公路和中吉乌铁路和多式联运系统，将乌兹别克斯坦作为关键节点国加快“一带一路”倡议推进。中国也可作为乌兹别克斯坦进入亚太经济的纽带，为乌兹别克斯坦提供出海口，通过欧亚大陆桥，可加快乌兹别克斯坦走上亚洲经济的快车道。

（三）中国与乌兹别克斯坦关系发展愿景基础

中国和乌兹别克斯坦是友好近邻。就历史和现实来说，中国和乌兹别克斯坦都有许多共同之处，过去，古丝绸之路曾经把两国紧密联结在一起。现在，丝绸之路经济带再次将中乌联结为更紧密的命运共同体。中乌两国都在集中发展经济，加快改革开放步伐，都希望有一个长期稳定的国际环境提供保障。因此发展平等互利的合作，建立长期稳定的睦邻友好关系符合双方共同的愿景。随着米尔济约耶夫总统加快改革开放的步伐，乌兹别克斯坦需要中国这个巨大的市场，而且中国改革开放的经验也可以为乌兹别克斯坦提供支持。而中国的周边地区稳定和经济发展也离不开乌兹别克斯坦，这一定会增进彼此了解，加强合作，这无疑会使业已存在的中乌关系得到进一步的发展。

二、中乌相处原则

1994 年李鹏总统访问中亚国家时确定了中国同中亚发展关系的基本原则。以和平共处五项原则为基础，坚持睦邻友好、和平共处，互利合作、共同繁荣，尊重各国人民选择、不干涉内政，尊重独立主权、促进地区稳定。中国积极秉持以上原则，在中亚国家独立后不以意识形态划线，同乌兹别克斯坦开展了睦邻友好关系。2013 年习近平主席在周边外交工作座谈会上指出，外交工作应坚持正确的义利观，在处理同周边国家关系时，应做到“亲、诚、惠、容”，“亲、诚、惠、容”的周边外交理念牢牢抓住了中吉外交关系总方向。十八大以来，强调与邻为善、以邻为伴，以人类命运共同体为理念指导，积极同中亚国家一同构建“中国—中亚命运共同体”。中国希望中亚地区保持长期的和平和稳定，希望乌兹别克斯坦繁荣。中国赞赏和支持乌兹别克斯坦为维护国家独立与主权、促进本地区的和平与稳定、促进各国的友谊与合作所做的一切努力。在首届中国—中亚元首峰会上，习近平总书记指出要建设守望相助、共同发展、普遍安全、世代友好的中国—中亚命运共同体，这也是建设中—乌命运共同体的题中之义。

三、中乌各领域内的合作现状

（一）战略伙伴关系不断升级

三十多年来，双方始终坚持平等相待、相互尊重、互利共赢的伙伴精神，坚定支持对方维护自身独立、主权和领土完整，坚定支持彼此选择的发展道路，坚决反对任何势力干涉内政。1992 年 3 月，卡里莫夫总统访问中国，两国领导人签署了《中乌联合公报》。乌兹别克斯坦独立初期，由于在对外政策上注意保持独立性，因此没有与中国形成高层次的政治关系框架。此外，缺乏便利地交通也限制了两国间的贸易和民间往来。但安集延事件后，乌兹别克斯坦认识到中国作为其友好近邻在维护地区安全稳定中所起的作用，之后便加快了与中国关系的发展。2005 年 5 月，卡里莫夫访华，中乌签署《中乌友好合作伙伴关系条约》。2012 年 6 月，中乌签署《关于建立战略伙伴关系的联合宣言》，两国关系提升到战略伙伴关系。2016 年 6 月，习近平再次对乌进行国事访问，并出席在乌兹别克斯坦首都塔什干举行的上合组织成员国元首理事会第十六次会议。两国元首共同签署并发表《中乌联合声明》。共同决定将两国关系提升为全面战略伙

伴关系。2016 年米尔济约耶夫上台后依旧重视与中国的友好关系。米上台后积极与中国合作，签署了一系列政治经济合作协议，双方政治互信进一步提升。2023 年 5 月份米尔济约耶夫访问中国，期间双方签署了《中乌联合声明》，双方一致决定将全面提升各领域务实合作水平，持续充实新时代中乌全面战略伙伴关系内涵。从发展友好合作关系到建立战略伙伴关系，再到全面战略伙伴关系，两国政治互信上升到前所未有的高度。

（二）经济合作势头强劲

经济合作是两国发展关系的重要方面，两国在平等互利的基础上经贸合作不断发展和深化，促进共同繁荣。双方在本国相应的法律和双边协议范围内，鼓励对方在自己领土上投资并给予保护，在贸易上相互提供最惠国待遇，促进并发展两国各部门、各地区、各企业间的合作，鼓励各种经济合作形式，并为此创造良好条件。中国企业积极参与乌兹别克斯坦公路、铁路建设，极大地改善了乌兹别克斯坦交通运输条件。中吉乌公路铁路联运已经通车，中吉乌铁路也正在积极推进。

“一带一路”倡议是新时代中国扩大全方位开放的重要措施，该倡议因致力使更多国家共享发展机遇和发展果实而得到包括乌兹别克斯坦在内“一带一路”沿线国家的广泛支持。自 2017 年以来，中国对乌兹别克斯坦累计投资增长 4 倍，达到 110 亿美元，仅 2022 年乌兹别克斯坦就吸引中国投资 22 亿美元。在乌中企数量近 5 年增长两倍，目前已超过 2000 家。两国在能源、农业、纺织等传统领域合作取得积极进展，跨境电子商务、绿色发展、生物医药、扶贫等新领域合作展现增长潜力。2022 年，中乌双边贸易额为 97.8 亿美元，同比增长 21.8%。米尔济约耶夫上台后，为改善乌兹别克斯坦商业环境，吸引投资，刺激出口，增加就业，采取了一系列改革措施，为中乌关系的发展带来了一些新变化。《2017—2021 年五大优先发展方向行动战略》中的优先改革方向与带路高度契合，为中乌合作提供了新机遇，尤其是调整汇率、打击黑市交易的做法，大大刺激了中国投资者在乌兹别克斯坦的投资。中乌合作推进“一带一路”与其国家发展战略对接取得巨大进展。

（三）能源和矿产合作是两国重点合作领域

乌兹别克斯坦有丰富的天然气资源，现国内共有 171 个油气田。首届“一带一路”国际合作高峰论坛之后的中乌首个合作项目——卡拉库利气田一期项目于 2017 年 11 月 30 日按期通气。对中国来说，与乌兹别克斯坦加强合作可以实现能源进口多元化，能源安全得到进一步保障，而对于乌兹别克斯坦也有助于其实现经济利益。“新乌兹别克斯坦”2022—2026 年发展战略重视扩大太阳能、风能等可再生能源利用规模，注重吸引私营经济进入能源领域，大力推广“绿色经济”理念和低碳技术可与中国的中国制定实施的《“十四五”现代能源体系规划》《氢能产业发展中长期规划（2021—2035 年）》实现能源政策对接。

《中国—中亚峰会西安宣言》指出，扩大能源全产业链合作，进一步拓展石油、天然气、煤炭等传统能源领域合作，加强水力、太阳能、风能等可再生能源合作，深化和平利用核能合作，实施绿色技术、清洁能源项目。除此之外，矿产资源也将是两国合作的重点领域。乌兹别克斯坦是世界第七大黄金生产国，拥有世界第四大黄金储量，每年生产约 7 吨黄金。乌兹别克斯坦的铜储量排名世界第 8 位，钼矿占世界储量的 0.18%。这些重要的矿产资源将助力两国合作不断深化。

（四）两国文化交流日益密切

中国和乌兹别克斯坦都是有着悠久历史的国家，中乌文化交流推动了两国社会进步和文化的大发展。“一带一路”倡议提出后，两国文化领域的互动日益活跃，加深了两国人民的相互了解和互信。近年来，乌兹别克斯坦相继在许多中学和高校开设汉语专业以及汉语课堂，两国高校间交流日益频繁。2014 年 12 月，乌兹别克斯坦第二所孔子学院在撒马尔罕州成立（第一所是 2005 年成立的塔什干东方国立大学孔子学院），孔子学院为中乌文化交流作出了重要贡献。2018 年 2 月，乌兹别克斯坦在中国青岛开设代表处，以加强两国经贸、投资人文和旅游领域的合作。该代表处与中国 600 多所高校合作，为有意来中国学习的乌兹别克斯坦年轻人创造机会。

此外，为进一步发展两国间的关系，双方将在各个级别上进行会晤并保持经常性地接触。双方还要加强政治、经济、文化、科学领域以及贸易、交通、通讯、教育、卫生、新闻、旅游、体育、环保诸领域的平等互利合作，两国在反对国际恐怖活动、有

组织的犯罪、贩毒、走私和其他国际犯罪活动的斗争中进行合作。尤其值得一提的是，两国学者应该相互了解，更多地交流，将自己的国家全面地介绍给对方。

结语

作为“双内陆国家”的乌兹别克斯坦，是中国“一带一路”倡议中亚段推进的极为重要的合作主体。稳定的乌兹别克斯坦，为中乌两国深入、持续合作奠定了良好的政治基础。米尔济约耶夫积极务实的经济改革措施、不仅仅为本国经济发展带来了生机，也为中乌两国合作带来了新的机遇。在中乌合作中要积极聚合双方诉求，加强合作动力，深化气候、科技创新、农业贸易投资便利化、物流、数字经济、医疗、信息交流与共享等领域的合作，完善政府、民间、地区三位一体的合作机制，推动乌兹别克斯坦减贫与增进民生经济目标的实现，增进双方民众相互了解。中乌要加强在安全治理领域内的长续合作，建立长期综合长期的打击国际恐怖主义战略，加强与乌兹别克斯坦新版反恐法的对接，为地区安全稳定贡献积极力量。



TARJIMA STILISTIKASI VA TANQIDI HAMDA TAHRIR MASALALARI

“ҚИЁМАТ”НИНГ “ҚИЁМАТ” ТАРЖИМАСИ: МИЛЛИЙЛИК ВА УСЛУБИЙ ИЗЛАНИШЛАР

Султонмурод ОЛИМ, филология фанлари доктори, Тошкент амалий фанлар университети профессори, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, Тошкент, Ўзбекистон.

Тел: +998-99-514-43-74. E-mail: smo54@mail.ru

Аннотация. Туркий халқларнинг жаҳоний шухратга эга буюк адиби Чингиз Айтматов қаламига мансуб “Қиёмат” романини ўзбекчага атоқли таржимон, филология фанлари номзоди, бугунги кунда Ўзбекистон санъат арбоби, Ўзбекистон Қаҳрамони Иброҳим Ғафуров ўгирган. Роман рус тилида ёзилган бўлса ҳам, асарда, асосан, қирғиз халқи ҳаёти акс эттирилган. Бу эса таржимонга уни ўзбекчага янада миллийлаштириб қайта яратиш имконини берган. Шу тариқа ўзбекчада “Қиёмат” романининг “қиёмат” таржимаси юзага келган.

Калит сўзлар: “Қиёмат” романи, таржима, услуб, қайта яратиш, бадиий имконият, халқона ифода, насрий оҳангдорлик.

Аннотация. Роман “Плаха” великого писателя туркских народов, имеющего всемирную знаменитость Чингиза Айтматова перевел на узбекский язык выдающийся переводчик, кандидат филологических наук, ныне Деятель искусства Узбекистана, Герой Узбекистана Ибрахим Гафуров. Хотя роман написан на русском языке, в нем, основном, изображена жизнь киргизского народа. А это дало возможность переводчику более адекватно воссоздать национальный колорит оригинала. Таким образом на узбекском языке появился великолепный перевод романа.

Ключевые слова: роман “Плаха”, перевод, стиль, воссоздание, художественная возможность, народное изречение, прозаичная ритмика.

Abstract. The novel “The Scaffold” by the great writer of the Turkic peoples, world famous Chingiz Aitmatov, was translated into Uzbek by an outstanding translator, candidate of philological sciences, now an artist of Uzbekistan, Hero of Uzbekistan Ibrahim Gafurov. Although the novel is written in Russian, it mainly depicts the life of the Kyrgyz people. And this made it possible for the translator to more adequately recreate the national flavor of the original. Thus, an excellent translation of the novel appeared in Uzbek.

Key words: novel “The Scaffold”, translation, style, recreation, artistic possibility, folk saying, prosaic rhythm.

Бу дунё, бу Еру кўк фақат одамзодгагина берилган эмас. Ҳайвонот олами, каттаю кичик ҳар бир гиёҳ, борингки, жонсиз тоғу тош ҳам ҳаёт учун яралган – яшаши керак. Инсон – жамики борликнинг олий мавжудоти. Лозим бўлса, у бутун борликқа хўжайинлик ҳисси билан боқади, ҳамма нарсани ўз манфаатига бўйсундиришга интилади.

Қурьоннинг 2-сураси 32-оятда ривоят қилинишича, Худо барча фаришталарга Одам Ато олдида бош эгишни буюрган. Бундан бўйин товлагани учун Иблиснинг гарданига тавқи лаънат тушган. Демак, инсон бу дунёда инсон бўлиб яралгани учун ҳар қанча шукроналар айтса – оз.

Лекин Еру осмонга хўжайинликнинг, ҳамма нарсани ўз манфаатига хизмат қилдиришнинг ҳам чек-чегараси – бор. Одам боласи, кун кўраман, деб, нафс кетидан қувиб, дунёда яшаш учун яралган жамеки нарсаларга қирон келтирди ҳисоб. Бу – аччиқ ҳақиқат. Набоботу ҳайвонот оламининггина эмас, қизиқки, одамзоднинг ҳам кушандаси – одам.

Аммо инсонлар хатти-ҳаракати иккига – яхши ва ёмонга бўлинади. Дунё – яхшилик билан ёмонликнинг абадий курашидан иборатдек. Ёмонлик ҳамиша ёмонлик келтиради. Бирининг касри мингга уради. Ёмонлик яхшиликни ҳам ёмонликка айлантира олади.

Ўзимизнинг Марказий Осиёдан чиққан буюк адиб, жаҳоний шуҳрат соҳиби Чингиз Айтматовнинг “Қиёмат” романида бу қа-

рашлар ўзининг ўта ҳаётий исботини топган. Бозорбойнинг нафс коми учун жигаргўшаларидан ажраб қолган бўрилар, яъни Акраба билан Тошчайнар не кўйларга тушмади? Уларнинг нолаю фиғонидан юрак бағри эзилиб кетган Бўстон, ғурурини енгиб, Бозорбойдан бўриваччаларни ялиниб сўради. Чўпоннинг-ку душмани – аслида, бўри. Лекин Бўстон Акбара билан Тошчайнарга яхшилик қилмоқчи эди. Афсус, Бозорбой бўричаларни қайтариб бермади.

Охири нима бўлди? Охири Бозорбойнинг гуноҳи учун бўри Бўстоннинг жону жаҳони – яккаю ягона боласини олиб қочди. Ўлдирмоқ учун эмас, азбаройи оналик ҳисси жўш уруб шундай қилди. Бўстон боласини қутқариш илинжида бўрини отди. Таассуфки, у Акбаранинггина эмас, ўз эркаси – Кенжашнинг ҳам қотилига айланди. Кейин Бозорбойни ҳам, охири ўзини ўзи ўлдирди...

Ёки Исо(а.)ни олинг. У, одамлар қалбига эзгулик уругини сочман, деб, не кўйларга тушди. *Исо (а.) охиратда осмондан тушиб, гуноҳкор бандаларига жазо беради*, деган ақида – бор. Рамзан Авдий Калистиратовни, *бизнинг замонда қайта тирилган Исо*, деб фараз қилсак, у гуноҳкорларга жазо бериш у ёқда турсин, ўзи ҳам ёвуз одамлар томонидан, худди, *Исо*, деб ўйлаб, унга ўхшаш бўлган Тартусни дорга осганлари сингари, саксовулга бойланди.

Назаримда, асар – бошдан-охир одамзоддаги яхшилик ва ёмонлик кучларининг ўзаро курашидан иборат. Эҳтимол, ҳаётнинг бош мазмуни ҳам шундай кураш замирига яирингандир. Яхшилик осонлик билан ёмонликка айланиб кетаверади, лекин ёмонликнинг яхшиликка айланиши – амри маҳол

Роман воқеаларини шунчаки гаплар, шунчаки талқин деб тушунмаслик – керак. Унда бир халқ, бир мамлакатни эмас бутун бани башарни ўйлатадиган масалалар кўтарилган. *“Ҳей, одамлар! Кўзларингизни очинглар! Ҳар бир қадамимиз, ҳар бир ишимиз учун келажак олдида жавоб берамиз. Дунё ўч олади. Табиат ўч олади. Чунки ҳеч бир гуноҳ жавобсиз қолмагай. Бирники мингга уради: одам боласининг ҳар бир гуноҳи учун бутун одамзод жавоб беришига тўғри келиши – мумкин. Буни унутмайлик!”* – деб даъват қилаётгандек бўлади ёзувчи.

Бу – романдан келиб чиқадиган битта хулоса, холос. Асар эса – бундай хулосаларга жуда бой. Ҳар бир давр ундан ўзига керакли мантиқ чиқариб олаверади. Қолаверса, романи ўқиган ҳар бир киши уни ўзича талқин қилиши, ўзича тушуниши, ундан ўзича хулосалар олиши – турган гап. Шу маънода таржимон ҳам – аввало, ўқувчи. Лекин у – муаллифлик даражасига кўтарилиши шарт бўл-

ган, таъбир жоиз бўлса, шунга “маҳкум этилган” китобхон. Барибир, ҳар қандай таржима – таржимоннинг мустақил талқини. Шу жиҳатдан қараганда, биз “Қиёмат” романининг Иброҳим Ғафуров талқинига эгамиз. Назарий нуқтайи назардан эса “Қиёмат”нинг, айттайлик, Ваҳоб Рўзиматов, Қодир Мирмуҳаммедов, Асил Рашидов, Низом Комилов ва бошқа таржимонлар талқинларига ҳам йўл очик эди.

“Қиёмат” таржимасининг биринчи ютуғи – роман илк бор журналда чоп этилганидан бир йил ўтар-ўтмас ўзбек тилига ўгирилди. Иккинчи ютуқ – шуки, И. Ғафуров уни таржимонлик маҳорати айна қиёмига етган бир паллада амалга оширди. Бу таржимон ҳамisha жаҳон адабиётининг мумтоз асарларига қўл уради. Унинг Э. Ҳемингуэй “Чол ва денгиз”ию “Алвидо, қурол”и, Ги де Мопассан “Азизим”и, Ф. Достоевский “Жиноят ва жазо”сию “Телба”си таржималарида шаклланган жозиб услуби – бор.

Таржима учун филологик илмнинг – сўзшуносликнинг ҳам аҳамияти катта. Ҳар қандай таржимон – иш жараёнида асарни, аввало, филолог сифатида таҳлил қилишга мажбур. Бу маънода ҳам “Қиёмат” ўз таржимонининг кўлига тушган. Иброҳим Ғафуров шунча йиллар адабий танқид соҳасида қалам тебратиб, сўз санъатидан излаганларини қисман шу асардан топган бўлса ҳам, ажаб эмас. Адабиётдан эса ҳар ким ҳар нарса кутади.

Ч. Айтматов ғояларини, ҳаёт ҳақидаги қарашларини мутлақо ҳазм қилолмайдиганлар – ўзини, *соҳиби қалам, ҳисоблаб юрганлар орасида камми*, дейсиз? Ана шундайлар Ч. Айтматовнинг бу асарини кўнгилдагидек таржима қила олармиди?

Романнинг ўзбекчасини ўқиб, адибнинг дарди таржимоннинг ҳам дардига айланиб кетганига тўла амин бўласиз. Асар, ялпи олганда, тушуниб, ичига кириб, берилиб, ёниб, қисқаси, юракнинг қони билан таржима қилинган. Романнинг ўзбекчасини ҳам шунчаки, бефарқ ўқиш – қийин. У китобхонни аслиятдек ўзига тортиб кета олади. Тасаввуримизда ёвузлик тимсоли бўлиб шаклланган ваҳший бўриларнинг фарзанд доғида “*увв*” тортганлари тасвирланган саҳифаларда бўрилар дардига ҳамдардлик қилгингиз келади, кўнглингиз бўшроқ бўлса, тўйиб-тўйиб йиғлайсиз, камида, кўзларингизда ёш айланади. Бунинг учун эса таржимон сўз соҳири, яъни санъаткор бўлиши – керак.

Хўш, таржимоннинг сўз санъаткорлиги қандай ёхуд айнан нималарда кўринади? Бунини муайян далилларсиз аниқлаш – мушкул. Таржимани аслиятга қиёслаш натижасида эса И. Ғафуров маҳоратининг турли-турли қирралари намоён бўлади.

Таржимон асардаги сўзларга ёпишиб олмайди. Маълум маънода, эркин қалам тебратади. Бу эса унга ўзбек бадий тили эришган бойликларни ишга солиб юбориш, миллий сўз қудратини ошқора намойиш этиш, ижодкор сифатида ўз захирасида бор калималарни ўрни-ўрни билан қўллаб, мақсадга эришиш учун кенг имкон яратган. Ўзбекона тасвир эса баъзан, ҳатто, аслиятга нимадир қўшиш, ундаги ниманидир сал бошқачароқ ифодалаш, борингки, ниманидир ундан соқит қилиш эвазига амалга ошади.

“Люди, люди-человекобоги!” (1, 11) – жумласида муаллифнинг ҳаяжони сезилиб турибди. Таржимон уни ўзбекона ундов сўз билан бошлаб, янада жонли ва кучли ифодага эришади: “О, одамлар, одамлар-одамхудолар!” (2, 385). “О” ундови, “одам” (уч бор қўлланган) ва “Худо” сўзларидаги “о” товушлари билан ўзгача уйғунлик, яъни ҳамоҳанглик касб этган.

Тил характер яратади, қаҳрамон ички дунёсини очади. Наша йиғишга борган болаларнинг бошлиғи чапани жиноятчи Гришан диёнатли Авдийга: “Не заливай!” (1, 119) – деб бақиради. Бу: “Кўп лоф ураверма!” – деган маънода келган. Таржимон уни: “Дийдиё қилма!” (2, 385) – деб ўгиради. Бу худобеҳабарни дин йўли билан тарбияламоқчи бўлган Авдийнинг гаплари, чиндан ҳам, унинг учун “дийдиё”дан бошқа нарса эмас-да.

Персонажлар нутқини қайта яратишда таржимон кўпинча ўзбекона сўзлашув мантиғидан келиб чиқиб, иш кўрган. Гришан яна Авдийга шундай дейди: “Но, смотри, что бы наши с тобой пути никогда больше не пересеклись!” (2, 116). Таржимон сўзлар эмас, маъно билан иш кўрган: “Лекин ўнг қулогинг билан ҳам, чап қулогинг билан ҳам яхшилаб эшитиб ол: бошқа ҳеч қачон бизга яқин йўлама!” (2,382).

Таржимага ҳамиша аслият тилининг таъсирига тушиб қолиш хавф солиб туради. Бу эса тилда сунъийликни юзага чиқариши – мумкин. Айниқса, диалогларда нутқ – жуда табиий бўлиши, қаҳрамонлар таржима тилида ҳам ҳаётдагидек гапириши – керак. Ахир, бир фикрни турли хил айтиш – мумкин-да. Таржимон эса шу вазиятдаги энг мосини топишга интилади. Аслиятдаги лисоний шакл айнан олинганда таржима тилида ўша маънони бермаслиги – кўп учрайдиган ҳодиса. Авдий эслаган “Олтовлон ва еттинчи” деган грузин ҳикоясининг сўнгроғида шундай жой – бор:

“ – Слушай, Сандро, – Заметил Гуран Джохадзе, – дрова ты хорошие собрал, сильно горят, но почему ты оставил их так далеко от костра?”

– *Не беспокойся, Гурам, это моя забота, – отвечать за огонь буду я. А ты скажи свое слово*” (1, 62 – 63. Маъруза матнида келтирилган парчалардаги барча таъкидлар – бизники. – **С. О.**).

Вазият шундайки, Сандро – чекист. У ўз Ватанини ташлаб, чет элларга кетишга мажбур бўлаётган Гурам Жўхадзе бошлиқ ана шу олти кишини ўлдириши – керак. Сандронинг ўтинларини бира-тўла гулханга ташламагани, узоқроққа қўйгани ҳам – шундан: эҳтимол, кейин керак бўлиб қолар. “*А ты скажи свое слово*”ни ҳам Сандро Жўхадзенинг охирги бор сўзлаётганини билиб туриб айтади. Лекин буни Гурам Жўхадзе қаёқдан билсин? Таржимон ана шу вазиятларни тўла ҳисобга олиб ўгирган:

“ – *Ҳей, Сандро, – деди Гурам Жўхадзе, – яхши ўтин йиғиб келибсан, нега ўтинларингни гулхандан узоққа қўйдинг?*”

– *Ташвиш қилма, Гурам, бу – менинг ишим, гулханга мен қараб тураман. Сен айтарингни айт*” (2, 336)

Ана шу сўнгги: “*Сен айтарингни айт*”, – деган сўзларда бир олам маъно – бор. Шу тагматн(контекст)га жуда мос ўзбекча ифода – бу. Гурам буни, сўнгги бор хайрлашув, яъни хорижга тарқаб кетиши олдидан айтиладиган видолашув нутқида ишора, деб тушуниши – табиий. Сандро эса бунинг ўлим олдидан сўнгги сўз эканини билади.

Асардаги бундай нозик жиҳатларни илғамаган таржимон: “*Сен эса гапингни гапиравер*”, – деб ўгириши ва бунда И. Гафуров жумласи даражасида бадийликка эриша олмаслиги мумкин эди.

Ёки асар сўнгидаги Бўстоннинг Бозорбойни отиб, Иссиққўл қирғоғида оти, яъни Дўнкўлик билан видолашаётганда айтган сўзларига эътибор қилайлик:

“– *Иди, иди домой, иди куда хочешь! – попрощался он с Донкуликом. – Больше мы не увидимся!*” (1, 304).

“– *Бор, бор, уйга бор, жонивор, майли, қайга десанг, ўша ерга бор! – видолашди у Дўнкўлик билан. – Энди бошқа дийдор кўришмоқ – йўқ!*” (2, 347).

Айнан таржима (“*Биз энди бошқа кўришмаймиз!*”) таъсирсиз, шунчаки гап бўлиб қолар эди. Таржимон вазиятга мос ўзбекча бадий ифода топган. Аслида, келтирилган иккала мисолда ҳам фарқ арзимасдек туюлган грамматик шаклларда, холос. Бироқ, қаранг, тилимизнинг ана шу грамматик шакллари нақадар катта ва муҳим услубий вазифа бажариши мумкин экан.

Таржимон ҳам, ёзувчи каби, сўзга бой бўлиши – керак. Хўш, у сўзни қаердан олади? Албатта, ёзма адабиётдану халқдан. Биз эса – жуда кўп шева халқмиз. Таржимада турли шеваларга хос сўзлар

“тирилтирилган”. Масалан, “*милжсинглади*”, “*йиталади*”, “*малқайди*”, “*сатқайи сар*”, “*чикора*” сўзлари – бухороча; гарчи “*эса*” сўзи адабий тилимизда анча фаол бўлса-да: “*Эса сен куфроний сўзларингдан воз кечиб қўя қолмайсанми?*” (2, 399) – жумласидаги “*эса*” тилимиздаги қипчоқ ва ўғуз лаҳжаларига хос ҳолатда қўлланган; “*Несини айтасиз, ҳамма-ҳамма шуни хоҳлайди*” (2, 404) – жумласидаги “*несини*”, шунингдек, “*қисинма*” – Хоразм шеvasига хос сўзлар. Адабий тилимиз шундай йўл билан бойийди. Бунда бадий таржиманинг шундай беқиёс ҳиссаси – борки, бу ҳали илмий жиҳатдан махсус ўрганилмаган.

“*Тонуқ*”, “*чевирик*”, “*тайгоқ*”, “*ажива*”, “*пишанг бермоқ*”, “*ўнгмаган*”, “*сарсилламоқ*”, “*лакалов*”, “*тарпитди*”, “*юрзун булутлар*”, “*ялатма*”, “*чекчандиқ*”, “*мулкат*”, “*жониқар эди*”, “*аррайим*”, “*хафагазак*”, “*паррихта*”, “*шўрида*”, “*далва-далва*”, “*она қурсоғи*”, “*батн*”, “*татти*”, “*пойхова*”, “*қамгоқ*”, “*умтилиши*”, “*чавагим*”, “*сарасоф ташламоқ*”, “*хуноба чотганлар*”, “*сарсарак*”, “*анжақ*”, “*йилдирим*”, “*ҳавол*” каби талай сўзлар ҳам – ўзбек бадий тилида таржимон қайта тирилтирган ифодалар. Буларнинг кўпи – “*Ўзбек тилининг изоҳли луғати*”да йўқ. Бундан кейинги изоҳли луғатларга эса улар бемалол киритилиши –мумкин.

Бу ерда мақсад таржимоннинг фақат сўз топганини таъкидлашгина эмас. Энг муҳими, ана шу сўзлар аслиятнинг ўша жойидаги мазмунни тўғри таржима қилишда асқотган.

Асардаги баъзи бир оддий-оддий ифодалар ҳам, ўрни келиб қолса, тамсиллий (образли) тасвирга айлантиради:

“*Пой, веселись, грусти и плачь, танцуй, покуда жив...*” (1,65). “*Кўшиқ айт, қувна, дард чек ва йиғла, ўйнаб қол бу тириклик айвонида...*” (2,337).

“*Да и ни к чему это было, дело прошлое*” (1, 33). “*Ўтганни эсласанг, эсинг кетади. Нима қилади эслаб...*” (2, 310).

“*Прежде всего, это были люди бездомные, перекетиполе, кроме, разумеется, Капы...*” (1, 32). “*Бедананинг уйи – йўқ, қайга борса, питпилдиқ, дегандай, булар ҳам тайини – йўқ, қамгоқдек шамол қаерга учирса, шу ерда дайдийдиган кимсалар эди*” (2, 309).

“*У всех ныне на устах расхожий афоризм – спасибо к делу не пришьешь, а деньги это деньги*” (1, 83). “*Ҳозир кимни қарама – шунинг тилида бир гап – қуруқ раҳматга мушук офтобга чиқмайди. Пул – ўз оти билан пул-да*”⁶ (2, 354).

⁶Кези келганда айтиб ўтган – маъқулки, бу парчанинг журнал нашридаги шакли кучлироқ, таъсирчанроқ эди: “*Ҳозир кимни қарама, тилида – бир гап: қуруқ раҳматингни пишириб е, бекорга мушук офтобга*

Баъзан матн айнан ўтказилади, бироқ ўзбекчада ўша сўзлар ифодалаётган маъно камлик қилаётгандек туюлади-ю, таржимон ўзидан мана бу жумладаги “*файзу киром топади*” каби нимадир қўшади: “*Когда открытие делаешь для себя, все в тебе согласно и наступает просветление души*” (1, 68). “*Бир нарсани ўзинг учун кашф қилсанг, ўзингдан рози бўласан, юрагинг, руҳинг ёришади, файзу карам топади*” (2, 340).

Таржимонни алоҳида заҳмат чекишга мажбур қилган жиҳат – асардаги диний сўз ва иборалар. Ҳар бир диний англамни тўғри таржима қилиш учун аввал ўша сўзнинг моҳиятини тушуниш – керак. Бундан ташқари, асарда насроний(христиан)лик динига оид истилоҳларни ўзбек тилида қандай ифодалаш – лозим? Таржимон уларни аксарият ислом дини тушунчалари билан ағдаришни маъқул кўради. Бунда у асосланадиган бир неча жиҳат – бор. Аввало, ўзбек таржимачилиги анъанасида Европа, хусусан, XIX аср рус адабиётидаги диний тасаввурларни мусулмонча атамалар билан ифодалаш – аввалдан мавжуд. Иккинчидан, романдаги диний мувоҳасалар насронийча бўлса ҳам, назаримда, моҳиятан улар мусулмонча талқиндан унча узоқ эмас. Бу, эҳтимол, Ч. Айтматовнинг Шарқ кишиси эканидан ҳам келиб чиқар. Ҳатто, Исо пайғамбар(а.)нинг инсон ва Худо муносабатлари ҳақидаги фикрларида ҳам тасаввуфна, демакки, шарқона руҳ сезилади. Исо(а.)нинг Понтий Пилат билан бўлган мана шу савол-жавобига диққат қилсак, таржимон шуни сезганидан ундаги “*подобие*” (“*ўхшашлик*”) сўзини тасаввуфна истилоҳ – “*тажаллий*” истилоҳи билан ўтирганига гувоҳ бўламиз:

– *Постой, Иисус Назарянин, ты отождествляешь Бога и людей?*

– *В каком-то смысле, да. И более того, все люди, вместе взятые, есть подобие Бога на земле*” (1, 151).

– *Тўхта, тўхта, Исо Назарли. Сен одамни Худо билан бир деяпсанми? Шундай десак ҳам, бўлади. Мен ҳам, аниқроғи, жамийки башарият Худонинг Ердаги тажаллийсидир*” (2, 413).

Руҳонийлар нутқини қайта яратишда таржимоннинг зукколиги кўзга ташланади. Масалан, “*род человеческий*” (1, 62)ни бошқа бир асарда “*одам зоти*” деявериш мумкиндир. Лекин бу ота Координатор нутқида ишлатилганини инобатга олиб, И. Ғафуров уни “*бани башар*” (2, 353) деб ўгиради. Ёки “*возлюбленный Господом*” (1,

чиқмайди. Пул – ўз оти билан пул-да! (Шарқ юлдузи, 1987 йил, № 6. – Б. 56). Таҳрирда “*хуруқ раҳматингни нишириб е*”нинг олиб ташланиши жумла таъсир кучини камайтирган ва “*шунинг*” сўзи кўшилиши ифода таранглигига путур етказган.

134)га тагматндан юлиб олиб қаралса, у “*Худонинг севган бандаси*” бўлади. Романда у Исо (а.) ҳақида айтилгани учун диний услубда ўгириш – шарт. Таржимон қойилмақом муқобил (эквивалент) топади: “*муҳибби Раббоний*” (2, 397)! Ёки ота Координаторнинг Авдийга айтган: “*Остановись, остановись!*” (1, 80) – деган сўзлари ҳам: “*Астағфирулло, бас, бас!*” (2, 351) – деб ўтказилади.

Мана бу парчалар таржимасида қўлланган мусулмонча атамалару диний китоблар услубига хос оҳанг асар бадиий руҳини қайта яратишга катта ҳисса қўшганини кўрамиз:

“– *И тогда обратился к Господу, отцу моему Небесному. Отче, – сказал я. – О если бы ты благословил пронести сию мимо меня!*” (1, 144). “– *Шунда мен Раббимга, осмонда Падаримга ёлвордим. “Раббано, – дедим. – Ажал косасини (!) бу сафар менга тутмай қўя қол!*” (2, 407).

“*И Господа моего. Отца Всеблагого, молю, чтобы силы дал достойно перенести уготованную мне участь, не низвел бы меня доскотских воплей и не срамил иным путем...*” (1, 158). “*Мен Рабб ил-оламиндан арҳам ар-роҳимин Падаримдан илтижо қиламанки, тақдирда борини кўргали менга сабру тоқат **ато этгай**, онгсиз махлуқотлар каби **дод солмагайман**, жон топширар маҳалда **шармисор қилмагай** мени...*” (2, 418).

Булардан ташқари, “*журми гуноҳ*”, “*ғарибу гураболар*”, “*қозию қуззотлар*”, “*аъён-аширофлар*”, “*олий солиҳот*”, “*қазову қадар*”, “*издиҳом*”, “*субҳи козиб*”, “*муноқаша қилмоқ*”, “*музтар хилқат*”, “*ифрот*”, “*мутагаййир*”, “*саҳобалар*”, “*эврила-эврила*”, “*ақоид*”, “*эмин*”, “*ҳаросонлик*”, “*муфсид*”, “*салавот*”, “*гаффори олам*”, “*поку табар*”, “*маллох*”, “*роҳиба*”, “*мағфират*”, “*фикри жаид*”, “*истиғфор*”, “*шоми ғарибон*”, “*кўшиш*”, “*хайр ул-умур*”, “*мулкатлар*”, “*қиёмат кўнди*”, “*забҳ этилган*”, “*мушкулписанд*”, “*ифтиро*” ва шу каби талай диний, тарихий ва архаик сўзу атамалар – борки, буларсиз айна асарни таржима қилиш мумкин эмас эди.

Тўғри, мазкур сўзларнинг айримлари, эҳтимол, ўз маъносида қўлланмагандир. Бу – араб тили ва ислом тарихи билимдонлари ҳукмига ҳавола масала. Лекин, шуни қайд этиш – керакки, бу сўзларни топиш, ўрни-ўрнида ишлатиш таржимондан жуда катта изланиш, билим ва меҳнат талаб қилган.

Кўриниб турибдики, айна роман ва унинг таржимаси диний руҳни (колоритни) қайта яратиш юзасидан тадқиқот учун ҳам бой манба бўлиб хизмат қилади.

Бирон-бир таржима аслият бўла олмайди, албатта. Бу – кўп айтилган фикр. Таржиманинг мезони – аслиятнинг ўзи: тарозининг бир палласига аслиятни, иккинчи палласига таржимани кўйиб кўриш имконияти ҳамиша мавжуд экан, ўгирилган ҳар қандай матнга нисбатан у ё бу тарзда эътироз бўлавериши – мумкин. Аммо ҳар ким ўз билгича эътироз қилади.

Ч. Айтматов “*Бўстон*” деган исмни бекорга танламаган: унинг шаклан АҚШдаги Бўстон шаҳри билан монандлигидан, бироз сунъийроқ тарзда бўлса ҳам, фойдаланган. Газетада бу илғор чўпон ҳақида “*Бўстонга эргашайлик*” деган мақола чиқди. Сарлавҳалардан бошқа нарсани ўқимайдиган раҳбарлардан бири буни, *Америкадаги Бўстон шаҳрига эргашайлик, деб тарғиб қилиняпти*, деб тушунади. Масаланинг моҳияти англлатилгач: “*Илғорга тайинланг, номини ўзгартирсин*”, – дейди. Ёзувчи бу исмнинг луғавий маъноси ҳақида ҳам гапиради: унингча, “*бўз*” ва “*тўн*” деган сўзлардан ташкил топган от экан. Таржимон “*Бўстон*” деб ёзишни маъқул кўрган. Чунки бу – ўзбекча талаффузга жуда мос. Лекин у, биринчидан, Америкадаги “*Бўстон*” билан боғлиқ талқинга тўғри келмайди, иккинчидан, луғавий маънога шаклан ўхшамайди, учинчидан, ўзбек тилида асли форс-тожик тилидан ўтган “*бўстон*” (“*боғу бўстон*” маъносида) деган мустақил сўз ҳам – бор. Ана шу уч асосга кўра, “*Бостон*”ни “*Бўстон*” деб бўлмас. Эҳтимол, “*Бостон*” деб олаверган тузук эди.

Таржимон матндаги сўзларнинг маъно нозикликларига жуда зукколик билан эътибор қилган. Бироқ асардаги жумлалар синтаксиси билан кўп ҳам ҳисоблашавермаган. Тўғрироғи, кўпинча Ч. Айтматовга хос ритмни ўз ритмига солиб ўтирган.

Романнинг учинчи қисми шундай бошланади: “*Люди ищут судьбу, а судьба – людей...*” (1, 209). Бир қарашда, мана бу таржимага эътироз – йўқдек: “*Одамлар – тақдирни, тақдир одамларни излаб юради...*” (1, 461). Бироқ таржимон ишлатган сўзларнинг ўзини аслиятдагидек тартибда қўлласа, услуб қайта яратилиши мумкин эди: “*Одамлар тақдирини излаб юради, тақдир эса – одамларни...*”. Ахир, ритм бевосита асарнинг руҳини белгилайди, у ёзувчининг ғоясию мақсадидан келиб чиқади.

Ритмни ўзгартириш, айниқса, Ч. Айтматовнинг катта-катта жумлаларини кичик-кичик бир неча гапга бўлиб ташлашда кўпроқ намоён бўлади. Бу катта жумлаларни ўгиришнинг салкам асосий йўлига айланиб қолган. Бир жумла икки, уч ва ундан ортиқ гап

бўлиб ҳам келади. Мана бу икки жумладан иборат парча ўзбекчага нақд ўн уч тўрт гап бўлиб ўтган:

“Вторым лицом в этой хунте – а хунтой они окрестили свою команду с общего согласия, – единственным, кто слабо возразил, был Гамлет-Галкин, бывший артист областного драматического театра: “Ну ее к шутам, хунту, не люблю я, ребята, хунты. Мы ведь отпраляемся на сафару, пусть будем сафарой!” – но к его предложению никто не присоединился, возможно, малопонятная “сафара” проигрывала на фоне энергичной “хунты”, – так вот вторым лицом хунты оказался некто Мишаиш, а если полностью – Мишка – Шабашник, тип, надо сказать, бычьей свирепости, который мог послать куда подальше даже самого обера” (1, 33 – 34).

“Бу тўп ўзини “хунта” деб атайди. Ҳаммалари шунга келишганлар. Фақат область драма театрининг собиқ артисти Гамлет-Галкингина “хунта” деб аташга эътироз билдирган: “Э, қўйинглар шу хунта-пунтасини. Жиним ёқтирмайди шу хунтани, болалар. Биз сафарга отланяпмиз. Келинлар, номимиз ҳам “сафар” бўлсин! Лекин Гамлет-Галкиннинг бу таклифига ҳеч ким қўшилмайди. “Сафар” сўзи унча тушунарли эмасди. “Хунта” дегани эса дадил ва ўктам эшитиларди. Шунинг учун кўпроқ шу сўз маъқул бўлди, шекилли. Ана шу хунтанинг иккинчи одами – Мишаиш деган кимса. Тўла айтганда, Мишаиш Шабашник. Кўтосдек серзарда бу зот истаган одамини, ҳатто, обернинг ўзини ҳам бзўралаб сўкиб юборишдан тоймасди” (2, 310).

Abstract: In this scientific article, we will consider the specific aspects of Japanese onomatopoeic words and their translation. There are approximately 4,000 onomatopoeic words in the Japanese language, and it is the most widely used word combination. Unlike the Uzbek language, there are 5 types of imitation words in Japanese, and imitation of sound and imitation of movement are the most important types, and almost all such word groups are written in pairs and repetitions. This article explains the issue of onomatopoeic words in translation and their difference from the Uzbek language in the analytical conclusion.

Key words: imitation, Japanese language, onomatopoeia, Japanese literature, imitation, action, state, feeling, hearing, sight, translation, equivalent.

“**Onomatopeya**” so‘zi yunoncha “**onomatopoeia**” so‘zidan olingan bo‘lib, “*ismlash, nomlash yoki nomlash san’ati*” degan ma’nolarni anglatadi. O‘zbek tilshunosligida ushbu atama “taqlid so‘zlar” bilan sinonim shaklda qo‘llash mumkin. Tovushlar inson va tabiat tovushlariga bo‘linadi. Inson tovushlari nutq a‘zolarining harakati asosida paydo bo‘lsa, tabiat tovushlari, odatda, narsalar bir biriga tegishi, urilishi, qisilishi, siqilishi, buralishi kabilar asosida paydo bo‘ladi. Shuningdek, hayvon-jonivorlarning tovushi: itlarning vovullashi, mushukning miyovlashi, qushlarning sayrashi, qo‘ylarning ma‘rashi, eshaklarning hangrashi kabilarga taqlid qilish asosida ham tilimizda bir qancha so‘zlar paydo bo‘ladi. Bunday so‘zlar tilshunoslikda taqlid so‘zlar deb yuritiladi. Taqlid so‘zlar, shuningdek, jonli-jonsiz narsalarning holatiga taqlidni bildiruvchi so‘zlardir. Shunga ko‘ra ikki turga bo‘lib o‘rganiladi:

1. Tovushga taqlid so‘zlar.

2. Holatga taqlid so‘zlar.

Yapon onomatopeyasi zamonaviy yapon adabiyot namunalarida: zamonaviy asarlar, manga, va asosan, animelarda, shuningdek, og‘zaki nutqda ko‘p qo‘llaniladi. Yapon tili taqlid so‘zlarining grammatik jihatiga yana to‘xtaladigan bo‘lsak, yapon taqlid so‘zlari kichik besh turga ajratib o‘rgatiladi:

—

Gi

ongo (ぎおんご | 擬音語) - jonli yoki jonsiz narsalarning tovushi, jumladan, tabiatdagi tovushlarni aks ettiruvchi taqlid turi. Masalan:

Yapon tilida	Ma’nosi
ぱらぱら (para para)	mayda tomchilab yog‘uvchi yengil yomg‘ir ovozi
ごろごろ (goro goro)	Momaqaldiroq ovozi yoki kata narsaning dumalagandagi tovush
ひゅー・ぴゅー (pyuu pyuu)	Shamolning esishi uchun ishlatiluvchi onomatopoetik so‘z

—

Gi

seigo (ぎせいご | 擬声語) - Bu onomatopeya so‘zlari jonli mavjudotlar tomonidan chiqarilgan tovushlarni ifodalaydi. Bunga hayvon hamda inson tovushlariga kiradi. Masalan:

Yapon tilida	Ma'nosi
すーすー (suu suu)	Uyqudagi sokin nafas olish tovushi
おいおい泣く (oioi)	Baland ovozda hamda dod deb yig'lashda ishlatiluvchi birikma
きゃっ きゃっ (kya kya)	Bolalarning maroq bilan o'ynashiga nisbatan qo'llaniluvchi onomatopeya

– **Git**

aigo (ぎたいご 擬態語) — holat hamda inson his-tuyg'ularini ifodalovchi taqlid so'zlar. Masalan:

Yapon tilda	Ma'nosi
ぎらぎら	Ko'zning porlashi
ほかほか	Tananing qizishi yoki ovqatning isishiga nisbatan ishlatiladi
むしむし	Haddan tashqari va insonni behalovat qiluvchi issiq havo

– **Gi**

yougo (ぎようご 擬容語) – Bu turdagi taqlid so'zlar odatda harakat yoki bir joydan ikkinchi joyga siljish bilan bog'liq harakatlarni tasvirlaydi. Masalan:

Yapon tilida	Ma'nosi
うろうろ	Maqsadsiz sayr qilish
すたこら	Tez yurish, ishtiyoq bilan yurish
のろのろ	Toshbaqaga o'xshab sekin va sust harakat qilish

Yapon tilida	Ma'nosi
くよくよ	O'tmish yoki arzimas narsalar haqida tashvishlanish

しんみり	Yolg'iz va sokin
うきうき	Baxtli, xushchaqchaq va orzu- umidga to'la hissiyotni ifodalaydi

—

Gij

ougo (ぎじょうご 擬情語) – his tuyg'ularni ifodalovchi taqlid so'zlar bo'lib, asosan, komikslarda ko'p uchraydi.

Yapon tilida taqlid so'zlar tovush yoki harakatga taqlid qilishdan ko'ra ko'proq vazifani bajaradi, ya'ni ular tovushlar, shakllar yoki mavhum his-tuyg'ularni ifodalaydi. Taqlid so'zlar yapon tilining barcha darajalarida, kundalik suhbatdan tortib, to gazeta va adabiyotda ham juda keng qo'llaniladi. Semantik jihatdan yapon tilidagi taqlid so'zlar nutqiy hodisalarni yanada jonli, ifodali va yorqinroq tasvirlashga xizmat qiladi. Taniqli yapon tilshunos olimi Sugiyama buni tasdiqlagan holda shunday degan edi: “Taqlid so'zlar ishlatilganda, yapon tilida so'zlashuvchilar gapning nimaga ishora qilinayotgani haqida aniqroq tasavvurga ega bo'ladilar”.

Yapon tili o'zining noyob fonologik, morfologik va semantik xususiyatlarga ega. Yapon yozuv tizimi 3 tizimdan iborat bo'lib, ular Hiragana , Katakana va Kanji . Aksariyat hollarda taqlid so'zlar hiragana yozuv tizimida, ba'zi hollarda esa katakanada beriladi, kanji esa qo'llanilmaydi.

Yapon tilidagi onomatopoeetik so'zlar ramziy so'zlarning o'ziga xos turkumiga kiradi va ma'lumotlarning ko'pligi va ifodaliligi tufayli kundalik nutq, adabiyot hamda ommaviy axborot vositalarida tez-tez qo'llaniladi. Biroq, tilshunoslarning aksariyati yapon tili va tarjima tillari o'rtasidagi tipologik farqlar tufayli ularni tarjima qilish qiyin deb bilishadi. Ular komikslarga uchinchi o'lchovni, ya'ni tovush o'lchovini beradi. Onomatopoeetik so'zlar turli millat va madaniyatlarda, ba'zan keskin farq qiladi. Shuning uchun har bir mamlakat o'zining onomatopoeetik iboralar to'plamiga ega. Dunyoning qayerida bo'lsangiz ham, biror narsaning ovozi odatda bir xil bo'ladi. Masalan, Angliya yoki Koreyada stakanni yerga tashlasangiz, u bir xil shovqin chiqaradi, ammo uni tasvirlash uchun ishlatiladigan tovushlar turli mamlakatlarda sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Turli tillarning tovush inventarlari tufayli bir xil tovush turlicha uchraydigan misollar:

Itning hurishi: Ingliz tilida *“Woof-Woof”* itning hurishini tasvirlash uchun ishlatilsa, o‘zbek tilida bu *“Vov-vov”* shaklida, rus tilida esa *“Gav-Gav”* asosan ishlatiladi. Agar ular kichik itlar bo‘lsa, ruslar odatda, *“Tyav-Tyav”* dan foydalanadilar. Fransuz tilida esa bu *“Ouaf-Ouaf”* shaklida ifodalanadi.

Chaqaloq yig‘isi: *“Wah-Wah”* ingliz tilida chaqaloq yig‘layotganini tasvirlash uchun ishlatilsa, fransuz tilida *“Ouin-Ouin”*, ispan tilida *“Bua-Bua”* ishlatiladi. *“Eungae-Eungae”* deya koreyslar chaqaloq yig‘laganda chiqaradigan tovushga ishora qilish uchun foydalanadilar.

Og‘riqni ifodalash: *“Ouch”* ingliz tilida kimdir jarohat olganida ishlatiladi, ammo fransuz tilida odam *“Aie”* deb qichqiradi. Boshqa joyda, ya’ni nemis tilida kimdir og‘riq yoki jarohat olganini ifodalash uchun *“Au”*, *“Aua”* yoki *“Autsch”* dan foydalanadi.

Ammo so‘z shakllari butunlay boshqacha bo‘lsa-da, aksariyat hollarda umumiy tushunish hissi mavjud. Mushuklar chiqaradigan shovqin onomatopeyalar o‘rtasidagi umumiy tushunishning bir misolidir: Ingliz tilida bu tovush *“Meow”* deb ta’riflangan bo‘lsa, nemis tilida *“Miau”*, fransuzcha *“Miaou”*, ispancha *“Miau”* va xitoycha *“Miao”*. Ularning barchasi bir xil tovushdan foydalanadi, bu holda “M” burun tovushi - shuning uchun tarjimalar bir xil bo‘lmasa-da, ular turli tillarni ishlatadigan turli millat va madaniyatlarga mansub odamlar uchun osongina tanib olinadi.

Hozirgi vaqtda yapon onomatopoetik so‘zlar tarjimalarini o‘rganish keng tarqalgan. Tarjima esa qiyin kurash maydoni desak yanglishmagan bo‘lamiz. Yapon olimi Hayase (1978) dastlabki tadqiqotida yozuvchi Yasunari Kavabataning *“Yukiguni”* (*“Qorlar mamlakati”*) asarining tarjimasida 186 ta onomatopoetik so‘zdan 59 tasi tarjima qilinmay qolganligini aniqladi. U buni tillarning turli tuzilishga egaligi, tarjima uslubi yoki so‘zni kengroq izohlash zarurligi bilan bog‘ladi.

Yaponlar tabiiy nutqni shakllantirish maqsadida taqlid so‘zlardan ko‘proq foydalanishga harakat qilishadi. O‘zbek tilida bu kabi holatda alohida fe‘l, sifat, ravish so‘zlar bor bo‘lgani holda yapon tilida bunday imkoniyat cheklanganligi sababli taqlid so‘zlar tildagi muhim aspekt sifatida uzluksiz rivojlanishda davom etadi. Mamalakatlararo turli madaniy, ilmiy va boshqa aloqalar natijasida tilga yangi so‘zlar ham kirib keladi va bu tilning boyishida juda muhim jarayon sanaladi. Ko‘rinib turibdiki, bu jihatdan o‘zbek va yapon tillari orasida farq katta. Ya’ni ular umuman boshqa boshqa so‘z turkumlariga mansub deb qaraladi. O‘zbek va yapon tillarida tabiat hodisalariga tegishli taqlid so‘zlar kirish so‘z

turkumiga kiradi, kirish soʻzlar esa alohida olingan soʻzlar guruhiga mansubdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Sugiyama Y. (2005). Not all verb-framed languages are created equal: The case of Japanese. Proceedings of the 31st Annual Meeting of the Berkeley Linguistics Society, 299-310.
2. <https://www.hercules-tc.com/language-management/language-intelligence-and-insight/translating-comics-and-cartoons-the-challenge-of-onomatopoeias/> (vebsayt).
3. Hayase M. (1978) Eigoyaku o toshite mita Nihongo no giseigo no tokucho. Kansai gaikokugo daigakukKenkyu ronshu (28), 117-127.
4. Bakirova S., Rahimova H. Onomatopeya soʻzlarining yapon tilini oʻrganishdagi muhim afzalliklari. Taʼlim fidoyilari. Konferensiya 2022.
5. Bakirova S., Rahimova H., Oʻzbek va yapon tillarini onomatopeya soʻzlari orqali qiyoslash, Taʼlim fidoyilari, 10.06.2022, ISSN 2180- 2130.
6. Otamurodova D.A. Leksikologiya: Fan dasturi. Toshkent, 2016. Oʻzbekiston.



ZAMONAVIY NASR VA SHEʼRIY TARJIMA MUAMMOLARI

ÖZBEK EDEBIYATINDAN SEÇME ESERLER: HİKÂYELER – ŞİİRLER (ANTOLOJİ)" ADLI KİTAP ÜZERİNE

*Prof. Dr. Hüseyin BAYDEMİR, Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi
Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölüm Başkanı. Erzurum, Türkiye.
hbaydemir@atauni.edu.tr*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasida Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligi Turkiya Respublikasining 100 yilligiga bagʻishlab kafedra professori v.b. filol. f.d. Xayrulla Hamidov tomonidan tayyorlangan “Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikâyeler – Şiirler (Antoloji) (“Oʻzbek adabiyotidan tanlangan asarlar: Hikoyalar – sheʼrlar (antologiya)” nomli kitob haqida soʻz yuritiladi.

Kalit soʻzlar: Oʻzbek-turk adabiy aloqalari, Özbek edebiyatı, roman, hikoya, sheʼr, badiiy tarjima.

Аннотация. В данной статье речь идет о книге «Избранные произведения узбекской литературы: Рассказы – стихи (антология)» [“Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikâyeler – Şiirler (Antoloji)], посвященной 32-летию независимости Республики Узбекистан и 100-летию Турецкой Республики, подготовленной на кафедре «Переводоведение и международная журналистика» Ташкентского государственного университета востоковедения, и.о. профессором д.ф.н. Хайруллою Хамидовым.

Ключевые слова: Узбекско-турецкие литературные связи, узбекская литература, роман, рассказ, стихотворение, художественный перевод.

Abstract. This article is about the book “Selected Works of Uzbek Literature: Stories - Poems (Anthology)” [“Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikâyeler – Şiirler (Antoloji)], dedicated to the 32nd anniversary of the independence of the Republic of Uzbekistan and the 100th anniversary of the Turkish Republic, prepared at the department of “Translation Studies and International Journalism” of the Tashkent State University of Oriental Studies, and .O. Professor Doctor of Philology Khairulla Khamidov.

Key words: Uzbek-Turkish literary connections, Uzbek literature, novel, story, poem, literary translation.

2023 yılında 100 yaşını dolduran Türkiye Cumhuriyeti ile 32 yaşını geride bırakan Özbekistan Cumhuriyeti arasındaki ilişkiler her geçen gün daha da güçlenerek ilerlemektedir. İki toplum arasındaki ilişkilerin önemli bir ayağı da edebi alakalardır. Büyük Türk dili ailesinin iki büyük lehçesi olan Özbekçe ve Türkiye Türkçesi yaklaşık 1000 yıldan beri yazı dili olma özelliği taşımaktadır. Özbekçe doğu Türkçesinin, Türkiye Türkçesi ise batı Türkçesinin ana koludur. Her ikisi de imparatorluk dili olma tecrübesine sahiptir. Her ikisi de bütün Türk lehçeleri içinde söz varlığı açısından en zengin lehçelerden ikisidir. Bu iki toplumun dilleri kadar edebiyatları da zengin, renkli ve çok yönlüdür. Sovyetler Birliği döneminde kısa süreliğine kesintiye uğrayan edebi etkileşim, 1991 yılında Özbekistan’ın bağımsızlığa ulaşmasıyla tekrar kaldığı yerden devam etmeye başlamıştır. Kaldığı yerden devam etmeye başladı dememizin sebebi, Sovyetler Birliği dönemine kadar bu iki edebi muhitin birbirini çok yakından takip ediyor olmasındandır.

Edebi alakaların güçlenmesini sağlayan en önemli faaliyet alanlarından biri de çeviridir. Özbekistan’ın bağımsızlığını kazanmasından itibaren iki edebi saha arasında karşılıklı çeviriler hız kazandı. Bunlardan biri de Özbek bilim adamı ve tercüman, Taşkent Devlet Şarkşinaslık Üniversitesi Çeviri Teorisi ve Uluslararası Gazete-

cilik Ana Bilim Dalı öğretim üyesi Doç. Dr. Hayrullah Hamidov'un hazırladığı “*Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikâyeler – Şiirler (Antoloji)*” adlı çeviri kitabıdır. 2023 yılında Taşkent’te “*Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi*” tarafından basılan kitap, Özbekistan Cumhuriyeti’nin bağımsızlığının 32. yıldönümü, Türkiye Cumhuriyeti’nin kuruluşunun 100. yıldönümü, Taşkent Devlet Şarkşinaslık Üniversitesinin kuruluşunun 105. yıldönümü ve TÜRKSOY Uluslararası Türk Kültürü Teşkilatının kuruluşunun 30. yıldönümüne ithaf edilmiştir. Kitabın tanıtımı 27 Ekim 2023 tarihinde Taşkent Devlet Şarkşinaslık Üniversitesinde, Türkiye Cumhuriyeti Taşkent Büyükelçisi Sayın Olgan Bekar’ın da katılımlarıyla, Türkiye Cumhuriyeti’nin 100. yılı anısına düzenlenen programda yapıldı.

Kitap XX. yüzyıl Özbek edebiyatının en güzel örneklerinden olan ünlü yazar ve şairlerin seçme hikâyeleri, şiirleri ve destanlarını içermektedir. Özbek halkının milli kimliğini en güzel yansıtan eserlerin seçilmesi, eserlerin muhtevasına halel getirilmeden çevrilmesi, sanat ve üslup özelliklerinin korunması hususlarında azami titizliğin gösterilmesi, bu çalışmanın özgün ve başarılı yönlerinden birini teşkil etmektedir. Dolayısıyla Hayrullah Hamidov Hocamızın yayımlamış olduğu bu kitap alanında çok önemli bir boşluğu dolduracaktır.

XX. yüzyılın 30’lu yılları çağdaş Özbek edebiyatının oluşması ve gelişmesinde özel bir dönemdir. Bu döneme bilhassa Abdulla Kadiri, Aybek, Abdulla Kahhar gibi güçlü edipler damga vurmuşlardır. 1970’li ve 1980’li yıllarda bir yandan Said Ahmed, Adil Yakubov, Pirimkul Kadirov, Askad Muhtar, Mirmuhsin gibi ünlü yazarlar ve bu kuşağın devamı sayılan Uçkun Nazarov, Ölmes Ömerbekov, Aman Muhtar, Ötkir Haşimov, Şükür Halmırzayev, Tahir Melik gibi genç yazarların eserleri Özbek hikâye ve romancılığını yeni bir seviyeye taşır. Erkin Vahidov, Abdulla Aripov, Aman Matcan gibi şairlerin şiirleriyle Özbek şiirinde yeni bir dönem başlar. Bu dönemde yazılan eserler konu bakımından da oldukça geniştir.

1990’lı yıllardan başlayan Bağımsızlık dönemi ise, uzun bir tarihe sahip Özbek halkı için bir dönüm noktası olmuş, milletin dayanağı olan maddi ve manevi temeller baştanbaşa değişmiştir. Toplumsal değişim, insanların dünyaya bakış açısını, manevi dünyasını büyük ölçüde etkilemiştir. Dolayısıyla, insanın iç dünyasının değişmesi, yeni dönem insanların ortaya çıkmasını sağlamış, Özbek edebiyatında yeni konular, yeni imgeler boy göstermiştir. Bu konuda ünlü bilimadamı

Naim Kerimov “Edebiyat, gerçek anlamda, milli ve ulusal olmalı, Özbek halkının yaşamını, hayallerini, kalbini, ruhunu yansıtmalıdır” diye yazmıştı.

Özbek halkının yaşam tarzı, örf âdetlerinin edebiyat, özellikle, edebi çeviri aracılığıyla dünyaya tanıtılması günün öncelikli vazifelerindendir. Bu bağlamda bağımsızlık öncesi ve sonrası dönem çağdaş Özbek edebiyatının en seçkin eserlerinin Doğu dillerine, özellikle aynı aileden olan çağdaş Türkçeye çevrilerek yayınlanması önemlidir.

Elinizdeki kitap iki bölümden oluşmaktadır: Özbek hikâyeleri ve Özbek şiirleri. Birinci bölümde ünlü Özbek yazarlarından Abdulla Kadiri’nin 1920’li yıllarda yazdığı “Cinler Bezmi”, “At Yarışı” adlı hikâyeleri; Aybek’in 1930’lu yıllarda yazdığı “Fenerci Dede”, “Kumru”, “Hayal Kırıklığı” adlı hikâyeleri; Abdulla Kahhar’ın “Sanatçı”, “Yıllar”, “Nineler Telefon Açtılar”, “Kim Suçlu” adlı hikâyeleri; Seyid Ahmed’in “Üvey Anne” (Mehribon), “Kardelen” (Ko‘klam chechaklari), “Fotoğraf” (Surat) adlı hikâyeleri, “İlkbahar Senfonisi” (Ko‘klam taronalari) adlı nesri destanı ve o meşhur “Karagöz Mecnun” (Qorako‘z Majnun) adlı hikâyesi, Ölmes Ömerbekov’un “Abdulla Kavuncu” (Abdulla Qovunchi) ve “Bahar Nefesi” (Ko‘klam nafasi) hikâyesinin Türkçe çevirisi yer almaktadır.

Bu bölümde yer alan bazı hikâyelere XX. yüzyılın en ağır dönemi, özellikle İkinci Dünya Savaşı ve savaş sonrası dönem insanların yaşamı ve düşünceleri konu edilmiştir. Kahramanlar toplumun en sıradan insanlarından seçilmiş olup, bu hikâyeleri okurken yazarların psikolojik tasvir mahareti ve de dönemin psikolojisine muvafık kısa ifadelerden oluşan edebi üslup dikkat çekmektedir. Örneğin, ünlü Özbek yazarı Ötkir Haşimov’un özel hayatı ve yaklaşık 50 senelik yazarlık faaliyeti sırasında yaşadıkları ve düşündükleri, büyük hayat tecrübesinin sonucu, yazarın özel günlüklerinin kenarlarına yazdığı notlardan oluşan “Derkenar Yazıları” (Daftar xoshiyasidagi bitiklar) adlı eseri, küçük hikâyelerden oluşan, dünyanın bir kaç diline tercüme edilerek geniş okur kitlelerine ulaşmış “Bu Dünyanın İşleri” (Dunyoning ishlari) ve hayat gerçekleri ve insan kaderini konu edinen “Ak Bulut, Appak Bulut” (Oq bulut, oppoq bulut) adlı eserlerinden seçilmiş hikâyeler, ciddi düşünce, sosyolojik analizler içeren “Savaşın Son Kurbanı” (Urushning so‘nggi qurboni), “Mutluluk” (Baxt), “Tesdaüf” (Tasodif) adlı hikâyeleri bu cümledendir. Ayrıca, seri öyküler ve romanlar yazarı Tağay Murad’ın “Dede ve Torunu” (“Bobosi bilan nevarasi”) adlı hikâyesi ve “Babamdan Kalma Tarlalar” (Otamdan

qolgan dalalar) romanından alıntı, Yeni Özbek edebiyatının meşhur temsilcilerinden İsaçan Sultan'ın Yaşam (Turmush) hikâyesi, Uluğbey Hemdem'in "Bir Kâse Su" (Bir piyola suv) ve "Heykeller Adası" (Haykallar oroli) adlı hikâyeleri, Abdulla Ayizov'un "İnsanlar Gazete Okuyormuş" (Gazeta o'qisharkan) adlı hiciv hikâyesi ve "Güreşçinin ağladığı gece" (Polvon yig'lagan tun) romanından alıntının Türkçe çevirisi yer almaktadır.

Bir yandan çağdaş Özbek edebiyatında eşsiz karakterler galerisini yaratmış, halk edebiyatı geleneklerine bağlı, sıradan insanlara özgü olan zekâ, halk bilimine özgü üslup ve betimlemenin ender örnekleri olan hikâyeleri kaleme almış ünlü yazar, XX. yüzyıl Özbek hicvinin atası, hiciv ve mizah yazarlarının da üstadı sayılan Said Ahmed'in XX. yüzyıl sonu insanların yaşamı ve düşüncelerini konu edinmiş, kahramanları da toplumun en sıradan insanlarından seçilmiş olan hikâyelerini keyifle okurken, öbür yandan Aybek'in psikolojik tahlil maharetini, Gafur Gulâm'ın hicvini, Abdullah Kahhar'ın kısa ifadeli üslubunu keşfedebilirsiniz.

Kitabın ikinci bölümünü, fevkalade yeteneği, derin yaşamsal ve felsefi düşünceleri, ruhun derinliklerinden akan tutkuları, şiire getirdikleri ahenkler, kendilerine özgü sanatsal tarzlarıyla edebiyat tarihinde kendilerine özgü mektep oluşturmuş şairlerden Erkin Vahidov, Abdulla Aripov, Aman Matcan, Hüsniddin Şaripov ve Muhammed Yusuf'un şiir ve destanları oluşturmaktadır.

Bağımsızlık dönemi uzun bir tarihe sahip Özbek halkı için bir dönüm noktası olmuş, milletin dayanağı olan maddi ve manevi temeller baştanbaşa değişmiştir. Toplumsal değişim, insanların dünyaya bakış açısını, manevi dünyasını büyük ölçüde etkilemiştir. Dolayısıyla, insanın iç dünyasının değişmesi, yeni dönem insanının ortaya çıkmasını sağlamış, Özbek şiirinde de yeni konular, yeni imgeler ortaya çıkmıştır. Özbek şiirinin konuları millî özellikler çerçevesinde genişlemiş, şiirlerin içeriği zenginleşerek yeni yeni betimleme araçları ile gelişmiş, şiirlerin dili, halkın diline daha çok yaklaşmıştır.

Bir edebi eserin kardeş bir dilden bile olsa tercüme edilmesi ve buna harcanan emek, diğer tercümelerden daha kolay değildir. Bunun da kendine özgü zorlukları ve çevirmeni düşündüren tarafları vardır. Tercüme sırasında orijinaldeki kelimenin anlamını tam karşılayabilen kelime ya da ifadeyi bulup yerli yerine koymak hakikaten kolay iş değildir. Böylesine zor ve hassas bir işin üstesinden gelen tercümanın çalışmalarının değerlendirilmesi, çevirilerinin daha geniş kitlelere

ulaştırılması son derece önemlidir. Bu amaç doğrultusunda hazırlanmış olan ve XX. yüzyıl Özbek nesri ve şiirinin gelişmesine büyük katkı sağlamış meşhur yazar ve şairlerin en güzel hikaye, şiir ve destanlarını içeren bu kitap, Özbekistan’da Türkçe öğrenen üniversite ve lise öğrencileri, Türk Dili ve Edebiyatı öğretmenleri, çeviri teorisi ve pratiği alanında araştırma yapan uzmanlar, Özbekçe ve Türkçeyi karşılaştırmalı olarak incelemek isteyen araştırmacılar, ayrıca, zengin Özbek edebiyatının en seçkin eserleriyle yakından tanışmak isteyen Türk okurlarının hizmetine sunulmuştur. Eserin, beklenen hizmeti yerine getireceği aşikardır.

Kaynaklar:

1. Özbek Edebiyatı’nın Seçme Eserleri, Çeviri Kitabı, Yayın Yönetmeni \ Editor Hayrulla Hamidov, Taşkent, 2013, 152 s.
2. Özbek edebiyatı’nın seçme eserleri, 3. Bölüm. Muhammad Yusuf, Şiirler. Destanlar, Taşkent, Taşkent Devlet Şarkşinaslık Enstitüsü, 2014. - 56 s.
3. Ahmed, Said, Miras (hikâye) (Türkçeye çeviren Hayrullah Hamidov). Güncel Sanat, Kültür Sanat Edebiyat Dergisi, İki Aylık Yerel Süreli Yayın, Kasım -Aralık 2016 / Yıl:8 - Sayı:45.
4. Said Ahmed. Seçme Hikayeler Tercüman ve Yayına Hazırlayan: Hayrullah Hamidov. – Ankara: – 2020. 160 s.
5. Aripov Abdulla, Seçme Şiirler. – Taşkent, Nodirabegim nashriyoti. – 2021. – 76 s.
6. Aman Matcan, Seçme Şiirler. – Taşkent, TDSHU. – 2023. – 84 s.
7. Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikâyeler – Şiirler (*Antoloji*). – Taşkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2023. – 464 s.



OYBEKNI TURKCHA “SO‘ZLATGAN” IJODKOR

DSc. **Xayrulla HAMIDOV**, TDSHU professori v.b., Toshkent, O‘zbekiston

Tel: 90 960 06 23; E-mail: hamidovx@gmail.com

Kamola RASULOVA, TDSHU stajer o‘qituvchisi, Toshkent. O‘zbekiston.

Tel: +998 93 386 63 05; E-mail: rasulovakamola0120@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada atoqli o‘zbek adibi Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek qalamiga mansub “Qutlug‘ qon” va “Oltin vodiidan shabadalar” romanlarini turk tiliga ag‘darib Turkiyaning “Bengu” ve “Nobel” nashriyotlarida

chop ettirgan ijodkor, olim Zamira Hamidovaning tarjimonlik faoliyati xususida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: oʻzbek-turk adabiy aloqalari, roman, asliyat, badiiy tarjima.

Аннотация. В данной статье речь идет о переводчице и ученой Замире Хамидовой, которая перевела на турецкий язык романы выдающегося узбекским писателя Мусо Ташмухаммеда Айбека «Священная кровь» и «Ветерки из золотой долины», опубликованные в издательствах "Нобель" и «Бенгу» в Турции.

Ключевые слова: Узбекско-турецкие литературные связи, роман, оригинал, художественный перевод

Abstract. This article is about the translator and scientist Zamira Hamidova, who translated into Turkish the novels of the outstanding Uzbek writer Muso Tashmuhammed Aybek “The Sacred Blood” and “Winds from the Golden Valley”, published by the Nobel and Bengu publishing houses in Turkey.

Key words: Uzbek-Turkish literary connections, novel, original, literary translation.

Joriy yilning ilk haftasida Turkiyada yashab ijod qilayotgan tarjimon, atoqli oʻzbek adibi, akademik Muso Toshmuhammad oʻgʻli Oybek qalamiga mansub “Qutlugʻ qon” [1] va “Oltin vodiya shabaddalar” [2] romanlarini turk tiliga agʻdarib Turkiyaning “Bengu” va “Nobel” nashriyotlarida chop ettirgan yurtdoshimiz Zamira Hamidova (Ozturk) bilan respublikamizning bir necha viloyati (Sirdaryo, Samarqand va Namangan)da va poytaxt – Toshkent shahrida ijodiy uchrashuvlar, davra suhbatlari va ijodkor tarjima qilgan va olim sifatida yaratgan ilmiy monografiyalarining taqdimotlari boʻlib oʻtdi. Jumladan, 6.09.2023 kuni Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oʻzbek tilini rivojlantirish jamgʻarmasi hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini oʻqitish va malaka oshirish markazi bilan hamkorlikda boʻlib oʻtgan tadbirda Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini oʻqitish va malaka oshirish markazi direktori I.Azimov, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oʻzbek tilini rivojlantirish jamgʻarmasi direktori A.Eminov va talaba yoshlar ishtirok etishdi. Tadbirni I.Azimov ochib berdi, Markaz direktori oʻz nutqida tarjima qilingan romanning ahamiyati jihatidan muhimligi, Zamira Hamidovaning tarjimonlik faoliyati bilan mehmonlarni tanishtirdi. Ushbu romanning tarjima qilinishi oʻzbek millati madaniyati, tarixi targʻiboti yoʻlida qoʻyilgan qadamlardan biri ekanligini taʼkidladi. Oʻzbekiston

xalq yozuvchisi Isajon Sulton Oybekning asarlari o‘zbek xalqi kim ekanligini aniq ko‘rsatib turishi bilan boshqa yozuvchilardan ajralib turishini alohida ta’kidladi⁸.

Uchrashuvda so‘zga chiqqan Zamira Hamidova asarni tarjima qilishdagi mashaqqatlar haqida gapirib, “Agar tarjima qilayotgan asaringizni tushunmas, uni teran his etmas ekansiz, tarjima qilishingizning hojati yo‘q. Millatning madaniyati, ruhiyatini ko‘rsatib turadigan asarni to‘g‘ri, asliyatga mos tarjima qilish muhimdir”, dedi. Tadbir so‘ngida O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan nashr etilgan kitoblar talabalarga sovg‘a qilindi.

Xuddi shunday uchrashuv va "Qutlug‘ qon", "Oltin vodiya shabadalar" romanlari turkcha tarjimasi nashri taqdimoti Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida, Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti va Alfraganus universitetida ham tashkil etildi. Sharqshunoslik universitetida o‘tkazilgan tadbirda “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasida professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, Turkiy tillar kafedrasida o‘qituvchilari va talabalari ishtirok etishdi. Unda asar haqidagi fikr-mulohazalar, tarjima mashaqqatlari bilan bog‘liq qiziqarli ma’lumotlar berildi.

Shu o‘rinda, so‘z borayotgan tarjimon haqida qisqacha ma’lumot: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), tarjimon Zamira Hamidova 1976 yilning 10 yanvarida Andijon viloyati Baliqchi tumanida tug‘ilgan. Uning o‘z bolaligi haqidagi quyidagi samimiy so‘zlari e’tiborimizni tortdi: “Besh yoshimda o‘qish-yozishni o‘rganganman. Adabiyotga qiziqishim bolalik chog‘larimdan boshlangan. Kichik yoshlarimdan uydagi bor kitoblarni o‘qir edim, Toshkentga borib-keladiganlardan menga kitob olib kelishlarini iltimos qilardim. Onam menga ish buyurganlarida bir parcha qog‘oz ko‘rib qolsam shuni tugatmaguncha qo‘ldan qo‘ymasligimni ko‘p eslardilar. U paytlar pochta orqali uyga juda ko‘p gazeta-jurnal kelardi. Hayotimda eng yaxshi ko‘rgan narsam pochta qutisini tekshirish edi, pochta qutisi to‘la bo‘ldimi mendan baxtli inson yo‘q edi. Vodiya qarinoshlar bilan maktublashishni judayam yaxshi ko‘rardim. Kommunikatsiya sohasiga bo‘lgan qiziqishim o‘sha

⁸ Taqdimotlar haqida maxsus reportajlar "Toshkent" telekanali orqali efirga uzatilgan.

paytlardan boshlangan bo'lsa ajab emas. Turkiyaga ilk marotaba 2000-yilda kelganimdan keyin bu yerdagi tanish-bilishlarim bilan ancha vaqtgacha maktublashib yurgandik. O'ylab qarang, qancha tog'-tosh, daryolar oshib to'rt-besh ming kilometrdan uyingizga maktub kelyapti... Birinchi marta o'qigan romanim "Ikki eshik orasi" bo'lgan. Sakkiz yoshda edim. Bir kuni qaragam, "Sharq Yulduzi" jurnalining yangi sonida O'tkir Hoshimov degan yozuvchining yangi romani berilibdi. Romanning ilk bo'limidan juda qattiq ta'sirlandim. Jurnalning keyingi sonini sabrsizlik bilan kuta boshladim. Bir kuni "Minavor Minavor cho'ntagingda nima bor?" deganimni onam eshitib romanni o'qiyotganimni sezib qoldilar va yoshimga mos kelmasligini aytib koyidilar..."

Zamira Hamidova Sirdaryo viloyati, Oq oltin tumani, "Farg'ona" qasabasidagi Amir Temur nomli 5-o'rta maktabda o'qigan. Ota-onasi boshlang'ich sinfdan to maktabni bitirgungacha ilm bergan butun o'qituvchilari unga doimo ishonch bilan qarashgan. Ularning qizlariga bo'lgan ishonchlari o'z ustida ishlashi, yaxshi o'qishi, qiyinchiliklarni yengib o'tishida juda katta rol o'ynagan, qo'rqmasdan kelajakka doir rejalar tuzishiga undagan bo'lsa ajabmas. Zamiraning chet tiliga bo'lgan qiziqishi o'sha paytlarda ko'pchilikda bo'lgani kabi rus tilidan boshlangan. Ko'pmillatli mahallada katta bo'lgani, rus, qozoq, koreys, tatar millatiga mansub qo'shnilar bilan tinch-totuv yashagani va maktabda chet tili o'laroq nemis tili o'qigani, Nizomiy nomidagi pedinstitutga o'qishga kirganidan so'ng turk tilini o'rgangani, maktab davrlarida bolalar xorida qo'shiq aytgani, keyinchalik esa turk xalq qo'shiqlari (turkular)ga mehr qo'ygani bugunga kelib iste'dodli ijodkor, so'z ohangini teran his qiluvchi tarjimon bo'lishi uchun mustahkam zamin hozirlaganiga hech shubha yo'q. Zero bolaligidan haqiqiy musiqa, xususan maqomni teran his qiluvchi insonda har doim bir necha iste'dod mujassam bo'lishi ilmda o'z isbotini topgan. Zamira Hamidovaning o'zi bu xususda shunday deydi: "Turkular turk millatini, bu xalqning urf-odatini, maqol va iboralarini, his-tuyg'ularini qanday ifoda etishini o'rganishimda menga juda katta yordam bergan, Toshkentdagi Nizomiy pedinstitutida bizga turk tili va adabiyotidan dars bergan ustozimiz, yaqinda Amasyadagi litseydan (Amasya Öğretmen Lisesi) nafaqaga chiqqan Adnan Chakiji (Adnan Çakıcı) bilan san'at, adabiyot haqida juda ko'p suhbat qilardik. Shunday suhbatlardan birida "İnsanı ağlatmayan türkü türkü sayılmaz

(Insonni yig‘latmagan xalq qo‘shig‘i (türkü) qo‘shiq emas) degan gapimni ustoz haligacha eslab yurar ekanlar...” [3]

Darvoqe, olim va tarjimon Zamira Hamidova Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti / O‘zbek-qozoq filologiyasi fakulteti, qo‘shimcha Turk tili va adabiyoti bo‘limida bakalavriat bosqichini, Turkiyadagi Marmara universitetining magistratura bosqichini tamomlagan. Bir necha yil avval taniqli turk adibi Umar Sayfiddinning “Badal”, “Ont”, “Yakkama-yakka”, “Qurbaqa duosi”, “Karomat”, “Baland poshnalar” va “Cho‘qmor” hikoyalari o‘zbek tiliga tarjima qilgan va Marmara universitetida ushbu asarlardagi qo‘shma fe‘l hamda iboralarni o‘zbek tilidagi muqobillari bilan solishtirish mavzusida qiyosiy tilshunoslik mutaxassisligi bo‘yicha magistrlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Zamira Hamidova Turkiyaning Hojattepa universitetida “O‘zbekistonda til siyosati: standartlashtirish va modernizatsiya” mavzusida falsafa doktorligi (PhD) disertatsiyasini himoya qilgan. Bu ilmiy ish “Turkistonda til siyosati” (O‘zbekiston misolida) (Türkistan’da Dil Politikası Özbekistan örneğinde) nomi bilan 2022-yili Bengü nashriyotida chop etildi. O‘zbekistonlik vatandoshimiz 2003-2008-yillarda Istanbul shahar hokimiyatiga bog‘liq “Turk dunyosi qardoshlar jamiyati”da o‘zbekistonlik talabalar vakili lavozimida faoliyat yuritgan. “Turkiston madaniyat va ijtimoiy yordam uyushmasi” tarafidan tashkil etilgan o‘zbekcha kursi bo‘yicha o‘qituvchilik qilgan. Shuningdek, 2014-2018-yillarda Bosh vazirlik, Matbuot va axborot bosh boshqarmasida tarjimonlik qilgandan so‘ng 2018-yildan beri Turkiya Respublikasi Prezidenti adminstratsiyasi, Kommunikatsiyalar boshqarmasida tarjimon sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

20 yildir Turkiyada yashayotgan Zamira Hamidova vatanimiz, tilimiz va adabiyotimiz, urf-odatimizni turk xalqiga tanitish, targ‘ib qilish uchun qo‘lidan kelganini qilib kelmoqda. “Hech bo‘lmaganda o‘zbek palovi pishirib bu taomni ilgari tatib ko‘rmagan insonlarga ikrom etish eng yaxshi ko‘rgan ishlarimdan biri. Bu yil (2023) avgust-sentabr oylarida O‘zbekistonning turli shaharlarida o‘tkazgan kitob taqdimotlarimda o‘zim o‘zimni chetdan kuzatdim. 20 yil davomida qilgan ishlarimni sarhisob qildim, chunki shu kungacha bularni o‘ylashga fursat bo‘lmagandi. O‘tkazgan tadbirlarimda menga eng ta’sir qilgan, menga yangi kuch va g‘ayrat bag‘ishlagan narsalardan biri yoshlarning “Sizga havas qildik, ustoz” deyishlari bo‘ldi. Demak, 20 yil umrim, tortgan azob-uqubatlrim bekor ketmabdi...” – deydi olim. Dar-

haqiqat, mamlakatimizda va Turkiyada juda katta ehtiyoj sezilayotgan o‘zbekcha – turkcha lug‘atga yetti yilini sarflaganini ta’kidlagan Zamira Hamidova ushu lug‘atning Turkiyadagi Nobel nashriyotida chop etilayotganini aytadi: “Ko‘pchilikka ma’lum bo‘lganidek lug‘at yozish eng qiyin ishlardan biri. O‘ylaymizki, bu lug‘atimiz o‘zbek va turk tillarida ish olib borayotgan va bu tillarni o‘rganmoqchi bo‘lgan barchaga foydali bo‘ladi...”

Zamira Hamidova “Turkistonda til siyosati” (O‘zbekiston misolidagi) [4], “Asab ve Ruhiyat” [5] professor Zarifboy Ibodullayevning kitob tarjimasini, “Ishq tili Yunus Emro” Dr.Mustafo Totchi asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Turkiyada nashr etilishi kutilayotgan “O‘zbekcha-turkcha” ikki tilli izohli lug‘at olimaning eng ko‘zga ko‘ringan kitoblari orasida muhim o‘rin egallaydi, deb umid qilamiz.

Atoqli adibimiz, XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Musa Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning o‘zbek xalqi tarixining XV va XX asrlardagi hayoti yorqin badiiy aks etgan “Navoiy”, “Qutlug‘ qon” va “Quyosh qoraymas” romanlari shu kunga qadar arab, fors va MDH davlatlari tillariga tarjima qilingan bo‘lsa, bugunga kelib turk tiliga ham o‘girilib nashr etildi. “Navoiy” romani so‘nggi chorak asr davomida turk tarjimonlari tomonidan ikki marta turkchaga ag‘darilib, nashr etilgan bo‘lsa, bundan-da quvonarlisi, adibning “Qutlug‘ qon” va “Oltin vodiyan shabadalar” romanlari o‘zbek tarjimoni Z.Hamidova tomonidan turk tiliga ag‘darilib Turkiyaning “Bengu” va “Nobel” nashriyotlarida chop ettirdi. Zamira Hamidova o‘zbek adabiyotining iki durdonasini nashr etish jarayoniga turkiyalik ijodkor, Yevroosiyo yozuvchilar uyushmasi raisi, “Bengü” nashriyoti mudiri Yoqub Umar o‘g‘li va “Nobel” nashriyoti bosh muharriri Nevzat Argun va nashriyot koordinatori, tahririyat kengashining bosh kotibi Gul-fem Dursun xonimlar boshchiligi va homiyligida malakali turk mutaxassislari, muharrir va dizaynerlar guruhi jalb qilingani, “Qutlug‘ qon” romaniga turkiyalik taniqli jurnalist, muharrir, ayni paytda Turkiya atrof-muhitni muhofaza qilish, shaharsozlik va iqlim o‘zgari-shi vaziri matbuot kotibi Laylo Gunesh xonim mas’ul muharrirlik qilgani, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Naim Karimovning “Oybek va uning “Qutlug‘ qon” asari haqida” nomli so‘zboshisi ushbu nashr ahamiyatini yanada oshirganini samimiy e’tirof etadi.

“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida PhD.Shuhrat Hayitovning “Adabiy hamkorlik” rukni ostida bosilgan “Qutlug‘ qon” ro-

mani turk tilida” nomli maqolasida “Qutlug‘ qon” romanining turk tiliga tarjimasi ikki qardosh xalq o‘rtasidagi azaliy adabiy hamkorlikning bugungi ifodasi, madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikning samarasi ekanligi ta’kidlanadi [6].

Kitobda adib hayoti va ijodi hamda XX asr o‘zbek adabiyoti haqida ham tushuncha berib o‘tilganki, bu narsa turkiyalik kitobxonlarga Oybek haqida keng tasavvur beradi. Shuhrat Hayitov yana shunday yozadi: “O‘zbek adabiyotining Turkiyadagi tolmas tadqiqotchilaridan biri Zamira Hamidova tomonidan tarjima qilingan “Qutlug‘ qon” asari o‘zbek-turk adabiy aloqalari tarixida Alisher Navoiy, Bobur, Lutfiy, Atoy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi allomalarimiz asarlarining turk tilidagi tarjimalaridan keyingi qimmatli nashr sifatida qadrlidir. Bu tarjima olimaning Yevro Osiyo xalqlari adabiy aloqalariga doir ko‘p yillik izlanishlari, tinimsiz mehnati samarasi, qolaversa, o‘zbek adabiyotiga bo‘lgan ulkan ehtiromi ramzidir”.

“Qutlug‘ qon” romanining turk tiliga tarjimasining Toshkent va viloyatlarda o‘tkazilgan taqdimotlarida so‘zga chiqqan Zamira Hamidova mazkur asarning tarjima qilish jarayoni bilan bog‘liq qiziqarli ma’lumotlar berar ekan, uning asl mazmunini saqlab qolish, turk tilida yanayam jozibali ko‘rinishda ega bo‘lish uchun ko‘plab turk filologlari bilan suhbatlashganini ham ta’kidladi.

Tarjima o‘ta murakkab, o‘ta nozik, sermashaqqat ish. “Men tarjima qilishni matematikadan misol yechishga o‘xshataman, deydi Zamira Hamidova, – Tashqaridan qaraganda oddiygina ishday ko‘ringan bu soha aslida juda murakkab. Chunki har bir so‘zning o‘z kuchi, og‘irligi, shiddati, rangi bor. Bir tilda berilgan so‘zning o‘girilishi kerak bo‘lgan tildagi so‘zning yuqorida aytib o‘tilgan, birma-bir xususiyatga ega bo‘lgan so‘zni topib ishlatmas ekansiz “tarozining pallalari teng turmaydi, og‘ib ketaveradi”. U tarjimonlik kasbini kasblar orasida bu ishni qilayotgan insonga har kuni qandaydir yangi ilm o‘rgatadigan kasb deb hisoblaydi. “Sababi har yangi matn bizni yangi mavzu haqida bilim egasi bo‘lishimizni talab qiladi, xohlasak xohlamasak har yangi matnda qanchadan-qancha ma’lumotga ega bo‘lamiz, miyamizni charxlab turamiz”, – deydi olima.

Xulosa o‘rnida filol.f.b.f.d. (PhD) Shuhrat Hayitovning quyidagi so‘zlarini keltirmoqchimiz: “Z.Hamidova asar (“Qutlug‘ qon”) tarjimasida so‘zning ifodaviy imkoniyati cheksiz ekanligini his etadi. Tarjima jarayonida oybekona til va uslub go‘zalligini imkon qadar saqlab qolishga intiladi. Bu asar tarjimasi ijodkorning qariyb o‘n yillik meh-

natlari samarasidir. O‘ylaymizki, ushbu tarjima turk kitobxonlariga manzur bo‘ladi, Oybek hayoti va ijodini o‘rganishdagi keyingi tadqiqotlar uchun asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi” [6]. Darhaqiqat, ushbu maqola, Oybek asarlari turkcha tarjimalarida muallif uslub, milliylik va badiiylikning qayta yaratilishi mavzusiga bag‘ishlab boshlangan tadqiqotning kichik bir parchasi bo‘ladi degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

- [1] Aybek, M. Kutlu kan, Roman, Çev. Zamira Öztürk. – Ankara.:Bengü, 2023
[2] Aybek, M. Altın Vadiden Esintiler, Roman, Çev. Zamira Öztürk. – A.:Nobel, 2023
[3] – https://www.instagram.com/p/CnPvYs8tLMU/?img_index=1
[4] – Öztürk, Z. Türkistan’da dil politikası (Özbekistan Örneğinde) – Bengü.: 2022
[5] – İbadullayev, Z. Sinir ve Ruhیات, Tıp kitabı, Çev. Zamira Öztürk. – A.:Nobel, 2022
[6] – «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 2023 yil 11 avgust № 31 (4742).
[7] – Tatchı, M. Aşk Dili Yunus Emre, Kitap, Çev. Zamira Öztürk. – A.: AKDITYK Atatürk Kültür Merkezi Başkanlığı yayını ; 562. Kaynak Eserler ; 44. 2022.



XITTOY YANGI SHE’RIYATINING SHAKLLANISHIDA TARJIMANING ROLI

PhD. Ozodjon OCHILOV, TDSHU dotsenti, Toshkent, O‘zbekiston
Tel:+998903492268, e-manzil: ozodochilov85@gmail.com

Аннотация: Keltirilgan maqola Xitoyda 20-asrning boshlarida G'arb adabiyotining, ayniqsa G'arb she'riyatining o'rganilishi va tarjima qilinishi haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu davr Xitoy adabiyotida yangi madaniyat harakati va tafakkur inqilobining avj olgan payti bo'lib, G'arb she'riyatida tarjimalar ko'lami va mazmuni, tarjimalarnig xitoy yangi she'riyatiga ta'sir darajasi va madaniy integratsiya jihatdan xulosalar beriladi.

Калит сўзлар: таржима; хориж адабиёти; ислохот; эволюция, маданиятлараро мулоқот; адабий таъсир

Аннотация: Представленная статья предоставляет важную информацию об изучении и переводе западной литературы, особенно западной поэзии, в Китае в начале 20-го века. Этот период был временем расцвета нового культурного движения и революции мышления в китайской литературе, и статья делает выводы о масштабе и содержании переводов западной поэзии, степени их влияния на новую китайскую поэзию и аспектах культурной интеграции.

Ключевые слова: перевод; иностранная литература; реформация; эволюция, межкультурная коммуникация; литературное влияние

Abstract: The article presented provides important information about the study and translation of Western literature, especially Western poetry, in China at the beginning of the 20th century. This period was a time of flourishing of a new cultural movement and a revolution in thinking in Chinese literature, and the article draws conclusions about the scale and content of translations of Western poetry, the extent of their influence on new Chinese poetry, and aspects of cultural integration.

Key words: translation; foreign literature; reformation; evolution, intercultural communication; literary influence

O‘tkan asrning boshlariga kelib Xitoyda G‘arbni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj har qachongidan kuchaydi. Aynan shunday vaziyat fonida g‘arb she‘riyatini tarjima qilish va nashr etish ishlari ham avj oldi. Tarjima she‘rlarni nashr etish bilan maxsus shug‘illanuvchi gazeta va jurnallar faoliyati yo‘lga qo‘yildi: “Yoshlik” (《青年》), “Yosh Xitoy” (《少年中国》), “She‘riyat” (《诗》), “Yangi to‘lqin” (《新潮》), “Haftalik sharhlar” (《每周评论》), “Tonggi xabarlar” (《晨报副刊》) kabi nashlar shular jumlasidandir. G‘arb she‘riyati tarjimalari bilan asosan o‘z davrining yetuk adiblaridan Chen Dusi, Xu Shi, Liu Bannong, Jou Zuoren, Tian Xan, Guo Moro, Xuang Jongsu kabilar shug‘ullanishdi. Aksar hollarda Britaniya va Irlandiya shoirlari Bayron, Persi Bishi Shelli, Uilyam Bleyk, Uilyam Batler Yeats; amerikalik shoir Uolt Uitmen, rus shoiri Pushkin, hind shoiri Tagor kabilarning ijodidan tarjimalar amalga oshirildi. Tarjimalar orasida marshlar, madhiyalar, Britaniya va Amerikada rivojlangan liberal va imajizm she‘riyati, Fransiyaning simvolizm she‘riyati namunalari, janrlardan erkin she‘r, prozaik she‘r, xokku, kichik she‘r va hokazolar. Quyida yuqorida sanab o‘tilgan nashrlardan “Yoshlik” keyinchalik “Yangi yoshlar” (《新青年》) deb qayta nomlangan jurnalida to‘rt yil davomida e‘lon qilingan tarjimalar tarkibini qisqacha tahlil qilamiz, bu bizga XX asr birinchi choragida xitoy she‘riyatida yuz bergan adabiy inqilobning ayrim jihatlarini anglab yetishimizga yordam berishi mumkin.

“Yoshlik” jurnalining birinchi jild birinchi sonida Chen Dusiuning Maks O‘Rell qalamiga mansub “Rambles in Womanland” nomli yumoristik asaridan olingan “Views on Women” nomli qismining

tarjimasi o‘rin oladi.[1] Ushbu asar, o‘sha davr jamiyatidagi ayollar hayoti va ularning ijtimoiy mavqei haqidagi muhim mavzularni ko‘targan bo‘lib, ayollar ta‘limi, ularning erkinlik darajasi va oiladagi roli kabi masalalarga chuqur e‘tibor beriladi. Asarda ayollarning turli tabaqalari va ularning hayot yo‘llari tasvirlanadi. Bu orqali yozuvchi o‘z vaqtidagi ayollarning ijtimoiy, ma‘naviy va iqtisodiy ahvolini realistik tarzda ifodalaydi. Uning yozuv uslubi o‘ziga xos bo‘lib, o‘sha davrning g‘arb jamiyatida ayollarning o‘rni va ularning duch kelayotgan qiyinchiliklari haqida chuqur tahliliy fikrlar beradi. Chen Desiu shu asar fonida xitoy jamiyatidagi ayollarning o‘rni qanday bo‘lishi kerakligi haqida mulohaza yuritadi, yangi xitoy ayolining konturlarini chizishga harakat qiladi. Mazkur jurnalning ikkinchi sonida Chen Dusiu amerikalik shoir Samuel F.Smit “Amerika” deb nomlangan Amerika milliy madhiyasini tarjima qildi.[2] Mazkur she‘r vatanga bo‘lgan chuqur muhabbat va faxrni ifodalaydi, malakatning go‘zalligi va erkinligini ulug‘laydi. She‘r Amerika tarixida muhim rol o‘ynagan erkinlik va mustaqillik, birlashuv tuyg‘ularini o‘zida aks ettirgan, Amerika turli hududlar va madaniyatlarni o‘z ichiga olgan keng va xilma-xil mamlakat sifatida tasvirlangan. Oddiy qilib aytganda she‘r vatanga muhabbat, erkinlik va ozodlik, milliy birlashuv g‘oyasini kuylaydi. Aynan shu jihatlarga ko‘ra she‘r Chen Dusiuning e‘tiborini tortgan bo‘lishi mumkin, chunki bu paytda Xitoyda vatanni sevis, ozodlik va milliy birlashuv har qachongidan-da dolzarb edi. Aynan shunday tarjimalar xitoy adabiyoti tarixida realistik she‘riyatning paydo bo‘lishida muhim rol o‘ynadi deyish mumkin. Shuningdek, jurnalning ushbu sonida Robindranat Tagorning “Gitanjali” to‘plamidan to‘rtta she‘rning tarjimasi ham bosilgan edi. Mazkur tarjimalar ham Chen Dusiuiga tegishli bo‘lib she‘rlar mazmunan vatanga, tabiatga muhabbat tuyg‘ulariga bag‘ishlangan. Jurnalning uchinchi sonida adiba Su Chiyong tomonidan tarjima qilingan Oskar Uayldning “An Ideal Husband” dramasi parchalar e‘lon qilinadi.[2] Asarda siyosat, ijtimoiy me‘yorlar, muhabbat, do‘stlik, vijdon va kechirim mavzulari ko‘tariladi. Yozuvchi o‘ziga xos uslubida, inson tabiati va jamiyatdagi ikkiyuzlamachilikni fosh etadi. Asar, insoniy qusurlar va kechinmalarning muhimligini ko‘rsatib beradi. Uayld insonlarning kamchiliklarini tan olish va ularni qabul qilish orqali haqiqiy insoniylikka erishish mumkinligini ta‘kidlaydi.

Jurnalning ikkinchi jild ikkinchi sonidan boshlab shoir va tarjimon Liu Bannong qator she‘riy tarjimalarini e‘lon qila

boshladi.[3] Jumladan, Fransiya madhiyasi; irland vatanparvar shoirlari Jozef Blancharddan “Yetti shingil olovli she’rlar” (《火焰诗七首》), “Uch shingil g’amgin she’rlar” (《悲天行三首》); Tomas Makdonadan “Vatanni madh etuvchidan uch she’r” (《咏爱国诗人三首》); Pirsdan “Ayriliq haqida olti she’r” (《割爱六首》) va “O’lim haqida ikki she’r” (《绝命词两章》); ingliz shoirlari Bayron, Tomas Guddan “Tikuvchi haqida she’r” (《缝衣曲》) kabi nomlar ostidagi turkum tarimalar chop etildi. Adabiyotlarda 1918 yil xitoy she’riy tarjima tarixida eng muhim yil deya e’tirof etiladi. Sabab, shu yil jurnalning navbatdagi sonida Jou Zuorenning “Mumtoz she’rlarning bugungi tarjimalari” chiqa bosiladi.[4] Shundan so‘ng Xu Shi shotland shoirasi Anna Landsayning “Auld Robin Gray” (《老洛伯》) she’rini tarjima qildi.[5] Liu Bannong esa Tagorning yigirmaga yaqin she’rlarini tarjima qilib, jurnalning keyingi sonlarida e’lon qilib bordi.[5] Bu tarjimalarning boshqalaridan ajralib turadigan muhim bir jihati bor, ya’ni tarjimalar endi klassik venyan tilida emas, balki xalqona baixua tilda tarjima qilina boshlangan edi. Xu Shining yuqorida ko‘rsatilgan tarjimasi xitoy tarjima tarixida ilk bayxuada qilingan tarjima sifatida e’tirof etiladi. Shu tariqa Xitoyda she’riy tarjimalarning yangi davri boshlandi. Shu tariqa bayxuada she’rlar tarjima qilish avj olib, tajribalar to‘plana boshladi. Bir yildan ortiqroq vaqt o‘tib 1919 yil fevralda Xu Shi amerikalik shoira Sara Tisdeylning “Over the Roofs” she’rini tarjima qildi. Xu Shi o‘z tarjimasiga “Mening yangi she’riyatim davri boshlandi” deya baho berdi.[6] Bu she’riy tarjimalarning xitoy yangi she’riyatining paydo bo‘lishida katta ta’sirga ega bo‘lganligini yana bir bor isbotlaydi.

“Yoshlik” jurnalida e’lon qilib borilgan she’riy tarjimalarning muhim jihati shundaki, she’rlar Xitoy yangi madaniyat harakati va yangi she’r, tafakkur inqilobi va shakliy inqilob talablaridan kelib chiqqan holda tanlandi va tarjima qilindi. Shuningdek, bu paytga kelib nasriy she’rga bo‘lgan qiziqish ortganligi kuzatiladi. Liu Bannong va Jou Zuorenlar tarjimalarni yangi nasriy she’r shakliy tuzilish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda amalga oshira boshlashdi. Jou Zuoren jurnalning oltinchi jild ikkinchi sonida 《小河》 (“Mitti daryo”) she’rini e’lon qilganda, so‘zboshida shunday fikrlarni

bayon qiladi: *kimdir mendan bu she'r qanday janrga mansub deb so'rasa, hatto o'zim ham bu savolga javob bera olmasam kerak. Fransuz Sharl Bodler ilgari surgan nasriy she'rga ozgina o'xshab ketadi, lekin u nasriy shaklda yozgan, hozir esa aksincha qator-qator qilib yozilmoqda.*^[7]

Jou Zourenning yuqoridagi fikrlari uning "Mitti daryo" she'ri romantizm oqimi vakili Sharl Bodler bilan chambarchas bog'liq ekanligini yaqqol namoyon qiladi, ayniqsa xorijdan kirib kelgan nasriy she'r shakli yangi she'riyat barpo etilishining dastlabki bosqichlarida shoirlar tomonidan odatda namuna sifatida baholandi. Biroq Bodler she'riyatiga xos g'azab va tushkunlik kabi hissiy xususiyatlar xitoy yangi she'riyati tomonidan qabul qilinmagani yoki juda kam e'tibor qaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Yana bir manbada ta'kidlanishicha, Jou Zuorenning "Mitti daryo" she'ri nasriy nazmda yozilmagan, she'r satrlar o'rtasidagi pauzalar evaziga nasrga xos uzviylikni bo'lib qo'ygan va asosan og'zaki nutqqa xos bo'lgan nozik ritm hosil qilingan. Bu she'r janr jihatdan ko'proq erkin she'rga yaqindir. Jou Zuorenning so'zboshisidan u ikki janr o'rtasidagi farqni yaxshi anglaganligini payqash mumkin, biroq erkin she'r haqida hech qanday ta'rif keltirmaydi, Uitmenga to'xtalmaydi, faqat Sharl Bodlerni tilga oladi, bu esa Jou Zuoren uning chuqur ramziy ifodalarga ega baddiy-estetik ijodiga alohida e'tibor qaratganligiga ishora beradi.^[8] Shuni ta'kidlash kerakki, Jou Zuoren qaysi janrda yozishga harakat qilgan bo'lmasin, uning xitoy she'riyatiga yangi ruh, yangi shakl olib kirishga bo'lgan intilishi o'sha davr nuqtai nazaridan ahamiyatlidir.

Simvolist shoirlarning ijod yo'nalishi dastlabki bosqichdagi xitoy she'riyati maydonidagi vaziyatga mos kelardi. Masalan Tagor o'zining qofiyasiz she'rlari bilan yangi shoirlar e'tiborini tortdi, Turgenev, Bodler, Oskar Uayldlarning nasriy she'rlari ham xuddi yuqorida ko'rsatilgan sababga ko'ra ko'p bor tarjima qilindi. Bu to'rt shoir turli davlat va turlicha tafakkur tarziga ega bo'lishiga qaramasdan ularning ijodi bir varakayiga tarjima qilinishi o'sha davr adib va tarjimonlarining yana bir maqsadini ochiqlab beradi: ular xorij adabiyotidan o'zlarining an'anaviy poetikasi ruhiga yaqin ijodkorlarni izlagan. Bu to'rt shoir his-tuyg'ularni chuqur ifoda qilishi, ramzlarga alohida e'tibor qaratish jihatlari bilan ko'p asrlik poetik an'analarga ega xitoyliklar uchun qadrliroq hisoblandi degan xulosaga kelish mumkin.

One of the distinctive aspects of Doyle's science fiction lies in his ability to seamlessly meld adventure with scientific inquiry. While other science fiction writers of his time often leaned heavily on scientific concepts or adventurous plots, Doyle masterfully balanced both. In "The Lost World," readers are not only captivated by the thrilling encounters with dinosaurs and the unknown but also by the scientific curiosity that underpins the entire expedition.

REFERENCES:

[1] – Conan Doyle, Arthur. "The Adventures of Sherlock Holmes." George Newnes, 1892. [Read "The Adventures of Sherlock Holmes" on Project Gutenberg](<https://www.gutenberg.org/ebooks/1661>)

[2] – Conan Doyle, Arthur. "A Study in Scarlet." Ward, Lock & Co., 1887. [Read "A Study in Scarlet" on Project Gutenberg](<https://www.gutenberg.org/ebooks/244>)

[3] – Conan Doyle, Arthur. "The Hound of the Baskervilles." George Newnes, 1902. [Read "The Hound of the Baskervilles" on Project Gutenberg](<https://www.gutenberg.org/ebooks/2852>)

[4] – Conan Doyle, Arthur. "The Complete Sherlock Holmes." Bantam Classics, 1986. [Explore "The Complete Sherlock Holmes" on Goodreads](https://www.goodreads.com/book/show/10583.The_Complete_Sherlock_Holmes)

[5] – Klinger, Leslie S. "The New Annotated Sherlock Holmes." W.W. Norton & Company, 2004. [Learn more about "The New Annotated Sherlock Holmes" on the publisher's website](<https://wwnorton.com/books/9780393059168>)

[6] – Symons, Julian. "Bloody Murder: From the Detective Story to the Crime Novel." Penguin Books, 1974. [Find "Bloody Murder" on Penguin

Random House](<https://www.penguinrandomhouse.com/books/40556/bloody-murder-by-julian-symons/>)

[7] – Conan Doyle, Arthur. "The Lost World." Hodder & Stoughton, 1912. [Read "The Lost World" on Project Gutenberg](<https://www.gutenberg.org/ebooks/139>)

[8] – Conan Doyle, Arthur. "Memoirs of Sherlock Holmes." George Newnes, 1894. [Read "Memoirs of Sherlock Holmes" on Project Gutenberg] (<https://www.gutenberg.org/ebooks/834>)

[9] – Conan Doyle, Arthur. "The Sign of the Four." Spencer Blackett, 1890. [Read "The Sign of the Four" on Project Gutenberg] (<https://www.gutenberg.org/ebooks/2097>)

[10] – Conan Doyle, Arthur. "The Return of Sherlock Holmes." George Newnes, 1905. [Read "The Return of Sherlock Holmes" on Project Gutenberg](<https://www.gutenberg.org/ebooks/108>)



O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTI NAMUNALARI RUS TILIDA

f.f.n. Sevara MAHMUDOVA, O‘zDSMI dotsenti, Toshkent, O‘zbekiston

Tel: +998 93 5880026; Email: makhmudvmurod55@gmail.com

Sarvara TASHALIYEVA, TDSHU kat. o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston

Tel: +998 93 171 22 27; Email: tashaliyeva@mail.ru

Annotasiya. Mazkur maqolada o‘zbek bolalar adabiyoti namunalari va ularning rus tilidagi tarjimalari haqida so‘z ketadi. Unda Hamza, Q.Muhammadiy, A.Obidjon, X.To‘xtaboev, F.Musajonov, L.Mahmudov asarlarining tarjimalari asosida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, bolalar kitobxonligi, tarjima adabiyoti, she'riyat, nasr, tarjimon mahorati.

Annotasiya. В данной статье идёт речь о произведениях узбекской детской литературы и их переводах на русский язык. В ней обсуждаются переводы произведений Хамзы, К. Мухаммади, А. Обиджона, Х. Тухтабоева, Ф. Мусаджонова и Л. Махмудова.

Ключевые слова: детская литература, детское чтение, переводная литература, поэзия, проза, переводческое мастерство.

Abstract. This article deals with works of Uzbek children's literature and their translations into Russian. It discusses translations of works by Hamza, K. Muhammadi, A. Obidzhon, Kh. Tukhtaboev, F. Musadzhanov and L. Makhmudov.

Key words: children's literature, children's reading, translated literature, poetry, prose, translation skills.

Turli millat va elatlar o'rtasidagi madaniy va ma'naviy aloqalarni yanada mustahkamlashda badiiy tarjimaning o'rni va ahamiyati juda katta. Bugungi kunda respublikamizda jahon mumtoz adabiyoti namunalarini nashr etishga katta e'tibor qaratilmoqda."Jahon adabiyoti" jurnali, "Jahon adabiyoti durdonalari" nomi bilan chiqarilgan turkum nashrlar bunga misol. Davlat dasturida farzandlarimizni lotin yozuvidagi adabiyotlar bilan ta'minlash vazifasi belgilanganligini inobatga olib, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi tashabbusi bilan "Yangi asr avlodi" nashriyot matbaa markazi tomonidan yoshlarimizning dunyoqarashi keng, ma'nan barkamol va intellektual salohiyati yuksak insonlar bo'lib voyaga yetishlariga hissa qo'shish maqsadida "Kamolot kutubxonasi" ruknida jahon va o'zbek adabiyotining oltin merosidan o'rin olgan 100 nomdagi asarni nashr etdi.

Respublikamizning bir qator oliy o'quv yurtlarida bolalar adabiyoti fani o'qitiladi, unda nafaqat jahon bolalar adabiyoti namunalari, balki o'zbek bolalar adabiyoti namunalari ham o'rganiladi. Bir qancha oliy o'quv yurtlarida rus guruhlarida o'qiyotgan talabalarga bolalar adabiyoti fanini o'qitish jarayonida o'zbek bolalar adabiyoti namunalarining yetarli darajada rus tiliga o'girilmaganligi muammosiga duch kelamiz. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari, zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotining ko'plab namunalari hanuz rus tiliga o'girilmagani achinarli hol.

O'zbek bolalar adabiyoti namunalarining rus tilidagi tarjimalari haqida so'z ketarkan, bir qancha o'zbek bolalar shoiri va yozuvchilarining asarlari rus tiliga mohirona tarjima qilinganligini aytib o'tish joiz. Jumladan, Quddus Muhammadiy she'riyatini rus tiliga mohirona tarjima qilgan rus bolalar yozuvchisi Samuil Marshak haqida gapirmaslikning iloji yo'q.

Ma'lumki, Marshak she'rlarini juda kamdan-kam hollarda so'zma-so'z tarjima qilgan; tarjimaga qo'l urishi uchun uning e'tiborini haqiqatan ham nimadir jalb qilishi, qandaydir turki kerak edi, shundagina tarjima qilishga эҳтиёж paydo bo'ladi. O'zbek shoiri Quddus Muhammadiy she'rlarini timlaganda bunday holat sodir

bo'ldi. Ularni rus tilida qayta yarata olgan tarjimon buni o'ziga xos, mutlaqo o'ziga xos, Marshaakona ruhda amalga oshirdi. Bu o'ziga xoslik bilan birga she'rlardagi butun milliy koloritni saqlab qola oladi. Muallifning fikri va mazmunini aniq va to'laligicha rus o'quvchisiga yetkaza olgan. Misol uchun Quddus Muhammadiyning o'sha mashhur "Dum" she'rini olaylik. Tarjimada u shunday yangraydi:

В одной из школ
Слушок прошел.
Прошла молва
О том,
Что в этой школе, в пятом «А»,
Есть ученик с хвостом.
С хвостом?
С хвостом!
С каким хвостом?
Ответьте на вопрос нам:
С хвостом
В значении простом
Иль только в переносном?

Marshak tomonidan tarjima qilingan bu she'r juda quvnoq, qiziqarli va ustalik bilan boshlanadi. Shoir bir necha bor ko'tarilgan bu mavzu bayonini zukko bir topilma bilan boshlaydi. Bajarilmagan maktab topshiriqlarining allegorik "dumi" hayvonlar va qushlarning haqiqiy dumlari bilan taqqoslanadi.

Хвосты полезны для скота —
Коней, ослов, коров:
Они при помощи хвоста
Сгоняют комаров.
Хвостом лисица на бегу
След замечает на снегу.
Хвостом-мечом вооружен
В песках живущий скорпион.
Орел в парении своем
Хвостом владеет как рулем.
Мы видим хвост у разных птиц:
Кукушек, ласточек, синиц.
Хвостом украшен чиж и дрозд,
Индюк, павлин, фазан...

Но ни к чему твой пышный хвост.

Товарищ Тургунджан!

Bu satrlar har qanday nasihatdan ustunroq, o'quvchida kulgu uyg'otadi; shoir maqsad qilgan didaktik xulosani tarjimon juda aniq va qiziqarli shaklda, to'g'ri so'zlarni tanlagan holda bera olgan. She'ni tarjimon bunday yakunlaydi:

За книжки, милый мой, садись,

Учиться будь готов

И навсегда освободись

От всех своих хвостов!

Quddus Muhammadiy she'rlarini Samuil Marshakdan tashqari N.Grebnyova, Ye.Blaganina, Ye.Taraxovskaya kabi tarjimonlar ham rus tiliga tarjima qilgan.[1, 18-20]

Hamza Hakimzoda Niyoziyning bolalar uchun yozilgan qator didaktik she'rlari ham rus tiliga S.Marshak, V.Lipko, L.Xaustov, S.Somova, A.Naumov, K.Fenomenova, S.Ivanov kabi tarjimonlar tomonidan mahorat bilan tarjima qilingan.[2, 112-136] Masalan, uning "Ilm ista" she'ri rus tiliga tarjimon K.Fenomenova tomonidan quyidagicha tarjima qilingan:

Как можешь сказать, чем люди живут и мир животных каков?

На эти вопросы один ответ — науку постигай!

Свойства вещей и творений узнать желанье к тебе придет —

Стремись к познанию с юных лет, науку постигай!

Невежества мрак человека гнетет, как землю объемлет ночь.

Разуму знанья — как солнца свет: науку постигай!

Когда у тебя есть мечта и цель и хочешь ты их достичь,

Над книгой склоняясь, встречай рассвет — науку постигай!

Чтоб истина эта в твоих устах обычной стала для всех,

Нихан, ты и сам исполняй свой завет — науку постигай!

O'zbek tilida esa she'r shunday yangraydi:

Kim bilurdi odamu olam nadir, hayvon nechik?

Bo'lmasa erdi agar insonda bu osori ilm.

Qaysi bir mavjuda boqsang bilmoqa kayfiyatin

Lozim o'lgay topmaqa avval o'qib axbor ilm...

Olamning xurshidi kundir, odamning xurshidi ilm,

Olamning zulmoti tundir, odamning nodori ilm.

Nar murodu maqsadingga yetmoq istarsan murod,

Ko'z ochib bedor bo'l, darkor ilm, darkor ilm!

Ul haqiqat oyiniga sayqal istarsan Nihon

Ilm ista, ilm ista, istag'il zinhor ilm!

Nazarimizda she'rning rus tiliga tarjimasini shoir fikrlarini aniq bera olmagan, shu sababli uni va yana bir qancha she'rlarni rus tiliga qaytadan tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'zbek bolalar nasri vakillaridan O'zbekiston xalq yozuvchilari X.To'xtaboev, A.Obidjon, F.Musajonov, L.Mahmudov asarlari ham rus tiliga tarjima qilingan. Xudoyberdi To'xtaboev asarlarining keng kitobxonlar auditoriyasiga ega bo'lishida tarjimon Ervin Umarovning xizmatlari katta. Jumladan, yozuvchining asarlari "Верхом на жёлтом диве", "Конец жёлтого дива", "Золотой выкуп", «Золотая голова мстителя», "Свет в заброшенном доме" nomlari bilan rus tilida nashr qilingan[3, 173] Shuni alohida ta'kidlash joizki, Ervin Umerov tarjimada o'zbek xalqi hayotining o'ziga xos jihatlari, milliy koloritini juda aniq va kontekstga mos so'zlar bilan tasvirlay olgan va asarlarning original matniga juda yaqin mazmuni o'quvchiga yetkazib bera olgan.

Sevimli o'zbek bolalar yozuvchisi va shoiri Anvar Obidjon asarlarining qardosh xalqlar o'quvchilariga yetib borishida esa tarjimonlar Z.Tumanova, R.Azimova, L.Samoylova, X.Ismoilovalarning xizmatlari katta. "Грозный Мешпалван» nomi bilan nashr qilingan to'plamdan ijodkorning o'nga yaqin asari o'rin olgan. [4]

O'zbek bolalar adabiyoti vakillaridan F.Musajonov, L.Mahmudovlarning bir qancha asarlari rus tiliga tarjima qilinganligi ham e'tiborga arziqli. L.Mahmudovning "Дневник, письмо, первоклассница", "Приключения лентяев" kitoblariga ijodkorning qator hikoya, qissalari kiritilgan bo'lib, tarjimonlar F.Kamalova, E.Umerov, P.Shufalarning bunda xizmatlari juda katta bo'lgan.[5]

Xorijiy asarlarning rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinishi borasida bugungi O'zbekistonda I.G'afurov, J.Kamol, N.Otaboev, A.Fayzulla, M.Ahmad singari yuksak salohiyatli tarjimonlar borligi behad quvontiradi. Lekin badiiy tarjima sohasida yosh mualliflar – tarjimonlarning kamligi, ayniqsa, o'zbek adabiyoti namunalarini rus tiliga mahorat bilan o'giruvchi tarjimonlarning yetishmasligi sir emas.

Shu o'rinda badiiy asar tarjimasini rivojlantirish uchun quyidagi takliflarimizni ham bayon qilmoqchimiz:

Badiiy tarjimani rivojlantirish uchun DTSga binoan yoppasiga o'rganilishi zarur bo'lgan o'quv-uslubiy vazifalarni amaliyotga joriy qilish, bilingv tarjimonlarni (o'zbek-rus, rus-o'zbek, o'zbek-ingliz,

ingliz-o‘zbek kabi...) tayyorlash, shu yo‘nalishga ixtisoslashgan nashriyotlarni ko‘paytirish, ularni qo‘llab-quvvatlash, tarjima qilina yotgan badiiy asarlarning monitoringini olib borish kabi ishlar yanada yaxshi yo‘lga qo‘yilishi lozim. Shuningdek, o‘zbek adabiyoti namunalarini tarjima qiluvchi xorijlik tarjimonlarning yurtimiz bilan tanishishiga, malaka oshirishiga imkoniyat yaratilsa, tarjimonlar mehnatini kengroq miqyosda ma'naviy va moddiy jihatdan mukofot va grantlar vositasida rag‘batlantirishga yanada e'tibor qaratilsa, bu faoliyatning haqiqiy ijodiy faoliyat bilan teng qiymatli murakkab jarayon ekanligining tan olinishiga erishilsa ayni muddao bo‘lardi.

Shu maqsadda uzoq va yaqin xorijlik tarjimonlarning malakasini, kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan qisqa va uzoq muddatli ijodiy rejalarni ishlab chiqish, ularning ijrosini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish lozim deb o‘ylaymiz. Mazkur faoliyatga daxldor nazariy va amaliy ishlanmalar sirasini ko‘paytirish, nashrini tezlashtirish va bu yo‘nalishda elektron va bosma OAVlaridan unumli foydalanish zarur. Bu o‘z-o‘zidan O‘zbekiston kitob palatasi va O‘zbekiston davlat kutubxonasi bilan hamkorlikda ishlashni, xorijiy tillarga o‘girilishi zarur bo‘lgan o‘zbekcha badiiy asarlar va aksincha, o‘zbek tiliga o‘girish lozim bo‘lgan xorijiy badiiy asarlar ro‘yxatining elektron bazasini yaratishni taqozo etadi.

2016-yilda Prezidentimiz farmoniga ko‘ra tashkil etilgan Alisher Navoiy nomli o‘zbek tili va adabiyoti instituti tarkibida tarjimonlar tayyorlovchi maxsus fakultet mavjud, bu esa kelajakda badiiy tarjima sohasida ham mahoratli yosh mutaxassislar sonining ortishi va jahon adabiyotining yana ko‘plab nodir namunalarini yaqin kelajakda o‘zbek tilida o‘qish imkoni yaratilishiga sabab bo‘lsa ajab emas. Shu bilan birga ba'zi qo‘shni davlatlardagi kabi badiiy tarjima nazariyasi va amaliyoti taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan “tarjima instituti”ga o‘xshash tashkilot ham ta'sis etilsa, O‘zbekistonda tarjimonlik sohasining tarixi, buguni va ertasi haqida turli tildagi ma'lumotlarni muntazam berib boruvchi veb-saytlar ochilsa, yuksak mahoratli tarjimonlarning ijodiy faoliyatiga har tomonlama yordam ko‘rsatilsa, oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilayotgan tarjima va tarjimashunoslikka oid fanlarni madaniyatshunoslik fanlari bilan muvofiqlashtirilib ta'lim berilsa millatlararo nurko‘prik sanalgan tarjimaning, ijodkor tarjimonning intellektual madaniyat targ‘ibotchisiga aylanishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] – Бать, Л. Верный друг - Куддус Мухаммади // Детская литература. - 1966. - № 11. - С.18-20.
- [2] – Ниязи Хамза Хакимзаде. Избранные произведения. Издательство «Советский писатель», 1970.112-б
- [3] – Тухтабаев Х. Свет в заброшенном доме. Повесть.»Детская литература».Москва, 1990
- [4] – Анвар Абиджан. Грозный Мешпалван.-Т.: «Чулпан», 1991.
- [5] – Махмудов Латиф. Приключения лентяев.-Т.: Издательство литературы и искусства, 1984.



“YULDUZLI TUNLAR” ROMANI YAPON TILIDA

Umidbek SAIDOV, TDSHU stajor-o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston.

Tel: +998(90) 788 – 45 – 47; Email: sasisuseso@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola Pirimkul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romaninig yapon tiliga tarjimasi tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda asosiy e‘tibor romandagi bo‘lim sarlavhalarining yapon tiliga tarjimasi, bevosita yoki bilvosita tarjimaning o‘ziga xos jihatlariga qaratiladi.

Kalit so‘zlar: sarlavha tarjimasi, frazeologiyalar tarjimasi, kommunikatsiya maqsadi, ekvivalent, yaponcha tarjima, grammatik shakl.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу романа Пиримкула Кадилова «Звёздные ночи» на японском переводе. В статье будут рассмотрены вопросы посредственного или непосредственного перевода, также, будет дан анализ перевода заглавий на японском языке.

Ключевые слова: перевод заглавия, перевод фразеологизмов, цель коммуникации, эквивалент, японский перевод, грамматическая форма.

Abstract. This article is devoted to the analysis of Pirimkul Kadirov’s novel “Starry Nights” in Japanese translation. The article will discuss issues of mediocre or direct translation, and will also provide an analysis of the translation of titles in Japanese.

Key words: title translation, phraseology translation, communication purposes, equivalent, Japanese translation, grammatical form.

Atoqli o‘zbek adibi Pirimkul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani ilk bor 1979 – yilda nashr etilgan va butun jahon adabiyoti durdonalari qatoridan o‘z o‘rnini egallab kelayapti, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sababi, roman hozirga qadar dunyoning turli tillari

jumladan, ingliz, rus, qirg'iz, qoraqalpoq, qozoq, urdu, turkman, turk, hind, bengal tillariga tarjima qilingan.[13] Romanning ilk nashr yilidan to hozirgacha bosib o'tgan yo'lini 2 ga ajratish mumkin. Birinchisi, 1999 – yilgacha bo'lgan davr, ikkinchisi – 1999 yildan keyingi davr. Pirimqul Qodirov aynan 1999 – yilni, ya'ni XX – asrning oxirgi yili va XXI – asrning birinchi yili bo'sag'asini tanlagani, ikki davr kesishuvini o'zi istab, ongli ravishda tanlaganmi yoki tasodifmi no'malum. Ammo shu aniqki, roman XX – asr nashri va XXI – asr nashri deb nomlasa bo'ladigan 2 qismga bo'lingan. Nima uchun bunday ekanligining sababi, 1999 – yildan keyingi yillarda roman “to'ldirilgan nashr” degan nom bilan chiqa boshlaydi. Buning sababini quyida ko'rib chiqamiz.

XX asrda roman 5 marotaba nashrdan chiqqan: 1979, 1981, 1985, 1988, 1990-yillarda. XXI asrda ham 5 marotaba nashrdan chiqqan: 2002, 2006, 2009, 2016, 2019-yillarda. Agar biz 1999-yilgacha bo'lgan romandagi qism va bo'lim sarlavhalarini 1999 – yildan so'ng nashr etilgani bilan qiyoslasak, nima uchun 2 qismga bo'linayotgani va nima uchun “to'ldirilgan nashr” ekanligi darhol tushunib olamiz.

XX – asrda chop etilgan kitoblarda bo'limlar soni 16 ta; 1 – qismda 9 ta bo'lim va 2 – qismda 7 ta bo'lim. XXI – asrdagi nashrlarda 16 tadan 20 taga ko'payadi, 1 – qismda 11 ta bo'lim, 2 – qismda 9 ta bo'lim. “To'ldirilgan nashr” degan nom ham ayni shu sababdan berilgan. O'zgarishlar faqat bo'limlar sonini ko'payishida bo'lmay, qism sarlavhalarida ham kuzatiladi. Masalan, 1999 – yilgacha bo'lgan nashrdagi qism savlarvhalari “Arosat” va “Falakning gardishi” deb nomlangan bo'lsa, 1999 – yildan so'ngi nashrlarda “Arosat” va “Taqdir taqozosi” deb nomlana boshlanadi. Qiziq jihati esa, “Taqir taqozosi” 1999 – yilgacha bo'lgan nashrlarda Ibrohim Lodiy va Zahiriddin Muhammad Bobur o'rtasida bo'lib o'tadigan jang voqealarini yoritib berishga qaratilgan bo'lim sarlavhasi bo'lgan. Ammo, “to'ldirilgan nashr”larda esa “Taqdir taqozosi” qism sarlavhasiga aylangan. Panipatdagi voqealarni yoritib beruvchi bo'lim sarlavhasi esa “Yo hayot, yo mamot” degan nomga o'zgaradi. Bo'lim sarlavhalari bilan bog'liq yana bir o'zgarish, 2 – qismdagi 1 – bo'lim nomi 1999 – yilga qadar “To'lgan paymonalar” deb nomlangan bo'lsa, so'ng “Paymonasi to'lganlar” deb o'zgaradi. “Falakning gardishi” degan 2 – qism nomidan esa voz kechiladi. Yana bir o'zgarish joy nomiga tegishli bo'lib, 1999 – yilgacha bo'lgan nashrda “Isfara” degan nom “to'ldirilgan nashr”larda “So'x” nomiga o'zgaradi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan izohlar bejiz emas. Sababi, Yamaguchi Hisako (山口・久子) qalami ostida, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” yohud “Bobur” romani yapon tiliga tarjima qilinib, birinchi nashri 2022 – yilning yozida chop etildi. Tarjimashunos tadqiqotchi sifatida, ushbu tarjima e‘tiborni o‘ziga jalb qildi va bir necha qiziqtirgan savollar paydo bo‘ldi;

1. roman bevosita tarjimami yoki bilvosita tarjima?
2. agar roman bevosita tarjima bo‘lsa, nechanchi yildagi nashrdan tarjima qilingan?
3. agar roman bilvosita tarjima bo‘lsa, qaysi til tarjimasi asos qilib olingan?
4. romandagi sarlavhalar yaponcha tarjimada yozuvchi nazarda tutgan fikrni tarjimon yetkazib bera olganmi yoki aslidan chekinishlar bo‘lganmi?

Shu savollarga javob topish maqsadida ushbu maqolani yozishga ahd qildim. Roman qaysi tildan tarjima qilingan? Tarjimon bilan aloqa o‘rnatishning iloji bo‘lmayotgi uchun, qaysi tildan tarjima qilingaligi haqida bevosita dalilimiz yo‘q. Tarjimon o‘z kitobida bu haqida hech qanday ma‘lumot bermagan. Ammo bilvosita dalillar yetarlikcha. Yulduzli tunlar romani dunyoning bir qancha tillariga tarjima qilingani haqida aytib o‘tildi. Aytib o‘tilgan tillarning ichida aksariyat qismi yaponlar uchun notanish va keng o‘rganilmaydigan til ekanligini hisobga olsak ingliz yoki rus tilidan tarjima qilingan mantiq aniqdek tuyiladi. Ammo, ingliz yoki rus tillaridagi sarlavhalar tarjima strukturasi yapon tilidagi tarjima strukturasi qiyoslab ko‘rsak, bu ikki tildan ko‘ra o‘zbek tilidagi asliga mos ekanligini bilamiz.

Agar, roman bevosita tarjima qilingan desak, nechani yilgi nashridan degan savol paydo bo‘ladi. Javob aniq, 1999 – yilga qadar bo‘lgan nashrdan, aniqrog‘i 1979 – yilgi birinchi nashrdan qilingan deb, ishonch bilan, aytsak bo‘ladi. Chunki, sarlavhalar tarjima strukturasi aynan shu nashrga eng yaqini. Shu sababdan, tarjima va aslning qiyosiy tahlilida ham ayni shu 1979 – yilgi nashrni asos qilib olamiz.

Qaysi tildan, qaysi nashrdan tarjima qilinganligi haqida tushunchaga ega bo‘lgach, navbat sarlavhalar tahliliga keldi.

Sarlavhalar tahlilini 1 – qismning, 1 – bo‘limdan boshlaymiz. 1 – bo‘lim, “Qil ustida turgan taqdirlar” deb nomlanadi va yaponchada 「

危機一髪」 [kiki ippatsu] (soʻzma soʻz tarjimada: tahlika qil) deb berilgan.

Tarjimaga bir qaraganda tushunarsizdek tuyilishi mumkin, ammo, yapon tili iyeroglifik yozuvga⁹ asoslangani sabab, ikki ogʻiz soʻz bilan murakkab jarayonlarni ifodalash kabi soʻz oʻyinlari sanʼati mavjud. Yamaguchi Hisako, Pirmqul Qodirov nazarda tutgan fikrni yapon kitobxoniga yetkazib berishda tarjimani aynan “qil” soʻziga bogʻlagan holda qoyilmaqom amalga oshirgan. “Qil ustida turish” bu qiyosiy ibora boʻlib soch tolasi qalinligidek “Sirot koʻprigi”dan oʻtish tushuniladi. Yozuvchi 1 – boʻlimga bunday nom berish orqali Temuriylar saltanatidagi Movaraunnahrda ijtimoiy, siyosiy vaziyatning naqadar tahlikali ahvolda ekanligini ifodalashga harakat qilgan. Yapon tilida ham ana shunday tahlika va ogʻir vaziyat ifodasini beruvchi aniq ibora tanlangan.

2 – boʻlim “Ajalg davoyoʻq” deb nomlanib, yaponcha tarjimada 「死につける薬はない」[shi ni tsukeru yaku wa nay] (soʻzma - soʻz tarjimada: Ajalg surtadigan malham yoʻq) deb berilgan. Ham soʻzlarni ishlatish jihatidan, ham nom tanlash jihatidan asliga monand tarjima boʻlgan.

3 – boʻlim, “Gul va quyun” deb nomlanib, yaponchada ham soʻzma – soʻz 「花と竜巻」[hana to tatsumaki] deb tarjima qilingan.

4 – boʻlim, “Jasoratning jazosi” deb nomlanib, yaponchada 「勇気に対する報い」[yuuki ni taysuru mukuy] (soʻzma – soʻz tarjimada: jasoratga nisbatan mukofot deb tarjima qilingan.

Nima uchun aynan “mukofot”? Sababi, zamonaviy yapon tilidagi 「報い」[mukuy] degan soʻz “jazo” maʼnosini beruvchi qoʻshirnoq ichidagi “mukofot”dir. Yapon tilida “jazo” maʼnosini beruvchi aniq 「罰」[batsu] degan soʻz mavjud¹⁰. Biroq, Pirmqul Qodirov boʻlimni nomlashda noodatiy mantiq oʻyinidan foydalangan ekanligini ifodalash uchun 「罰」[batsu] soʻzi nooʻrin boʻlgan boʻlar edi. Aynan 「

⁹ Iyeroglifik yozuv – fonetik yozuvdan farqli ravishda, soʻzni ohangiga qarab emas, soʻzni mazmun va maʼnosini tasvir orqali aks ettirib ifodalash uslubi.

¹⁰ Rus yozuvchisi Dostoyevskiyning “Преступление и наказание” asari oʻzbekchaga “Jinoyat va jazo” deb tarjima qilingan boʻlsa, yaponchada esa 「罪と罰」[tsumi to batsu] deb tarjima qilingan.

報い」[mukuy] so‘zi, bu sarlavhada qandaydir hazil, qarama – qarshilik mavjudligiga ishora qiladi. Mumtoz badiiyatda har qanday jasorat mukofotlanishi nazarda tutiladi va oddiy kitobxonlarga ham bu tanish mantiq, yozuvchi esa jasorat jazolanadi deb mumtoz badiiyat belgilagan qonuniyatdan chekingan. Tarjimonning vazifasi ham mana shu oksimoronni yetkazib berishdan iborat bo‘lgan va Yamaguchi Hisako bu ishni mohirlik bilan amalga oshirgan.

5 – bo‘lim, “Najot qayerda?” deb nomlanib, yaponchada 「救いは
いずこに」[sukuy va izuko‘ni] deb tarjima qilingan. Tarjima so‘zma –
so‘z aniq va badiiylik bilan amalga oshirilgan. Yapon tilida “qayer”
ma’nosini beruvchi 2 so‘z bor; 「どこ」[do‘ko‘], 「いずこ」[izuko‘]. 1 –
so‘z kundalik suhbatda foydalaniladigan oddiy so‘z bo‘lsa, 2 – so‘z
badiiy matnlarda uchraydi. Tarjimon aynan 「いずこ」[izuko‘] degan
so‘zdan foydalanib yapon kitobxoniga nafaqat aniq, balkim, intizorlik
ma’nosini chuqurlashtiruvchi tuyg‘uni ham yetkazib bera olgan.

6 – bo‘lim, “Zafar va kulfat” deb nomlanib, yaponchaga 「勝利と
苦惱」[sho‘uri to‘ kuno‘u] deb so‘zma – so‘z tarjima qilingan.

7 – bo‘lim, “Uvol bo‘lgan orzular” deb nomlanib, yaponchaga 「
挫折した夢」[zasettsu shita yume] (so‘zma – so‘z tarjimada: singan
orzu (lar)) deb tarjima qilgan. Yapon tilida orzular aynan “sinadi”,
shu sababdan ham “uvol” so‘zi yapon tilida “sinish” so‘ziga
o‘zgargan. Ammo yapon tilidagi 「夢」[yume] degan so‘zni “orzular” deb
tushunsa ham bo‘ladi, “orzular” deb ham tushunsa bo‘ladi. Sababi,
yapon tilida, Ot so‘zlarga qo‘shib ishlatiladigan “lar” qo‘shimchasi
mavjud emas. Odatda, ko‘p ekanligi yoki bir dona ekanligi kontekstni
o‘zida berilgan bo‘ladi. Asli bilan tanish bo‘lmagan yapon kitobxon
uchun “orzular” bo‘lyaptimi yoki “orzular”, tushunarsiz.

8 – bo‘lim “Hal qiluvchi olishuv” deb nomlangan. Yaponchada 「
運命を決める戦い」[ummei o‘ kimeru tatakay] deb tarjima qilingan.
Tarjima aniq bajarilgan desak xato bo‘lmaydi. 「運命を決める」
[ummei o‘ kimeru] tarjimada “taqdirni belgilovchi” degan ma’noni
bersa, 「戦い」[tatakay] so‘zi o‘zbek tilidagi “olishuv” so‘ziga mos.

9 – bo‘lim “Ko‘chki bosgan buloq” degan sarlavha yaponchada 「山崩れで埋まった泉」[yama kuzurede umatta izumi] (so‘zma - so‘z tarjimada: Ko‘chkida to‘lgan buloq) deb tarjima qilingan. Mantiq shunday bo‘lyaptiki, o‘zbeklarda ko‘chki bossa, yaponlarda ko‘chki sabab to‘lib qoladi.

1 – qism bo‘lim sarlavhalari tarjimasi haqida muhtasar qilib aytadigan bo‘lsak, tarjimon mahorati e‘tiborga sazovor. O‘zbek tili, o‘zbek madaniyatini tushunishga harakat qilib, Pirmqul Qodirov nazarda tutgan fikrlarni yapon kitobxoniga tushunarli ravishda yetkazib berishga urungan. Tarjimada esa grammatik shakl va leksik ma‘nolarni saqlab qolishga intilgan.

Navbat 2 – qism bo‘lim sarlavhalari tahliliga keldi.

1 – bo‘lim “To‘lgan paymonalar” deb nomlangan va yaponchaga 「飲み干された人生の杯」 [nomi hosareta jinsey no pay] (so‘zma so‘z tarjimada: ichib quritilgan inson hayoti qadahi) deb tarjima qilingan.

O‘zbek tili izohli lug‘atiga ko‘ra “Paymonasi to‘lish” – sabr kosasi to‘lish degan ma‘noni beradi.[3] Bu sarlavhadagi yashirin “sabri tugash” ma‘nosini beruvchi mazmuni tarjimon ilg‘amay qolganga o‘xshaydi, sarlavha tarjimasi asliga monand bo‘lmay qolgan. Birinchidan, yapon tilida “qadah” so‘zi bilan bog‘liq sabri tugash manosini beruvchi ibora mavjud emasligi sabab, tarjimada aytilgan gap o‘zbekcha asli bilan tanish bo‘lmagan yapon kitobxon uchun tushunarsiz darak gapga aylanib qoladi. Ikkinchidan, yaponcha tarjimada aslidagi “qadah” so‘zini saqlab qolishga urungan, ammo “to‘lish” so‘zini “ichib quritish” ga o‘zgartirgan. Natijada “sabri tugash” manosidan ko‘ra “o‘lish” ma‘nosiga yaqin tarjima bo‘lib qolgan. Bu holatda 「堪忍袋の緒が切れた者」[kannin bukuro‘ no‘ o‘ga kireta mo‘no‘] (so‘zma - so‘z tarjimada: sabr haltasining bog‘ichi qirqilgan inson) deb nomlansa, ham badiiylik jihatdan, ham asli nazarda tutgan mazmuni yoritish jihatdan, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

2 – bo‘lim “Ikki qilich orasida” deb nomlanib, yapon tiliga 「二つの剣の間で」[futatsu no‘ kenno‘ aidade] deb so‘zma – so‘z tarjima qilingan. Vaholanki, yapon tilida tahlika holatini ifodalovchi “qilich”

so‘zi ishlatilgan bunday ibora mavjud bo‘lmasada yapon kitobxoniga gap nima haqida ketayotganini tushuna oladi.

3 – bo‘lim “Toshgan daryo o‘zan izlaydi” deb nomlanib, yaponchaga 「氾濫した川は水路を探す」 [hanran shita kawa va suyro‘ o‘ sagasu] deb so‘zma – so‘z tarjima qilingan.

4 – bo‘lim “Yangi qirg‘oqlar” deb nomlanib, yapon tiliga so‘zma – so‘z 「新しい岸辺」 [atarashii kishibe] deb tarjima qilingan.

Afsuski, so‘zma – so‘z tarjima sabab, yozuvchi nazarda tutgan ko‘chma “yangi hayot sari” degan mazmun yo‘qolgan. Sababi, yapon tilida tarjimada berilgan ibora mavjud emas, uning o‘rniga 「新しい門出」 [atarashi: kado‘de] (so‘zma – so‘z tarjimada: yangi darvoza chiqish) deb tarjima qilsa, ayni Pirimqul Qodirov nazarda tutgan fikr ifodalangan bo‘lar edi.

5 – bo‘lim “Taqdir taqozosi” deb nomlangan. Yaponchaga 「運命に従って」 [ummei ni shitagatte] (so‘zma – so‘z tarjimada: taqdirga ergashib” deb tarjima qilingan. O‘zbek tili izohli lug‘atida “Taqdir” so‘ziga: “Go‘yo oldindan belgilab qo‘yilgan, peshanaga yozilgan ko‘rgulik: yozmish, qismat” deb izoh berilgan. “Taqozo” so‘ziga esa “Biror holatdan, vaziyatdan kelib chiqadigan talab” degan izohni ko‘rish mumkin.[7] Bundan xulosa shuki, “Taqdir taqozosi” degan sarlavhada qismatni tan olish, peshanaga yozilganidan qochib qutila olmaslik, Olloh irodasidagi ishlarga bo‘y sunish kabi, diniy ta‘limot tushunchalari yotibdi. Ammo, yaponcha tarjimada bunday fikr ifodalanmagan. Maqola muallifining fikricha 「神の意志」 [kami no‘ ishi] “xudoning irodasi” deb nomlansa yapon kitobxoniga gap aynan nima haqida ketayotgani ravshan bo‘lar edi.

6 – bo‘lim “Qayta ko‘z ochgan buloq” deyilgan. Yaponchaga ham so‘zma – so‘z 「再び目を開いた泉」 [futatabi me o‘ hirayta izumi] deb tarjima qilingan. Ushbu sarlavhada “buloq” “Bobur”ga nisbatan qo‘llanilgan allegoriya bo‘lsa, qayta ko‘z ochish – qayta tirilish ma‘nosini beradigan iboradir. Ammo yapon tilida “qayta ko‘z ochish – qayta tirilish” degan tasavvurni bermaydi. Shu sabab, yozuvchi nazarda tutgan qayta tirilish degan mazmun yaponcha tarjimada ifodalanmay qolgan.

7 – bo‘lim “Yulduzlar girdobi” deb nomlangan. Yapon tiliga ham so‘zma – so‘z 「星の渦」[ho‘shi no‘ izu] deb tarjima qilingan.

2 – qism sarlavhalari tarjimasiga fikr bildirib o‘tsak. Leksik ma‘noni saqlab qolish va grammatik to‘g‘ri tarjima qilishga intilish ko‘p kuzatildi. Bunday grammatik to‘g‘ri tarjima qilish esa kommunikativ adekvat tarjima prinsiplariga zid kelib qolishiga sabab bo‘lgan.

Xulosa. Sarlavhalarining asli va tarjimasining tahlili bizga ko‘pgina qiziqarli natijalarni berdi. Xususan, sarlavhalar tahlili yordamida tarjima bevosita tarjima ekanini aniqlashning iloji bo‘ldi. Garchi tarjima asarning o‘zida bu haqida hech qanday ma‘lumot berilmagan bo‘lsada, sarlavhalar ketma – ketligi va nomlanishiga qarab aynan o‘zbek tilidan tarjima qilinganligini aniqlashning iloji bo‘ldi. Qaysi tildan tarjima qilinganini aniqlashdan tashqari, nechanchi yillardagi nashrdan ekanligini ham aniqlashning iloji bo‘ldi. Yana shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, tarjimon asliga monand ravishda, grammatik shakldan va leksik ma‘nodan chekinishlarsiz tarjima qilishga urungan. Ko‘p hollarda bunga erisha olgan ham. Misol tariqasida, 1 – qismdagi sarlavhalar tarjimasini keltirish mumkin. Ammo, asliga sodiqlikni saqlab qolishga intilgani sabab, kommunikativ ya‘ni tarjima kitobxoniga tushunarlik bo‘lish kerak degan prinsipidan uzoqlashib ketish holatlari ham kuzatildi. Misol tariqasida, 2 – qismdagi 1, 2, 4, 6 – bo‘lim sarlavhalarini keltirish mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, har qanday tarjima asarni ayni sarlavhalar tarjimasini tahlilidan boshlash tadqiqot obyekti haqida muhim ma‘lumotlarni berar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 林・四郎、野元・菊雄、南・不二男、「新国語辞典」第五版 . 発行所: 三省堂、2000.
2. A. Madvaliyev. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (3 - jildi)//O‘zbekiston nashriyoti. Toshkent – 2007
3. Madvaliyev A., Abdiyev H. “O‘zbek tili izohli lug‘ati” \ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti – Toshkent, 2006
4. Qodirov P. Yulduzli tunlar \ G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent – 1979.
5. 山口・久子、「バーブル (上) 」第一版 . 発行所 : 有限会社後藤商会 アールズデザイン、2022.
6. 山口・久子、「バーブル (下) 」第一版 . 発行所 : 有限会社後藤商会 アールズデザイン、2022.

7. Magʻrfova Z. Толковый словарь узбекского языка \\\ Русский язык nashiryoti – Moskva, 1981.

Internet resurslar

8. www.savodxon.uz
9. <https://meaning-book.com/blog/20190909101247.html>
10. <https://www.webl.io/content/%E5%8F%B0%E9%A2%A8%E4%B8%80%E9%81%8E>
11. <https://reibuncnt.jp/21462>
12. <https://kotobank.jp/word/%E6%96%B0%E5%A4%A9%E5%9C%B0-538522>
13. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yulduzli_tunlar#cite_note-3



TARJIMA JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR

Marjona AHROROVA, TDSHU magistranti, Toshkent, Oʻzbekiston.
Tel: 99890 9204745; Shuxkuch@gmail.com

Annotatsiya. Maqolamizda tarjima jarayonida duch keladigan muammolar shunigdek oʻzaro yaqin tillar orasidagi muammolarni yoritib berishga qaratilgan boʻlib, soxta ekvivalentlar va ularni tarjimada berish muammolarini ochib berish oʻzaro yaqin tillar orasida ketma-ket tarjima muammolarining dolzarbligini talab qiladi.

Kalit soʻz: *tarjima muammolari, tarjimon, tarjima usullari, izohli tarjima, matn, termin.*

Abstract. In our article, the problems encountered in the process of translation are aimed at highlighting the problems between closely related languages, and revealing the problems of false equivalents and their translation requires the relevance of successive translation problems between closely related languages.

Keywords: translation problems, translator, translation methods, interpretive translation, text, term.

Аннотация. В нашей статье проблемы, возникающие в процессе перевода, направлены на освещение проблем между близкородственными языками, а выявление проблем ложных эквивалентов и их перевода требует актуальности проблем последовательного перевода между близкородственными языками.

Ключевые слова: проблемы перевода, переводчик, методы перевода, интерпретационный перевод, текст, термин.

Tarjima tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak u juda qadim tarixga ega bo'lishiga qaramay Tarjimashunoslik faninig oltin davri deb XX asrni e'tirof qilsak bo'ladi. Ushbu asr nafaqat Tarjimashunoslik nazariyasi balki ilm –fan, texnologiya rivojining ham yuksak darajaga olib chiqdi desak mubolag'a bo'maydi. Aynan shu sohalarning rivoji, ishlab chiqarishning yuqori marralarga erishishi eksport va import salohiyatini yuqorilashi, diplomatik aloqalar mustahkamlanishi tarjimashunoslikning sinxron va ketma-ket turlarini yanada ommalashuviga olib keldi. Bu sohalarning rivojlanishi o'z o'zidan tilshunos olimlarni tarjimashunoslik faniga e'tiborini qaratdi va ko'plab izlanishlar olib borilishini taqazo etdi. Ko'plab ilmiy ishlar qilinishiga qaramasdan Tarjimashunoslik nazariyasi hali to'liq o'rganilmagan sohalar qatoriga kiritilgan. Zamonning rivojlanishi Tarjimaning rivojlanishini taqazo etarkanturli olimlar tarafidan bir nechta tasniflashlar taklif qilindi. Tarjimashunoslar tarafidan berilgan tasniflardan biz ilmiy izlanishlarimiz jarayonida V.N.Kommisarov tarafidan ishlab chiqarilgan klassifikatsiyasiga e'tiborimizga qaratamiz[1]. Ushbu izlanishlar jarayonida rus olimlari bergan quyigagi fikr o'zini hali hamon oqlamoqda ya'ni "ikki tilni mukammal egasi bo'lish bu mukammal tajimon degani emas"[2] darhaqiqat ikki tilni mukammal egasi bo'lish bu o'sha tilga oid bo'lgan barcha sohasdagi matn va nutqni to'liq tushunarli qilib tarjima qildi degani emas. Tarjimon nafaqat tilni mukammal egallay olgan balki o'sha xalqning yashash tarzi madaniyati va urf odatlarini mukammal egallay olishi shart deb hisoblaymiz. Tarjima jarayoni nafaqat ikki tilni bir biriga qilingan tarjimasi, balki madaniyatning ham almashuvidir desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tarjimaning lingvistik printsiplari, birinchi navbatda, asl nusxaning rasmiy tuzilishini qayta qurishni nazarda tutadi. Biroq, lingvistik printsiplarni asosiy sifatida e'lon qilish, asl matnni tarjima qilishda haddan tashqari ta'qib qilinishiga olib kelishi mumkin - bu so'zma -so'z, lingvistik jihatdan to'g'ri, lekin badiiy jihatdan zaif tarjimaga aylanadi, bu esa o'z -o'zidan formalizm turlaridan biri bo'ladi. Begona lingvistik shakllar aniq tarjima qilingan, stilizatsiya chet tili qonunlariga muvofiq sodir bo'ladi. Tarjima qilingan jumlaning sintaktik tuzilishi shunga o'xshash vositalar yordamida tarjimada ifodalanishi mumkin bo'lga hollarda, so'zma -so'z tarjimini keyingi adabiy ishlovsiz tarjimaning oxirgi varianti deb hisoblash mumkin.

Biroq, sintaktik vositalarning ikki tilda mos kelishi nisbatan kam uchraydi; ko'pincha, so'zma-so'z tarjima qilinganida, o'zaro yaqin

tillarning me'yorlari u yoki bu tarzda buziladi. Bunday hollarda biz mazmun va shakl o'rtasida ma'lum bo'lgan bo'shliqqa duch kelamiz: muallifning fikri aniq, lekin uni ifodalash shakli o'zaro yaqin tillarda soxta ekvivalentlikka duch kelish mumkin. To'liq tarjima har doim ham asl nusxaning hissiy ta'sirini takrorlamaydi, shuning uchun so'zma -so'z aniqlik va badiiylik bir -biri bilan doimiy ziddiyatda bo'ladi. Hech shubha yo'qki, tarjima lingvistik materialga asoslangan, badiiy tarjima so'z va iboralar tarjimasidan tashqarida bo'lolmaydi, tarjima jarayonining o'zi ham ikkala til qonunlarini bilishga va qonunlarni tushunishga asoslangan bo'lishi kerak. Til qonunlariga rioya qilish ham asl, ham tarjima uchun majburiydir. Ammo badiiy tarjima hech qachon faqat lingvistik korrelyatsiyalarni qidirish emas.

Tadqiqotchilar tilni badiiy asar materiali sifatida belgilaydilar va badiiy tarjima, uning fikricha, asl nusxasi ham uning qonunlarini adolat qiladi. Ammo badiiy tarjimani tushunish, lingvistik vositalarni solishtirish bilanoq, uning estetik tomoniga e'tibor bermaslikni anglatadi. Tarjimaning badiiyligi, aslining badiiyligi, lisoniy yozishmalarining muvofiqligi mezoni nuqtai nazaridan faqat badiiy yozishmalarga xizmat qiladi. Shuning uchun, badiiy tarjima sifatini aniqlash uchun faqat lingvistik yozishmalarning umumiy mezoni qo'llanilmaydi va foydalilik tarjima davomida asl nusxaga bir xil darajada og'zaki yaqinlikni talab qilmasligi mumkin.

Boshqalar esa, badiiy tarjimani so'z ijodkorligi, ya'ni lingvistik emas, balki adabiy nuqtai nazardan ko'rib chiqish kerak, deb hisoblaydilar.

Bu nazariyaga ko'ra, tarjimoning asosiy harakatlantiruvchi kuchi asl nusxadan ilhomlangan g'oya bo'lishi kerak, bu uni fikrlarni so'z bilan aks ettirish uchun etarli lingvistik vositalarni izlashga majbur qiladi, ya'ni badiiy tarjima lingvistik emas, asl nusxaga mos keladi.

Biz har bir tarjima ijodiy jarayon sifatida tarjimoning individualligi bilan belgilanishi kerak degan fikrga shubha qilmaymiz, lekin tarjimoning asosiy vazifasi tarjimada asl nusxaning o'ziga xos xususiyatlarini yetkazishdir. Originalga mos keladigan badiiy va hissiy taassurot yaratish, tarjimon eng yaxshi til vositalarini topishi kerak: sinonimlarni, mos badiiy obrazlarni va boshqalarni topish. Tarjima haqida gap ketar ekan tarjima va uning turlari haqida to'xtalishni ma'qul deb topamiz. Terminni bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilar ekanmiz quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkin; a) Tarjima qilinalayotgan tilda aynan o'sha terminning ma'nosini bildiradigan so'zning mavjud emasligi. b) Tarjima qilinalayotgan termin bir ma'noga

ega emasligi. Bu uchraydigan muammoni faqatgina kontekstdan kelib chiqib tarjima qilish usuli bilangina yechish mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish va temin tarjima jarayonini yengilroq qilish uchun quyidagi tarjima usullarini taklif qilamiz: 1) Transleteratsiya ushbu usulda termin asliyat tilida qanday bo'lsa grafik ya'ni harfma har qanday bo'lsa shunday tarjima qilinadi. 2) Transkripsiya tovush formalari orqali tarjima qilish usuli yani tarjim qilinilayotgan tilda qanday aytilsa huddi shunday talaffuz qilib. 3) Kalka usulida tarjima qilish. Ushbu tarjima turi tarjimon uchun eng qulay usullardan biri hisoblanib aynan bir tilda bor terminning ikkinchi bir tildag semantikasini to'liq saqlab qolgan tarzda so'zma so'z tarjima to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish. 4) Izohli tarjima usuli. Izohli tarjima usuli bir tilda mavjud bo'lgan termin boshqa bir tilga tarjima qilish jarayonida muqobil varianti toipilmagan taqdirda aynan o'sha terminga izoh berish orqali tarjima qilish. Masalan: Ilmiy ishimiz bevosita termin va uning tarjimasi bilan bog'liq ekan terminig tarjimasi quyigda berilga usullardan foydalanilsa maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz; Tarjima haqida gapirar ekanmiz tarjim. Ikki til xususiyatlarini bilish zamirida asarni har tomonlama o'rganish, uning lug'ati va realiylari ustida ishlash tarjimon uchun juda muhim va bu uni ma'lum darajada olim va tadqiqotchi bo'lishini ham taqozo etadi. O'zbek tilida "til topish" degan ko'p ma'noli ibora bor. Birovning qulf-kaliti ochilmagan yuragiga yo'l topishni aytishadi. Ikki odamning hayotda biror ish, muammo ustida bir-birini yaxshi tushunishi, bilishi va shunga ko'ra ish ko'rishi ham shu ibora bilan ifodalanadi. U o'zaro kelishish, ahd-paymon ma'nolarini ham ifodalaydi. Tarjima qilinadigan muallif va uning asari bilan tarjimon o'rtasida ham shunday til topishish bo'lishi zarur. Bunda til topish deganda muallifning o'ziga xosliklarini va muayyan asarning badiiy xususiyatlarini terananglash va shunga yarasha jarayonni tashkil etishni tushunamiz. Tarjima qilinadigan muallif va uning asarini tarjimon sevgandagina, uning o'z o'quvchisiga katta ma'naviy foyda keltirishini bilgandagina til topish juda katta ijodiy foyda keltiradi. Biz bilamizki, tarjimon har doim so'z bilan ishlaydi. U bir necha tillarning o'rtasida ham ijodkor, ham lingivist, ham stilist sifatida ish olib boradi. Shuning uchun ham faqat tarjimon mehnati va talantining qudrati bilan tarjima asliyatga harjihatdan hamohang jaranglashi mumkin. Tarjimon jumla va gapni tashkil etuvchi alohida so'zlarning ma'nolarini faqat va faqat kontekstga va uning oqimiga qarabgina chiqaradi, so'zning ma'nosini jumlagi, jumlaning ma'nosini gapga, gapning ma'nosini alohida tugallangan parchaga va parchaning ma'nosini asarning butun

mundarijasi, shakli hamda uslubga moslaydi. Zero, soʻzning, jumlaning maqsadi, vazifasi, undan muallif kuzatgan mazmun faqat kontekstda toʻla ochiladi. Tilda har bir soʻz bir nechalab maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladi. Muallif, aytaylik, “bor” yoki “koʻz” soʻzlarining oʻnlarcha maʼnolaridan ayni parchada qaysi maʼnosini ifoda etayapti, soʻzning ustiga qanday vazifalarni yuklayapti- bularni tarjimon tarjima jarayonida “chaqib”, “yechib”, “ochib” boradi. Bunda uning tillarni keng bilishi va interpretatsiya salohiyati kuchga kiradi. Shular bilan bir qatorda biz tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarga ham alohida toʻxtalib oʻtishimiz lozim. Tarjima qilish muammolaridan biri bu butun matnning maʼnosi shuning unsurlari maʼnosining yigʻindisi bilan cheklanmasligidir. Matnda berilgan maʼno soʻzlarning denotativ, konnotativ, stilistik, gaplarning sintaktik, gaplardan kattaroq birliklarning sintaktik maʼnolari, soʻz va soʻz birikmalarining suprasegment hamda leksik-semantik maʼnolari oʻrtasidagi bevosita aloqalarga asoslanadi. Har bir leksik-grammatik maydon oʻzining alohida strukturasi ega va shu bilan birga u oʻzining leksik, morfologik hamda sintaktik tizimiga ham ega hisoblanadi. Shuning uchun ham ikki til yaʼni xorijiy va ona tili xususiyatlarini bilish yaxshi amaliy bilim hisoblanadi ammo shunisi maʼlumki bu tarjima uchun yetarli emas. Tilning xususiyatlarini bilishdan tashqari tarjimon ishonchli malakaga ham ega boʻlishi zarurdir. Misol uchun tarjimon ingliz tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilayotganida ingliz tilini german tillari oilasiga mansubligi, undagi soʻz tartibi, birikmalarining xususiyatlari, zamonning qoʻllanishi, koʻp maʼnoli soʻzlarning ishlatilishi, soʻzlarning sinonimik qatorda stilistik jihatdan farq qilishi va shu kabilarga alohida eʼtibor berishi va oʻzbek tiliga tarjima qilish jarayonida oʻzbek tilining turkiy tillar oilasiga mansubligini, soʻz tartibi ingliz tiliga nisbatan farq qilishini, ingliz tilidagi zamonlar soni oʻzbek tiliga nisbatan kam sonni tashkil qilishini, oʻzbek tili leksik qatlamida arab, fors, mogʻul soʻzlarining mavjudligi kabi holatlarni hisobga olishi zarur boʻladi. Shuning uchun ham tadqiqotchi Muattar Joʻrayeva bejizga “Tarjimon chizmakash emas, rassom!” degan shior-sarlavha ostida maqola eʼlon qilgan.

Tarjima faoliyati bir -biridan sezilarli farq qiladigan ikki xil tarjimaga boʻlinadi. Yozma tarjima - har ikki matnning yozma tilining meʼyorlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda, asl matnning maʼnosini yozma yoki elektron ommaviy axborot vositalarida yozma matnga oʻtkazish. Tarjima har ikki tilda ogʻzaki nutqning xususiyatlarini hisobga olgan holda, manba tili madaniyati vakili bayonotining

ma'nosini maqsadli tilga o'tkazishga qaratilgan. Sharh bir vaqtning o'zida va ketma-ket bo'linadi. Shuni ta'kidlash kerakki, imo -ishora tilining tarjimasida odatda talqin turi sifatida tasniflanmaydi.

Kompyuter ixtirosi elektron lug'atlar va keyinchalik kompyuter yordamida tarjima dasturlarini yaratishga yordam berdi. Ularning yordami bilan qilingan tarjima matnning semantik va undan kelib chiqadigan hissiy tomonini o'z ichiga olmaydi. Bunday yordamchi tarjimonlarning muammolari sun'iy intellektni o'z-o'zidan o'rganishga o'xshaydi. Shunga qaramay, bunday vositalar tarjima faoliyatida, ayniqsa yirik tarjima agentliklarida ajralmas hisoblanadi. Ayrim so'zlar, jumlar va butun iboralarni avtomatik tarjima qilish bo'yicha onlayn xizmatlar ham mavjud (masalan, Google Translate), ular odamlar tomonidan individual iboralarni tarjima qilish haqidagi statistik ma'lumotlarga asoslangan.

Tarjima agentliklarining xizmatlari dunyoning aksariyat mamlakatlarida talabga ega, chunki tarjimaga ehtiyoj inson faoliyatining ko'plab sohalarida mavjud. Shunday qilib, tarjima texnik, biznes, sayyohlik, kundalik va boshqa sohalarni ta'minlaydi va har kuni sayyoramizdagi millionlab odamlar uchun til to'sig'ini engishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] – Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni. (Devoni lug'otit turk). 3 jildlik. 1-jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov. –T.: Fan, 1960. –500 b.

[2] – Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. –Toshkent: “Ta'lim”, 2009. –160 b.

[3] – Nurmonov A. Tanlangan asarlar 2-jild. Lingvistik ta'limotlar tarixi – Toshkent: 2012. –232 b.

[4] – O'rinboyev B. O'zbek tilshunosligi tarixi. Samarqand: SamDU,1999. –80 b.

[5] – Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: 2001. – 464 б.



ABUL FAZL ALLOMIYNING “OYINIY AKBARIY” ASARI TARJIMALARINING AYRIM O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAQIDA

Nodirbek SALIMBEKOV, TDSHU erkin izlanuvchisi, Toshkent, O‘zbekiston

Tel: +998974777122; Email: salimbekovn@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘rta Osiyo va Hindiston mintaqalarining tarixiy aloqalarini hamda Boburiylar sulolasining yorqin vakili Akbarshoh va Abul Fazl Allomiyning Oyiniy Akbariy tarjimalarining o‘ziga xos jihatlarini ochib berishga qaratilgan. Asarni ingliz tiliga tarjima qilgan Henri Bloxmann va hindiy tiliga tarjima qilgan Shiv Mridulning tarjima yo‘nalishi va mahoratini taxlil qilishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Abul Fazl “Oyiniy Akbariy” asari, o‘rta asrdagi Hindiston adabiy jarayonlari, fors tili, tarjima asar, ingliz tiliga tarjima, hindiyga tarjima

Аннотация. Цель данной статьи – раскрыть исторические связи между регионами Средней Азии и Индии, а также уникальные аспекты переводов Аини Акбари Абул Фазла Аллами и видного представителя династии Бабура Акбар Шаха. Он состоит из анализа направления и мастерства перевода Генри Блохмана, переведшего произведение на английский язык, и Шива Мридула, переведшего его на хинди.

Ключевые слова: Айини Акбари Абул Фазла, литературные процессы в средневековой Индии, персидский язык, переводные работы, английский перевод, перевод на хинди.

Annotation. The purpose of this article is to reveal the historical connections between the regions of Central Asia and India, as well as the unique aspects of the translations of Aini Akbari of Abul Fazl Allami and the prominent representative of the Babur dynasty Akbar Shah. It consists of an analysis of the direction and skill of translation by Henry Blochman, who translated the work into English, and Shiv Mridul, who translated it into Hindi.

Keyword: Aini Akbari of Abul Fazl, literary processes in medieval India, Persian language, translation works, English translation, Hindi translation.

Hindiston va O‘rta Osiyo qadimdan bir biri bilan turli sohalarda o‘zaro uzviy aloqada bo‘lgan. Bunday siyosiy-ijtimoiy va madaniy yo‘nalishlarni manbaalardan bilish mumkin. Bunday o‘zaro bog‘liqlik Boburiylar sulolasi davrida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, boburiylar bilan birga O‘rta Osiyo xududidan Hindiston subkontinetiga til, madaniyat, kiyinish uslubi va taomnoma bilan ta’sir o‘tkazganini ko‘rish mumkin.

Boburiylar sulolasining yorqin vakili Akbarshoh Hindiston tarixida katta ahamiyatga ega bo‘lgan “Oyiniy Akbariy” asarining yozilishida asosiy qahramonlardandir. Akbarshohning vaziri, do‘sti,

adib va olim Abulfazl Allomiy “Akbarнома” va “Oyiniy Akbariy” asarlarining muallifidir. “Akbarнома” tarixiy asar bo‘lib, u Akbarshohning topshirig‘iga ko‘ra, 1589-1601-yillarda yozilgan. Abul-Fazl ibn Muborak qalamiga mansub. Unda XVI asrda Boburiylar saltanatini boshqargan buyuk imperator Akbar hukmronligi davri to‘liq bayon etilgan. Ushbu asar Boburiylar davrining siyosiy, madaniy va ijtimoiy jihatlari haqida bebaho tushunchalarni beradi.

Abulfazl Allomiy ikkita yirik asar muallifidir. Birinchisi uch kitobdan iborat “Akbarнома” asaridir. Birinchi jildda Akbarning tug‘ilishi, uning shajarasi hikoya qilinadi. Bobur, Xumoyun davrida Afg‘oniston va shimoliy Hindistonda yuz bergan siyosiy vaziyat tasvirlanadi. Uchinchi jild “Oyiniy Akbariy” (Akbar qonunlari) nomi bilan mustaqil asar sifatida mashhur. Muallif vafotidan so‘ng Akbar hukmronligining so‘ngi davrlari yozilmay qolgan [1].

Tarixiy manbalardagi ma‘lumotlarga ko‘ra shu aniq boladiki, asarni ilk hind-oriy tillariga 1855-yilda Sayyid Ahmadhon tomonidan urdu tiliga tarjima qilinadi. Keyingi bosqichlarda asarning 1873-yilda birinchi tarjimadan 18 yil o‘tib ingliz tiliga tarjima qilingani ahamiyatga molik. Tarjima muallifi Bloxmann, asarni faqatgina birinchi jildini tarjima qiladi [2]. Qolgan jildlarini Genri Sallivan Jarret tugatib qo‘ydi. Fikrimizcha, Bloxmann asarni tugallashga ulgurmagan yoki asardagi ba‘zi ma‘lumotlarni muhim deb hisoblamagan. Bloxmannning eslatmalarida imperator Akbar va uning saroyi, Boburiylar imperiyasining ma‘muriyati; tarjimasida esa Abul-Fazlning hayoti bo‘lgan.

Bloxmannning tushuntirishicha, bu ulkan asar imperator Akbarning “ain” (ya’ni boshqaruv uslubi) ni o‘z ichiga oladi va uning 1590-yildagi hukumatining ma‘muriy va statistik hisobotidir [2]. Akbarning topshirig‘i bilan yaratilgan mazkur ulug‘ asar Hindiston tarixini, xususan, 16-asr oxiri 17-asr boshlaridagi davrni o‘rganishda beqiyos ahamiyatga ega. Unda Akbarshoh hukmronlik qilgan 46 yillik voqealar batafsil qalamga olingan. Bu asar Boburiylar saltanati tarixining qimmatli manbaiga aylandi. Akbar Abulfazlning qobiliyatini yuqori baholardi. Unga diplomatik vazifalarni ishonib topshirardi. Ma’naviy ishlar bo‘yicha podshohning birinchi maslaxatchisi lavozimida xizmat qilardi [3].

Asarning ahamiyatli jihati shundaki, uni yozishda viloyatlardagi davlat xizmatida bo‘lgan yoshi ulug‘ xizmatchilardan saroyga oid biron bir voqea yoki xodisa haqida yozma yoki og‘zaki shaklda

saroyga eltib berishlari haqida farmonlar yuborildi. Bu ulkan g'oya edi. Ish ko'lamidan Abulfazl arxiv xujjatlarni qidirgan va to'plagan birinchi tarixchi edi [3].

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, o'rta asrlar Hindiston mintaqasining shimolidagi asosiy boshqaruv elitasi O'rta Osiyodan kelgan turkiy xalqlar bo'lgani va ularning ona tili turkiyda bo'lgani ahamiyatga egadir. Lekin mintaqaning o'sha davr hind tillari uchun arab, fors, turk tillari emas, balki Hindistonda hukmronlik qilgan hukmdorlar tomonidan ishlatilgan sharqiy Eronning yangi fors tili manbaa til bo'lgan degan, konsepsiya muhim ahamiyatga ega [4].

O'tgan yillar davomida "Oiniy Akbariy"ning ko'plab tarjimalari paydo bo'ldi, ularning har biri ushbu ajoyib adabiyotning tushunilishiga va undan foyda olinishiga o'z hissasini qo'shdi. Ushbu maqolada biz "Oiniy Akbariy"ning turli tarjimalarida uchraydigan o'ziga xos xususiyatlarni ko'rib chiqamiz.

"Oiniy Akbariy" asli fors tilida yozilganini va bu adabiy durdona asarning keng ommaga yetib borishida tarjimalar muhim rol o'ynaganini ta'kidlash muhimdir. Tarjimalarning eng avvalini ingliz tiliga XIX asrda boshlanganini inobatga olsak, nemis sharqshunosi va fors tili va adabiyoti professori sifatida tanilgan Bloxmann (1838-yil 8-yanvar – 1878-yil 13-iyul) tarjima qilgan va 1873-yilda nashr etilgan.

Hindiston adabiy muhitidagi ma'lum bir uzulishlardan so'ng asarga e'tiborni ingliz tili mutahassisi tomonidan qaratilgani ahamiyatga egadir. Mintaqaning asosiy tili bo'lgan hindiy tiliga bu asar 1941-yilda Hindistonning Rajasthan shtatida tug'ilgan Shiv Mridul tomonidan ingliz tilidan hindiyga tarjima qilingan va 2020 yilda nashr etilgan.

Tarjimonlar boy va murakkab fors tilini tarjima jarayonida ingliz hamda hind tillarga moslashtirish muammosiga duch kelishdi. Bunda ular tarjimalar asl matnning mohiyatini saqlab qolish va maqsadli o'quvchilar uchun ravshanlik va oson o'qishni ta'minlash o'rtasidagi muvozanatni saqlashga intilganlar.

Boburiylar imperiyasi murakkab va madaniy jihatdan xilma-xil bo'lgan va "Oiniy Akbariy" ning tarixiy kontekstini har tomonlama tushunish juda muhimdir. Tarjimonlar ko'pincha matnni batafsil izohlar va tarixiy ma'lumotlarni taqdim etuvchi kirish bo'limlari bilan to'ldirishgan. Ushbu qo'shimchalar o'quvchilarga voqealar, madaniy amaliyotlar va siyosiy dinamikaning ahamiyatini tushunishga yordam

beradi. Shu bilan birga ularda Boburiylar davri haqidagi umumiy tushunchalarini oshiradi.

“Oyiniy Akbariy” besh kitobga bo‘lingan bo‘lib, imperator Akbar hukmronligi davrining turli jihatlarini qamrab oladi. Tarjimonlar maqsadli tilda izchil hikoyani taqdim etishda asl asarning tarkibiy yaxlitligini saqlab qolish muammosiga duch kelishadi. Ular boblar, bo‘limlar va sarlavhalarning tashkil etilishini saqlab qolishga intiladi, tarjima qilingan nusxa asl matnning mantiqiy oqimini aks ettiradi.

Tarixiy manbalar Akbar epoxasi turli madaniyatlarning bir biri bilan uyg‘unlashgani ta’kidlaydi. “Oyiniy Akbariy” asari bu xilma-xillikni o‘zida aks ettiradi. Tarjimonlar asl matnda mavjud bo‘lgan madaniyatlararo murojaatlar, idiomalar va metaforalarning nozik tomonlarini bilishlari hamda forsiydan tarjima qilinganda o‘sha jummalarni ma’no jihatdan aniq yetkazib berishlari kerak. Bloxmann fors tili mutaxasisi bo‘lganligi tufayli tarjima unga qiyin bo‘lmaganligi, lekin ingliz tilidan hindiyga tarjima qilgan Shiv Mridul o‘zining 73 yoshida asarni tarjimasiga bel bog‘lagani e’tiborga molikdir. U Abul Fazl foydalangan tilni oddiy odamlarning tili bo‘lmagnini, asarda so‘zlar va sintaksislarni ajoyib usulda qo‘llanganidan muallif o‘tkir qalam sohibi ekanligini ta’kidlaydi va fors tili mutaxasisi bo‘lgan Zulfiqor Muhammadga yordami uchun minadorchilik bildiradi [5].

Izlanishlar davomida Hindiston milliy arxivida saqlanayotgan ushbu nodir asarning asl nusxasi bilan tanishishga muvaffaq bo‘lindi. Asarning hozirgi holati va arxiv hodimlarining asarga bo‘lgan hurmati tahsinga sazavordir. Ushbu safar davomida asarni hindiyga tarjima qilgan olim Shiv Mridul bilan uchrashuvni alohida ta’kidlash lozim. Negaki muallif Hindiston tarixida asosiy va muhim o‘rinda turuvchi imperator Akbar haqida ma’lumot beruvchi adabiyotlar juda kam va hindiy tilida o‘quvchilarga yetkazish uning asosiy maqsadi ekanligini ta’kidladi.

Tarixiy matnlarni sharhlash, ayniqsa, murakkab mavzular va mafkuralarni ko‘rib chiqishda qiyin vazifa bo‘lishi mumkin. “Oyiniy Akbariy” tarjimonlari ko‘pincha noaniq havolalarni oydinlashtirish, tarixiy voqealarni batafsil bayon qilish yoki muallif niyatini yoritish maqsadida tushuntirish yozuvlari va izohlar beradilar. Ushbu izohlar matn va uning mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi, tarjima qilingan variantni yanada kengroq va qiziqarli qiladi. Tarjimonlar tarjima jarayonida tarjimaga qilinmaydigan realiyalar,

ya'ni ularni asl nomi bilan beradilar, ba'zi so'zlarni izohlash orqali o'sha so'z yoki ibora haqida kengroq tushunchalarni beradilar [5].

Ushbu bebaho tarixiy hujjatni keng ommaga yetkazishda "Oyiniy Akbariy" tarjimalari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tarjimon forsiydan tarjima qilganda ba'zi so'zlar va jummalarni tarjima qilishga qiynaldilar, negaki o'sha davr adabiyotida forsiyda ijod qilish adabiyotning cho'qqisni zabt etgan kishilar bilan teng edi. Shu sababli tarjimada madaniyatlararo sezgirlik va izohlar orqali o'quvchilarga imperator Akbar hukmronligi davridagi maftunkor dunyoni o'rganishga keng imkon beradi. Shu bilan birga Shiv Mridul aytganidek, asl matn forsiydan ingliz tiliga hamda ingliz tili orqali hindiyga tarjima qilinganda, asosiy matn va hindiydagi ma'nolarini saqlab qolishga harakat qilingan [5].

"Ayn i Akbari" Markaziy Osiyo va Hindistonni bog'lovchi ko'prik vazifasini o'tovchi va bu davrda yuzaga kelgan madaniyatlar, an'analar va g'oyalar uyg'unligini namoyish etuvchi asardir. Asarda Boburiylar imperiyasining turli jihatlari, jumladan uning boshqaruvi, ijtimoiy tuzilishi, iqtisodiy siyosati va madaniy amaliyoti ochib berilgan. Unda o'zining inklyuziv va ilg'or yondashuvi bilan mashhur bo'lgan imperator Akbar tomonidan amalga oshirilgan boshqaruv va siyosat haqida har tomonlama tushuncha beradi.

Xulosa qilib aytganda, "Ain i Akbari" Boburiylar davridagi O'rta Osiyo va Hindiston o'rtasidagi dinamik munosabatlarga bir nazar tashlaydi. Bu Boburiylar imperiyasini shakllantirgan madaniy, intellektual va siyosiy aloqalarning isboti bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tarixiy matn Markaziy Osiyo va Hindiston an'alarining uyg'unligini tushunish uchun qimmatli manba bo'lib, mintaqaning boy va rang-barang merosini qadrlashimizga hissa qo'shadi.

Ko'proq tarjimalar paydo bo'lib borar ekan, bu tarjimonlarning "Oyiniy Akbariy" tarkibidagi bilimlarni saqlash va tarqatishdagi sa'y-harakatlarini e'tirof etish va qadrlash zarur. Ushbu tarjimalar vaqt va madaniyatlar o'rtasidagi ko'prik bo'lib xizmat qiladi, bu o'quvchilarga Boburiylar davrini o'rganish va Hindiston tarixidagi eng muhim davrlardan birini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Ushbu asarni tarjima orqali keng ommaga yetkazish juda katta ahamiyatga egadir. Negaki bu asar O'rta Osiyo va Hindiston bilan siyosiy va madaniyatlararo bog'liqlikni ko'rsatadi. Ikki madaniyatning keng ko'lamda yoyilgani va buning natijasida zamonaviy mintaqalarning o'zaro uyg'unlashganini kuzatish mumkin. Qolaversa,

mazkur asar orqali buyuk davlat arbobi asl kelib chiqishi turkiylardan hisoblanib, Hindiston tarixida o‘chmas iz qoldirgan Akbarshohning hayoti, tarixi, falsafasi, madaniyatga qo‘shgan katta xissasi haqida batafsil ma’lumot beruvchi shoh asar ekanligini alohida ta’kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1] – O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, T., 2002, 1-tom.
[2] – Blochmann, H. (tr.) (1927, qayta nashr 1993). Abul-Fazl Allomiy “Ayn-i Akbariy”, jild. I, Kalkutta: Osiyo jamiyati, so‘zboshi (birinchi nashr).
[3] – История Индии в средние века, Москва, 1968.
[4] – Шаматов А.Н Очерки исторической лексикологии хинди и урду XV- начала XVII вв. “Мусулманская” лексика и южный хиндустан Т., 1990.
[5] – Aini Akbari Shiv Mridul, 1-4 kitob, Dehli 2020.



MUSHFIQ KOZIMIYNING “QO‘RQINCHLI TEHRON” ROMANIDA PORTRET TASVIRI

Dilobar ASQAROVA, TDSHU 1-kurs magistranti, Toshkent, O‘zbekiston
Telefon: +998 94 619-02-92; E-mail: dilobar.asqarova.2000@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy fors adabiyoti durdonalari tarjimalarida portret tasvirining berilishini tadqiq qilish maqsadida Mushfiq Kozimiyning “Qo‘rqinchli Tehron” romani tahlilga toritilib, portretlar tasviriga oid misollar orqali ko‘rib chiqildi. Mazkur maqolada asar qahramonlarining tasviri uning aslyat matni va tarjima matnini o‘zaro chog‘ishtirish orqali o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: portret, badiiy asar, tasvir, badiiy obraz, personaj, tashqi ko‘rinish.

Аннотация. В данной статье проанализирован роман Мушфика Козими «Страшный Тегеран» с целью изучения изображения портретов в переводах современных персидских литературных произведений на узбекский язык, а также рассмотрены примеры портретов. В данной статье образ героев произведения исследован путем сравнения его оригинального и переведенного текста.

Ключевые слова: портрет, художественное произведение, образ, художественный образ, персонаж, внешность.

Abstract. In this article, Mushfiq Kozimi's novel "Terrible Tehran" was analyzed in order to study the depiction of portraits in the translations of modern Persian masterpieces, and it was examined through examples of portraits. In this

article, the image of the heroes of the work was studied by comparing its original text and the translated text.

Key words: portrait, artistic work, image, artistic image, character, appearance.

Badiiy adabiyot va san'at badiiy asar shaklida yashaydi, shunga ko'ra, badiiy asar adabiyot va san'atning yashash shakli hisoblanadi [1,76]. Shuning uchun, badiiy asarning asosiy mezonini badiiylik tashkil qiladi. Asardagi badiiylik uning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Badiiylik – san'atning ham joni, ham ruhi ekan, uni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri — badiiy obrazdir [2, 32]. Demak, badiiylikning markazida badiiy obraz turadi. Badiiy obrazning yaratilishida hamda maromiga yetkazib tasvirlanishida muallifning o'rni, ya'ni uning bilim va saviyasi, ijodkorligi, so'z boyligi muhim omillardan hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda «badiiy obraz» atamasi ham keng, ham tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda «badiiy obraz» deganda, borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ijodiy qayta ishlangan har qanday aksi jonivorlar, narsa-buyumlar, hodisalar, tabiat obrazlari nazarda tutilsa, tor ma'noda badiiy asardagi inson obrazi tushuniladi. Obrazga bevosita yozuvchining o'zi tomonidan berilgan ta'rif «muallif xarakteristikasi» deb yuritiladi. Muallif xarakteristikasida obrazning fe'l-atvoriga xos asosiy xususiyatlar bayon qilinadi. Muallif xarakteristikasi o'quvchida personaj haqida yaxlit tasavvur hosil qilib, uning keyingi xatti-harakatlarini, gap-so'zlarini anglashida muhim ahamiyat kasb etadi. Personajning so'z bilan chizilgan tashqi qiyofasi - portret ham inson obrazini yaratishda muhim vosita sanaladi. Portret, avvalo, personajning o'quvchi ko'z oldida konkret inson sifatida gavdalanishiga ko'maklashadi. Ikkinchi tomondan, badiiy asarda portret xarakterologik belgilarga ega bo'ladi. Ya'ni yozuvchi personaj siyratiga xos xususiyatlarni suratida aks ettirishga intiladi [1, 68-69]. Badiiy asar haqida so'z borar ekan, unda qahramon tasviri muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, asarning tushunarli, shuningdek, ta'sirli bo'lishi uchun o'quvchi ongida, avvalo, obraz mantiqiy jihatdan shakllangan bo'lishi joiz. Bu jihatdan, portret tasviri yozuvchi o'z maqsad-muddaosini yetkazishda yordamchi vazifasini o'taydi.

“Portret (fr. *portraire* – tasvirlamoq) personajning so'z vositasida tasvirlangan tashqi ko'rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko'z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o'quvchi tasavvurida jonlanadigan to'laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini

ochish vositalaridan biri. Portret epik asarning kompozitsion unsuri bo‘lmish tavsifning bir ko‘rinishidir” [3, 836]. Demak, badiiy asardagi portret tasviri asarni mukammal bo‘lishi uchun bir vosita hisoblanar ekan. Shu bilan birga, tarjimon ham tarjima qilinayotgan asarning ruhini his eta olishi, muallifning dunyoqarashini to‘la anglab yetishi ham muhim. Chunki, asliyat matnini o‘qigan kitobxon kabi tarjima matnini o‘qiyotgan o‘quvchi ham u kabi asardan lazzatlanishi kerak.

Ushbu maqolada portret tasvirini yoritish maqsadida mavzuga tegishli o‘zbek, rus, fors tillariga oid tadqiqot ishlari, maqola, asarlarga murojaat qilindi. Mazkur maqolada Mushfiq Kozimiyning “Qo‘rqinchli Tehron” romanining forschasi va uning o‘zbekchaga qilingan tarjimasi tahlilga tortilib, asardagi portret tasviri o‘zaro chog‘ishtirildi.

Shuningdek, maqolani yozishda I.G‘ofurovning “Tarjima nazariyasi” [4], G‘.Salomovning “Til va tarjima” [5], D.Quronovning “Adabiyotshunoslikka kirish” [1], H.Umurovning “Adabiyotshunoslik nazariyasi” [2] kabi bir qator olimlarning kitoblaridan foydalanildi.

Badiiy asarda bayon etiladigan portret tasviri ushbu badiiy asarning mohiyatini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Chunki, ushbu omil yozuvchining naqadar ijodkorligi, uning badiiy tasvir vositalaridan nechog‘lik unumli foydalana olganini belgilab beradi. Shu bilan birga asar tarjimonidan ham juda mahoratli bo‘lish, so‘zga ustalik, ham o‘zbek tilini, ham o‘z tarjimonligini olib boradigan tilini mukammal bilishi talab etiladi. Roman va qissa kabi katta yoki o‘rta hajmdagi nasriy asarlarda qaxramon xarakteri, uning ruhiyati, botiniy hayoti va ichki kechinmalarini ochib berish uchun yozuvchida imkoniyat va vaqt ko‘proq bo‘ladi [6, 392].

Tarjima qilinadigan muallif va uning asari bilan tarimon o‘rtasida til topishish bo‘lishi zarur. Bunda til topishish deganda, muallifning o‘ziga xosliklarini va muayyan asarning badiiy xususiyatlarini teran anglash va shunga yarasha jarayonni tashkil etishni tushunamiz. Tarjima qilinadigan muallif va uning asarini tarjimon sevgandagina, uning o‘z o‘quvchisiga katta ma’naviy foyda keltirishini bilgandagina til topish juda katta ijodiy foyda keltiradi [4, 115].

Tarjimon uchun so‘z tanlashning mashaqqati yana ham ko‘proq. Chunki, u asarni o‘z tiliga ag‘darar ekan, unda tasvirlangan narsani ifodalash uchun yigirmatalab so‘zlar orasidan o‘zi istaganlarini ishlata olmaydi. Masalan, biron sohibjamol qizning tasvirini yaratishda tarjimon asar doirasidan chetga chiqolmaydi. Ehtimol, tarjimon

yozuvchi ishlatgan soʻzlarga nisbatan tamomila boshqacha: soddaroq, jonliroq, musiqiyroq soʻzlar vositasi bilan sohibjamol qiz portretini yanada nafisroq qilib yarata olishi mumkindir, ammo u bunday qilolmaydi. Tarjimon faqat avtor ifodalagan fikrni oʻz tiliga haqqoniy qayta tiklash doirasida soʻz tanlash erkinligiga ega. Agar tanlangan soʻz asl nusxadagi soʻzga muvofiq tushsa, oʻsha soʻzning magʻzida yashirinib yotgan maʼno bizning tilimizda tiriladi, aksincha, agar unga toʻliq muvofiq boʻlmasa, fikrni noaniq va mujmal qilib qoʻyishi mumkin [5, 166].

Namuna sifatida, yigirmanchi asr Eron nasrining yorqin namoyondasi Mushfiq Kozimiyning “Qoʻrqinchli Tehron” romanidagi portret tasvirlarini keltirish mumkin.

Yozuvchi ushbu romanda XIX-XX asrlardagi ahvolni mukammal ochib bera olgan. Asarda oʻsha davrdagi tuzum, oddiy xalqning turmush tarzi, yashash sharoiti, xalqning boshidan oʻtkazayotgan qiyinchilik va azob-uqubatlari toʻlaqonli yoritib berilgan. Mushfiq Kozimiy ushbu romanda Eronda Qojarlar hukmronlik davrining oxiri va Pahlaviy hukmronligining dastlabki davrlarida yuz bergan vaziyatni yoritib bergan. Adibning portretlar tasvirini ifodalashida ham har bir elementni hisobga olgan va oʻsha davr ruhiyatini kitobxonga yetkazib bera olgan. Shu bilan birga, tarjimon ham yozuvchining uslubini saqlab qolishga intilgan va buning uddasidan chiqa olgan desak, mubolagʻa boʻlmaydi.

Said Murtazo Mushfiq Kozimiyning “Qoʻrqinchli Tehron” romani ikkita kitobdan iborat boʻlib, uning birinchi kitobini fors tilidan oʻzbek tiliga taniqli adib Gʻafur Gʻulom tarjima qilgan. Gʻafur Gʻulom isteʼdodli yozuvchi boʻlganligi sabab asarni oʻzbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan boʻlib, asarning tarjimasi ham xuddi asli kabi oʻzbek kitobxonlari tomonidan sevib mutolaa qilinadi.

Romanda muhtojlik va ochlikdan qiynalgan, oilasini boqish uchun qingʻir yoʻllarga ham kirishga tayyor boʻlgan asar qahramonlaridan biri Javodning portret tasviriga eʼtibor qaratsak:

Asliyat: حاضرین در این قهوه خانه مرکب از جمعی مردمان مختلف بود و هر شخص دقیقی بخوبی متوخه میشد که هر صنفی پایین ترین طبقه اش در آنجا دیده میشد و طبعاً هر چند نفر آنها در گوشه ای جمع شده و به صرف چای و یا کشیدن چیق و تریاک مشغول بودند. در آن میان تنها یک نفر در گوشه ای قرار گرفته و بدون اینکه با کسی گفتگویی بنماید با حالی محزون سیگار خود را می کشید.

این جوان که در حدود بیست و پنج ساله بنظر میآمد صورتی گندم گون بینی کشیده و قلمی و چشمانی میشی رنگ و بسیار گیرنده داشت لبهایش نازک و از میان آن دو ردیف

دندان های سفید نمایان بود که با ظاهر مسکینش مغایرت داشت لباسی بی اندازه ژولیده و مندرس در بر کرده و سر وضعش نشان میداد که شخص دست تنگ و گرفتار بیست و گویی در آن موقع افکار زیادی او را مشغول داشته بود چه گهگاه سر را بلند کرده و با اطراف نگر بسته و مجدداً به دریای هم و غم فرو میرفت [7:6-7].

Tarjimasi: *Qahvaxonadagilar turli-tuman kishilardan iborat bo'lib, diqqat bilan qaragan odam bu yerda eng pastki tabaqa va kasb-kordagi vakillarni topishi mumkin edi. Ularning ko'pchiligi har yer-har yerda davra qurib, choy ichmoqda, yo nayaki qilmoqda yoki suhbatlashmoqda edi. Faqat bir kishigina bir burchakka qisilib, hayolga cho'mgan holda papiros chekar, gapga aralashmas edi. Bu yigirma besh yoshlarga kirgan, bug'doy rang, chaqnoq ko'zli yigit edi. U jilmaygan chog'ida yupqa lablari ostidan ikki qator oppoq tishlari ko'rinib ketardi, lekin bu tabassum uning hazing qiyofasiga uncha yarashmaganday tuyilardi. Uning engil-boshi to'zigan va isqirt bo'lib, qattiq muhtojlikka tushib qolganidan darak berardi. U hayol daryosiga g'arq bo'lib o'tirar ekan, atrofidagi narsalarni payqamayotganga o'xshar, faqat ahyon-ahyonda tevarakka ko'z tashlash uchun boshini ko'tarardi-yu, yana hayolga tolardi [8:5-6].*

Birgina shu parchaning o'zini o'qishimiz bilanoq, darhol o'sha davrni tasavvur qila olishimiz mumkin. Yuqoridagi parcha boshdan oyoq tasvirdan iborat desak ham bo'ladi. Yozuvchi portretni tasvirlashdandan avval, "Cholemaydon" qahvaxonasi, undagi odamlar va ularning holatini tasvirlagan. Yozuvchi ularning tashqi qiyofasini detallarigacha tasvirlamagan bo'lsada, umumiy tasvirdan bu qahvaxonaga nochor va kambag'allardan boshqa odamlar kirmasligi ko'rinib turibdi. Personajlardan biri bo'lgan Javod ham ular kabi kambag'alligi portret tasvirida yaqqol namoyon bo'ladi. Yozuvchi portret tasviri bilan birgalikda uning ruhiyati, ichki kechinmalari, ayni damda o'ychan holda tashvishlari bilan ovora ekanligini aniq ko'rsatib bera olgan.

Tarjimon ham asliyatdagi tasvirni huddi yozuvchi singari yaqqol namoyon eta olgan. G'afur G'ulom romanda aks ettirilgan tasvirlarni asliyatdagi kabi berishning uddasidan chiqqan. Eng asosiysi, tarjimon so'zma-so'z tarjima qilmagan bo'lsada, tasvirni yaqqol bera olgan va yozuvchining uslub doirasidan chetga chiqmagan. Tarjimon asardagi personajlar tasvirini o'zbek kitobxonlariga tushunarli tarzda xalqchil tilda tarjima qilgan. Tarjimon asarni uslubiy jihatdan g'alizliklarsiz tarjima qilishga harakat qilgan, ammo hech bir tarjima asar to'laligicha qusursiz tarjima qilinmaydi. Tarjimon ham ba'zida

ma'lum bir so'zlarni tarjima qilmay, ba'zan ma'nosini tushunmay tushirib qoldirishi mumkin. Shunga qaramay, tarjimon yozuvchi aks ettirmoqchi bo'lgan o'sha davrdagi vaziyatni, ya'ni asarning ruhini saqlab qolishga ma'lum darajada erisha olgan. Shu o'rinda yana bir personaj tashqi qiyofasining tasviriga e'tibor qaratsak:

Aslyat: ناشناس جوانی بود سفید روی با موی خرمایی رنگ و چشمانی درشت و ابروانی کشیده، لباسش عبارت بود از سرداری سیاه رنگ و روی رفته کلاه نمدی سیاه معروف به نظامی برسر گذارده بود و هر کس به سر و وضع او بدقت مینگرست زود متوجه میشد که این جوان از ساکنین این محله نبوده و برای قصد و نیت خاصی به آنجا آمده است بخصوص که دستان سفید و ظریفش بیش از هر چیز معرف شخصیت و طبقهء آمده است [7:12-13].

Tarjimasi: *Notanish yigit rangpar yuzli, qo'ng'ir jingalak sochli, qora ko'zli, ingichka va qirra burunli edi. Uning egnida sardoriy¹¹ deb ataladigan qora kamzul, boshida "kulohi nizomiy" deb ataluvchi qora namat kuloh bor edi. Bu yigitga diqqat bilan qaragan odam uni bu mahallalik bo'lmaganligini va bu yerga aniq bir tilak bilan kelganini anglardi; uning birinchi qarashdayoq ko'zga tashlanadigan oppoq paxtaday qo'llari va o'zini ulug'vor tutishi uning aslzodalar xonadoniga mansub ekanidan darak berardi[8:10].*

Yuqoridagi parchada kambag'allar yashaydigan mahallaga bir aslzoda yosh yigitning kelganini tasviri berilmoqda. Uning portreti tasviri orqali ham yigitning bu mahallada yashamasligi ko'rinib turibdi. Haqiqatdan ham, faqirlar yashaydigan mahallaga biror aslzoda kelsa, uning tashqi ko'rinishidan bilinadi. Insonning tashqi qiyofasi uning tang ahvoldaligi yoki aslzodaligidan darak berib turadi. Tarjimon bu yosh aslzoda yigitni tasvirini xuddi yozuvchi tasvirlagani kabi tarjima qilganiga qaramay, biroz o'zgarishlar kiritgan. Yozuvchi yigitning sochlari to'q qizil, ya'ni qo'ng'ir tusda deb tasvirlagan, ammo jingalak sochli demagan tarjimon esa, portret tasvirida uni qo'ng'ir jingalak sochli deb tasvirlagan. Badiiy asar tarjimasida bu tabiiy hol, chunki, aslyatdagi ba'zi tasvirlarni to'la namoyon etish, o'quvchini zerktirmaslik, badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanish tarjima jarayonidagi muhim omil hisoblanadi va bu bevosita tarjimonning ijodkorligi, so'z tanlash mahorati bilan ham bog'liq hisoblanadi.

Xulosa. Portret tasvirining badiiy asarlarda aks ettirilishini Said Murtazo Mushfiq Kozimiyning "Qo'rqinchli Tehron" romani va uning

¹¹ Erkaklarning uzun belburma kamzuli

Gʻafur Gʻulom tarjimasini chogʻishtirish orqali bir qancha xulosalarga kelindi. Avvalo, tarjimashunoslik sohasida ushbu masalada amalga oshiriladigan ishlar, jumladan, ilmiy tadqiqotlar bugungi kunda dolzarb ekanligiga guvoh boʻlamiz. Yuqorida kuzatilganidek, tarjimon eng avvalo, ikki tilni mukammal bilishi lozim. Shuningdek, ona tilini mukammal bilishi tarjimoni asliyatdagidek, hatto undanda muvaffaqiyatli tarjima qila olishi uchun zamin yaratadi. Tarjima jarayonida tarjimon yozuvchining uslubini ham saqlashi, shu bilan birga tarjimada gʻalizlikni oldini olishi uchun tarjimaga biroz ijodiy yondasha olishi kerak. Gʻafur Gʻulom ushbu romanni mohirlik bilan tarjima qilgani tufayli ushbu asar kitobxonlar qalbidan joy oldi desak, adashmagan boʻlamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati:

- [1] – Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 226 b.
- [2] – Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 264 b.
- [3] – Joʻrayeva M., Tojaliyeva N. “Judolik diyori” romanida portret tasviri // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, №3(2), 2023. – 836 – 841 b.
- [4] – Gʻofurov I., Moʻminov O., Qambarov N., Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur boʻstoni, 2012. – 214 b.
- [5] – Саломов Ф. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – 380 б.
- [6] – Abdullayeva D.S. Adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm tushunchasi va masalaning tarixi // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, №1(6), 2021. – 385 – 393 b.
- [7] – مرتضى مشفق كاظمى. تهران مخوف. تهران: سازمان انتشارات ارغنون، ۱۹۲۴. – ص. ۷.
- [8] – Козимий М. Кўрқинчли Техрон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. – 655 б.



FORS TILIDA “ سگ مثل ” KOMPONENTLI KOMPORATIV BIRIKMASINING OʻZBEK TILIDA IFODALANISHI

*Azamat BEKTEMIROV, TDSHU 1-kurs magistranti, Toshkent, Oʻzbekiston.
Tel.: +998990021897; E-mail: azamat.bektemirov.1997@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada oʻzbek tilshunosligida oʻxshatishlarning oʻrganilish tendensiyalari va tilshunos olimlarning mavzuga oid asrlariga

munosabat bildirildi. Ma'lumki, o'xshatishlar o'zbek tilshunosligida bugungi kungacha semantik-grammatik, semantik-stilistik va lingvomadaniy jihatdan o'rganilgan. Ushbu yo'nalishlarda yaratilgan ilmiy adabiyotlar va maqolalar tahlil qilindi. O'xshatishlarni tilimizda qo'llanilishiga misollar keltirildi. Mavzuga oid lug'atlar va ularning ahamiyati yoritib berildi.

Kalit so'zlar: o'xshatishlar, o'xshatish etaloni, erkin o'xshatish, komparativ iboralar.

Аннотация. В данной статье выражены тенденции изучения сравнений в узбекском языкознании и отношение лингвистов к данной теме. Известно, что сравнения до сих пор изучаются в узбекском языкознании со семантико-грамматического, семантико-стилистического и языкового аспектов. Проанализирована научная литература и статьи, созданные по этим направлениям. Были приведены примеры употребления сравнений в нашем языке. Были объяснены словари, относящиеся к этой теме, и их важность.

Ключевые слова: сравнения, стандарт сравнения, свободное сравнение, сравнительные выражения.

Abstract. In this article, the trends in the study of similes in Uzbek linguistics and the attitude of linguists to the subject have been expressed. It is known that similes have been studied in Uzbek linguistics until today from the semantic-grammatical, semantic-stylistic and linguistic aspects. Scientific literature and articles created in these areas were analyzed. Examples of the use of similes in our language were given. Vocabularies related to the topic and their importance were explained.

Keywords: similes, standard of simile, free simile, comparative expressions.

O'zbek tilshunosligida o'xshatishlar yoki V.M.Ogolsev ta'biri bilan aytganda, komparativ iboralarning o'ziga xosliklari, ularning frazeologik iboralarga, umuman, til va nutqqa munosabati aniq belgilangan emas. Hozirga qadar erkin o'xshatishlar odatdagi sintaktik struktura sifatida o'rganilgan. Ularning turg'unlashib, yaxlit ifoda maqomida til birligiga aylanish jarayonlari tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolgan [1,8].

O'xshatishlar tadqiqi bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

1.O'xshatishlar semantik-grammatik, semantik-stilistik (R. Qo'ng'urov [2], M. Mukarramov [3], D. Xudoyberganova [4]) jihatdan o'rganilgan.

2.O'xshatishlar lingvomadaniy jihatdan o'rganilgan.

O'xshatishlarning tilimizda qo'llanilishi juda qadimiy manbalarga borib taqaladi. Bu esa mavzuning o'rganilishini oshiradi.

Mahmud Qoshg'ariy ilk marta o'xshatishni hosil qiluvchi qo'shimchalar haqida ma'lumot beradi [5,499]. Ko'plab tarixiy asarlarimizda ulardan badiiy-poetik hodisa sifatida keng foydalanilganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida ushbu poetik vositadan unumli foydalanib, betakror misralar yaratgan. Bu asar o'xshatishning tarixiy shakllaridan keng foydalanilganligi bilan ham ahamiyatli. Masalan: "go'yoki tuzilgan marjondek", "tuya karvonidek tizilar", "go'yo nido solgan qizdek", "bo'yim edi o'qdek, ko'ngil edi yoy, ko'ngil bo'ldi o'qdek, bo'yim bo'ldi yoy", "donolar bo'ladi misoli chimzor", "quyiga egildi alifdek nihol" va hokazo.

O'zbek tilshunosligida ushbu mavzuning o'rganilishi borasidagi tadqiqotlar haqida so'z yuritar ekanmiz, M. Mukarramovning "O'zbek tilida o'xshatish" nomli kitobiga to'xtalib o'tishni ma'qul ko'rdik. Chunki qo'llanmada keltirilgan nazariy ma'lumotlar taqqoslashning mohiyatini chuqurroq tushunish uchun g'oyat muhimdir. Qo'llanmada o'xshatishning komponentlari, boshqa hodisalar bilan aloqadorligi, turlari, o'xshatish ifodalovchi vositalar (affikslar, yordamchi so'zlar, leksik vositalar va morfologik-leksik vositalar) bilan ifodalanishi haqida so'z boradi. Muallif o'xshatishlarni yuzaga kelish asoslariga, badiiy adabiyot tilida qo'llanilishiga, ma'nolariga, komponentlarning tarkibiga ko'ra bir necha turlarga bo'ladi. Sezgilar va tasavvurlar orqali yuzaga kelishini hisobga olib, konkret va abstrakt; qo'llanilish jihatdan: an'anaviy va individual; mazmuniga qarab: inkor, kinoya, satirik va chog'ishtiruvchi; komponentlariga ko'ra: to'liq, to'liqsiz, vositasiz, soda, murakkab, tarkibli, uzilgan, ketma-ket o'xshatishlar kabi turlarga bo'linishini ta'kidlaydi [3, 25-31].

Tarjimalar faqat g'oyaviy-tarbiyaviy qurol bo'libgina qolmay, balki xalqlarning til va lug'at boyligi, nutq madaniyati sohasida erishgan yutuqlarini namoyish qiluvchi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Shuning uchun tarjimalarni chog'ishtirib o'rganish ("ichki chog'ishtirish") hamda ularni bo'lak tillarga qilingan tarjimalari bilan muqoyasa qilib tekshirish ("tashqi qiyos") noyob nazariy-lingvistik va badiiy-estetik xulosalar chiqarishga imkon tug'diradi. Chog'ishtirish turli ilmiy va amaliy maqsadlarga xizmat qilishi mumkin:

1. Adekvat tarjima yaratish jarayonini o'rganish.
2. Muallif uslubini qayta tiklash jarayonini kuzatish.

3. Turli davrlarda tilning leksik qatlamlari: a) terminologiya; b) frazeologiya va paremiologiya; c) ilmiy-falsafiy ta'riflarning tarkib topishi va boyishini tekshirish.

4. Tilda sifat o'zgarishlarini aniqlash

5. "Jamiyat va til munosabatlari" muammosini yoritish.

6. Ikki tilli, ko'p tilli universal hamda regional terminologik va izohli lug'atlar tartib berish.

7. Indeks, yilnomalar, bibliografiya tuzishda qo'llanish.

Asarlarda qo'llaniladigan takror san'ati muallif fikrini kuchaytirish, maqsad-muddaoni oydinlashtirishga xizmat qiladi. Tarjima asarlarini (xoh ijtimoiy-siyosiy kitob tarjimasi bo'lsin, xoh badiiy tarjima) chog'ishtirib o'rganish qanchalik ahamiyatli bo'lsa, shunchalik kam qo'llanilgan, qiyoslash metodikasi ham ishlab chiqilmagan (qardosh va turli sistemalarga mansub tillarda yaratilgan tarjimalarni, ya'ni asl nusxani tarjima bilan emas, balki tarjimani tarjima bilan bilan chog'ishtirish nazarda tutiladi). Bu narsa Olmaota kengashidayoq (1958) alohida aytib o'tilgan edi. Biroq, oradan 17-18 yil o'tgan bo'lishiga qaramay, bu borada deyarli biron ish qilingan emas. Olmaota yig'ilishida bildirilgan tanqidiy mulohaza hozir ham o'z kuchida.

Tarjima asarlarini qiyosiy o'rganish "ichki" va "tashqi" chog'ishtirish aspektida amalga oshirilishi mumkin ekanligi qayd etildi. Tarjima qiyosiy uslub asosida tekshirish "darajalar" bo'yicha ham farqlanishi mumkin.

1. So'zni qiyoslash (so'z darajasida qiyoslash).

2. Frazeologizmlar: frazeologik iboralar, turg'un so'z birikmalari, idiomalar hamda maqol va matallarni qiyoslash (frazeologiya va paremiologiya darajasida qiyoslash).

3. Sarlavhalarni chog'ishtirish (indivual uslub darajasida qiyoslash) va hokazo.

Tarjimada, ko'pincha, bitta so'zni topib o'rniga qo'yish bilan fikr oydinlashib ketadi. O'sha so'z topilmaguncha qidirish davom etaveradi. Ba'zan hatto tarjimonlarning bir necha avlodi almashib ketadi hamki, "kerakli" so'z topilmaydi. So'z o'zining kashfiyotchisini "kutaveradi". Masalan, *начётчик* so'zi qiroatxon ekanligini hozir hamma biladi. Bu mavjud ruscha-o'zbekcha va o'zbekcha-ruscha lug'atlarda aks etgan. Lekin "Navoiy asarlari lug'ati"da "qiroat" so'zi "o'qish, baland ovoz bilan o'qish" deb beriladi-yu (ijobiy ma'noda, albatta, 735), qiroatxon keltirilmagan. Hozir bizda salbiy ma'no kasb

etgan bu soʻz, ehtimol, XV asrda boʻlmagandir?. Navoiy zamoni u yoqda tursin, mazkur soʻz atigi yaqin 20-30 yil ilgari ham koʻzga tashlanmaydi [6, 22-25].

Lingvomadaniyatlarining aksariyatida turgʻun oʻxshatishlarni obraz va uning mazmuni jihatidan bir-biriga muqobilligi, muqoyasa obyektlarining oʻxshashligiga guvoh boʻlamiz. Xalqlarning koʻpgina xislat-xususiyatlarga nisbatan qarashlarining, munosabatlarining aksariyat hollarda bir-birlarinikiga oʻxshashligi komparativ frazeologik birliklarning ham bir xil timsoliy mazmun kasb etishlariga sabab boʻladi [1, 10-11]. Bunday holat, ayniqsa, genetik jihatdan qardosh xalqlar tillari ifoda vositalari oʻrtasida koʻproq koʻzga tashlanadi. Bu mazkur xalqlarning tarixiy sharoiti va takomili jarayonidagi umumiy muvofiqliklar bilan belgilanadi.

Oʻxshatish obyektlari boʻlmish timsollarning bu tariqa oʻzaro mosligi tillarda muqoyasaviy umumiylikning mavjudligidan dalolat beradi. Binobarin, badiiy muqoyasa asosida hosil boʻlgan fors va oʻzbek tillari komparativ frazeologik birliklariga nazar tashlar ekanmiz, ularning koʻpchiligida muqoyasa obyektlarining oʻxshashligiga guvoh boʻlamiz. Tarjima tilida asliyatda qoʻllanilgan oʻxshatishlarga ekvivalent oʻxshatish topilmagan taqdirda, adekvatlik koʻp hollarda muqobil variantlar yordamida amalga oshiriladi.

1. -dek qoʻshimchasi (chorom) leksik vositasi yordamida tarjima qilinadi: Men bazm boʻlayotgan maydon orqali oʻtmoqchi boʻlib, devor taxtasidan oshib tushdim..... oʻh-hoʻ-oʻ-oʻ, maydon ichi kunduzgidek yorugʻ, daraxt shoxlariga chiroqlar osilgan, yerlarga ipak gilamlar yozilgʻan [7, 16-17].

2. -dek qoʻshimchasi (katta) leksik vositasi yordamida tarjima qilinadi: Ikki tegirmon toshi orasida yanchilgan kishidek majruh edim. Qimir etgali majolim yoʻq edi. Koʻzimni ochdim. Majlisdagilarning barchasi ham goʻyo bir koʻzdan mening holimga kulib qarab turar edilar. Men oʻz holimdan uyalib, yerga boqdim [7, 16-17].

Oʻxshatish obyektlari boʻlmish timsollarning bu tariqa oʻzaro mosligi tillarda muqoyasaviy umumiylikning mavjudligidan dalolat beradi. Binobarin, badiiy muqoyasa asosida hosil boʻlgan fors va oʻzbek tillari komparativ frazeologik birliklariga nazar tashlar ekanmiz, ularning koʻpchiligida muqoyasa obyektlarining oʻxshashligiga guvoh boʻlamiz. Tarjima tilida asliyatda qoʻllanilgan oʻxshatishlarga ekvivalent oʻxshatish topilmagan taqdirda, adekvatlik

ko‘p hollarda muqobil variantlar yordamida amalga oshiriladi. Misol tariqasida quyida keltirilgan jumalarda ko‘rishingiz mumkin:

گفت دشنام همه به :گرفتن را همه پاشنه سگ مثل

Itdek hammani la‘natlash

بردن رنج بسیار :کندن جان سگ مثل

Qattiq ranjimoq, it kabi sadoqatli bo‘lish, tinimsiz mehnat

تخت .هدایت صادق) ...کنیم می جان سگ مثل ما بیابان این توی که است ماه پنج (ابونصر).

Bizning bu ko‘chada itdek ishlayotganimizga mana besh oy ham bo‘ldi

شدن پشیمان سگ مثل It kabi pushaymon bo‘lish

بود دیر دیگر ولی بود شده پشیمان سگ مثل اش کرده از

Qilgan ishidan it kabi pushaymon bo‘lgan edi, biroq endi kech edi. Shunda Abdurahmon taqdir bu qiz bilan uni chambarchas bog‘laganini, endi u hozirgina duch kelgani – mehr ostonasida itday sadoqat bilan umr kechirishini yuragi zirqirab angladi (U. Azim. Sevgi).

رور خانه هر به باعثنی بی آنکه :دله حسن سگ مثل

Besabab uylarga borish, itdek sang‘imoq, izg‘imoq, daydimiq, tentiramoq. Har ko‘chada it kabi daydishimning sababi – izlaringni sog‘indim (U Hamdam. Sabo va Samandar).

کند دیگر گناهان یا غیبت و گیرد روزه آنکه :بسته دهان سگ مثل

Ro‘zador bo‘la turib, itdek g‘iybat qilmoq, gunoh qilmoq.

کردن افغان و ناله :کشیدن زوزه سگ مثل

Itdek uvillamoq, akillamoq, irillamoq;

امیرقلی فرهنگ) کشید می زوزه سگ مثل که زدند آنقدر کردند دستگیر که را دزدی (امینی).

Qo‘lga olingan o‘g‘rini shunday urdilarki, itdek uvillardi.

Arzimas bir jondorni deb itday irillamanglar, uyat bo‘ladi-ya! (N. Norqobilov. G‘animlar).

دونوه :خانه سلاخ سگ مثل Itdek yugurmoq.

Na halol, na harom neligin bilmay, ikkisin ortidan itdek yugurdik (A. Mahkam. Iymon deb...).

Juda ko‘p yuradigan, daydi it.
Yetim qoldim yoshligimda men ham otamdan, odamlarning
eshigida sanqidim itday (A. Oripov. Jannatga yo‘l).

Itdek xushomadgo‘y.
Устози хаёт вақтида ипақдай мулойим, итдай садоқатли
бўлган бу букри савдогар Райхонабонуга тажовуз қилган (О.
Ёкубов. Кўхна дунё).

گشتن کسی دنبال چاپلوسی و بتملق: کردن موس موس سگ مثل
Itdek xushomad qilib orqasidan ergashmoq.
Faqat sen qolgan eding, mana, sen ham menikisan, endi
tamomsan, ortimdan itday ergashib yuraverasan, endi o‘z holingcha
kun kechirolmaysan (B. M. Ali. Ko‘ktunlilar).

It-mushuk bo‘lish.
يکديگر با همیشه دوتن: گربه و سگ مثل
افتادید؟ هم جان به گربه و سگ مثل، کشید نمی خجالت
Uyalmaysizlarmi bir-biringizga it-mushuk kabi bo‘lishga?
Ichimda ikkita mavjudot doim it-mushuk, jiqqamusht
bo‘layotgandek.

Doimo jaxldor, qutirgan, agressiv
خشمگین همیشه: هار سگ مثل
...افتند می هم بجان هار سگ مثل عصبانی و کسل و کوفته و خسته همه
(کرباس یک ته و سر جمالراده).

Hamma, jaxldor itdek toliqqan, ezilgan, zerikkan va asablangan
edi. Echkisiga sal tekkanimda itday taladi (A. Obidjon. Serkaxonim).

Yetti jonli itdek
داشتن جان هفت سگ مثل
(O‘zbek tilida asosan “7 jon” iborasi mushuklarga nisbatan
qo‘llaniladi).

XULOSA. O‘zbek tilida o‘xshatishlarning voqelanishida -dek, -
day, -simon, - ona, -chasiga kabi qo‘shimchalar o‘xshatish
komponentlarining o‘xshovchi obrazni ifodalagan so‘zlarga qo‘shilib
o‘xshatish va qiyoslashlarni hosil qiladi. -dek qo‘shimchasi o‘zbek
tilida o‘xshatishlarni hosil qiluvchi asosiy grammatik vosita
hisoblanadi. Odatda, mazkur grammatik ko‘rsatkich o‘xshatish hosil
qiladigan leksik vositalar yordamida tarjima qilinadi va u holat,
harakat, belgi va ma’noviy o‘xshashliklarni yuzaga chiqaradi.

Umuman, tarjima jarayonida o'xshatishlar turli-tuman usullar vositasida, aksariyat hollarda, to'la ekvivalentlar va muqobil variantlar usulida tarjima qilinadi. Ba'zan tarjimada o'xshatishlar tushirib qoldiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1] – Маҳмудов Н, Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. –320 б.

[2] – Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент, 1977. – 152 б

[3] – Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент, 1976. – 88 б.

[4] – Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.

[5] – Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). I. –Тошкент: ЎзФА, 1963. – 499 б.

[6] – Oxundov D. Birinchi ruscha-turkcha lug'atda начётчик (-чица) – “Nafiz; Mukabile okuyan”. “Ruscha-Turkcha Lug'at” Jild 1 A-O. Ozarnashr, Boqi, 1928. – 242 b.

[7] – XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi, XX asr o'zbek hikoyalardan.

[8] – Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Изд. Центр «Академия», 2001. – 208 с.

[9] – Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Дарслик. – Тошкент: Фан, 2005. – 352 б.

[10] – Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули, Тошкент. 2011. – 303 б.



UNCERTAIN PAST TENSE IN THE TRANSLATION OF UZBEK ARTISTIC WORKS INTO CHINESE

*Zebo SHAMSIDDINOVA, University of world economy and diplomacy
Teacher of the department of oriental languages, Tashkent, Uzbekistan
Tel: +998946482886; E-mail sita-zebo@inbox.ru*

Abstract: In this article, in the Chinese translation of past tense forms in the work of the Uzbek writer Utkir Hashimov, "The Affairs of the world", the suffix 过 (guò) is used. The characteristics of the expression of the past tense: -di, -gan, -gan edi, edi ekan, -ar edi are considered.

Keywords: suffix, indefinite past tense, tense category, verb forms, stative syntagma

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida -di, -gan, -gan edi, -di ekan, -ar edi kabi o'tgan zamon shakllarining xitoy tiliga noaniq o'tgan zamoni yasovchi 过 (guò) suffiksi orqali tarjima qilinishi hamda uning ifodalanish xususiyatlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: suffiks, noaniq o'tgan zamon, zamon kategoriyasi, fe'l shakllari, turg'un sintagma

Аннотация: В данной статье анализируются особенности перевода прошедших временных форм, таких как -di, -gan, -gan edi, -di ekan, -ar edi, использованных узбекским писателем Уткиром Хошимовым в его произведении "Дела земные", в контексте китайского языка с использованием суффикса 过 (guò), а также рассматриваются особенности его выражения.

Ключевые слова: суффикс, неопределенное прошедшее время, категория времени, глагольные формы, статическая синтагма.

We know that in the process of translating Uzbek works of art into Eastern languages, especially Chinese, there are unique difficulties. The main reason for this is not only the uniqueness of the mentality, traditions, and cultural values of the Uzbek nation but also the fundamental difference in grammar between the Uzbek and Chinese languages, which causes major difficulties. In particular, it is quite a complicated process to correctly reflect the tense categories given in Uzbek artistic works in the Chinese language.

Although many works are devoted to the past tense system of the Uzbek language, we should note that it has not yet sufficiently developed this problem. Different authors distinguish a different number of past tense forms in the Uzbek language. From: A. Kh. Sulaimanov [1, 3] based on the way of forming the past tense, twenty-two tenses distinguish the form: -di, - (i) bdi, -gan, -gan edi, -ar edi, - (i) b edi, -moqda edi, -moqchi edi, -bormoqchi edi, -gan ekan, -gan emish, -gan bo'ldi, -di ekan, -a(y) degan bo'ldi, -ib oldi, -gandas bo'ldi, - gan bo'lsa kerak , -sa bo'lsa kerak, -gisi keldi, -sa bo'ladimi, - ay deb qoldi, -gan bo'lmasin, -magan bo'lsa edi, -(i)sh bilan bo'ldi, -(a)y dedi, -(i))shi kerak edi. It is easy to see that this classification of past tense verb forms with multi-level division is very awkward in practice.

E.D. Polivanov [2, 65,87-88] distinguishes six tenses in the Uzbek language: simple past with and five complex past a) a) –gan (bergan) bilan kelgan tarixiy o'tgan va –gan edi (bergan edi) historical past; b) –gan bilan kelgan egalik affiksi (berganim bor) this form consisting of

an adjective combined with the possessive affix with "I have given"; v) the perfect form comes with participle: *ib bilan kelgan* (*beribdi*) perfekt; g) *-ib edi* (*borib edi*) comes with +perfekt; d) *-ar va -r* (*berar edi*).

A.G. Ghulamov "Verb" [3, 88] also highlighted in his work. After all, unlike E.D. Polivanov, A.G. Gulomov use new terms. He notes six types of past tenses: past definite, past perfect, past subjective, past continuous tenses. A.N. Kononov gives eight tense systems, to which, in addition to the forms listed by E.D. Polivanov and A.G. Gulomov, he adds a certain definite imperfection ("yozmoqda edim" I was writing) and a long past tense (I was writing) [4, 215-228]. A. Khojiyev distinguishes three forms of the simple past tense (forms with past verbs: *-di*, *-gan*, *-ib*) and seven complex past tense forms with the verb *edi* [5; 476]. Such conflicting types of classification can cause difficulties in choosing the correct Chinese equivalent in the process of translating Uzbek works of art.

In our article, the features of the expression of the past indefinite tense through the auxiliary word 过 *guò* in the Chinese translation of the work of the sharp Uzbek writer O'tkir Hashimov "Works of the World". In particular, we can witness that the past tense forms: *-gan*, *-gan edi*, *-ar edi*, *edi ekan*, *-di* are translated into Chinese using the suffix 过 *guò*. They form the Past Indefinite Tense using the suffix 过 *guò* to show that the action happened one or more times in the indefinite past tense. The suffix 过 *guò* can be used only with pure (both restitutive and result-oriented) verbs.

So, the action combined with the suffix 过 *guò* means an action that happened in the past in an indefinite tense and has no direct connection with the present time or the time in question. It is also used to report or clarify that an action or a certain situation happened at least once in the past with a certain person somewhere.

Shuyam **qarg'agan edi** deydi

He also says that he cursed [6, 186]

说你以前咒过他 [7, 157]

Shuō nǐ yǐqián zhòuguò tā

The Uzbek long-past verb form is combined with the Chinese verb 咒 zhòu "to crow" through the form of the suffix 过 guò, expressing an action that took place in the indefinite long past. is coming

Qorong'i osmonda yana ham qoraroq soaydek qilt etmay turgan bu qoyalar bizga o'xshaganlarning necha-nechasini **ko'rdi ekan?**... [6, 9]. How many of those like us did these rocks, standing like an even blacker sun in the dark sky, see?... [6, 9]

午夜时分黑暗的夜色中这些大山见过了多少人的悲欢离合啊 [7, 13]. Zài wǔyè shífēn hēi'àn de yèsè zhōng zhèxiē dàshān jiànguòle duōshǎo rén de bēihuānlíhé a...

The verb in the Uzbek sentence given above is given in the form, which represents the long past tense, and is translated into Chinese using the suffix 过 guò and 了 le.

Ilgarilari bir haqiqatni **bilardim**. Ona uchun bolaning katta-kichigi bo'lmaydi [6, 8] . I used to know the truth. For the mother, the child is not big or small [6, 8]

以前听说过不管孩子的年龄多大, 在妈妈眼里永远都是孩子, 是在这个世界上要保护的宝宝 [7, 11]

Yìqián tīng shuōguò bu guǎn háizi de niánlíng duōdà, zài māmā yǎn lǐ yǒngyuǎn dōu shì háizi, shì zài zhège shìjiè shàng yào bǎohù de bǎobǎo

This sentence belongs to the indefinite imperfect tense in Uzbek, and the verb "to know" is expressed through the form, and it means that the action took place in a long indefinite tense. Translated into Chinese as 听说 tīng shuō "as they say", it also served to express the past subjective tense.

Uniyam aytgansiz-ku [6, 12]

You said that too [6, 12]

这个故事你已经讲过了啊 [7,7] Zhège gùshì nǐ yǐjīng jiǎngguòle a?

Because of the addition of the suffix 过 guò, the verb 讲 jiǎng "to tell", in the example gives the meaning of the Uzbek past perfect tense form "told" with past tense. We assume that the action has "already" taken place, and there is a possibility to continue or repeat this action in the future. In addition, the verb with the suffix 过 guò does not tell about the current state of the subject at the time of speech, but also about an

action that has been completed up to the time of speech and can be continued or repeated.

Unlike the 了 *le* suffix, the 过 *guò* suffix can express both a one-time action and an action repeated several times in a sentence, and can be used together with the continuous tense. For example:

Rahmatullaga (unga) aytuv**dim**-a tog'angning qizini ol deb... [6, 71]

I told Rahmatullah (him) to take your uncle's daughter... [6, 71]

我跟儿子说过好几次，让他跟她的表妹结婚... [7, 73]

Wǒ gēn er zi shuōguò hǎojǐ cì, ràng tā gēn tā de biǎomèi jiéhūn...

The past indefinite tense is often called a multiple type, but, as A.A.Dragunov points out, the verb in this tense is a count word with a number, and 一 *yī* is a count word that indicates a one-time action. For example:

Hoji buvining ko'zlarida, hamisha ma'yuz boquvchi ko'zlarida chog' yaraqlab ket**gandek** bo'ldi [6, 75]

In the eyes of Haji's grandmother, and in the eyes of the ever-gloomy breadwinner, it seemed as if the snow had split [6, 75]

但豪吉奶奶的目光中却闪过一丝愉快 [7, 76]

Dàn háo jí nǎinai de mùguāng zhōng què shǎnguò yīsī yúkuài

[1] – Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 272 б.

[2] – Трегубчак А.В. Семантика сравнения и способы ее выражения: Дисс. ...канд. филол. наук. – Рязань, 2008. – 221 с.

[3] –刘月化等著. 实用现代汉语语法. – 北京: 商务印书馆, 2001 年. – 1005 页.



XITOIY TILIDA IJTIMOIIY MUROJAATLAR AKS ETGAN GENDER XOSLIKLAR MASALASI

Farzona NOROVA, TDSHU stajyor-o'qituvchisi, Toshkent, O'zbekiston
Tel.: +998972650456; E-mail: farzona.norova@yandex.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy murojaatlar "Zamonaviy xitoy tili lug'ati" dan aniqlanib, o'zaro taqqoslanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ayollar va erkaklarga nisbatan qo'llaniladigan ijtimoiy murojaatlar orasida salbiy bo'yoqdorlik ayollarga qo'llaniladigan murojaatlarda yetakchilik qiladi.

Kalit so'zlar: gender omili, ijtimoiy murojaatlar, tarjima, qiyoslash usuli

Аннотация. В данной статье рассматриваются социальные извлеченные из «Словаря Современного Китайского Языка» и проведено сравнение между ними. Исследование показало, что в женских социальных адресах больше слов с негативной эмоциональной окраской.

Ключевые слова: гендерный фактор, социальные обращения, перевод, метод сравнения

Annotation. The given article studies social addresses extracted from *Contemporary Chinese Dictionary* and carries out comparison between them. The research reveals that the negative emotional colouring dominates in female social addresses compared to men social addresses.

Keywords: gender factor, social addresses, translation, comparison method

Til jamiyat va madaniyatning aksi bo‘lib, bir vaqtda va bir makondagi ijtimoiy va madaniy voqeliklarni yuzaga chiqaradi. Qadimdan hozirgacha, jamiyatning eng asosiy elementlaridan bo‘lgan ayol va erkak genderi, ularning o‘rni har bir millat va madaniyatda muhim o‘rin tutadi. Shu sabab, tilshunoslar va psixologlar “genderni ifodalovchi so‘zlar til tarkibining ajralmas qismi bo‘lib, gender ijtimoiy tuzilishning asosiy elementlaridan biri” deb hisoblashadi [4, 163]. XX asrga qadar, Xitoy jamiyatida erkaklar yuqori pog‘onaga qo‘yilgan, ayollar esa quyi tabaqa sifatida ko‘rilgan. Buning isbotlari “男尊女卑” (nánzūn nǚbēi, ayollar erkaklardan quyi turadi), “夫为妻纲” (fūwèi qīgāng, er ayol uchun namuna bo‘lishi lozim) kabi iboralarda ham o‘z aksini topadi. Genderni ifodalovchi lingvistik vositalar neytral ko‘rinsa-da, u odamning idrok etish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi [3, 269]. Masalan, turmush holati qandayligidan qat’i nazar barcha erkaklarga nisbatan bir so‘z ishlatilsa, ayollarga nisbatan qo‘llaniladigan “姑娘” (gūniang), “太太” (tàitai) kabi murojaat so‘zlar ularning turmush qurganlik holatiga qarab farqlanib, ikki jins vakillari uchun turmush qurishning ijtimoiy ahamiyatining farqini ko‘rsatadi. Hozirgi davrda Xitoyda ayollarning jamiyatdagi o‘rni tobora yaxshilanishiga qaramay ayol va erkaklarning jamiyatdagi o‘rni orasida hali ham mavjud tafovutlar ularga nisbatan qo‘llaniladigan murojaatlarda ham o‘z aksini topadi.

Ushbu maqolada xitoy tilida ayol va erkaklarga ishlatiladigan murojaat so‘zlar “现代汉语词典” (“Hozirgi davr xitoy tili lug‘ati”) dan ayollarga nisbatan 64 ta ijtimoiy murojaat so‘z, erkaklarga nisbatan esa 35 ta ijtimoiy murojaat so‘zlar ajratib olindi. So‘ngra ikki jinsga qo‘llaniluvchi ijtimoiy murojaatlarning salbiy va ijobiy bo‘yoqdoriligi o‘rganilib chiqildi va ushbu murojaatlar o‘zaro qiyoslandi.

1-jadval. Xitoy tilida ayollarga nisbatan qo‘llaniluvchi ijtimoiy murojaatlar

№	Ijtimoiy murojaat	Izoh	Tarjima	Emotsion al-ekspressiv holati
1	黄毛丫头 huángmáoyātou	hech narsani tushunmaydigan qizaloq	befahm qiz	salbiy
2	妞子/妞妞/小姐儿	qizaloq	qizaloq	neytral

	niūzi/niūniū/ xiāoniūer			
3	丫头 yātou	qiz bola	qizcha	salbiy
4	假小子 jiǎxiǎozi	o'g'il bolaga o'xshash o'ta sho'x qiz	shumtaka qiz	salbiy
5	女生 nǚshēng	qiz o'quvchi	qiz o'quvchi	neytral
6	室女/闺女/ 少女/女郎 shìniǚ/guāiniǚ/ shàoniǚ/nǚláng	turmushga chiqmagan yosh qiz	yosh qiz	neytral
7	处女/黄花女儿 chǔniǚ/huánghuā nǚ'ér	bokira qiz	bokira	ijobiy
8	蹄子 Tízi	Shaloq	shaloq	salbiy
9	老姑娘 Lǎogūniáng	qari qiz	qari qiz	salbiy
10	民女 mínnǚ	qadimda oddiy xalq tabaqasidagi qiz	qiz bola	neytral
11	名媛 míngyuàn	mashhur aktrisa	mashhur aktrisa	neytral
12	交际花 jiāojihuā	ijtimoiy jihatdan juda faol qiz	tannoz	salbiy
13	巾帼丈夫 jīnguózhàngfū	qahramon ayol	ayol- qahramon	ijobiy
14	妇女/妇道/ 堂客 fùnǚ/fùdào/ tángkè	ayollarga bo'lgan umumiy murojaat	ayol	neytral
15	农妇 nóngfù	dehqon oilasidagi ayol- qizlar	dehqon ayol	neytral
16	半边天 bànbīantiān	yangi jamiyat ayol- qizlariga nisbatan murojaat	zamonavi y ayol	ijobiy
17	红妆/红装 hóngzhuāng/hóngzh uāng	yosh qiz	yosh qiz	ijobiy
18	裙钗/脂粉/粉黛/ 巾帼	ayol-qizlarni ifodalovchi murojaatlar	go'zal ayol	ijobiy

	qúncāi/zhīfēn/fěndà i/jīnguó			
19	娘儿们/女流/老娘 们儿 niáng'ermen/nǚliú/ lǎoniángmèner	xotin (kamsitish ma'nosida)	xotin	salbiy
20	妖精 yāojīng	Jodugar	jodugar	salbiy
21	狐狸精 húlíjīng	tulki (o'z jozibasi bilan sehrlaydigan ayol)	tulki	salbiy
22	白骨精 báigǔjīng	makkor va badjahl ayol	zolima	salbiy
23	破鞋 pòxié	erkaklar bilan betartib munosabatda bo'ladigan ayol	yengiltak	salbiy
24	骚货/贱货 sāohuò/jiǎnhuò	Makkora	makkora	salbiy
25	辣子 làzǐ	janjalkash ayol	shallaqi	salbiy
26	泼妇 pōfù	qo'pol va nooqilona ish qiladigan ayol	shallaqi	salbiy
27	母老虎 mǔlǎohǔ	shafqatsiz ayol	ona yo'lbars	salbiy
28	小媳妇/媳妇儿/少 妇 xiǎoxífù/xífuer/shàof ù	turmushga chiqqan yosh ayol	kelin	neytral
29	婆娘/婆姨 póniáng/póyí	turmushga chiqqan ayol	xotin	neytral
30	寡妇/孤孀/嫠妇/孀 妇/未亡人/望门寡/ 半边人 guǎfù/gūshuāng/lífù/ shuāngfù/wèiwángré n/ wàngménguǎ/bànbīā nrén	beva	beva	neytral
31	弃妇 qìfù	eri tashlab ketgan ayol	voz kechilgan ayol	salbiy
32	节妇 jiéfù	qadimda eri vafotidan so'ng boshqa turmush qurmagan ayol	vafodor ayol	ijobiy

33	后婚儿/二婚头/回头人 hòuhūner/èrhūntóu/huítóurén	ikkinchi marta turmush qurgan ayol	ikkinchi nikohdagi ayol	salbiy
34	管家婆/主妇 guǎnjiāpó/zhǔfù	oilani boshqaruvchi ayol	oila bekasi	neytral
35	家庭妇女 jiāting fùnǚ	uy bekasi	uy bekasi	salbiy
36	第一夫人 dì yī fūrén	davlat rahbarining turmush o'rtog'i	birinchi xonim	ijobiy
37	警嫂 jǐngsǎo	militsiya hodimining turmush o'rtog'i	militsiyachining rafiqasi	neytral

2-jadval. Xitoy tilida erkaklarga nisbatan qo'llaniluvchi ijtimoiy murojaatlar

№	Ijtimoiy murojaat	Izoh	Tarjima	Emotsion al-ekspressiv holati
1	小小子 xiǎoxiǎozi	o'g'il bola	bolakay	neytral
2	儿男/小子 érnán/xiǎozi	o'g'il bola	bolakay	neytral
3	哥儿 gē er	boy oiladagi o'g'il bola	yosh xo'jayin	neytral
4	少年/小伙子/后生 shàonián/xiǎohuǒzi/hòushēng	yosh yigit	yosh yigit	neytral
5	靓仔 liàngzǎi	ko'rkam yigitcha	ko'rkam yigit	ijobiy
6	男生 nánshēng	o'g'il o'quvchi	o'g'il o'quvchi/ o'g'il talaba	neytral
7	阿飞 āfēi	yengil tabiatli firibgar yigit	bezori	salbiy
8	恶少 èshào	zolim yigit	bezori	salbiy
9	公子哥儿/花花公子 gōngzīgē er/huāhuā gōngzǐ	boy oilada tug'ilib o'sgan, bekorchi yigit	olifta	salbiy

1 0	阔少 kuòshào	boy oiladagi o'g'il farzandlar	boyvach ha	salbiy
1 1	白马王子 báimǎ wángzǐ	yosh qizlar orzusidagi yosh yigit	oq otli shaxzoda	ijobiy
1 2	小白脸儿 xiǎobáiliǎn er	ko'rkam ko'rinishga ega bo'lgan yosh yigit	alfons	salbiy
1 3	少男 shàonán	uylanmagan yosh yigit	yosh yigit	neytral
1 4	陈世美 chénshìměi	baland o'ringa ega bo'lganidan keyin xiyonat qiladigan er yoki his-tuyg'ulari beqaror erkak	bevafo er	salbiy
1 5	负心汉 fùxīn hàn	odatda vafodor ayolning his-tuyg'ulari bilan o'ynashadigan va ularga xiyonat qiladigan bevafo erkak	bevafo erkak	salbiy
1 6	男子汉/男儿 nánzihàn/nán'ér	erkaklar baquvvatligi va qat'iyligini ta'kidlaydi	erkak	ijobiy
1 7	壮丁 zhuàngdīng	harbiy xizmatni o'tash yoshiga yetgan yigitlar	yigit	neytral
1 8	硬汉 yìng hàn	irodali va qat'iy erkak	irodali erkak	ijobiy
1 9	大丈夫 dàzhàngfū	maqsadiga ega bo'lgan yoki qobiliyatli erkak	haqiqiy erkak	ijobiy
2 0	大汉 dàhàn	gavdali baland erkak	gavdali erkak	ijobiy
2 1	莽夫 mǎng fū	o'ylamasdan ish qiladigan erkak	beadab erkak	salbiy
2 2	农夫 nóngfū	erkak dehqonlarga nisbatan qo'llanilgan murojaat	dehqon erkak	neytral
2 3	嫖客 piáokè	fohisha ayollar mijozi	zinogar	salbiy
2 4	儿郎/男人/丈夫/老 爷们儿 érláng/nánrén/zhàngf ū/lǎoyémen er	voyaga yetgan erkak	erkak	neytral
2 5	单身汉 dānshēnhàn	turmush o'rtog'i bo'lmagan yoki turmush o'rtog'i bilan yashamaydigan erkak	bo'ydoq	ijobiy

2 6	鰥夫 guānfū	beva erkak	tul erkak	neytral
2 7	富翁 fùwēng	katta boylikka ega bo'lgan erkak	boy	neytral

1-jadvaldagi murojaatlarning 29 tasi neytral (bo‘yoqsiz), 23 tasi salbiy bo‘yoqdor, va 12 tasi ijobiy bo‘yoqdor so‘zlar bo‘lib, 23 ta murojaat so‘zlar ayollarni kamsitish, ularning past o‘rnini ta’kidlash kabi salbiy konnotativ ma’nolarga ega. Erkaklarga nisbatan qo‘llaniladigan murojaatlarning 17 tasi neytral, 10 tasi salbiy bo‘yoqdor va 8 tasi ijobiy bo‘yoqdor so‘zlarni tashkil etadi.

Yuqorida keltirilgan jadvallarni qiyoslash natijasida shuni ko‘rish mumkinki, ayollarga nisbatan qo‘llaniladigan murojaatlarda salbiy bo‘yoqdor so‘zlar bilan neytral va ijobiy bo‘yoqdor so‘zlar orasida tafovut katta bo‘lsa, erkaklarga nisbatan ishlatiluvchi murojaatlarda ijobiy, salbiy bo‘yoqdor va neytral so‘zlar orasida katta tafovut mavjud emas. Ayollarga nisbatan haqorat, kamsitish kabi salbiy munosabatni bevosita ifodalovchi murojaatlar 23 tani tashkil etadi, erkaklarga bo‘lgan bunday munosabatni ifodalovchi murojaatlar esa deyarli 3 baravar kam bo‘lib, 8 ta murojaatdan iboratdir. Bu shuni ko‘rsatadiki, jamiyatning ayollarga bo‘lgan e’tibori kuchliroq va talablari ko‘proq bo‘lib, ularning nojo‘ya harakati, xatosi yoki kamchiligi jamiyatning qattiq tanqidiga uchraydi. Erkaklarga bo‘lgan 8 ta salbiy murojaat ayollarnikidek og‘ir va keskin emasligi ham ushbu fikrni asoslaydi.

Bundan tashqari, ayollar murojaatlariga nisbatan, erkaklar murojaatlarida yetishmovchiliklar ham mavjud. Misol uchun, agar erkak kishi ayolidan oldin bu dunyoni tark etsa, unda ayoli uning bevasi, ya’ni “遗孀” bo‘ladi. Agar erkak o‘z xotinidan voz kechsa, bunday ayol “弃妇” deb nomlanadi. Agar eri vafot etgandan yoki uni tark etgandan so‘ng ayol qaytadan turmushga chiqmasa, uni “节妇” (vafodor ayol) deya tasvirlashadi; agar qaytadan turmush qursa, uni “后婚儿” (keyingi turmushga chiqqan), “回头人” (orqaga qaragan) deya nomlashadi. Agar erkak ayoli vafotidan keyin ikkinchi marta turmush qursa, ushbu ayol “填房” (to‘ldirib beruvchi xonadon) deb ifodalanadi.

Ammo yuqoridagi holatlar erkak bilan sodir bo‘lsa, yuqoridagi murojaatga mos keluvchi erkaklarga nisbatan qo‘llaniladigan ifodalar xitoy tilida umuman mavjud emas. Bundan bilish mumkinki, ayollar qayta turmush qurishi, ikkinchi xotin bo‘lishi yoki ma’lum sabablarga

ko'ra ersiz qolishi jamiyatda ko'p uchragan va ba'zida salbiy munosabatga sabab bo'lgan, lekin bu holatlar erkaklar bilan ko'p sodir bo'lmay, sodir bo'lgan taqdirda ham oddiy hol deb qaralgan. Bunday katta tafovutga ega munosabat qadimda va xattoki hozirda ayollarning pastroq o'ringa egaligini isbotlaydi.

Xitoy tilida erkaklar murojaatlari aksariyat hollarda ijobiy bo'yoqdor yoki neytral so'zlardan tashkil topsa, ayollarga nisbatan qo'llaniladigan murojaatlar orasida qo'pol va haqoratlovchi, nomusga til tekkizuvchi murojaatlar ko'p. Jamiyatning ayollarga bo'lgan talablari hali ham jiddiy va ko'p bo'lib, ular tomonidan qilingan xatolar yoki kamchiliklar jiddiyroq tanqidga uchrashiga olib keladi. Bundan tashqari, ayollarning erkaklarga nisbatan bo'lgan xatti-harakatlari, xulq-atvori, ikkinchi turmushi kabi hodisalarning erkak kishi boshida tushganida, ularga mos bo'lgan murojaatlarning mavjud emasligi esa jamiyatning erkaklarga bo'lgan sabrini, yoki ularga bo'lgan talablarning kamligi, tanqidning kuchli emasligini bildiradi. Bu esa, umuman olganda, xitoy jamiyatida hali ham ma'lum darajada erkaklar dominantligidan dalolatdir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

[1] – Nizomitdinova Z.A. Development of gender studies in linguistics. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022, no. 10, pp. 941-947.

[2] – Norova F.G'. Xitoy tilida ayollarga nisbatan qo'llaniladigan ijtimoiy murojaatlarning gender xususiyatlari. NamDU Ilmiy axborotnomasi, 2023, 5-son, 233-239.

[3] – Prewitt-Freilino, J. & Caswell, T.A. Laakso, E. The Gendering of Language: A Comparison of Gender Equality in Countries with Gendered, Natural Gender, and Genderless Languages. Sex Roles, 2011, no. 66, pp. 268-281.

[4] – Stahlberg, D., Braun, F., Irmen, L., Sczesny, S. Representation of the sexes in language. In K. Fiedler (Ed.), Social communication, 2007, pp. 163-187.

[5] – Stoller R.J. Sex and Gender: The development of Masculinity and Femininity. United Kingdom, Routledge. 1994. 400 p.

[6] – Исматуллаева, Н. (2022). Хитой лингвомаданиятида “оила” концепти билан боғлиқ стереотип тил бирликларининг таҳлили. Sharq ma'shali/Восточный факул, 14(1), 82-86.

[7] – 马丽. 汉语性别称谓词研究. 语言与文字学研究, 2007, no. 5, pp. 149-151.

[8] – 尹雪. 汉语性别词争研究. 硕士学位论文. 黑龙江大学, 2012. 51 p.



O‘ZBEK VA XITOIY TILLARIDA INSON TANA A‘ZOLARINI BILDIRUVCHI FRAZEOLOGIZMLARNING KOMPONENT TAHLILI

*Dilshodjon KHIKMATOV, TDIU O‘zbek va xorijiy tillarni
o‘qitish markazi xitoy tili o‘qituvchisi Toshkent, O‘zbekiston
Tel: +998 97 477-90-97*

Email: dilshodjonkhikmatov97@gmail.com, d.xikmatov@tsue.uz

Annotatsiya. “O‘zbek va xitoy tillarida inson tana a‘zolarini bildiruvchi frazeologizmlarning component tahlili” mazkur maqolada xitoy tilidagi frazeologizmlar obyektini hisoblab uni componentlarga ajratib tahlil qilish maqsad qilib olindi. Shunga ko‘ra, mazkur maqolada o‘zbek va xitoy tillari frazeologizmlarining shakllanish tamoyillarini tadqiqi va ularni solishtirib o‘rganish, tahlil qilish hamda o‘quv uslubida qay yo‘sinda o‘rgatish kabi muammolariga yechim topish maqsad qilib olindi. Maqolada xitoy tilida inson tana a‘zolari bilan bog‘liq 成语 [chéngyǔ] larning o‘zbek tilidagi muqobil o‘rindoshi solishtirish orqali ko‘rsatilib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: 成语 [chéngyǔ], turg‘un birikmalar, frazeologiyalar, ekvivalent, xitoy maqollari, somatik leksikologiya, somatizmlar, iboralar, matal, maqol.

Аннотация. В данной статье «Компонентный анализ фразеологизмов, обозначающих части тела человека в узбекском и китайском языках» рассматривается и анализируется объект фразеологизмов в китайском языке путем разделения его на компоненты. Соответственно, целью данной статьи является исследование принципов формирования узбекской и китайской фразеологии и поиск решения проблем их сравнительного изучения, анализа, а также методов их преподавания в образовательной методике. В статье для сравнения показан узбекский эквивалент чэн юй, относящийся к частям человеческого тела в китайском языке.

Ключевые слова: чэнью, устойчивые соединения, фразеология, эквивалент, китайские пословицы, соматическая лексикология, соматизмы, выражения, язык, пословица.

Abstract. In this article "Component Analysis of Phraseologisms Denoting Human Body Parts in the Uzbek and Chinese Languages", the object of phraseologisms in the Chinese language is considered and analyzed by dividing it into components. Accordingly, the aim of this article is to research the principles of formation of Uzbek and Chinese phraseology and to find a solution to the problems of their comparative study, analysis, and how to teach them in the educational method. In the article, the Uzbek equivalent of 成语 [chéngyǔ] related to human body parts in Chinese language was shown by comparison.

Key words: 成语[chéngyǔ], stable compounds, phraseology, equivalent, Chinese proverbs, somatic lexicology, somatisms, expressions, language, proverb.

O‘zbek tili iboralarga juda boy til hisoblanadi. Iboralarning ko‘pligi nafaqat tilimizning boyligini, balki xalqimizning turmush tarzi, kundalik hayoti, nutq madaniyatidagi o‘ziga xos hususiyatlarini ham ko‘rsatib turadi. **Ibora** — tilimizning lug‘at tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biridir. Ular ikki va undan ortiq so‘zning ko‘chgan ma‘nolari asosida tarkib topgan lug‘aviy birlik bo‘lib xuddi so‘z kabi lug‘aviy ma‘noni anglatadi. Masalan, xamirdan qil sug‘urganday iborasi, “osonlik bilan”, “qiyinchiliksiz” ma‘nosini, ko‘ngil bermoq iborasi “sevmoq” ma‘nosini, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan iborasi “yuvosh” ma‘nosini bildiradi.¹³ Xuddi so‘z kabi yaxlit bir ma‘noni anglatadigan bunday til birligi frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi.

Ibora — frazema frazeologik birlik sifatida tilshunoslikning frazeologiya bo‘limida o‘rganiladi. Ibora tuzilishiga ko‘ra ya‘ni birdan ortiq so‘zdan tashkil topishi bilan so‘z birikmasi yoki gapga o‘xshab ketsa ham, nutq birligi sanalgan bunday birliklardan tamoman farq qiladi va lug‘aviy birlik sifatida ko‘p jihatdan so‘zlarga yaqin turadi. So‘zlarga xos bo‘lgan juda ko‘p xususiyatlar iboralarga ham xosdir. Iboraning tarkibidagi so‘zlar esa o‘z leksik ma‘nosi bilan qatnashmaydi, ma‘nosini yo‘qotgan bo‘ladi. Ba‘zan ibora so‘z birikmasi bilan shaklan teng kelib qolishi mumkin. Bunday holatda ibora turg‘un birikma sifatida erkin birikma bilan omonimik holatda bo‘ladi. Buni biz quyidagi misollarni keltirishimiz orqali qiyoslashimiz mumkin. **Masalan:** 1. Nima uchun bu haqiqatdan ko‘z yumasiz? (Sharof Rashidov) 2. Ahmadjon atrofda birdan chang, to‘zon bo‘lganligi sababli ko‘zini yumdi. Birinchi gapda “ko‘z yummoq” ibora bo‘lib, “voz kechmoq ma‘nosida”, ikkinchi gapda o‘z ma‘nosida kelgan. Ba‘zi iboralar tuzilishi jihatdan gap shaklida ham bo‘ladi. Lekin ular nutqda gapning bir bo‘lagi vazifasida keladi va hammasi bitta so‘roqqa javob bo‘lib, gap tarkibidagi so‘zlar kabi alohida-alohida so‘roqqa javob bo‘lmaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki iboralar lug‘aviy birlik bo‘lgani uchun xuddi so‘zlar kabi gapda biror bo‘lak vazifasida keladi.

¹³ M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo‘ldoshev, D. Muhamedova. O‘zbek tili praktikumi. Toshkent. “Iqtisod-Moliya”, 2006 yil. 76-bet.

“Qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqaradigan bunday hodisalar... hali ham onda-sonda ro‘y berib turadi”.

Frazeologizm – Ko‘p tillarning yuzaga chiqishida juda katta rol o‘ynaydi. Tilning yuzaga kelishdagi ifodalanishida muhim omil hisoblangan frazeologizminin ko‘p tarmoqlari mavjud bo‘lib undan eng muhimi tana a‘zolari bilan bogliq frazeologizm hisoblanadi. Frazeologizmlarda inson va hayvonlaning ichki organlari bilan bog‘liq frazeologizmlar xitoy tilida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki tana a‘zolari bir yoki bir necha asosiy funksialarni bajaradi. **Masalan** : Yurak – nasosga o‘xshab ishlaydi va qon aylanish qon xaydash vazifasini bajaradi u orqali quyilayotgan barcha qon tana azolari bo‘ylab tarqaladi. O‘pka esa ishlash jarayonida o‘ziga kislarod olib , uglekislarod gazini ishlab chiqaradi. Shuni aytib o‘tish joizki xitoy tili somatik raqamlar va madaniy mayishi raqamlar bilan chambarchas bog‘liq. **Masalan:** 5 xil unsur, 5 xil tam, 5 xil ruh shular jumlasidandur. Mazkur misollar xitoy madaniyatining ajralmas bo‘lagi hisoblanib bugungi kunga qadar saqlanib qolganligini e‘tirof etmog‘miz joizdur. Shu kabi inson ichki organlari ham frazeologizm mavzusida juda keng ko‘lamni qamrab oladi. Tana a‘zolari bilan bogliq frazeologizmlar “ xitoy medetsinasi” tufayli aynan tilda juda keng tarqalgan.

Xitoy tilida **五脏六腑** [wuzangliufu] – tananing ichki a‘zolari yo‘sinda bir muhim atama mavjud. Bu basharriyat va nabodotning eng muhim ichki organlari hisoblanadi (muhim 5 azo yurak, buyurak, jigar , o‘pka va o‘t qopi; 6 zich organ yo‘gon va ingichka ichak, taloq, oshqazon, siydik pufagi va ot pufag). Xitoy tilida tarqalgan frazeologizmlarning asosiy tarmogi ham aynan shu ichki azolari bilan bog‘liq.

Quyida ichki a‘zolar bilan bo‘liq xitoy tilidagi frazeologizmlarni tasniflab ularni tahlil va tarjima qilib berishni lozim deb topdildi.

回肠九转 [hui chang jiu zhuan] – Biror narsadan ko‘ngli to‘lmaslik, bezovtlikni bildiradi : O‘zbek tiliga mazkur ibora ko‘ngli g‘ash, yuragi notinch deb tarjima qilinadi. Mazkur iborada xitoy iyeroglifidan 肠 ya‘ni ichak ma‘nosini anglatuvchi iyeroglif bilan ifodalanmoqda. O‘zbek tilida esa bu manoni inson ichki organlaridan yurak bilan ko‘rsatilib o‘tilmoqda.

搜肠刮肚 [sou chang gua du] – Bu soʻzning maʼnosi ham biror narsadan kuchli bezovtalanishni va oʻsha narsa haqida oʻylashni bildiradi. Oʻzbek tiliga bu ibora “ichini it kemirdi deb tarjima qiladi” qizigi shundaki mazkur ibora oʻzbek tiliga qolipday mos tushgan. Chunki xitoy tilida ham ichak iyeroglifi 肠- oʻzbek tilida ham ich soʻzi ishlatilib uygʻunlik kasb etgan.

小肚鸡肠 [xiao du ji chang] – Mazkur ibora ijirgʻilanib ezmalanib gapiriladigan kalta fahm insonlar uchun ishlatiladi. Oʻzbek tilida bu iborani biz “achchiq ichakdek choʻzilma, mayda gaplik qilma, maydalashma” deb yuritimiz. Bu yerda ham biz uygʻunlikni kuzatishimiz mumkin. Masalan: xitoy iyeroglifi 肠 va oʻzbek tilidagi achchiq ichak soʻzlari oʻzaro mos kelgan.

肝 [gan] mazkur iyeroglif xitoy tilida jigar degan maʼnoni anglatadi.

大动肝火 [da dong gan huo] – Biror narsadan juda ham jaxli chiqish gʻazablanish degan maʼnoni anglatadi. Oʻzbek tiliga bu iboraning muqobil versiasi “gʻazabdan burnidan oʻt chiqdi, koʻzlari qonga toʻldi degan maʼnoni anglatadi. Mazkur chengyuda xitoy iyerogliflaridan 肝 [gan] yaʼni jigar maʼnosini anglatuvchi iyeroglif ishlatilmoqda. Oʻzbek tilida esa qon, koʻz, burun singari tana aʼzolari va ichki unsurlar ishlatilmoqda.

肝肠寸断 [gan chang cun duan] – Mazkur ibora oʻzbek tiliga shu qadar mos tushganki undagi 肝 iyeroglifi oʻzbek tiliga ham jigar sifatida tarjima qilinib “Bagʻri qon, Jigar bagʻri qon” degan maʼnoni anglatadi.

肝胆俱裂 [gan dan ju lie] – Bu yerdagi ibora yaʼni chengyu biror narsadan qattiq qoʻrqqanda ishlatiladigan ibora hisoblanadi. Agar toʻgridan toʻgʻri tarjima qiladigan boʻlsak jigari va oʻt puffagi yorildi degan tarjima chiqadi. Lekin buning oʻzbek tilidagi muqobil oʻrindoshi “yuragi yorildi” iborasi hisoblanadi. Bu iborada xitoy tilidagi “jigar” soʻzi oʻrniga oʻzbek tilida “yurak” soʻzi ishlatilmoqda.

忠肝义胆 [zhong gan yi dan] – Mazkur ibora munosabatlarning qanchalik yaqinligini bildiradi. Misol uchun oʻzbek tilidagi bir

maqolga juda mos tushadi. “uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo‘shni yaxshi”. Lekin o‘zbek tilida ham mazkur iboraning “tananing ichki a‘zolari” bilan ko‘rsatilgan muqobil o‘rindoshi mavjud. “Uzoqdagi jigardan yaqindagi o‘pka yaxshi” singri variantlari ham mavjud.

赤胆忠心 [chi dan zhong xin] mazkur ibora sadoqat, sodiqlikni ifoda etuvchi chengyu hisoblanadi. Uni o‘zbek tiliga tarjima qiladigan bo‘lsak: “yuragi bilan qattiq ishonish, sodiqlik qilish” degan manolarni anglatadi. Bu yerda “jigar” iyeroglifi o‘rmini “yurak”, “qalb” singari so‘zlar egallamoqda.

胆 [dan] mazkur iyeroglifning ma‘nosi “o‘t puffagi” degan ma‘nolarni anglatadi. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, tananing ichki a‘zolari bir chengyu tarkibida birga kelish hususiyatlariga egadir. Biz yuqorida jigar, ichak singari iyerogliflar bilan keladigan chengyularni tahlil qilgan bo‘ldik lekin undagi **胆** ya‘ni o‘t puffagi iyeroglifiga u qadar ahamiyat berib to‘xtalib o‘tmadik. Quyida mazkur iyeroglifga urg‘uv bergan holda chengyularni tahlil qilib chiqamiz.

胆大包天 [dan da bao tian] – Mazkur iyeroglif haddan tashqari jo‘shqin bo‘lish, mard jasur bo‘lish ma‘nolariga ham to‘g‘ri keladi. O‘zbek tilidagi huddi shu iboraning mos o‘rindoshi “dov yurak” hisoblanadi. Bu iborada “o‘t puffagi” o‘rniga o‘zbek tilida “yurak” so‘zi ishlatilgan.

胆大心细 [dan da xin xi] – Ushbu iboraning ma‘nosi jasur, ammo ehtiyotkorlikni ham o‘zida mujassam etgan degan ma‘noni anglatadi. O‘zbek tilidagi muqonbil variant esa “uddaburon, suvni ko‘rmay kiyim yechmaydigan, olg‘ir” ma‘nolari bilan berish mumkin.

胆小如鼠 [dan xiao ru shu] – Ushbu iboraning ma‘nosi shundan iboratkiy: qo‘rqoqlikni biror hayvon yuragi chalik kichkina ekanligini anglatib, ta‘kidlab keladi. To‘gridan tog‘ri tarjima qiladigan bo‘lsak sichqon yurak degan ma‘noni beradi. Xitoyliklar orasida sichqon qo‘rqoq hayvon hisoblanadi. O‘zbeklar orasida esa bu ma‘no quyonga ko‘chadi va mazkur iboraning o‘zbek tilidagi tarjimasi “quyon yurak” hisoblanadi.

心惊胆战 [xin jing dan zhan] – Iborasi qo‘rquvdan qaltirash degan ma‘noni anglatadi va mazkur ibora o‘zbek tiliga “qo‘rquvdan oyog‘i qaltiradi, ichi muzladi, o‘pkasi tushub qoldi, yuragi tushub

qoldi” degan ma’nomalarni anglatadi. Mazkur iborada “o‘t puffagi, yurak” iyeroglifik so‘zlari o‘rniga o‘zbek tilida qo‘l, oyoq, ich, o‘pka, yurak” so‘zlari ishlatildi.

闻风丧胆 [wen feng sang dan] – Bu ibora ham qo‘rquv bilan bog‘liq bo‘lib, uning o‘zbek tilidagi tarjimasini “eshitiboq aqli boshidan uchdi” degan ma’noni anglatadi. Mazkur iborada “o‘t puffagi” o‘rniga “es, hush, aql” so‘zlarini ishlatishimiz mumkin.

赤胆忠心 [chi dan zhong xin] – Mazkur ibora sadoqat, sodiqlikni ifoda etuvchi chengyu hisoblanadi. Uni o‘zbek tiliga tarjima qiladigan bo‘lsak: “yuragi bilan qattiq ishonish, sodiqlik qilish” degan ma’nomalarni anglatadi. Bu yerda “jigar” iyeroglifi o‘rnini “yurak”, “qalb” singari so‘zlar egallamoqda.

胆战心惊 [dan zhan xin jing] – Ushbu ibora o‘zini juda ehtiyot qilish, asrab qolish, asrab qochiq qolish degan ma’nomalarni bildiradi va bu iborada ham 胆 va 心 iyerogliflari kelgan. Mazkur iboraning o‘zbek tilidagi versiyasi “jonini hovuchlamoq” degan ma’noni bildiradi. Bu yerda “o‘t puffagi va yurak” iyerogliflarini ma’nosini o‘zbek tilida “jon, yurak” so‘zlariga mengzash mumkin.

卧薪尝胆 [wo xin chang dan] – Mazkur ibora: kelajakdagi barcha yutuq g‘alabalari uchun jonini xatarga qo‘yib bo‘lsada tavakkal qilish degan ma’noni anglatadi. Mazkur iboraning o‘zbek tilidagi mubobil variant “jonini garovga tikish” degan ma’noni anglatadi.

心 [xin] xitoy tilida bu iyeroglif yurak degan ma’noni anglatadi. Quyida mazkur iyeroglif bilan bog‘liq bo‘lgan iboralarni tahlil qilib chiqamiz.

没心没肺 [meixin meifei] – Ushbu ibora befarqlik, beparvolik, parvoyi falak degan ma’noni bildiradi. O‘zbek tilidagi muqobi o‘rindoshi esa “suv bossa to‘pig‘iga chiqmas” degan ma’noni anglatadi. Ushbu iborad inson tana a‘zolaridan “yurak” ishlatilmoqda. O‘zbek tilida esa “to‘piq” so‘zi ishlatildi.

鼠心狼肺 [shu xin lang fei] - Mazkur ibora biror narsadan norozi bo‘lish jaxli chiqish ma’nomalarini bildiradi. Ushbu iboraning o‘zbek tilidagi variant “jaxli chiqqanidan burnini jiyirdi” singari bo‘ladi. Bundan tashqari bu chengyuda hayvonlar ham berilgan bo‘lib. Xayvonlarga xos jaxildorlikni kuchaytirish ma’nosini anglatgan.

狼心狗肺 [lang xin gou fei] – Mazkur ibora shavqatsiz, qattol, vahshiy degan ma’nolarni anglatadi. Ushbu iborada ham hayvon ichki a’zolariga murojatni ko‘rishimiz mumkin. 狼 bori 心 yurak ma’nolarini ifodalaydi. Bilamizkiy bo‘rilar yaxshiy, qattol hayvon hisoblanadilar. Ushbu iborada “bo‘ridek yaxshiy, bo‘ridek qattol” ma’nosi anglashilmoqda. Mazkur iboraning o‘zbek tilidagi variyanti “bo‘ridek qon xor” deb tarjima qilinadi. Yurak iyeroglifini to‘ldirish uchun o‘zbek tilida qon so‘zi ishlatilmoqda.

撕心裂肺 [si xin lie fei] – Mazkur ibora xafa bo‘lish, mahzun bo‘lish kabi ma’noni anglatadi. Ushbu ibora o‘zbek tiliga qolipday tushgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning o‘zbek tilidagi muqobil versiasi “qalbi singan, ko‘ngli yarim, yuragi yarimta” deb yuritiladi.

肺 [fei] mazkur iyeroglif o‘pka degan ma’noni anglatadi. Ushbu iyeroglif bilan kelgan chengyularni quyida tahlil qilib ko‘rsatdik.

感人肺腑 [gan ren fei fu] – Iborasi o‘zbek tiliga qalbining eng tubiga tegish, eng nozik nuqtaga tegib qalbini yumshatish degan ma’noni anglatadi. Juda tasirli narsalarga nisbatan ishlatiladi. Uni o‘zbek tiliga yanada chiroyli tarjima qiladigan bo‘lsak “yuragini chertib o‘tish, qalbini yumshatish degan ma’noni bildiradi”. Mazkur iborada ishlatilgan o‘pka 肺 iyeroglifi o‘rniga o‘zbek tilida yurak qalb so‘zlari ishlatildi.

如见肺肝 [ru jian fei gan] – Iborasi qalbida kimnidir juda aniq ko‘rish, o‘sha insonning joyi o‘zining qalbida deb his qilish degan ma’noni anglatadi va o‘sha insonga bo‘lgan muhabbat tushuniladi. Mazkur iboraning o‘zbek tilidagi o‘rindoshi “biror kimsasiz nafas ham ololmaslik” bo‘ladi. Eng qizig‘i o‘pkaning vazigfasi nafas olish bo‘lsa bu yerda ham aynan o‘sha nafas olmoq ma’nosi bilan bersak bo‘ladi va tarjima jarayonida chiroyli tarjima qo‘lga kiritiladi.

胃 [wei] oshqozon degan ma’noni anglatuvchi iyeroglif hisoblanib. Tarkibida 胃 iyeroglifi mavjud bo‘lgan iboralar talaygina. Biz ulardan bir nechtasini quyida tahlil qildik.

刮肠洗胃 [gua chang xi wei] – Iborasi o‘tmishdagi xatolarni qat’iyat bilan tuzatish degan ma’noni anglatadi. Mazkur ma’noni o‘zbek tilida muqobil versiasi “tab tortmaslik” hisoblanadi.

胃口大开 [wei kou da kai] – Mazkur ibora o‘zbek tiliga “ishtaxsi karnay” deb tarjima qilinadi. Oshqazonning funksiasi ovqat hazm qilish hisoblanib agar ishtaxa bo‘lmasa ovqat yeyilinmaydi. Mazkur ibora o‘zbek tiliga juda mos tushgan. Mazkur ibora ko‘zi, nafs va shaxsiyatlarga nisbatan ishlatiladi.

脾 [pi] xitoy tilidagi mazkur iyeroglif taloq degan ma’noni anglatadi. Taloqning vazifasi zahira qon to‘plash hisoblanadi.

沁人心脾 [qin ren xin pi] – Ushbu iboradan anglashilingan ma’no ko‘ngli to‘lib fikri teranlashish degan jumla tushuniladi. O‘zbek tilida “ qalbi hayajonga to‘lish, te’ran fikirlash” deb tarjima qilinadi.

Nafaqat xitoy tilida balki o‘zbek tilida ham inson ichki tana a’zolari bilan bog‘liq juda ko‘p frazeologizmlarni uchratishimiz mumkin.

Masalan:

O‘pkasi to‘lmoq – biror narsadan qattiq xafa bo‘lish, yig‘lagudek bo‘lishni ifodalab keladi.

Yuragi shuv etmoq – biro narsadan qattiq qo‘rqish, ko‘ngli be’zovta bo‘lishni bildiradi.

O‘pkasini qo‘ltiqlab olmoq – biror yerga qattiq shoshilib ketishni ifodalaydi.

Pul jigardan bo‘lgan – mazkur ibora qizg‘anchilik va pulga rujuk qo‘yishni bildiradi.

Yuragidan urmoq – kimnidur qattiq yoqtirib sevib qolishni anglatadi.

Ichagi uzulmoq – biror narsadan ko‘ngli shod bo‘lib juda ko‘p kulishni bildiradi.

Ich etini yeyish – mazkur ibora biror narsadan qattiq siqilib, ko‘ngli g‘ash bo‘lishni ifodalaydi.

Yuragi yonmoq – ushbu ibora esa qattiq sarosimaga tushub qolib nima qilishni bilmaydigan vaziyatlarda ishlatiladi.

Ichini kuydirmoq – bu ibora esa birorkimga qandaydir narsani yoki vaziyatni maqtanib, o‘sha insonni havasi yoki hasadini keltirishni ifodalaydi.

Xulosa. Ushbu maqolani yozish davomida inson tana a’zolari bilan bog‘liq frazeologizmlarning xitoy tilidagi chengyular va o‘zbek tilidagi iboralar bilan solishtirib chuqur o‘rganish va ularni mohiyatini yoritib berishga harakat qilindi. Dastlabki yo‘naltiruvchi manba sifatida shu

mavzu yuzasidan ish olib borgan ustozlarning ko‘plab maqolalarini o‘rgandildi. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, inson tana a‘zolari bilan bog‘liq frazeologizmlar ham xalqning tabiatiga dahldor keng qo‘llaniladigan iboralar ekanligi aniqlandi. Nutqda qo‘llaniluvchi frazeologizmlar ma‘lum bir xalqning o‘zigagina tegishli his hayajonni ifodalovchi, kontekst mazmunini kuchaytiruvchi, suhbat rangdorligini oshiruvchi, ta‘kidlab o‘tuvchi keng qo‘llaniladigan nutq vosita bo‘lishi mumkin degan xulosaga kelindi. Xitoy tili xususiyatlarini o‘rganganda o‘quvchilar mana shu jihatlarni ham e‘tiborga olib qo‘yslar, foydadan holi bo‘lmaydi. Shuningdek mashxur voqealıklar yoki asarlardagi so‘zlar, jumlar vaqtlar o‘tib keng qo‘llaniladigan frazeologizmlarga aylanishi mumkin degan xulosaga kelindi. Xitoy va o‘zbek tillarida inson tana a‘zolari bilan bog‘liq frazeologizmlardan foydalanish sabablari va vaziyatlari ham turlicha ekan. Lekin nutq vaziyatiga mos frazeologik birlikni o‘z o‘rniga qo‘yib foydalanish notiqning mahorati bilan belgilanar ekan. Inson tana a‘zolari bilan bog‘liq frazeologik birliklar tarkibini kuzatar ekanmiz, ular bir necha komponentlardan va iyerogliflardan tashkil topganligini guvvohi bo‘ldik. Shunisi ahamiyatliki, xitoy tilida ham o‘zbek tilidaham tana a‘zolaridan bosh so‘zi va iyeroglifi hamda insonning ichki organlaridan yurak jigar o‘pka bilan bog‘liq frazeologizmlar juda ham ko‘p. Ular kontekstdan ajratilganda, boshqa bir ma‘noni anglatadi. Shuning uchun bunday frazeologizmlarni qo‘llanishini kontekst doirasida o‘rganish ma‘qul.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. –T.: 1999. -380 b.
2. Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati.–Toshkent «O‘qituvchi» 1978. -298 b.
3. Akimov T., Kiraubayev J. Xitoycha-o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at. – T.: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, 2002.
4. Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati.
5. Rahmatullayev. Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” / “O‘qituvchi” nashriyoti, T.1978-yil.
6. 李雅梅, Ochilov O. 《乌汉-汉乌熟语词条对照辑录》北京：人民出版社 2011. Li Yamey, Ozodjon Ochilov. “O‘zbekcha - xitoycha, xitoycha – O‘zbekcha maqol, matal va iboralar lug‘ati”, Pekin “Xalq” nashriyoti, 2011. -251 b.
7. 崔希亮. 《汉语熟语与中人文精神》，北京语言文化大学出版社 1997.p.-48
8. Suy Selyang. “Xitoy tilidagi maqol, matallar va xitoyliklar ruhiyati”, Pekin «Til va madaniyat universiteti» nashriyoti, 1997. B. -48
9. 刑福义, 《汉语语法学》吉林.东北师范大学出版社,1997. p.-107

Karimova, M. K. S. D., & Ismatullayeva, N. R. (2023). Translation issues of phraseological units in simultaneous translation. *Current research journal of philological sciences*, 4(09), 24-28.



YAPON TILIDAGI O‘XSHATISHLARDAGI AYYORLIK ETALONLARI

Adiba HATAMOVA, TDSHU magistranti, Toshkent, O‘zbekiston

Tel: +99893 880-59-51;

Annotatsiya. Ushbu maqola ushbu yapon tilidagi mavjud o‘xshatishlar tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda yapon o‘xshatish birliklaridagi mavjud ayyorlik etalonlari haqida so‘z yuritiladi. Bundan tashqari ularning ishlatilish holatlariga va kelib chiqish tarixiga izoh beriladi. Salbiy va ijobiy ma’ nolariga misollar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: yapon lingvomadaniyatidagi o‘xshatishlar, yavvoyi hayvon, ayyorlik obrazi, ijobiy va salbiy obraz

Аннотация. Данная статья посвящена изучению существующих сравнений в японском языке, рассказывается о существующих нормах лукавства в японских сравнительных единицах, а также комментируется их употребление и происхождение, приводятся примеры отрицательного и положительного значения данной

Ключевые слова: сравнения в японской языковой культуре, дикие животные, хитрые образы, положительный и отрицательный образ.

Abstract. This article is devoted to the study of existing similes in the Japanese language, it talks about the existing standards of slyness in Japanese simile units, and also comments on their usage and origin. Examples of negative and positive meanings are given.

Key words: Similes in Japanese language culture, wild animals, cunning images, positive and negative images

So‘zimiz boshini mashxur rus tilshunosi G.O.Vinokurning “Tilni o‘rganayotgan har qanday tilshunos, albatta tanlagan tili uning mahsuloti bo‘lgan o‘sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi”[1] degan fikrlari bilan boshlashni lozim topdik. Negaki uning bu qarashlari lingvomadaniyat fani doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar doirasida qayta-qayta tasdiqini topmoqda. Negaki yolg‘iz tilni o‘rganish bilan mukammal gapirish yoki o‘sha til egalarining nutqini to‘liq tushunish imkonsiz. Shu boisdan ham madaniyatni yaxshi anglash kerak. Bu yo‘lda esa o‘xshatishlar eng yaxshi yordamchiga aylanadi negaki, Har bir mamlakat va millat o‘z tafakkuri, qadriyatlarini va dunyoqarashi va geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda o‘z tilida o‘xshatishlarni

yaratadi va muloqot jarayonida keng qo'llaydi. Shu jihatdan o'xshatishlar har bir millatning "dastxati" vazifasini o'taydi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yapon tilidagi o'xshatishlar o'zbek tilidagi o'xshatishlar bilan shakl jihatdan o'xshash hisoblanadi. Biroq ularning ichki olami ya'ni mazmuniga nazar soladigan bo'lsak, bir- biridan anchagina farqli taraflari mavjud. Buning sababi esa bu ikki xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, e'tiqodi va eng muhimi ularning yashash hududidan kelib chiqib yaratilganligidadir. O'xshatishlardagi madaniy farqlar uning tarkibidagi so'zlar milliy elementlarning nomlarini aks ettirganda yoki o'sha xalqning flora yoki fauna nomlari mavjudligida, bundan tashqari iqlim sharoitiga xos so'zlarning mavjudligida yaqqol namoyon bo'ladi.

Masalan, クジラのようなちさい目 "kujiranoyouna chisai me" kitniki kabi kichik ko'zlar o'xshatishida ham yaponlarning o'ziga xosligi aks etgan. Bunga sabab bu yerda nomi keltirilgan kit asosan dengiz yoki okeanlarga yaqin hududlarda yashovchilar uchun yaxshi tanish. O'zbek lingvomadaniyatida esa kichkina ko'zga nisbatan bodomga o'xshash yoki ko'zi qirg'iynikidek kabi birliklar ishlatiladi. Insonning tashqi qiyofasidagi bir xil jihat uchun qo'llaniladigan ushbu ikki xil madaniyatga tegishli bo'lgan birliklar yapon va o'zbek millati haqida tasavvur uyg'ota oladi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, Yaponiya orol davlat hisoblanganligi bois suv hayvoni kit butun xalq uchun tanish va ular bu hayvonning tashqi qiyofasini yaxshi bilgan holda bu o'xshatishni oson qabul qilishadi. Dengiz va okeanlardan yiroqda bo'lgan o'zbek xalqi uchun eng keng tarqalgan mevalardan biri hisoblangan bodom esa barcha uchun birdek tanish va uning shakli-shamoyili hammaga ma'lum. Shuning uchun ham ko'zning bu mevaga o'xshatilganligi barchaga birdek tushunarli.

Dunyoning deyarli barcha xalqlarida hayvon obrazlari insonlarning turli fe'l-atvorlari, yoki tashqi qiyofasini ko'rsatib beruvchi etalon sifatida o'xshatishlardan o'rin olgan. Xususan "...yomonlik, zararkundalik timsoli ilon, chayon; vaxshiylik timsoli bo'ri; yuvvoshlik timsoli-musicha, qo'y; ayyorlik timsoli-tulki; qo'pollik timsoli-ayiq; befahmlik va befarosatlik timsoli-eshak, cho'chqa; tinchlik timsoli-kaptar; go'zallik timsoli-tovus; xushxonlik timsoli- bulbuldir. Ammo turli xalqlarda o'xshatish obektlari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lish ham mumkin[2]. Yapon hayvonot olami ham juda xilma- xil va rang-barang bo'lib, ularning nomlari o'xshatishlardan ham joy olgan.

Yapon xalqi o'z tasavvur va qarashlarini, o'y- hayollarini shu hayvonlar obraziga joylab o'xshatish etaloni sifatida qo'llaydilar. Misol uchun yapon lingvomadaniyatida ham tulki mug' ombirlik obrazi sifatida gavdalanadi. Xususan Nabuo Sato o'zining " ritorik ma'no " asarida Montaigoning asaridan havola keltiradi, ya'ni 法王ボニファキオ八世は、狐のようにその地位につき、獅子のようにその職務をおこない、犬のように死んだという " shoh taxtga tulkidek keldi, she'rdek hukmronlik qildi va itdek o'lim topdi", degan jumlalar keltirilgan[3]. Bunga ko'ra hukmdor taxtga hiyla-nayrang ishlatib erishganligi ayon bo'ladi. Bundan tashqari yapon lingvomadaniyatida 狐のような女性 " Tulkidek ayol" o'xshatishi ham mavjud bo'lib, ushbu o'xshatish kunduzi sipo ayol bo'lib, kechasi buzuq ishlar qiladigan ayollarga nisbatan ishlatiladi[4]. Bu tulkining yapon afsonalaridagi uchraydigan o'z tashqi ko'rinishini o'zgartirib turish xususiyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Afsonalarga ko'ra tulki inson qiyofasiga o'ta olgan va o'z hiylalarini amalga oshirgan. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, g'arb va slavyan lingvomadaniyatlarida, xususan, ingliz va rus tillarida as false as fox, хитрый как лиса turg'un o'xshatishlari mifopoetik manbalarga asoslanadi, chunki qadimgi tasavvurlarga ko'ra, tulki jodugar hisoblangan, unda yo'qolish, ko'rinmaydigan bo'lib qolish qobiliyati mavjud bo'lgan[3]. Yapon tilshunosi Matakante " yevropaliklar va ayrim sharq xalqlari biz bilgan tukini boshqacha ko'radilar, ularning tulkilari faqat hayvon qiyofasida shakllanadi, ammo ularning odam ayol qiyofasiga kirib, ular orasida o'z hiylagarliklari bilan yovuzlik urug'ini ekadi. Qizig'i g'arbliklar tulkini boshqa qiyofaga yashirmaydilar" degan fikrlarni aytib o'tgan[5].

Biroq tulki yapon madaniyatida faqat ayyor, hiylagar kabi salbiy obrazlarda emas balki, donolik va topqirlik etaloni sifatida ham uchraydi. 彼女は狐のようないまい人"kanoujouwa kitsune no youni umai hito" (u (ayol)tulkidek dono kishi) birligida kitsune (tulki) o'zbek lingvomadaniyatidagi kabi ayyorlik emas balki donolik, donishmandlikka qiyos qilinyapti[3]. Bundan tashqari u go'zal va jozibali ko'rinishlarda ham gavdalanadi. Yaponlar nazdida eng go'zal yuzli ayollar bu tulkiga o'xshagan ayollardir. Misol tariqasida

keltiriladigan bo'lsa, hozirgi zamonaviy yapon ayollari uchun ikki xil yuz jarrohlik amaliyoti o'tkaziladi, ulardan biri esa aynan tulkidek yuz deb nomlanadi. O'z qiyofasini o'zgartirish nafaqat tulkiga balki tanuki (yenot iti deb ham yuritiladi va bo'rsiq emas) ga xos bo'lib, uning bu "qobiliyati" yapon o'xshatish birliklarida ham o'z aksini topgan. Masalan いやいや、ここではあなた狸でしょういそをつくたから"iyaiya, kokodewa anata tanukidesho, isowo tsukutakara". "Voy-voy, siz bu vaziyatda tanuki kabisiz, yolg'on gapirdingiz. Ayyorlik xarakteriga qaramasdan, tanuki etalonidagi o'xshatishlar ma'no jihatdan tulki bilan bog'liq o'xshatishlarga qaraganda ancha yumshoq. Uning nayranglari mash'um holatda emas, komik tarzda ifodalanadi. Yapon xalq etaklarining birida tanuki bir kampirni aldab, unga yaqin bo'ladi. Keyin uni o'lgunicha kaltaklab, undan eriga kampir sho'rva tayyorlab beradi[6]. Tanuki mug'ombirlik qilib odamlarning ishonchiga kiruvchi obraz qiyofasida gavdalanadi. Shu boisdan ko'p yolg'on gapiruvchi kimsalar bu hayvonga o'xshatiladi. 彼は狸のようなにせものです、今日もきませんでした"Karewa tanukinoyouna nisemono desu, Kyoumo kimasendeshita"(u tanuki kabi aldoqchi ekan. Bugun ham kelmadi)[7].

Biroq, shuncha ayyorlik va yolg'onchilik harakterlariga qaramay bu hayvon haykali Yaponiyaning ko'plab restoran va oshxonalarida kiraverishidan joy olgan. Chunki u ko'p afsonalarda katta barabanga o'xshash qorni bilan ovchilarni chalg'itishi va odam qiyofasiga kirib, ular bilan birga ziyofat qilishi haqida afsonalar mavjud. Ovqatlanish shaxobchalari tashqarisidagi bu qiyofalar huddi tanuki ruhi kabi ular bilan ichish, ziyofat qilish va ovqatlanib pul sarflashga taklif qiladi[8].

Kun chiqar mamlakat xalqining bu madaniyati o'xshatishlarida ham o'z aksini topgan. タヌキみたいはどこかへ行ってぶらぶらしましょう [Tanukino youni dokokani itte buraburashimashou. Kettik qayergadir borib tanuki kabi vaqt o'tkazamiz[7]. Yapon o'xshatishlarida ayyorlik etaloni sifatida tanuki ham tulki kabi bir xilda ko'zga tashlanadi. Shu bilan bir qatorda bu ikkala hayvon ham ijobiy ma'no xususiyatlariga ega.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, barcha xalqlar lingvomadaniyatida o'ziga xosliklar mavjud bo'lib, shulardan biri o'xshatish etalonlari bo'lib xizmat qiladigan hayvonlardir. Har bir

hayvon turli madaniyatlarda o'ziga xos obrazlarni gavdalantiradi. Xususan yapon tili ham hayvon nomlari etalon bo'lib kelgan rang-barang o'xshatishlarga to'la. Ayyorlikni timsolari bo'lgan hayvonlar va ularning madaniyatdagi, folkldagi o'ziga xosliklari til o'rganuvchilar va tarjimonlar uchun ham qiziq va manfaatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] – Винокур Г. О Избранные работы по русскому языку. – М, 1959 – С.211.
[2] – – Salomov G'. Rus tilidan o'zbekchaga maqol, metal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir. – Toshkent. O'zFA, 1961. B.29.
[3] – Nabuo Sato Ritorik sensatsiya –Tokio. Kodansha, 1978. – B.73
[4] – <https://f59aaacafe.ne.jp/walkinon/animalandus.html>
[5] – Панченко Н. Сравнение как средство дескрипции лжи и обмана // Основное высшее и дополнительное образование: проблемы дидактики и лингвистики. –Волгоград: ВГТУ, 2000. – С. 138-143.
[6] – Nabuo Sato. Ritorik sensatsiya –Tokio. Kodansha, 1978. – B.73
[7]–Nakamura A. Hiyu hyougen jiten (Metaphorical expression dictionary). –Tokio, Kadokawa shoten, 1995. – B.87
[8] – Hogetsu Shimamura chokuyu no yuraku – Tokio: Meydzi Shoin, 2015 – B.



XIToySHUNOSLIKDA POLISEMIYA HODISASINING O'GANILISHI

Kumush TO'XLIYEVA, TDSHU magistranti, Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998990541945; Email: tukhlievakumush@gmail.com

Ilmiy rahbar: PhD., dotsent Nargiza Ismatullayeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada xitoyshunoslikda polisemiya hodisasiga oid nazariy masalalar ko'rib chiqiladi. Polisemiyaning Xitoyda o'rganilish davri va uning tadqiqotiga doir ilmiy asarlarni o'rganish va tadqiq etish maqolaning bosh maqsadi hisoblanadi. Maqola lingvistika va tarjimashunoslik sohasiga doir boshlang'ich nazariy bilimlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: polisemiya, tarjima, metafora, metonimiya, leksika

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические вопросы, связанные с явлением полисемии в китаеведении. Основная цель статьи - изучение и исследование научных работ, относящихся к периоду изучения полисемии в Китае и ее исследованию. Статья включает в себя базовые теоретические знания в области лингвистики и переводы.

Ключевые слова: полисемия, перевод, метафора, метонимия, лексика

Abstract: In this article, theoretical issues related to the phenomenon of polysemy in Chinese studies are considered. The main goal of the article is to

study and research scientific works related to the period of study of polysemy in China and its research. The article includes basic theoretical knowledge in the field of linguistics and translation studies.

Key words: polysemy, translation, metaphor, metonymy, lexica.

Polisemiya har qanday tilda ham muhim o‘ringa ega. Chunki til boyligi, nutq go‘zalligi faqatgina so‘zlar va iboralarga emas, balki so‘zlarning leksik ma‘nolariga ham bog‘liq. Demak, polisemiya hodisasi ham tilshunoslikda salmoqli o‘rin tutadi hamda leksik qatlamning boyishiga sabab bo‘ladi.

Polisemiya hodisasi tilshunoslik paydo bo‘lganidan beri ko‘pgina olimlarning qiziqishi, izlanishiga sabab bo‘lgan. Aynan xitoy va hind olimlari, keyinchalik yunon olimlari ushbu hodisani dastavval o‘rganib chiqqan. Bugungi kunga kelib ham polisemiya ya‘ni ko‘p ma‘nolilik hodisasi tilshunoslikda dolzarb muammoli masalalardan biri bo‘lib, uning o‘rganilishi tarjimashunoslik, jumladan sinxron tarjima sohasida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoy tilida polisemiya hodisasi keng tarqalgan bo‘lib, ularni tarjima qilish, tarjima jarayonida ma‘nodoshlar ichidan aynan kerakli va o‘rinlisini ajratib olish juda muhim bo‘lib, shu va shu kabi masalalar Xitoyda polisemiya tadqiqining rivojida katta turtki bo‘lgan.

Xitoyda polisemiya hodisasi tadqiqining asosi Shang davriga borib taqaladi, bu davrda qadimiy matnlarda ko‘p ma‘noli so‘zlar tahliliga doir ishlar amalga oshirilgan. Sin davriga kelib materiallar boyib bordi. Sun Lyanmin bu davrda bor e‘tiborini polisemiya va semantik rivojlanayotgan so‘zlarning aloqasi va farqlariga qaratdi. Jou Jumo esa polisemiya omonimlarni alohida ajratib chiqardi. Bu olim polisemiyaning “asosiy ma‘no” 基本义 va “tashuvchi ma‘no” 转义 ga ega qismlarga ajratdi.

Xitoyda ushbu leksik hodisani o‘rganilishi va rivojlanishi nisbatan yangi davrga to‘g‘ri kelsada, biroq aynan shu mavzu va unga doir baxsli masalalar Shan davriga borib taqaladi. Keyinroq iyerogliflar soddalashib borgani sari polisemiya hodisasi tadqiqi ham rivojlana bordi. Ko‘p ma‘noli so‘zlar tarjima qilishdagi usullar ham ishlab chiqildi, bugungi kunda ham ushbu usuldan foydalangan holda tarjima jarayonida polisemiya hodisasi keltirib chiqaradigan muammolarga yechim topish mumkin. Xitoy tilshunoslari va xitoyshunoslari, tarjimashunos olimlari polisemiyaning o‘rganish jarayonida muayyan usullarni qo‘llash orqali tarjimani amalga oshirish haqida baxs olib

boradi. Shunday usullardan soʻzni butun matn mazmuniga qarab tarjima qilish eng faol usullardan boʻlib, hozirda tarjima sohasida keng tarqalgan. Xitoyda polisemiyaning oʻrganish jarayonida bu hodisaning aynan qaysi holatlarda koʻp kuzatilishini bilish ham muhim boʻlib tarjima jarayonini yengillashtiradi. Bugungi izlanishlar natijalariga koʻra topishmoqlar, hazillar, memlar kabi asl maʼno yashirin boʻlgan janrlarda polisemiya hodisasi koʻp uchrashi va tarjima jarayonida faqatgina maʼlum oʻrinlarda qoʻllanilishi polisemiya hodisasining tarjimada nafaol ammo juda katta oʻringa ega ekanligini bilish mumkin.

Chet tilini oʻrganishda soʻz boyligi doimo asosiy oʻrinni egallaydi. Oʻrganuvchilar oʻzlashtirishlari kerak boʻlgan asosiy eʼtibor va qiyinchilik ham, tarjima sohasida yuzaga keladigan murakkablik ham aynan mana shu mavzuga borib taqaladi. Bunday murakkab leksik birliklar orasida “koʻp maʼnoli soʻzlar” bir fonetik shaklga ega boʻlgan, bir vaqtning oʻzida bir nechta manoni oʻzida aks ettirgan va har bir maʼno oʻrtasida maʼlum bogʻliqlik mavjud boʻlgan soʻzlardir. Bu tarjimonlar uchun ikkinchi tilga tarjima qilish jarayonida toʻsiq boʻlishi maʼlum. Shu sababli bu mavzu har doim mahalliy va xorijdagi tilshunoslik doiralarining keng eʼtiborini tortib kelgan. Xitoy tilini chet tili sifatida oʻqitish va tarjimashunoslik sohasida polisemiyaning oʻrganish strategiyalari boʻyicha tadqiqotlar endigina amalga oshira boshlandi. Ammo umuman olganda, tegishli tadqiqotlar soni juda oz hisoblanadi. Koʻrinib turibdiki, xitoy tilidagi koʻp maʼnoli soʻzlarni chet tili sifatida oʻrgatish va tarjima qilish strategiyalarini oʻrganish zarur.

Ikkinchi tilni oʻrganuvchilar uchun maqsadli tildagi koʻp maʼnoli soʻzlarni oʻzlashtirish oson emas. Statistik (https://www.lunwendata.com/thesis/List_87.html) maʼlumotlarga koʻra zamonaviy xitoy lugʻatlarida ikki yoki undan ortiq maʼnoga ega boʻlgan 12 283 ta yozuv mavjud boʻlib, bu umumiy yozuvlarning 23% ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, Su Xinchunning xitoy tilida keng tarqalgan yuqori chastotali morfemalarning tekshiruviga koʻra, soʻzlardagi bir boʻgʻinli morfemalarning oʻrtacha soni 6,2, maʼno yuklangan elementlar soni esa 8,425 ni tashkil qiladi. Bu albatta tarjima yukini oshiradi.

Xitoy tilida bir soʻz koʻpincha bir qancha maʼnolarga ega boʻlishi mumkin. Baʼzi paytda polisemiya uchragan soʻzlarning oʻqilishi

ham turlicha bo‘ladi. Bu holat qadimgi xitoy tilida nisbatan ko‘p uchraydi.

1. “予” iyeroglifi:

1) yú - “men”;

“Feng Vanchjen” (冯婉贞 féngwǎnzhēn) asaridan quyidagi iqtibosni keltiramiz:

“瞻予马首可也” Zhān yú mǎ shǒu kě yě - “Mening otimning harakatlariga qara” (ma‘nosi “Mendan aslo ko‘zingni uzma, buyruqlarimni bajar”).

2) yǔ - “bermoq”.

“Tarixnoma” “Linsyang Ju faoliyati” bo‘limida (史记·蔣相如列传 shǐjì • Lìn Xiàngú lièzhuàn) yozilishicha:

“欲予秦，秦城恐不可得” Yù yǔ qín, qín chéng kǒng bù kě dé (“Biz o‘ylaymizki, Chinlar bizdan talab qilgan nefritni ularga topshirgan taqdirda ham, ular o‘z va‘dasi ustidan chiqmay, bizga shaharni qaytarib berishmaydi”).

Ko‘p ma‘noli so‘zlarda ma‘no qanchalik ko‘p bo‘lsa ham, lekin u bir so‘z hisoblanaveradi. Shuning uchun ham ko‘p ma‘noli so‘zlarda ma‘nolardan biri to‘g‘ri ma‘no (yoki o‘z ma‘no), qolganlari esa ko‘chma ma‘no bo‘ladi. Ko‘chma ma‘nolar nutq tarkibida boshqa so‘zlar bilan bog‘langanda namoyon bo‘ladi, nutq tarkibidan ajratilganda esa to‘g‘ri ma‘nosi asosiy ma‘no bo‘lib qoladi. Masalan, tosh so‘zi nutq qurshovidan ajratib olinsa, qattiq jism ma‘nosini anglatadi. Bir ma‘noli so‘zlar tilimizda kam sonni tashkil qiladi va ilmiy, kasb-hunarga doir atamalarni, shuningdek, yangi paydo bo‘lgan so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Yangi so‘zlar (neologizmlar) ham davrlar o‘tishi bilan qo‘shimcha ma‘nolarni anglatadi. Ko‘p ma‘noli so‘zlarning ma‘nosini bilish va undan nutq jarayonida o‘rinli foydalanish nutqning ta‘sirchan, ifodali bo‘lishiga yordam beradi. So‘zning ko‘p ma‘noliligini o‘rganish, avvalo, leksik uslubiyat uchun muhim rol o‘ynaydi. Chunki, bu so‘zning o‘zida turli xil ma‘noning bo‘lishi uchun og‘zaki va yozma nutqda qo‘llashda uslubiy bo‘yog‘iga, ma‘nosiga e‘tibor berishni talab qiladi. Shu boisdan ma‘no ko‘chish ham sinonimiya, omonimiya va boshqa leksik vositalar singari hazil, mutoyiba, kulgi va turli so‘z o‘yinlarini yuzaga keltiradi. Bunday paytlarda so‘zning to‘g‘ri va ko‘chma ma‘nosi to‘qnashtiriladi, natijada

kutilmagan yangi ma'no hosil bo'ladi. So'zlarning ana shu nozik ma'no ottenkalari badiiy adabiyotda muhim tasviriy vosita sifatida keng qo'llaniladi. Ko'chimlar ko'proq og'zaki nutq uchun xarakterli hodisadir. Ulardan zo'r mazo'raki foydalanib bo'lmaydi, nutqni buzishi mumkin. Ularga yozuvchi yoki notiq zarurat tug'ilgandagina murojaat qilishi lozim. Aks holda ular badiiy asar qimmatini oshirish o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Olim M.Mirtojiyevning yozishicha, — Tildagi polisemiya hodisasi juda qadimdan o'limlar diqqatini o'ziga jalb qilib keldi. Eramizdan avval uni falsafa va uslubiyat nuqtai nazaridan o'rganishdi. Tilchilarimizning qayd etishicha, bu masala bilan Xitoy va Hind olimlari, eramizning boshlarida esa yunonlar ham shug'ullanishgan ekan. So'zlarning turli ma'nolarda tovlanishi qadimgi turkiy til boyliglariga bag'ishlangan asarlarda ham o'rganilgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Alisher Navoiyning "Muhabbat-ul lug'tayn" asarlarida bunday hodisani kuzatish mumkin. So'zlarning rang-barang ma'nolarda kelishi adabiy matnlarni tahlil etish jarayonida aniqlanadi. So'zning o'z ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llanilishi tilshunoslik va adabiyotshunoslikka trop atamasi bilan yuritilgan. Badiiy tildagi bunday hodisani R. Qo'ng'urov shunday izohlaydi: "Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivligini kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarni shu maqsadda, umuman ko'chma ma'noda ishlatishga troplar deyiladi". Jahon tilshunosligida ham ko'chma ma'noni hosil qiluvchi so'zlarni tasniflashga doir bir qancha qarashlar mavjud. Masalan, fransuz tilshunosi J. Maruzo ko'chma ma'noli so'zlarni uch turga metafora, metonimiya, sinekdoxaga ajratadi. Rus tilshunosi L.A. Buxalovskiy esa ko'chma ma'no hosil qiluvchi hodisani olti turga bo'lgan: metafora, vazifadoshlik, emotsionallik, metonimiya, xalq etimologiyasi sifatida, aloqadorlik. L.A. Buxalovskiy sinekdoxani metonimiyaning bir ko'rinishi deb hisoblaydi. Nutqning ta'sirchanligi nutq madaniyatining eng muhim sifatlaridan biri bo'lib, nutqning og'zaki va yozma ko'rinishlarida namoyon bo'lib boradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

[1] - Рубец М.В. Многозначность как способ создания нелинейного текста в китайской языковой культуре. Кандидат философских наук, научный сотрудник Института философии РАН, Россия, 109240, Москва, ул.Гончарная, 12, стр. 1

[2] – Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. - Toshkent: Fan, 1984.

[3] – Nosirova S.A. Xitoy tili tarixi. – Toshkent, 2020.

[4] – Исматуллаева, Н. (2022). Хитой лингвомаданиятида “оила” концепти билан боғлиқ стереотип тил бирликларининг таҳлили. *Sharq ma'shali/Восточный факел*, 14(1), 82-86.

[5] – Ismatullayeva, N. R. (2022). Content of the Philosophical Term “Golden Mean” “中庸” in Confucius Doctrine. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(3), 224-229.

[6] – Исматуллаева, Н. Р. (2021). Конфуций ҳикматларида “комил инсон” тушунчаси талқини. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 513-519.

Foydalanilgan internet saytlari:

<https://www.lunwendata.com/thesis/2019/156900.html>
- <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/download/9135/5890/5651>



XITTOY TILIDA EKOTURIZM- 生态旅游 TERMININING SEMANTIKASI

Madinaxon SOBIROVA, TDSHU 1-kurs magistranti, Toshkent, O'zbekiston. Tel.: +998946698585; E-mail: rakhimovna.2211@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada *ekoturizm* termini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Ekoturizm atamasining xitoy tilidagi manbalarga asoslangan holda, leksik ta'rif berilib, uning paydo bo'lishi va hozirgi kunda qo'llanilish shakli haqida so'z boradi. Maqolani yozishdan maqsad- xitoy tilidagi ekoturizm va unga bog'liq bo'lgan so'zlarni ma'naviy va shakliy jihatdan tahlil qilish. Ushbu maqola Xitoy tili va turizmi bo'yicha faoliyat olib boruvchilar uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ekologiya, turizm, tabiat, sayohat, atrof-muhit.

Аннотация. В данной статье анализируется термин *экотуризм* с теоретической и практической точки зрения. На основе источников на китайском языке дается лексическое определение термина *экотуризм*, а также обсуждается его этимологическое значение и форма употребления в наши дни. Цель написания статьи – проанализировать значение и семантическую форму термина *экотуризм* и родственных словах в китайском языке. Материал статьи может быть полезен для лиц, работающих в сфере туризма.

Ключевые слова: экология, туризм, природа, путешествия, окружающая среда.

Abstract. This article analyzes the term *ecotourism* from a theoretical and practical point of view. Based on sources in the Chinese language, a lexical

definition of the term ecotourism is given, and it is discussed about its appearance and the form of its use today. The purpose of writing the article is to analyze the meaning and form of ecotourism in Chinese and related words. This article is theoretically important for Chinese language and tourism workers.

Key words: ecology, tourism, nature, travel, environment.

KIRISH

Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan mamlakatlarning turizm industriyasi, asosan, tabiiy yoki ekologik turizm hisobiga amalga oshirilmoqda. Turizm so'zi fransuz tilida tourisme- “sayohat qilish”, “dam olish” bo'lib shu bilan bir qatorda sport va umumtarbiyaviy yoki siyosiy-ma`rifiy vazifalarni bajarish degan ma`noni ham anglatadi.

Aleksandrova A.Y.[1] ma`lumotlari bo'yicha turizmdagi maxsus turlar quyidagilardan iborat:

1. Shahar turizmi.
2. Ishchanlik turizmi.
3. Qishloq turizmi.
4. Ekologik turizm.
5. Sport turizmi.
6. Ziyoratgoh turizmi.

Bu turlarni tahlil qilganimizda sport turizmi to'rtta turga ajratilgan:

- tog` sport- chang`i turizmi;
- golf turizmi;
- dayvin turizmi;
- eksterimal holatlardagi turizm.

Yuqoridagi turizm turlarini maxsus yoki asosiy deb ajratish xususiyatlarini topish qiyin. Ekologik, ziyoratgoh va sport turizmlari jahonda eng katta turistlar oqimini tashkil qiladigan turlar hisoblanadi. Golf, dayv turizmi va ekstremal turizm turlarini diniy, tarixiy, ekologik va sport turizmi turlariga tenglashtirib bo'lmaydi.

Ekoturizm, bir tomondan, turistik bozorda jadal o'sib kelayotgan tarmoq, ikkinchi tomondan esa insonning tabiatga ijobiy ta'siriga asoslangan tizim. Qolaversa, u turizm infratuzilmasining ajralmas qismi bo'lib, fagat g'oyagina emas, balki, umumiy turizmning aniq turi, hisoblanadi. [2] Uning atrof-muhitga ta'siri turlicha (salbiy, neytral va ijobiy) bo'lishi mumkin. "Ekoturizm" qo'riqxonalar hududlari va tabiiy bog'larning zamonaviy ish yuritish faoliyatida keng qo'llanilmoqda. Bu sayohat turining dunyo miqyosida jadal o'sishiga sabab faqat atrof-

muhitning ahvoli yomonlashishigina emas, balki, hordiq chiqariladigan mashhur joylar-tog' bag'ridagi kurortlar, suvi iliq dengizlarning qirg'oqlari, tekisliklar va o'rmonzorlar borgan sari ko'proq o'zlashtirilayotganligi hamdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ekologik turizm 1980-yillarning o'rtalarida paydo bo'lgan yangi tushunchadir. Ingliz tilidagi ushbu tushunchani akademik sohada birinchi bo'lib ishlatgan shaxs Maykl Romeril edi. Romeril bu atamani ishlatganda, u Gerardo Budovskining ekologiya va turizm o'rtasidagi ziddiyat haqida gapirgan maqolasidan ilhomlangan [3]. Aslida esa, meksikalik ekolog Seballos Lascurain 1980-yillarning boshida ispancha "ekoturismo" atamasini ishlatgan edi.[4] Turizm amaliyoti va menejmenti nuqtai nazaridan, Kanada o'rmon xo'jaligi xizmati 1973-yilda Trans-Kanada avtomagistrali bo'ylab turizm usuli sifatida "ekotur" (ekoturizm) ni ilgari surdi. Shunga ko'ra, ushbu kontseptsyaning yaratilish tartibi quyidagicha bo'lishi hisoblanadi: turizmning "ekoturizm" nomini aniq olgan shakli birinchi marta Kanadada paydo bo'lgan, birinchi marta akademik miqyosda paydo bo'lgan va Janubiy Amerika olimlari tomonidan ispan tilida ishlatilgan va keyin ingliz tilida. Ushbu kontseptsyani birinchi bo'lib taklif qilgan olim Chebelos Laskarining so'zlariga ko'ra, ekoturizmning ta'rifi "nisbatan ekologik toza bo'lgan tabiiy hududlarga sayohat qiladigan turizm shakliga ishora qiladi.

"Ekoturizm" atamasi o'rniga ko'pincha boshqa atamalar, ya'ni, "tabiiy turizm", "barqaror turizm", "yashil turizm", "mas'uliyatli turizm" va "hayriya turizmi" kabi atamalar ham ishlatiladi.[5] Ba'zi unsurlari bir xil bo'lsa ham, Ular aslida bir-birining sinonimi hisoblanmaydi va biri ikkinchisining o'rini egallamaydi. Ekoturizm - tabiiy turizm (tabiatga sayohat) ning bir turi. U tabiiy turizmning ba'zi bo'laklarini, masalan, sarguzashtli turizm-otda sayr qilish yoki kemada suzish kabilarni o'z ichiga olishi mumkin. Ekoturizmning quyidagi ta'rifi ko'proq ishlatiladi: "Ekoturizm" tabiiy turizm bo'lib, tabiat muhitini hosil qilish va tushinishni o'z ichiga oladi. Uning menejmenti shunday amalga oshiriladiki, natijada bu faoliyat ekologik, ijtimoiy va madaniy jihatdan barqaror bo'lib, "tabiiy muhit" madaniy tarkiblarni, "ekologik barqarorlik" mahalliy aholi uchun tegishlicha daromadni va foydalanilayotgan resurslarning uzoq muddatli muhofaza qilinishini o'z ichiga oladi. "Ekologik turizm" tushunchasining alomatlaridan iloji boricha ko'prog'ini chugurroq tushunish uchun Zorin va V. Kvartalnov

o'zaro bog'langan "ekotizim", "ekologiya, "ekologik sayohat etikasi" kabi tushunchalar tizimini taklif qilishadi [6] Ayniqsa, oxirgi tushuncha ahamiyatga molik. U jonli tabiatga, borilayotgan landshaftlarga, u yerda yashovchi kishilarga nisbatan hurmat kodeksi, deb sharhlanadi.

Xitoylik olim Ma Shijun fikricha, ekologiya tirik tizimlar va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirini o'rganadi. Xitoy tilida ekoturizm atamasi 生态旅游 (shēng tài lǚ yóu) tarzida ifodalanadi. Bu qo'shma so'z bo'lib, xitoy tilida uning asosiy ma'nosi "ekologiya" 生态 (shēng tài) ga qaratilgan, Ekologiya so'zi birinchi marta 1869-yilda nemis biolog Ernest Gekkel tomonidan kiritilgan. U dastlab zoologiya sohasida bu atamani ishlatgan. "Ekologiya" so'zi dastlab nisbatan tor doirada ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik mavzu chegaralarini yorib o'tib, fanlararo xalqaro toifaga aylandi. [7] Jumladan,

自然环境 (Zìrán huánjìng)- tabiiy muhit

大气污染 (dàqì wūrǎn)- havoning ifloslanishi

谁的循环 (shuǐ de xúnhuán) - suv aylanishi

土壤保持 (tǔrǎng bǎochí) - tuproqni saqlanishi

生物多样性 (shēngwù duōyàng xìng) - biologik xilma-xillik

城市问题 (chéngshì wèntí) - shahar muammolari

乡村问题 (xiāngcūn wèntí) - qishloq muammolari kabi ekologiyaga oid terminlarni uchratishimiz mumkin.

生态 (shēng tài) - atamasi quyidagi terminlar tarkibida kelishini ko'rishimiz mumkin:

生态区 (Shēngtài qū) - ekologik hudud

生态城市 (shēngtài chéngshì) - ekologik shahar

生态环境 (shēngtài huánjìng) - ekologik muhit

生态农业 (shēngtài nóngyè) - ekologik qishloq xo'jaligi

生态建设 (shēngtài jiànshè) - ekologik qurilish

生态保护 (shēngtài bǎohù) - ekologik muhofaza

生态旅游 (shēngtài lǚyóu) - ekoturizm
生态系统 (shēngtài xìtǒng) - ekosfera
生态学 (shēngtài xué) - ekologiya
生态工程 (shēngtài gōngchéng) - ekologik muhandislik
生态位 (shēngtài wèi) - ekologik joy
生态入侵 (shēngtài rùqīn) - ekologik bosqin
生态寿命 (shēngtài shòumìng) - ekologik hayot davomiyligi
生态效率 (shēngtài xiàolǜ) - ekologik samaradorlik
生态平衡 (shēngtài pínghéng) - ekologik muvozanat
生态因子 (shēngtài yīnzǐ) - ekologik omillar
生态幅 (shēngtài fú) - ekologik kenglik.

Turli adabiyotlarda Ekoturizm turlicha talqin qilinadi. Bizning dunyoqarashimizga yaqin bo'lgan Avstraliyaning Milliy ekoturizm Strategiyasida ekoturizm — tabiatga yo'naltirilgan turizm, deb ifodalangan. Ekologik barqarorlik qoidalaridan kelib chiqqan tarzda u o'z ichiga ekologik ta'lim va tarbiyani qamrab oladi. Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi (TMQXI) ekoturizmni «atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, unga sayr qilganda «ayab» ta'sir ko'rsatish yo'li bilan madaniy va tabiiy merosni o'rganish hamda zavqlanish nisbatan buzilmagan tabiiy hududlarga ekologik mas'uliyatli sayohat», deb tushuntiradi.[8]

XULOSA

Shunday qilib, tor ma'noda ekoturizm — kishilarning tirik organizmlar yashaydigan muhitga sayohat qilishlari. Keng ma'noda esa ekoturizm — shaxslarning doimiy yashash joylaridan dam olish, sport bilan shugiullanish, sog'omlashish, ma'-rifiy-ma'naviy hamda umumtarbiyaviy ishlarni amalga oshirish yoki boshqa maqsadlarni ko'zlagan holda atrof tabiatga yoki muayyan tabiiy obyektlarga ekologik maqsadlardagi sayohatlari. Ekoturizm atamasining ma'naviy jihati tahlili ostida bir nechta xulosalarga kelindi. Olimlarning ekoturizmga bergan turli ta'riflari yordamida uning tor va keng ma'noda qo'llanilishiga guvoh bo'ldik. Ekoturizmga oid atamalarni tarjima qilish jarayonida uning boshqa tillardagi ekvivalentlariga ham

ahamiyat berish orqali uning o'zbek tilidagi eng to'g'ri variantini topish mumkin. Maqolada ko'rib chiqilgan terminlar asosida shuni aytish mumkinki, ekoturizmga oid terminlar asosan qo'shma so'zlar shaklida bo'ladi va odatda, o'z semantik ma'nosini saqlab qoladi. Shuningdek, bu terminlar xitoy tilida asosan 4ta iyeroglifdan iborat bo'lgan so'z shaklida bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

[1] – Yabibulloxoii Muhammadsolih Alisher o'g'li. O'zbekiston ekoturizmini rivojlantirish yo'llari- Toshkent 2020. – 130 b.

[2] – O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. — T.: «O'zME davlat ilmiy nashr.», 2004, 7-son. 428-b.

[3] – A. Nig'matov. Ekologiya nima? — T.: «Turon-iqbol», 2005. 45 b.

[4] – A.Б. Косолапое, Н.Г. Мизь. Экологический туризм в Приморском крае и работа гида на маршруте (методические рекомендации). — Владивосток, 2002.

[5] – Дроздов А.В. Экотуризм: определения, принципы, признаки, формы // Акт. пробл. туризма — 99. Перспективы развития туризма в южном Подмосковье. Сб. докл. и тез. сообщений науч.-практ. конф. М., 1999. с. 32-41.



O'ZBEK ADABIYOTI NAMUNALARINI SHARQ XALQLARI TILLARIGA VA SHARQ ADABIYOTI NAMUNALARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING DOLZARB MASALALARI

ATATÜRK ÜNİVERSİTESİ ÇAĞDAŞ TÜRK LEHÇELERİ VE EDEBİYATLARI BÖLÜMÜNDE ÖZBEKÇEDEN TÜRKİYE TÜRKÇESİNE YAPILAN ÇEVİRİ ÇALIŞMALARI

*Prof. Dr. Hüseyin BAYDEMİR, Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi
Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölüm Başkanı. Erzurum, Türkiye.*

hbaydemir@atauni.edu.tr

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiyaning Otaturk Universiteti Zamonaviy turk lahjalari va adabiyotlari kafedrasida olib borilayotgan o'zbek tilidan turk tiliga tarjimachilik ishlari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy turk lahjalari va adabiyotlari, O'zbek-turk adabiy aloqalari, Özbek edebiyatı, badiiy tarjima.

Аннотация. В данной статье речь идет о переводческой деятельности кафедры современных турецких диалектов и литератур университета имени Ататюрка с узбекского на турецкий язык.

Ключевые слова: Современные турецкие диалекты и литература, узбекско-турецкие литературные связи, узбекская литература, художественный перевод.

Abstract. This article deals with the translation activities of the Department of Modern Turkish Dialects and Literatures of Ataturk University from Uzbek into Turkish..

Key words: Modern Turkish dialects and literature, Uzbek-Turkish literary connections, Uzbek literature, literary translation.

Atatürk Üniversitesi, Türkoloji çalışmalarının Türkiye'deki önemli merkezlerinden biridir. 1957 yılından beri faaliyette olan Üniversitede, Türkoloji çalışmaları ilk önce Edebiyat Fakültesindeki Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü ile başlamıştır. Daha sonraki yıllarda Edebiyat Fakültesi ve Eğitim Fakültesinde Türkoloji bölümlerinin sayısı artmıştır. Günümüzde ikisi Edebiyat Fakültesinde, üçü ise Eğitim Fakültesinde olmak üzere bu Üniversitede toplam 5 Türkoloji Bölümü mevcuttur. Sadece bu Türkoloji bölümlerinde 1500'den fazla öğrenci okumaktadır. Bahsi geçen Türkoloji bölümlerinden biri de Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümüdür. Edebiyat Fakültesi çatısı altında faaliyet yürüten Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü 1995 yılında kurulmuştur. Bu bölümde Türk halklarının dilleri, edebiyatları, tarih ve kültürlerine dair dersler okutulmaktadır. Atatürk Üniversitesi Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümünde 5 anabilim dalı mevcuttur. Bunlarda birinin adı Güney-Doğu (Türkistan-Uygur) Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Anabilim Dalıdır. Bu Anabilim Dalı Özbek ve Uygur sahalarıyla ilgilidir. Bu bildiride Güney-Doğu (Türkistan-Uygur) Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Anabilim Dalı çatısı altında, Özbekçeden Türkiye Türkçesine yapılan çeviri çalışmaları tanıtılacaktır.

Özbekçeden Türkiye Türkçesine yapılan çeviri çalışmalarını a) Tezlerin konusu olan metin çevirileri b) Müstakil makale veya edebî metin çevirileri, olmak üzere iki kategoride ele almak mümkündür.

a) Tezlerin konusu olan metin çevirileri

Baydemir, Hüseyin (1998). Rüstem Han Destanı (Metin-İnceleme), Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. (İlmiy rahbar: Prof. Dr. Bilge Seyidoğlu). Bu yüksek lisans tezinde Fazıl Yoldaşoğlu tarafından anlatılan Rüstem Han destanının Özbekçesiyle

birlikte Türkiye Türkçesi çevirisi de yer almaktadır. İnceleme kısmında destandaki motifler tespit edilmiştir.

Baydemir, Hüseyin (2004). Özbek Halk Masalları (İnceleme-Metin). Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. (İlmiy rahbar: Prof. Dr. Bilge Seyidođlu). Bu doktora tezinde Özbek fantastik masallarından 70 tanesi seçilerek Türkiye Türkçesine aktarılmış ve motifleri tespit edilmiştir.

Güler, Mustafa (2011). Pirimkul Kadir'in 'Ana Laçın Vedası' Romanı (Dil İncelemesi-Metin), Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. (İlmiy rahbar: Yrd. Doç. Dr. Hüseyin Baydemir). Dil incelemesi olan bu yüksek lisans tezinin sonuna Ana Laçın Vedası adlı romanın Türkiye Türkçesi metni de eklenmiştir.

Baydemir, Hüseyin (2011). Özbek Efsaneleri. Erzurum: Fenomen Yayıncılık. Bu doçentlik tezinde 101 Özbek efsanesi seçilmiş ve Türkiye Türkçesine aktarıldıktan sonra incelenmiştir. Efsanelerin Türkiye Türkçesi metinleri çalışmanın sonuna eklenmiştir.

Aslan, Aslıhan (2019). "Çolpan'ın Köşe Yazıları (İnceleme-Metin)", Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (İlmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir). Bu yüksek lisans tezinde Çolpan'ın 72 tane köşe yazısı Türkiye Türkçesine aktarılmış ve tematik inceleme yapılmıştır. Köşe yazılarının Özbekçe ve Türkiye Türkçesi metinleri tezin sonuna eklenmiştir.

Bakar, Emine (2019). "Fazıl Yoldaşođlu'nun Ferhat ile Şirin Hikâyesi", Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (İlmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir). Bu yüksek lisans tezinde Fazıl Yoldaşođlu'nun Ferhat ile Şirin adlı destanının incelemesi yapılmıştır. Destanın Özbekçe ve Türkiye Türkçesi metinleri tezin sonuna eklenmiştir.

Bora, Derlihan (2019). "Özbek Cedit Edebiyatında Hacı Muin ve Tiyatro Eserleri", Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü (İlmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir). Bu yüksek lisans tezinde Hacı Muin'in Eski Mektep Yeni Mektep, Mazlume Hatun, Esrarkeş, Toy adlı tiyatro eserleri incelenmiştir. Tezin sonuna adı geçen piyeslerin Türkiye Türkçesi metinleri eklenmiştir.

Öztürkci, Hamza (2019). Çolpan'ın Yarkınay Adlı Piyesi (İnceleme-Metin), Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü (İlmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir). Bu yüksek lisans tezinde Çolpan'ın Yarkınay adlı tiyatro eseri incelenmiştir. Tezin sonuna adı geçen piyesin Türkiye Türkçesi metni eklenmiştir.

Efe, Ayiše Hümeýra (2020). Tağay Murad'ın Oydında Yurgan Odamlar Romanı Üzerine Bir İnceleme, Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü (İlmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir). Bu yüksek lisans tezinde Tağay Murad'ın Oydında Yurgan Odamlar adlı kıssası incelenmiştir. Tezin sonuna adı geçen eserin Türkiye Türkçesi metni eklenmiştir.

Atila, Kübra Ece (2021). "Tağay Murad'ın "At Kişnegen Akşam (Ot Kishnagan Oqshom)" adlı Eseri Üzerine Bir Dil İncelemesi (Metin – Aktarma – Dil İncelemesi – Sözlük)". Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü (İlmiy rahbar: Dr. Öğr. Üyesi Nursan İldırı). Bu yüksek lisans tezinde Tağay Murad'ın Ot Kishnagan Oqshom adlı kıssası incelenmiştir. Tezin sonuna adı geçen eserin Türkiye Türkçesi metni eklenmiştir.

Çebi, Seda (2022). "Özbek Yazar Ma'suma Ahmedova'nın Hikâyeleri (İnceleme-Metin)". Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü (İlmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir). Bu yüksek lisans tezinde Ma'suma Ahmedova'nın hikayeleri incelenmiştir. Tezin sonuna yazarın 24 hikayesinin Türkiye Türkçesi metinleri eklenmiştir.

Erdem, Kübra (2022). "Tağay Murad'ın "Yulduzlar Mengü Yanedi (Yıldızlar Ebediyen Parlar)" Adlı Eseri Üzerine Bir Dil İncelemesi (Metin – Aktarma – Dil İncelemesi - Sözlük)". Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü (İlmiy rahbar: Dr. Öğr. Üyesi Nursan İldırı). Bu yüksek lisans tezinde Tağay Murad'ın Yulduzlar Mangu Yonadi adlı kıssası incelenmiştir. Tezin sonuna adı geçen eserin Türkiye Türkçesi metni eklenmiştir.

Zeliha Erken (2022). "Tağay Murad'ın "Mama Yer Koşığı (Ana Toprak Türküsü)" adlı Eseri Üzerine Bir Dil İncelemesi (Metin – Aktarma – Dil İncelemesi - Sözlük)". Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü (İlmiy rahbar: Dr. Öğr. Üyesi Nursan İldırı). Bu yüksek lisans tezinde Tağay Murad'ın Momo Yer Qo'shig'i adlı kıssası incelenmiştir. Tezin sonuna adı geçen eserin Türkiye Türkçesi metni eklenmiştir.

Kuzu, Ebru (2022). "Özbek Yazar Saide Zünnunova'nın Hikâyeleri (İnceleme-Metin)". Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü (İlmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir). Bu yüksek lisans tezinde Saide Zünnunova'nın hikayeleri incelenmiştir. Tezin sonuna yazarın 14 hikayesinin Türkiye Türkçesi metinleri eklenmiştir.

Pekşen, Ezgi (2022). "Özbek Yazar Mirmuhsin'in Hikâyeleri (İnceleme-Metin)". Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü (İlmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir). Bu yüksek lisans tezinde Mirmuhsin'in hikayeleri incelenmiştir. Tezin sonuna yazarın 18 hikayesinin Türkiye Türkçesi metinleri eklenmiştir.

Hemşinli, Gülşah (2023). “Pirimkul Kadırov'un "Erk (Özgürlük)" adlı Eseri Üzerine Bir Dil İncelemesi (Metin – Aktarma – Dil İncelemesi)”. *Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü (İlmîy rahbar: Dr. Öğr. Üyesi Nursan İldırı)*. Bu yüksek lisans tezinde *Pirimkul Kadırov'un Erk* adlı kıssası incelenmiştir. Tezin sonuna adı geçen eserin Türkiye Türkçesi metni eklenmiştir.

b) Müstakil Makale veya Edebî Metin Çevirileri

Yakubov, Adil (2010). “Ölmez Sima Üstad Aybek Hakkında Düşünceler”, (çev. Hüseyin Baydemir). *Kardeş Kalemler Aylık Avrasya Edebiyat Dergisi*. Yıl: 4, S. 37, s. 87-88.

Erkinov, Eftandil (2011). “XV XIX asır Beyazlarında Taşkent ve Paris Kütüphanelerinde Tespit edilen Ali Şir Nevâî nin Şiirlerine Dair Bir Araştırma”, (çev. Recai Kızıltunç). *Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi*, S. 45, s. 295-320.

Sulton, Isajon (2015). “İrem Bağı - Seçme Hikâyeler”, (Ed. Hüseyin Baydemir; çev.: Marufjon Yuldashev, Hüseyin Akbaş, Isajon Sulton). Antalya: Baygenç Ajans Yayınları.

Uzoqov, Haydarali; Islomjon Tursunov (2016). “Bilimadamı Gazi Âlim Yunus'un Hazin Sonu”, (çev. Hüseyin Baydemir). *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Sosyal Bilimler Dergisi*, S.57, s.267-274.

Raufhan, Nurullah Muhammed (2016). “Balon”, (çev. Coşkun Akpınar, Fatoş Caferoğlu). *Kuytadaki Kulübe*. İstanbul: Ferfir Yayınları, s. 73-81.

Aybek (2017), “Fenerci Baba”, (çev. Nursan İldırı). *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi*, S. 59, s. 245-247.

Hamdam, Uluğbek (2017). “Taş (veya Kötülüğün Doğuşu)”, (çev. Ayişe Humeyra Efe, Kerimullah Oyghagh). *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi*, S. 59, s. 263-266.

Ishakov, Yakubcan (2017). “Gül ve Nevruz Mesnevisinin Müellifi Meselesi”, (çev. Hüseyin Baydemir). *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi*, S. 59, s. 233-244.

Tursinova, Marhaba (2017). “Türk Dillerinde “Ben, Sen, O” Zamirlerinin Çekimlenmesi”, (çev. Esra Yavuz). *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi*, S. 59, s. 249-256.

Abdusamatov, Hafız (2018). “Çolpan'ın Tiyatro'ya Ait Fikirleri”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 27-30.

Çolpan, Abdülhamid Süleyman (2018). “Edebiyat Nedir”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 25-26.

Çolpan, Abdülhamid Süleyman (2018). “Gönül”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 4.

Çolpan, Abdülhamid Süleyman (2018). “Güzel Türkistan”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 3.

Çolpan, Abdülhamid Süleyman (2018). “Güzel”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 6.

Çolpan, Abdülhamid Süleyman (2018). “Merhum Tevfik Fikret’e”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 23-24.

Gafurov, İbrahim (2018). “Çolpan’ın Dil ve Üslup Zarafeti”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 33-36.

Kuronov, Dilmurod (2018). “İlk Evvel Gözümü Aşk ile Açtım”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 37-41.

Otayev, Rahimjan (2018). “Coşkun Ruh”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, 2018, s. 19-22.

Ravşanov, Esangali (2018). “Şiirin Gökyüzünde Bir Çolpan Yıldızı: Abdülhamid Süleymanoğlu”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 13-18.

Ibrohimova, Muazzam (2019). “İncir”, (çev. Hüseyin Baydemir, Ayişe Hümeýra Efe, Klara Abdurakhmanova, Nisar Ahmad Faik). *Hece Öykü*, s.148-154.

Jovliyev, Javlon (2019). “Buhara Buhara Buhara”, (Çev. Hüseyin Baydemir). *Temrin*, S. 94, s. 28-33.

Kerimov, Bahadır (2019). “Abdullah Kadiri’nin Yürek Sızıları ve Estetik Abidesi Olarak Ötgen Künler Romanı”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 97, s. 39-45.

Karimov, Naim (2019). “Kadiri Neden Hain İlan Edildi”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 97, s. 20-25.

Mirvaliyev, Sabir (2019). “Büyük Özbek Mütefekkeri Abdullah Kadiri” (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 97, s. 3-4.

Raufhan, Nurullah Muhammet (2019). “Kıyamet”, (çev. Hüseyin Baydemir). *Kardeş Kalemler*, S. 143, s. 58-62.

Yoldaşev, Marufcan (2019). “Ninem ve KırLangıçları” (çev. Hamza Öztürkçü). *Türk Dili*. Sayı: 813, s. 36-39.

Yoldaşev, Marufcan (2019). “Yeşil Miydi, Sarı Mı?” (çev. Hamza Öztürkçü). *Hece Öykü*. Sayı: 95, s. 160-164.

Yuldoshev, Marufjon; Yılmaz Özkaya (2019). *Bağımsızlık Dönemi Özbek Edebiyatı (Şiir, Hikâye, Roman, Piyes)*. (ed. Hüseyin Baydemir). Ankara: Bengü Yayınları.

Ahmadova, Ma’suma (2020). “Dert Ortaklığı”, (çev. Elif Hümeýra Taşkara, Ezgi Pekşen, Gamzenur Akgüney, Gizem Nur Nazlı, Gülşah Hemşinli, Seda Çebi). *Hece Öykü*, Yıl 17, S. 100, s. 232-236.

Börihan, Lokman (2020). “Yalan”, (çev. Ebru Kuzu, Mine Akyüz, Enejan Hudayberdiyeva, Demet Kübra Duman). *Neşide (Eğitim, Kültür ve Sanat Dergisi)*, Yıl 4, S. 4, s. 102-104.

Çolpan, Abdülhamid Süleyman (2020). “Çar’ın Armağanı”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Hece Öykü*. Sayı: 97, s. 148-150.

Artıkov, Şerzad (2021). “Babamın Güvercinleri” (çev. Emine Bakar). *Genç Yüreklere Dergisi*. Sayı: 5, s. 12-14.

Esed, Nergize (2021). *Müjde*. (çev. Emine Bakar). Ankara: Asmaaltı Yayınevi, 90 s.

Günümüz Özbek Öyküsü (2021). (çev. Hamza Öztürkçü). Ankara: Hece Yayınları, 368 s.

Hemdem, Uluğbek (2021). “Söz” (çev. Emine Bakar). *Hece Öykü*. Sayı: 103, s.160-166.

Yoldaşev, Marufcan (2021). “Gördük de Ne Oldu?”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Edebiyat Ortamı*. Sayı: 79, s. 80-83.

Yoldaşev, Marufcan (2021). “Soğuk Haber”, (çev. Hamza Öztürkçü). Mahalle Mektebi. Sayı: 58, s. 27-30.

Özbek Öykü Seçkisi. (çev. Emine Bakar). (Basım aşamasında).

Yoldaşev, Marufcan (2021). *Zerçadır Altında*. (çev. Hamza Öztürkçü). Ankara: Ötüken Yayınları.

Yoldaşev, Marufcan (2021). “Pervaz” (çev. Hamza Öztürkçü). *Vesat*. S. 4, s. 48-58.

Vahidov, Erkin (2021). “Özbeğim” (çev. Hamza Öztürkçü). *Hece Dergisi*. S. 297, s. 72-75.

Aripov, Abdulla (2021). “İnsan Kalbi” (çev. Hamza Öztürkçü). *Hece Dergisi*. S. 297, s. 76.

Parfi, Rauf (2021). “Ana Türkistan” (çev. Hamza Öztürkçü). *Hece Dergisi*. S. 297, s. 77-78.

Abidcan, Enver (2021). “Hayatın Her Anı Güzel” (çev. Hamza Öztürkçü). *Hece Dergisi*. S. 297, s. 79-81.

Yusuf, Muhammed (2021). “Biz Mutlu Olacağız” (çev. Hamza Öztürkçü). *Hece Dergisi*. S. 297, s. 90-91.

Kahhar, Abdullah (2022). “Dehşet” (çev. Hamza Öztürkçü). *Mahalle Mektebi Dergisi*. S. 64, s. 24-28.

Kahhar, Abdullah (2022). “Hasta” (çev. Hamza Öztürkçü). *Mahalle Mektebi Dergisi*. S. 63, s. 29-30.

Yusuf, Muhammed (2022). *Seçmeler*. (ed. Bilal Çakıcı; çev. Marufjon Yuldashev, Recai Kızıltunç, Emine Bakar, Hamza Öztürkçü, Hüseyin Akbaş). Ankara: TÜRKSOY Yayınları.

Jurakuziyev, Nadirbek (2023). “Eski Türklerde Dağ Kültü ve Hayat Ağacı Mitolojisi”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Hece (Mitoloji Özel Sayısı)*. Özel Sayı: 46, s. 332-342.

Sultan, İsacan (2023). “Ilık Yağmurun Yağdığıdır” (çev. Hamza Öztürkçü). *Mahalle Mektebi*. Sayı: 78, s. 29-38.

Sultan, İsacan (2023). “Sivrialan’da Bir Yağmur” (çev. Seda Çebi). *Neşide Aşık Veysel Özel Sayısı*. Sayı: 7, s. 135-141.

Hayit, Şadman (2023). “Mustafa Kemal Atatürk ve Özbek Muhacirleri” (çev. Hamza Öztürkçü). *Neşide 100. Yıl Armağanı*. Sayı: 8, s. 15-18.

Sultan, İsacan (2024) “El-Bîrûnî”, (çev. Hamza Öztürkçü). Ketebe. (Devam ediyor.)

Baydemir, Hüseyin ve Nursan Ildırı. Büyük Özbekçe – Türkçe Sözlük (Basım aşamasında).



TURK VA O‘ZBEK TILLARIDA MA’NOSI FARQLI BO‘LGAN IBORALAR VA ULARNI TARJIMA QILISH MASALALARI

Filol.f.n. Lolaxon AMINOVA, TDSHU dotsenti. Toshkent, O‘zbekiston
Tel: 97 761 65 56; E-mail: lolahonim@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola turk va o‘zbek tillaridagi aytilishi o‘xshash lekin ma’nosi farqli bo‘lgan iboralarning tarjima qilish masalalariga bag‘ishlangan. Maqolada turk tilidagi to‘rt, beshta ibora haqida fikr yuritilgan. Bunda iboralarning izohli lug‘atdagi ma’nolari ochiqlanib misollar yordamida tahlil qilingan. Turk tilidagi iboralarni o‘zbek tiliga to‘g‘ri o‘rish masalasi maqolaning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Kalit so‘zlar: frazeologik iboralar, aldoqchi so‘zlar, izohli lug‘at, tahlil, ta’rif, ifoda.

Аннотация: Эта статья посвящается переводу фраз в турецком и узбекском языках со схожим произношением, но разным значением. В статье говорится о четырех пяти фразах. В нем раскрыты значения выражений с помощью толкового словаря и анализировались с помощью примеров. Основной смысл статьи значение правильного перевода фраз с турецкого на узбекский.

Ключевые слова: фразеологические выражения, лживые слова, толковый словарь, анализ, определение, выражения

Annotation: This article is devoted to the translation of phrases in Turkish and Uzbek with similar pronunciation but different meanings. The article talks

about four five phrases. It reveals the meanings of expressions using an explanatory dictionary and analyzes them with the help of examples. The main point of the article is the importance of correctly translating phrases from Turkish into Uzbek.

Keywords: phraseological expressions, false words, Dictionary, analysis, definition, expression.

Turk va o‘zbek tillari qanchalik bir-biriga yaqin, qanchalik bir-biriga o‘xshash bo‘lmasin, ularning juda ko‘p farqli tomonlari, o‘quvchini adashtirishi mumkin bo‘lgan juda ko‘p jihatlari bor. Ayni shunday murakkab jihatlari bu ikki tilni ham qiyosiy ham alohida tadqiq qilinishi lozimligini ko‘rsatadi.

Tilni biz ummonga o‘xshatamiz. Darhaqiqat, har bir til dengiz misoli jilolanadi. Dengizning har bir tomchisi kabi tilning ham o‘ziga xos xususiyatlari juda ko‘pdir. Turk tili darslarining boshidanoq, uning bamisoli to‘lqinlanib turgan dengizga o‘xshashligini aytamiz. Til o‘rganishning ilk kunlari dengizning sayoz yeriga o‘xshash oson bo‘ladi, lekin suzishni bilmasa u g‘arq qilganidek, tilni ham chuqur o‘rganmasa unda ham “g‘arq” bo‘lish turgan gap.

Turk tilidagi juda ko‘p so‘zlar yozilishi va o‘qilishi jihatidan o‘zbek tiliga o‘xshashdir. Bularning bir qancha qismi ma‘no jihatidan o‘zbek tili bilan bir xil bo‘lsada, juda ko‘p qismining ma‘nosi umuman farqlidir. Bunday so‘zlarni “aldoqchi so‘zlar” deb ham ataladi. Turk tili bo‘yicha mutaxassis, olim, Berdaq Yusuf shunday so‘zlar bo‘yicha alohida lug‘at tayyorlab, uni “aldoqchi so‘zlar lug‘ati” deb nomlagan.[2.] Shunday so‘zlar bilan bir qatorda aytilishi bir, ma‘nosi farqli bo‘lgan iboralar ham talaygina. Ushbu kichik tadqiqotimiz ham aynan ma‘nosi jihatidan bir-biriga o‘xshamaydigan iboralar haqidadir.

Har bir tilning bebaho duru gavharlari bo‘lmish iboralarning o‘zi ham bir olamdir. Hozirgi kunda ikki tildagi iboralarni juda ko‘p jihatdan o‘rganishga e‘tibor kuchayib bormoqda. Chunki iboralar hoh yozma nutqda hoh og‘zaki nutqda bo‘lsin, tilning go‘zalligini ko‘rsatib beruvchi omil hisoblanib, ma‘noni yetkazib berishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda ikki tilda ham o‘ziga xos, ajoyib iboralar mavjud bo‘lsada, yuqoridagi aldoqchi so‘zlar kabi, aytilishi bir, lekin ma‘nosi farqli bo‘lgan iboralar ham ko‘pdir. Ushbu maqolamizda iboralarning ayni shu jihatiga e‘tibor qaratmoqchimiz.

“Ma‘lumki, frazeologizmlar nutq ta‘sirini kuchaytiruvchi va insonlar tomonidan o‘zlashtirilib, ularning ongiga chuqur singib ketgan so‘zlar sifatida xalqning urf-odati, an‘analari, madaniyati va tarixini o‘zida yaqqol aks ettirib, adabiy tilning keng ifoda imkoniyatlarini

o‘zida namoyon qiluvchi leksik vositalar hisoblangan birliklar sifatida inson hayotining barcha sohalarini qamrab olgan”. [3, 3.]

Turk tilida shunday iboralar borki, huddi o‘zbek tilidagi iboraga o‘xshaydi. Iborani tashkil qiluvchi so‘zlari ham bir xil. Lekin ularning ma‘nosiga va qo‘llanish darajasiga kelsak umuman farqlidir. Shunday iboralardan biri “Soğukkanlı” dir. Bu iboraning aytilishi ham yozilishi ham o‘zbek tilidagi “sovuqqon” iborasiga o‘xshaydi. Bu ikki ibora bir xil talaffuz qilinib, quloqqa ham bir xil eshitiladi. Bu iboralar ikki tilda ham insonning xususiyatini, fe‘l-atvorini tasvirlash uchun qo‘llaniladi. Lekin bu iboralarning tarjimadagi ma‘nosi umuman boshqacha. O‘zbek tilidagi “sovuqqon” iborasi salbiy ma‘no kasb etib, insonning har qanday sohaga befarqligi, e‘tiborsizligi, odamlarga nisbatan kirishimsiz, muomalasiz kabi ma‘nolarni anglatadi. Bunday fe‘l - atvorli kishilar jamiyatda xush qarshilanmaydi. Turk tilidagi “soğukkanlı” iborasi ham insonning fe‘l-atvorini tasvirlash uchun ifodalansada, bu ibora ijobiy ma‘noda qo‘llaniladi. Turk tilidagi izohli lug‘atda bu ibora quyidagicha izohlangan:

“Soğukkanlı – kolayca öfke, telaş, heyecane kapılmayan, serin kanlı”. [4, 571.]

Tarjimasi: Sovuqqonli – osonlikcha g‘azablanmaydigan, havotirga, hayajonga tez berilmaydigan, sovuq qonli.

Lug‘atda izohlanganidek, “soğukkanlı” deya ta‘riflangan inson har qanday noxush vaziyatda, asablar tarang bo‘lib turgan vaqtda ham tezgina qizishib ketmaydigan, jaxl otiga minib g‘azablanmaydigan, aksincha, shunday asabiy bir vaziyatda ham o‘zini vazmin tutib, o‘ylab ish qiladigan insonlar uchun qo‘llaniladi. Turk jamiyatida “soğukkanlı” deya ta‘riflangan insonlar xush qarshilanadi.

“Helâl olsun, ne soğuk kanlı davrandı”. [6.]

Tarjimasi: “E qoyil e, qanday bosiqlik bilan munosabatda bo‘ldi”

“O çok soğukkanlı bir insandı, hiç bir zaman paniğe kapılmazdı”. [6.]

Tarjimasi: U juda og‘ir-bosiq inson edi, hech bir vaqt vahimaga tushmasdi”

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turganidek, birgina “soğukkanlı”, “sovuqqon” iborasining o‘ziyoq bir xil aytilsada uning tom ma‘nosini o‘rganib, to‘g‘ri tarjima qilinmasa noto‘ri tushunchalarga olib keladi.

Turk va o‘zbek tillarida aytilishi bir ammo ma‘nosi farqli bo‘lgan iboralardan yana biri “gönül koymak” dir. “Gönül koymak” iborasini o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z o‘girilsa “ko‘ngil qoymoq” iborasiga aynan,

birga-bir o'xshaydi. "Ko'ngil qo'ymoq" iborasi o'zbek tilida qiz va yigit o'rtasida yoki ayol va erkak o'rtasidagi mehr qo'ymoq, bir - birini yoqtirmoq, sevib qolmoq yoki boshqa bir jonsiz narsalarga nisbatan ham yaxshi ko'rmoq ma'nolarini ifodalaydi. Ushbu iboraning turk tilidagi ma'nosi esa umuman boshqachadir. Turk tilidagi iboralarning izohli lug'atida shunday ta'rif berilgan:

"Gönül koymak"- 1) Birisine alınmak, kırılmak, gücenmek. 2) Biriyle tüm iletişimi kesmek. 3) (Halk ağzında) Birisine aşık olmak, gönül vermek deyiminin yerine kullanılır. [6.]

Tarjimasi: "Gönül koymak" – 1) Biror bir kishidan hafa bo'lmoq, dili og'rinoq, ko'ngli qolmoq. 2) Biror bir kishi bilan o'rtadagi aloqani uzish. 3) (xalq og'zaki ijodida, so'zlashuvda) Biror kishiga oshiq bo'lmoq, ko'ngil bermoq iborasining o'rniga ishlatiladi.

Lug'atdagi izohlarga ko'ra turk tilidagi "Gönül koymak" iborasi, o'zbek tilidan farqli o'laroq, biror kishidan xafa bo'lish, dili og'rish kabi ma'nolarni ifodalaydi.

"Kendisinden defalarca özür dilememe rağmen bana hala gönül koyuyor". [6.]

Tarjimasi: "Undan necha marotaba uzr so'rashinga qaramay, mendan haligacha hafa".

"Üç günlük dünyada kimse eski dostlarına gönül koymamalı". [6.]

Tarjimasi: "Uch kunlik dunyoda hech kim qadrdon do'stlaridan hafa bo'lmasligi kerak".

Yuqoridagi misollarda ko'rib turganimizdek "gönül koymak" iborasining ham tom ma'nosini o'rganib qo'llanilmasa, noto'g'ri tarjimalarga yo'l qo'yiladi va yanglish fikr-mulohazalarga olib keladi.

"Gönül koymak" iborasining lug'atda keltirilgan ikkinchi ma'nosi, yani "Biror kishi bilan o'rtadagi aloqani uzish" ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, ibora ishlatilgan kontekstdagi oldingi va keyingi gaplarning ma'nosiga qarab tarjima qilinishi to'g'ri bo'ladi. Ushbu iboraning uchinchi ma'nosida: "xalq og'zaki ijodida, so'zlashuvda, biror kishiga oshiq bo'lmoq, "ko'ngil bermoq" iborasining o'rnida qo'llaniladi" deya ochiqqlangan.

"Seni sevdim, sana gönül koydum". [6.]

Tarjimasi:

Seni sevdim, senga ko'ngil qo'ydim.

Yuqoridagi misollarda ko'rganimizdek iboraning uchinchi ma'nosida o'zbek tilidagi "ko'ngil qo'ymoq" iborasiga mos tushyapti.

Bu ham bo'lsa xalq og'zaki ijodi namunalarida, badiiy asarlarda ko'proq uchraydi. Bu esa o'zbek va turk tilining ildizi, negizi birligidan dalolat beradi. Zamon o'tgan sari tilda ham bir qancha o'zgarishlar ro'y berib, so'zlarning asl ma'nolardan uzoqlashish, nafaqat uzoqlashish balki umuman teskari ma'nolarga kelib qolishi ham kuzatiladi.

Shunday iboralardan yana biri turk tilidagi "göğüs germek" iborasidir. Ushbu iborani o'zbek tiliga so'zma-so'z o'girilsa "ko'krak kermoq" deya tarjima qilinadi. Ne ajabki, o'zbek tilida ham "ko'krak kermoq" iborasi mavjud. Endi esa turk tilidagi ushbu iboraning izohli lug'atdagi ma'nolarini ko'rib o'tamiz.

"Göğüs germek" – bir zorluğa dayanmak, karşı koymak, üstesinden gelmek, zorlukları aşmak. [6.]

Tarjimasi:

"Göğüs germek" – biror qiyinchilikka chidamoq, qiyinchilikka qarshi qalqon bo'lib turib bermoq, qiyinchiliklarni yengib o'tish.

Iboraning lug'atdagi ma'nosidan ko'rinib turibdiki, turk tilidagi "göğüs germek" iborasi hayotda uchragan qiyinchilikka berdosha berish va qiyinchiliklarni yengib o'tish ma'nolarida qo'llanilar ekan.

"Bugüne kadar bütün zorluklara bir aile olarak birlikte göğüs germeyi başardık." [6.]

Tarjimasi:

"Shu kungacha butun qiyinchiliklarga bir oila bo'lib bardosh berishni uddaladik".

"Yıllarca bu hastalığa göğüs germiştı." [6.]

Tarjimasi:

"Yillar davomida bu kasallikka chidab kelgandi."

Yuqoridagi misollardan turk tilidagi "göğüs germek" iborasining tom ma'nosi kunday ravshan bo'ldi. Lekin o'zbek tilida ayni iboraning o'zginasi bo'lgan "ko'krak kermoq" ning ma'nosi tubdan farq qilmoqda. O'zbek tilidagi "ko'krak kermoq" iborasi faxrlanmoq, mag'rurlanmoq kabi ma'nolarni o'z ichiga mujassamlashtirgan. Jasorat ko'rsatib yoki biror bir ishni qoyilmaqom uddalab, faxr tuyg'usi bilan ko'krak kerish mumkin. Ota-onalar farzandlarini muvaffaqiyatini ko'rib faxrlanganda "ko'krak kerib" yuribdilar, deya qo'llash mumkin.

Yuqoridagi fikrlarni ta'kidlab shuni aytish mumkinki, bu ikki tildagi o'xshash iboralarning tom ma'nosini, o'ziga xos xususiyatini yaxshi anglab yetilmasa, yoki so'zma-so'z o'girib qo'yilsa matnda tushunarsizliklar yuzaga kelishi mumkin.

Navbatdagi tahlil qilmoqchi bo'lgan iboramiz, turk tilidagi "ilk göz ağrısı" iborasidir. Ushbu iboraning ham o'zbek tilida o'xshash shakli bor, ya'ni "ko'z og'rig'i". O'zbek tilidagi "ko'z og'rigi" iborasi ko'proq so'zlashuvda, badiiy matnlarda ko'p uchraydi. O'zbek tilida ko'z og'rig'i iborasi yengil dardlarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Ya'ni, og'ir bo'lmagan, yengil og'riq bilan o'tib ketadigan dardlar uchun "ko'z og'rig'iday gap" deb qo'yiladi. Lekin turk tilidagi "göz ağrısı" iborasi o'zbek tilidagidan tubdan farq qilib, og'riq, dard ma'nolaridan ancha uzoqdir. Turk tilidagi "ilk göz ağrısı" iborasining izohli lug'atdagi ma'nolarini ko'rib chiqamiz.

"Ilk göz ağrısı"- 1) İlk doğan çocuk. 2) Bir kimsenin aşık olduğu, sevdiği ilk insanı, ilk aşkı. [6.]

Tarjuması:

"Ilk göz ağrısı" – 1) Birinchi tug'ilgan farzand. 2) Bir insonning sevgan ilk insoni, birinchi muhabbati.

Ushbu lug'atdagi izohlarga ko'ra turk tilidagi "Ilk göz ağrısı" iborasi ota-onaning birinchi tug'ilgan farzandi uchun yoki ilk sevgan insoni, birinchi muhabbatini atash uchun qo'llaniladigan ibora ekan.

"Sen ilk aşkı, ilk gözağrısın, dünyalara değışmem seni". [6.]

"Sen ilk sevgim, birinchi muhabbatimsan, hech narsaga almashmayman seni."

"İlk gözağrım, diyerek annem abimi çok şımarttı". [6.]

"To'ng'ich farzandim, deb onam akamni juda taltaytirib yubordi".

"İlk gözağrım, gençlik aşkı, aniden görünce ne yapacağımı bilemedim". [6.]

"Birinchi muhabbatim, yoshlikdagi sevgilimni to'satdan ko'rgach nima qilishimni bilmay qoldim". "Ilk göz ağrısı" iborasining paydo bo'lish tarixi ham bor ekan. Qadimda askarlik xizmati va urushlar uzoq vaqt davom etgani uchun Onado'lining har bir joyidan eng kamida uch, besh yilga xizmatga, urushga ketgan yigitlar, erkaklar bo'lgan ekan. Bu askarlarning uyida qolgan onalari, singillari, turmush o'rtoqlari, qayliqlari va sevgililari qon yig'lab qolishar ekan. Bu bechora ayollar, vatanini, millatini, dinini himoya qilish uchun kurashayotgan mard erlari bilan g'ururlanar ekanlar, lekin ayni damda yig'lamay, ko'z yoshi to'kmay ham kunlari o'tmasmish. Ba'zan oshkora, bazan pinhona yig'lagan yosh qiz va kelinchaklarning ko'z yoshlari qurib, ko'zlari og'riy boshlagan ekan. Har qancha yig'lasalarda yorlaridan darak yoq emish. Shunda chorasiz bir-birlari bilan gaplashayotganlarida, o'sha zamonning hayo va ibosi natijasi o'laroq "sening sevgiling, ering"

deyishga or qilib, “Mening ko‘z og‘rigimdan maktub kelmadi, senikidan habar bormi”- deya so‘rashar ekan. Shu shu bo‘lib ilk sevgan yori, birinchi muhabbati uchun “Ilk göz ağrısı” iborasini qo‘llash odatga aylanib qolgan ekan. Iboralar borasida yana shuni aytish mumkinki, turk tilidagi har bir iboraning o‘zbek tilidagi aynan o‘xshash shakli bo‘lmasligi tabiiy. Lekin ba’zi vaqtlarda turk tilidagi iboralarni o‘zbek tilidagi muqobilini to‘g‘ri topa olmay yoki ma’nosini yaxshi tushunib yetmay, ularni so‘zma-so‘z o‘girib qo‘yish vaziyatlari ham ko‘p uchraydi. Bu xatolarga ko‘pincha film va seriallar tarjimasida duch kelamiz. Misol uchun, turk tilidagi “onun ipiyle kuyuya inilmez” iborasi mavjud bo‘lib, uni o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z o‘girsak, “uning ipi bilan quduqqa tushib bo‘lmaydi” degan gapga to‘g‘ri keladi. Ko‘p seriallarda shu ibora aynan shunday, so‘zma-so‘z tarjima qilingan holatlarga duch kelganmiz. Vaholangki, u o‘rinda “ip” ha “quduq” ham yo‘q. Turk tilidagi ushbu iboraning asl ma’nosi esa “unga ishonch yo‘q” degan ma’noni anglatadi. Tarjimadagi shu kabi xatolar istar filmlar tarjimasida, istar badiiy adabiyot tarjimalarida bo‘lsin ma’noning o‘zgarib ketishiga, noto‘g‘ri fikrga olib keladi. Shuning uchun iboralarning asl ma’nosini va uning qo‘llanish darajasini yaxshi anglab yetib, keyingina ulardan foydalansak maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aksoy O. Atasözleri va Deyimler sözlüğü. Istanbul, İnkilap Yayınevi.- 1994.
2. Berdak, Y. Turkcha – o‘zbekcha «aldoqchi» so‘zlar lug‘ati. Türkçe-Özbekçe Sesteş Kelimeler Sözlüğü. Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2009.
3. Hamidov X. X. Turk frazeologiya masalalari. -Toshkent: TDSHI. 2019 y.
4. O‘zbekcha-turkcha, turkcha-o‘zbekcha izohli lug‘at. - Toshkent: 1997.
5. Büyük Türkçe-Rusça Sözlük. - Moskva: “Russkiy yazik”, 1977
6. www.türkçe deyimler sözlüğü. Cümle ve örnekleri.



ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

*Дилфуза УМИРОВА, преподаватель Ташкентского государственного
экономического университета, Ташкент, Узбекистан
Тел.: +998977557511; E-mail: dilfuzaumirova@yahoo.com*

Аннотация. В данной статье автор рассматривает проблемы, возникающие при переводе текстов на китайский язык. Основные трудности связаны со структурой предложения, тоновой системой,

использованием иероглифов, культурными различиями и грамматическими особенностями. Несмотря на эти вызовы, статья подчеркивает, что с правильными навыками и подготовкой эти проблемы можно преодолеть.

Ключевые слова: перевод, китайский язык, структура предложения, тоновая система, иероглифы, культурные различия, грамматика.

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif matnlarni xitoy tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolarni ko'rib chiqadi. Asosiy qiyinchiliklar jumla tuzilishi, ohang tizimi, ierogliflardan foydalanish, madaniy farqlar va grammatik xususiyatlar bilan bog'liq. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, maqolada to'g'ri ko'nikmalar va tayyorgarlik bilan bu qiyinchiliklarni engib o'tish mumkinligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: tarjima, xitoy tili, gap tuzilishi, ohang tizimi, ierogliflar, madaniy farqlar, grammatika.

3. Development of a system for studying theories of translation of cultural property: it is recommended to develop a system for studying theories of translation of cultural property in universities and other educational institutions. This will make it possible to prepare specialists with the necessary knowledge and skills for high-quality translation of cultural terms.

4. Hiring competent translators and training them: Organizations working in the field of tourism and culture should hire competent translators and oblige them to constantly improve their skills in the field of cultural translation. These recommendations will help improve the process of translating cultural terms and ensure a more accurate and adequate perception of cultural information in English.

Principles of standardization when translating into English. The Guide to Translating Tourism Terms into English is based on primary and secondary in-depth research that included collecting specific opinions from local people in 3 languages to improve, adjust and localize the terms.

The following principles were taken into account when developing the guide:

1. Taking into account the type and nature of the term: when translating each term, its type and characteristics are taken into account. The term must convey a fairly accurate meaning and maintain the uniqueness of the Korean tourism term.

2. Consistency: When translating similar terms or elements representing the same concept, Term ensures maximum consistency in the choice of translation.

The guide has been developed based on in-depth research and information collected. The study proposed multiple translations for 20 titles to test the perceptions of native English speakers and to gather practical alternatives and opinions. These data served as the basis for developing preliminary translation guidelines for each type of tourism term, including attractions, lifestyle information, and experiences.

Name of tourist destinations. Guidelines for translating unique and communicative place names vary depending on the type: natural places, man-made places, and cultural heritage.

1. Natural geographical names: For mountains, rivers, lakes, passes and other natural geographical features, it is recommended to use the romanization of Korean names and represent the semantic part of the last element with a capital letter. For example, “Hangang River” remains unchanged, “Hallasan Mountain” and “Seopjikoji Cape” become

“Hallasan Mountain”. However, in the case of space restrictions such as road signs and maps, names may be omitted or abbreviated. For example, Seomjingang River can be translated as “Seomjingang River” or “Seomjingang Riv”.

2. *Artificial Place Names*: For artificial place names such as buildings, ports and parks, it is recommended to use Roman letters for all elements and represent the semantic part of the last element. For example, “Gwangjang Market” denotes the entire “Plaza” element, while “Dodong Yak Water Park” and “Gwangyang Maehwa Village” become “Dodong Mineral Spring Park” and “Gwangyang Plum Flower Village”. If all elements include natural place names, follow the guidelines for translating natural place names, but abbreviations are allowed to avoid too long translations. For piers and temples, all names in Korean are also romanized and the semantic part of the last element is added. For example, 경주보 (Gyeongju Bo) becomes “Gyeongju Bridge”, and 산방굴사 (Sanbanggulsu) is proposed to be translated as “Sanbanggulsu Grotto”.

3. *Cultural Heritage*: Cultural heritage names should be designated in accordance with the standards for English cultural heritage designation. For example, “Sungnyemun” is translated as “Sungnyemun Gate”, and “Dabotap” becomes “Dabotap Pagoda”. If there is an official English name used by the competent authority or company, it is recommended that you stick to that name. For example, if the official name for “Plaza Hotel” is “Plaza”, then that name should be used. These guidelines will help ensure accurate and informative translation of place names, taking into account the context and priority of conveying information about places.

Lifestyle information. For terms related to lifestyle information, such as housing, transport, shops and alleys, recommendations have been developed with a priority of accurately conveying facts that are practically necessary for users.

1. Priority to semantic accuracy: Terms related to life information must have semantic accuracy in translation. For example, “karaoke” can be translated as “singing room”, “street food and drinks stand” and “bathhouse” and “guest house”, respectively. “Exemplary taxi” can be translated as “deluxe taxi”.

2. Consideration of instructions for the translation of tourist places: If the term is used in the name of a tourist destination, it is recommended to follow the instructions for the translation of tourist places, taking into account the uniqueness of the geographical name and the

communication skills between foreigners and local residents. For example, “Namdaemun Market” can be translated as “Namdamun Market”.

3. Romanization of elements and names: for thematic alleys, it is proposed to designate all elements by romanization in accordance with the instructions for translating artificial names of tourist places. For example, “Daegu Apjeong Alley” would be translated as “Daegu Traditional Medicine Street”. However, in the case of food lanes, all elements and food names should be romanized, and the back elements should be romanized.

4. Use of universal expressions: In the case of “alley”, it is suggested to use the expression “street” regardless of the nature and characteristics. This is due to research showing that “street” is a more universal expression than “ally”. Pure Korean included in the terminology should be designated by romanization to emphasize uniqueness.

5. Use of official English names: If a term has an official English name used by the competent authority or company concerned, it is recommended that this name be followed in preference. For example, “Kyobo Book Center” and “Noryangjin Fisheries Wholesale Market”.

These guidelines will help ensure that terms related to life information are translated accurately, taking into account the context and priority of reporting the facts.

Experience. In a study on the acceptability of translation of tourism terms from Korean into English in the context of experience, the main principles and examples are as follows:

1. Use of Romanization: All elements are expected to be written using Romanization. For example, the “Jeonju World Sound Festival” festival will be translated as “Jeonju International Traditional Music Festival”, and the “Traditional Time Zone Festival” festival will be translated as “Punky Traditional Timezone Festival”.

2. Consideration of characteristics: It is important to highlight the characteristics of the experience in translation. For example, the “Kochang Form Songzheng” Festival will be translated as “Gochang Moyang Fortress Festival” to convey the characteristics and back element of “Kochang”.

3. Use of appropriate instructions: When translating names containing natural or artificial place names, it is recommended to follow the appropriate translation instructions. For example, the “Songpanak

Journey” festival can be translated as “Seongpanak Parasitic Cone Trail”.

4. Revealing uniqueness: In Korean, a language known to foreigners, the Roman letter is also used to emphasize uniqueness. For example, “Gwangju Kimchi Festival” would be translated as “Gwangju Kimchi Festival”.

5. Application of rules for the designation of cultural heritage: if the name of the festival or performance contains cultural values, the corresponding rules for designation of cultural heritage are used. For example, “Gangneung Danoe” would be translated as “Gangneung Danoe Festival”.

These principles and examples will help ensure acceptable translation of tourism terms, taking into account the context of the experience and the characteristics of the experience. The article presented the principles for standardizing the translation of tourist cultural terms in English, including names of travel destinations, lifestyle information and experiences. This made it possible to develop uniform recommendations for translation into English.

Conclusion: The development of guidelines for standardizing the translation of tourism terminology into English is crucial for promoting effective communication in the tourism industry. Collaborating with cultural property experts, reviewing drafts by native English speakers, and developing a system for studying theories of translation of cultural property are necessary steps to ensure accurate and adequate translation. Hiring competent translators and continuously improving their skills will enhance the process of translating cultural terms, leading to a better understanding of cultural information in English.

References:

[1] – 최희섭 「문화재청 홈페이지의 국보 명칭 영문 번역 고찰」 번역학연구 11-1, 2010. – [271-291]. (Choi Hee Seop, “Review of the English Translation of the Name of National Treasures on the Website of the Cultural Heritage Administration,” Translation Research 11-1, 2010 – [271-291]).



ILMIY-OMMABOP MATNLAR TARJIMASINING O'ZIGA XOSLIKLARI

*Muzaffar TADJIBAYEV, NamDU o'qituvchisi, Namangan, O'zbekiston
Tel: +998913506604; Email: abdujaffor16@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy-ommabop matn, uning turlari, ilmiy-ommabop matnlar tarjimasining o'ziga xosliklari, ularda uchraydigan ma'lumotlarni taqdim etish uchun foydalaniladigan vositalar, bu vositalarni tarjima tilida ifodalash xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ilmiy-ommabop matnlar, tarjima, terminlar, funksional uslublar, kognitiv ma'lumotlar, maqola, ma'ruza, stilistik figuralar.

Аннотация. В данной статье речь идет о научно-популярном тексте, его видах, особенностях перевода научно-популярных текстов, средствах, используемых для подачи содержащейся в них информации, выражении этих средств на переведенный язык.

Ключевые слова: научно-популярные тексты, перевод, термины, функциональные стили, познавательная информация, статья, лекция, стилистические фигуры.

Abstract. This article deals with popular science text, its types, features of the translation of popular science texts, the means used to present the information they contain, and the expression of these means into the translated language.

Key words: pop-science texts, translation, terms, functional styles, cognitive information, article, lecture, stylistic figures.

Hozirgi kunda yurtimiz kitob do'konlari peshtaxtlarini kuzatadigan bo'lsak nashr etilayotgan badiiy tarjima kitoblarning salmoqli qismi o'tmishda tarjima qilingani va qayta nashr etilayotgani, aksincha ilmiy-ommabop nashrlar ruknidagi kitoblarning deyarli hammasi yangi tarjima qilingan asarlar ekaniga guvoh bo'lish mumkin. Buning sababini ilmiy uslub turkumiga kiruvchi nashrlarning, shu jumladan ilmiy-ommabop asarlarning ma'nau tezroq eskirishiga bog'lash ham mumkin. Lekin masalaning asl sababi uzoq vaqt asosiy pragmatik vazifasi jamiyatning barcha qatlamlari orasida ilm-fan targ'iboti bo'lgan ilmiy-ommabop matnlarning tarjimasiga bo'lgan sust e'tibordir! Shu holatning o'ziyoq jamiyatdagi ilmiy-ommabop matnlar tarjimasiga va ular ilmiy o'rganishga bo'lgan katta zaruratni ko'rsatib beradi.

An'anaviy amaliy stilistikada ilmiy-ommabop uslub ilmiy uslubning taguslubini hisoblanadi. Ammo ilmiy uslubning subkategoriyalari soni va o'ziga xos jihatlari bir biridan juda farq qiladi. Masalan, ilmiy uslub doirasida M. N. Kojina uchta asosiy

kichik uslubni ajratib ko'rsatadi: haqiqiy-ilmiy, ilmiy-o'quv va ilmiy-ommabop [1]. D.Ye.Rozental esa ularni ilmiy-ommabop, ilmiy ish uslubi, ilmiy publitsistik, ilmiy-texnikaviy, ilmiy-o'quv kabi taguslublarga bo'ladi [2].

L. K. Graudina muharrirligida oliy o'quv yurtlari uchun nashr etilgan "Rus tili nutq madaniyati" darsligida ilmiy uslubning haqiqiy ilmiy, ilmiy-o'quv, ilmiy-informativ, ilmiy-ommabop, ilmiy-ma'lumotnoma kabi turlarini beradi [3]. Ko'p jihatdan, bu taguslublarni ajratish mezonlarining noaniqligi bilan bog'liq. Ilmiy-ommabop matnning stilistik maqomi hozirgacha tilshunoslikda ilmiy munozaralar mavzusi bo'lib qolayotgani bejiz emas. Ba'zi olimlar bu matnlarni ilmiy-ommabop uslublar deb hisoblashsa, boshqalari nutqning bu turini mustaqil amaliy uslub deb hisoblashadi. Shu bilan birga, ilmiy-ommabop taguslubni ajratib ko'rsatishning asosiy sababi an'anaviy ravishda ilmiy matnning professional bo'lmagan shaxsga yo'naltirilganligidadir [4].

S. Sultonsaidova ilmiy uslubni ilmiy-texnikaviy, ilmiy-ommabop, ilmiy-o'quv, ilmiy-publitsistik va ilmiy-hujjat taguslublariga bo'ladi [5].

Ilmiy-ommabop matn - fan asoslari, fan, madaniyat va amaliyotdagi nazariy va eksperimental tadqiqotlar bo'yicha materiallarni o'z ichiga olgan, bilimlarni keng afkor ommaga tarqatish va mustaqil o'qib o'rganishgamo'ljallangan nutqning shaklidir.

Ilmiy-ommabop matnlarning maqsadi ilmiy faktlar va ma'lumotlarni, ya'ni, ilmiy bilimlarni keng o'quvchilar doirasi uchun ochiq shaklda, nafaqat ma'lumotni tushunarli taqdim etishni, balki ushbu taqdimotga qandaydir hissiyot va tasvirni berishni ham nazarda tutadi. Uslubning emotsionalligi va obrazlilik matnni jonlantirishga, o'quvchini qiziqtirishga, uning e'tiborini muayyan faktlar va xulosalarga qaratishga yordam beradigan, shuningdek, muallifga o'z fikrini ifoda etishga imkon beradigan turli xil stilistik vositalar orqali o'quvchilarning qiziqishi, diqqat-e'tibori va ishonchini qozonadi va shu munosabatda tushunish mumkinki, ilmiy-ommabop matn ilmiy uslub va badiiy uslub o'rtasida ma'lum bir bo'shliqni egallaydi, chunki kognitiv mazmun, aniqlik, ravshanlik va ilmiy faktlarni tavsiflashning va uni taqdim etishning ilmiy uslubi bilan umumiy bo'lib, badiiy adabiyotdagi hissiylikni, tasvirni, subyektiv baholashni, bayonni birlashtiradi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, obyektiv mazmun subyektiv usullar va ifoda vositalarida berilishi mumkin.

Ilmiy-ommabop matnning asosiy funksiyalaridan biri kommunikativlikdir, shuning uchun muallif matnni o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli tarzda yaratadi [6].

Ilmiy-ommabop matn turlari haqida so'z yuritadigan bolsak, deyarli barcha tadqiqotchilar tomonidan ilmiy-adabiy, ilmiy-badiiy, adabiy-ta'limiy va o'quv-belletristik va boshqa bir nechta asosiy turlarga bo'linadi. V. S. Allayarova, L. N. Kogan va Ye. S. Lixtenshteyn kabi tadqiqotchilar ilmiy-badiiy adabiyotlarga ilmiy-fantastik asarlarni kiritadilar.[7]

Ilmiy-ommabop matnlarni tarjima qilinish o'lchovi har xil bo'lishi mumkin. Turli xildagi ma'lumotlarni ifoda etuvchi vositalarning aralash holda qo'llanishi bu badiiy tasvir vositalarining qarama-qarshiligiga olib kelishi mumkin. Bu vaziyatda estetik axborotni shakllantirishga xizmat qiladigan lingvistik vositalar alohida muammo tug'diradi. Yana bir tez-tez uchraydigan holatlardan biri matnni kengayishiga olib keladigan tavsifiy tarjimadir. Ekzotizmlar, shaxs nomlari va bir nechta o'girish murakkab bo'lgan tarkibiy qismlardan tashqari matndagi barcha asosiy vositalarning to'liq tarjimasiga erishish mumkin.

Ilmiy-ommabop matndagi kognitiv ma'lumotni shakllantirishning lisoniy vositalari bir ma'noli ekvivalentlar, variant mosliklari va sintaktik transformatsiyalar ko'rinishidagi jummalarni tarjima qilishda uchraydi. So'zlashuv leksikasi, emotsional baholovchi leksika, emotsional inversiyalar, frazeologik birliklar va majoziy obrazlarni funksional jihatdan mos keladigan vositalar bilan, asosan, mos muqobillar bilan yoki ba'zan kompensatsiyalash usuli bilan tarjima qilinadi. Epitet, metafora, o'xshatish va troplar ko'proq bu vositalarning o'ziga xosligini saqlash bilan emas, balki ularning matndagi funksional xususiyatlarini yetkazib berish bilan tarjima qilinadi.

Ilmiy-ommabop matn tarjimasining o'ziga xosliklaridan biri xilma-xil funksional uslublar elementlarining aralash holda uchrashi tarjimonlar uchun tarjima strategiyasini tanlash va tarjimada qayta yaratish uslublarini tanlashga qiyinchilik tug'diradi. Xuddi shu o'ziga xoslik ilmiy-ommabop matndagi polisemantik so'zlarning tarjimada berilishida ham ko'rinadi. Ayniqsa, biz o'z ishimiz uchun tadqiqot materiali sifatida olgan ingliz tilidagi ilmiy-ommabop matnlar uchun bu muammo yanada aktuallik kasb etadi. Chunki ingliz tili lug'atidagi

soʻzlarning juda katta qismi polisemantikdir. Bu holatda tarjimondan quyidagi sifatlar talab etiladi:

-Tarjima qilinyapgan leksik birliklarning semantik tuzilishi haqida yetarlicha bilimga ega boʻlish;

-Tarjima lugʻatlari tuzilishini yaxshi tushunish;

-Soʻzni birlamchi, koʻp qoʻllaniladigan muqobiliga yopishib olmaslik;

-Umumiy tarjima malakasining yuqori boʻlishi.

Shu oʻrinda ilmiy-ommabop matnlarning eng muhim aspektlaridan boʻlgan terminlar tarjimasiga doir Jeyms Klerning “Atom odatlar” asarining Sarvinoz Qosimova tarjimasidan bir nechta misollarga eʼtiborimizni qaratsak.

While I slipped into a coma, the hospital sent a priest and a social worker to comfort my parents [8].

Ruscha tarjimada:

После того как меня ввели в состояние комы, больница пригласила священника и социального работника, чтобы успокоить моих родителей [9]. Oʻzbekcha tarjimada: Komaga tushgan paytim shifoxona maʼmuriyati ota-onamga tasalli berish uchun ruhoniyy va ijtimoiyy xodim joʻnatdi [10].

Bu misolda terminning eng ideal holatda, yaʼni ikkala tilga tarjimada ham toʻliq mos ekvivalenti bilan oʻgirilganini koʻrishimiz mumkin. Chunki “koma” (yunoncha “koma” – qattiq, chuqur uyqu holati) [11] tibbiyot termini uchala tilda ham bir xil semantik kuchga ega. Lekin yuqorida aytib oʻtilganidek tarjimada bunday holat koʻp uchramaydi. Yana bir shunga oʻxshash misolga eʼtibor qarataylik:

My parents were no strangers to this hospital. Ten years earlier, they had entered the same building on the ground floor after my sister was diagnosed with leukemia at age three [8].

Ruscha varianti: Родителям уже приходилось бывать в этой больнице. Десятью годами ранее они были в этом здании на первом этаже – тогда моей трехлетней сестре поставили диагноз “лейкемия” [9].

Oʻzbekchada: Shifoxona ota-onamga begona emas edi. Oʻn yilcha avval uch yoshli singlimda oqqon kasalligi aniqlanganda ham ular shu eshikdan kiringandi [10].

Mazkur parchadagi “leykemiya” tibbiyot termini haqida ham yuqoridagi fikrlarni aytish mumkin. Yunoncha leukos – oq + hauma – qon soʻzlaridan tashkil topgan ushbu “leukemia” termini rus tiliga

ingliz tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri transkripsiya yo‘li bilan o‘zlashgan [11]. O‘zbek tilida uning bir necha leykemiya, leykoz, oq qon kasalligi, oqqon va qon raki kabi muqobillari bor. Tarjimon shulardan “oqqon” muqobilidan foydalangan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ilmiy-ommabop matn tarjimasi badiiy tarjima mashaqqatidan hech ham kam emas bo‘lib, undagi o‘ziga xos tuzilish, leksik birliklar, qo‘llangan stilistik figuralar tarjimondan alohida tayyorgarlik, malaka, tajriba va matnni pragmatik ma’nosini his qila olish kabi fazilatlarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1] – Кожина М. Н. Стилистика русского языка. М., 2008. 84 б.
- [2] – Розенталь Д.Э. Справочник по русскому языку, Практическая стилистика. М., 2001. 381 б.
- [3] – Граудина Л.К. Культура русской речи. М., 2001. – 195 б.
- [4] – Воронцова Т.А. Научно-популярный дискурс в современных российских СМИ (проблемы жанра и стиля). 2014. № 6(335). 38-42 б.
- [5] – Ўзбек тили стилистикаси С. Султонсаидова ва бошқ., Т. 2009. 20-б.
- [6] – Гришечкина Г.Ю. Некоторые особенности синтаксиса в научно-популярном тексте. 2009. №3. 103-109 б.
- [7] – James Clear. Atomic habits. AVERY an imprint of Penguin random house LLC. New York. 2018. P. 7-8.
- [8] – Лихтенштейн Е.С., Михайлов А.И. Научно-популярная литература. Редактирование научной, технической литературы и информации. М., 1974. С. 62–67.
- [9] – Клир Джеймс. Атомные привычки. СПб.: Питер. 2020. С. 10.
- [10] – Жеймс Клир. Атом одатлар. Тошкент. NIHOL. 2022. 11-12-б.
- [11] – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат миллий нашриёти. Тошкент. 2-жилд. 392, 494-б.



SUD TARJIMASHUNOSLIGI VA SUD TERMINLARI TANQIDI

*Xusan MINAVAROV, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
doktoranti, Toshkent, O‘zbekiston.*

Tel: +998916259933; Email: Mxusan15@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sud zalini talqin qilish tushunchasi tasvirlangan. Yuridik tarjimonlik - bu turli tillarda so‘zlashuvchilar yuridik yoki paralegal sharoitlarda muloqot qilishlari kerak bo‘lganda amalga oshiriladigan

tarjimonlikning bir tarmog'idir. Har bir huquqiy tizimning o'ziga xos sud tartib-qoidalari, huquqiy tushunchalari va atamalari bor, ba'zan boshqa tillarda ekvivalenti yo'q.

Kalit so'zlar: sud, tarjimashunoslik, huquq, guvoh, hujjat.

Аннотация. В данной статье описывается понятие судебного перевода. Юридический устный перевод — это отрасль устного перевода, которая возникает, когда носителям разных языков необходимо общаться в юридической или параюридической обстановке. Каждая правовая система имеет свои собственные судебные процедуры, правовые понятия и термины, иногда не имеющие эквивалентов на других языках.

Ключевые слова: суд, переводоведение, закон, свидетель, документ.

Annotation. This article describes the concept of courtroom interpreting. Legal interpreting is a branch of interpreting that occurs when speakers of different languages need to communicate in legal or paralegal settings. Each legal system has its own court procedures, legal concepts and terms, sometimes without equivalents in other languages.

Keywords: court, translation, law, witness, document.

Sud tarjimasi (shuningdek, qasamyodli tarjima, rasmiy tarjima, tasdiqlangan tarjima deb ham ataladi) tarjima matnining to'g'ri va to'liqligiga ishonch hosil qiluvchi sud tomonidan tayinlangan tarjimon tomonidan amalga oshiriladigan tarjimadir.

Sud tarjimalari ko'pincha noto'g'ri "notarial tarjimalar" deb ataladi. Biroq, bu tavsif noto'g'ri va noto'g'ri. Notarial tasdiqlash - vidimatsiya (hujjatning ko'chirma/nusxasi uning asliga so'zma-so'z mos kelishini tasdiqlash) va qonuniylashtirish (imzoning haqiqiylikini tasdiqlash) kabi jarayonlar turlarining tavsifi.

Matni chet tiliga (yoki chet tilidan chex tiliga) o'tkazishning bunday turi ro'yxatga olish idorasi hujjatlari, rasmiy hujjatlar, tijorat shartnomalari, diplomlar va boshqalarni tarjima qilishda qo'llaniladi. Muayyan misol tug'ilganlik haqidagi sud tarjimasi bo'lishi mumkin. guvohnoma, Jinoyat yoki tijorat reestridan ko'chirmaning sud tarjimasi, universitet diplomi, nikoh guvohnomasi yoki o'lim to'g'risidagi guvohnoma.

Sud tomonidan tasdiqlangan tarjima har doim hujjatning asl nusxasini, tarjima qilingan matni va tarjimonning bandi deb ataladigan narsani o'z ichiga oladi. Shunday qilib, yaratilgan tarjima va tarjimon bandi bilan birlashtirilgan hujjatning asl nusxasi jismoniy shaklda bo'lishi kerak. Hujjatning asl nusxasiga zarar yetkazishni istamasangiz, sizda notarial tasdiqlangan transkript bo'lishi kerak.

Yuqorida qayd etilgan uchta qism uch rangli ip bilan bog'langan va nihoyat, butun tarjimaga sud tarjimonining muhri qo'shilgan.

Tarjimonlik har qanday sharoitda ham murakkab mahoratdir, lekin bu ayniqsa sud-tibbiyot sharoitida qiyin. Huquqiy kontekstda tarjima qilish ikki tilning so'zma-so'z mos kelishidan ko'ra ko'proq narsani talab qiladi. Yaxshi tarjimalar yozuvchining mo'ljallangan ma'nosi, tarjimon tomonidan yaratilgan yangi matn va o'quvchi tomonidan tarjima qilingan matnga berilgan ma'no bilan cheklanadi.

Sud va akademik olimlar tarjima va tarjima nazariyasi va amaliyotiga tobora ko'proq e'tibor berishmoqda, buni quyidagi tadqiqotlar tasdiqlaydi:

1. Suddan oldingi tarjimon Hale, 1997; Berk-Seligson, 2000 yil
2. Sud zalining talqini: Berk-Seligson, 1990; Gonsales va boshqalar, 1991; Laster va Teylor, 1994; Robinson, 1994 yil; Kerroll, 1995 yil; Eads, 1995 yil; Edwards, 1995 yil; Morris, 1995; Palma, 1995; Kolin va Morris, 1996; Gayba, 1998 yil; Lyuis, 1998 yil; Vadensyo, 1998 yil; Kuk, Eads va Xeyl, 1999; Leyn va boshqalar, 1999; Moeketsi, 1999; Uolsh, 1999; Rassell, 2000 yil
3. Madaniy va dialekt farqlari bilan talqin: Hale, 1997; Mildren, 1999; Uolsh, 1999 yil
4. Sharhlangan guvohlikda so'roq qilish: Berk-Seligson, 1999; Xeyl, 1999 yil; Rigni, 1999 yil
5. Sharhning yo'qligi: Gibbons, 1996; Lyuis, 1998 yil
6. Tarjimonning sud zalidagi roli: Morris, 1999 yil
7. Tarjimon ta'limi: Benmaman, 1999 y
8. Tarjima: Morris, 1995; Vu, 1995; Leyn va boshqalar, 1999

Tarjimonlik o'ta murakkab faoliyat bo'lib, asos sifatida turli janrlar va registrlarda kamida ikki tilda ona yoki ona o'xshash malaka darajasini talab qiladi. Bu o'z-o'zidan kamdan-kam uchraydigan qobiliyat bo'lib, uni qadrlash kerak, chunki odatda faqat rasmiy ikki tilli ta'lim olgan va umri davomida kamida ikki xil til jamiyatida yashaganlarga bunday yuqori darajadagi ikki tillilikka ega bo'lishlari mumkin. Juda kam sonli kasblar o'z sohalarida o'qitish uchun bunday talabchan shartni talab qiladi.

Tarjimonlarni talab qiladigan barcha til birikmalarida malakali ikki tillilar fondi, shubhasiz, juda cheklangan. Aynan mana shu faktning o'zi bunday odamlarga yuqori ixtisoslashgan tarjimon sifatida faoliyat olib borishlari uchun zarur rag'batlar bilan ta'minlanishini juda muhim qiladi. Bunday imtiyozsiz ular kasbni tark etishlari

mumkin. Boshqa tomondan, tarjimon sifatida faoliyat yuritadigan, ammo asosiy lingvistik qobiliyatga ega bo'lmagan odamlarning misollari juda ko'p. Bu odamlar, albatta, o'qitilgan, sertifikatlangan yoki hatto xizmatlari uchun haq to'lash shart emas. Agar ular to'g'ri talqin qilish niyatida bo'lsalar ham, ularning asosiy ko'nikmalarining etishmasligi bunga yo'l qo'ymaydi. Masalan, Ahmad [1, 1061.] tarjimon orqali olingan, grammatik xatolar, asosiy so'z boyligi va juda qisqa jumlar bilan to'lib-toshgan, so'zlovchining o'qimagan odamdek taassurot qoldirishi mumkin bo'lgan affi davitni sharhlaydi. universitet akademiki. Berk-Seligson [2, 212.] Qo'shma Shtatlardagi politsiya xodimlariga misollar keltiradi, ular ispan tilini yetarli darajada bilishlariga qaramay, ispan tilida savollar berishni talab qiladilar va bu gumondorlarning tushunishini juda qiyinlashtiradi.

O'qitilmagan tarjimonlar odatda shaxsiy sezgiga asoslanadilar. Rasmiy treninglar jarayonda tarjimonlarga yo'l-yo'riq ko'rsatish va xabardor qilish uchun nazariyalarni taqdim etish orqali ushbu tanlovlarni tizimlashtirishga harakat qiladi. Diskurs pragmatik nuqtai nazardan, tarjimonning maqsadi manbadan maqsad tilga shunday talqin qilishdan iboratki, maqsad tildagi tinglovchilar xabarni manba tilidagi tinglovchilar kabi tushunadi va unga munosabat bildiradi; bu "pragmatik ekvivalentlik" deb atalgan. [3, 155.] Nutq akti nazariyasi doirasida tarjimon jarayonini taxminan quyidagicha tushuntirish mumkin: manba nutqini tinglayotganda, tarjimon uni lokatsion akti (aloqa qilingan so'zlar), tilga oid akt (aloqa harakati) nuqtai nazaridan tahlil qiladi. bu so'zlar bilan nima bajariladi) va perlokatsion harakat (ular orqali erishiladi). Boshqacha qilib aytganda, tarjimon so'zning kommunikativ funksiyasini va tinglovchilarga qanday ta'sir qilishini to'liq tushunishi kerak. Nutqni bunday tushunish ko'p jihatdan nutq hodisasining o'ziga, uning ishtirokchilariga va ushbu ishtirokchilarning bilimlariga bog'liq bo'ladi. To'g'ri talqin qilish uchun tarjimon ikki til va madaniyat o'rtasida mavjud bo'lgan tafovutni bartaraf etishi va shu bilan birga o'z maqsadiga erishishga intilishi kerak. Bu ko'pincha lokatsiya akti hisobiga amalga oshiriladi [4,35].

Sud tarjimoni bo'yicha empirik tadqiqotlar sud tarjimonining kontseptualizatsiyasi haqiqatdan ko'ra ko'proq afsona ekanligini isbotladi. Turli darajadagi Amerika sudlarining etnografik va ma'lumotlarga asoslangan tadqiqotida Berk-Seligson [5, 215.] tarjimonlar advokatlar va guvohlar bilan suhbatni to'xtatib, ularning so'zlarining ma'nosini tushuntirish, yon izohlarni hisobga olish orqali

faol rol o'ynashini aniqladi. guvohlar va sudlanuvchilar, shuningdek, guvoh yoki sudlanuvchini so'zga chiqishga undash yoki boshqa yo'l bilan ularning ovozini o'chirish; Shunday qilib, ular o'zlariga e'tibor qaratdilar va o'zlarini yuqori darajada ko'rishdi.

Avstraliyaning Yangi Janubiy Uelsdagi Mahalliy sud majlislarida tarjimonning uzilishlari haqidagi tadqiqotida Xeyl [6, 25.] ham tarjimonning uzilishlari tarjimonning o'z ovozini keltirib chiqarishi va tarjimonni suhbatdoshning og'zidan ko'ra faol ishtirokchiga aylantirishini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, tarjimonning uzilishlari advokat tomonidan kutilmagan bo'lganligi sababli, ular so'roq qilish strategiyalari yoki so'roq chizig'iga xalaqit berishi, advokatning guvohi ustidan ba'zi vakolatlari va nazoratini olib qo'yishi mumkin.

Pollabauer [7,145.] Avstriyaning Grats shahridagi boshpana berish bo'yicha Federal idorasida boshpana berish bo'yicha tinglovlarni o'rganishda tarjimonlar tinglov natijalari uchun zarur deb hisoblagan ma'lumotlarni olish tashabbusi bilan tinglovlarda faol rol o'ynaganliklarini aniqladilar. ular ahamiyatsiz deb hisoblagan ma'lumotlarni yig'ish. Boshqa faoliyatlar tergov xodimlarining roziligini so'ramasdan boshpana izlovchilardan tushuntirishlar olish va shu bilan ofitserlarning funktsiyalarini o'z zimmalariga olishdan iborat edi. Ushbu tadqiqotlarning barchasi tarjimonlar qonuniy talqin qilingan uchrashuv paytidagi nutq yoki boshqa jamoat sharoitlarida bo'lsin, yordam berishda ishtirokchi rolini o'ynashini ko'rsatadi.

Aytish mumkinki, konduit modelida tarjimon talqin qilinadigan o'zaro ta'sirning tegishli ishtirokchisi emas, balki shaffof ishtirokchi hisoblanadi. Goffmanning "nutqning sinxron tarjimasini" [8, 146.] misolida ma'ruzachining boshqa birovning nutqini jonlantirishiga iqtibos keltirishi bahsli, chunki bu tarjimon uchun afsonaviy o'tkazgich modelini tasdiqlash bilan barobardir. tarjimonlik - bu mexanik jarayon bo'lib, unda xabarni bir tildan ikkinchi tilga buzilmagan holda, tarjimon nutqning yangi versiyasini yaratishda shaxsiy bilim, kuch va mulohazalarni kiritmasdan o'tkazish mumkin. Xabarning maqsadli til versiyasini ishlab chiqarishda, tarjimon, Vadensjö tomonidan taklif qilinganidek, asosiy bo'lmasa ham, albatta muallifga aylanadi. Ba'zida tarjimon translyatsiya yoki tarjima qilishning eng qat'iy ma'nosidan tashqariga chiqadi, lekin koordinator rolini o'z zimmasiga oladi va suhbatdoshlar o'rtasidagi nutqni

muvofiglashtirish jarayonida o‘z nutqini yaratadi va shu bilan ham asosiy ma’noga ega bo‘ladi. [9,48.]

Vadensjö Goffmanning oluvchining analitik farqi o‘zaro ta’sir ishtirokchisi qabul qiladigan yoki unga yuklangan turli xil tinglovchi rollarini hisobga olmasligini taklif qiladi. Goffmanning ishlab chiqarish formatini o‘z ishtiroki doirasida to‘ldirish uchun Vadensjö uchta tinglovchi rolini aniqlaydigan qabul formatini taklif qiladi: reportyor, rekapitulator va javob beruvchi.[10,58,] U muxbir sifatida tinglash va boshqa ma’ruzachi tomonidan aytilgan so‘zlarni takrorlash uchun eslab qolishni taklif qiladi. Shu bilan bir qatorda, rekapitulator sifatida tinglash va oldingi ma’ruzachi so‘zni egallab turganda aytganlarini takrorlash mumkin; Nihoyat, javob beruvchi sifatida tinglagan kishi o‘zining mazmunini yoki orqaga yo‘naltirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qiluvchi kabi qarash orqali tanishtiradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, sud jarayonida ishtirok etayotgan tarjimonning vazifasi hamda tarjimashunoslik mahorati yuksak darajada bo‘lishi uchun sud terminlarining kelib chiqishi tarixidan hozirgi kunda paydo bo‘layotgan sud va yuridik sohaga oid terminlar semantik hamda evutsion jarayonini kuzatib borishi va turli xil tillardagi tarjima ishlarini o‘rganib borishi talab etiladi. Tegishli tayyorgarlikdan o‘tgan tarjimonlar nafaqat lingvistik, madaniy va tarjimonlik masalalari bo‘yicha, balki sud zalidagi nutq amaliyoti, muhit va uning ishtirokchilari talablari bo‘yicha ham o‘qitiladi. Xuddi shunday, yuridik mutaxassislar ham tarjimonlarning adekvat ishlashi uchun qanday shart-sharoitlar va imkoniyatlarga muhtojligi haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari kerak, bunda barcha ishtirokchilar o‘zaro munosabatlarning muvaffaqiyati uchun javobgarlikni o‘z zimmalariga olishlari kerak. Oxir oqibat, yuridik mutaxassislar tarjimonlar bilan birgalikda ishlashlari va ularni "oddiy" tarjima mashinalari emas, balki ekspert ishtirokchilari sifatida tan olishlari kerak. Sud tarjimonlari ustidan talab ko‘tarilgandagina sifatli xizmatlar kafolatlanadi va adolat qaror topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] – Ahmad, M.I. (2007) ‘Interpreting communities: Lawyering across language difference’, *UCLA Law*

[2] – Berk-Seligson, S. (2000) ‘Interpreting for the police: Issues in pre-trial phases of the judicial process’, *Forensic Linguistics*, 7 : 212 – 237.

[3] – House, J. (1977) *A Model of Translation Quality Assessment*, Tübingen: Gunter Narr Verlag.

[4] – Austin, J. (1962) *How to Do Things with Words*, Oxford: Oxford University Press.

[5] – Berk- Seligson, S. (1990/ 2002) *The Bilingual Courtroom. Court Interpreters in the Judicial Process*, Chicago: The University of Chicago Press.

[6] – Hale, S. (2001) ‘How are courtroom questions interpreted? An analysis of Spanish interpreters’ practices’, in I. Mason (ed.), *Triadic Exchanges. Studies in Dialogue Interpreting*, Manchester: St. Jerome, 21-50.

[7] – Pölabauer, S. (2004) ‘Interpreting in asylum hearings: Issues of role, responsibility and power’, *Interpreting*, 6: 143-180.

[8] – Goffman, E. (1981). *Forms of talk*. Oxford, UK: Blackwell.

[9] – Wadensjö, C. (1998). *Interpreting as interaction*. London, UK: Longman.

[10] – Wadensjö, C. (1998). *Interpreting as interaction*. London, UK: Longman.



XITOIY TILIDA SUD-HUQUQ TIZIMI TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA O‘ZIGA XOSLIKLARI

*Iroda SAFAROVA, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch
doktoranti, Toshkent, O‘zbekiston*

Tel.: +998935975111; Email: iroda.safarova.24@mail.ru

Annotatsiya. Hozirgi kunda tarjimashunoslikda tarjima sohasi, uning nazariy masalalari, fanning taraqqiyoti bo‘yicha sanoqli tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, xitoy tilidan o‘zbek tiliga tarjima jarayonida sud-huquq tizimi terminologiyasi tarjima qilish jihatlarini tadqiq etish tarjimashunoslik barobarida tilshunoslikning ham dolzarb masalalaridan biri sifatida maydonga chiqadi.

Kalit so‘zlar: sud-huquq tizimi, terminlogiya, jinoyat, qonun, prokuratura organlari, sud ishlari.

Аннотация. В настоящее время в переводоведении проводятся многочисленные исследования в области перевода, его теоретических вопросов, развития науки. В частности, в процессе перевода с китайского на узбекский язык изучение аспектов перевода терминологии правовой системы является одним из наиболее актуальных вопросов языкознания, а также переводоведения.

Ключевые слова: судебная система, терминология, преступление, закон, прокуратура, судебные дела.

Abstract. Currently, in translation studies, numerous studies are being carried out in the field of translation, its theoretical issues, and the development of science. In particular, in the process of translation from Chinese into Uzbek,

the study of aspects of translation of the terminology of the legal system is one of the most pressing issues in linguistics, as well as translation studies.

Key words: judicial system, terminology, crime, law, prosecutor's office, court cases.

Til va huquq bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan ikki ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Kishilik jamiyatini huquq normalarisiz tasavvur etib bo‘lmasligi barchamizga ayondir. Huquq normalari jamiyat hayotining turli jabhalarini tartibga solishga qaratilgan majmui. Huquq o‘z normalarini faqatgina til vositasi orqaligina ifoda etadi hamda ularni jamiyatga yetkazadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, til huquq va jamiyat o‘rtasida o‘zaro aloqani ta‘minlab beruvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Qadimgi Xitoyga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘rta asrlarda Xitoyda sud organlarida, ham sud funksiyalarini bajaruvchi ma‘muriy organlarda ko‘rib hal qilingan. Min sulolasi davrida sud – huquq tizimida aytarli darajada o‘zgarishlar yuz bergan. Sudning eng yuqori pog‘onasida imperatorning o‘zi bo‘lsa, eng quyi pog‘onasida esa qishloqning saylab qo‘yiladigan oqsoqoli turgan. Aksariyat sud ishlari uyezd boshlig‘i tomonidan uyezd boshqarmalarida ko‘rib chiqilgan. Ish bo‘yicha dalillar yetarli darajada bo‘lmasa, ish qaytadan ko‘rib chiqilgan yoki qoldirilgan. Og‘ir turdagi jinoyatlar asosan odam o‘ldirish, kata miqdordagi o‘g‘rilik, poraxo‘rlik singari jinoyatlar tegishli viloyat yoki provinsiyalardagi maxsus hukumat – sud organlariga kelib tushgan. Xususan, ma‘muriy ishlar boshqarmasi ma‘muriy ishlarning to‘g‘ri ijro etilishi nazoratini amalga oshirganlar. Sud ishlarini ko‘rish boshqarmasida aynan aholining boshqa toifalariga oid ishlar ko‘rib hal qilingan. Ushbu sud asosan ko‘plab sud ishlari uchun yuqori bosqich hisoblangan. Min sulolasi davrida Vazilar mahkamasi, Markaziy taftish – tergov jinoiy sud poytaxtning shu singari sud – tergov organlari hisoblangan. Markaziy taftish – tergov jinoiy sudda asosan o‘ta og‘ir jinoyat ishlari ko‘rib chiqilgan va tegishli jazolar tayinlangan. Biroq, bu yerda qaror va farmoyishlar faqatgina imperator tomonidan chiqarilgan. O‘limga mahkum qilish to‘g‘risidagi hukmlarning barchasi imperator tomonidan nazoratga olingan hamda amnistiya e‘lon qilish va jazoni yumshatish kabi chora – tadbirlarni chiqarish huquqiga ham faqatgina imperator ega bo‘lgan.

Sun imperiyasi davrida markaziy hokimyatning kuchayishi munosbati bilan imperatorning qonun yoki farmon berish vakolati qaytadan faollashdi. 960-963 yillarga kelib, “Jinoyat qonunlarining

tuzatilgan va qayta ko‘rib chiqilgan to‘plami” ishlab chiqildi. U Tan kodeksidagi qonunlar bilan o‘zaro bog‘liq ekanligi ma‘lumdir.

Ma‘lumot o‘rnida aytib o‘tish joizki, Xitoy tarixida sud hokimiyati ma‘muriy hokimiyatdan ajralmagan. Asosiy sud ishlari esa viloyatlarning ma‘muriy boshliqlari – “prefektlar” tomonidan ko‘rib chiqilgan. Prefekt to‘laqonli sud hokimiyatiga tegishli vakolatlarni barchasiga ega hisoblangan. Bundan tashqari, prefektlarning sud faoliyatini hukumatning taniqli amaldorlaridan biri “Buyuk ma‘mur” deb nomlangan amaldor nazorat qilgan. Unga esa har yilning yakunida barcha viloyat amaldorlarini hisobot yetkazib turishgan [1, 278 – 296].

Hozirgi davrga kelib, qonunchilikda qator o‘zgarishlar yuz berdi, bu esa o‘z navbatida yuridik terminologiya sohasi rivojiga ham o‘z hissasini qo‘shdi. Yuridik terminologiyani o‘rganishga, shu mavzuda tadqiqot izlanishlarini olib borishga qiziqish tobora ortmoqda. Huquqiy aktlarda qo‘llanilgan terminlarning majmui yuridik terminologiyani tashkil etadi. L.M.Boykoning ta’kidlashicha, “yuridik terminologiya qonunchilikda qo‘llaniladigan tushunchalar tizimini ifodalashga xizmat qiluvchi maxsus terminologiyani o‘zida mujassamlashtiradi” [2, 14].

Shuningdek, qonun matnida aniqlikni ta’minlovchi eng muhim vosita aynan terminlar hisoblanadi. Bu haqida huquqshunos B.M.Kogan shunday ta’rif beradi: “Qonun matnning faqat terminlardangina tashkil topishi – eng yuksak orquzdir. Bunga huquq doimo intiladi, biroq huquqshunoslik fani va maqsadning murakkabligidan bu yuksak orzuga erishib bo‘lmaydi” [3, 79].

Sud terminlarini tasniflash yuridik axborotni tartibga solish uchun kerak, bundan tashqari, yuridik terminlarning ilmiy jihatdan qanchalik puxta o‘rganganligi huquqiy sohaning rivojlanishiga, qonunlarning aniq ishlab chiqilishiga asos bo‘ladi. Qonun matnlarida qo‘llanuvchi terminlarni tasniflash masalasi olimlar o‘rtasida turli qarashlar va munozaralar mavjuddir. L.M.Boyko yuridik terminlarni quyidagicha tasniflaydi:

1. *Umumiste’modagi terminlar.* Bunday terminlar qonunchilik terminologiyasining asosiy qismini tashkil etib, oddiy so‘zlashuv nutqidan tortib ilmiy adabiyotlarga keng qo‘llaniladigan terminlar hisoblanadi. Masalan, jabrlanuvchi (受害者 Shòuhài zhě), guvoh (证人 zhèngrén), shikoyat (投诉 tóusù) kabilar misol bo‘ladi.

2. *Maxsus terminlar.* Ushbu terminlar faqat qonun doirasida qoʻllanilib, maxsus yuridik tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi. Maxsus yuridik terminlar soni esa unchalik koʻp emas, misol tariqasida quyidagilarni keltirib oʻtamiz: Kontrabanda (走私 Zōusī), qamoqxona (Rù yù 入獄) va boshqalar;

3. *Texnik terminlar.* Bu terminlar asosan fan, sanʼat, texnika kabi turli sohalardan olinadi.

Umuman olganda, istalgan qonunchilikdagi yuridik termini lugʻatga kiritish uchun leksikograflar qanday mezonga asoslanadilar? Muayyam soʻzning yuridik matnda qoʻllanilishining oʻzi uni yuridik terminlar qatoriga qoʻshish uchun yetarli hisoblanmaydi. J.Kornyunning fikricha, eng kami bitta yuridik maʼnoga ega boʻlgan soʻzlar yuridik termin deb hisoblanadi. Bundan xulosa qilib, soʻzlarni yuridik terminlar lugʻatiga kiritishning asosiy mezoni bu ularning semantikasidir deb aytish mumkin.

Bugunga qadar koʻplab tillar sud terminologiyasining turli jabhalarida izlanishlar orqali qator ilmiy ishlar va risolalar vujudga keldi. Taniqli fransuz tilshunosi J.Munyen oʻz tadqiqot ishida lingvistik fanlar bilan yuridik fanlar oʻrtasidagi munosabatlarning nazariy tomonlarini qisman oʻrganib chiqadi va lingvistik vositalar yuridik normalarning shakllanishida yordamchi unsur sifatida xizmat qiladi, degan fikrni ilgari suradi [4, 45].

Rossiya olimlari tomonidan ham qonunchilik ijodkorligi va yuridik terminologiya sohasida qator ishlar qilingan. V.M.Savitskiy [5, 278], D.A.Kerimov [6, 345], N.A.Vlasenko [7, 180], A.S.Pigolkin [8, 106] kabilarning ham ishlarini keltirib oʻtish lozim.

Bundan tashqari, V.T.Baltachev oʻz nomzodlik ishida ingliz tilidagi suda doir terminlarni diaxron aspektda oʻrgangan tilshunos hisoblanadi [9, 34]. T.N.Balixina esa oʻz ilmiy ishlari asosida su tizimida qoʻllaniluvchi birikma shaklidagi terminlarni lisoniy tahlilga eʼtibor qaratgan.

Oʻzbek tili sud terminologiyasida tadqiqot ishlarini olib borgan birinchi izlanishlar 1955 yilda yuridik fanlari nomzodi F.S.Bakirov tomonidan amalga oshirilgan. 1985 yilga kelib M.Qosimovning “Структурно – системные особенности юридической терминологии узбекского языка” mavzusidagi nomzodlik ishi himoya qilindi. Ishning dastlabki bobida yuridik terminologiyaning shakllanish manbalari va uning leksik – grammatik tarkibiga alohida eʼtibor qaratilgan. Muallif

o‘zi tahlil qilgan manbalarga asoslanib, o‘zbek tili yuridik terminologiyasining shakllanishida avvalo tilning ichki resurslari, rus tilidan so‘zlarni bevosita o‘zlashtirish va kalkalash usullari asosiy manba sifatida olingan, ishning ikkinchi bobi yuridik terminlarning yasalishiga asoslangan bo‘lib, muallifning fikriga ko‘ra, o‘zbek tili yuridik terminlari asosan semantik, morfologik, va sintaktik usullar vositasida hosil bo‘ladi. Tadqiqotning uchinchi bobida esa yuridik terminlardan foydalanishda kelib chiqadigan muamolarni ko‘rsatadi va terminlarni standartlashtirish bo‘yicha bir qator yo‘nalishlarni ko‘rsatadi.

XVIII asrning oxirlaridan boshlab Xitoy hududida g‘arb davlatlarining bosqinchilik yurishlari boshlandi. Tashqi bosimlarning kuchayishi sabab Xitoy XIX asr oxirlarida mamlakat ichki hayotida bir qator islohotlarni amalga oshirdi [10, 254].

Amaliy tashqi ishlar bo‘yicha Bosh devonxonani qayta ishga tushirish bo‘ldi, ushbu Devonxona negizida Yevropa namunasida Tashqi ishlar vazirligi tashkil topdi, shuningdek, 1905 – yilda Politsiya Vazirligi tashkil qilindi. Keyinchalik ushbu idora Ichki ishlar vazirligi sifatida qayta tashkil qilindi. Shu bilan birgalikda maorif, pochta va aloqa yo‘llari, moliya va armiya kabi qator vazirliklar ham tashkil topdi. Jinoiy ishlar vazirligi o‘rniga esa Huquq vazirligi tashkil qilindi. 1905 – yilda Bosh bojxona boshqarmasi ma‘muriyatidan ajratildi. Xitoyning XIX – XX asrlardagi mutafakkirlaridan Yan Fu (1853 – 1921 yy) fikricha “qonunlar to‘g‘ri ijro etilganda farovon jamiyat qurish mumkin” [11, 95]. Sun Yatsenning (1864 – 1925 yy) uch prinsip ta‘limotida ilgari surilgan “xalq hokimiyati” tamoyilida xitoy tarixida ilk marotaba bugungi jamiyat talablariga javob beradigan, ya‘ni ijri etuvchi; qonun chiqaruvchi; sud; nazorat bilan bog‘liq xalq hokimiyatini boshqarishning besh tamoyili ishlab chiqildi. Uning mazkur besh tamoyil asosida hokimiyatni boshqarish g‘oyasi XXRning hududiy tasarrufida bo‘lgan Tayvan orolidagina amal qilinadi. XXRning amalda bo‘lgan bugungi qonunchiligi uzoq o‘tmish tadrijiy taraqqiyotini bosib o‘tgan. Bosib o‘tilgan bu yo‘l davr nuqtai nazaridan sayqalashib o‘zining bugungi ko‘rinishini olgan deb hisoblanadi.

Xitoy sud tizimini Oliy sud palatasi, oliy pog‘onali sudlar, okrug sudlari va birinchi instansiya sudlari tashkil etadi va ular bilan bir vaqtning o‘zida prokuratura ham ta‘sis etilgan. Shu tariqa Xitoning bugungi davlatchilik hayotida zamonaviy tamoyillarga asoslangan va sud tizimiga o‘tish bilan bog‘liq jarayon boshlandi. XXRning sotsialistik davlat qurilishi huquq tizimi mazmun va mohiyatiga ko‘ra: Xalq sudi va Xalq prokuraturasiga bo‘linadi. Xalq sudi vazifasiga ko‘ra jinoiy va

fuqorolik ishlarini olib borish kiradi. Xalq sudiga: Xalq Oliy sudi, mahalliy xalq sudi va xalq maxsus sudlari hamda harbiy sudlar shular jumlasidandir. Mamlakat Oliy sudi barcha sudlar ustidan nazoratni olib boradi. Mahalliy sudlar quyi va oʻrta bosqich xalq sudlarini oʻz ichiga oladi. Oliy Sud Butunxitoy xalq vakillari va uning doimiy qoʻmitasi oldida hisobot beradi. Oliy sudning vakolatini ijro muddati 5 yil. Bu vazifani 2 muddat (10 yil) boshqarish mumkin. Xalq Oliy sudi provinsiya, avtonom rayonlar, markazga boʻysunuvchi shaharlarda joriy etiladi. Oʻrta bosqich xalq sudlari yirik shaharlarga boʻysunuvchi markaz okruglari, avtonom rayonlar tasarrufida boʻlgan okruglarda tashkil etiladi. Quyi sudlar barcha uyezdlar, shahar, avtonom uyezdlar va shahar rayonlarida amal qiladi [12, 292]. Quyida sud tizimining turlarini terminlar orqali quyida keltiramiz:


Sud turlari 法院种类 (Fǎyuàn zhǒnglèi) xitoy tilidan oʻzbek tiliga shu tarzda tarjima qilinadi va ushbu jadvalda quyidagi Sud turlari terminlarni oʻz ichiga olgan:

法院	Fǎyuàn	Sud
最高人民法院	Zuìgāo rénmin fǎyuàn	Oliy xalq sudi
地方人民法院	Dìfāng rénmin fǎyuàn	Mahalliy xalq sudi
专门人民法院	Zhuānménrénmin fǎyuàn	Maxsus xalq sudi
高级人民法院	Gāojí rénmin fǎyuàn	Yuqori darajadagi mahalliy sud
中级人民法院	Zhōngjí rénmin fǎyuàn	Oʻrta darajadagi maxalliy sud
省(市,县)人民法院	Shěng (shì, xiàn) rénmin fǎyuàn	Viloyat (shahar, uezd) xalq sudi
区人民法院	Qū rénmin fǎyuàn	Tuman xalq sudi
公审	Gōngshěn	Ommaviy sud
上诉	Shàngsù	Kassatsion sud
上诉法院	shàngsù fǎyuàn	Appelyatsiya (shikoyat) sudi

Yuqorida Xitoyda sud tizimining ijtimoiy shakllanish bosqichlari va terminlarning maʼnolarini oʻrganishga ahamiyat qaratilgan. Tadqiqot ishining ushbu bobida ham aynan XXR sud tizimi tarixida boʻlgan va

bugungi Xitoy qonunchiligida faol bo‘lgan terminlar tahliliga tortiladi. Xususan, Xitoy davlat sifatida ko‘p bosqichlarni boshdan kchirgan bo‘lsada, Sud va Qonun chiqaruvchi hokimyatlarida hozir ham tarixda amal qilingan sud terminlaridan keng foydalaniladi. Xitoy sud tizimida 法 (fǎ) ni ana shunday faol terminlar qatoriga kiritsak bo‘ladi.

法 (fǎ) qonun bir bo‘g‘inli so‘z bo‘lib, kelib chiqish tarixiga ko‘ra miloddan avval qadimgi Xitoyda tashkil topgan legizm (qonunlar) maktabi asoschilarining nomi bilan bog‘liq. Xitoy qonunchiligida 法 (fǎ) yuridik termin sifatida tub ma‘nosinin saqlab qola oldi. Xitoy yurisprudensiyasi sohasiga oid terminlari 法 (fǎ) ishtirokida yasaladi. Masalan, 中国法律基础 (Zhōngguó fǎlù jīchǔ) so‘zi xitoy tilidan o‘zbek tiliga “Xitoy qonunchilik asoslari” tarzida tarjima qilinib, 法律 (fǎlù) so‘zi “qonunchilik” ma‘nosida keladi. Quyidagi chizmada tarixan 法 (fǎ) ishtirokida yasaladigan sud tizimiga doir qator terminlarni guvohi bo‘lamiz:



律 (lǜ) “qonun” yuridik sohasiga doir sud termni hisoblanadi, uning etimologik kelib chiqishiga ko‘ra, eramizdan avvalgi V – eramizdan avvalgi IV asrlarga asosan to‘g‘ri keladi. Manbalarda qayd etilishicha, ushbu termining kelib chiqish tarixi Sya sulolasining (eramizdan avvalgi XXI – eramizdan avvalgi VI asr) asoschisi afsonaviy hukmdor Yao nomi bilan bog‘liqdir. Hozirdan ham Xitoy qonunchiligida sud terminlariga oid asosiy matnlarda keladi. Masalan,

bugungi xitoy qonunchiligida 律师(Lùshī) “advokat” termini 律(Lù) komponenti ishtirokida yasaladi.

Qadimgi xitoy tilining bir bo‘g‘inli yozuvlar ham ma‘no anglatgani xitoy tili tarixidan ma‘lumdir. Xolbuki, 法 (fǎ) va 律 (lù) ma‘nodosh so‘zlar sifatida sud – huquq tizimida teng ravishda qo‘llaniladigan terminlar qatorida mavjud. Bu bizning fikrimiz bo‘lsada, 律 (lù) terminning vujudga kelishi va ilmiy tushuncha sifatida 法 (fǎ) terminiga nisbatan ancha qadimiyroq hisoblanadi.

Xitoy tilida 法 fǎ va 律 lù [14, 256] ishtirokida sud-huquqga oid terminlarni yasash eng sermahsul ierogliflardan biri hisoblanadi. 法 fǎ va 律 lù sinonim so‘zlar bo‘lib, 法 fǎ asosan qonunchilikda, 律 lù esa sudning advokatura sohasida keng qo‘llaniladigan bir bog‘unli ierogliflar sirasiga kiraadi. Xitoy qonunchilik tilida 法 fǎ kelib chiqish etimologiyasiga ko‘ra Shan Yan (er.avv 390-338 yy.) ga borib taqaladi degan fikr mavjud. Hozirgi kumda ham 法 fǎ “qonun” ma‘nolarida qo‘llaniladi, bundan tashqari, 法 fǎ bilan 律 lù ma‘nodosh bo‘lib, 法律 fǎlù hozirgi tilda mavjud qonun ma‘nosini yasaydi. Quyida “fǎ” va “lù” yordamida yasaladigan sud terminlarini ko‘rib chiqamiz: 律师 lùshī advokat, 女律师 nǚlùshī, 女 (nǚ) ayol kaliti bo‘lib, “qiz bola” ma‘nosida keladi. Demak, (nǚ)ni keyingi ieroglif “lù” qonun anglatgani holda 女律师 nǚlùshī advokatning (ayol kishi ekanligini anglatib keladi.) 法律家 fǎlùjiā, 女法律家 nǚfǎ lùjiā. Orqa affiks bo‘lib kelayotgan 家 (jiā) ieroglifi 法 (fǎ)ga qo‘shilib “qonunshunos” 法家(fǎjiā) terminini yasab kelmoqda. 家 jia iyeroglifi yuqorida ko‘rib chiqilganidek, ma‘no jihatdan o‘zbek tilida “-shunos” manosiga teng keladi degan xulosaga kelindi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, Sun imperiyasi davrida markaziy hokimiyatning kuchayishi munosbati bilan imperatorning qonun yoki farmon berish vakolati qaytadan faollashdi. 960 – 963 yillarga kelib, “Jinoyat qonunlarining tuzatilgan va qayta ko‘rib chiqilgan to‘plami”

ishlab chiqildi. U Tan kodeksidagi qonunlar bilan o‘zaro bog‘liq ekanligi ma’lumdir.

XXRning sotsialistik davlat qurilishi huquq tizimi mazmun va mohiyatiga ko‘ra: Xalq sudi va Xalq prokuraturasiga bo‘linadi. Xalq sudi vazifasiga ko‘ra jinoiy va fuqorolik ishlarini olib borish kiradi. Xalq sudiga: Xalq Oliy sudi, mahalliy xalq sudi va xalq maxsus sudlari hamda harbiy sudlar shular jumlasidandir. Mamlakat Oliy sudi barcha sudlar ustidan nazoratni olib boradi. Mahalliy sudlar quyi va o‘rta bosqich xalq sudlarini o‘z ichiga oladi. Oliy Sud Butunxitoy xalq vakillari va uning doimiy qo‘mitasi oldida hisobot beradi. Oliy sudning vakolatini ijro muddati 5 yil. Shuningdek, 法 (fǎ) qonun bir bo‘g‘inli so‘z bo‘lib, kelib chiqish tarixiga ko‘ra miloddan avval qadimgi Xitoyda tashkil topgan legizm (qonunlar) maktabi asoschilarining nomi bilan bog‘liqligi, Xitoy qonunchiligida 法 (fǎ) yuridik termin sifatida tub ma’nosinin saqlab qolganligi, Xitoy yurisprudensiyasi sohasiga oid terminlari asosan 法 (fǎ) ishtirokida yasalishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] – Бакиров Ф.С. Некоторые вопросы узбекской юридической терминологии. В кн: Учебные записки Ташкентского юридического института. – Ташкент, 1955.

[2] – Балтачаев В.Т. Номинация и структура терминов – именованных судов в древнеанглийском языке: Автореферат. дис. канд. филол. наук. – Л. 1991.

[3] – Бойко Л.М. Совершенствование законодательной техники в условиях ускорения социально – экономического развития советского общества. Т.: Фан, 1988.

[4] – Василенко Н.А. Язык право. Иркутск Восточно – Сибирское книжное изд-во 1997.

[5] – Касымов М.Х. Структурно-системные особенности юридической терминологии узбекского языка: Автореф. Дис, ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1955.

[6] – 冯志伟. 现代术语学引论. –北京: 商务印书馆出版社, 2011年.

[7] – Книга правителя области Шан /пер. с. кит. Л.С.Переломова. М.: НИЦ Ладомир, 1993.

[8] – Коган В.М. Логико – юридическая структура советского уголовного закона – Алма – Ата, 1966.

[9] – Мунен Ж. Теоритическое проблемы перевода перевод как языковой контакт (Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике) – М., 1978.

[10] – 刘刚. 术语学概论硕士学位论文. –北京, 2008年.

[11] – Энциклопедия нового Китая. «Прогресс» Москва.1989.

[12] – 俄汉-汉俄袖珍词典 编者：童宪刚，刘同英，魏荣华，李晓花，吴坚明，王栋剑，刘建国。——上海：上海译文出版社，2008年。

[13] – 崔璐, 中国法律术语特点及相关问题分析, 硕士学位论文. 2010年.



SINXRON TARJIMADA STRATEGIYALARNING QO‘LLANILISHI

Gulshan RAVSHANOVA, TDSHU magistranti, Toshkent, O‘zbekiston

Tel: +998 960-0623; Email: gulshanravshanova1217@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sinxron tarjimada foydalaniladigan strategiyalar va ularning turlari haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, sinxron tarjima jarayonidagi notiqning ma‘ruzasi, uning barcha o‘ziga xosliklari, tayyorgarlik darajasi va boshqa jihatlarni hisobga olib asliyat tilidan tarjima tiliga to‘laqonli o‘g‘irish jarayonidagi tarjimonlik vazifasini bajarish usullari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: strategiyalar, statik omillar, stolling, kompressiya, dekompressiya, chiziqlilik strategiyasi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются стратегии, используемые при синхронном переводе, и их виды. Речь говорящего в процессе синхронного перевода с учетом всех его особенностей, уровня подготовки и других аспектов, способов выполнения задачи переводчика в процессе полного перевода с языка оригинала на язык перевода раскрываются.

Ключевые слова: стратегии, статические факторы, срыв, сжатие, декомпрессия, стратегия линейности.

Abstract. This article discusses the strategies used in simultaneous interpretation and their types. The speech of the speaker in the process of simultaneous translation is fully translated from the original language to the translation language, taking into account all its peculiarities, the level of preparation and other aspects.

Key words: strategies, static factors, stalling, compression, decompression, linearity strategy.

Sinxron tarjimada strategiya – tarjima vazifalarini amalga oshirish uslubi bo‘lib, bu ma‘ruzachining madaniy va shaxsiy xususiyatlarini, baza darajasini, til ustkategoriyalari va ostkategoriyalarini hisobga olgan holda xabar yuboruvchining kommunikativ maqsadini asliyat tilidan tarjima tiliga adekvat tarzda yetkazib berishdan iborat.

Strategiya tushunchasi ham lisoniy, ham g'ayrilisoniy omillarni o'zida jamlab, bu omillarning har biri tarjimaning ma'lum bir parchasida u yoki bu (yoki bir vaqtda bir necha uslublar orqali amalga oshadi:

- vaqt omiliga bog'liq strategiyalar;
- statik omillar bilan bog'liq strategiyalar.

Vaqt omiliga bog'liq strategiyalar guruhiga quyidagilar kiradi: 1) sinab ko'rish va xatolar strategiyasi; 2) kutish strategiyasi; 3) stolling strategiyasi; 4) chiziqlilik strategiyasi; 5) ehtimoliy bashorat strategiyasi.

Statik omillar bilan bog'liq strategiyalar guruhiga quyidagilar kiradi: 1) belgili tarjima strategiyasi; 2) kompressiya strategiyasi; 3) dekompressiya strategiyasi [1].

Yuqorida keltirilgan strategiyalarni tasniflab chiqadigan bo'lsak, *sinab ko'rish va xatolar strategiyasida* so'zlovchi keng kontekstsiz tarjima qilinishi mushkul bo'lgan tushunchalarni sanab o'tayotganda foydalanadi. Tarjimon bunday vaziyatda muayyan tushunchani matnga yaqin so'zlar bilan o'girishi mumkin. Bunday vaziyatda tarjimonning umumiy bilim darajasi, tarjima bo'layotgan vaziyatni angelayotganligi, mavzu, ma'ruzachi, hamda uning bayon uslubi bilan tanish bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Kutish strategiyasi dunyo tarjima amaliyotida ko'p qo'llaniladi. Kutish strategiyasida bildirilgan fikr, mulohaza ma'nosi mavjud kontekstdan umuman oydin bo'lmasa, unda sinxron tarjimon matnning qolgan qismini, ya'ni ma'noni oydinlashtiruvchi qolgan qo'shimcha qism-komponentlarini ham kutib biroz pauza qiladi. Ushbu strategiyada tarjimonning asosiy vazifasi - to'g'ri qaror qabul qilish uchun ko'proq va kengroq ravishda kontekstga ega bo'lish yoki tanishishdir.

Stolling strategiyasi vaqtdan yutish strategiyasi deb ham nomlanadi. Ushbu strategiyada – tarjima materialini yetkazishni sekinlashtirish yoki o'ta uzayib ketgan pazani to'ldirish uchun hech qanday yangilikni o'zida aks etmagan tematik ma'lumotni takrorlash yo'li bilan vaqtdan yutishga urinishdir.

Ehtimoliy bashorat qilish strategiyasi asliyat tili chiqishida paydo bo'luvchi matnning lingvistik tarkibiy qismlarining tarjimon tomonidan ertaroq aniqlanishidan iborat. Ehtimoliy bashorat strategiyasi tarjima adabiyotlarida asosan fe'l so'nggida turuvchi konstruksiyalar yoki tayanch ot tushunchasi ma'noli guruhning so'nggida joylashgan vaziyatlar uchun qo'llanishi mumkin. Sinxron tarjimon tomonidan asliyatdagi nutqning qabul qilinishi jarayonida uning miyasi muallifning kommunikativ niyatini yakunlashga turli variantlarni ishlab chiqadi [2]. Ushbu strategiya haqida quyidagilarni aytish mumkin:

1. Xabardagi ortiqlikning sababi ikkita bo'lib, ular nutq oqimida ma'lum bir elementlarning qaytarilishi hamda xabarning lingvistik tarkibiy qismlarining o'zaro bir-biriga tobeligidir. Ehtimoliy bashorat qilish strategiyasining ikki – lingvistik va ekstralingvistik bashorat qilish turlari mavjud.

2. Lingvistik bashorat qilishda ko'p xollarda bir qator so'zlarning muvofiqligi ehtimoliyligi shunchalik katta bo'lishi mumkinki, sinxron tarjimon

mulohaza strukturasini yakunlashga deyarli yuz foizli prognoz berishi mumkin. Bunda matnda tayanch birlik, unsurlarning mavjud bo‘lishi shart.

3. Ekstralingvistik bashorat qilish sinxron tarjimonning g‘ayrilisoniy bilimlariga asoslanib, shakliy ko‘rsatkichlarning mavjudligi tarjimon jumlaning davomini oldindan aniqlab olish imkonini beradi [3].

Tarjima nazariyasida *kompRESSiya* deganda qisqaroq, zichroq shakl berish maqsadida dastlabki matnni o‘zgartirish tushuniladi. *KompRESSiya strategiyasining* ikkita bosh omili bor: 1. predmet vaziyati; 2. tillarning har xilligi. Predmet vaziyati deganda matnlarda tasvirlanayotgan predmetlar va ular o‘rtasidagi aloqalarni belgilash tushuniladi.

Chiziqlilik strategiyasi. Sinxron tarjimada asliyat tilidagi murakkab gap tarjima tiliga bir qator sodda gaplar shakliga o‘tkazilishi kabi chiziqlilikni saqlash yoki segmentasiyadan xabar beruvchi shakl BMTning xitoy tili tarjimonlarini tayyorlash uchun tavsiya qilinuvchi asosiy strategiya hisoblanadi. Bunday strategiya yana tarjimada “chiziqlilikni saqlash” strategiyasi deb ham nomlanadi hamda xitoy tilidan ingliz tiliga sinxron tarjimada asos hisoblanadi.

Belgili tarjima usuli biror tildagi belgi (so‘z yoki so‘z birikmalari)dan ikkinchi tildagi belgiga o‘tishni ko‘zlaydi. Belgili tarjima strategiyasi quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

– asliyat tilidagi termin yoki tushunchani albatta tarjima tiliga tarjima qilish kerak. Chunki mazkur termin yoki tushuncha tayanch so‘z hisoblanib, butun diskurs bayoni uning atrofiga quriladi;

– tarjimon keng kontekstga qaramasdan tarjima tilidagi ekvivalentini topishga va sinab ko‘rish va xatolar strategiyasini qo‘llashga qodir emas.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, sinxron tarjimada strategiyalarning qo‘llanilishi tarjimon uchun tarjima jarayonini sifatli va tez amalga oshirishida ko‘mak beradi. Sinxron tarjima, tarjima turlari ichida eng murakkabi bo‘lib, so‘z boyligi va so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish san’ati sinxron tarjimaning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] – Hamidov H. Sinxron tarjima nazariyasi. Toshkent: TDSHI, 2022. – 140 b.

[2] Hamidov H, Ismatullayeva N, Ergasheva S. Sinxron tarjima. Toshkent: TDSHI, 2017. – 240 b.

[3] – Lederer M. La tradaction simultanee. -Paris: Minard Lettres Modernes, 1981.

[4] – Setton. R.A Pragmatic Theory of Simultaneous Interpretation / doctoral dissertation, Ann Arbor, Michigan, 1997.



OG‘ZAKI TARJIMA TURLARI VA ULAR YARATGAN INQIROZLAR

*Munisa ERKINOVA, TDSHU sinxron tarjima mutaxassisligi 1-kurs magistranti,
Toshkent, O‘zbekiston*

Tel: +998948952204; Email: erkinovamunisa283@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda og‘zaki tarjimaning ahamiyati, tarjimonning to‘g‘ri so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llashining ahamiyati, tarjima xatolari katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligi va bu qiyinchiliklarni yengib o‘tish uchun tarjimon nima qilishi va o‘zini qanday tutishi kerakligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: og‘zaki tarjima, tarjimonlik, inqirozlar.

Abstract. This study discusses the importance of interpretation, the importance of the translator's ability to use words in their proper place, how mistakes in translation can lead to big problems, and what a translator should do and behave in such situations.

Key words: interpretation, interpreting, crises.

Аннотация. В этом исследовании обсуждается важность устного перевода, важность умения переводчика использовать слова на своем месте, как ошибки при переводе могут привести к большим проблемам и что переводчику следует делать и вести себя в таких ситуациях.

Ключевые слова: интерпретация, интерпретация, кризисы.

Kirish. Tarjima so‘zi arab tilidan olingan keng ma’noli tushunchadir. Arab lug‘atlarida keng tushuncha va ta’riflarga ega bo‘lgan tarjima so‘zi bir nechta ma’noga ega. Ibn Manzurning “Lisânu’l-arab” nomli lug‘atiga ko‘ra, “tilni tushuntiruvchi so‘zlar” ma’nosida qo‘llanilgan. Tarjima so‘zi juda keng atama bo‘lib, yozma va og‘zaki tarjimani qamrab oladi. Ko‘pgina tillarda xuddi shu so‘z og‘zaki va yozma tarjimaga nisbatan qo‘llaniladi. Biroq, so‘nggi paytlarda, ayniqsa, ijtimoiy tarjimaning tarqalishi bilan bu ikki so‘z orasida farqlanish sezildi. Og‘zaki tarjima kognitiv mazmuni egallashga asoslangan intellektual va ijodiy faoliyatdir. Tegishli kognitiv mazmuni tarjimon o‘zi tanlagan turli usullarda yetkazishga harakat qiladi. Shu nuqtai nazardan, mazmuni to‘liq yetkazish ham zarur.

Og‘zaki tarjima yozma tarjimadan keskin farq qiladi. Darhaqiqat, bu farqni ko‘rsatish uchun og‘zaki tarjimalarni amalga oshiruvchi shaxsga "tarjimon", yozma matnlarni tarjima qilganga esa turk tilida “mütercim” deb ataladi. Lekin o‘zbek tilida har ikkisi uchun ham tarjimon so‘zi ishlatiladi. Ushbu tarjima yozma tarjimadan tinglash,

tushunish, tahlil qilish va xabarni belgilangan vaqt ichida yetkazish kabi ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, og'zaki tarjimonda jummalarni o'zi xohlagancha qurish va kerak bo'lganda ularni qayta qurish uchun ko'p vaqt yo'q. Bundan uning xabarni tezroq yetkazishini kutayotgan tinglovchilar ham bor. Og'zaki tarjimon undan xabarni qabul qilib olgan tinglovchilar bilan shug'ullansa, yozma tarjimon tarjima qilgan asarlarini tekshiradigan kitobxonlari bilan maqtov va tanqidlarni qabul qilayotgan bo'ladi. Bundan tashqari, yozma va og'zaki tarjimonlar o'rtasida boshqa farqlar ham mavjud.

Turli tillar o'rtasida muloqot qilish uchun tarjimon kerak bo'lgan. Bir necha yillar oldin va yaqin vaqtgacha odatda yuqori darajali diplomatlar, siyosatchilar, harbiy amaldorlar va xorijiy tillarni biladigan amaldorlar bilan chegaralangan edi. Dunyodagi o'zgarishlar va xalqaro tashkilotlarning rivojlanishi bilan tarjimoni talqin qilishda mutaxassis tilshunoslarning ishtirokiga bo'lgan ehtiyoj keskin oshdi. Bu soha mutaxassislar tomonidan amalga oshirilmasa, jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi muqarrar edi. Shuning uchun, ushbu maqolada, noto'g'ri tarjima tufayli yuzaga kelgan inqirozlar ham muhokama qilinadi. Adabiyotlarni o'rganishda mamlakatimizda tarjima bo'yicha ba'zi akademik tadqiqotlar olib borilgani, biroq xalqaro kontekstda tarjima yaratayotgan inqirozlarni hal qiluvchi tadqiqotlar mavjud emasligi ko'rinib turibdi. Shu bois ushbu tadqiqot sohaga katta hissa qo'shadi, deb o'ylaymiz.

Og'zaki tarjima turlari. Og'zaki tarjima deganda tarjimon o'z ona tilida eshitgan so'zlarni boshqa chet tilga tarjima qilishi yoki boshqa tildan iboralarni boshqa tilga tarjima qilinishi tushuniladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, u yozma tarjimadan butunlay farq qiladi. Yozma tarjima bo'limlarga bo'lingani kabi, og'zaki tarjima ham turli toifalarda ko'rib chiqiladi. Ushbu toifalarni quyidagi sarlavhalar ostida sanab o'tish mumkin:

1.1. Pichirlab tarjima qilish. Bu ketma-ket tarjimaga o'xshaydi. Biroq, bu turdagi tarjimon naushnik yoki mikrofondan foydalanmaydi. Tarjimon tarjima qilayotgan insonning qulog'iga kerakli so'zlarni sekin va shoshmasdan pichirlab tarjima qiladi. Ushbu turdagi tarjima qiyin deb hisoblanadi, chunki u vokal kordlariga bosim o'tkazadi. Tarjimon tinglovchiga ta'sir o'tkazmaslik uchun past va bosiq ovozda bildirishi kerak. Pichirlab tarjima qilish talqini asosan ikki tomonlama uchrashuvlar va sud zallari kabi sohalarda qo'llaniladi.

1.2. Hamroh tarjimon. Tarjimaning bu turida tarjimon o'zi tarjimonlik qilgan shaxs yoki guruh bilan xoh ish uchrashuvlarida, xoh sayyohlik safarlarida bo'lsin har doim yonida bo'ladi. Bu bosqich boshqa tarjima toifalariga nisbatan biroz qiyin. Chunki tarjimon bir safarda bir qancha muammolarga duch kelishi mumkin. Qolaversa, tarjima mavzusi odatda sayohat oldidan aniqlashtirib olinmaydi. Masalan, elchi ko'chada aylanib, qandaydir materiallar sotib oladi, deb faraz qilaylik. Bunda elchiga sotuvchilar, do'kondagi insonlar, ko'chada yurgan fuqarolardan turli mavzularda ko'plab savollar kelib tushadi. Ehtimol, elchiga berilgan savollarda siyosat, iqtisodiyot va ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarga oid masalalar bo'lishi mumkin. Shuning uchun tarjimon tajribali va uddaburon bo'lib, har qanday vaziyatlarni va boshqaruvdagi javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

1.3. Ketma-ket tarjima qilish. Tarjimaning bu turida so'zlovchi har bir bandni aytib, gapni to'liq tugatgandan so'ng, taxminan 1-5 daqiqa pauza qiladi. Bu tarjimonga aytilgan gaplarni tarjima qilish imkoniyatini beradi. Ketma-ket tarjima kichik miqyosdagi yig'ilishlarda va sudlar kabi joylarda qo'llaniladi. Tarjimaning bu turi xotira va eslatmalar yordamida amalga oshiriladigan tarjimaning yanada rasmiy turi hisoblanadi. Ketma-ket tarjima qilish so'zlovchi va tarjimonni xursand qiladigan uslubdir, chunki u navbat bilan gapirish imkonini beradi. Biroq, tarjimon so'zlovchining so'zlarini to'liq yodda tutishi va ularni to'liq tarjima qilishi kerak. Tarjimon so'zlovchining so'zlarini to'g'ri eslab qolish uchun qisqacha qaydlar olib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

1.4. Sinxron tarjima. Sinxron tarjima - so'zlovchining so'zlarini 1-2 soniyagacha bo'lgan juda kichik vaqt farqi bilan asosiy tilga tarjima qilish jarayonidir. Tarjimon so'zni asosiy tilga tarjima qilgandan so'ng, darhol keyingi jumlaning ham tarjima qilish uchun tinglashni boshlaydi. Aslida, sinxron tarjima tushunchasi mutlaqo ishlatilsa, noto'g'ri. Chunki tarjimon so'zlovchining so'zlarini tushunmasdan tarjima qilishni boshlamaydi. Sinxron tarjimada tarjimon tushuntirish yoki izoh bera olmaydi. U so'zni qanday bo'lsa shunday yetkazishi va hech qanday kamchilik va ortiqchaliksiz tarjima qilishi kerak. U o'z tarjimasida so'zlovchi so'zining umumiy ma'nosini berishi kerak. Shu nuqtai nazardan, sinxron tarjima tarjimaning eng qiyin turi hisoblanadi, chunki u tarjimondan mukammal va qoniqarli darajada

tarjima qilish uchun yuksak aqliy va lingvistik ko'nikmaga ega bo'lishni talab qiladi.

Tarjima xatolari va ular yaratgan inqirozlar. Og'zaki tarjima shubhasiz, qiyin ish, chunki u butunlay inson aqliga tayanadi. Og'zaki tarjimani amalga oshiruvchi tarjimon bir vaqtning o'zida ko'plab mavzular bilan o'zaro aloqada bo'ladi va ko'plab atama va iboralarni tegishli kontekstda ishlatishi kerak. Tezkor tarjimonlarning deyarli barchasi og'zaki tarjima paytida turli xatolarga yo'l qo'ygan. Inson aqli mexanik qurilma bo'lmagani uchun tarjimonlarning tarjimadagi xatolari kelajakda ham davom etadi. Shuning uchun tarjimon xato qilishi mumkin, biroq, aqlli va muvaffaqiyatli tarjimon o'z xatolarini ko'rishi, ularni tuzatishi va vaziyatdan kichik zarar bilan chiqib keta olishi kerak. Ma'lumki, biz ko'pincha xatolarni tuzatish imkoniyatiga egamiz, ammo og'zaki tarjima bilan bog'liq vaziyat boshqalardan ancha farq qiladi. Chunki og'zaki tarjima paytida sodir bo'ladigan xato, ayniqsa, agar u keng ko'lamli xalqaro platformalarda sodir bo'lsa, katta muammolarga olib kelishi mumkin.

Amerika prezidenti Jimmi Karterning Polsha inqirozi. 1976-yilda o'sha paytda Amerika prezidenti bo'lgan Jimmi Karter o'zi rasmiy tashrif bilan borgan Polsha davlatida mahalliy xalq oldidagi nutqida "When I left the United States" "Men AQShdan bugun ertalab jo'nab ketdim" jumlasini ishlatgan edi, lekin bu gap "when I abandoned the United States" "Bugun ertalab men Qo'shma Shtatlarni tark etdim" deb tarjima qilingan. Tomoshabinlar vaziyatni payqab, tarjimonning bu ochiq xatosiga kulishdi. Qolaversa, tarjimonning xatosi bu bilan cheklanib qolmadi, Jimmi Karterning polshaliklarga qarata "happy to grasp at Poland's private parts I was" "Bu yerga kelajakka oid maqsad va orzularingizni bilish uchun keldim" degan jumlasini "Polshaliklarning tanalariga oid orzularim bor" deb tarjima qilgan. Shunday qilib, vaziyat tobora murakkab holga keldi. Shu nuqtai nazardan shuni ta'kidlaymizki, nazariy jihatdan bunday katta xatolarga hech qachon yo'l qo'ymaslik kerak, lekin ular amaliyotda vaqti-vaqti bilan sodir bo'ladi.

Ikkinchi jahon urushi va yadroviy bomba. 1945 yilda II Ikkinchi jahon urushi davom etar ekan, AQSh bir nechta Potsdam deklaratsiyasini, shu jumladan Yaponiyaning taslim bo'lishini e'lon qildi. Yaponiya Bosh vaziri Kantaro Suzuki matbuot anjumanidagi bayonotga "no comment" ya'ni "biz jimgina muhokama qilyapmiz" so'zlari bilan javob bergan bo'lsa-da, "refusing or ignoring the

declaration” “Biz ularga ahamiyat bermaymiz” deb tarjima qilingan. Ushbu katta tarjima xatosi tufayli odamlarning g'azabini qo'zg'atgan va insoniyatni chuqur larzaga keltirgan voqealar sodir bo'ldi. AQSh Xirosima va Nagasaki shaharlariga yadro bombasini tashlab, tarixdagi eng katta qirg'inlardan birini amalga oshirdi. Xirosimada 140 ming, Nagasakida 74 ming kishi yadroviy bomba tufayli halok bo'ldi.

Rossiya Bosh vaziri elchilarni tiriklayin ko'mish bilan tahdid qildi. 1956 yilda Moskvadagi Polsha elchixonasida G'arbiy Yevropa davlatlaridan kelgan ko'plab elchilarni kutib olish marosimida qilingan tarjima mojaro olovini yoqib yubordi va Rossiya boshchiligidagi Sharqiy blok bilan G'arb davlatlari o'rtasidagi sovuq urushni uzaytirishda foydalanilgan vositalardan biriga aylandi. Tarjimon Nikita Xrushchevning so'zlarini quyidagi jumlar bilan tarjima qilgan:

“Whether you like it or not, history is on our side. We will dig you in.” Xrushchev so'zlarining to'g'ri tarjimasi shunday edi: "Siz xohlaysizmi yoki yo'qmi, tarix biz tomonda bo'ladi. Kommunizm kapitalizmga qarshi turadi." Biroq tarjimon diplomatlarga qilgan noto'g'ri tarjima quyidagicha edi: “Istasangiz ham, xohlamasangiz ham tarix biz tomonda bo'ladi. Sizlarni tiriklayin ko'mib yuboramiz.”Ko'rib chiqilayotgan noto'g'ri tarjima gazeta sarlavhalari va jurnal muqovalarida o'z aksini topdi va yangiliklarning asosiy mavzusiga aylandi. Bu Sovet Ittifoqi va G'arb o'rtasidagi sovuqlikning kuchayishiga olib keldi.

Prezident Erdog'an AQSh Prezidenti Donald Tramp bilan birinchi uchrashuvda: (Terrorizm so'zining tarjima qilinmaganligi)

Prezident Erdog'an va AQSh Prezidenti Donald Tramp o'rtasidagi ilk uchrashuvda tarjima xatolari qayd etildi. Tarjimon Erdo'g'anning, "YPG-PYD terror tashkilotini qaysi davlat bo'lishidan qat'i nazar suhbatdosh sifatida qabul qilish global darajada bu mavzuda erishilgan kelishuvga mutlaqo to'g'ri kelmaydi" dedi. Bu jumla ingliz tiliga tarjima qilinar ekan, u “terror tashkiloti” atamasini ishlatmagan va “to be addressed” so'zlarini “to be becomed” deb tarjima qilgan. Erdo'g'anning "Terror tashkilotlariga qarshi kurash" sarlavhasi ostida qo'llagan iboralari bilan bog'liq tarjimada yana bir jiddiy xatoga yo'l qo'yildi. Erdog'an, “Terror tashkilotlariga qarshi prinsipial va qat'iy kurash borasida o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarning o'rnini to'ldirish uchun keyingi qadamlar qo'yilishini umid qilamiz” dedi. So'z yuritilgan bayonotlar tarjimon tomonidan "Aslida butun dunyo bo'ylab

terror tashkilotlariga qarshi kurashda o'tmishda qilgan xatolarimizni takrorlay olmaymiz, birgalikda ishlashni davom ettiramiz. " deb tarjima qilingan. Donald Tramp bu noto'g'ri tarjima qilingan bayonotlarni boshini qimirlatib tasdiqlagan.

Og'zaki tarjima uchun ba'zi yechimlar. Har bir professional guruhda bo'lgani kabi, tarjimon nomzodlari tarjima sohasida ham ma'lum malakalarga ega bo'lishi kerak. Shu nuqtai nazardan, nomzod tarjimonlar ishlarini mukammal tarzda qilishlari uchun professional ko'nikma va qobiliyatga ega bo'lishlari kerak. Chunki faqat chet tilini bilgan odamning tarjimon bo'lib ishlashi mumkin emas. Chunki tarjimonlik kasbi umumiy bilimga, matnni tahlil qilish qobiliyatiga, metod va usullarni bilishga, analitik va dialektik fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish bilan amalga oshishi mumkin. Shubhasiz, og'zaki tarjimada umumman xatoga yo'l qo'ymaslikning iloji yo'q. Biroq, bu turdagi tarjima shaklining tufayli yuzaga keladigan xatolarni minimallashtirish uchun turli xil takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu takliflar orasida bilish va amalga oshirish foydali deb hisoblagan yechimlar quyida qisqacha tushuntiriladi. Tarjimon og'zaki tarjimani boshlashdan oldin yozma tarjimani qo'llagan bo'lishi kerak

Og'zaki tarjima tarjima turlarining ekstremal yakunidir. Tarjimon; Tezlik, vaqt bilan poyga qilish, iqtisodiy, siyosiy va madaniy kontekstni tushunish va terminologiyani bilish kabi ko'plab ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, u asosiy tillarni haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Og'zaki tarjimada hatto soniyalar ham katta rol o'ynaydi. Tarjimonga tarjimasini tahrirlash uchun ba'zan soniyalar kerak bo'lishi mumkin, ba'zan esa soniyalarni tejash uchun suhbatni sekinlashtirishni so'rashi mumkin. Bu yerda qilingan xatoni osongina tuzatib bo'lmaydi. Tarjimonning og'zidan chiqqan so'zni ortga qaytarib bo'lmaydi. Shunday ekan, tarjimon og'zaki tarjimani umumiy ma'noda bilishi va yuqori malakaga ega bo'lishi kerak. Chunki asarning butun yuki tarjimonning aqliy mahoratiga tushadi. Og'zaki tarjimada so'zning ma'nosini izlash yoki lug'atga murojaat qilish kabi tushunchalar mavjud emas. Uzoq vaqt davomida yozma tarjima bilan shug'ullanmay turib, tarjimonga zarur bo'lgan bu ko'nikmalarga ega bo'lish mumkin emasdek tuyuladi. Og'zaki tarjima qobiliyatiga ega tarjimonlar esa, odatda, yozma tarjima qobiliyatlari paydo bo'lgandan keyin kashf etilgan.

Tarjimani boshlashdan oldinasosiy til madaniyati haqida bilish

Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq ikkita tushunchadir. Til madaniyat bilan birga yashaydi, madaniyat esa til bilan birga rivojlanadi. Tilni madaniyat mahsuli deb hisoblash mumkin. Jamiyat tili shu jamiyatda yashovchi shaxslarning umumiy madaniyatini aks ettiradi. Har bir tilda qo'llaniladigan duo, qarg'ish, maqol va iboralar kabi qolip so'zlar jamiyatlarning madaniy qadriyatlari, diniy e'tiqodlari va turmush tarzini tushunishda muhim o'rin tutadi. Chunki bu qolip so'zlar jamiyatlarning vaqt o'tishi bilan urf-odat, an'ana va e'tiqodlarida bo'layotgan o'zgarishlarni aks ettirishda katta rol o'ynaydi. Tarjimon og'zaki tarjimani boshlashdan oldin o'rganilayotgan tilning madaniy tuzilishini bilishi kerak. Ko'pchilik iboralarning tuzilishi va talaffuzi madaniyat bilan bog'liq. Yozma tarjimon to'g'ri atamalarni to'g'ri joyda qo'llash uchun keng madaniyatga ega bo'lishi kerak. Boshqa hollarda, u noto'g'ri so'zni noto'g'ri joyda ishlatishi mumkin. Manba va ko'rsatma tillarning madaniyati, tarixi va til tuzilmalari bilan tanish bo'lishdan tashqari, tarjima predmeti bo'lgan joy va hodisalarni ham bilish kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, globallashtirish ta'siri bilan dunyoda xorijiy tillarga qiziqish ortib bormoqda, bu og'zaki tarjimaning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bu holat tilshunoslikka yangi jixatlarni qo'shmoqda. Globallashtirish bilan parallel ravishda tarjimashunoslik va tadqiqotlar ham rivojlanmoqda. Tarjimashunoslik hayotning turli sohalarida ro'y berayotgan umumiy o'zgarishlardan xabardor bo'lishga intilish va tilning jamiyatdagi birlik va muloqotning eng muhim elementi ekanligi tufayli kengayib bormoqda.

Ko'pincha tarjimon faqat chet tilini bilishi kerak, deb o'ylashadi, lekin og'zaki tarjimani boshlashdan oldin qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun u tarjima qiladigan sohadagi mavzular va atamalarni o'zlashtirishi va doimiy ravishda o'zining ustida ishlab borishi kerak. Chunki tarjimon turli darslar orqali o'zining ustida ishlamasdan, asosiy va manba tillarida sezilarli masofani egallamasdan turib tarjimon bo'la olmaydi. Tarjimon ham uzoq muddatli amaliyotga muhtoj va u til madaniyatini yaxshi bilishi kerak.

Tarjima xatolari katta muammolarga olib kelishi mumkin. Tarjima sohasiga qarab, bu muammolar tijorat munosabatlarini buzishi, huquqiy muammolarni keltirib chiqarishi va tomonlar o'rtasida nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Darhaqiqat, siyosiy sohadagi tarjima xatolari ham siyosiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

[1] – Чернов С.Г. У истоков синхронного перевода в СССР // Мосты: журнал переводчиков. – М.: Р. Валент. – 2016. – № 2(50). – С. 52–68.

[2] – Комиссаров В.Н. Современное переводоведение: учеб. пособие. – М.: ЭТС, 2002.

[3] – Миньяр-Белоручев Р.К. Как стать переводчиком? – М.: Готика, 1999.

[4] – Mubarakova D., Yunusova N. A study of translation science initiating gender bias index and gender quotas Asian journal of multidimensional research: 2021, Volume : 10, Issue : 5 – P 800-810.

[5] – Gudkov D. B. Theory and practice of intercultural communication. - М.: ITDGK "Gnosis", 2003.

[6] – Leontovich O.A. Russia and the USA: An Introduction to Intercultural Communication. - Volgograd: Change, 2003.



XALQARO JURNALISTIKADA TARJIMA VA TAHRIRNING O'RNINI

TURKISTONDA MILLIY MATBUOTNING SHAKLLANISHI VA JADIDCHILIK

Filol.f.n. Rustam SHARIPOV, TDSHU dotsenti, Toshkent, O'zbekiston.

Tel: +998 99 819 51 04; e-mail: rustamsh@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarda Turkistonda faoliyat olib borgan jadidchilik harakatining yorqin namoyandalari tomonidan milliy matbuotni shakllantirishga qaratilgan sa'y-harakatlari, ularning publitsistik asarlari o'z zamonasining siyosiy-ijtimoiy muammolari fonida atroflicha ko'rib chiqilgan.

Tayanch so'zlar: jadidchilik, milliy matbuot, gazeta, jurnal, maqola, targ'ibot maydoni.

Аннотация. В данной статье рассматривается деятельность джадидов Туркестана в конце XIX - начале XX вв., направленная на формирование новой национальной прессы, а также исследуются их публицистические статьи на фоне социально-политических событий того времени.

Ключевые слова: джадидизм, национальная пресса, газета, журнал, статья, пропагандистское поле.

Abstract. In this article, the efforts aimed at the formation of the national press by the bright representatives of the Jadidist movement, which operated in Turkestan in the late 19th - early 20th centuries, and their journalistic works

against the background of the political and social problems of their time have been thoroughly reviewed.

Key words: struggle, national press, newspaper, magazine, article, propaganda field.

XX asrning boshlarida Turkiston jadidlari faqat badiiy ijod, ilmiy faoliyat, maktab va maorif islohoti masalalari bilangina emas, ayni paytda milliy matbuotni shakllantirish masalalari bilan ham shug'ullandilar. Bir tomondan, o'zbek jadidchilik harakatiga oziq bergan kuchlar millatning o'tmishida yashab o'tgan buyuk alloma va mutafakkirlar bo'lib, ularning ma'naviy-ilmiy merosini o'rganish orqali xalqimiz qanchalik yuksaklikka erishgan ekan, jadidlar ham o'tmish ma'naviyatini bilish va uning ayrim muammoli o'rinlarini isloh qilish yo'lidan borganlari ma'lum haqiqat. isloh qilish uchun esa har bir ma'naviy merosning o'z davri va shu kundagi ahamiyatini belgilash, uning kelajakka daxldorlik darajasini aniqlash hamda ularni xalqning milliy yuksalishi uchun o'ziga xos shakllarda yetkazib berish zarur edi. Bu haqda taniqli fitratshunos olim H.Boltaboyev shunday yozadi: "Turkiston tarixiga olamshumul o'zgarishlarning muallifi sifatida kirgan jadidchilik nafaqat markaziy osiyoda, balki yevroosiyoda ham ahamiyatli iz qoldirgani uchun u jahon afkori ilmiyasi tomonidan e'tibor bilan o'rganilmoqda... jadidchilik o'z xalqini ozod va yurtini obod ko'rish shiorini o'rtaga qo'yish barobarida uning oliy pirovard niyati xalqning o'z shonli tarixi, madaniyati bilan jahon afkori umumiyasiga tanitishni istadi. Shuning uchun ham jahonni titratgan temur qilichining zarblari va jahon adabiyotida yangi sahifa yaratgan navoiy qalami jadidchilar uchun zamon timsoliga aylandi. o'tmishni ideallashtirish orqasida yangi va yuksak jamiyat yaratib bo'lmasligini yaxshi anglagan jadidchilar o'tmish merosini o'zlashtirish barobarida jahonning eng taraqqiy etgan millatlari sifatida o'zini ko'rishni istadi. Biroq bu ildizlardan yaralgan daraxt quyoshga bo'y cho'zib, iymon, milliy shuur va istiqloq kurtaklarini chiqargunga qadar mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi va ko'p qurbonlar berdi".¹

Jadidchilik harakati Turkistonga Rusiya istilosi tufayli kirib kelgan temir yo'l, matbaa va matbuot imkoniyatlaridan ham foydalanishga harakat qildi. Garchi rus oxrankasi jiddiy qarshilik ko'rsatganiga qaramay, "Turkestanские ведомости"ning turkcha

¹ Болтабоев Х. Жадидчиликнинг маънавий илдизлари. / Ўзбекистоннинг янги тарихи: концептуал-методологик муаммолар. –Т.: Академия, 1998. –Б. 151-154.

(N.Ostroumov ta'biricha, "sartcha") ilovasi bo'lgan "Turkiston viloyatining gazetasi"da Furqat, Sattorxon kabi o'zbek shoir va ziyolilarining maqolalari ham e'lon qilinib turdi.

Sattorxonning bir qator asarlarida sud va davlat tuzilishi, poraxo'rlik, mahalliychilik, ichki nizolarni yo'qotish kabi xilma-xil masalalar yuzasidan bildirgan fikrlari hanuzga qadar o'z qimmatini yo'qotmagan. Sattorxon rus fani va madaniyatining dastlabki targ'ibotchilaridan biri sifatida maydonga chiqdi. U "Turkiston viloyatining gazetasi"da e'lon qilgan maqolalarining birida (1890-yil 14 may sonida) bunday deb yozgan edi: "Biz rus xalqi yordamida Ovro'pa xalqlari bilan aloqa o'rnatishimiz mumkin, buning natijasida biz umumbashariy hayot va ilmiy taraqqiyotning ishtirokchilariga aylanamiz".

"Turkiston viloyatining gazetasi"ga o'ttiz besh yil davomida muharrirlik qilgan N.Ostroumov o'z navbatida Rossiya va Yevropa madaniyati hamda hayot tarzini targ'ib qilishga katta e'tibor qaratdi. Uning gazetasida Rossiya va Yevropaga sayohat qilgan bir qator o'zbek tujjorlari va ziyolilarining sayohatnomalari muntazam ravishda e'lon qilindi. Masalan, 1887-yilda Xarkovda bo'lib o'tgan qishloq xo'jaligi ko'rgazmasida ishtirok etgan samarqandlik savdogar Mirza Buxarinning Boku, Xarkov, Moskva va Peterburg taassurotlari (1888, 4-7-sonlar), toshkentlik savdogar Tojimuhammad Isamuhamedovning 1900 yilda Boku-Istanbul yo'li orqali Parijga qilgan sayohati (1900, 44-45 sonlar), gazeta muharrirlaridan Sattorxon Abdug'afforov (1893), shoir Zokirjon Furqat (1891, 22-28, 32-sonlar), Xudoyorxonning kichik o'g'li Ibn Yaminbek (1893, 20-son), toshkentlik savdogar Orifxo'janing (1894, 28-son) sayohatnoma va xotiralari gazeta sahifalarida e'lon qilindi.²

1906-yil 27 iyunda Turkistonda birinchi jadid matbuotining qaldirg'ochi bo'lgan "Taraqqiy" (Ismoil Obidiy muharrirligida) gazetasi, 6 sentabrdan esa Munavvar qori boshchiligidagi bir guruh jadidlar "Xurshid" gazetasini chiqara boshlaydilar. Gazetaning 10 soni dunyo yuzini ko'rganidan keyin u hukumat tarafidan yopildi. 1907 yildan Abdulla Avloniyning "Shuhrat" gazetasi chiqara boshladi. 1912-yildan Buxoroda "Buxoroi sharif" nashr qilina boshladi. Fors tilida chiqara boshlagan bu gazetaning Markaziy Osiyoning tubjoy aholisi bo'lgan turklar tilida emas, Navoiy sart tili deb atagan forsiyda

² Dog'an Zeki Velidi. Bugunku Turkeli (Turkustan) ve yakin tarixi. 2-baski. - Istanbul, 1981. - S. 502.

chiqishi nafaqat turkistonliklarni, balki xorijdagi ayrim turkshunoslarni o'ylatib qo'ydi. "Turk yurdi" jaridasi bu holdan ajablanib maxsus maqola bag'ishlagani yapon olimi professor Xisao Ko'matsuning tadqiqotlaridan ma'lum.³ Ehtimol, ushbu tanqidlar sabab bo'lib gazetaga o'zbek tilida haftalik "Turon" ilovasining nashr etilishi yo'lga qo'yildi.

1913-yilning aprel oyida chiqa boshlagan "Samarqand" gazetasiga mufti Mahmudxo'ja Behbudiy mas'ul muharrir etib tayinlanadi. O'zbek, fors va rus tillaridagi maqolalar e'lon qilingan bu gazeta sahifalarida Mirzohid Miroqilov, Akobir Mansur, Hoji Muin kabi jadid ziyolilarning asarlari ham o'rin egallagan edi. Olti yuzga yaqin nusxada tarqalgan bu gazetaning 45 soni chiqqanidan keyin mablag' tanqisligi sababli yopiladi. 1913-yil 20-avgustdan e'tiboran esa Behbudiy o'zining "Oyina" jurnalini chiqara boshlaydi. Uning sahifalarida Munavvar qori, Mahmud Sattor, Akobir Mansurlarning bir qator maqolalari o'rin egallagan bo'lib, jurnal "Millat, islomiyai saodat" shiorini ko'targan edi. Ammo "Oyina" jurnali ham 136 soni e'lon qilinganidan keyin 1915-yil 15-iyunda yopiladi.

1914-yildan nashr etila boshlagan "Sadoi Turkiston" jadidchilik tarixida chuqur iz qoldirgan nashrlardan biri edi. Uning bosh muharriri Ubaydullaxo'ja Asatillaxo'jaev bo'lib, gazeta ishlariga Munavvar qori va Abduraufzodalar yaqindan yordam berishgan. "Sadoi Turkiston" bilan deyarli ketma-ket nashrga chiqqan "Sadoi Farg'ona" gazetasining ishiga Obidjon Mahmudiy muharrirlik qilgan. Prof. B.Qosimov 1917-yil fevral voqealaridan so'ng nashrdan chiqqan gazetalar haqida fikr bildirib, chunonchi shunday yozadi: 1917-yilning fevralidan keyin "Najot" (Munavvar qori), "Sho'roi islom" (A.Battol), "Turon" (Avloniy), "Hurriyat" (Fitrat), "Kengash" (Zaki Validiy), "El bayrog'i" (B.Soliev, A.Zohiriy), "Ulug' Turkiston" (K.Bakir) kabi ko'plab gazetalar chiqdi.⁴ Bular orasida Samarqandda nashr etilgan "Hurriyat" gazetasi sahifalarida yuzlab, minglab maqola va xabarlar, she'r va hikoyalar chop etildiki, bu hol jadid adabiyotining taraqqiyotiga xizmat qilgan asosiy omillardan biri jadid matbuoti degan da'voni tasdiqlaydi. Turkiston jadid matbuoti tarixi haqida ham maqola va tadqiqotlar paydo bo'ldi. Dastlab Cho'lpon "Turkistonda matbuot" maqolasi bilan chiqdi.⁵ So'ngra Abdulla Avloniy 1905-

³ Komatsu H. 20-Yuzyil Baslarinda Orta Asiyada Turkcilik ve Devrim Hereketleri. –Ankara: 1993. –S.53-55.

⁴ Qosimov B. Milliy uyғoniш: jasorat, maъrifat, fidoyilik. –T.: Maъnaviyat, 2002. – B. 63.

⁵ Чўлпон. Туркистонда матбуот (нашрга тайёрловчи Т.Тоғаев). // Жамият ва бошқарув. -1998. -2-сон.

1917-yillarda chop qilingan nashrlarni umumlashtirib, "Burungi o'zbek vaqqli matbuotining tarixi" maqolasini yozdi⁶. Oradan o'n yil o'tgandan keyin Ziyoz Saidning "O'zbek vaqqli matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927)" nomli mashhur kitobi nashrdan chiqdi⁷. Jadid matbuoti tarixiga nazar tashlaganda, shunga amin bo'lamizki, haqiqatan ham jadidchilar tomonidan amalga oshirilgan nashrlar millatning uyg'onishiga sabab bo'ldi, ikkinchidan, deyarli barcha jadidchilik harakatining rahbarlari matbuotchilik ishiga faol qatnashib, o'zlarining maqola va badiiy asarlarining ommaga yetib borishi uchun qulay bo'lgan usul va yo'l topdi.

1920-yilda Bokuda nashr etilgan "Fuqaro fuyuzato" jurnalida e'lon qilingan yuqorida tilga olingan "Turkistonda matbuot" nomli maqolasida Cho'lpon mahalliy matbuot faoliyati, uning xalq hayoti va siyosiy voqelikda tutgan o'rniga shunday baho bergan edi: "Eski vaqtlarda: "Matbuot yettinchi davlatdir", derlar edi. Bu so'z, bu da'vo endi-da ahamiyatini yitirmabdir. Bu kunda-da matbuotning ahamiyati buyukdir. Xususan, Sharq xalqi bu kun matbuotning ahamiyatini tushunmishdir. Buyuk inqilob olamining ketishidan bexabar yotgan sharqliklarni uyg'otmish, qonsiz tomirlariga qon, "yashamak uchun muboraza edajak" muqaddas qon savk etmishdir. Qamoqda matbuotni ajnabiylarga - xorijliklarga maxsus bir "shay" bilan sharqlilar bukun uni izlar, topar, uning ustida mulohaza yuritarlar. Olamning tugul, hatto shaharning hayotiga-da ko'zining ichi bilan boqqan ko'yli, kandli bu kun ko'yning tashqarisida, yiroqlarda tantanali, muborazali va o'ziga ham taalluqli bo'lgan hayotni bilmoq va o'rganmoq istab ta'qib etadilar". Cho'lponning mazkur maqolasi bilan bir qatorda "Sharq isyoni" she'rining ham Ozarbayjon matbuotida e'lon qilinishi 1920 yilning sentabr oyi boshlarida Bokuda bo'lib o'tgan Sharq xalqlarining tarixiy qurultoyi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, Cho'lpon ham bu qurultoyda Turkistondan borgan bir guruh vakillar qatorida qatnashgan edi. Cho'lponning "Turkistonda matbuot" maqolasi esa, yozilish sanasiga ko'ra, bu mavzudagi dastlabki ish bo'lishi bilan birga, o'zbek vaqqli matbuoti tarixida nashr etilgan gazeta va jurnallarning o'z davrida millatimizga qay darajada xizmat qilganini sho'rolar hokimiyati sharoitida haqqoniy va xolisona baholagan ish sifatida ham qimmatlidir.

⁶ Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. –Т.: Маънавият, 2002. – Б. 58.

⁷ Саид Зиё. Танланган асарлар. –Т., 1974. –Б.13-116.

Toshkent va Buxoroda bu vaqtga kelib musulmon matbaa (bosmaxona)lari ham faoliyat ko'rsata boshlaydi. Toshkentlik boylardan Fulom Hasan Orifjonov matbaasida bir qator fors va o'zbek tillaridagi asarlar litografiya usulida chop etila boshlandi. Toshkentdagi Porsov va Buxorodagi Livnin matbaalari tarix va adabiyotga oid bir qator asarlarni, jumladan, Alisher Navoiyning "Xamsa" asarini, Ahmad Yassaviyning "Devon"ini, "Abo Muslim rivoyatlari", "Temurnoma", "Shohnoma" kabi asarlarni chop etdi. Toshkentda yangi asarlarni nashr etish maqsadida "Turkiston" nomli nashriyot shirkati ham tashkil etildi.

Xullas, XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jididchilik harakatining yorqin namoyandalari o'zlari uchun keng targ'ibot maydoniga aylangan milliy matbuotning shakllanishiga katta xissa qo'shdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boltaboev H. Jadidchilikning ma'naviy ildizlari / O'zbekistonning yangi tarixi: konseptual-metodologik muammolar. –T.: Akademiya, 1998.
2. Dog'an Zeki Velidi. Bugunku Turkeli (Turkustan) ve yakin tarixi. 2-baski. – Istanbul, 1981.
3. Komatsu H. 20-Yuzyil Baslarinda Orta Asiyada Turkcilik ve Devrim Hereketleri. - Ankara, 1993.
4. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. –T.: Ma'naviyat, 2002.
5. Said Ziyo. Tanlangan asarlar. - T., 1974.



DAVLAT TASHQI SIYOSATIDA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYANING ROLI

*Filol.f.n. Muhabbat SALIYEVA, TDSHU dotsenti, Toshkent, O'zbekiston
Tel: +998 97 714-24-90; Email: Muhabbat2962@mail.ru*

Annatsiya. Ushbu maqolada davlat tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy yo'lning samarali davom ettirilishi mamlakatda keng ko'lamli islohotlarni va demokratik o'zgarishlarni muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishda, xalqaro maydonda mamlakat nufuzini mustahkamlash va aholi farovonligining oshishini ta'minlash maqsadida eng muhim omil, Ochiq tashqi siyosatning faollashuvida o'ziga xos o'zbek tajribasi haqidagi manbalar taqiq etilgan.

Kalit so'zlar. Siyosiy, demokratik, iqtisodiy, diplomatik, davlat, jamiyat, tajriba, globallashuv, xorijiy, islohot.

Аннотация. Ушбу мақолада давлат ташқи сиёсий ва ташқи иқтисодий йўлнинг самарали давом эттирилиши мамлакатда кенг кўламли ислохотларни ва демократик ўзгаришларни муваффақиятли рўёбга чиқаришда, халқаро майдонда мамлакат нуфузини мустаҳкамлаш ва аҳоли фаровонлигининг ошишини таъминлаш мақсадида энг муҳим омил, Очиқ ташқи сиёсатнинг фаоллашувида ўзига хос ўзбек тажрибаси ҳақидаги манбалар тақик этилган.

Калит сўзлар. Сиёсий, демократик, иқтисодий, дипломатик, давлат, жамият, тажриба, глобаллашув, хорижий, ислохот.

Аннотация. В данной статье эффективное продолжение внешнеполитического и внешнеэкономического пути государства является важнейшим фактором успешной реализации масштабных реформ и демократических преобразований в стране, в целях укрепления престижа страны на международной арене и обеспечения роста благосостояния населения.

Ключевые слова. Политическое, демократическое, экономическое, дипломатическое, государство, общество, опыт, глобализация, внешнее, реформа.

Annotation. In this article, the effective continuation of the foreign policy and foreign economic path of the state is the most important factor in the successful implementation of large-scale reforms and democratic transformations in the country, in order to strengthen the country's prestige in the international arena and ensure growth in the well-being of the population.

Keywords. Political, democratic, economic, diplomatic, state, society, experience, globalization, external, reform.

Globalashuv jarayonlari va axborot kommunikatsiya vositalarining misli ko'rilmagan rivoji davlatlarning o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga kuchli turtki bo'lmoqda. Millatlararo munosabatlar sohasidagi kontseptsiya siyosiy diplomatik sohadagi hamkorlikni rivojlantirishga doir "yo'l xarita"larini O'zbekistonning xorijiy savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, texnologik va moliyaviy-texnik hamkorligini tubdan rivojlantirish va kengaytirish davrning bosh mezoni darajasiga ko'tarildi. Siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni ta'minlab beruvchi davlat organlari tizimi shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga taqdim etgan navbatdagi Murojaatnomasida "Demokratik islohotlar yo'li – biz uchun yakkayu yagona va eng to'g'ri yo'ldir"[1] deb ta'kidlagan. Davlat rahbarining parlamentga Murojaatnomasi – dasturiy siyosiy-huquqiy xujjatdir. Ushbu murojaatnomada Prezidentning mamlakatni

yaqin istiqbolda rivojlantirishga doir strategik yo'nalishlar bo'yicha nuqtai nazari bayon qilinadi.

Murojaatnomada siyosiy, iqtisodiy, g'oyaviy mafkuraviy qoidalar bilan bir qatorda, parlamentning qonun ijodkorligi faoliyatiga taalluqli aniq takliflarni ham o'zida aks ettiradi. Shuningdek, Prezidentning parlamentga Murojaatnomasi jahon konstitutsiyaviy amaliyotida hokimiyat vakillari bo'linishi printsiptini ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy institutdir. Yana shuningdek, Murojaatnomada davlatimiz rahbari so'nggi uch yilda turli nufuzli xalqaro tashkilotlarda qaryib 30 ta tashabbus bo'yicha BMT Assambleyasining rezolyutsiyalari qabul qilindi.

ShHT doirasida O'zbekiston Prezidentining 8 ta xalqaro tashabbusi amalga oshirildi. Xuddi shunday 10 dan ziyod muhim tashabbuslar YuNESKO, MDH, IHT, TURKSOY, Markaziy Osiyo mintaqasida ilgari surildi. Davlat rahbari ta'kidlaganidek, “biz O'zbekiston tashqi siyosatini faollashtirish yuzasidan boshlagan keng ko'lamli ishlarni, milliy manfaatlarimizga javob beradigan, ochiq progmatik va chuqur o'ylagan tashqi siyosat kursini davom ettiramiz. Olis va yaqindagi barcha davlatlar bilan sheriklikni yanada kuchaytiramiz” [2], deyiladi manbada.

Murojaatnoma asosan huquqiy kommunikatsiya nuqtai nazaridan o'rganadigan bo'lsak, quyidagi to'rtta ustuvor masalalarga e'tibor qaratilganligi e'tiborimizni tortadi, “Birinchi, Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar bilan barcha sohada o'zaro do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik ruhidagi munosabatlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga olib chiqishimiz zarur. Ikkinchi, Rossiya federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Yevropa ittifoqi va Osiyo mamlakatlari bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya va madaniy-gumanitar aloqalarni yanada rivojlantirishga alohida ahamiyat beramiz.

Uchinchi, Birlashgan Millatlar tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy kengash va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida, ko'p tomonlama hamkorlikni jadallashtirishni davom ettirishimiz zarur.

To'rtinchi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida faoliyatimiz samarasini yanada oshirishimiz zarur. O'zbekistonning 2020 yilda Mustaqil Davlatlar

Hamdo'stligiga raislik qilishi biz uchun tarixiy ahamiyatga ega”[3]. Bugungi kunda, Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan munosabatlarni rivojlantirish O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib qoladi. Bundan tashqari, “joriy yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Markaziy Osiyo, Yevropa Ittifoqi va Osiyo mamlakatlari bilan oliy darajadagi ikki va ko'p tomonlama tadbirlar yilning bosh mezoni bo'lib turibdi” [4].

Xalqaro munosabatlarda davlatlararo diplomatik aloqalar asosiy o'rinni egallaydi. Bundan tashqari davlatlararo xarakterga ega bo'lmagan xalqaro aloqalarga – yuridik va jismoniy shaxslar (xorijiy yoki xalqaro elementlar), shuningdek xalqaro hukumatga tegishli bo'lmagan va xalqaro xo'jalik tashkilotlari orasidagi aloqalar misol bo'la oladi. O'zbekiston –xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti deganda konstitutsiyaviy qoidalarni nazarda tutgan holda, O'zbekiston Respublikasining hozirgi dunyodagi o'rnini bildiribgina qolmay mamlakatimizning haqiqatdan ham xalqaro hamjamiyatning ajralmas qismi ekanligini ko'rsatadi.

-O'zbekiston suveren davlat sifatida zamonaviy xalqaro huquqning umume'tirof etilgan printsiplari va normalari va o'zi qo'shilgan xalqaro shartnomalar bilan bog'liq bo'lib, davlatimizning roziligisiz boshqa majburiyatlar zimmamizga yuklatilishi mumkin emasligi;

-O'zbekiston xududida davlat hokimiyati chegaralanmagan va xalqaro huquqning hech qaysi bir sub'ekti bunga aralashish huquqiga ega emas, o'zining xududidan tashqarida u o'z hokimiyatini faqat boshqa manfaatdor davlat roziligi bo'lgandagina amalga oshirishi mumkinligi;

- O'zbekiston xalqaro huquqning boshqa sub'ektlari bilan diplomatik aloqalarni amalga oshirib, ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarni tuzib, davlatlararo munosabatlarda bevosita qatnashishi kabi masalalarda o'ziga xos strategik tamoyillarga asoslangan holda rivojlanadi deyish mumkin.

“Mustaqillik yillarda O'zbekiston 120 dan ziyod davlat bilan diplomatik aloqalarni o'rnatdi. Toshkentda 35 ta davlat elchixonasi ochildi. 19 ta davlat elchilari esa O'zbekiston Respublikasida o'rindoshlik asosida faoliyat yuritmoqda. Respublikada 88 ta xorijiy vakolatxonalar akkreditatsiyadan o'tgan, 24 ta hukumatlararo va 13ta xukumat tashkilotlari faoliyat olib bormoqda” [5].

Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy yo'lning samarali davom ettirilishi mamlakatda keng ko'lamli islohotlarni va demokratik o'zgarishlarni muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishda, xalqaro maydonda mamlakat nufuzini mustahkamlashda va aholi farovonligining oshishini ta'minlashda eng muhim omil hisoblanadi.

Ochiq tashqi siyosatning faollashuvi natijasida xorijiy mamlakatlar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashda salmoqli natijalarga erishilganligi e'tirofga loyiq, "Respublika konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, xududiy yaxlitligini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish, kiberxavfsizlik sohasida axborot, normativ-huquqiy asoslar tizimini takomillashtirish, aholini favqulodda vaziyatlardan xabardor qilish tizimini tashkil etish va rivojlantirish, millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning ustuvor yo'nalishlari kontseptsiyasini ishlab chiqish bilan birga xorijiy hamkorlikni rivojlantirishga doir "yo'l xarita"larini ishlab chiqilganligi"[6] kabi masalalar bugungi davlat boshqaruvida bosh mezon bo'lib turganligi tadqiqotimizning asosiy nuqtai nazarida aks etadi.

XXI asrda insoniyat taraqqiyotning axborot bosqichiga qadam qo'yar ekan, har bir sohani modernizatsiyalash va axborotlashtirishni taqozo etayotganligi hech kimga sir emas. Shunday ekan, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining inqilobiy ta'siri davlat tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlari, iqtisodiy va ijtimoiy soha, ilm-fan va ta'lim, madaniyat va odamlarning turmush tarzida kuzatilmoqda. Davlatimiz mazkur jarayonlardan chetda qolayotgani yo'q, aksincha global axborot jamiyatini shakllantirishda faol ishtirok etmoqda. Axborot texnologiyalari, xususan raqamli texnologiyalar ta'sirida davlat hokimiyati organlari faoliyatining shakli va mazmuni tubdan o'zganmoqda, "davlat boshqaruvining innovatsion tizimi-elektron hukumat tizimi tashkil etildi, bu bugungi kunda davlat boshqaruvi tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi" [7]. Demokratik boshqaruvning tartib tamoyillari takomillashib bormoqda. Ayni paytda xalqaro hamjamiyatni mamlakat hayotidagi, islohotlarni amalga oshirish borasida qo'lga kiritgan yutuqlar to'g'risida xabardor qilish, aholining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirib borishga bo'lgan zarurat dolzarbligini e'tirof etish lozim. Bu jihatdan olib qaraganda, O'zbekiston tashqi siyosiy maqsad hamda vazifalarga erishishda xalqaro axborot resurslaridan keng foydalanish hamda gumanitar, madaniy, ilmiy, xalq diplomatiyasi va boshqa xalqaro

hamkorlik usullarini faol ravishda qo'llash amalda O'zbekiston Respublikasining muhim siyosiy va diplomatik vositalari qatoridan o'rin olmoqda" [8]. Zamonaviy axborot asrida boshqa jabhalarda kuzatilgani kabi diplomatik xizmat sohasida ham muvaffaqiyatga erishish ma'lum darajada zamonaviy AKT imkoniyatlarini samarali o'zlashtirish va ularni amalda maqsadli qo'llashni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, diplomatik soha vakillari oldida axborot texnologiyalarini o'z faoliyatlariga moslashtirib borish bilan bog'liq zaruriyatni yuzaga keltiradi. Raqamli diplomatiya tobora xorijiy jamoatchilik bilan faol kommunikativ aloqa o'rnatish vositasiga aylanib bormoqda. "Twitter", "Facebook", "LinkedIn", "Flickr", "YouTube" kabi virtual makonda faoliyat ko'rsatuvchi platformalar diplomatik soha vakillariga ular tegishli bo'lgan davlatning xalqaro maydondagi tashqi siyosiy sa'y-harakatlari bilan bog'liq xabarlarini Tashqi ishlar vazirligi va xorijdagi diplomatik vakolatxonalar Internet tarmog'idagi kommunikativ kanallar orqali ortiqcha xarajatsiz keng jamoatchilik e'tiboriga havola qilish imkoniyatini yaratadi.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy media tarmoqlari zamonaviy diplomat ixtiyorida mavjud bo'lgan vositalardan biriga aylanib ulgurdi. Mazkur raqamli texnologiyalar zarur va xolis axborot olishda muhim manba bo'lishi bilan birga, tor va keng doiralarda davra suhbatlari va virtual konferentsiyalar tashkil etishda ham o'ziga xos platforma vazifasini bajaradi. Bunda muxokama uchun istalgan mavzuga murojaat qilish mumkin.

Davlat va nodavlat sub'ektlari ko'magida faol axborot tashviqot ishlari va xalqaro axborot almashinuv dasturlarini olib borish hamda milliy madaniyatning betakror jihatlarini xalqaro maydonda namoyish qilish orqali xorijiy jamoatchilik bilan aloqalar o'rnatishda tashqi siyosat va xalqaro munosabatlar tizimidagi institut sifatida e'tirof etilgan jamoat diplomatiyasining roli beqiyos. Raqamli diplomatiya, o'z navbatida mazkur mexanizm bilan uyg'unlashgan bo'lib, bu narsa, avvalo, virtual makonda keng jamoatchilik fikrini o'rganish, uni shakllantirish va mamlakat haqida xorijiy davlatlarda ijobiy axborot muhitini yaratish orqali xorijiy jamoatchilik bilan uzoq muddatga mo'ljallangan hamda ishonch asosida qurilgan munosabatlarni yo'lga qo'yishda yorqin namoyon bo'ladi.

Shu tariqa raqamli diplomatiya bugungi kunning raqamli texnologiyalariga tayangan holda xorijiy jamoatchilik fikri va kayfiyatini monitoring qilib borish, jamoatchilikning axborotga

bo'lgan ehtiyojini qondirish va ubilan faol muloqotga kirishish orqali davlatning tashqi siyosiy manfaatlarini ilgari surishga qaratilgan.

Zamonaviy davlat iqtisodiy imkoniyatlari tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri tashqi siyostda ommaviy huquqiy kommunikatsiyaning turli shakllaridan unimli foydalanish orqaligina amalga oshiriladi.

Mazkur muammoni tadqiq etishda amaliy va fundamental jihatlarining o'zaro yaqin aloqadorligi ushbu institutni o'rganishga kompleks tarzda yondashishni taqozo etadi.

Davlatlar tashqi siyosatini tartibga solishdagi o'rnini aniqlashda xalqaro huquqning ustuvorligi, hozirgi kunda shak-shubhasiz e'tirof etiladi: “tashqi siyosat va diplomatiya davlatlararo muloqotning yagona mushtarak tili bo'lgan xalqaro huquqqa zid bo'lmasligi kerak. Xalqaro huquq davlatning tashqi siyosatiga va uning diplomatiyasiga bevosita ta'sir qiladi” [9] deyiladi manbada.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy maqsadi davlat suverenitetini himoya qilish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga yordam beruvchi xalqaro sharoitlarni yaratish, tinchlik, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida barcha davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni o'rnatishdan iborat.

O'zbekiston tashqi siyosatida ochiqlik printsipini turli xil mafkuraviy qarashlardan xoli ravishda amalga oshirishi tinchliksevar davlatlar bilan tashqi aloqalarni kengaytirishga intilishi bilan dunyo miqiyosida keng katta hurmatga sazovor bo'lib borayotganligi hech kimga sir emas.

Bugungi kunda O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'zining mustaqil ovozigaga ega bo'lgan davlat darajasiga ko'tarildi va nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi. Zamonaviy rivojlanish jarayonlarni tushunish zaruriyati ilmiy siyosiy bilimlarning jadal rivojlanishiga va O'zbekistonga nisbatan yangicha ilmiy intizom va siyosiy-huquqiy tizimining institutsional rivojiga olib keldi.

Mamlakat huquqiy tizimi va siyosiy hayotidagi o'zgarishlar dunyo olimlarida qiziqish uyg'otdi. Jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida muhim ajralib turadigan xususiyat, sharqona milliylik va o'ziga xos tartib intizom, hamda demokratik jarayonlarda, adolatli davlat boshqaruvi o'z ifodasini topgan. Shu o'rinda aytish kerakki, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati Kontseptsiyasida quyidagilar keltirib o'tilgan: “Globallashuv hamda hozirgi dunyoda

vaziyatning shiddat bilan o'zgarishi, siyosiy va iqtisodiy kuchlar joylashuvida ro'y berayotgan o'zgarishlar, mintaqada hamda O'zbekistonning shundoq yonginasida tahdidlarning, terrorchilik ko'rinishidagi xavf-xatarlar va keskinlikning kuchayishi xalqaro va mintaqaviy voqeylikka o'z vaqtida munosib javob qaytarish maksadida davlat tashqi siyosatining kontseptual asoslarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Birinchi navbatda, milliy xavfsizlikni yanada mustahkamlash uchun imkon qadar qulay tashqi sharoitlar yaratib berish, iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishini saqlash, mutanosib va barqaror rivojlanishini ta'minlash, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'lidagi izchil harakatlarni muvaffaqiyatli davom ettirish zarur"[10]. Milliy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha davlat tashqi siyosati mexanizmining butun sa'y-harakati ijtimoiy-iqtisodiy integratsion jarayonlarda milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlashda o'z ifodasini topadi.

Jahon miqiyosida, raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi keskin bir davr xalqimizdan yangicha ishlash, yangi g'oyalar, yuqori darajadagi safarbarlikni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev shunday e'tirof etadi: "Xalqaro munosabatlarda ochiq va amaliy, faol tashqi siyosat olib borilayotgani tufayli ishonchli hamkor sifatida mamlakatimizning xalqaro obro'si tobora ortib bormoqda. Barcha qo'shnilarimiz bilan do'stona va o'zaro ishonch ruhidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash bizning asosiy vazifalarimizdan biriga aylandi" [11].

Ma'lumki, davlatning tashqi siyosiy faoliyati uning ijtimoiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Aniq maqsadga qaratilgan tashqi siyosat iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy salohiyatining o'sishiga ko'maklashadi. Jamiyatni yangilash va tubdan isloh qilishning ustuvor shart-sharoitlaridan biri sifatida bugungi kunda huquqiy tizimga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonlarning jamiyatga tadbiq etilishi, huquqiy kommunikatsiya tizimining yaxshi tashkil bo'lishiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi jahon siyosiy xaritasida, Osiyo qit'asining markazida borgan sari ko'proq ko'zga tashlanmoqda. O'zbekistonda yuz berayotgan demokratik o'zgarishlar, uning ulkan tabiiy boyliklari, ishlab chiqarishi, ilmiy-texnikaviy va aqliy salohiyati nafaqat siyosatchilar, biznesmenlar, olimlarning balki o'zbek xalqining

tarixi va hozirgi hayoti bilan qiziquvchi jahonning barcha burchaklaridagi oddiy kishilarning ham e'tiborini tortmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonning tashqi siyosati Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida mustahkamlab qo'yilgan asosiy huquqiy tamoyillarga va Konstitutsiyamizga, mamlakatimiz o'z zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarga to'liq mos holda amalga oshirilmoqda. Xalqaro tashkilotlarning roli va ahamiyati tobora ortib borayotganligi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatining jahon iqtisodiyotida chuqur ixtisoslashuvdagi ommaviy kommunikatsiyaning roli katta ahamiyatga ega.

Davlat tashqi siyosatida Ommaviy kommunikatsiyaning roli nihoyatda rivojlanib bormoqda, misol tariqasida aytadigan bo'lsak, davlat rahbarining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish sohasidagi ma'ruzalarini butun dunyo xalqlari oliy toifadagi rahbarlar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani, O'zbekistonga qanchalik ishonch bilan qaralayotgani, ularning bildirayotgan fikrlaridan ham aytish mumkinki, bu ommaviy kommunikatsiya tizimida huquqiy tarmoqlarning ahamiyati katta rol o'ynaydi. Adolatli boshqaruvni joriy qilish va tushuntirish, huquqiy targ'ibot tartibi va u bilan shug'ullanadigan shaxslarga baho berishda huquqiy kommunikatsiyaning o'rni alohida ahamiyatlidir.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, O'zbekiston, xalqaro tashqi hamkorlikdagi o'zining milliy huquqiy kommunikatsiya tizimiga ega bo'lgan, adolatparvar siyosatida, Sharqona xarakterdagi Konstitutsiya qonunlariga asoslanadi. Bu sohada xalqaro siyosiy huquqiy kommunikatsiya tizimining yaxshi rivojlanishi katta ahamiyatga ega.

Huquqiy ommaviy kommunikatsiya - bu jamiyat yoki uning tarkibidagi guruhlarining kollektiv maqsadlarini ifoda yetuvchi va amalga oshiradigan institutlar, parlament, byurokratiya va sudlar Siyosiy huquqiy kommunikatsiya tizimi ichki va xalqaro muhit ta'sirida shakllanadi va o'z navbatida uni shakllantiradi.

O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'zining mustaqil ovozigacha ega bo'lgan davlat darajasiga ko'tarildi va nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi. Dunyodagi sanoati rivojlangan yetakchi mamlakatlar bilan siyosiy–diplomatik, savdo–iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Ikki tomonlama manfaatli aloqalar tobora rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining Konstitutsiyaviy printsiplari davlat tashqi siyosati sohasini tartibga solib turuvchi huquqiy normalar guruhining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Umuman olganda, bu guruh tashqi siyosiy munosabatlarning bevosita O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'zida, shuningdek, xalqaro huquq manbalarida aks etgan printsiplar va normalardan iborat konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1] – Саидов А.Х. Демократик ислохотлар йўли – биз учун яккаю ягона ва энг тўғри йўлдир. Демократлаштириш ва Инсон ҳуқуқлари журнали. 2020 йил. № 1-сон. 1 (85), -Б.5.

[2] -[3] – Мирзиёев Ш.М. Мурожаатнома. 2020 йил 24 январда Олий Мажлис Сенати ва Қонунчилик палатасига тақдим этган навбатдаги Мурожаатномаси.

[4] – Саидов А.Х. Демократик ислохотлар йўли – биз учун ягона ва энг тўғри йўлдир. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари Журнали. 2020 йил №1-сон 1(85) –Б.5.

[5] – Саидов А.Х., Абдусаломов М.Ю., Ақромхўжаев Б.Т., Алимов С.Т. Ўзбекистон Республикаси Конституциясига шарҳ. –Т.: “Ўзбекистон”. 2001. –Б.64.

[6] – Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги фармони. –Т.: “Адолат”, 2017. –Б.36.

[7] – Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони //Lex. uz

[8] – 2012 йил 10 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсий фаолияти Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ЎРҚ -330-сонли

[9] – Международное право. Отв.ред. Ю.М. Колосов. –М.: Международное отношения, 2000. – с. 14.

[10] – Ўзбекистон Республикасининг Ташқи сиёсий фаолияти концепцияси // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ахборотномаси. – Т., 2012. – № 9/1 (1437). – 239-м.

[11] – Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Т.3. –Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - Б.7-8.



THE ROLE OF TRANSLATION AND EDITING IN THE INTERNATIONAL NEWS INDUSTRY

PhD. Maynur YUNUS, Associate Editor and Reviewer, Journal Office of Xinjiang Academy of Social Sciences, Xinjiang, China

Abstract. In today's era of globalization, the international news industry plays a crucial role. This paper will explore the role of translation and editing in the international news industry and analyze their impact on news reporting.

Keywords: translation, news industry, globalization

Annotatsiya. Bugungi globallashuv davrida xalqaro yangiliklar sanoati hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqola tarjima va tahrirning xalqaro yangiliklar sanoatidagi rolini o'rganadi va ularning yangiliklar reportajiga ta'sirini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: tarjima, yangiliklar sanoati, globallashuv

Аннотация. В современную эпоху глобализации международная новостная индустрия играет решающую роль. В этой статье будет рассмотрена роль перевода и редактирования в международной новостной индустрии и проанализировано их влияние на освещение новостей.

Ключевые слова: перевод, новостная индустрия, глобализация

With the rapid dissemination of information and the increase in cross-border communication, the role of translation and editing in the international news industry has become increasingly important. Translation and editing are not only a simple process of transforming one language into another, but also a crucial step in ensuring the accuracy, objectivity, and comprehensibility of news information. This paper will explore the role of translation and editing in the international news industry and analyze their impact on news reporting. The role of translation in the international news industry cannot be ignored. With the development of globalization, news organizations need to convey information to readers from different language backgrounds. Translators transform news reports from one language to another, enabling news information to cross language barriers and reach global readers. Translation is not just a simple language conversion, but also needs to consider factors such as cultural differences, idioms, and ways of expression to ensure the accuracy and comprehensibility of information. The role of editors in the international news industry is equally important. Editors are responsible for reviewing, modifying, and improving news reports to ensure their objectivity, accuracy, and credibility. The editor needs to verify the facts of the news report, eliminate errors and false

information, and ensure that the language of the news report is fluent, concise, and clear. Editors also need to consider sensitive issues from different cultural backgrounds to avoid misunderstandings or conflicts. Translation and editing play an indispensable role in the international news industry. They translate news information into different languages, enabling it to cross language barriers and reach global readers. At the same time, they ensure the accuracy and objectivity of information by editing and modifying news reports. The work of translation and editing is of great significance for the quality and influence of international news reporting. This paper will further explore the specific roles of translation and editing in the international news industry, and analyze their impact on news reporting.

The Importance and Challenges of International Journalism.

The international news industry plays a crucial role in today's era of globalization. With the development of information technology and the increase in global communication, people's attention to global dynamics is also increasing. It not only provides people with global news coverage, but also promotes communication and understanding between different countries and cultures. However, the international news industry also faces a series of challenges, including issues such as freedom of information, prejudice, and the dissemination of false news.

Firstly, the importance of the international news industry lies in its ability to provide people with news coverage on a global scale. With the development of globalization, people are interested in news from all over the world. International news agencies report on international political, economic, cultural and other fields, enabling people to understand important events and trends that occur in other countries. This not only helps people broaden their horizons and increase their understanding of the world, but also promotes communication and cooperation between different countries.

Secondly, the international news industry helps to promote communication and understanding between different countries and cultures. By reporting on the cultures, customs, and values of different countries, international news organizations can help people better understand the people and lifestyles of other countries. This helps to eliminate misunderstandings and biases, and promotes cross-cultural communication and cooperation. The international news industry can also provide people with perspectives and voices from different

countries, enabling them to have a more comprehensive understanding of various viewpoints and opinions around the world.

However, the international news industry also faces a series of challenges. Firstly, freedom of information is one of the important challenges faced by the international news industry. In some countries, the government censors and restricts news organizations, limiting the freedom and independence of the press. This makes some important news events unable to be reported, or subject to government manipulation and tampering when reported. The lack of information freedom not only damages the credibility of news, but also limits people's understanding of the truth.

Secondly, the dissemination of bias and false news is also one of the challenges faced by the international news industry. In the era of information explosion, false news and misleading information are easily spread and accepted. Some news organizations may intentionally spread false information and mislead the public for political, economic, or other purposes. This not only damages the credibility of the news, but also has a negative impact on people's judgments and decisions. Therefore, international news agencies need to strengthen factual verification and training in news ethics to improve the quality and credibility of news.

The international news industry has important significance and role in the era of globalization. It not only provides people with global news coverage, but also promotes communication and understanding between different countries and cultures. However, the international news industry also faces a series of challenges, including issues such as freedom of information, prejudice, and the dissemination of false news. Only by strengthening the independence of news, improving news quality, and strengthening training in news ethics can the international news industry better fulfill its mission and provide people with truthful, objective, and trustworthy news reporting.

The role of translation and editing in the international news industry. Translation plays an important role in the international news industry. With the acceleration of globalization and the development of information technology, the scope of news reporting has transcended national borders and language and cultural barriers. In this situation, translation becomes a bridge connecting different countries and regions, ensuring the accurate transmission and understanding of news information.

Firstly, the role of translation in the international news industry is to ensure the accuracy of news reporting. News reporting needs to faithfully convey the true situation and background of the event, and the task of translation is to accurately translate the information in the original text into the target language. Translators need to have good language skills and professional knowledge to ensure the accuracy and objectivity of news reporting.

Secondly, the role of translation in the international news industry is to promote cross-cultural communication and understanding. Different countries and regions have different language and cultural backgrounds, which may lead to misunderstandings and ambiguities in the transmission process of news reports. Translators need to adapt and transform their culture based on the cultural background and values of the target audience to ensure the understanding and acceptance of news reports in different cultural backgrounds.

In addition, the role of translation in the international news industry is also reflected in providing diverse news resources. Through translation, readers can obtain news reports from around the world and understand the political, economic, social and other aspects of different countries and regions. This helps to broaden readers' horizons and increase their understanding and understanding of global affairs.

Finally, the role of translation in the international news industry is also reflected in promoting international cooperation and exchange. The translation of news reports enables media institutions from different countries and regions to learn from each other, share news resources and reporting experiences. This helps to promote international cooperation and exchange, and enhance friendship and understanding among countries.

In short, translation plays an important role in the international news industry. It not only ensures the accuracy of news reporting, promotes cross-cultural communication and understanding, provides diverse news resources, but also promotes international cooperation and exchange. In the context of globalization, translation will continue to play an important role and contribute to the development of the international news industry.

The role of editors in the international news industry

Filter and organize information. The editor is responsible for selecting the most important and valuable content from the vast amount of news information. In the international news industry, there

is a large number of news reports, and editors need to choose the most valuable and influential news reports based on the needs and interests of readers. They need to have a certain understanding and judgment ability of news in various fields and regions to ensure the comprehensiveness and diversity of news reporting.

Ensure the quality of news. Editors are responsible for reviewing and modifying news articles to ensure their accuracy, objectivity, and readability. They need to verify the factual nature of the news report and ensure that there are no errors or false information in the news report. Editors also need to modify the language and style of news articles to improve their readability and attractiveness. They need to pay attention to the balance and fairness of news reporting to ensure that readers can obtain true and trustworthy information.

Provide in-depth reporting. Editors can transform complex international news into a form that is easy to understand and digest, providing readers with more comprehensive coverage. In international news reporting, some topics and events may be very complex and specialized, making it difficult for ordinary readers to understand. Editors need to interpret and organize these complex information so that readers can better understand and digest it. They need to use appropriate language and expression to ensure the readability and comprehensibility of news reports.

Close cooperation between translators and editors. In the international news industry, close cooperation between translators and editors is crucial. Translation and editing play an indispensable role in the entire process of news reporting, working together to ensure accurate communication of information and high-quality news reporting. Firstly, the close cooperation between translators and editors begins with the translation process of press releases. Translators are responsible for converting the original text into the target language, ensuring the accuracy and completeness of the information. However, translation is not just a simple language conversion, they also need to understand and convey the intention and emotions in the original text. In this process, the role of the editor becomes crucial. Editors need to work closely with translators to ensure the accuracy and fluency of the translation, while maintaining the style and tone of the original text.

Secondly, the close cooperation between translation and editing is also reflected in the editing process of news reports. The editor needs

to review and revise the translated manuscript to ensure the accuracy, objectivity, and consistency of the report. They need to check whether the translated text meets the requirements of news reporting and whether there is any missing or incorrect information. Editors also need to communicate with translators, discuss and resolve potential issues to ensure the quality of the final report.

In addition, close cooperation between translators and editors also includes post processing of news reports. Translators and editors need to work together to ensure accuracy and consistency in the format, punctuation, and layout of the report. They also need to conduct a final review of the report to ensure there are no errors or omissions.

In short, close cooperation between translators and editors plays a crucial role in the international news industry. They work together to ensure accurate communication of information and high-quality news reporting. Their collaboration is not only about simple language conversion and editing modifications, but also about ensuring the quality of news reporting. Only through close cooperation between translation and editing can we obtain true, objective, and accurate international news reports.

Conclusion. Translation and editing play a crucial role in the international news industry, ensuring accurate communication of news content, high-quality editing, and global reader understanding. Translators help people from different languages and cultural backgrounds understand news content by translating news reports into different languages. Editors ensure the quality and depth of news reporting by filtering and organizing information. Their cooperation and efforts have enabled the international news industry to successfully meet the needs and expectations of readers.

The close cooperation between translators and editors is crucial to ensuring the success of the international news industry. They need mutual understanding and support, working together to ensure the accuracy and quality of news reporting. They need to maintain good communication and feedback, solve problems in a timely manner, and improve their work. Only through close cooperation can translators and editors maximize their role in the international news industry. Translation plays an indispensable role in the international news industry. It is not only a process of language conversion, but also a bridge for cultural transmission and understanding. Close cooperation between translators and editors is key to ensuring accurate

dissemination of news reports, promoting cross-cultural communication, and improving work efficiency. Only through close cooperation can translators and editors work together to provide high-quality news coverage to readers.

References:

[1] – Zhang Yonghua. The important role of news editors in news work [J] China Media Technology, 2013 (20): 116-117.

[2] – Chen Yanhe. Editors should play a leading role in the news production process [J] News Communication, 2009 (05).

[3] – Sun Zhili. New English Chinese Translation Tutorial [M]. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 2005:6.

[4] – Zhang Jin. Principles of Literary Translation [M]. Kaifeng: Henan University Press, 1987:8 [3] Ji Xianlin Preface to "Chinese Translation Dictionary". Edited by Lin Huangtian, "Chinese Translation Dictionary" [M]. Wuhan: Hubei Education Press, 1997.

[5] – Qian Zhongshu. Translation by Lin Shu [A]. Luo Xinzhang, Chen Yingnian. Translation Essays (Revised Edition) [C]. Commercial Press, 2009.

[6] – Lu Gusun. Congratulations [J]. Oriental Translation, 2009 (1) (inaugural issue).

[7] – Yang Huamei. Advocating Positive Psychology and Cultivating Editorial Positive Psychological Quality: Analysis and Enlightenment of Editorial Psychology in China in the Last 30 Years [J]. Journal of Huzhou Vocational and Technical College, 2015,13 (02).

[8] – Zhang Fenzhi, Zhou Yang. Essential for Book Publishing [M]. Beijing: China Book Publishing House, 2018.

[9] – Fan Jiaqiao. The Five Consciousnesses that Modern Editors Should Possess [J]. Friends of Editors, 2004 (01).



ИСПАНИЯ ГАЗЕТАЛАРИДА ЎЗЛАШМА СЎЗЛАР

*PhD. Махфуза АРТИКОВА, Тошкент давлат шарқишунослик
университети катта ўқитувчиси, Toshkent, O'zbekiston
Tel.: +998935136468; Email: martikova@gmail.com*

Аннотация: Медиа матнлари замонавий жамиятдаги муайян маданиятнинг асосий қадриятлари ва устуворликларини ақс эттиради. Бу, айниқса, жамоатчилик онгига таъсир қилиш, қарашларни шакллантириш ва одамларнинг хатти-ҳаракатларини бошқариш воситаси сифатида ишлатиладиган газета матнларида яққол ақс этади. Мақолада испан газеталарида рўй бераётган янги лисоний тенденциялар, жумладан

ўзлашма сўзларнинг кенг қўлланиши ва унинг матнни стандартлаштириш ҳамда экспрессивлаштиришдаги роли ёритилган.

Калит сўзлар: медиа-матн, газета, стандартлик, экспрессивлик, ўзлашма сўзлар, неологизмлар, ижтимоий-сиёсий муҳит

Аннотация: Медиа-тексты отражают основные ценности и приоритеты той или иной культуры в современном обществе. Особенно это проявляется в газетных текстах, которые используются как средство воздействия на общественное сознание, формирования мнений и управления поведением людей. В статье освещаются новые лингвистические тенденции в испанских газетах, в том числе широкое использование идиом и их роль в стандартизации и выразительности текста.

Ключевые слова: медиа-текст, газета, стандарт, выразительность, заимствованные слова, неологизмы, общественно-политическая среда

Abstract: Media texts reflect the basic values and priorities of a particular culture in modern society. This is especially evident in newspaper texts, which are used as a means of influencing public consciousness, forming opinions and controlling people's behavior. The article highlights new linguistic trends in Spanish newspapers, including the widespread use of idioms and their role in standardization and expressiveness of the text.

Key words: media text, newspaper, standard, expressiveness, borrowed words, neologisms, socio-political environment

Муайян вақт ичида содир бўлган матбуот тили ва услубидаги ўзгаришлар унинг мазмунини янада самарали идрок этишни таъминлаш учун маълум бир аудиторияга қаратилган газета матнининг турини белгилайди. Бу жамият онгининг шаклланиб боришига таъсир қилади.

“El País”, “El Mundo”, “ABC” каби замонавий испан тилидаги даврий нашрларнинг газета-журналистик услуби матнларини таҳлил қилиш натижасида лексик компонентлар испан миллий менталитетининг асосий элементларини акс эттириши маълум бўлади.

Испания матбуотининг газета ва журналистик услубининг асосий хусусиятлари, газета-журналистик услуб муаммолари Грихелмо, Ферраро, Мартинез, Нуньез, Сантамария каби олимларнинг тадқиқотларида ёритилган. Мазкур тадқиқотлар натижасига кўра, қуйидаги хулосаларга келинган:

- Испаниянинг газета-журналистик услуби “стандарт-экспрессив контраст” муносабатида бўлган турли хил лингвистик

воситалардан фойдаланган ҳолда ахборот ва таъсир функциясини бажаради;

- ушбу тамойилни қўллашдаги фарқлар жанрга, муаллифнинг позициясига, маданий контекстга ва лингвистик идеалларга боғлиқ;

- газета-журналистик услуб ҳам кўнгилочар вазифага эга ҳисобланади;

- ижтимоий-сиёсий матнлар аниқ таъсир этувчи услубга эга бўлади;

- оммавий матнларни яратиш ва тушуниш жараёнида индивидуал когнитив моделлар алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, ижтимоий тушунчалар ва миллий ва маданий маълумотларга эгаллик қилишдаги фарқлар янгиликларни турлича талқин қилишга олиб келиши мумкин;

- испан тили жуда кенг ёйилганлиги сабабли турли хил миллий вариантларда лексик ва грамматик воситаларнинг хилма-хиллиги билан ажралиб туради. Мазкур жараён газета тилига ҳам тегишлидир.

Испан тилидаги газета ва журналистик услубдаги оммавий ахборот воситаларида янги сўзларни қўллаш сўз бойлигини бойитишнинг ажралмас қисмига айланган, яъни бу жараён янги испанча сўзларнинг ривожланишини кутмасдан янги ғоялар, ҳодисалар ва атамаларни самарали ва аниқ етказиш имконини беради.

Дунёда айрим тилларга хорижий сўзларнинг ўзлаштирилишини олдини олишга қаратилган ҳаркатлар мавжуд. Аммо испан тили ўзлашма ва янги сўзларга нисбатан очикроқ ва бағрикенг муносабати билан ажралиб туради. Испан маданияти тилни фаол ҳимоя қилиш стратегиясини қўллаш ўрнига, аксинча бошқа тиллар ва янги лексик белгиларнинг таъсирини тўғри қабул қилади.

Шу билан бирга, мазкур услуб ўзлашма сўзлар ва неологизмлар туфайли лексик бирликлар доирасининг кенгайиши билан ҳам тавсифланади. Масалан: *Los jóvenes chinos huyen del matrimonio pese al auge de los 'realities' de corazón; En China, hay un canal de streaming llamado Mango TV, controlado por un servicio de radiodifusión estatal, que es muy popular entre los jóvenes gracias a los reality shows (El mundo, 10.10.2023); Hay uno en el que ocho millennials solteros se encierran durante un mes en una casa; La*

reina Letizia lleva los zapatos slingback que mejor combinan con vestido midi (Telva, 10.10.2023).

Газета-журналистик услубнинг луғати испан маданиятининг ўзига хос хусусиятларини акс эттирувчи ҳиссий ва ифодавий ранг-баранглиги билан ажралиб туради. Унда сўзлашув услуби, содда гаплар ва жаргон иборалар, шунингдек, информацион, мулоқот қилувчи ва таъсир қилувчи функцияларни бажарадиган номинатив воситалар мавжуд. Айрим ҳолларда испан журналистик услубининг синтаксиси соддалашиши, яъни сўзлашув услубига яқинлаштирилиши (кенг аудитория яхши янглаши учун), яна бошқа ҳолларда эса мураккаб илмий услубга яқинлашиши мумкин. Мазкур хусусиятларнинг бари испан публицистик услубнинг лексик хусусиятларига тегишли.

Жумладан, **сўзлашув услубидаги гаплар:** *Que la reina Letizia cuida al milímetro la elección del calzado, no es novedad; Ya se sabe, Letizia es experta en comunicar a través del look (Telva, 10.10.2023); Muere Maya Villalobo, la española de 19 años desaparecida tras el ataque de Hamás en Israel (Marca, 11.10.2023); мураккаб илмий услубдаги гаплар:* *Los lectores de EL MUNDO opinan sobre la investidura de Pedro Sánchez, la posible concesión de la amnistía, el papel de las diputaciones provinciales y el premio Nobel de la paz a una represaliada por el régimen iraní; Las diputaciones provinciales se crearon en 1835, bajo el mandato de Javier de Burgos, para otorgar a las provincias una cierta autonomía y mejor gestión administrativa. En cada provincia se creó una diputación provincial (El mundo, 08.10.2023).*

Демак, газета-журналистик услубнинг лингвистик воситалари, айниқса, лексик, тадқиқотчилар томонидан қайд этилган иккита асосий хусусиятга эга.

Биринчи хусусият: штамплар, қолип сўзлар, атамалар ва бошқа лексик белгиларнинг ўзгармаслиги билан боғлиқ.

Иккинчи хусусият: тилнинг ҳаракатчанлиги билан боғлиқ бўлиб, ўзлашма сўзлар ва неологизмлар туфайли номинатив бирликлар қамровининг кенгайишида намоён бўлади.

Маълумки, газеталар ахборот маконида ва оммавий нутқда муҳим роль ўйнайди, шунингдек, бизни долзарб янгиликлар, турли воқеалар ва масалалар бўйича таҳлил материаллар билан таъминлайди. Шунинг учун ҳам газета матнини стандартлаштириш алоқанинг муҳим жиҳатига айланади, бу

маълумот узатишнинг тушунарлилиги, аниқлиги ва самарадорлигига таъсир кўрсатади.

Стандартлаштиришнинг асосий тамойилларидан бири грамматик қоидалар ва тиниш белгиларига риоя қилишдир. Зеро, грамматик тўғрилиқ матннинг тушунарлилигини таъминлайди ва мумкин бўлган ноаниқликлар ёки нотўғри талқинларнинг олдини олишга ёрдам беради. Бундан ташқари, тиниш белгиларидан тўғри фойдаланиш матнни тузиш ва унинг жумлалар ва параграфлар каби семантик бирликларини белгилаш имконини беради.

Газета матнини стандартлаштиришнинг яна бир муҳим жиҳати-тақдимотнинг тушунарлилиги ва изчиллигидир. Газета мақолалари ўқувчилар тақдим этилган маълумотларни осонгина тушунадиган тарзда ёзилиши керак. Бунинг учун матннинг аниқ тузилиши, фикрларнинг изчил ривожланиши ва тушунарли тилдан фойдаланиш талаб этилади.

Газета матнини стандартлаштириш, шунингдек, холис услуб ва ифода аниқлигини танлашни ўз ичига олади. Газеталар кўпинча турли нуқтаи назар ва фикрларни тақдим этади, шунинг учун объективлик ва бетарафликни акс эттирувчи тилдан фойдаланиш муҳимдир. Бунга ҳаддан ташқари таъсирчанликдан қочиш ва аниқ формулалардан фойдаланиш орқали эришилади.

Масалан: *Narges Mohammadi está en la cárcel por ser activista de los derechos humanos y periodista en Irán. Ha sido arrestada y condenada, entre otros cargos, por fundar y dirigir el Centro de Defensores de los Derechos Humanos y participar en una campaña contra la pena de muerte. Mohammadi ha sido galardonada con el Premio Nobel de la Paz 2023 por su lucha contra la opresión de las mujeres en Irán y su defensa de los derechos humanos y la libertad para todos (El mundo, 08.10.2023).*

Бундан ташқари, испан газеталарининг матнини стандартлаштириш журналистиканинг ахлоқий меъёрларига риоя қилишни ҳам ўз ичига олади. Журналистлар холислик, ишончлилиқ ва эркинлик тамойилларига амал қилишлари, шунингдек, шахснинг шахсий ҳаёти ва кадр-қимматини ҳурмат қилишлари керак. Ушбу ахлоқий меъёрлар ахборот манбаи сифатида китобхонлар ва жамоатчиликнинг газеталарга бўлган ишончини сақлашга ёрдам беради.

Испанлар миллий характеридан келиб чиққан ҳолда кўпинча ифодавий луғатдан фойдаланишади. Сўнгги пайтларда сўзлашув нуткида, биринчи навбатда, ёшлар орасида, балки аҳолининг бошқа қатламлари орасида инвектив луғат ва вулгар-экспрессив ранг бериш билан кўплаб ҳақоратли иборалардан фойдаланиш кескин ошди. Ушбу ҳодиса турли соҳаларда бундай сўз бирикмаларидан фойдаланишнинг кенгайишини ва жамиятнинг ижтимоий тенденциялари ҳамда хусусиятларини акс эттиради.

Жумладан, *Y condeno el régimen de **apartheid** que, durante décadas, sufre la población de esa inmensa cárcel que es la Franja (El país, 13.10.2023); La compañía se dedica a negocios de crecimiento como la ciberseguridad, el **cloud**, el internet de las cosas (IoT) y el **big data**; “Eres mi chute de energía” (El país, 05.10.2023); El líder de los icónicos Slowdive, considerado en más de una ocasión el mejor **songwriter** británico (El país, 16.09.2023); La popular pomada menorquina la actualizan en clave **collins**, con soda de limón; el marianito ha pasado a ser una media combinación, más alargado y complejo, con Amer Picón, piel de naranja y de limón, triple seco y hojas de hierbabuena; el negroni lo hacen con **brandy** Fundador y **bitter** Fusetti (El país, 02.09.2023); Pero esto nos hace caer a veces en el “**wishful thinking**” (los buenos deseos), y lo que nos sobra de buena voluntad nos falta en la precisión de propuestas (El país, 13.10.2023).*

Испан газеталари юқори даражадаги экспрессивлик билан ажралиб туради, бу уларнинг тил услубининг муҳим хусусияти ҳисобланади. Ушбу контекстдаги экспрессивлик маълумотни етказиш ва турли нуқтаи назарларни ифодалаш учун ёрқин, ҳиссий жиҳатдан ифодали луғатдан фойдаланишни англатади: *La Princesa de Asturias, de aquí, fue la protagonista de la Fiesta Nacional y el antagonista, Pedro Sánchez, al que pitaron y gritaron: «Puigdemont a prisión y que te vote Txapote». Aunque lo que vale es lo que se vota, no lo que se grita, quizás el... (El mundo, 13.10.2023).*

Бундай юқори экспрессивлик сабабларидан бири испан жамиятининг маданий контекстидир. Испанлар ўзларининг ҳиссиётлари ва эҳтирослари билан танилган ҳамда ушбу хусусиятлар миллат тилида ҳам акс этади. Газеталар оммавий нутқда муҳим роль ўйнайди ва экспрессив луғатдан фойдаланиш уларга испан маданиятининг ўзига хос хусусиятларини ифода этиш имконини беради. Испан газеталарининг экспрессивлиги

уларнинг эътиборини жалб қилиш ва ўқувчиларнинг ҳиссий муносабатини уйғотиш мақсади билан ҳам боғлиқ: *El portavoz ha pedido al ejército israelí que dé marcha atrás a la decisión para “evitar que una situación que ya es una tragedia se convierta en un desastre”* (El país, 13.10.2023).

Испан газеталарида экспрессивлик испанларнинг маданият, сиёсат ва бошқа долзарб масалаларга бўлган иштиёқи ва кучини кўрсатади. Бу муаллифларнинг мавзуга бўлган ҳиссий муносабатини ифодалаш ва фаоллаштириш имконини беради. Айниқса, газета муаллифларининг муносабати ва жамоатчилик фикрига таъсир ўтказиш мақсади уларнинг шарҳ ва фикр жанрларидаги материалларида яққол сезилади. Масалан, *Europa necesita hablar con una sola voz para resultar creíble. Europa ha vuelto a exhibir su brecha interna y su falta de reflejos para actuar como un bloque en la respuesta al ataque de Hamas contra Israel* (El mundo, 11.10.2023).

Аmmo шуни таъкидлаш керакки, испан газеталарининг экспрессивлиги ўзининг салбий жиҳатига ҳам эга бўлиши мумкин. Баъзан бу ҳаддан ташқари ҳиссиёт ва субъективликка олиб келиши мумкин, бу эса ахборот узатишнинг объективлиги ва аниқлигига таъсир қилиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- [1] – Grijelmo Alex, El estilo del periodista. Madrid, Taurus, 2001.
- [2] – Ferraro, Rita Giovana M. Análisis contrastivo español/portugués de unidades fraseológicas. Tesis de doctorado. – Cádiz, 2005.
- [3] – Martínez Albertos, J. L. El lenguaje periodístico. – Madrid: Paraninfo, 1989.
- [4] – Nuñez Ladeveze, L. El lenguaje de los “media”. – Madrid: Pirámide, 1991.
- [5] – Santamaria, M. L. El comentario periodístico. Los géneros persuasivos. – Madrid: Paraninfo, 1990.



TURKCHA JURNALISTIKA TERMINLARI TARKIBIDAGI G'ARB TILLARIDAN O'ZLASHGAN AFFIKSLARGA DOIR

DSc. Xayrulla HAMIDOV, TDSHU professori v.b., Toshkent, O'zbekiston.

Tel: 90 960 06 23; E-mail: hamidovx@gmail.com

Arzu KARAUSTA, TDSHU 2-kurs mag-nti, Turkiya

Tel: +998 90 826 09 35.

Annotatsiya. Hozirgi turk adabiy tilining shakllanishi tarixiga nazar tashlanganda, tilga tashqaridan ta'sir, asosan, XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrda kuzatilgan. Bu davrgacha juda ko'p sinovlar, turli islohotlarni o'z boshidan kechirgan turk tili Turkiya Respublikasi tashkil etilgandan keyin jamiyatda amalga oshirilgan qator jiddiy islohotlar orasida muhim o'rin olgan «Til inqilobi» (*Dil Devrimi*) natijasida yangi davrga qadam qo'ygan. Ushbu maqolada turkcha jurnalistika terminlari tarkibidagi g'arb tillaridan o'zlashgan affikslar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: affikslar, o'zlashmalar, termin, yunon alifbosi, turk alifbosi, jurnalistika.

Аннотация. Если посмотреть на историю формирования нынешнего турецкого литературного языка, то влияние на язык извне преимущественно наблюдалось в период до 20-х годов XX века. До сих пор турецкий язык, переживший множество испытаний и различных реформ, вступил в новую эпоху в результате «Языковой революции», занявшей важное место среди множества серьезных реформ в обществе после образования Республики Турция. В данной статье говорится об аффиксах, заимствованных из западных языков в журналистских терминах в турецком языке.

Ключевые слова: аффиксы, заимствования, термин, греческий алфавит, турецкий алфавит, журналистика.

Abstract. Looking at the history of the formation of the current Turkish literary language, the influence of the outside on the language was mainly observed in the period up to the 20s of the 20th century. Until now, the Turkish language, which has experienced many trials and various reforms, entered a new era as a result of the "Language Revolution", which took an important place among the many serious reforms implemented in society after the establishment of the Republic of Turkey. This article talks about the affixes adopted from Western languages in Turkish journalism terms.

Key words: affixes, acquisitions, greek alphabet, Turkish alphabet, journalistic term.

Turk tili aglutinativ til bo'lgani uchun so'z yasash va yasashda doimiy ravishda qo'shimchalardan foydalanadi. Turk tilida prefikslar mavjud emas. Turk tili o'z tarixi davomida chet tillari ta'sirida bo'lgan va arab va fors, keyinchalik frantsuz va ingliz kabi tillardan

ko'plab so'zlarni o'zlashtirgan. Bu so'zlar orasida prefiksli so'zlar ham bor. Bu holat turkiy tilda old qo'shimcha so'zlarning qo'llanilishiga olib keldi. Bundan tashqari, xorijiy so'zlarga ekvivalent topish bo'yicha tadqiqotlarda qo'shma so'zlarni turkiy tiliga o'girishda qo'shma so'z yasash usuli ham qo'llanilgan. Turk tilidagi bu qo'shma so'zlar ba'zan old qo'shimchali so'zlar sifatida qabul qilinib, turk tilida old qo'shimchalar bormi, degan savol tug'iladi.

G'arb tillaridan turkchaga kirgan va bugungi kunda ham taraqqiyot ehtiyojidan kelib chiqqan holda kirishga davom etayotgan so'z va atamalar, birikmalardagi affikslar masalasiga kelganda, ularning ko'pchiligi muayyan bir sohaga oid ekanini hisobga olish kerak. Ta'kidlangani kabi, so'z va terminlarning asosiy qismi g'arb tillaridan turkchaga fransuz va ingliz tillari vositasida kirgan. Ingliz tilining yoyilib ketganligi bu tildan boshqa tillarga so'zlar o'tishini ta'minlab kelmoqda. Ammo hozirgi paytda turk tilida qo'llanib kelayotgan so'zlarning katta qismini lotin va yunon tillaridan o'zlashgan so'zlar tashkil etadi [1].

G'arb tillaridan o'tgan affikslar bugungi kunda nafaqat o'sha g'arbcha so'zlarga, balki turkcha so'zlarga ham qo'shib, yangi so'zlar yasamoqda. Buning quyidagi ikki misolini ko'rish mumkin. Bu juda samarador *-al, -el* (unli bilan tugagan so'z negiziga *-s* ayiruvchi undoshi vositasida *-sal, -sel*) sifat yasovchi affikslaridir. Turk tiliga yunon tilidan kirib kelgan (quyida bu haqda batafsil so'z yuritiladi) *-al, -el* qo'shimchasining qo'llanish sohasi juda ham keng: *sosyal, kùltürel, legal* kabi g'arbcha unsurlardan tashqari arabchadan o'zlashgan *ulus-al, siyas-al* va sof turkcha *gelenek-sel, yer-el, bölge-sel* so'zlari misolida ham buni yaqqol ko'rish mumkin.

-aj affiksi (*dublaj, montaj, bagaj, tiraj* (gazeta va jurnallarning bosilgan soni), *mesaj*) fransuz tilidan kirgan bo'lsa, yunon alifbosining birinchi harfi, yo'qlik, bo'lishsizlikni ifodalovchi *an-* old qo'shimchasi (*anonim, anomali*), yunonchadan fransuz tili vositasida o'zlashgan, qarama-qarshi, zidlik ma'nosidagi *anti-* old qo'shimchasi (*antidemokratik, antipati*), lotincha "ikki" ma'nosidagi *bi-* (*bilanço*), fransuzcha, "yo'qlik, zidlik" ma'nosidagi *de-* (*de-des-; do*) qo'shimchasi (*dejenere, deformasyon*), lotin tilidan "juft, ikki" ma'nosini bildiruvchi *di-* qo'shimchasi (*diyalog*), "yozuv" ma'nosidagi *-graf* (*paragraf, bibliograf, demografi, monografi*), "fikr" ma'nosidagi *ide-* (*idealist, ideolog, ideoloji*), fransuzcha, biror narsaning sifatini, oidligini ko'rsatuvchi *-if* qo'shimchasi (*dekoratif,*

sportif, objektif, subjektiv), asli lotincha, fransuzcha orqali o‘zlashgan –ik qo‘shimchasi (*-sal, -sel* qo‘shimchasiga sinonim) (*dinamik, akademik*), kasb-hunar otlari yasovchi (turk tilidagi *-ci, -cu* ot yasovchisiga sinonim bo‘lgan) *-ist* qo‘shimchasi (*realist, ekonomist, feminist*), fransuz tilidan kirgan, falsafiy, adabiy oqimni, u bilan bog‘liklikni bildiruvchi, turkchadagi *-cilik* qo‘shimchasiga sinonim bo‘lgan *-izm* qo‘shimchasi (*kemalizm* (otaturkchilik), *materyalizm*), asli lotincha, fransuzcha orqali turkchaga kirgan *ko-, kol-, kom-, kon-* qo‘shimchasi (*koalitsyon, komisyon*) va h.k. Bunday qo‘shimchalardan yana o‘nlab keltirish mumkin [2].

Tarixan turklarning dunyo buyicha katta jo‘g‘rofik yer egallaganligi uchun ular turli xil millatlar bilan madaniy aloqalar olib borishgan. Natijada turk tili xitoy, ingliz, hind va ispan tillaridan keyin dunyodagi eng ko‘p so‘zlashiladigan tilga aylangan. Turk tiliga boshqa tillardan juda ko‘p so‘zlar kirgan [3]. Bu jarayon Onado‘luni bosib olish davrida boshlanib, hozirgi kungacha davom etmoqda. Xususan, kundalik hayotimiz bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlar XX asrda qo‘llanila boshlangan. G‘arb tillari “flektiv” tillardir. Bu tillarda qo‘shimcha so‘z boshida, o‘rtasida yoki oxirida uchrashi mumkin. So‘z o‘zagi o‘zgarishlarga uchrab tanilmas holatga kelishi mumkin. Yuqorida ham ta’kidlangani kabi, g‘arb tillaridan tilimizga kirgan so‘zlarning katta qismini fransuz va ingliz tillaridan kirgan so‘zlar tashkil qiladi. Bu so‘zlarning ko‘p qismi lotincha va yunoncha o‘zakka egadir. Yevropa tillaridan turkchaga kirgan affikslarni quyidagicha guruhlashtirish mumkin. Bular:

- lotinchada o‘zlashgan qo‘shimchalar;
- yunonchadan o‘zlashgan qo‘shimchalar;
- fransuzchadan o‘zlashgan qo‘shimchalar;
- inglizchadan o‘zlashgan qo‘shimchalar;
- italyanchadan o‘zlashgan qo‘shimchalar.

Lotinchadan o‘zlashgan qo‘shimchalar quyidagilardir:

Bi - “ikki” ma’nosini bildiradi. Turk tilida bir nechta so‘zda ishlatilib kelinmoqda: **bilanco** (savdo holatini ko‘rsatadigan ro‘yxat) – *balans*; **bibliyografi** (bir mavzuga oid kitoblar ruyxati) - *bibliografiya*, **bibliyofil** (kitobsevar) - *bibliofil*, **bibliyotek** (kitob saqlanadigan joy) – kutubxona va h.k.

Di - “juft,ikki” ma’nosini bildirgan bu lotincha old ko‘shimcha ko‘magida yasalgan suzlarning hammasi turk tilida atama sifatida

koʻllanib kelinmoqda: **diyalog** (ikki yoki undan ortiq kishining soʻzlashuvi) va h.k.

-er - lotincha oʻzakka ega boʻlgan bu qoʻshimcha hozirda fransuz, ingliz tillarida ham qoʻllanmoqda. Bu koʻshimcha bir ishni bajaruvchisi yoki shugʻullanuvchini bildiradi: **tekniker** (texnika bilan shugʻullanuvchi) - **texnik**, **banker** (bankda ishlovchi) - **bankir**, **stajyer** (amaliyot oʻtayotgan shaxs) – **stajer** va h.k.

-ist - bu qoʻshimcha yordamida, asosan, kasb-hunar otlari yasalgan: **radikalist** – **radikalist**, **feminist** – **feminist** va hok. Bu qoʻshimcha yordamida yasalgan soʻzlar turk tilida **-ci (si, sü, cu, çı, çı, çü, çu)** ot yasovchi qoʻshimchalari yordamida yasalgan soʻzlar bilan bir xilda qoʻllanadi, hatto ularning oʻrnini almashtirsa ham boʻladi: **realist** (realist) - **gerçekçi**, **ekonomist** (iqtisodchi, hisobchi)-**iktisatçı** va h.k. Juda samarador boʻlgan ushbu qoʻshimcha yordamida yasalgan soʻzlar qatnashgan bir nechta misol keltiramiz:

-ör - bu qoʻshimcha aslida lotincha boʻlib, fransuz tilida turli maʼnolarni ifodalaydi. Turk tilida ham juda faol qoʻllaniladi va kasb-hunar, bir ishni bajaruvchi, qiluvchi maʼnosida keladi: **provakatör**, **diktatör**, **reportör** kabi.

re- – lotin tilidan kirgan bu old qoʻshimcha “yangidan, qaytadan, takroran“ maʼnolarida qoʻllanadi: **redaksiyon** (tuzatish, toʻgʻrilash), **renesans** (yangidan tugʻilish) va h.k.

-siyon (-tion). Bu qoʻshimcha turk tiliga lotin tilidan fransuz tili orqali kirgan boʻlib, ish-harakat nomlarini ifodalash uchun qoʻllanadi. Uning asosiy vazifasi ishni ifodalashdir. Turkchada bu qoʻshimchani feʼldan ot yasovchi **“-ma“**, **“-me“** qoʻshimchasi bilan ifodalash mumkin, faqat hamma soʻzlarni ham emas: **diksiyon** (soʻzlash), **koordinasyon** (birgalikda boshqarish), **rezervasyon** (rezervatsiya, joy band qilish, oldindan zakaz qilish), **kominikasyon** (kommunikatsiya) va h.k.

-ik - bu qoʻshimcha turk tiliga fransuz tili vositasida kirgan oʻta faol qoʻshimcha boʻlib asli lotinchadir. Oidlikni ifodalovchi bu qoʻshimchaning **-sal**, **-sel** varianti ham bor. Masalan: **dinamik** (harakatli), **akademik** (akademiyaga oid) va h.k.

Yunonchadan oʻzlashgan qoʻshimchalar quyidagilardir:

a - yunon tilidan fransuz tili vositasida turkchaga kirgan old qoʻshimcha boʻlib, oʻzi qoʻshilgan soʻzga boʻlishsizlik maʼnosini berib, yoʻqlikni ifodalaydi. Turk tilida **-siz** boʻlishsizlik qoʻshimchasi

yoki “bo‘lmagan” so‘zi bilan ham qo‘llasa bo‘ladi. Masalan: *a-normal* (normal bo‘lmagan), *a-sosyal* (ijtimoiylashmagan) va h.k.

alfa - yunon alifbosining ilk harfi bo‘lgan bu harf ilmiyotda ham ishorat, ham “birinchi” ma’nosidagi so‘z sifatida qo‘llanilmoqda. Ba’zi manbalarda bu old qo‘shimchani yunon tiliga finikiychadan o‘tganligi aytiladi. Masalan: *alfa kuşa-ği* (internet davrida tug‘ilgan va bunga mos harakat qiluvchi avlod).

an - old qo‘shimchasi hozirda bir nechtagina so‘zda qo‘llanilmoqda. U ham bo‘lishsizlik, yo‘qlikni ifodalaydi. Masalan: *Anemi* (kamqonlik), *anonim* (nomi bo‘lmagan), *anomali* (me’yordan tashqari) kabi.

anti- yunonchadan turk tiliga fransuz tili vositasida kirgan bo‘lib, so‘zning boshiga qo‘shilib, qarshilik, zidlik ma’nosini bildiradi. Bu qo‘shimcha nutqda juda faol ishlatiladi: *antidemokratik* (demokratiyaga qarshi), *antipati* (bir narsani yoqtirmaslik, antipatiya) va h.k.

foto - bu ikkala qo‘shimcha ham turkchaga yunon tilidan kirgan bo‘lib, yorug‘lik ma’nosini bildiradi: fotograf, fotojen (yorug‘likni yaratgan, fotografiya), fotojenik (yorug‘likning kelib chiqishiga oid), fotosintez (yorug‘lik yordamida bo‘ladigan sintez) kabi.

-graf - qo‘shimchasi “grafika, yozuv” ma’nosini anglatadi. Turkchada juda faol ishlatiladi: paragraf (yozuv bo‘limi), bibliograf (kitoblar bo‘yicha mutaxassis), demografi, monografi, radyografi, kardiografi kabi. So‘zlarning oxirida kelgan “I” qo‘shimchasi ishni ifodalaydi.

-loji - yunon tili vositasida sanskrit tilidan turkchaga kirgan bu qo‘shimcha hali ham dunyo tillarida qo‘llanilmoqda. “So‘z” ma’nosini bildirib, boshqa tillarda “bilim” ma’nosida so‘zlarga qo‘shiladi. Bu qo‘shimchadan yasalgan ba’zi atamalar turkchalashtirilgan, ba’zilari o‘z holida ishlatilmoqda: Pedagoji (ta’lim fani), mineraloji (minerallar to‘g‘risidagi fan), idealoji, ekoloji, grafoloji, hidroloji, patoloji, antoloji va hok.

mega - yunon tilida “katta” ma’nosini bildirgan bu so‘z ba’zi atamalarda old qo‘shimcha sifatida qo‘llanilmoqda: megafon (ovozni balandlatish uchun qo‘llanadigan asbob), megavat (bir million vatt), mega proje va hok.

meta- bu old qo‘shimcha yunon tilidan kirgan bir nechta atamada uchraydi: metafizik, metamorfik, metaphor kabi.

mono – yunon tilida “yakka“ ma’nosini bildirgan bu so‘z-old qo‘shimcha sifatida turk tilida ham keng qo‘llanilmoqda: monoblok (bir blok), monoton, monolog, monografi kabi.

neo – yunon tilida “yangi“ ma’nosini bildiradi: neoliberal, neo-faşist, neolitik va h.k.

oto - bu qo‘shimcha yunon tilida “o‘zi“ ma’nosiga ega va uning vositasida yasalgan so‘zlarning ko‘pchiligi atama sifatida turk tilida qo‘llanilib kelinmoqda: otomatik (o‘z-o‘zidan ishlaydigan), otobiografik, otokritik va h.k.

pan – yunoncha bu qo‘shimcha “butun“ ma’nosini bildiradi: panorama, pangermanizm kabi.

par-, para- bu qo‘shimcha qo‘shilgan so‘z “yonida, qarshisida“ ma’nolarini ifodalaydi, ularning ko‘pi termin sifatida qo‘llaniladi: paradoks (oddiy tushunchaga zid), parapsikologik va h.k.

poli - “ko‘p“ ma’nosini bildiruvchi bu old qo‘shimcha atama sifatida ko‘p qo‘llaniladi: poligraf (poligrafiya).

pro - bu qo‘shimcha “oldinda“ ma’nosini beradi: program (oldindan tayyorlangan jadval), prolog (kirish so‘z) kabi.

sosyo - “do‘st“ ma’nosini bildirgan bu so‘z fransuz tilida o‘zgarishga uchrab, turk tiliga “jamoat“, “jamiyat“ ma’nolarida qo‘llanilmoqda: sosyete (jamiyat, oqsuyaklar), sosyoloji (ijtimoiy hayot bilan bog‘liq), va h.k.

tele -bu old qo‘shimcha, “uzoq“, “uzoqdan“ ma’nolarini bildirib, nutqda juda faoldir: telefon, telepati, teleskop, telefilm va hok.

Fransuz, ingliz va italyan tillaridan turk tiliga o‘zlashgan qo‘shimchalar quyidagilardir:

de- (de-;des-; do). Bu qo‘shimcha turkcha “yo‘qlik, zidlik“ ma’nosida qo‘llangan: de-mode (modasi o‘tgan), de-jenere (tuzilishi noto‘g‘ri), deformasyon (shakli buzilgan), declare (e‘lon qilish) kabi.

dubl- qo‘shimchasi “juftlik“ ma’nosini bildiradi va quyidagi so‘zlarda uchraydi: duple (aniq bir miqdorning qaytarilishi), dubleks (ikki qavatli), dublur, dublaj, dublve.

-e qo‘shimchasi turk tiliga fransuzchadan kirgan bo‘lib ish-harakatni ifodalaydi. Turkchaga “-ma,-me“ fe‘ldan ish nomlarini yasovchi qo‘shimcha yoki “-miş“ sifat-fe‘l qo‘shimchalari yordamida tarjima qilish mumkin. Masalan: bloke (biror bir narsani qo‘llashni to‘xtatish), angaje (so‘z yoki yozuv orqali bog‘lanish), proje (loyiha), karikaturize (karikatura holatiga keltirish), stabilize (kukun holatiga keltirish) va h.k.

-ele, -et, -ite - turkchaga fransuz tilidan kirgan bu qo‘shimcha “-lik” qo‘shimchasi bilan turk tilida almashtirilishi mumkin. Abstrakt otlarni yasaydi. Masalan: Produktivite (natijali), realite (reallik), aktualite (kunning mavzusi), formalite (formallik) va hok.

-fer- qo‘shimchasi “tashuvchi” ma’nosini bildiradi. Masalan: transfer (tashish, ko‘chirish) va hok. *-if* – bu qo‘shimcha narsa yoki hodisaning sifatini, oidligini ko‘rsatadi: dekoratif (chiroyli), sportif (sportga uyg‘un), objektif (ob’ektiv), subjektiv (sub’ektiv) va hok.

Pre – bu qo‘shimcha o‘zi qo‘shilgan so‘zga “ilk, birinchi” degan ma’nolarni beradi. Masalan: preforme (ishlovni oldin bajarish), premature (vaqtdan oldin tug‘ilgan), prezentasyon (tanishtirish) va h.

Radio-. Bu old ko‘shimcha va so‘z turli atamalarda uchraydi. Uning asosiy ma’nosi “bir markazdan atrofga tarqatish”dir. Masalan: radyofonik (radio bilan bog‘liq), radyolink va h.[4]

Xulosa. Darhaqiqat, turk tilida ajnabiy so‘zlar ko‘p bo‘lsa-da, ko‘pchiligining turkcha muqobillari bor. Turk tilining ajralmas qismiga aylangan ayrim terminlarning muqobillari hali topilmagan. Til qonun-qoidalari asosida yangi so‘zlar yaratilib, xalq tomonidan qabul qilinmaguncha, bu so‘zlar turk tilida mehmon bo‘lib qolaveradi. Biroq turkchaga “aylanib” bo‘lgan ayrim so‘z va terminlarni til boyligidan olib tashlashning iloji yo‘q. Chunki turk tili va adabiyoti tarixi davomida bu so‘zlar – turkiy muqobillari bilan birga asrlar davomida yashab kelmoqda. Bizning qiladigan ishimiz, ularni chuqur tadqiq qilishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] – Журналистикага оид русча терминларининг ўзбекча изоҳли луғати (Тузувчилар: Х.Ҳамидов, Ш.Хасанова). – Тошкент, 2022. – 140 б.

[2] – Türkçe Sözlük, Türk Dil Kurumu, 9.Baskı. 1.-2.Cilt. –Ankara: 1998.

[3] – Hamidov X., Karausta A. Turkchaga Fransuzchadan O‘Zlashgan Jurnalistikaga Oid Terminlar Tarjimasida, “O‘zbekistonda Zamonaviy Lug‘atshunoslik Va Tarjimashunoslikning Dolzarb Masalalari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Andijon Davlat Chet Tillari Instituti, Andijon, 2023. B.205-206-207

[4] – Turk tili (darslik). – Toshkent, “Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi” DUK: 2022. – 382 bet.



AMERIKA MATBUOTIDAGI NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (Siyosiy atamalar asosida)

*Salomat NIZAMOVA, Oriental universiteti stajer - o‘qituvchisi, Toshkent,
O‘zbekiston*

Annotatsiya. Ushbu maqola siyosiy atamalar asosida yangi, ilgari noma’lum bo‘lgan so‘zlar – neologizmlarning shakllanishi va tarjimasi muammosiga bag‘ishlangan. Unda neologizmlarni shakllantirishning bo‘layotgan neologizmlarning o‘zbek tiliga tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: neologizmlar, matbuot tili, shakllanish usullari, so‘z qo‘shish, jargon, siyosiy atamalar, siyosiy tushunchalar, yangi ma’nolar, asosiy xususiyatlar.

Аннотация. Данная статья посвящена проблеме образования и перевода новых, ранее неизвестных слов-неологизмов на основе политических терминов. Рассматриваются наиболее распространенные способы образования неологизмов, особенности перевода неологизмов, появляющихся в прессе США, на узбекский язык.

Ключевые слова: неологизмы, язык прессы, способы образования, сленг, политические термины, политические понятие, новые значения, основные признаки.

Abstract. This article is devoted to the problem of formation and translation of new, previously unknown words – neologisms based on political terms. It examines the most common ways of forming neologisms, the specific features of translating neologisms appearing in the US press into Uzbek.

Keywords: neologisms, press language, method of formation, adding words, slang, political terms, political concepts, new meanings, main features.

Kompyuterlashtirish, axborotlashtirish, globallashuv va boshqa shu kabi ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega omillar ta’sirida zamonaviy til madaniyatida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni aks ettirish vositasi sifatida yangi lug‘atni o‘rganish zarurati, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy rivojlanishning o‘tish davrida til o‘zgarishlari muammosi ilmiy tadqiqotlarning markaziy masalalaridan biriga aylanishi, siyosiy lug‘atni uzatishda tarjimonlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarning ko‘pligi muammoning juda keskin ekanligini ko‘rsatmoqda va shu jihatdan lingvistik tadqiqotlarda siyosiy lug‘at tarjimasiga katta e’tibor berilishi mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Ushbu maqolada zamonaviy ingliz tilidagi neologizmlarni shakllanish usullarini (siyosiy atamalar asosida) berish, siyosiy atamalarni tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqish maqsad qilib belgilangan.

Ingliz tilshunosi J. Aito neologizmlarning vujudga kelish jarayonini quyidagicha tasvirlaydi: "Har o'tgan yil hali nomi mavjud bo'lmagan yangi g'oyalar, tajriba va ixtirolarni bizga taqdim etadi, zero ular, kommunikatsiya mexanizmida nomlari almashtirib bo'lmaydigan uzviy qism hisoblanib, tez orada ularni yasalishiga bo'lgan bizning tabiiy insoniy moyilligimiz aksariyat yetishmovchiliklarni to'ldiradi" [1].

Neologizmlarni shakllantirishda tilda mavjud bo'lgan usullari – affiksatsiya, so'z qo'shish, qisqartirish, konvertatsiya, semantik hosila va boshqalar ko'proq qo'llaniladi. Masalan, neologizmlar - otlarni hosil qilish uchun -ing va -ism qo'shimchalari ishlatiladi: gazetting – rasmiy hukumat matbuotida nashr etish", bufferism – "konservativizmi uchun keksa odamlarni kamsitish"

Yangi fe'llarni yaratishda ko'pincha -ize qo'shimchasi qo'llaniladi: to anonymize – "aniq bir shaxsning biror narsa bilan aloqadorligini ko'rsatuvchi har qanday ma'lumotni yo'q qilish", to weaponize – "quroldan foydalangan holda biron bir harakatni sodir etish". Eng sermahsul prefikslarga de-, re- va cyber kabilar kiradi. Ular yordami bilan yangi to decompress – "bosimni kamaytirish", reflag – "bayroqni o'zgartirish" va cybercrime – "Internet jinoyati".

Biroq, neologizmlarni shakllantirishning eng universal va keng tarqalgan usullaridan biri bu so'z qo'shilishi bo'lib, so'z qo'shish jarayoni ikki o'zakning birlashishi orqali amalga oshadi. Masalan, think-tank – "tahlil markazi" (yoki "jamoat miyasi"). Omnishambles neologizmi ham so'z qo'shish usuli yordamida yasalgan, u lotincha omni- old qo'shimchasi va inglizcha shambles so'zidan tashkil topgan bo'lib, "batamom vayrongarchilik" deb tarjima qilinadi. Yoki, masalan, ikki twitter va sphere so'zlarining birlashuvidan hosil bo'lgan twittersphere so'zi ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchi odamlarning makon yoki muhiti Twitter"ni bildiradi [2].

Neologizmlarni tarjima qilishga kelsak, bu tarjimonlar uchun juda murakkab ish, chunki bunday so'zlarning ekvivalentlari ko'pincha lug'atlarda mavjud emas va tarjimon ularni mustaqil ravishda tarjima qilishi lozim bo'ladi.

Ommaviy kommunikatsiyalar davrida neologizmlarning rivojlanishi va tarqalishi uchun haqiqatan ham misli ko‘rilmagan imkoniyatlar mavjud. Buning yaqqol dalili – zamonamizning matbuot tili hisoblanadi. Amerika matbuotining tili deyarli har kuni neologizmlar bilan boyib bormoqda. Biroq, ularning ko‘pchiligi “bir kunlik neologizmlar” bo‘lib qolsa, boshqa “eksrompt (tayyorgarlik ko‘rmasdan, birdaniga yozilgan) so‘zlar” esa asta-sekin asosiy lug‘atga o‘tadi. Bular, xususan, (hozirda keng tarqalgan) so‘z va iboralar: sweat shop – og‘ir mehnat tizimi mavjud bo‘lgan korxonalar; trouble shooter – muammolarni hal qilish vakolatiga ega bo‘lgan shaxs; dark horse – qora ot, ya’ni saylov kampaniyasi paytida kutilmaganda biron bir lavozimga ko‘rsatilgan nomzod; favorite son – o‘z shtat delegatsiyasi tomonidan (partiyaning saylovoldi s‘ezdida) prezidentlikka ko‘rsatilgan nomzod; boondoggling – bir paytlar jargon deb tasniflangan so‘z bo‘lib, hozir siyosiy leksikada “ bema’ni ishlar bilan shug‘ullanmoq” ma’nosi bilan keng tarqalgan; hooverize atamasi tom ma’noda “Guverga ko‘ra yashash”, ya’ni “oziq-ovqatni tejash”, “kam ovqat iste’mol qilish” degan ma’nolarni anglatadi.

“Neologizmlar deyarli har doim anonim tarzda kelib chiqishga ega bo‘lib, ular odatda, dastlab, so‘zlashuv vositasida va jurnalistikada paydo bo‘ladi” [3]

Pork barrel iborasi bir vaqtlar Amerika jargonining bir qismi edi. Biroq, endi bu umume’tirof etilgan siyosiy atama bo‘lib, “cho‘chqa yog‘i bochkasi”, “ozuqa bochkasi”, “hukumat pirogi”, ya’ni hukumat tomonidan keng omma orasida mashhurlik qozonish maqsadida maxsus o‘tkaziladigan tadbirlar ma’nosini bildiradi. Hozirda juda “munosib” siyosiy atama lame duck bir vaqtlar faqat siyosiy jargon sifatida tanilgan. Hozirgi kunda lame duck atamasi “yutqazgan siyosatchi”, “omadsiz odam” ma’nolarida qo‘llaniladi.

Sky marshal neologizmining paydo bo‘lishini kuzatish qiziq. Bu so‘z samolyotlar zo‘ravon-bosqinchilar (highjackers) tomonidan o‘g‘irlab ketish avj olgan paytda paydo bo‘lgan. Qo‘shma Shtatlardagi zo‘ravonlik bilan tortib olish va samolyotlarni olib qo‘yish to‘lqini “potensial qaroqchining profili” (highjacker profile determination)ni aniqlash bo‘yicha hayotda maxsus fanni kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Shunga ko‘ra, bu sohaga tegishli hissiy jihatdan bo‘yoqlangan, qo‘pol ekspressiv frazeologik birliklardan iborat ko‘plab yangi so‘zlar va tushunchalar – lunatic fringe i little old lady in tennis shoes neologizmlar paydo bo‘ldi. Bu so‘zlar an’anaviy siyosiy atama

extremist – ekstremist bilan taxminan bir xil ma'noga ega. Ushbu so'zlar guruhiga nuts and cooks – o'ta reaksionerlar; diehards – kallavaramlar; dinosaur wing – “dinozavr qanoti”, ya'ni eski qarashlarga ega bo'lgan odamlar guruhi; hidebounds – tor siyosiy dunyoqarashga ega shaxslar; moss-backs – o'ta konservatorlar va old fogies – eski konservatorlar. kabi “qanotli” neologizmlar kiradi.

Siyosiy neologizmlar tarixida bir qator siyosiy atamalarning rivojlanishini kuzatish qiziq. Amerika siyosiy leksikonida bunday atamalar soni juda katta: political hireling – “siyosiy yugurdaklar” kabi uzoq vaqtdan beri shakllangan so'z va tushunchalardan tashqari; political drudge – “shchan odam” (serg'ayrat xodim haqida); stooge – “siyosiy qo'g'irchoq” va boshqa yangidan-yangi atamalar paydo bo'lmoqda. Bular yuqorida aytib o'tilgan wardheeler, wheelhorse, shuningdek, (party) hack, hanger-on, hangdog politician, hatchetman atamaları bo'lib, afsuski, bu so'zlar hozirgi zamon ikki tilli (tarjima) lug'atlarida hali o'z aksini topmagan va bunday sharoitda tarjimon o'zining mustaqil xulosalari asosida o'zining tarjima variantlarini taklif qilishi lozim bo'ladi.

Wardheeler – “kamsituvchi-jirkanuvchi” ma'nosiga ega siyosiy atama bo'lib, o'zbek tilida uning ma'nosi mayda siyosatchi, xushomadgo'ylik qiluvchi (o'z xo'jayiniga) kabi izohlarga muvofiq mos kelishi mumkin; og'zaki nutqda ham qo'llaniladigan wheelhorse atamasi Amerikaning izohli lug'atlarida [4] atamaga nisbatan berilgan ta'rifni hisobga olgan holda, o'zbekcha leksik birliklarga teng bo'lib, ishchan odam, serg'ayrat, mehnatkash, barcha ishlarni o'zi qiladigan odam ma'nosiga to'g'ri keladi

Binobarin, drudge va wheelhorse atamalari ma'no jihatidan juda yaqin. Party hack – “siyosiy yollangan ishchi”. Hanger-on so'zini tarjima qilish qiyin emas, chunki ma'no so'zning o'zi tomonidan aniq ifodalangan (qiyos. to hang-on – chirmashib olmoq): yugurdak, laganbardor. Hang-dog politician so'zini yuvindixo'r, xushomadgo'y deb tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Amerika siyosiy lug'atida [5] hatchet-man so'zi yaqinda paydo bo'lib, u aniq tarzda so'zlashuv tilidan kirib kelgan va siyosiy yordamchi, yugurdak sifatida tarjima qilinadi. Bu so'zlarni ba'zan kengroq talqin qilishga to'g'ri keladi, ya'ni “boshqa a'zolarining partiya intizomiga rioya qilishlari va asosiy partiya qarorlarining bajarilishini nazorat qiluvchi shaxs (boshliq nomidan)”.

Psixolingvistik tahlil nuqtai nazaridan, siyosiy sinonimlarning juda qiziqarli qatori 60-yillarning neologizmlarida ko‘zga tashlanadi. Bu so‘zlar ramziy yoki xayoliy kuchni bildiruvchi – straw man, paper tiger, stalking horse, satellite.

Umumiy adabiy frazeologiyada puppet government – qo‘g‘irchoq hukumat hammaga ma‘lum. Shu bilan birga, yuqorida aytib o‘tilgan sinonimik turkumdagi eng yangi neologizmlar hatto tajribali tarjimonni ham hayratga solishi mumkin. Darhaqiqat, straw man (yoki man of straw) kabi siyosiy neologizmni qanday tarjima qilish lozim? Uning so‘zma-so‘z ma‘nosi “poxol odam”. Bu metafora ekanligi aniq, shuning uchun bu metafora elementini o‘zbek tilida izohlash lozim. Ko‘rinishidan, “poxol odam”, “ishonchsiz odam” kabi variantlarni muvaffaqiyatli deb hisoblash mumkin. Biroq, neologizm ma‘nosini qayta ko‘rib chiqish yanada uzoqqa bordi. Zamonaviy siyosiy tilda straw man “saylovchilar e‘tiborini boshqa nomzoddan chalg‘itish maqsadida ko‘rsatilgan qo‘g‘irchoq (soxta) nomzod” degan ma‘noni anglatadi. Paper tiger neologizmi o‘zbek tilida “xavfli bo‘lmagan dushman” ma‘nosida ishlatiladi.

Stalking horse iborasini qo‘llanish doirasini bilmay turib tarjima qilish juda qiyin. The American Heritage lug‘atida [6] stalking horse neologizmiga quyidagicha ta‘rif beriladi: “any sham candidate put forward to conceal the candidacy of another or divide the opposition” (“boshqa nomzodni yashirish yoki muxolifatni ichidan bo‘lib tashlash uchun ilgari surilgan har qanday soxta nomzod”). Chunki bunday batafsil talqinni tarjima varianti sifatida ishlatib bo‘lmaydi. uning asosida hech bo‘lmaganda asosiy xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish kerak va keyin bu neologizmni soxta nomzod, qo‘g‘irchoq figura (siyosiy o‘yinda) sifatida tarjima qilish mumkin.

Yaqinda siyosiy tilda off the reservation atamasi paydo bo‘ldi, bu neologizm “partiya saflarida qolish, lekin partiya tomonidan ko‘rsatilgan nomzodni qo‘llab-quvvatlamaslik” degan ma‘noni anglatadi. Bu asosan siyosatchilar nutqida namoyon bo‘ladi va bu so‘z hatto ingliz tilida so‘zlashuvchilarning barchasiga ham ma‘lum bo‘lmasligi mumkin. Taking a walk atamasi esa “boshqa partiya nomzodini qo‘llab-quvvatlash” ma‘nosini bildiradi. Va nihoyat, bolting atamasi “boshqa partiya safiga o‘tishni” anglatadi. Ushbu neologizm asosan og‘zaki nutqda qo‘llanilgan va hozirda asta-sekin umumadabiy varianti switching to the other party ni siqib chiqarmoqda.

Shunday qilib, neologizmlar tarjimasini tarjimon uchun yetarli darajada murakkab vazifa hisoblanadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ma'lumki, yangi so'z lug'atga rasman kiritilgunga qadar ancha vaqt o'tadi. Binobarin, tarjimon notanish so'zning ma'nosini o'zi aniqlashi lozim bo'lib, bu ko'pincha katta professionallikni talab qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

[1] – Ayto J. A Century of New Words. – Oxford: Oxford University Press, 2007.

[2] – Concise Oxford English Dictionary [Electronic resource]. Mode of access: <http://www.concise-oxford-english-dictionary.en.softonic.com> (date of access: 25.10.2023).

[3] – Dictionary by Merriam-Webster: America's Most Trusted Online Dictionary. URL: <https://www.merriam-webster.com/> murojaat sanasi: oktabr –noyabr 2023 g.).

[4] – New Oxford American Dictionary, Third Edition, Angus Stevenson and Christine A. Lindberg (editors), 2096 pages, August 2010, Oxford University Press, ISBN 978-0-19-539288-3.

[5] – Peprník J. English Lexicology. – Olomouc: Univerzita Palackého, 2006.

[6] – The American Heritage Dictionary of the English Language. Houghton Mifflin Harcourt, 2911.



FAVQULODDA VAZIYATLAR MAVZUSINI YORITISHDA JURNALISTNING KASBIY KOMPETENTSIYALARI

Рухсара ЭЛЬМУРАТОВА, tadqiqotchi, TDSHU. Toshkent, O'zbekiston
Tel: +998 94 625-88-29; Email: @Rukhsara Talibjanovna

Annatatsiya. Ushbu maqolada jurnalistikaga oid adabiyotlarda ekstremal jurnalistika ziddiyatli vaziyatlar jurnalistikasining bir yo'nalishi sifatida qaraladi. Ziddiyatli vaziyatlar jurnalistikasi – bu dunyoning ma'lum bir nuqtasida urush harakatlari, turli qarama-qarshiliklar va notinchlik yuzaga kelgan “qaynoq nuqtalarda” faoliyatni tashkil qiladigan ixtisoslashgan jurnalistikaning bir yo'nalishi ekanligi qalamga olingan.

Kalit so'zlar. Davlat, siyosat, fuqaro, jamiyat, favqulodda vaziyatlar, tajriba, gonzo-jurnalistika, multimedia, jahon, milliy-diniy.

Аннотация. В данной статье экстремальная журналистика рассматривается как направление конфликтной журналистики в публицистической литературе. Отмечается, что конфликтная журналистика – это отрасль специализированной журналистики, которая занимается организацией деятельности в «горячих точках», где в

определенной части мира происходили военные действия, различные конфликты и беспорядки.

Ключевые слова. Государство, политика, гражданин, общество, чрезвычайная ситуация, опыт, гонзо-журналистика, мультимедиа, мир, национально-религиозное.

Annotation. This article examines extreme journalism as a direction of conflict journalism in journalistic literature. It is noted that conflict journalism is a branch of specialized journalism that organizes activities in “hot spots” where military operations, various conflicts and unrest took place in a certain part of the world.

Keywords. State, politics, citizen, society, emergency, experience, gonzo journalism, multimedia, world, national-religious.

Davlat va jamiyat paydo bo'lgan davrlardan buyon u yoki bu axborotlar insoniyat uchun muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan bir davrda uning ahamiyati jamiyat hayotining bir bo'lagi desak xato bo'lmaydi. Axborot olamining rivojlanishi natijasida ixtisoslashgan jurnalistikaning faoliyat turlari ham ko'payib bormoqda. Masalan, “horij mamlakatlarida har bir sohaning o'z jurnalisti bo'lib, xususan, siyosiy jurnalistika, xalqaro jurnalistika, tadbirkorlik jurnalistikasi, musiqaga oid jurnalistika, sportga oid jurnalistika, ilmiy jurnalistika, restoranlarga oid jurnalistika, jurnalistik tekshiruv, gonzo-jurnalistika, multimediyaga oid jurnalistika, fuqaro jurnalistikasi, diniy jurnalistika kabi turlarga bo'lingan” [1].

Jahon mamlakatlari tajribasini kuzatar ekanmiz, Favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq mavzularni yoritish borasidagi yo'nalish ekstremal jurnalistika deyiladi. Ekstremal jurnalistika – OAVga maqolalar tayyorlash uchun tabiiy va texnogen halokatlar, favqulodda vaziyatlar, milliy-diniy va boshqa harbiy ziddiyatlar hamda jangovar harakatlar ketayotgan hududlarda bevosita ma'lumot to'plash va tahlil qilish ishlarini olib boradigan jurnalistikaning bir yo'nalishidir. Bunda jurnalist o'zining kasbiy vazifasini bajarish vaqtida uning hayoti va sog'lig'i xavf ostida qoladi[2] .

Jurnalistikaga oid adabiyotlarda ekstremal jurnalistika ziddiyatli vaziyatlar jurnalistikasining bir yo'nalishi sifatida qaraladi. Xo'sh, ziddiyatli vaziyatlar jurnalistikasi o'zi nima? Ziddiyatli vaziyatlar jurnalistikasi – bu dunyoning ma'lum bir nuqtasida urush harakatlari, turli qarama-qarshiliklar va notinchlik yuzaga kelgan “qaynoq nuqtalarda” faoliyatni tashkil qiladigan ixtisoslashgan jurnalistikaning bir yo'nalishidir. Bu borada horijlik olimlarning tadqiqotlariga

murojaat qiladigan bo'lsak, rossiyalik olim V.Tulupovning fikricha, “Ekstremal jurnalistika g'ayritabiiy faktlar va voqealarni tadqiq etadigan ziddiyatlar jurnalistikasining bir turidir”[3] . Yana bir rus olimi Ye.Burachevskiyning fikricha, “Ekstremal jurnalistika – jurnalistlarning ziddiyatlar, jangovar harakatlar, terroristik aktlar vaqtida shuningdek, FVlar hududi va tabiiy tabiiy ofatlar zonalarida ma'lumotlar to'plash va tahlil qiladigan yo'nalishidir” [4].

Favqulodda vaziyatlar jurnalistikasi yoxud ekstremal jurnalistika-jurnalistika yo'nalishlaridan biri bo'lib, OAVda chop etish uchun material FVlar – tabiiy, texnogen, ekologik halokatlar vujudga kelgan, terroristik sodir bo'lgan va harbiy harakatlar olib borilayotgan hududlarda yig'iladi. Bunda jurnalist xatti-harakatlari mavjud holatning o'zi bilan murakkablashib, u o'zining kasbiy faoliyatini hayoti va sog'lig'ini xavf ostida qoldirgan holda amalga oshiradi. Ekstremal jurnalistika tushunchasi o'tgan asrning 90-yillarida, dunyoda siyosiy vaziyat keskinlashgan, qudratli sobiq Sovet Ittifoqi parchalanib, uning tarkibidagi 15 ta respublika o'zining mustaqil yo'lini tanlagan, shu sababli ayrim hududlarda qurolli to'qnashuvlar, millatlararo ziddiyatlar vujudga kelgan davrda va shuning oqibatida paydo bo'ldi. Natijada 2004 yili Ekstremal jurnalistika markazi tuzildi [5] . Favqulodda vaziyatlarda jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash masalasi bir necha bor ko'tarilib, 1970 yili BMTning Bosh Assambleyasida Frantsiya tashqi ishlar vaziri M.Shumann tashabbusiga binoan, mazkur masalaga alohida jiddiy tus berildi. Shuning ta'sirida Bosh Assambleya Inson huquqlari komissiyasiga xavfli hududlarga xizmat safariga borgan jurnalistlar xavfsizligini ta'minlashga doir maxsus Konventsiya tayyorlash vazifasini topshirdi. 1971 yili Komissiya o'zi tayyorlagan Konventsiya loyihasini Assambleya va a'zo-davlatlarga tarqatdi. Mulohazalar, takliflar olindi, ular ishlab chiqildi va nihoyat, birmuncha uzoq davom etgan tegishli jarayonlardan so'ng, 1977 yilning 8 iyun kuni bo'lib o'tgan Diplomatik konferentsiyada 1-Protokolning 79-moddasi – “Jurnalistlarni muxofaza qilish choralari” nomi ostida qabul qilindi. Mazkur moddaning ma'nosi quyidagicha: – “Qurolli konflikt davom etayotgan, ekologik halokat vujudga kelgan hududda xizmat safarida bo'lgan fuqaro sifatidagi jurnalist fuqaro shaxslarga xalqaro gumanitar huquq tomonidan beriladigan huquqlardan to'la-to'kis foydalanadi. – Qurolli kuchlarda akkreditatsiyadan o'tgan harbiy muxbirlarga III Konventsiyada maxsus holat maqomi qo'llaniladi. Protokolga ilova

qilingan shaxsni tasdiqlovchi hujjat namunasiga mos hujjati bo'lgan shaxs haqiqatan ham fotojurnalist hisoblanadi”[6] . BMT Konventsiyasining 5-modda, 2-xatboshida jurnalist fuqarosi hisoblangan hukumat tomonidan beriladigan mazkur hujjatning orqa tomonida “Ushbu hujjat egasi xizmat safari chog'ida professional etikaning barcha me'yorlariga qat'iy rioya etishi va o'zi borgan boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmasligi, har qanday siyosiy va harbiy faoliyatlarga yoxud jangovar harakatlarga daxldor bo'lib qolishdan o'zini ehtiyotlashi zarur degan eslatmalar bo'lmog'i kerak” degan so'zlar yozilgan. Bu OAVning jamoatchilik fikriga, uning shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri. Shunday ekan, OAV orqali tarqatilayotgan axborot yuz bergan konfliktning yaxshi yoxud yomon tomonga o'zgarishiga ham ta'sir ko'rsatishi ehtimolini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Shuning uchun ham ziddiyatli vaziyatlarda qo'llanishi uchun turli mavqedagi xalqaro siyosiy institutlar tomonidan xalqaro normalar ishlab chiqilgan, fotojurnalist etikasi me'yorlari yaratilgan, OAVning o'zini o'zi senzura qilishi yo'lga qo'yilgan. Bu o'rinda o'zini-o'zi senzura qilishni to'g'ri talqin etmoq zarur, zero, jurnalistning xolisligi va mustaqilligi birinchi navbatda uning shaxsiy, kasbiy odobi va madaniyatiga bog'liqdir. Biz tinch davrda faoliyat yuritayotgan jurnalistning kasb odobiga doir muammolar haqida ko'p gapiramiz, biroq ekologik va texnogen xavfli hududlarda jurnalistning burchi, erkinligi va mas'uliyati masalasi bir necha o'n va yuz baravar ortib ketadi. Konfliktli holatlardagi voqea-hodisalarni yozishda o'ziga xos nozikliklar mavjud albatta. Birinchi navbatda, jurnalist yuz bergan hodisalar haqida boshqalardan ko'ra tezkor va ta'sirli axborot yozishga harakat qiladi.

Jurnalistning bevosita halokat hududidan turib tayyorlagan jurnalistik material ob'ektivligi bilan ajralib turadi. Bunday halokatlarning fojeaviyligini faqatgina uni o'z ko'zi bilan ko'rgan jurnalistgina o'z o'quvchisiga yetkazib bera oladi. Favqulodda vaziyatlar jurnalistikasining yana bir o'ziga xosligi bor. Gap shundaki, halokat yuz bergan hududlarda turli sabablarga ko'ra axborot olinmaydigan, ya'ni “axborotsiz” fursatlar yuz beradi. Xo'sh, bunday holatlarda nima qilmoq kerak? Jurnalistlarda “axborotning yo'qligi ham axborot”, degan naqlnamo gap bor. Demak, jurnalist “axborotsiz” fursatda jim o'tirgani ma'qulmi yoxud unchalik tekshirilmagan axborotni yo'qdan ko'ra qabilida tarqataverishi kerakmi? Ikkinchi usulni qo'llaydiganlar ham uchrab turadi, vaholanki, unchalik

tekshirilmagan axborotni tarqatish ham keng ommani chalg'itishga xizmat qilishi hech gap emas. Halokat sodir bo'lgan hududlarda hech qanday muxbir yoki fotojurnalist to'la-to'kis o'zi istagan darajada harakatlana olmaydi, istalgan daqiqada zarur axborotni qo'lga kiritolmaydi. Bundan, u kechayotgan asl jarayon haqida tasavvurga ega emas degan xulosa kelib chiqadi. Shuning uchun Favqulodda vaziyatlarda faoliyat yuritayotgan jurnalist jurnalistikaning asosiy tamoyillariga rioya etgan holda olingan axborotni xolis kuzatishi, ekologik halokatli hududlardan tayyorlangan materialda fikrlar rang-barangligiga e'tibor berishi kerak

Hozirgi tahlikali zamonda OAVda ko'proq favqulodda hodisalar haqidagi axborotlarni berish ommaviy tus olgan. Qayerdadir sunami bo'lgani, aviahalokat yuz bergani, poyezdlar to'qnashgani, etnik guruhlar, xalqlar orasida nizolar kelib chiqqani yoki terrorchilik harakati sodir etilgani haqidagi xabarlar uzatiladigan kundalik axborotlardan albatta o'rin oladi. Bunday axborotlar haqida gap ketar ekan, favqulodda vaziyatlarda jurnalistlarning ishtirok etishi masalasi kun tartibiga chiqadi. Albatta, avvalo halokat sodir bo'lgan joyga yetib borgan jurnalist favqulodda vaziyatlar dan muhofazalanish uchun maxsus kiyim kiyishi, agarda uning yordami zarur bo'lsa, avvalo jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatishi hamda o'z vazifasini amalga oshirishi lozim. Bunday vaziyatlarda jurnalistdan maxsus tayyorgarlik, ham ruhan, ham jismonan kuch talab etiladi.

Rivojlangan horij mamlakatlari tajribasini ko'radigan bo'lsak, Angliyada favqulodda vaziyatlar jurnalistikasi fan sifatida o'rgatilmaydi. Jurnalistlar uch oylik kurs davomida tegishli bilimlarga va tushunchaga ega bo'lishadi. Rossiya Federatsiyasida favqulodda vaziyatlar jurnalistikasi bo'yicha jurnalistlar Favqulodda vaziyatlar Vazirligi oliy o'quv yurtlarida maxsus dastur asosida tayyorgarlik va malaka oshirish kurslarida o'qitilib, jurnalist ham ruhan, ham jismoniy bilimlarga ega bo'ladi. Tibbiy va harbiy bilimlar ham qo'shimcha tarzda o'rgatiladi [7] . Favqulodda vaziyatlarda faoliyat olib borayotgan jurnalist harbiy bilimlar bilan bir qatorda tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmasiga ham ega bo'lishi va ruhiy jihatdan kuchli bo'lishi kerak. U har qanday holatda ham axborotni oshkor etmasligi lozim. Jurnalist favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan hududlar bo'yicha ma'lumotni yoritayotganda mazkur hududning tarixi, madaniy hayoti, aholisining mentaliteti, turmush tarzi va ijtimoiy hayotini o'rganishi talab qilinadi.

Favqulodda vaziyatlar mavzusini yoritishda jurnalist jurnalistika sohasi bilan birgalikda Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi vakolatli organlarning me'yoriy-huquqiy hujjatlari va faoliyati haqida bilimga ega bo'lishi lozim. Masalan, O'zbekistonda FVV tizimi va FVDTning mutaxassislarining maslahatlari, sohadagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, o'quv, ilmiy qo'llanmalar, ixtisoslashgan gazeta va jurnallardan foydalanishi kerak. Sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlar, uning oqibatlari haqida tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik qilgan tarzda asosli manbalarni yoritish zarur. Shu o'rinda shuni ham aytib o'tish kerakki, biron FV sodir bo'lganda barchaning diqqat-e'tibori voqeaning nima sababdan kelib chiqqanligi, qachon sodir bo'lganligi, qancha zarar yetkazilganligi kabi savollar barchani qiziqtiradi. Mazkur savollarga javob berish favqulodda vaziyatlar ni bartaraf etish ishlariga jalb qilingan tashkilotlar (mas:FVV, IIV, SSV va boshqalar)ning matbuot xizmatlarida faoliyat yuritadigan mas'ul rahbar va hodimlar zimmasiga tushadi.

Bunda matbuot xizmati rahbari voqea-hodisa to'g'risida ma'lumotlarni ochiq va shaffof yetkazishi kerak. Bu haqda amerikalik jurnalist AQShning sobiq Prezidenti B.Klintonning matbuot xizmati vakili Sbyuzen King quyidagi fikrlarni bildiradi: “Favqulodda vaziyatlar vaqtida barcha ishtirokchi shaxslarni zalga yig'ing-da, faqat faktlarni bayon qiling. Hech qachon bilganingizdan ortiq narsani aytmang, o'z fikringizni aytishga tavakkal qilmang va jurnalistlarga muttasil yangi axborotni ayting. Reportyorlar axborot olishlari lozim, siz ularga hech narsa aytmasangiz, ular mish-mishlarni e'lon qilishadi” [8] . Agar favqulodda vaziyatlar bo'yicha ma'lumotlarni matbuot xizmati xodimi o'z vaqtida e'lon qilmasa, turli asossiz xabarlar va mish-mishlarning tarqalishiga, tegishli vazirlik yoki idoraning matbuot xizmatiga bo'lgan ishonch susayishi mumkin. Shundan kelib chiqib, mazkur sohada faoliyat yuritadigan jurnalistning o'z mutaxassisligi bo'yicha tayyorlaydigan materiali yoki maqolasi original, sifatli va o'quvchiga ko'rsatadigan psixologik ta'sir holatlari hisobga olingan bo'lishi lozim. Favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq mavzular sodir bo'lgan FVlar, ularning oldini olish, bartaraf etish kabi masalalarni o'z ichiga olgan bo'lsa, bunda sodir bo'lgan Favqulodda vaziyatlar haqida materiallar xususan, voqea tafsilotlari, qurbonlar soni, Favqulodda vaziyatlar ning tarqalish ko'lami bilan bog'liq ma'lumotlar aholining ruhiy-psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli

ham favqulodda vaziyatlar mavzusiga oid soha jurnalistlarida ishga nisbatan boshqa sohalarga qaraganda mas'uliyat katta bo'ladi. Chunki ular ham jurnalist, ham ixtisoslashgan sohaning mutaxassisi sifatida faoliyat yuritadi. Shundan kelib chiqib, favqulodda vaziyatlar mavzusini yoritadigan jurnalist mazkur sohada chuqur bilimga ega bo'lishi, favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq materiallarni chuqur tahlil qila olishi, mustaqil nuqtai-nazarga ega bo'lishi va shu bilan birga sodir bo'lgan Favqulodda vaziyatlar haqida xabar beruvchi emas, balki aholini ogohlikka, ularning xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladigan profilaktik material sifatida yoritilishiga e'tibor berishi zarur.

Jurnalistlar favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq jarayonlarni yoritish uchun materiallar tayyorlashda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

- Favqulodda vaziyatlar ning kelib chiqishi omili va uni keltirib chiqargan sabablarni o'rganish;

- Favqulodda vaziyatlar ning yuzaga kelish muammolarini tadqiq etish;

- Favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi materiallarning aholiga psixologik ta'sirini hisobga olish shart. Ko'p hollarda sodir bo'lgan FVning sabablari, xavfi, ehtimoliy oqibatlarini to'g'risida noto'g'ri tasavvurlar paydo bo'lishiga olib kelib, odamlar orasida vahima uyg'onishiga olib kelishi mumkin;

- faktlar bilan ishlaganda ma'lumotlarni OAVga berayotganda g'oyatda ehtiyotkor bo'lishi, ularni tekshirib, keyin auditoriyaga e'lon qilishi kerak;

- sodir bo'lgan FVni yoritishda aholini ogohlikka da'vat etish va jamoatchilik xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish masalasini qo'yish.

Favqulodda vaziyatlar jurnalistikasi sohasida faoliyat olib borayotgan jurnalist o'tkir qalam egasi bo'lishi, sohada amalga oshirilayotgan tadbirlarni chuqur o'rganishi, ularni keng yoritish olishi, shuningdek mavjud muammolarni dadil ko'tarib chiqishi, doimo izlanishi hamda ijodiy mahoratini oshirib borishi kerak. Masalan: Bu haqda 2010 yil 14 aprelda Jorjtaun universitetida o'tkazilgan "Gaitidagi fojia: talofatlarni qoplash" [9], mavzusida tadbirda bir necha mashhur jurnalistlar Gaitidagi zilzila oqibatlarini yoritish borasida fikr almashadilar. Bu haqda CBS News va 60 Minutes televidion jurnali bosh muxbiri Bayron Pitts quyidagi fikrlarni bildiradi: "Zilzila kabi ofatlar va fojialarni yoritish – reportajning eng oddiy turidir. Bunday yangiliklar haqida maqola yozish boshqa maqolalardan deyarli farq qilmaydi. Bu qiyin ish emas. Bunda siz kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nimaga? va

qanday? savollari asosida ma'lumotlarni keltirasiz. Ya'ni siz ko'rgan narsalaringiz haqida xabar berasiz. Favqulodda vaziyatlarni yoritish oson bo'lishi mumkin, ammo bu jarayon insoniyat va o'lim bilan bog'liq bo'lganda ehtiyotkorlik bilan yondashuv kerak" [10] . Ko'p holatlarda favqulodda vaziyatlar ro'y bergan hududlar bo'yicha jurnalistlar materiallar tayyorlashda qiyinchiliklarga duch keladi. Chunki bu yerda halok bo'lgan, jabrlangan odamlar, buzilib ketgan infrastruktura, moddiy ta'minot va xukumat tomonidan amalga oshirilayotgan qutqaruv ishlari bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda dunyoda yuz berayotgan global iqlim o'zgarishi natijasida tez-tez vujudga kelayotgan halokatlar, ya'ni suv toshqinlari, sel kelishlar, yong'inlar, zilzilalar sodir bo'lgan hududlardagi jurnalist oldida turgan vazifa oddiy kundalik hayotda OAV vakillari oldida turgan maqsad va vazifalardan deyarli farq qilmaydi. Bu – axborotni to'plash, qayta ishlash va uzatishdir. Ammo ana shu axborot, fakt va dalillar to'planadigan vaziyatning o'zi jurnalistdan ehtiyotkorlik bilan birgalikda, kasbiy mahorat, vaziyatni tahlil eta olish, halokat oqibatida jabr chekkanlar bilan suhbatlashishda axloqiy me'yorlarga rioya etishni talab qiladi. Ekologik va texnogen vaziyatlarda jurnalist faoliyati qanday bo'lishi lozim? U nimalarga birinchi galda o'z e'tiborini qaratishi kerak?

Birinchiidan, ekologik va texnogen halokatlar sodir bo'lganda davlat organlari uning va ko'rilgan zarar hajmini, qurbonlar sonini kamaytirib ko'rsatishga harakat qilishadi. Bunday vaziyatda ob'ektiv axborot olish juda ham qiyin. Masalan, 2014 yil avgust oyida Yaponiyada sodir bo'lgan suv toshqini oqibatida 42 kishi vafot etgan. Mahalliy ommaviy axborot vositalarining xabarlariga ko'ra, 43 kishi bedarak yo'qolgan. Xirosima hududida 3.000 ga yaqin qutqaruvchilar aholini evakuatsiya qilgan. Halokat oqibatida 100.000 dan ortiq odamlar o'z uylarini tashlab ketishga majbur bo'lishgan[11] . Yuqorida keltirilgan dalillar Yaponiya xukumatining rasmiy bayonotidan olingan. Ammo norasmiy manbalarning keltirilishicha, suv toshqinidan xalok bo'lgan va jabrlanganlarning soni bir necha barobar ko'proq. Halokat hajmining kengligi jurnalist faoliyatini qiyinlashtiradi.

Ikkinchiidan, olingan axborotning to'g'riligiga ishonch hosil qilish favqulodda vaziyatlarda juda muhimdir. Chunki bunday holatlarda aksariyat dezinformatsiya tarqatiladi. Jurnalist olingan axborotni kamida ikkita manbadan tekshirib ko'rishi lozim. Faqat shundagina uning to'g'riligiga ishonch hosil qilish mumkin. Albatta manbalarni tekshirib ko'rish yo'llari ko'p. Birinchi galda olingan axborotni mavjud hujjatlar bilan solishtirish. Ekologik halokat sodir bo'lgan hududdagi aholi va

mutasaddi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarning vakillari bilan suhbatlashish, hokimiyat va arxivga murojaat etib, ma'lumotlarni solishtirish.

Uchinchidan, jurnalist o'zi tayyorlagan materialining salbiy oqibatlarini ham o'ylab ko'rib, "zarar yetkazma" tamoyiliga asosan ish ko'rishi maqsadga muvofiqdir. Aksariyat holatlarda ekologik halokat sodir bo'lgan hududlardagi jabrlanuvchilar holati, halokat hajmi va uning oqibatlarini ko'rsatishda ehtiyotkorlik zarur. Uzilgan qo'l-oyoqlar, cho'kib ketgan odamlarning jasadlari, zilzila oqibatida bino tagida qolib ketgan va tanasining biror bir qismi chiqib qolgan jabrlanuvchilarni yirik planda ko'rsatish har qanday o'quvchining hissiyotlari, birinchi galda jabrlanuvchilarning qarindoshlari va yaqinlarining his-tuyg'ulariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini unutmazlik lozim.

To'rtinchidan, jurnalist o'zining siyosiy, diniy qarashlaridan qat'iy nazar, har qanday holatda vaziyatni to'g'ri baholashi va betaraflik tamoyiliga rioya etishi kerak. Ekologik va texnogen xavflar mavjud yoki halokatlar sodir etilgan vaziyatlarda jurnalist aynan o'zining siyosiy yoki diniy qarashlarini o'z materialida aks ettirmasligi, aniq dalillarga ega bo'lmay turib, mish-mishlarga asoslangan holda yolg'on axborotni tarqatmasligi juda ham muhimdir.

Beshinchidan, jurnalist tezkor ravishda material tayyorlashi va uzatishi uchun qisqa muddatda to'g'ri qaror qabul qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Ekologik halokat sodir bo'lgan hududlardan uzatilgan tezkor material turli mish-mishlar va axborot xurujlarining oldini olishga yordam beradi, albatta. Bunda jurnalist jurnalistika janrlari: xabar, reportaj, intervyu, ocherk, maqola va boshqalardan foydalanishi, qo'l ostidagi texnikani maksimal ishlatishi materialning ta'sirchanligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Oltinchidan, iqlim o'zgarishi va uning oqibati haqida material tayyorlayotgan jurnalist mavzu bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lishi, tushunchalardan foydalana olishi lozim. Iqlim o'zgarishi bevosita ob-havo bilan bog'liq ekan, jurnalist tanlangan hududda aholining turmush tarzi, so'nggi yillarda qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar (bevosita ob-havo o'zgarishi munosabati bilan), maxalliy xalqning urf-odatlarini bilan tanishishi maqsadga muvofiqdir. Mahalliy odatlarga hurmat bilan qarash jurnalistning to'liq va xolis axborot yig'ishi imkoniyatini beradi. Ekologik halokat sodir bo'lgan hududlarda axborot olish va uni tarqatish alohida muammo bo'lsa, jurnalistlarning jismoniy xavfsizligini ta'minlash yana bir jiddiy muammolardan sanaladi. Shulardan biri – jurnalistlarning bevosita halokat chog'ida shikastlanishidir. Har qanday

ziddiyatli holatlar jurnalist faoliyat yuritishi uchun favqulodda vaziyat hisoblanadi. Axborotni vaqtida va mukammal uzatish jurnalistdan voqea joyida bo'lishni, voqea-hodisalarni o'z ko'zi bilan ko'rishini taqozo etadi. Ushbu majburiyat va burch jurnalistni eng xatarli joylarga borishga undaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, fuqarolarni Favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilishda Favqulodda vaziyatlar jurnalistikasi ixtisosligini rivojlantirish, mutaxassislarni yanada ko'paytirish, FVV oliy o'quv muassasalari hamda jurnalistlar tayyorlanadigan oliy ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim sohasida hamkorlik ishlarini rivojlantirish, shu bilan birga OAVda aholining xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan materiallar sonini oshirib borish lozim. Bu esa mamlakatimiz tinchligi va aholi hayotiy faoliyati xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1] - Бўрибекова Ш. Журналист шахси ва шахсияти. Т.: Ўзбекистон. 2012 й. Б.82.

[3] - https://studopedia.su/10_77753_zhurnalistika-ekstremalnih-situatsiy.

[4] - Тулупов В. Экстремальная журналистика. Воронеж: Изд-во ВГУ, 2000. С.22.

[5] - Бурачевская Е. Специфика работы журналиста в зоне экстремальной ситуации. Журнал. – ФГБОУ ВУ высшего образования «Сибирский государственный университет науки и технологий имени академика [6] - М.Ф. Решетнева» (Красноярск), 2014 г. С.14.

[7] - 89 www.cjes.ru

[8] - Гассер Г., Моду А. Защита журналистов в опасных командировках. Международное гуманитарное право и деятельность фотожурналистов. – Международный Комитет Красного Креста. 1994. С.7

[9] - Н.Қосимова Зиддиятли вазиятларда журналистика. Т.:ЎЗДЖТУ.2019. Б.142.

[10] - Салливан М. Масъул матбуот хизмати. <http://usinfo.state.gov>. 2012. Б.59.

[11] - Perreault M. Covering the Haiti earthquake of 2010: how journalists used technology to capture the conditions of Haiti in the aftermath. Washington, DC, 2010. P.20-21.



TURKIYADA JURNALISTIKA TA'LIMINING TASHKIL ETILISHIGA DOIR

*Sevara BAHODIROVA, TDSHU talabasi, Toshkent, O'zbekiston
Tel: +998 90 310 09 04. E-mail: sevaraziyo02@gmail. com*

Ilmiy rahbar:

filol.f.d., prof. v.b. Xayrulla Hamidov

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning birinchi yarmidayoq bu soha vakillarining o'qimishli bo'lishiga ehtiyoj sezilganligi, bu yo'lda bir qancha islohotlar amalga oshirilganligi ko'rib chiqiladi. 1931-yilgi "Matbuot to'g'risida"gi qonun, uning qabul qilinish jarayonlari, kiritilgan o'zgartirishlar va ko'p martalik urinishlardan so'ng jurnalistika ta'limini beruvchi oliy o'quv yurti ochishga erishish; buning mantiqiy davomi sifatida jurnalistika oliy o'quv yurtlarining nufuzli universitetlar kommunikatsiya fakultetlariga aylantirilishi, vaqf universitetlarida kommunikatsiya va jurnalistika fakultetlarining ochilishi, xususiy jurnalistika oliy o'quv yurtlari bilan qisqacha tanishiladi.

Kalit so'zlar: Jurnalistik ta'lim, media, kommunikatsiya, qonun, o'rta ta'lim, oliy ta'lim, matbuot.

Abstract. In this article, it is considered that in the first half of the 20th century, the need for the education of representatives of this field was felt, and several reforms were implemented in this way. The 1931 Press Law, the processes of its adoption, amendments and after many attempts to open a higher education institution providing journalism education; as a logical continuation of this, the transformation of journalism higher education institutions into communication faculties of prestigious universities, the opening of communication and journalism faculties in foundation universities, and the activities of journalism departments in private journalism higher education institutions will be briefly introduced.

Key words: Journalism education, media, communication, law, secondary education, higher education, press.

Аннотация. В данной статье рассматривается, что в первой половине XX века ощущалась потребность в образовании представителей этой области, и таким образом было реализовано несколько реформ. Закон о печати 1931 года, процессы его принятия, поправки и после многих попыток открыть высшее учебное заведение, дающее журналистское образование; Логическим продолжением этого является преобразование вузов журналистики в коммуникационные факультеты престижных университетов, открытие факультетов коммуникации и журналистики в базовых университетах, а также деятельность кафедр журналистики в частных журналистских вузах и будут кратко представлены.

Ключевые слова: Журналистское образование, СМИ, коммуникация, право, среднее образование, высшее образование, пресса.

Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, ijtimoiy hayotda muloqot jarayoni ahamiyatining tobora ortib borishi yangiliklarni yig'ish va tarqatish bilan shug'ullanadigan muhim kasb egalari – jurnalistlar ta'limini yo'lga qo'yish ehtiyojini XIX asrdayoq tug'dirdi. XX asr o'rtalarida butun dunyoda keng tarqala boshlagan jurnalistika ta'limi birinchi marta 1908-yilda AQShning Missuri universitetida berila boshlagan. XX asr boshlarida Yevropada ham jurnalistika ta'limini yo'lga qo'yish bo'yicha urinishlar bo'lgan. Biroq bu urinishlar tanaffuslar bilan amalga oshirilgani uchun davomiylik va natija ko'zga tashlanmagan. Jahon miqyosida jurnalistik ta'limga jiddiy qiziqish II jahon urushidan keyin boshlandi.

Turkiyada esa yarim asrdan ko'proq vaqtdan beri jurnalistik ta'lim universitet darajasida berilmoqda.

Turli manbalar va tadqiqotlar Turkiyada jurnalistika ta'limi boshlanishi davri haqida turlicha ma'lumot beradi. Juda ko'p tadqiqotchilar 1950-yilda Istanbul universitetining Iqtisodiyot fakulteti tarkibida Jurnalistika instituti ochilishi bilan Turkiyadagi jurnalistika ta'limining boshlanganini iddao qilsa, yana boshqa manbalar bu voqea biroz ertaroq, Marmara universitetining Bosma matbuot maktabiga asos bo'lgan, 1948-yili mudarris Fehmi Yahya Tuna tomonidan ochilgan xususiy jurnalistika maktabiga borib taqalishini ko'rsatadi.

Aslida Turkiyada jurnalistika ta'limiga bundan ham oldinroq, 1930-yillarda tamal qo'yilgan. Yagona partiya (Respublika xalq partiyasi) ma'muriyati jurnalistlar ham kamida o'qituvchilar kabi ta'lim olishi kerak deb hisoblagani uchun 1931-yilgi "Matbuot to'g'risida"gi qonunga "ma'sul muharrirlar uchun litsey yoki oliy o'quv yurtini bitirish majburiyati"ni qo'shib qo'ydi [2].

Shundan so'ng Istanbul dorilfununi jurnalistika maktabi ochish uchun ish boshlaydi. Lekin jurnalistlar tashabbusi bilan qonunning tegishli bandi o'zgartirilgach, maktab ochish harakatlari ham to'xtaydi [1, 2-3]. Respublika davrining matbuotga oid bo'lgan ilk qonuni, 1931-yilgi "Matbuot to'g'risida"gi qonunning 12-moddasida gazeta va jurnal xodimlari ega bo'lishi kerak bo'lgan malakalar ko'rsatilgan bo'lib, unda, "oliy o'quv yurti, litsey yoki unga tenglashtirilgan boshqa maktablardan shahodatnomaga ega bo'lish" sharti keltiriladi. Qonun muhokamasi jarayonida Zonguldak millat vakili (deputati) Jelal Sahir "oliy o'quv yurti yoki litsey" iborasining ishlatilishiga qarshi chiqadi va bu ikkisidan biriga ustunlik berilishi kerakligini talab qiladi. Shebinkarahisar millat vakili Vasfi Rashit esa, "Jurnalistlar oliy

o'quv yurti bo'lgan joylarda mutlaqo oliy ta'lim olishi kerak; bo'lmagan taqdirda litseyini bitirishi ham kifoya", deb majlisda o'z fikrini bayon etadi [3, 450].

Qonunning 15-moddasida esa, "Gazeta va jurnallar bosh muharriri hamda ommaviy nashrlarga rahbarlik qiluvchi shaxs oliy o'quv yurtini tamomlagan bo'lishi shart, bosh direktor va muharriri esa o'n ikkinchi moddaga muvofiq ta'lim olgan bo'lishi kerak", deyiladi. Yuqorida qayd etilgan oliy ma'lumot talabiga javob bermaydigan, lekin qonun kuchga kirgan vaqtda jurnalist sifatida ishlayotgan shaxslarning maqomi qonunning vaqtinchalik "B" moddasi bilan tartibga solinadi. "B" modda: "Ushbu qonun e'lon qilingan vaqtda gazeta va jurnallarning ish yurituvchi mulkdori, bosh muharriri hamda umumiy nashriga rahbarlik qiluvchi shaxslar vazifalari yuzasidan qonun hujjatlarida ma'lumot darajasi to'g'risida belgilangan ro'yxatga olishdan ozod qilinadilar".

Qonun muhokamasi chog'ida Ordu millat vakili Ahmet Ihsan "Bugun nashrda bo'lgan gazetalarning ta'lim ko'rmagan xodimlariga imtiyoz berilyabdi. Ularga yo muddat beraylik, yohud qonundan "tahsil ko'rishi shart" bandini olib tashlaylik...", - deb, qonunning vaqtinchalik "B" moddasiga qarshi chiqadi [3, 447].

Shundan kelib chiqib, vaqtinchalik "B" moddasida qonun e'lon qilingan paytda gazetalarda ishlayotgan mulkdorlar, muharrirlar va bosh muharrirlar uch yil muddatga ta'lim shartlaridan ozod etilishi belgilandi.

1933-yilda Giresun millat vakili Hakki Tarik "Matbuot to'g'risida"gi qonunning 12-moddasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha qonun loyihasini taqdim etadi. Hakki Tarik o'z taklifining asosini quyidagicha izohlaydi:

"Qonun qabul qilinganiga deyarli ikki yil bo'ldi. Yana bir yil o'tib, ular kasbini tashlab ketishi muqarrardek ko'rinyabdi. Chunki bu vaqt ichida oliy ma'lumot to'g'risida hujjat ololmaydilar. Dorulfununga kirish uchun o'rta ma'lumot shart; oliy ta'limni mamlakatda faqat ikki joyda, Anqara va Istanbulda olishlari mumkin. Uzoq yillar bu kasbda ishlaganlarning hammasini Anqaraga yoki Istanbulga ta'lim olish uchun olib kelish imkonsiz, ular o'rta ma'lumotni qaytadan olish uchun ushbu ta'lim darajasiga qo'yilgan yosh chegarasini o'zlariga moslashtira olmaydilar. Shuning uchun oradan bir yil o'tib, ushbu vaqtinchalik moddaga ko'ra, bu kasbning haqiqiy fidokorlari, ustalari o'z kasblari bilan xayrlashishga majbur

bo'ladilar. Agar bunga yo'l qo'ysak, biz ularning o'rnini oliy ma'lumotlilar bilan oson to'ldira olmaymiz, kasbni o'pirilishlardan qutqarib qola olmaymiz" [3, 110].

1933-yil 8-iyundagi "Matbuot to'g'risida"gi qonunning vaqtinchalik "B" moddasiga o'zgartirish kirituvchi 2281-sonli qonunda ta'lim darajasiga nisbatan "3 yillik istisno" bekor qilindi. Ushbu qonunga ko'ra, yangi tartib quyidagicha edi:

"Ushbu qonun e'lon qilingan sanada gazeta va jurnallarda ishlayotgan bosh muharrir, bosh direktorlar, muharrirlar va amaldagi egalariga ma'lumot darajasi bo'yicha ushbu qonunda belgilangan "tahsil ko'rganlik" sharti qo'llanilmaydi".

1935-yili Anqarada bo'lib o'tgan birinchi Matbuot qurultoyida ham jurnalist kadrlar tayyorlash masalasi ko'tarilgan. Matbuot bosh boshqarmasi tomonidan turk matbuotiga oid ishlarni tashkil etish uchun chaqirilgan qurultoyning asosiy maqsadlaridan biri "jurnalistlik kasbi va jurnalistlarning rivojlanishi va yuksalishini tadqiq qilish hamda Matbuot uyushmasini tuzish edi".

Matbuot qurultoyida tuzilgan uyushma faoliyati natijasida 1938-yil 27-iyunda 3511-sonli "Matbuot uyushmasi qonuni" chiqarildi. Qonunning 5-moddasida "Jurnalistika maktablari yoki kasb-hunar kurslarini ochish" ham Matbuot uyushmasining rejalari qatoriga qayd etilgan. Demokrat partiya davrining birinchi matbuot qonuni bo'lgan 1950-yil 15-iyuldagi 5680-sonli "Matbuot qonuni"ning 5-moddasida mas'ul rahbarning ega bo'lishi kerak bo'lgan sifatlar ko'rsatilar ekan, "turk tilida savodli bo'lishi yetarli" deb yozilgan. 1960-yil 27-maydagi qonunga o'zgartirishdan so'ng, 1960-yil 29-noyabrdan mas'ul direktor uchun "o'rta ma'lumotga ega bo'lish yoki bu ma'lumot darajasini rasman tasdiqlab ko'rsatish" sharti joriy etildi.

Turkiyadagi birinchi xususiy jurnalistika maktabi 1948-yilda mudarris Fehmi Yahya tomonidan ochilgan Istanbul xususiy jurnalistika maktabi edi. Matbuot dunyosi va ishbilarmonlik hayotiga tayyor xodimlarni tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan mazkur maktab ikki bosqichdan iborat bo'lib, biri o'rta maktabda uch yillik, ikkinchisi esa, litseyda bir yillik ta'limni o'z ichiga qamrab olardi. Maktab faoliyati 1963-yilda to'xtatildi [4, 155-157].

1949-yilda Istanbul universiteti ma'muriyati Iqtisodiyot fakulteti qoshida jurnalistika institutini tashkil etishga qaror qildi [5, 68]. Ushbu muassasa jurnalistlarga diplom beradigan birinchi kasb-hunar ta'limi muassasasi bo'ldi [2]. 1950-yil kuzida Jurnalistika institutiga

ikki yillik o‘qishga talabalar qabul qilinadi. Litsey bitiruvchilari ham, vaqtinchalik moddaga asosan ikki yil davomida haqiqatan jurnalist bo‘lib ishlagan shaxslar ham ma‘lumot darajasidan qat’i nazar talabalikka qabul qilindi. Talabalar uyushmasining 1960-yilda ta‘limni 3 yilga oshirish talabi ta‘lim muddati avval uch yilga, keyin esa to‘rt yilga oshirildi va institut nomi Istanbul universiteti Jurnalistika va jamoatchilik bilan aloqalar litseyi deb o‘zgartirildi.

1960-yil oxirida Anqara jurnalistlar jamiyati bakalavriat darajasida ta‘lim beradigan yangi oliy o‘quv yurti tashkil etish masalasini ko‘tardi. Kommunikatsiya sohasida ta‘lim beradigan muassasa tashkil etish istagi Anqara universiteti Siyosiy fanlar fakultetiga yuborildi. Siyosiy fanlar fakulteti 1962-yilda “Kommunikatsiya instituti”ni tashkil etishga qaror qiladi. YUNESKO shtab-kvartirasi tomonidan Bryussel universiteti jurnalistika fanlari bo‘yicha professor Rojer Klausga maktabni tashkil etish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish topshiriladi, u o‘rganishlar olib boradi va hisobot tayyorlaydi. Hisobotda oliy o‘quv yurtining tor doirada faqatgina jurnalistikani emas, televideniye, radio, kino va jamoatchilik bilan aloqalar yo‘nalishlarini ham qamrab olishi, kasbiy amaliyot bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish zarurligi ta‘kidlandi. Klausning hisoboti asosida 1964-yilda Anqara universiteti ma‘muriyati tomonidan institut tashkil etilishi bo‘yicha qaror qabul qilindi. Ushbu qaror bilan maktab nomi Anqara universiteti Siyosiy fanlar fakulteti Bosma matbuot oliy o‘quv yurti bo‘ldi.

1965-yilda faoliyat boshlagan oliy o‘quv yurtiga qabul qilinganlar ichida litsey bitiruvchilari bilan bir qatorda imtihondan muvaffaqiyatli o‘tgan va 5 yil davomida jurnalistika sohasida ishlagan o‘rta maktab bitiruvchilari ham bor edi. Oliy o‘quv yurti dastlab uchta kafedradan iborat edi: Matbuot; Jamoatchilik bilan aloqalar; Radio-televideniye. 1968-yilda kiritilgan o‘zgarishda Matbuot va Jamoatchilik bilan aloqalar kafedralari birlashtirildi. Bu 1988-yilgacha, ya‘ni Jurnalistika va Jamoatchilik bilan aloqalar kafedralari bir-biridan ajratilgungacha davom etdi [7, 22].

1965-yilda 625-sonli “Xususiy ta‘lim tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonun bilan Turkiyada jurnalistika sohasida xususiy oliy o‘quv yurtlari davri boshlandi. 1966-yilda Istanbul xususiy jurnalistika oliy o‘quv yurti, 1967-yilda Anqarada Boshkent xususiy jurnalistika oliy o‘quv yurti, 1968-yilda Izmirda Izmir Karatash xususiy jurnalistika oliy o‘quv yurti ochildi [6, 110]. Bu o‘quv yurtlariga kelgan

shikoyatlar o'rganilib, 1971-yilda chiqarilgan qonun bilan davlat tasarrufiga o'tkazildi va akademiyalarga birlashtirildi [7, 23].

1992-yilda 3837-sonli qonun bilan 2908-sonli "Oliy ta'lim tashkilotlari to'g'risida"gi qonunga o'zgartirishlar kiritildi va mavjud bo'lgan besh bosma matbuot oliy o'quv yurtlari kommunikatsiya fakultetlariga aylantirildi. Shu bilan birgalikda, bu qonun bilan Konyadagi Selchuk universiteti va Eskishahardagi Anadolu universiteti qoshida kommunikatsiya fakultetlari tashkil etildi.

1994-yilda Istanbulda Galatasaray, 1997-yilda Erzurumda Ataturk, Elazig', 1998-yilda Kojaeli, 1999-yilda Akdeniz universitetlari tarkibida kommunikatsiya fakultetlari tashkil etildi. Davlat universitetlarida bunday fakultetlar soni ortishi bilan bir qatorda, turli davlat universitetlarining tasviriy san'at fakultetlari ichida kommunikatsiya bilan bog'liq bakalavriyat dasturlari, kasb-hunar oliy o'quv yurtlarida kommunikatsiya, jamoatchilik bilan aloqalar, radio va televideniye, fotografiya kafedralari va xususiy kommunikatsiya ta'lim tashkilotlari ochildi.

1997-yildan e'tiboran vaqf universitetlari tashkil etilishiga yo'l ochilishi bilan vaqf universitetlarida ham kommunikatsiya fakultetlari ochila boshlandi. Bular orasida Istanbulda 1997-yilda tashkil etilgan Yeditepe, Maltepe, Bilgi, Bahcheshehir (2000), Istanbul Tijorat (2000), Anqarada Boshkent (1997), Chankaya va Atilim (1999) universitetlari bor. Bugungi kunda Turkiyada jurnalistika va kommunikatsiya sohalari bo'yicha 40dan ortiq yo'nalishlarda bakalavriyat va magistratura darajalarida ta'lim berilmoqda.

Jurnalistika ta'limi sifatida boshlangan ta'lim avval davlat, keyinroq vaqf universitetlari va xususiy oliy o'quv yurtlarida hamon kommunikatsiya fakultetlarida davom etmoqda. Ko'rinib turibdiki, xoh jurnalistika ta'limi bo'lsin, xoh kommunikatsiya davlat va jamiyatning barcha sohasida, siyosat, iqtisod, texnologiya, media va h.k.larda boshlang'ich nuqtasidan o'z ahamiyati va muhimligini saqlamoqda.

Turkiyada jurnalistika ta'limining kuchli taraflari bilan bir qatorda zaif taraflari ham yo'q emas. Jurnalistika ta'limi beradigan kafedralar ko'pligi, ayniqsa, davlat universitetlarida kvotaning ko'pligi va guruhlarda talaba sonining ortiqchaligi; dars beradigan o'qituvchilarning yetarli emasligi; jurnalistik yo'nalishlarida oliy ta'lim olishni boshlagan talabalarning boshlang'ich bilimlarining kamligi; oliy ta'limni yakunlab o'z sohalari bo'yicha muvaffaqiyatli

ish topa olishga bo'lgan noumidlik, jurnalistlik kasbida ishga joylashish imkoniyatlarining juda cheklanganligi kabilar ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

“Albatta, fakultetlarning ko'pligi va hamma fakultetlarning ham bir xil imkoniyatga ega emasligi ta'limning zaif tomonlaridan biridir. Talabalarning ko'pligi ta'limni sifatsizlashtiradigan jihatlardandir”.
(Prof. Asli Yapar Go'nench)

O'rganishdan olingan natijalardan biri Turkiyadagi davlat universitetlarining jurnalistika va kommunikatsiya fakultetlarining mavjudligini aniqlash bo'ldi. Ular orasida eng ko'p jurnalistika va aloqa fakultetlari Anqara va Istanbulda joylashgan. Anqarada Anqara universiteti, Anqara ijtimoiy fanlar universiteti, Gazi universiteti va Hajettepe universiteti ni o'z ichiga olgan 4 universitetda; Istanbulda Galatasaroy universiteti, Istanbul universiteti va Marmara universitetlarida jurnalistik ta'lim beriladi. Vaqf universitetlarida 19 ta jurnalistika va kommunikatsiya fakultetlari mavjud. Ulardan 15 tasi Istanbulda joylashgan bo'lsa, 2 tasi Izmir, 1 tasi Anqarada va 1 tasi Gaziantepda. Markaziy Anadolu mintaqasi vaqf universitetlari jurnalistika fakultetlarini ochmagan.

Jurnalistika ta'limi dunyoda yuz yildan ortiq vaqtdan beri mavjud bo'lsa-da, uning maqsadi va mazmuni bo'yicha munozaralar hali ham davom etmoqda. Bunda jurnalistikaning ijtimoiy o'zgarishlarga sezgir, dinamik soha ekanligi muhim. Turkiyada 1930-yillarda ehtiyoj sezilgan jurnalistika ta'limi 1950-yildan berila boshlandi. Jurnalistika ta'limi 60 yildan ortiq vaqtda hozirgi kunda tobora kengayib borayotgan kommunikatsiya ta'limining faqat bir qismiga aylandi. Ma'lumot to'plash fuqarolarning ixtiyorida bo'lishi kerakligi haqida axborot tashkilotlarida bir tendensiya bor: turli sohalarda ixtisoslashgan ko'p sonli muxbirlar o'rniga, fuqarolardan kelgan ma'lumotlarni formatlash va taqdim etish qobiliyatiga ega muharrirlarga ehtiyoj oshmoqda. Bugungi kunda Turkiyadagi jurnalistika va kommunikatsiya ta'limi ham zamon bilan hamnafas holda shu maqsadga yo'nalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alemdar, Korkmaz (1981). “Cumhuriyet Döneminde Gazetecilik Eğitimi Konusunda İlk Girişimler”. İletişim. AİTİA Gazetecilik ve Halkla İlişkiler Yüksek Okulu Yayın Organı

2. Alemdar, Korkmaz ve Erdoğan, İrfan (1998). “İletişim”. Cumhuriyet Döneminde Türkiye'de Bilim: Sosyal Bilimler II. Ankara

3. İskit, Server. R. (1939). Türkiye’de Matbuat Rejimleri. İstanbul: Matbuat Umum Müdürlüğü
4. İnuğur, Nuri (1988). Türk Basınında İz Bırakanlar. İstanbul: Der.
5. Abadan-Unat, Nermin (1972). Batı Avrupa ve Türkiye’de Basın Yayın Öğretimi. Ankara: Sevinç Matbaası
6. Altun, Abdülrezzak (1995). Türkiye’de Gazetecilik ve Gazeteciler. Ankara: Çağdaş Gazeteciler Derneği Yayınları
7. Tokgöz, Oya, (1975) “Türkiye’de Mesleki Eğitim Yapan Okullarda Mesleki Eğitim ve Stajın Önemi”, 2. Türk Basın Kurultayına Sunulacak Tebliğler, Basın Yayın Genel Müdürlüğü, Ayyıldız Matbaası, Ankara.



XALQARO JURNALISTIKADA TARJIMA VA TAHRIRNING O‘RNI

Xayrullaxon UROQOV, TDSHU 3- kurs Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi talabasi, Ilmiy rahbar: Kurolova Sayyora, Toshkent, O‘zbekiston
Tel:+998 93-934-2322; Email:khayrullakhanisomiddinov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola xalqaro jurnalistikada tarjima va tahrirning rolini va ahamiyatini tahlil etadi. Maqolada tarjima va tahrir jarayonini xalqaro jurnalistikaning asosiy jarayonlaridan biri ekanligini va o‘zaro bog‘langan voqealarning tasvirlanishida ularning qanchalik muhimligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: xalqaro jurnalistika, kommunikatsiya, yangiliklar tasviri, multilingvalizm, mediamadaniyat, kommunikatsiya, media platformalar.

Аннотация. Эта научная статья анализирует роль и значение толкования и редактирования в международной журналистике. Статья подчеркивает, что толкование и редактирование являются критически важными процессами в международной журналистике и их значимость при интерпретации взаимосвязанных событий.

Ключевые слова: международная журналистика, коммуникация, изображение новостей, многоязычие, медиакультура, коммуникация, медиа платформы.

Abstract. This scientific article analyzes the role and importance of interpreting and editing in international journalism. The article emphasizes the fact that translation and editing are critical processes in international journalism and their significance in interpreting interconnected events.

Key words: international journalism, communication, news portrayal, multilingualism, media culture, intercultural communication, media platforms.

Xalqaro jurnalistika – bu dunyo bo'ylab bo'lgan voqealarni izlash, tahlillash, shuningdek, tarjima qilish va tahrirlash bilan bog'liq bo'lgan soha. Xalqaro jurnalistika o'zgaruvchan global dunyoda yagona va ishonchli yangiliklar tizimini yaratishda muhim rol o'ynaydi va madaniyatlararo almishinuvni taminlaydi.

Tarjima va tahrirning o'rnini tushuntirish uchun, avvalo, xalqaro jurnalistikadagi ularning rolini anglashimiz kerak. Jahon miqyosida sodir bo'layotgan voqea va hodisalar haqida xabar berishda, ma'lum bir mamlakat yoki mintaqadagi voqealar to'g'risida mazkur mamlakatning rasmiy tilida keltirilgan ma'lumotlarni boshqa tillarga tarjima qilish muhim. Lekin, tarjima jarayoni o'z insoniy xususiyatlariga tayangan holda voqea-ga munosabat bildirish imkonini ham beradi.

Tahrir esa biror voqea yoki xabar haqidagi to'liqroq tushuncha va aniqlanayotgan tasvirlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Tahrir jarayoni voqealarni, shaxslarni va tajovuzlarni tasvirlash usullarini mohirlik bilan belgilaydi.

Tarjima muhim jurnalistik jarayon hisoblanadi, chunki u bittadan ko'proq madaniyat va mintaqa orasida o'zaro a'loqani ta'minlaydi. Xalqaro jurnalistikada tarjimashunoslik, yangiliklarni dunyoga tarqatishning asosiy vositalaridan biridir. Xorijiy til bo'yicha xabarlar uchun tarjimonlar, tahrirchilar va muharrirlar talab qilinadi, ular faqatgina ma'lumot yetkazish emas, balki bir mamlakatning madaniy holatini ham yoritish majburiyatini oladi. Tarjimonlik xizmatlari dunyo bo'ylab juda ham qadrlanadi. Tarjimashunoslik tizimi, yoritilgan yangiliklar kompaniyalar soni hamda xalqaro yangiliklar platformalarining soni ko'paygani sababli ma'lumotlarni oson ko'rib chiqish uchun zarurdir. Tarjimonlar xalqaro yangiliklarni to'g'ri yoritib berishda muhim rol o'ynaydi.

Tahrir - jurnalistika sohasida muhim rolni o'ynaydi. Uning asosiy vazifasi matnni yaxshilash, aniqroq qilish va voqeani to'g'ri aks ettirishdir. Xalqaro jurnalistikada muharrirlar bir xabarni ko'rib chiqish, tarjima qilish va matnga moslash uchun ishlab chiqish jarayonida muhim rolni o'ynaydilar. Muharrirlar, shuningdek, matnni mazkur mamlakat yoki mintaqaning o'ziga xos madaniyati va til mavzulariga moslashtirishda muhim vazifalarni bajarishadi. Ularning xabarlarlarni tarqatish, matnlarni qisqa va aniqroq qilish, shuningdek, voqeani yaxshi o'qilib tushunilishini ta'minlashga qaratilgan ishlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, xalqaro jurnalistikada tarjima va tahrir jarayoni, shaffoflik, e'tibor, mantiqiy fikrlash, va o'zaro tushunish, shu bilan birga, o'zgaruvchan dunyo bo'ylab muloqot qurish kabi asosiy qadriyatlar tarkibini o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar esa yangiliklarni hamma uchun

tushunarliroq qilishga hamda mazkur mamlakat yoki mintaqaning o'ziga xos kontekstini berishga imkon beradi.

Tarjimadan xalqaro jurnalistika bilan bog'liq holda, madaniy kontekst yuzaga keladi. Madaniy kontekst, voqealar yuz berayotgan mamlakatning madaniyatida, qonunlarida, urf-odatlarida, iqtisodiy va siyosiy vaziyatida beriladigan materiallarga tasir qiladi.

Axborot makoni, ko'pgina tillardan olinadigan bir texnologiya bo'lganligi uchun, u xalqaro jurnalistikada tarjima va tahrirning o'rni bilan birga, globallasuvga ko'maklashadi. Tarjima va tahrir jarayonlari jamiyatning qabul qilishini belgilaydi. Bu jarayonlar, media madaniyatini shakllantirishda, xabarlar haqida umumiy qarashlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Madaniyatlararo muloqot va yangi media platformalari bu ikki tushuncha xalqaro jurnalistikada operativ tarjimalar va xabar berish va ularga tahrirlash jarayonlarini osonlashtiradi. Har bir tahrir qiluvchi - shuningdek, tarjimani qilish jarayoni davomida - xalqaro jamiyatni to'g'ri va adolatli xabardor qilish uchun mas'uliyatga ega.

Xulosa. Xalqaro jurnalistikada tarjima va tahrirning o'rni nihoyatda muhim hisoblanadi. Yangiliklarni dunyo miqyosida tezkor, to'g'ri va ishonchli ravishda yetkazishda tarjima, madaniyatlarni bir-biriga yaqinlashtirish va madaniyatlararo kommunikatsiyani yaxshilashni ham o'z ichiga oladi. Tahrir esa, ma'lumotlarni tushunishga yordam beradigan ko'rinishda to'g'riroq qilish va o'qishni qulaylashtirish, hamda madaniy kontekstni yaxshi ravishda aks ettirish uchun matnni qayta ko'rib chiqishga yordam beradi.

Biroq, tarjima va tahrir o'z vazifalarini bajarishda bir qancha muammo va to'siqlar bilan yuzlashadi. Tarjimonlar va tahrirchilar mamlakat va madaniyatning maxsus xususiyatlarini hisobga olgan holda, xabarni aniq, to'g'ri va samarali tarzda qayta ko'rib chiqishi talab qilinadi. Tarjima va tahrirning xalqaro jurnalistika uchun ahamiyati shundaki, ular xabarlarini o'z o'quvchilariga tushunarli tarzda yetkazadi, ma'lumotlarni savodli va aqliy yondashib tahlil qiladi, tayyor, tushunarli va o'qiladigan ko'rinishga keltiradi. Biroq, ularning tarjima va tahrir qilishdagi samaradorliklari to'g'ri tahririy madaniyatga asoslangan.

Mamlakatlardagi farqliliklarni hisobga olgan holda tarjima va tahrir jarayonlarini samarali bajarish va tahririy javobgarlikni ta'minlash xalqaro jurnalistikada muhimdir. Bu jarayonlar orqali, xalqaro jurnalistika yangiliklarni obyektiv va to'liq aks ettiradi. Shuning uchun tarjima va tahrirning xalqaro jurnalistikadagi o'rni kamchilik qilinmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1] – Bielsa, E. & Bassnett, S. (2009). Translation in Global News. Routledge.
[2] – Boyd-Barrett, O. (2010). News Agencies in the Turbulent Era of the Internet. Generalitat de Catalunya.
[3] – Cottle, S. (2009). Global Crisis Reporting. Open University Press.
[4] – Figenschou, T. (2010). Al Jazeera and the Global Media Landscape: The South is Talking Back. Routledge.
[5] – Galtung, J., & Ruge, M. H. (1965). The Structure of Foreign News. In Journal of Peace Research, 2 (1).
[6] – Valdeón, R. A. (2015). Fifteen Years of Journalistic Translation Research and More. Perspectives.



TARJIMASHUNOS, FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI XAYRULLA HAMIDOV TAVALLUDINING 60 YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN MAQOLALAR

TURKSHUNOSLIGIMIZNING YIRIK NAMOYANDASI

Filologiya fanlari doktori, professor Abdurahim MANNONOV

Xayrulla Hamidovni 1998-yil Toshkent davlat sharqshunoslik institutining Turkiyot kafedrasiga o‘qituvchi bo‘lib kelgan davrdan beri yaxshi bilaman. Men o‘sha vaqtlar institutning O‘quv ishlari prorektori edim. Xayrullaning oddiy o‘qituvchilikdan institut Magistratura bo‘limi boshlig‘i, Institut kasaba uyushmasining raisi, sharqshunoslik tarixida ilk bor ochilgan “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasining birinchi mudiri hamda filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (2018-yil) va filologiya fanlari doktori (2021-yil) yuksak ilmiy darajalariga va dotsent unvoniga ega bo‘lish kabi jarayonlari bilan bog‘liq 25 yillik faoliyati, hamma-hammasi shunday mening ko‘z oldimda turibdi. Shu chorak asr ichida u rahbarlik, tashkilotchilik yoki minglab soatlar kesimida talabalarga dars berish orasida nafaqat yuqori ilmiy daraja va unvonlarga ega bo‘lishga ulgurdi, balki shu davr ichida o‘zining mislsiz mehnatkashligi va o‘z sohasining fidoyisi sifatida umumiy hajmi qariyb 100 bosma taboqdan iborat 9 ta monografiya va 3 ta risola, eng zamonaviy talablar asosida yaratilgan katta hajmdagi “Turk tili” darsligi, 16 ta salmoqli va o‘ta zarur qo‘llanmalar, talabalar va yosh o‘qituvchilar uchun muhim bo‘lgan 4 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 4 ta ikki tilli izohli lug‘at

va salkam 60 bosma taboqni tashkil etuvchi turk va o‘zbek adabiyoti antologiyalarini nashr ettirdi va butun ilmiy-pedagogik faoliyati davomida 200 dan ziyod xorijiy va respublikamizdagi ilmiy jurnallar, turli xalqaro va respublika darajasidagi ilmiy konferensiyalar to‘plamlarida, qator ommaviy matbuot nashrlarida maqolalari chop etildi.

Yuqorida zikr etilgan katta hajmdagi ilmiy monografiya va maqolalari qatoriga bu olimning yana 16 ta darslik va qo‘llanmalarining nashriy salmog‘ini ham ilova qilsak, ularning hajmiy raqami salmog‘i juda zalvorli bo‘lib chiqadi. Masalan, Xayrullaning yaqinda nashr etilgan “Turk tili” darsligining o‘ziyoq 382 bet, ya’ni 25 bosma taboqdan iborat. Agar bu raqamlarga yana qolgan qo‘llanmalarini, ham uning turk tilidan o‘zbek tiliga ag‘dargan roman, qissa va hikoyalari, shuningdek, o‘zbek tilidan turk tiliga o‘girilgan Said Ahmad, O‘tkir Hoshimov, Tog‘ay Murod, Ulug‘bek Hamdam kabi taniqli adiblarimizning hikoyalari, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon va Muhammad Yusufning she‘rlari, dostonlarining badiiy tarjimalarining ko‘plab nusxalarda chop etilganligini ham e‘tiborga olsak, darhaqiqat, ulkan mehnatning salmog‘i yanada yaqqolroq ko‘rinadi. Mening bu misollarni keltirishimdan maqsad, Xayrulla Hamidovning juda kam sonli olim, ijodkorlarga nasib etadigan ulkan mehnatkashlik, ijod, tadqiqot va pedagogika yo‘lida hayratlanarli tinib-tinchimaslik, o‘ta sermahsul va faol bo‘lgan inson ekanligiga urg‘u berishdir.

U har safar juda chiroyli va samimiy, ehtiromli so‘zlari bilan menga o‘zining yangi nashr etilgan qo‘llanmalari, tarjimalari, darsliklarini taqdim etib boradi. Men esa, ularning har birini sinchiklab o‘qib chiqishga harakat qilaman. Ammo ba’zida uning kitoblarini varaqlab chiqishga ham ulgurmasimdan, u boshqa yangi nashr etilgan ilmiy kitobini yoki tarjimalarini qo‘limga tutqazadi. Universitetda Xayrullaning ketma-ket yozib nashr etayotgan asarlaridan boxabar ba’zi hamkasblari uning ortidan: “Shuncha dars soatlari bo‘la turib, har oy bitta kitob yoki risola yoki tarjima chop etadi”, deb qo‘yishadi, yaxshi ko‘ngilda.

Xayrulla uchun pedagogik faoliyat, dars berish masalasi eng asosiy, muqaddas yumushdir. Darhaqiqat, u bakalavrlar, magistrantlarga o‘nga yaqin fanlardan yuksak mahorat bilan ma’ruzalar o‘qish, amaliy dars, seminarlar olib borish va ularga puxta talab darajasida hozirlik ko‘rish jarayonlari orasida ijod qilish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va tarjimalarni amalga oshirishga ulguradi. Qator tajribali professor-o‘qituvchilarimizdan Xayrullaning maroqli dars berish malakasi haqida havas bilan fikr bildirganliklarining ham guvohiman. Shundan bo‘lsa kerak, uning atro-

fida, qachon kuzatsang, yosh pedagoglar, talabalar, magistrantlar gavgum. Xayrulla uchun o'qituvchilik tom ma'nodagi kasbga aylangan.

Yaxshi insonni vaqt kashf etadi, deb bejiz aytishmagan. Xayrulla men uchun 25 yil davomida sinalgan, kashf qilganim – yaxshi insondir.

Men bir yunon donishmandining “Insonning darajasi (kimligi) uning o'z kuchi bilan qilgan ishiga ko'ra belgilanadi”, degan hikmatiga Xayrulla misolida to'la qo'shilaman. Nazarimda Xayrulla o'zining butun ongli hayotini yaxshi, oliyjanob va ezgu ishlarni qilishga baxsh etgan va bu ishlarni o'zining sharafligi vazifasi deb biladi.

Xayrullaning filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi asosida chop etilgan “Turk frazeologiyasi masalalari” (2019-yil, 160 bet) va doktorlik dissertatsiyasi materiallari asosida nashr etilgan 276 betli “O'zbek qissa va romanlari turk tilida” (2022-yil) monografiyalari hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyurtmasi bilan yangi chop etilgan salmoqli “Turk tili” darsligi misolida uning beistisno hozirgi zamon o'zbek turkshunosligining ulkan, zalvorli yutuqlarini amalga oshirishni o'z zimmasiga olgan olim deb aytish mumkin.

Bilamizki, frazeologiya masalalari jahon tilshunosligida eng ko'p o'rganilgan, ammo hamon juda ko'p, behisob muammolari hal etilmagan yo'nalish hisoblanadi. Bu sohada, ingliz, rus, nemis tillari bo'yicha qator fundamental tadqiqotlar amalga oshirilganligi, bu tillarning bir necha jildlik frazeologik izohli lug'atlari chop etilganligi ma'lum. Ammo boshqa juda ko'p tillardagi frazeologik birikmalarning ilmiy-nazariy tadqiqi va lug'atlarini tuzish masalalari hamon dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu jumladan, turkiy tillarning bu sohadagi yirik-yirik yechilmagan muammolari bor. O'zbek frazeologiyashunosligi ham, garchi boshqa turkiy tillarga qaraganda anchayin ilgarilab ketgan bo'lsa-da, bu yerda ham, xususan, yangi ilmiy-nazariy qarashlar asosida o'rganilishi lozim bo'lgan, yechimini kutayotgan masalalar kam emas.

Xayrulla Hamidovning turk frazeologiyasiga oid asarida hozirgi turk tilining iboralariga oid deyarli barcha nazariy va amaliy masalalarning ichiga kirib borilgan, har bir bob, faslda tadqiq doirasiga kiritilgan har bir masala chuqur nazariy konsepsiyalar asosida tahlilga tortilib, aniq va o'ta asosli xulosalar chiqarilganligi bilan alohida e'tiborga loyiqdir. O'ylaymanki, Xayrullaning bu asari o'zbek, ozarbayjon, turkman, qozoq, qirg'iz, turk, boshqird, tatar kabi turkiy tillarning barqaror frazeologik birliklarini ham funksional, ham nazariy tipologik o'rganishda o'zining chuqur, fundamental tahlil va xulosalari bilan juda-juda asqotadi.

Xayrulla bu tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida dastlab frazeologizmlarga oid juda ko'p qarama-qarshi nazariy qarashlarning to'g'ri

maxrajini topish va yig'ilgan ulkan materiallarni birma-bir saralashda biroz qiynaldi, hatto tushkunlikka tushgan paytlari ham bo'ldi. Ammo, har qanday qiyinchilik, muammo o'z yo'lini qat'iy tanlagan inson uchun uni kelajakda kim bo'lib ilmiy maydoniga chiqishi uchun sinov edi.

Xayrulla Hamidovning keyingi monografiyasi uning "O'zbek qissa va romanlarining turkcha tarjimalarida milliylik, badiiylik va lisoniy adekvatlik masalalari" deb nomlangan doktorlik (DSc) dissertatsiyasi-ning biroz qayta ishlanib va to'ldirilib nashr etilgan variantidir.

Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab turk tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan turk tiliga juda ko'p asarlar tarjima qilindi va bu tarjimalarning ba'zi qirralari haqida bir qator dissertatsiyalari ham yoqlandi. Ammo hozirga kelib ikki tilda amalga oshirilgan badiiy tarjimalarning salmog'i, soni va tarjimalar bilan bog'liq o'ta dolzarb **"ayt-masa bo'lmaydigan"** muammolar shunchalik ko'payib ketdiki, bu masalalarni keng miqyosda o'rganish, kerak bo'lsa tarjimachilikda yuzaga kelgan noaniqliklar, kechirib bo'lmaydigan g'alizliklar, befarqliklar va h.k. muammolarni u yoki bu tarzda keng va asosli o'rganish, hal qilish, to'g'ri ilmiy yo'lga solish zaruriyati paydo bo'ldi. Turkiya va O'zbekistonimizda tarjimashunoslik muammolarini u yoki bu tarzda o'rganishga oid qator ilmiy maqolalar chop etildi. Ammo masalalarni, chigalliklarni tarjimashunoslikning yaxlit bir ilmiy konsepsiya asosida keng miqyosda monografik tadqiq etishga uzoq vaqtgacha qo'l urilmadi, to'g'rirog'i, bu ummonga sho'ng'ishga yuragimiz betlamadi. Chunki yuzaga kelgan muammolarni o'rganish, hal qilish uchun faqat zamonaviy jahon tarjimashunosligi o'rta tashlayotgan nuqtai nazarlarni chuqur bilishning o'zi kifoya qilmas edi. Buning uchun ikki qardosh tilning nozik xislatlari, badiiy imkoniyatlarini oliy darajada bilish va eng muhimi, bunday ishga qo'l urgan tadqiqotchining o'zi tarjimonlik ishini boshidan o'tkazgan, bu borada tajriba orttirgan, **"suyagi qotgan"** bo'lishi kerak edi. Nazarimda, aynan ana shu xislatlarni, malakalarni boshqalardan ko'ra ko'proq va mukammalroq o'zida mujassam etgan olim – Xayrulla Hamidov edi.

Xayrulla Hamidov bu dissertatsiya va kitobida o'z oldiga qo'ygan barcha muammo va masalalarni atoqli yozuvchilarimiz Abdulla Qodiriyning mashhur ikki romani, Oybekning "Navoiy", Odil Yoqubovning "Adolat manzili" romanlari va O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi-ning turk tiliga turkiyalik tarjimonlar amalga oshirgan variantlari misolida hal qilish uchun, avvalo, shu mavzu doirasiga kiruvchi, "Mustaqillik yillari o'zbek-turk tarjimachiligining dolzarb muammolari" nomi ostida birlashgan, bir necha qismdan iborat ilmiy tadqiqot ishlarini alohida kitoblar holidan e'lon qiladi. Bular: *"O'zbekchadan turkchaga nasriy tarjima muammo-*

lari” (2014 yil), *“Maqol va idiomalar tarjimasi muammolari”* (2017 yil), *“Abdulla Qodiriy asarlari turk tilida”* (2019-yil), *“Odil Yoqubov asarlari turk tilida”* (2019-yil), *“O‘tkir Hoshimov asarlari turk tilida”* (2020-yil), *“Milliy xos so‘zlar – romanlar va badiiy tarjima”* (Maqolalar to‘plami, 1998-yil) va bu to‘plamga kirmagan yana bir necha maqolalarni ham e‘lon qiladi. Natijada shu tadqiqotlar va chop etilmagan bir dunyo ilmiy materiallari asosida dastlab doktorlik (DSc) dissertatsiyasi va uning asosida yuqorida tilga olingan fundamental monografiyasini chop etadi.

Ushbu monografiyaga yozilgan “So‘zboshi”mizda bu asar haqida, jumladan, quyidagilar zikr etilgan edi: “Tadqiqot natijasida A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon”, Oybekning “Navoiy”, O.Yoqubovning “Adolat manzili” romanlari, O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasining turk tiliga tarjimalari qiyosiy tahlili asosida ilk bor asarlarga badiiy jihatdan muvofiqlik darajasi aniqlangan; tarjimalarda muallif uslubi-ning saqlanishi, asarlardagi o‘xshatish, metafora va jonlantirish kabi badiiy tasvir, ifoda vositalari, realiyalarning asliyatga moslik darajasi, personaj nutqi, portret va tabiat tasvirini adekvat qayta yaratish yo‘li ochib berilgan; maqol va iboralarning tarjimada ekvivalent, muqobil vositasida hamda tavsif yo‘li bilan berilishi, ularning lingvomadaniy jihatlari aniqlangan; asliyat obrazlariga xos emotsionallik, davr ruhini berishda so‘zma-so‘z tarjimaga yo‘l qo‘yilishi muallif uslubininig g‘alizlashuviga olib kelganligi dalillangan; tillardagi so‘zlarning shaklan o‘xshashligi va semantik farqliligi asoslanib, tarjimalarda ma’nolari yetarlicha ochib berilmagan, muqobillari muvaffaqiyatsiz tanlangan, ma’nosi anglashilmay qolgan maqol va iboralar aniqlangan, to‘g‘ri variantlari taklif etilib, kelajakda bu asarlarning qayta tarjima qilish kerakligi asoslangan; tarjimalarda tillarning yaqinligidan yuzaga keladigan “soxta ekvivalentlik”, realiyalarning berilishi muammolari aniqlanib, ilmiy yechimlari taklif etilgan”.

O‘zbekistonimizning bu ko‘zga ko‘ringan turkshunos olimi, yuksak salohiyatli ustoz, taniqli tarjimon Xayrulla Hamidovning faoliyati kelgusida alohida risolada to‘laqonli aksini topajak.

Xayrulla Hamidovning, aytilganlarga qo‘shimcha yana bir qator insoniy xislatlari haqida ikki og‘iz so‘z. Xayrulla o‘zining barcha go‘zal insoniy xislatlari bilan universitetda va undan tashqarida tanilgan, haqiqatdan ham unda biz kashf qilgan yaxshi xislatlarining sarlavhasida unga xos bo‘lgan odamiylik, oqko‘ngillik, to‘g‘riso‘zlik, o‘zbekonalik, haqso‘zlik, kamtarinlik va bag‘rikenglik, donishmandona fikrlashga moyillik, birso‘zlik, poklik, ahli ayoli va farzandlariga, yaqinlariga, ustozlariga bo‘lgan samimiylik, mehribonlik va yana o‘nlab oliyjanob fazilatlarning sohibi ekanligiga men guvohman.

Xayrulla Hamidov biron bir kimsaga ozor bermagan, aksincha qo‘li-dan kelganicha yaqinlari, shogirdlari, do‘stlarini qo‘llab-quvvatlashni, xayrixohlikni o‘zining burchi deb biladi. O‘zi ishlaydigan kafedraning barcha a‘zolari Xayrullani aynan yuqorida zikr etilgan va etilmagan insoniy xislatlari, mehnatkashligi uchun chin dildan hurmat qilishadi, yaxshi ko‘rib ardoqlashadi. Qo‘yib bersa ularning har biri Xayrullani boshiga ko‘tarib yurishga ham tayyor. Nazarimda kafedrani usiz mutlaqo tasavvur etib bo‘lmaydi. Hamma bu mehribon, xushmuomala, ko‘ngli ochiq va tinib-tinchimas, zahmatkash olim, hamma uchun hamma sharoitda ham ko‘mak berishga tayyor, kafedraning bosh “patrioti” bo‘lgan bu insonga juda bog‘lanib, o‘rganib qolgan. U kelmagan kuni kafedra ham huvillab qolgandek bo‘ladi. Yunon faylasufi aytadi: “Yaxshilik buyuklikdan iborat emas, aksincha buyuklik yaxshilikdan iborat”.

60 yosh insonning eng kuchga to‘lgan, hayotning hamma achchiqchuchugi, baland-pastliklarini ko‘rib bo‘lgan va endi hamma o‘ylagan ezgu niyatlarni to‘laqonli amalga oshirishga sharoit yaratib bergan yoshdir. Sizning qiladigan ezgu ishlaringiz rejalari ko‘nglingizda, dilingizda, o‘y-xayollaringizda tinchlik bermay turibdi. Men qat’iy ishonamanki, o‘nlab ilmiy salohiyatli yoshlarni tarbiyalab berasiz, yana o‘nlab monografiyalar yozib nashr ettirish, darsliklar yaratish, turk tilidan o‘zbek tiliga, o‘zbek tilidan turk tiliga ko‘p sara asarlarni qoyilmaqom qilib tarjima qilish, xalqaro anjumanlarda ishtirok etib, ilmiy chiqishlarni amalga oshirasiz. Amalga oshirilishi muhim bo‘lgan ishlaringiz, kitoblaringizni ham turk tiliga tarjimasini albatta amalga oshirishingiz kerak, deb o‘ylayman. Bularning hammasi men sizda ko‘rgan o‘sha buyuk ezguliklardir. Sizga bardavom, mustahkam sihat-salomatlik tilayman.



TILLAR VA DILLARNI BIRLASHTIRGAN OLIM

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori,
prof. **Gulchehra RIXSIYEVA***

Xalqimizda “Til bilgan el biladi” degan naql bor. Men bunga qo‘shimcha tarzda ular til egalarini bilishi bilan birga, boshqalarning ham o‘zga ellarni o‘rganishiga sababchi bo‘ladi bunday insonlar deya olaman. Bunday insonlar xalq milliy tafakkurining namoyoni bo‘lgan adabiyot namunalarini ona tiliga tarjima qilib qardosh yoki boshqa ellarning dunyoqarashiyu taxayyul olamini bilishimiz, tushunishimizda

eng muhim vosita bo'la oladilar. Universitetimizda adabiyotga, kitobga mehr bergan ustozlar talaygina. Ammo ular orasida o'ziga ma'qul kitoblarni boshqa tillarga tarjima qiladigan yoki xorijiy tillardagi asarlarni o'zbek o'quvchilariga taqdim eta oladiganlari sanoqli. Tarjimonlar orasida ham bir tomonga o'giruvchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Har ikki tilga birdek badiiy tarjima qila oladigan tarjimonlar ko'p emas. Buning uchun nafaqat bir tilning, balki ikkinchi tilning ham badiiyatini, xalq madaniyatini chuqur bilish va uning asarni qabul qilish imkoniyatlarini chuqur anglash, his qilishni talab etadi.

Tarjimashunoslik yo'nalishida kadrlar tayyorlovchi kafedramiz dotsenti, filologiya fanlari doktori Xayrulla Hamidovni aynan ko'p qirrali tarjimon deya olamiz. U o'zbek adabiyoti namunalarini turk tiliga tarjima qilib turk xalqiga tanishtirishda faol mehnat qilib kelmoqdalar. Ilmiy loyihalar doirasida bajarilgan tarjimalar, o'zbek adabiyotining eng sara asarlarini turk tiliga chiroyli o'girib tayyorlagan kitoblari o'quvchilar orasida mashhur bo'lib ketgan. "Turksoy" xalqaro tashkilotining e'tiboriga tushgan Xayrulla Hamidovning tarjimalari yanada mashhur bo'lishida o'zbek xalqining sevimli yozuvchisi Said Ahmadning hikoyalari tarjima kitobi ham sabab bo'ldi. "Turksoy" tashkilotining markazi aynan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ochildishi haqida taklif kiritilishida turkshunoslik markazi bo'lgan oliy ta'lim va ilm dargohi ekanligimiz bilan birga, Xayrulla Hamidovdek tarjima ustalari faoliyat yuritayotganligining ham ahamiyati bor. Kichik xonadan katta markazga aylanishi kutilayotgan ushbu shobaning taraqqiyotida, ko'plab asarlarning tarjimalari chop etilishida, shogirdlarning ham faol bo'lishida Xayrulla akaning ulkan hissasi bor.

Xayrulla aka – ko'p qirrali iste'dod sohibi. Yuqorida aytganim – bu insonning birinchi qirrasi. Xayrulla aka o'zbek, rus, turk tillarida erkin ijod qildilar, tarjimalarni qoyilmaqom qilib taqdim etadilar doim. Mehnatsevarlik – bu insonning eng muhim sifati deya olaman. Qachonki ularni so'ramay, doim qaysidir kitob tarjimasi, qaysidir ilmiy maqola ustida ishlayotgan yoki tarjima matnlarini tahrir qilayotgan vaziyatda uchrataman. Tinimsiz o'z ustida ishlashning namunasi bu. Xayrulla aka talabalarning sevimli ustoz. 2011-yilda ta'sis etilgan mazkur kafedraning qanchadan-qancha bitiruvchilari Xayrulla akaning shogirdlari. Tarjima sirlarini, badiiy o'girmalarning jihatlarini o'rganib mutaxassis bo'lgan hamma bitiruvchilarimizning taqdirida ularning o'rnini bor. Kichik asarlar tarjimalarini birgalikda tayyorlab muntazam kitob shaklida chop ettirib, shogirdlarini rag'batlantirib, ruhlantirib keladilar.

Xayrulla aka o‘z ustozlarini nihoyatda ulug‘laydigan inson. U kishi ustozlari, o‘zbek tarjimashunosligining asoschisi professor G‘aybulla Salomovning bir necha kitobini qayta nashrga tayyorlab, chop ettirib yoshlarning bilim sandig‘iga qo‘shishlarida katta mehnat qilganlar. Universitetimizda 10 yildan buyon o‘tkazilib kelinayotgan va bugunga kelib xalqaro tarjimashunoslar forumi darajasiga ko‘tarilgan, o‘zbek olimlari, xorijiy mutaxassislar va tarjimonlarni birlashtirib, katta ilmiy muhokamalar, sarhisoblar maydoniga aylanib kelayotgan tarjimashunoslik anjumanlarimizning bardavomligida ham Xayrulla akaning hissalarini beqiyosdir. Ushbu xalqaro forumning har yili an‘anaviy tarzda G‘aybulla Salomovning tavallud kunlarida o‘tkazilib kelinayotganligi ham quvonarli hol. Ustoz-shogird an‘analarining beqiyos in‘ikosidir. Universitet ustozlari, ko‘p sonli jamoamizning hurmatiga sazovor Xayrulla aka tarjimon va o‘qituvchi bo‘lishlari bilan birga, yana bir muhim va mas‘uliyatli ishga qo‘l urgan va uni uddalagan shaxs sifatida olimlik martabasiga erishgan ekanliklari yana bir qirralaridir.

Xayrulla Hamidovning “Turk tilida frazeologizmlarning yuzaga kelishi, ma‘no va grammatik xususiyatlari” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasi uchun yozilgan dissertatsiyasi 2018-yilda himoya qilingan bo‘lsa, 2021-yilda “O‘zbek qissa va romanlarining turkcha tarjimalarida milliylik, badiiylik va lisoniy adekvatlik masalalari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini professor Abdurahim Mannonov rahbarliklarida himoya qilib, filologiya fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo‘ldilar. Bu ham Xayrulla akaning tirishqoqligi, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishish yo‘lida tinimsiz va g‘ayrat bilan ishlaganligining natijasidir.

Olimlikning yuksak martabasi – fan doktori ilmiy darajasiga erishganlarida barchamiz quvonganmiz. Chunki bu yo‘nalishda mutaxassislar yetishmasligi bugungi kunda xalqlararo, madaniyatlararo aloqa, muloqotlar kuchaygan paytda dolzarb soha bo‘lib bormoqda.

Turk va o‘zbek tillarini qiyosiy o‘rganish, tarjima sirlarini chuqur egallash asnosida qator ilmiy maqolalar nashr ettirgan Xayrulla aka o‘nlab darslik va o‘quv qo‘llanmalarining ham pishiq va puxta bo‘lishiga erishgan mutaxassis olimdir. Hamma olim ham darslik yozishni o‘zining ishi deb bilmaydi. Xayrulla aka esa turk tilining nazariy masalalaridan tortib, bugungi kunda kafedrada o‘qitiladigan tarjimashunoslik sohasiga qadar bo‘lgan bir necha fandan darslik va o‘quv qo‘llanmalar muallifi ham hisoblanadilar.

Xayrulla akaning san‘atga oshnoligi, musiqani sevishi, milliy va yevropa cholg‘u asboblari qoyilmaqom kuylar chalishlari, milliy qo‘-

shiqqlarimizni ham xirgoyi qilishlari bu iste'dodli insonning yana bir muhim qirrasini hisoblanadi. Universitetimizda o'tkaziladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda Xayrulla akaning ko'plab olqishlarga sazovor bo'lganlarini bilamiz. U kishining hali sanab o'tilmagan qirralari ko'p. Oilaparvar, o'z kasbiga fidoyi, so'zning qadriga yetuvchi til va adabiyot ixlosmandi bo'lgan Xayrulla aka tinimsiz ilm va ijod bilan mashg'ul bo'lganliklari bo'ismi, doim yosh. Bugungi 60 yoshlik tavallud ayyomida uzog'i bilan 50 yoshda bo'lsalar kerak deymiz. Doim shunday yoshlar orasida, shogirdlar ardog'ida yosh bo'lib, ilm-fan kishilari davrasida hurmatga sazovor bo'lib uzoq umr ko'rib yurishlarini tilab qolaman. Ijodingizga baraka bersin, Xayrulla aka!



MEHNATI BILAN YUKSALGAN OLIM

*Filologiya fanlari doktori, professor **Qudratulla OMONOV***

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti misoli bir katta bog'. Bu maskandan Turku fors, arab gullarini ham, yaponu koreys chechaklarini ham, hindu xitoy anvoyi o'simliklarini ham, qo'yinki, barcha sharq ellarining o'z iforiga ega bog'u bo'stonlarini topasiz. Bu bog'larning har birining o'z bog'bonlari bor. Turk bo'stonining bog'bonlari ham bisyor. Ulardan biri Xayrulla Hamidov domla bo'ladilar. Xayrulla aka qariyb 30 yildan ortiq yigitlik va yetuklik pallalarini turk tili, turk frazeologiyasi, tarjimonlik masalalariga qaratdilar va hozirda zamonaviy turk tilining katta bilimdoni, yetuk tarjimonlik mutaxassis o'laroq nom qozondilar.

Xayrulla Hamidovni taniganimga 20 yil bo'ldi. Bu vaqt davomida Xayrulla aka kafedra o'qituvchisi pillapoyasidan professorlik pillapoyasiga qadar bo'lgan faoliyat yo'lini qanday mashaqqatlar bilan bosib o'tganini uzoq yillar bir kafedrada yelkama-yelka ishlab jonli shohidi bo'lganman. Shu jihatdan ham bu inson haqida uzoq gapirishim, yozishim mumkin. Lekin hozir so'zni qisqa qilib, u kishini nihoyatda muhim bir jihatlari – mehnatsevarliklari haqida to'xtalsam.

Xayrulla Hamidov tug'ma mehnatsevar. Bugun Xayrulla aka nimga erishgan, nimani topgan, qanday kitoblar yozgan bo'lsa, bularning bari uning mehnatkashligi orqasidan kelgan. Nima ish bo'lishidan qat'iy nazar hech qachon u ishni ortga tashlab qo'ymaydi. U ishni bitirmaguncha tinchimaydi. Bu ish biror anjuman o'tkazish bilan bog'liqmi yoki biror o'quv qo'llanmani yozish bilanmi yoki paxta dalasidagi ishlarni,

qo‘yinki, har qanday faoliyatda u kishining mehnatkashliklari, vaqtni behudaga zoye etmasliklari seziladi. Kuzatganlarimdan bir misol.

Xayrulla aka har qanday yig‘in, majlis, anjuman yoki suhbatga doim o‘z noutbuki bilan keladi. Uzoq cho‘zilib ketadigan bunday yig‘inlarda tinch turmaydi. Noutbukini chiqarib yig‘in davomida biror bir maqolasi ustida ishlaydi yoki biror bir qo‘llanmasini tahrir qiladi. Hech bo‘lmaganida biror bir asar tarjimasini sayqallab o‘tiradi. Kafedraga kirsangiz ham ayni manzaraga duch kelasiz. U noutbukida biror matn qoralayotgan yoki tahrir qilayotgan bo‘ladi. Stolda, albatta bir choynik issiq ko‘k choy damlangan holda turadi. Xayrulla domlaning doimiy hamrohlari: noutbuk va ko‘k choy.

Xayrulla akaning ana shu mehnatkashliklari va vaqtning qadriga yetishlari evaziga o‘nlab o‘quv uslubiy qo‘llanmalar, yuzlab maqolalar, monografiya va tarjima kitoblar dunyoga kelgan va kelmoqda.

Bu aytganlarim Xayrulla akaning qiyofasidagi bir chizgi, xolos. U kishi bundan tashqari nihoyatda yaxshi hofiz va sozanda, oilaparvar ota, yaxshi usta hamdirlar. Xayrulla Hamidovning bu qirralarini keyingi qutlug‘ yoshlarida yozishni niyat qilib, hozir u kishining muborak yoshlari bilan chin ko‘ngildan tabriklayman. U kishiga uzoq, serhosil umr, sog‘lik-omonlik, farzandlar, nabiralar va shogirdlar kamolini ko‘rib yurishlarini tilab qolaman.



ILM-FAN XIZMATIGA KAMARBASTA OLIM

Zuhriddin ISOMIDDINOV, filol. f.n. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

O‘rislar, birovning kimligini yaxshi bilish uchun bir pud tuzni birga yeyishing kerak, deyishadi. Ammo hozirgi zamonda bir pud nima ekan, besh botmon tuzni birga totib ham, kishining dilidagini bila olmasligingiz mumkin. Va, aksincha, shunday odamlar ham borki, butun borlig‘i: yuzidayu, so‘zida mana men, deb aks etib turadi, shu sabablimikin, boshqalar ohanraboga tortilganday bo‘lib ularning tevaragidan nari ketmaydi. Men Xayrullani ana shunday dili-yu tili, o‘ziyu so‘zi bir odamlardan, deb bilaman. Qachon, qay kunda tanishganmiz – esimda ham yo‘q, har doim taniganu bilgandekman.

Qirg‘izlarda: “КЫЗ кыялдуу кылыңдар, jakшы at kamчы салдырбайт, Jakшы адамдын белгиси – көңүлүңды калдырбайт» (Qiz

singari o‘ynoqlab, Yaxshi ot qamchi soldirmas, yaxshi odamning belgisi – ko‘nglingni qoldirmas), degan bir maqol bor. Xayrullaning birinchi belgi-fazilati, menimcha, hech qachon bironing ko‘nglini qoldiradigan ish qilmasligi. Hamisha ko‘nglingizga qaraydi, erkalik-injiqligingizni ko‘taradi, kulibgina turib, muammoga yechim topadi.

Ikkinchi fazilati esa... Men ushbu kitob qo‘lyozmasini – filol. f.d. Xayrulla Hamidov haqida yozilgan o‘n beshta maqola oxiriga ilova etilgan bibliografiyani ko‘rib, angrayib qoldim – bu odam ertayu kech talabalarga dars berishdan ortib, sanasa barmog‘ingiz yetmaydigan adadda kitobu darsliklar, qo‘llanmalar tayyorlagan, uch yuzdan ortiq ilmiy maqola yozgan, o‘nlab kitoblarni tarjima ham qilgan ekan! Chamasi, biz o‘qigan davrda maktabda har bir bolaga yodlattirilgan “O‘qish, o‘qish va yana o‘qish” degan shiorni Xayrulla o‘zi uchun “Mehnat, mehnat va yana mehnat”, deya qabul qilgan ko‘rinadi. Olim haqidagi bu kitobcha matnining rosa 30 betini (40 %i) Xayrulla yozgan asarlar bibliografiyasi tashkil etib turibdiki, bu olimni tavsif etib yana 15 kishi dilso‘z bitsa ham, ana shu salobatli bibliografiyaning ishini qila olmaydi. Mehnatkashlik Xayrullaning tabiatiga aylangan.

Demak, ko‘ngilchanlik va mehnatkashlik. Garchi, bular har kimga ham muyassar bo‘lavermaydigan fazilat bo‘lsa ham, hech kimda topilmaydigan, alohida fenomen darajasidagi xislatlar emas. Boshqa yana kimdir ham ko‘ngilchan, mehnatkash bo‘lishi mumkin. Biroq davr Xayrullaning aynan shu ikki xislatiga ehtiyoj sezdi va olim, o‘zi mo‘ljallab qo‘ygan boshqa bir talay rejalarini chetga surib turib bo‘lsa ham, yana ikki katta ishni amalga oshirdi: bulardan birinchisi – o‘zbek tarjimashunosligiga tamal toshini qo‘ygan, bu fanni o‘zbek filologiyasining alohida bir tarmog‘iga aylantirgan G‘aybulla Salomov, Jumaniyoz Sharipov kabi ustozlarning asarlari matniga davr taqozosi bilan kiritilgan har xil sovetizmlarni guruchdan kurmakni ajratgandek birma-bir “terib tashlab”, boshqatdan chop ettirdi, ularni yana ilm-fan xizmatiga qo‘ydi. Aynan Xayrullaning masih kabi “silab-siypalash”laridan keyin bu kitoblar yana tirildi, yana ilm-fan xizmatiga kamarbasta bo‘lmoqda. G‘aybulla Salomovga, Jumaniyoz Sharipovga shogirdlik da’vosida bo‘lgan ko‘p ahli fazllar esa hayrat barmog‘ini tishlab qola berdilar.

Ikkinchi muhim ishi esa uning turkologiya sohasida yetakchi mutaxassislardan biriga aylanishi bo‘ldi. Asli, rus tili va adabiyoti muallimi edi-da. Ammo davr ehtiyojini his etib, tarjimalar yana avalgiday faqat rus tilidan va rus tili orqali emas, balki bevosita barcha tillardan, birinchi navbatda – qardosh turkiy tillardan amalga oshirilishini o‘z vaqtida payqab, ham ilmning, ham amaliyotning bu sohasiga katta hissa qo‘shib

kelayotibdi. Turk tilidan o‘zbekchaga, o‘zbek adabiyoti namunalarini turk tiliga o‘g‘irishning ham amaliy, ham ilmiy jihatlarini rivojlantirish bo‘yicha qilgan ishlarining o‘zi kelgusida ko‘plab tadqiqotlarga mavzu va material bo‘lgudek.

Shu asnoda men Xayrulla Hamidov tarjima qilgan bir asar to‘g‘risida ikki og‘iz to‘xtalib o‘tsam. Bu turk yozuvchisi Yashar Kamolning “Sevgi afsonasi” (turkchasi: “Og‘ritog‘ afsonasi”) degan asari edi. Bu romanda sentimental sahnalar bisyor, ammo harqanday badiiy asardan kutiladigan asosiy narsa – kitobxon qalbini yumshatib, unga olijanob tuyg‘ular baxsh etadigan katarsis hodisasi to‘la-to‘kis amalga oshgan.

“Sevgi afsonasi”da voqealar ko‘p emas, ular tig‘iz ham emas. Asarda Og‘ritog‘ (Ararat) etagida joylashgan Kup ko‘li atrofida cho‘ponlarning har yil bahorda hali quyosh chiqmasdan sibizg‘ada “Og‘ritog‘ nolasi”ni chalishlari aytiladi. Bu nola quyosh chiqishidan boshlanib, ufqqa bosh qo‘ygandagina nihoyasiga yetadi. Kun botishi bilan esa qorday oppoq, barmoqday keladigan mitti bir qushcha ko‘l uzra charx ura boshlaydi. U ko‘lning moviy suviga bir qanotini uch marotaba tekkizib o‘tadi. Qushcha g‘oyib bo‘lgach, u yerdan jimgina uzoqlashadilar. Mana shu tasvir romanda bir necha marotaba takrorlanadi.

Xo‘sh, bu sirli tasvir zimmida ne hodisotlar bor?

Yashar Kamol “Sevgi afsonasi” romanida Og‘ritog‘ (Ararat tog‘i) etaklarida yashagan xalqlarning hayot tarzi, mahalliy aholining tarixiy qadriyatlari, urf-odatalari, xalqlarga oid afsonalardan ustalik bilan foydalanagan. Asarda hikoya qilingan voqea-hodisalarning ba‘zilari afsona emas, balki tarixda yuz bergan voqealar bo‘lib, adib ularni romanga mohirona singdira olgan. Hozirgacha qirqdan ortiq tilga o‘g‘irilgan ushbu asar kishi ruhiyatining eng nozik torlarini chertib o‘tadi. Biroq bu shunchaki sentimental bir roman bo‘lmay, uning markazida “hokimiyat va xalq” muammosi turadi.

Asar boshida bir cho‘pon yigitning hovlisi oldiga ajab kelishgan, egar-jabdug‘i bashang bir ot kelib to‘xtaydi. Nari haydasalar ham, yana qaytib kelaberadi. Og‘ritog‘ elining udumiga ko‘ra, o‘z oyog‘i bilan kelgan ot asl egasiga hech bir holatda qaytarib berilmasdi. Endi bu ot uniki, hatto egasiga ham berib yuborish mumkin emas. Ammo shunday xonazot otdan xabar topgan viloyat hokimi unga og‘iz soladi, cho‘pon esa otni yashiradi, chunki bu olchoqlik, nomussizlik bo‘lar edi. Hokim hech qo‘ymagach, uzoqlarga bosh olib ketadi. Asarda o‘z muhabbatini Mahmudxondan himoya qilgan Ahmad bilan Gulbahorning achchiq qismlari haqida hikoya qilinadi.

Bunday asar tarjimasiga qo‘l urgan tarjimon zimmasiga jiddiy mas’uliyat yuklanishi tabiiy. Romanni turk so‘z san’atining bir talay namunalarini ona tilimizga, o‘zbek adiblarining asarlarini turkchaga o‘girib, yetarli malaka hosil qilgan turkshunos mutaxassis, filologiya fanlari doktori Xayrula Hamidov tarjima qilgani shu o‘rinda ayni muddao bo‘lgan. Maqsadimiz uni bir boshdan tahlil qilish emas, balki uning bahonasida bir-ikki fikr aytish bo‘lganligidan, mutarjim so‘zmaso‘z emas, lozim o‘rinlarda o‘zbek kitobxonini uchun zarur bo‘ladigan “qistirma”larni ham o‘rinli qo‘llaganini dalillash uchun ikkita misolni taqdim etish bilan cheklanamiz.

Asliyat: *“Atın sahibi bey de olsa, paşa da, Osmanlı Padişahı, Acem Şahı da olsa, Köroğlu da olsa, kelleni verir de bu atı veremezsin. Ve hem de veremeyiz”*. Tarjiması: *“Mayli, otning sobiq egasi bey bo‘ladimi, poshshomi, Usmonli sultoni yoki Ajam mulkining hukmdori bo‘ladimi, Go‘ro‘g‘li bo‘ladimi, boshingni o‘rtaga qo‘yasan, ammo otni egasiga qaytarib bermaysan. Bu bizning odatlarga to‘g‘ri kelmaydi”*.

Roman oxirida Ahmad Kup ko‘lida afsonaviy qaldirg‘och kabi nozik, kichkina qushga aylanadi: *“... kücücük ak bir kuş gelip kanadını suyun som mavisine batırır. Ve sonra da bir atın kapkara gölgesi gölün üstünden gelir geçer”*. Tarjiması: *“...shunda kichkina oppoq qushcha uchib kelib, qanotlarini moviy zilol suvga tekkizadi va yana yuqoriga parvoz qiladi.... So‘ngra bir qo‘ng‘ir otning qop-qora ko‘lankasi ko‘l ustidan uchib o‘tganday bo‘ladi”*.

Yuqorida ta’kidlab o‘tdik, asarda ana shunday taxayyul mevasi bo‘lgan tasvirlar bisyor. Ularni o‘z romantikasi, xulyoviy ruhi bilan o‘zbek kitobxoniga taqdim etish uchun alohida mahorat, so‘z boyligi lozim. X.Hamidov buning uddalay olganini ko‘rdik – tarjima matnining hech bir o‘rnida qoqilish, kitobxonni taraddudga solib qo‘yadigan jumlalar yo‘q.

Turk adabiyoti nihoyatda boy, uning o‘zbek kitobxonini o‘qishi shart bo‘lgan asarlari son-sanoqsiz. Shu ma’noda, Xayrulla domla Yashar Kamolning ushbu asarini tanlab o‘g‘irgani – ayni muddao bo‘pti.

Cho‘lpon bir tarjimasiga o‘zi yozgan so‘zboshida “nafis asarlarni bir tildan ikkinchi tilga ag‘darish juda og‘ir bo‘ladi. *Ayniqsa, ishlangan tildan ishlanmagan tilga*”, deb ko‘rsatgan edi. Biz hozirgacha asosan rus tilidan tarjimaga andarmon bo‘lib, shu tildan o‘girish prinsiplarini yaxshi egalladik. Biroq boshqa qaysi tildan o‘girishga kirishsak, tilimiz o‘sha onda, “ishlanmagan til” holiga tushadi. Buning davosi bitta – ko‘p tillardan bevosita o‘girishni yo‘lga qo‘yish, hatto juda yaqin bo‘lgan turk tilidan ham rus tili orqali tarjima qilish kabi daqqiyunusdan qolgan

amaliyotga barham berishimiz, bu yo‘lda o‘z tarjimalari orqali turkiy tillardan bevosita o‘g‘irishning sir-sinoatlarini inkishof etib borayotgan Xayrulla va uning orqadoshlariga tahsin aytishimiz kerak, albatta.

Kishi oltmish yoshini shuncha ilmiy va amaliy natijalar bilan kutib olsa, qandoq yaxshi! Umrning bu pallasi san‘atning boshqa turlari – raqs, sozandalik, haykaltaroshlik, xonandalik kabilar uchun biroz xorg‘inlik va tolg‘inlik davri bo‘ladi, deydilar, ammo yozuvchi, olim, shoir va tarjimon uchun ayni kamolga yetgan davr deb hisoblanar ekan. Ilm sohasida to‘plagan qarashlari va prinsiplarini, so‘z qo‘llash borasidagi tajribalarini tatbiq etadigan yoshga kirib kelayotgan Xayrulla birodarimizga avans tariqasida ayrim havoyi tilaklar bildirishdan qochib, birgina istagimizni aytib qutlagimiz keladi – shu yo‘lda davom eting, hamisha shunday sermahsul bo‘ling, hormay-tolmay keyingi bir talay o‘n yillik yubileylarga yeting, o‘shanda gaplashamiz, inshoolloh!

JONKUYAR OLIM

Filologiya fanlari doktori, professor Shoira USMANOVA

Xayrulla Hamidov bilan tanishishimiz juda qiziq bo‘lgan. 2014 yil, u kishi TDSHI “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi mudiri edilar. Garchi, Xayrulla aka bilan ilgari yuzma-yuz ko‘rishmagan bo‘lsak-da, ular meni sirtidan, ya’ni tilshunos olima sifatida yaxshi tanir ekanlar. 2013-yilning kuzida ularning o‘zlari paxta dalalarida bo‘lib, meni ko‘rmadan turib, kafedrada ishlashga tavsiya qilganlar. O‘shanda meni TDSHIga kelishimga ko‘pchilik qarshi bo‘lgan, men haqimda turli “mish-mish” larni uydirishib Xayrulla akadan kafedraga ishga olmaslikni so‘rashgan, ammo Xayrulla aka bu gaplarga zig‘ircha ham parvo qilmay: “Men Shoira Usmonovani shaxs sifatida yaqindan tanimasam ham, yaxshi olima sifatida taniyman, uning kafedrada ish boshlashi kafedra, qolaversa, institutning rivojlanishiga katta hissa bo‘lishiga ishonaman” deb o‘z fikrlarida qat’iy turganlar. Shunday qilib, 2014-yilning 2-semestrda “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasida o‘rindoshlik asosida professor vazifasini bajaruvchi lavozimida ish boshladim (u paytda O‘zMUda asosiy shtatda ham ishlar edim). Ustoz bilan birinchi marta kafedrada ko‘rishdik va bir umrga qadrdon bo‘lib qoldik.

Xayrulla aka kafedrani talabchanlik va qattiqqo‘llik bilan boshqargan bo‘lsalar-da, talabalar, shogirdlarga juda mehribonlar. Kafedradagi o‘qituvchilarni kichkina va chog‘roq xonalariga ertalabdan kechgacha o‘tirtgizib, ishlashlarini talab qilar edilar. Kafedraning aksariyat a‘zolari ayollar, kelinlar bo‘lgani uchun bunday tartib-intizomdan ba’zan nolib

qolganlarida, Xayrulla aka hazillashib: “Bundan qutulishning yagona yo‘li – dekretga chiqish” der edilar. Eng qizig‘i, o‘sha davrda ayrim ayol o‘qituvchilar haqiqatdan ham Xayrulla akaning “tavsiyalariga amal qilib” dekret ta‘tiliga chiqib ketishdi!!! O‘rindosh bo‘lganim uchun haftada 2 kun ishga kelardim. Menga ham kechgacha o‘tirib ishlaysiz derdilar. Xullas, kafedrada ish hayoti qizg‘in bo‘lar, jamoada esa ahillik hukm surardi. Kafedra jamoasining inoqligi, bir-biriga mehribonligi, odob-axloqi menga qattiq ta‘sir ko‘rsatdi. Bu jamoani yoqtirib qoldim. Lekin Milliy universitetda ham, xorijda ham erkin ishlab yurganim uchun bu yerdagi qattiqqo‘llikni singdira olmadim.

2-semestrni yakunlagach, Xayrulla aka menga “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasiga asosiy shtatga o‘tib, shu yerda qolib ishlashni taklif qildilar. Tabiiyki, “yo‘q” dedim. “Siz o‘rindoshlikda mani shuncha ishlatdingiz, asosiyga o‘tsam qandoq ishlayman” dedim. Shunda Xayrulla aka yonimga o‘tirib menga yotig‘i bilan tushuntirishga boshladilar: “Kafedrada juda yaxshi faoliyat olib bordingiz. Mutaxassislik fanlarini joy-joyiga qo‘ydingiz, darslarni yaxshi olib bordingiz. Kafedra hujjatlarini ham tartibga solishda katta yordam ko‘rsatdingiz” dedilar. O‘shanda Xayrulla aka ilmiy darajalari bo‘lmaganligi bois, kafedra mudirligini topshirishlari kerakligini aytib, “Siz nafaqat yaxshi tilshunos, balki tarjimashunos olimasiz. Kafedra yo‘nalishi va hujjat ishlarini ham juda yaxshi tushunasiz, kafedrani o‘zingiz olib, boshqarsangiz. Sizga o‘rganib qoldik. Qisqa vaqtda shuncha ish qildingiz. Agar siz ketsangiz, kafedra-ning ichki mohiyatini tushunmaydigan boshqasi kelishi mumkin. Men o‘zim sizga yordam beraman” dedilar. Xullas, u qilib, bu qilib ko‘ndirdilar. 2014-yildan kafedra mudiri lavozimida ish boshladim. Bu davrda Xayrulla aka menga juda ko‘p ishlarda yordam berdilar, meni qo‘llab-quvvatlab, yonimda bo‘ldilar, ko‘p ishlarni birga bajardik. Kafedra hujjatlarini yangilashdan boshlab, ilmiy loyihalar ustida ishlash, kafedrada yangi yo‘nalishlar, mutaxassiliklar va ixtisosliklar ochish, ilmiy salohiyatni oshirish, xorijiy aloqalarni rivojlantirish, turli tadbirlar, anjumanlar, seminarlar, forumlar o‘tkazish, o‘quv adabiyotlari, monografiyalar, to‘plamlar nashr qilishda doimo hamkorlik qildik. Ko‘plab shogirdlar yetishtirdik, ilmiy maktab yaratdik.

Kafedra faoliyatining ilk yillaridanoq uning tarkibiga malakali kadrlarni jalb qilishga alohida e‘tibor berildi, yuqori darajali professor-o‘qituvchilar tarkibi shakllandi. Respublika tarjimashunoslari va ijodkor jamoatchilikning e‘tirofiga ko‘ra, TDSHU “Tarjimashunoslik” kafedراسи O‘zbekistondagi turdosh muassasalar ichidagi ko‘zga ko‘ringan o‘quv

va ilmiy markazlardan biri o'laroq qisqa davr ichida tarjimashunoslik sohasida faol ilmiy va ijodiy faoliyati bilan o'zini namoyon qila oldi.

Yana shu narsa tahsinga sazovorki, bugungi kunda kafedrada pedagogik va ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini olib borayotgan professor-o'qituvchilar, mutaxassislarining 50 %idan ortig'i shu kafedra va turdosh kafedralar mutaxassisliklarini bitirgan yoshlar hisoblanadi. O'rni kelganda bundan yigirma yilcha muqaddam, O'zMUda ishlab yurgan kezlrimda Sharqshunoslik institutidan bir o'qituvchining (famiyasi esimda qolmagan edi) "Turk tili"dan o'quv qo'llanmasini menga ekspert xulosasi yozishga berishgan edi. Kitobni o'qib, "Bu kitob qayta yozilishi kerak" deb xulosa bergandim. Keyin xorijga jo'nab ketdim. "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasiga mudir bo'lganimdan ikki yil keyin bu o'quv qo'llanmaning muallifi Xayrulla Hamidov ekanligini bilib qoldim. Shunda Xayrulla akadan: "Mendan shuncha jabr ko'rgan ekansiz, qo'llanmangizni yo'qqa chiqargan ekanman. Nega meni kafedrada ishlashga tavsiya qildingiz? Nima uchun o'ringizga mudir qildingiz? deb so'raganimda, u kishi: "Sizni juda yaxshi olim sifatida sirdan tanir va juda hurmat qilar edim. Qator ilmiy ishlaringizni o'qib chiqqanman. O'quv qo'llanmamni to'g'ri tanqid qilgansiz. Men bu tanqidni o'zim uchun saboq deb qabul qilib, uni tavsiyalarimgiz asosida qayta yozib, kamchiliklarini tuzatib, 2006 va 2011 yillar qayta-qayta nashr qildim. Sizga katta rahmat" deb javob qildilar. Juda ta'sirlandim, Xayrulla ustozning bag'rikengligiga, tantiligiga, mardligiga tan berdim. Bu voqea men uchun ham bir umrlik saboq bo'lib qoldi.

Xayrulla aka va men kafedra mudiri bo'lib ishlagan yillarimizda kafedrada yagona erkak ustoz Xayrulla aka edilar, ammo biz ayollar o'zimizni xavfsiz va himoyalangan his qilib xursand bo'lardik. Yana bir muhim jihat: kafedrada institutning eng go'zal ayol ustozlari ishlashlariga qaramay, Xayrulla aka hech qachon, hech bir ayol o'qituvchiga ko'z qiri bilan qaramaganlar. Ularning biriga "singlim", boshqasiga "qizim" deb, doimo g'amxo'rlik qilib kelmoqdalar. Ayniqsa, 8 martda bechora Xayrulla akaga juda qiyin bo'lardi-da! Xalqaro xotin-qizlar kunida biz ayol ustozlar uchun erta tongdan kelib, to'kin dasturxon tuzardilar. Kelinoyining qo'llari juda shirin bo'lgani uchun har doim sarxil taomlarni ularga tayyorlatib olib kelardilar. Yana hammamizga bir o'zlari sovg'a ham berardilar. Bu an'ana hozir ham davom etmoqda, lekin endi kafedrada erkak ustozlar ko'payib qolgan...

Xayrulla akadagi yana bir muhim fazilat u kishining mehnatkashligidir. Axir Xayrulla akadek bir oyda ikkitadan kitob yozib nashr qiladigan mard bormi? Har universitet Kengashida Xayrulla Hamidovning

hech bo‘lmaganda bitta kitobi nashrga tavsiya qilinadi. Mabodo Kengashning biron majlisidagi tavsiyalarda uning kitobi bo‘lmasa, Kengash a‘zolari: “Iye, Xayrulla akaning kitoblari yo‘qmi bu gal?” deb hayron bo‘lishadi. Qo‘llaridan hech qachon noutbuklari tushmaydi. Qachon qaramang, har doim ishlab, ijod qilib o‘tiradilar. Ba‘zan hazillashib: “Kechasiyam noutbukizi quchoqlab uxlasangiz kerak” deb qo‘yishadi.

Xayrulla akaning yana bir havas qilsa arziydigan jihatlari u kishining komil inson qiyofasidir. Tez fursatda ketma-ket PhD va DSc dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilib, ilmiy daraja va ilmiy unvonlarga erishgan bo‘lsalar ham, kamsuqumlik va kamtarlikni saqlab qoldilar.

Xullas, Xayrulla aka bilan tanishganimdan, birga ishlayotganimdan, shunday inson bilan zamondosh bo‘lganimdan juda baxtliman. Taniqli olim, hurmatli ustozimiz, qadrdon akamiz Xayrulla Hamidovni qutlug‘ yoshlari bilan muborakbod etaman! U kishiga mustahkam sog‘lik, uzoq umr, ishlariga omad tilayman!

AQLI KIRGAN OQIL VA O‘ZINI TANIGAN ORIF KISHI

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Ergash OCHILOV

Men g‘ayrat-shijoati chek-chegarani bilmaydigan va hamma narsaga ulguradigan, favqulodda mehnatkash va zahmatkash to‘rt kishini bila-man va hamisha ularga havas qilaman: Mamatqul Jo‘rayev, Qahramon Rajabov, Xayrulla Hamidov, Komiljon Rahimov... Tasavvufda tariqat yo‘liga kirib, Xudo sari sayr qilayotgan kishini so‘fiy deydi. Xayrulla Hamidov, ta‘bir joiz bo‘lsa, ma‘rifat yo‘lining so‘fiysi. Chunki so‘fiy Haq yo‘lida ikki dunyoni nazariga ilmaganidek, bu butun vujudi bilan ilmu ijod odami ham izlanish va yaratish yo‘lida ikki dunyoni unutgan... Xayrulla aka umrning mazmuni, hayotning nash‘asini o‘qish-yozishda deb biladiganlardan. O‘qish, yozish, izlanish, tarjima qilish, tadqiq etish – bu ilmu ijod odami hayotining mazmun-mohiyatiga aylanib ketgan. U mehnatsiz hayotini hatto tasavvur ham qilolmasa kerak... Xayrulla Hamidov kabi mehnatdan bosh ko‘tarmaydigan, izdihomlarda ham qo‘lidan notbugi tushmaydigan, hatto tushida yozilajak maqolasining tarhini tuzib, ko‘z ochishi bilan yozuv stoliga o‘tiradigan fidoyilarga sidqu ixlosim chek-chegasiz!..

Afandini eshaksiz tasavvur qilib bo‘lmaganidek, Xayrulla Hamidovni ham noutbuksiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Belidan nosqovog‘i tushmaydigan noskashday u kishining ham hamisha oldida noutbuk bo‘ladi... Agar biror yerga noutbuksiz borsa, o‘ziyam bir narsasini yo‘qotganday

bo'laversa kerak. Xalqimizda "Mirishkor xotinning qo'li charx yigirar, oyog'i beshik tebratar", degan ajoyib maqol bor. Har bir majlisda, har bir tadbirda noutbugini yoniga qo'yib olib, ham o'zi ishtirok etayotgan anjumanni kuzatib va eshitib, ham o'zining yozuv-chizuvini qilib o'tiradigan, ya'ni bir vaqtning o'zida ikkiga bo'linib ishlaydigan: ko'zi va qulog'i majlis yoki tadbirdayu xayoli va fikri qilayotgan ishida bo'lgan Xayrulla Hamidov – hamma joyda, har qanday sharoitda ham ilm qilish mumkinligining yorqin namunasi. Bu – Bahouddin Naqshband talab qilgan anjumanda xilvat qilishning ayni o'zi! Zohiran anjumanda o'tiradi-yu, botinan ilm osmonida parvoz qiladi. Bitta majlis tugaguncha bitta ilmiy maqola yoki taqriz ham tayyor bo'ladi. Hazrat Ali namoz o'qiyotib ham xayolan askarlarini safga tizar ekan. Shunga o'xshab, Xayrulla aka hamisha ilmiy-ijodiy rejalarga to'lib toshib yuradi va yurgan yo'lida fikrlari va kuzatishlarini qayd etib boradi. Menimcha, bu odam kechasi o'ringa kirganida ham yoniga noutbugini qo'yib yotsa kerak: xayoliga biror fikr kelsa, yoki uyqusi qochsa, shartta o'tirib ishlayveradi. Xuddi ulug'lar yostig'ining yoniga qog'ozu qalam qo'yib yotganday. Bu – omonat umrning g'animatligini teran anglagan – aqli kirgan oqil va o'zini tanigan orif kishilarning yo'li – bu toifa insonlar bir daqiqasini ham behuda o'tkazmaydi. Xayrulla Hamidovning sermahsul va serqirra ilmiy, ijodiy, murabbiylik faoliyatining ildizi shunda bo'lsa kerak...

Xayrulla Hamidovning tashkilotchilik faoliyati alohida suhbat mavzui. U kafedraga mudir etib tayinlangach, qisqa fursatda kafedrani yo'q-dan bor qildi – uni universitetning manaman degan kafedralari bilan bo'ylashadigan o'z o'rni va mavqeiga ega kafedraga aylantirdi. Tarjimashunoslik, nisbatan yangi fan bo'lgani, ikkinchi tomondan, keyingi yillarda e'tibordan chetda qolib ketgani uchun bu yo'nalishdagi darslik va qo'llanmalar nihoyatda taqchil, borlari ham sovet davrida, qizil mafkura ruhida yozilgan edi. Shuning uchun u ishni kafedrani zarur adabiyotlar bilan ta'minlashdan boshladi. O'zbekistonda tarjimashunoslik bo'yicha yirik taqiqotlardan tortib kichik maqolalargacha – nimaiki nashr qilingan bo'lsa, barchasini izlab topdi va ularni kompyuter xotirasiga kiritib, tarjimashunoslikka oid adabiyotlarning boy elektron tizimi – elektron kutubxonani yaratdi. Qisqa fursatda istiqlol davrida ijtimoiy fanlarda qaror topgan yangicha qarashlar asosida jahon andozalariga javob beradigan ko'plab yangi avlod darsliklar, o'quv qo'llanmalari, uslubiy tavsiyanomalar, maqolalar va tarjimalar to'plamlarining dunyoga kelishiga boshqosh bo'ldi va ularning katta qismiga o'zi mualliflik qildi. Kuchayib, kengayib, hamma havas qiladigan va hisoblashadigan "Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika" kafedrasining hozirgi darajaga kelishida kafedra

asoschisi – Xayrulla Hamidovning xizmatlari katta... Hozir ham u kafedraning ustozlari va oqsoqoli, tayanch ustuni. Hamma u bilan maslahatlashadi. Hamma uning fikri bilan hisoblashadi. “Bu masalaga Xayrulla Hamidov qanday qarar ekan?” “Bu muammoning yechimi bo‘yicha Xayrulla Hamidov qanday taklif berar ekan?, Bu fikrga Hamidov nima der ekan? – deb turishadi. Ta’bir joiz bo‘lsa, yer o‘z o‘qi atrofidan aylanganidek, butun kafedra Xayrulla Hamidov atrofidan aylanadi. Chinakam olimlik va ustozlik baxti shu – aslida! Bunday yuksak maqom hammaga ham muyassar bo‘lavermaydi. Ha, Xayrulla Hamidov ham Alisher Navoiy kabi ko‘ksiga urib: *Olam elidin kimga muqarrar bo‘ldi. Bu martabakim, manga muyassar bo‘ldi?! – deb faxru iftixor qilishga har jihatdan haqli.*

Xayrulla Hamidov rasmiy qog‘oz va hujjatlar tayyorlashning piri deyishi mumkin. Bu juda mayda va o‘ta serdiqqat ish aslida kishini holdan toydirib, jonini sug‘urib oladi. Bu ishning qanchalik og‘ir va nozikligini juda yaxshi bilaman. Aslida xat va hujjatlar bilan ishlash ham bir iste’dod. Xat va hujjatlar tayyorlash ham bir san’at. Chunki bu ish har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi, bu injiq ishga hammaning ham toqati yo‘q.

Mening kimligimni el bilsa bo‘ldi, – deb yozgan edi Omon Matjon.

Xayrulla Hamidovni hozir faqat Sharqshunoslik universiteti jamoasi emas, butun respublika, hatto Turkiya ilmu adab ahli biladi va hurmat qiladi. Ilmiy-adabiy jamoatchilik, keng talabalar auditoriyasining hurmat va muhabbatini qozonganining o‘zi uning ilmiy-ijodiy va murabbiylik faoliyatiga berilgan munosib baho emasmi?

Bunday hurmatu e‘zozga u o‘zining ko‘p yillik muttasil mashaqqatli mehnati bilan erishdi. Iste’dod tug‘ma bo‘lgani bilan uni muttasil va mashaqqatli mehnat yuzaga chiqaradi. Ulug‘ rus adibi Maksim Gorkiy bejizga: “Iste’dodning to‘qson to‘qqiz foizi mehnat”, –demagan. Xayrulla Hamidov ham o‘zida mavjud layoqat va iste’dod qirralarini doimiy mehnati bilan birma-bir namoyon etib kelmoqda. Bu odamni o‘zining halol mehnati elga tanitdi va unga elning hurmat va muhabbatini olib keldi. U o‘rnini ham, obro‘sini ham, hurmatini ham, muhabbatini ham, baxtini ham mehnatdan topgan baxtiyor inson! Senga havas qiladiganlar borligining o‘zi qaysidir jihatdan ulardan ustunligingni ko‘rsatadi.

Bir savdogar tanishim: “Agarda men qayta tug‘ilsam, yana bozorchi bo‘lardim!” – degan edi. Xayrulla Hamidov o‘z kasbini shunchalik yaxshi ko‘radiki, agar mo‘jiza yuz berib, unga ikkinchi hayot tuhfa qilinsa, men uning yana hozirgi kasbini tanlashiga – murabbiy va mutarjim, tilshunos va tarjimashunos bo‘lishiga to‘la ishonaman! Faqat yana kafedra

mudirligini orzu qilishiga ishonmayman. Chunki u ilmu ijod uchun erkinlikdan afzal imkoniyat yo‘qligi va hayotning mazmun-mohiyati aynan ilmu ijodda ekanligini teran anglab yetdi.

Durdona asarlari bilan dunyoni zabt etgan donishmand Sa’diy ham erishganlaridan ko‘ngli to‘lmay, armon va hasrat bilan aytgan ediki:

Hunarmand va oqil kishiga asli

Ikki umr lozim bo‘lar dunyoda:

Birida tajriba hosil qilsa-yu,

Birida qo‘llasa uni ziyoda.

Afsuski, ikkinchi umrga yetishishning iloji yo‘q. Shuning uchun ham o‘zini anglab yetgan kundan boshlab kishi umrining har bir daqiqasini ma’noli o‘tkazishga intiladi. Xayrulla Hamidov hozir ayni yoshda va xuddi shu maqomda. Uning tinim bilmay ishlayotgani va yangidan-yangi marralarni zabt etayotgani xuddi shu omil bilan izohlanadi.

O‘zbek xalq ertaklaridan ma’lumki, devlarning joni tilla sandiqda saqlanadi. Mana shu sandiqni qo‘lga kiritsangiz bo‘ldi – tasavvurining o‘zi kishining ko‘ngliga qo‘rquv soladigan bu dahshatli maxluq bilan kurashib o‘tirishning hojati yo‘q. Shunga o‘xshab, X.Hamidovning ham jonu jahoni o‘sha ko‘rimsiz noutbugida. Kambag‘alni urma, so‘kma, to‘nini yirt deyishadi. X.Hamidovga ham qasd qilgan kishi noutbugini qo‘lga kiritsa kifoya – qo‘ygan barcha shartiga ko‘nib, o‘zi o‘g‘rining oldiga boradi. Chunki uning butun ilmu ijodi shu qora qutining ichida-da.



MEHNAT BILAN YUZAGA CHIQQAN ISTE’DOD

PhD., dotsent Nargiza ISMATULLAYEVA, “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrası mudiri

*Har yo‘l, har sohaning bir piri bo‘lur,
Ehtirom dil ahlin tadbiri bo‘lur,
Har ishda ustozning bir siri bo‘lur,
Kashfi asror bo‘lmas, ustoz bo‘lmasa.*

Mirzo Kenjabek

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev badiiy tarjimaning madaniy hayotimizdagi ahamiyatini ta’kidlab shunday deydi: “Yurtimizda dunyo adabiyotining bebaho mulki bo‘lgan ming-minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgani, badiiy tarjima va tarjimashunoslik bo‘yicha o‘ziga xos ijodiy maktab shakllanganini alohi-

da ta'kidlash lozim... O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, (ularni) tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega". O'zbekistonda ushbu yo'nalishda ham ilmiy-pedagogik, ham samarali amaliy, ijodiy faoliyat olib borayotgan tarjimashunos, turkshunos olim, jonkuyar ustoz, ijodkor, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika" kafedrası professori v.b. Xayrulla Hamidovdir.

Shogirdlariga ham bilim, ham ota-ona mehrini bera olgan ustozlar inson hayotida sanoqli bo'ladi. Hayotimdagi ana shunday insonlardan biri Xayrulla Hamidovdir. Ustozimizning 60 yoshlarini qutlash men uchun sharafdir. Xayrulla akadagi bilim, mehnatkashlik, keng dunyoqarash, notiqlik, kamtarlik, pokdillik, xullas, uzoq sanash mumkin bo'lgan fazilatlarning bir insonda jamlanganligi kishini hayron qoldiradi.

Men institutning xitoy filologiyasi yo'nalishidan to magistraturada lingvistika mutaxassisligini tamomlagunimga qadar doim shu institutda qolib dars berishni o'z oldimga maqsad qo'ygandim. Magistraturaning 2-kursida o'qiyotganimizda institutda "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrası tashkil etilayotganligi va kafedraga xitoy tilidan dars berishga kursdoshlarim Ustajalilov Jamshid va Yakubov Jasurni qabul qilishayotganini eshitib, chin dildan havas qildim, "Bu kafedraga faqat tarjimachilik faoliyatida pishgan o'qituvchilarni olishsa kerak" deb o'yladim. 2010-yil magistraturani bitirayotganimda Xitoy filologiyasi kafedrası mudiri Lola Sultanova sentyabrdan menga dars soatlari ajratishlarini aytib qoldilar. U paytda oilada ikkinchi farzandimizni kutayotgandik. Lola opadan uzr so'rab, farzandim ikki yoshga yetgach ishga tushishga qaror qildim. 2012-yili avgust oyida Xitoy filologiyasi kafedrasidan dars soatlari mavjudligi haqida so'raganimda, o'quv soatlari iyun oyidayoq taqsimlanib, o'quv yuklamasi tasdiqlanganligini bildirishdi. Shunda rahmatli ustozim Ismatulla Bekmuratov "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrası mudiri Xayrulla Hamidovga meni xitoy tili o'qituvchisi sifatida tavsiya qildilar. Baxtinga, bu kafedrada xitoy tili fanidan 0,5 stavkalik soatlar bor ekan. O'shanda ilk marotaba Xayrulla Hamidov bilan uchrashib gaplashdik. Ular: "Mening qarshiligim yo'q, lekin rektorimiz Abdurahim Mannonov bilan suhbatdan o'tasiz. Agar biror ko'zga ko'rinadigan yutuqlaringiz bo'lsa, domlaga ko'rsating. Domla yosh mutaxassislarning bilim va qobiliyatlariga qaraydilar", dedilar. Bu so'zlarni eshitib quvonib ketdim. Ikki yillik farzand parvarishi chog'ida rahmatli ustozim Majid Mahmutxodjayev maslahati bilan Konfutsiyning "Suhbat va mulohazalar" asarini o'zbek tiliga tarjima qilib qo'ygan edim. Usto-

zim Majid akaga qo'ng'iroq qilib bu xabarni yetkazdim. Rektor bilan suhbatga ustozim ham keldilar va men haqimda ijobiy fikr bildirdilar. Shu tariqa hayotimda uch buyuk ustozim Majid Mahmutxodjeyev, Ismat Bekmuratov, Xayrulla Hamidovning qo'llab-quvvatlashi bilan mana shu ta'lim dargohida dars berishdek katta maqsadimga erishdim. Bu ustozlarimning yodi doim qalbidam. Ilm cho'qqisiga intilishimga sababchi insonlar Majid Mahmutxodjeyev, Ismat Bekmuratov, Xayrulla Hamidov, Shoira Usmanova va Jasur Ziyamuhamedovlar mening **eng mukammal Ustozlarimdir**. Haqiqiy ustozlikni men shu insonlardan o'rganyapman.

Ilk ishga qabul qilinganimda ustozim X.Hamidovning kun sayin yangi qirralarini ochar, birinchi tassurotlarim tobora o'zgarib borardi. Ularning kafedradagi rahbarlik faoliyati haqida gapirsam, o'z ishlariga juda mas'uliyatli, talabchan edilar va muhimi, hech kimdan o'z yordamlarini ayamas, o'z ishlanmalarini qizg'anmas edilar. 2011-yili ochilgan "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasida o'qitiladigan fanlar men uchun yangi edi. Ayrim fanlar bo'yicha fan dasturlari, o'quv qo'llanmalari X.Hamidov, N.Xodjayeve, N.Azzamova tomonidan ishlangan bo'lsa-da, men yangi ish boshlagan 2012-yili yana yangi fanlar ("Sinxron tarjima masalalari", "Falsafiy matnlar tarjimasi" va b.) kiritildi. Bu fanlarning o'quv materiallari noldan boshlash kerak edi. Shunda Xayrulla aka xuddi farzandlaridek, biz yangi o'qituvchilarni ham yo'naltirib, ko'mak berib ulg'aytirdilar. To'g'ri, ish bor joyda kamchilik, muammolar bo'ladi. Xayrulla aka talabalarga dars o'tganlarida, kafedrada majlis o'tkazganlarida ovozlari biroz balandroq chiqardi. Xayrulla akaning shu baland ovozi bilan dakki eshitsam, xafa bo'lib qolardim. Bir marta ishdan bo'shash haqida ariza ham yozganim esimda. Shunday paytlarda ular: "Mening gapirishim o'zi shunaqa, xafa bo'lmanglar. Urganim ugra oshi, so'kkanim so'k oshi", deb ko'nglimizni ko'tarib qo'yardilar. Hozir shu voqealarni Xayrulla aka, Nilufar Xodjayeve bilan kulishib eslaymiz.

Xayrulla Hamidovning tarjimashunoslik va turkshunoslik sohasida xizmatlari beqiyosligini e'tirof etmoq kerak. Bu insonni tarjimashunoslikning baquvvat ustunlaridan biri deb bilaman. Men o'sha 2012-2013-o'quv yili davomida arang bir dona ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsam, Xayrulla akaning kafedrada ham mudirlik, ham o'qituvchilik funksiyalarini bajarib turib 2 ta o'quv qo'llanma, 17 ta ilmiy maqola yozib nashr ettirganliklariga qoyil qolgan, ularning shunday mehnatkashligi, ilmiy mushohadasining kuchliliga tasanno aytganman. Xayrulla Hamidovning hozirga qadar 9 ta monografiya, 4 ta ilmiy va ilmiy ommabop risola, 20 dan ortiq o'quv adabiyoti, tarjima asarlari, ularning muharrirligidagi bir

qator kitoblar nashr etilgan. Ularning qilayotgan ishlari bir nechta “professorlik”ka ham yetishi aniq.

U kishining boy va sarmazmun ilmiy faoliyati haqida soʻz yuritilar ekan, olimning hozirgi turk tili, tarjimashunoslik va sharqshunoslikka oid oʻndan ortiq monografiyasi, ilmiy va ilmiy ommabop risolalari, yaratgan oʻnlab oʻquv adabiyotlari, 250 ga yaqin ilmiy maqola va tezislarni eʼtirof etish joiz. Shuningdek, olim tuzgan 20dan ortiq xalqaro va respublika miqyosida oʻtkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya toʻplamlari, turli tarjima toʻplamlari, talaba almanaxlari va xrestomatiyalar, xususan joriy yilda nashr ettirgan salkam 60 bosma taboqdan iborat ikki antologiyasi (“Turk adabiyoti antologiyasi”¹⁴ va “Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikâyeler – Şiirler (*Antoloji*)”¹⁵)ni alohida taʼkidlash kerak boʻladi. Bu X.Hamidovning oʻzbek-turk tarjimachiligiga qoʻshgan ulkan hissasidan dalolatdir. Uning turk tilidan qilgan Yashar Kamol, Xolida Adib Adivar, Umar Sayfiddin, Said F.Abasiyoniq va Aziz Nesin kabi turk adiblarning roman, qissa va hikoyalari tarjimalari, oʻzbek adabiyotining yirik namoyandalardan Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Oʻlmas Umarbekov, Pirimqul Qodirov, Oʻtkir Hoshimov, Togʻay Murod, Isojon Sulton, Ulugʻbek Hamdam kabi yozuvchilarning turk tiliga qilgan qissa va hikoyalari tarjimalari, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Husniddin Sharipov, Omon Matjon va Muhammad Yusuf kabi mashhur shoirlar qalamiga mansub sheʼrlarning turk tiliga qilgan tarjimalari Oʻzbekistonda va Turkiya Respublikasida yaxshi maʼlum. Xususan, 2020 yil Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad tavalludining 100 yilligi munosabati bilan Turkiyaning Xalqaro TÜRKSOY madaniyat tashkiloti koʻmagida Anqarada X.Hamidovning “*Said Ahmet. Seçme Hikâyeler*” (Said Ahmad. Tanlangan hikoyalar) tarjima kitobi Anqarada nashr etildi va ushbu kitob Turkiyadagi oʻzbek adabiyoti ixlosmandlariga tuhfa qilindi. Bundan tashqari, olim rus tilidan oʻzbek tiliga va oʻzbek tilidan ruschaga ham asarlar, oʻquv adabiyotlarini tarjima qilgan.

Eʼtirof etish joizki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilk bor Toshkentda nashr etilgan 100 jildlik “Turkiy adabiyot durdonalari” jamlanmasining 2 jildi (45- va 51-jildlar¹⁶) Xayrulla Hamidov tomonidan tuzilgan. Bundan tashqari, ushbu

¹⁴ Turk adabiyoti antologiyasi. 1-qism. – Toshkent: TDSHU, 2023. – 452 b

¹⁵ Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikâyeler – Şiirler (*Antoloji*). – Taşkent: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023. – 464 s.

¹⁶ Turkiy adabiyot durdonalari. Yashar Kamol. 45-jild. Adabiy-badiiy nashr (toʻplovchi va nashrga tayyorlovchi: Xayrulla Hamidov). – Toshkent: “Oʻzbekiston” nashriyoti, 2022. – 320 b.; Turkiy adabiyot durdonalari. Xolida Adib Adivar. Chorasoz (qissa va hikoya). Said Foiq

jamlanmaning 47-jildida uning turk tilidan qilgan tarjimalari (Aziz Nesin hikoyalari) o‘rin olgan.

X.Hamidovning o‘zbek tarjimashunosligi asoschilaridan G‘aybulla Salomov va Jumaniyoz Sharipovlarning tarjimashunoslikka oid darslik va monografiyalarini to‘la tahrir qilib, lotin alifbosida qaytadan chop ettirgan hamda yangi avlod o‘quv va ilmiy adabiyotlari sifatida oily ta‘limga joriy qilgan¹⁷. Hamkasblar Xayrulla Hamidov nomini eshitganda tinimsiz ishlaydigan ijodkor olimni tasavvur qilishadi. Qiziq bir gap, u kishi hatto majlislarda ham noutbukda ishlash bilan birga, u yerda bo‘layotgan har bitta ma‘ruzani diqqat bilan eshitayotgan bo‘ladilar. Ularga masala yuzasidan fikr bildirish, savol so‘rash navbati berilganida, hech ikkilanmay, xuddi diqqat bilan eshitib turganday so‘zlayveradilar. Ham majlis yoki tadbir jarayonida bo‘lish, ham ijod bilan shug‘ullanishdek qobiliyatga havas qiladiganlar ko‘p. Ancha vaqtdan beri kafedramizda ishlaydigan aksariyat o‘qituvchilar u kishidan o‘rnak olib, turli tadbirlarda o‘z noutbuklari bilan kirib ishlaydigan bo‘lganlarini ko‘raman. Bizda “Siniqdan boshqa hamma narsa yuqadi” degan naql bor. Xayrulla akaning mehnatkashlik fazilatlarini “yuqsa” bu biz uchun katta yutuq.

Xayrulla Hamidovning insoniylikdagi 3 ta “parvarligi”ni qadrlayman. Ustoz chin ma‘noda insonparvar, oilaparvar, bolaparvardir. U kishining talabalariga jonkuyarligi, doim yordamga tayyorligi, darslariga vijdonan yondoshishi, hammaga birday adolatli munosabatda bo‘lishi ularning bolaparvarligidan dalolat, deb bilaman.

Xayrulla aka mudirlik chog‘larida kafedramizda erkak o‘qituvchilar yo‘q edi (bir-ikki o‘rindoshdan tashqari). Institut domlari: “Xayrulla aka o‘zining kafedrasiga erkaklarni yo‘latmaydi, ayol ustozlarini qattiq qo‘riqlaydi”, deb hazil qilishardi. Men buni Xayrulla akaning oilaparvarligiga yo‘yaman. Ular kafedrasiga o‘z oilasini, qo‘rg‘onini qo‘riqlagandek munosabatda bo‘lardilar. Ular kafedraning og‘irini doim o‘z yelkalariga olganlar, kafedra a‘zolariga tashqaridan yomon so‘z kelmasligiga, kafedrada do‘stona ma‘naviy muhitni saqlashga harakat qilganlar. Har yili kafedramizga bir qancha yangi professor-o‘qituvchilar kelib ketmasin, ana shunday g‘iybatdan yiroq, do‘stona, ahil muhit, Xayrulla aka o‘rnatgan ko‘pgina an‘analar hozir ham saqlanib qolgan. Yaxshi an‘analarni davom ettirishda ustozning chin shogirdi, kafedrani tashkil

Abasiyoniq. Eftalikus qahvaxonasi (hikoyalar). 51-jild. Adabiy-badiiy nashr (to‘plovchi, nashrga tayyorlovchi: Xayrulla Hamidov). –Toshkent: “O‘zbekiston” nashr-ti, 2022.–344 b.

¹⁷ Salomov G‘aybulla, Tarjima nazariyasiga kirish. darslik. –Toshkent: TDSHI, 2016. –192 b.; Salomov G‘aybulla, Til va tarjima (monografiya). – Toshkent: TDSHI, 2016. –324 b. (Qayta nashrga tayyorlovchi: X.Hamidov). Sharipov Jumaniyoz, O‘zbekistonda tarjima tarixidan. – Toshkent: TDSHI. – 2017. –320 b. (Qayta nashrga tayyorlovchi: X.Hamidov).

etishda Xayrulla aka bilan yelkama-yelka turgan insonlardan biri Nilufar Xodjayevaning xizmatlari katta. Shu ma'noda, Xayrulla akadan nafaqat ilm, kasbiy faoliyat, balki hayotiy masalalarda ham ko'p maslahatlar olaman. Ilm bilan bir qatorda, oilaparvarlikda ham ulardan o'rnak olishga harakat qilaman.

Ushbu fursatdan foydalanib, quyida Xayrulla Hamidovning tavallud kuniga bag'ishlab kafedramizda tayyorlanib tor doiraga mo'ljallanib kichik adadda chop etilgan risolada¹⁸ ustozlar, hamkasblari va shogirdlarining ustozga atab yozgan dil so'zlaridan bir nechta parchani keltirishni joiz deb bildim. Filol.f.d., prof. **Ulfatxon Muhibova**: "Men bu mehnatdan tinmaydigan inson bilan tanishganimga o'n besh yildan oshdi. Rus filologiyasini tamomlagan, lekin turk tilini o'z ona tili darajasida o'rganib, ko'p kitoblar tarjima qilgan, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratgan, ilmiy tadqiqotlar olib borgan yetuk mutaxassis sifatida bilaman. Xayrulla Hamidovning universitet miqyosida mehnat faoliyati ham juda serqirra. U Kasaba qo'mitasida ham, turkiy tillar kafedrasida ham, institutda ilk bor "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedراسi ochilganida mudir lavozimida ham ishlagan. Kafedra yangi bo'lgani sabab yangi fanlarini mutaxassis topilmaganidan Xayrullajonning o'zlari o'quv va ishchi dasturlarni ishlab chiqib, talabalarga saboq berdi. Bir kuni unga "Shuncha bilim, tajriba egasiz, nimaga doktorlik ishini yozmaysiz?" – deb so'raganimda, "Men ikkita doktorlik ishini yozib qo'rganman, lekin himoya qilgim kelmaydi", – deb javob berganlar, bundan hayratlanib "Ikkita dissertatsiyadan bittasini shart olib himoya qiling?!", degandim. Sal o'tib, Xayrulla PhD dissertatsiyasi, oradan uch yil o'tib DSc dissertatsiyasini ham muvaffaqiyatli himoya qildilar. Kafedradagi yoshlarni ilmga qiziqtirish, ilmiy maqolalar yozish, tarjima ishlarida talaba va magistrantlar, yosh ustozlarga yordam qilib, har yili ularning ilmiy maqola va tarjimalarini to'plab nashr ettirish an'anasi ham universitetimizda Xayrulla Hamidov boshlagan ishlardan hisoblanadi".

Filol.f.d., prof. **Shorustam Shomusarov**: "Xayrulla Hamidov... U kishi hech qachon bekor yurmaydi, bekor o'tirmaydi. Turli darajadagi to'plandilarda ham jonajon kompyuteri bilan ish jarayonida bo'ladi. Mana shunday g'ala-g'ovurlarda hech kimda bo'lmaydigan, betakror fikrlar, g'oyalar kelishi ham tahsinga sazovor, bu – bir necha yildan beri ishlov berilgan, toblangan yaxshi bir tajriba. Men bu ajoyib insonning xushmuomalaligi, so'zamolligi, xushchaqchaqligi bois ancha yaqin bo'lib qoldim. Xayrulla qanday his qiladi, bilmayman, lekin men bu inson

¹⁸ Xayrulla Hamidov (tarjimashunos, turkshunos olim, tarjimon Xayrulla Hamidov tavalludining 60 yilligiga bag'ishlangan risola). – Toshkent: 2023. – 232 b.

bilan xuddi bolaligidan tanishdekman (xuddi shu fikrni ko‘pchilik ayta-di, masalan Zuhridin Isomiddinov domla ham – N.I). Nafaqat mening nazarimda, balki ko‘pchilik ahli ilmlar e’tiroficha, Xayrulla bugun ilm tarqatish pallasiga kirdi. Oxirgi yillarda ketma-ket turli darslik, o‘quv qo‘llanmalari, monografiyalar e‘lon qilgani buning yaqqol dalilidir. Tarjimalari haqida alohida gapirsak, bizning tarjimonimiz ham ana shu mukammalikning hadisini olgan olim! Uning xoh ruscha, xoh o‘zbekcha va eng qiziqarlisi turkcha tarjimalari yuqoridagi barkamollik belgisi! Uning tarjimalarini o‘qir ekansiz, men shu joyida mana bunday aytgan bo‘lardim, deb aytolmaysiz! Har bir so‘z, har bir ibora, har imlo harakati o‘z o‘rnida, joyiga mos! Moshalloh!”

Filol.f.n., prof. **Adhambek Alimbekov**: “Xayrulla Hamidov haqida o‘ylaganimda kamtarin, ishiga mas’uliyatli, do‘stlarga sadoqatli, ismi jismiga mos xayrli ishlarni xush ko‘ruvchi zahmatkash olim siymosini tasavvur qilaman. Men uni salkam o‘ttiz yildan beri bilsam, biror marta nimadandir noliganini eshitmaganman. U bilan ko‘p suhbatlashamiz. Xayrullada o‘ziga xos yumor bor. Hech kutilmaganda o‘xshatib askiya qilishi, yo o‘rnini topib turklarda mana bunday maqol bor, deya suhbatdoshiga jo‘yali javob qilishi mumkin. Xayrulladagi talabalarga bo‘lgan mehr, kuyunchaklikni alohida ta’kidlash kerak. U talabalar bilan ishlashdan og‘rinmaydi, qo‘lidan kelgan yordamini ayamaydi, ilmiy ishlarini ham, badiiy tarjimalarini ham kitob qilib talabalarga tarqatishdan zavq oladi, hecham charchamaydi. U hech qachon mansab ketidan quvmadi, aksincha “amal kursisi” uni izlab yuradi. U kafedra mudiri bo‘ladimi, magistratura bo‘yicha dekanmi yoki universitet kasaba uyushmasi raisi vazifasida faoliyat yuritadimi, doimo o‘zligini unutmadi, atrofida qilarga hamisha birdek munosabatda bo‘ldi, shu bois ham univesitetda uning hurmati baland. Uning o‘ziga yarashgan jinday o‘jarligi bo‘lsa-da, shu vaqtga qadar biror kishining dilini og‘ritmagan. Oilasi tom ma’noda ziyoli oilasi, farzandlarida ilmga mehr uyg‘ota olgan oila boshlig‘i”.

Filol.f.d., prof. **Jasur Ziyamuhamedov**: “Xayrulla Hamidov ismi katta harf bilan yoziladigan “Hazrati inson!” U kishi hayoti davomida juda ko‘p savoblar olgan. Yetimlarni boshini silagan, ularga g‘amxo‘rlik qilgan. Jigarlari uchun ko‘p beminnat yaxshiliklar qilganining guvohiman. Ikkinchidan u oilaparvar kishi. Farzandlari tarbiyasiga “gap yo‘q”. Alhamdulillah! Kuyovlari haqidaku, gapirma ham bo‘ladi. Bu yigit to‘g‘risida juda ko‘p olqishlarni eshitganman. Bu odam do‘stlikka xiyonat qilmaydi... Manfaatni o‘ylamaydi... Agar insondagi makkorlikni sezib qolsa, u bilan aloqani uzib qo‘ya qoladi... Ko‘ngli pok, boshqalarga g‘ayri yo‘qligi sabab shundaylarni xush ko‘radi. Xayrulla Xamidovning

qalami o'tkir, zukko, g'ayratli, kamtarin, ma'rifatli va madaniyatli olim. 2010-2013-yillarda u kishi bilan bir grantni boshqardik, kitoblar yaratdik. Lekin afsuski, bu mehnatimizni kimlar bildi, kimlar bilmadi... Xayrulla akam muharrirlik qilgan kitobdan aslo xato topa olmaysiz. Rus tilida bo'ladimi, o'zbek yoki turk tilidami, u kishi har bir ishni juda mohirona va sinchkovlik bilan tahrir qiladilar, tekshiradilar, kerak joyiga sayqal berib boradilar. Xayrulla akamning har bir yozgan kitoblari va hattoki yozgan ilmiy maqolalari alohida bir asar, buni o'qigan biladi... U mohir tarjimon, sohaga alohida e'tibor, muhabbat, salohiyat va iqtidor X.Hamidovning nafaqat sohasini o'zgatirib yubordi, balki u kishini elyurtga tanitdi. U mehnatkash, vaqtni qadriga yetadigan inson! Qachon qaramang yonida kompyuter: yoki nimadir o'qiyotgan, yoki nimadir yozayotgan bo'ladi. Hatto "Covid" bilan yotganlarida ham tinch o'tirmaganlar. G'ayrati, shijoati, sabri va matonati kuchli inson! Men unga havas qilaman. Kitob javonimda X.Hamidov e'lon qilgan ko'p nashrlari bor... Bir ko'nglim mazkur nashrlarning nechog'lik dolzarbligi haqida bir tahliliy maqola qilmoqchi ham bo'ldim. Lekin buni akamning 70 yoshlariga qoldirdim, ungacha yana ancha nashrlari bo'ladi, inshaalloh!"

PhD, dots. **Nilufar Xodjayeva**: "2011-yil yozida institutimizda "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedراسi ochilyapti degan xabarni eshitdim-u, qadrdon institutimga yo'l oldim... U yerda yangi kafedraning mudiri – Kasaba uyushmasi raisi Xayrulla Hamidov ekan... Uyushmada o'tirgan bu insonni men birinchi marta ko'rib turardim... Xayrulla aka bilan hamkasb bo'lishimda Ergash Ochilov, Sirojiddin Nurmatov, Dilfuza Axmedova, Jasur Ziyomammedovlarni Alloh sababchi qilgan, barchalaridan Alloh rozi bo'lsin. Bir qancha talabgorlar ichidan Xayrulla aka va Jasur aka birgalikda meni ishga qabul qilishdi. Yangi kafedra, asosiy shtatda Xayrulla aka va men. U kishi devor oqlagan, eshik o'rnatgan, men esa chang artgan, pol artgan – bir amallab kafedrani ta'mirlab, tozalab oldik. Yangi kafedra hujjatlari "0"dan qilina boshlandi... Mana 12 yilni yelkama-yelka turib o'tkazdik: yig'ladik ham, kuldik ham, urishdik ham, dardlashdik ham... Xayrulla aka doim "har bir qo'y o'z oyog'idan osiladi" deb bizni ishlatar edilar, ammo oxirida: "Meni orqamda turadigan hech kimim yo'q, sizlarning orqangizda esa men borman", degan gaplari hozirgacha amalda. Kafedraning har bir a'zosini qo'llab-quvvatlaydilar. Qizlar Nargiza Ismatullayeva, Saida va men ishdan bo'shaymiz deb ariza yozardik, ammo keyin bilsak arizalarimiz hech qayerga yetib bormas, "kolleksiya" bo'lib haliyam ustozning seyflarida saqlanar ekan (seyf esa hozir ham kafedra mudirining xonasida turadi, kaliti esa haliyam Xayrulla Hamidovda ☺). Sharq tarjimashunosli-

gi rivojida Xayrulla akani asoschi sifatida e'tirof etsak o'rinli bo'ladi. Shu kunga qadar tarjimashunoslik fanlari bo'yicha o'quv adabiyoti deysizmi, mutaxassis deysizmi, badiiy tarjima yoxud imiy konferensiya deysizmi, barchasining boshida Xayrulla Hamidovni ko'rasiz. 2019-yil oktabrda ilmiy ishim himoyasida Ustozning juda ko'p mehnatlari singgan. Yakuniy so'z aytish davomida "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedra mudiri Xayrulla Hamidovning ismlarini aytolmay ko'zimga yosh kelgan, tomog'imga "tosh" tiqilgan edi... Ustoz haqida qancha gapirsak oz... Xayrulla aka oqko'ngil inson, talabchan ustoz, vafodor shogird, oriyatli hamkasb, mohir tarjimon, taniqli olim, mehribon ota, bag'rikeng bobo... Bu sifatlarning barchasi birgina insonda mujassam. Eslashga arzigulik ko'p xotiralarimiz bor, bular hali boshlanishi..."

Filol.f.d. **Dilfuza Ahmedova**: "Sharq tarjimashunosligi deganda, shu kafedrani shakllantirgan, uni shu darajaga yetkazgan ustoz Xayrulla Hamidov ko'z o'ngimda gavidalanadi. Ustozni tanibmanki, kompyutersiz ko'rmaganman. Ilgari bunga ahamiyat bermas ekanman. Hozir yanada yaqindan tanib, birga ishlaganimdan beri angladimki, ustoz tinmay mehnat qilar ekanlar. Shogirdlarga g'amxo'rlik, kafedra uchun jonbozlik, ustozlariga cheksiz hurmat va h.k. Bu jihatlarning adog'i yo'q".

Filol.f.d., dots. **Hulkar Mirzaxmedova**: "Men endigina kafedra mudiri bo'lib qiynalib yurganimda Xayrulla Xudoyorovich "Siz jadval-larga unchalik boshingizni qotirmang, uni yaxshi va sifatli to'ldirish shart emas, chunki bu jadvallarni to'ldirib berishingiz bilan yana boshqasi keladi. Siz, avvalo, darslarning sifatini o'ylang, o'qituvchilarni qattiq nazorat qiling, eng asosiysi darslar sifatini ta'minlash, – derdilar, – Men avvaliga ozgina hayron bo'lganman, chunki u kishining "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedra bo'yicha beradigan hisobotlari hammanikidan zo'r bo'lib chiqardi. Qanday qilib bu qadar ishlash mumkin, deya hayron bo'lar va u kishidagi shijoatni ko'rib, havasim kelardi... Xayrulla akani ko'pchilik qattiqqo'l, diktator rahbar, derdi. Men esa talabchan rahbar degan bo'lardim. U kishi o'zi shunaqa: ba'zida oddiy gapni ham pafos bilan gapiradilar. Lekin har bir so'zda otalarcha mehribonlik bo'ladi. Shu bois men u kishiga "papul", ya'ni "otaginam", – deb murojaat qilaman... U kishining shunchaki gaplashib o'tirganlarini ko'rmaganman. Kunning qaysi vaqtida uchratmang, faqat o'z noutbuklari bilan... Buning natijasi o'laroq, har oy u kishi tayyorlagan bitta adabiyot nashr yuzini ko'radi... Xayrulla akani "Eng vafodor" degan nominatsiyaga tavsiya qilgab bo'lardim: "Eng vafodor oila boshi", "eng vafodor do'st", "eng vafodor xodim" va asosiysi, "eng vafodor shogird"! Xayrulla aka ustozimiz A.Mannonovning etaklarini bir tutdilar-da, qo'-

yib yubormadilar. Har qanday kunda: xursandchilik, yaxshilik, yubiley va boshqalarda o‘z vafodorliklari bilan munosabat qaytardilar. Ayni kunlarda ham imkon topildi, deguncha ustozlarining oldilariga shoshiladilar. Izzat ko‘rsatgan albatta izzat topadi, deyishadi. Xayrulla aka nisbatan kechroq PhD dissertatsiyasini yoqladilar. O‘sha kezlari ularga PhD deb murojaat qilish biroz noqulay edi, Yaratganga behisob shukr, tezlik bilan DSc dissertatsiyasini himoya qildilar. Xayrulla Hamidov va Jasur Ziyamuhamedovlarning himoyalari 2021-yilning eng namunalı dissertatsiya himoyalari, sifatida e’tirof etildi”.

Turkiyalik olim, kafedra ustozı PhD. **Çetin Yıldız**: “Hayrullah Hoca Türk Filolojisi bölümünün de fahri bir üyesi sayılır... 2022 yılının Eylül ayından itibaren aynı bölümde çalışma şerefine nail olduğum hocamızı daha yakından tanıma fırsatı buldum. Benim için Hayrullah hocamızın en dikkat çeken özelliği üretken bir akademisyen olmasıdır. Türk edebiyatında Osmanlı Devletinin son dönemlerinde yaşamış, önemli yazarlarımızdan olan Ahmet Mithat Efendi için “yazı makinesi” denmektedir. Ona bu lakabın verilışinin sebebi ise Ahmet Mithat’ın çok üretken biri olmasındandır. Ben de bölümde çalıştığım andan itibaren yakinen şahit oldum ki Hayrullah hoca oldukça üretken biri. Bu yüzden de yazımın başlığını bu şekilde koydum. Hocamızın dikkate değer bir diğer özelliği de işini ciddiyetle yapan bir akademisyen olmasıdır. Lisans öğrencilerinin bitirme tezlerini dahi itinayla okuyup bilimsel değerlendirmesini dikkatli bir şekilde yapmaktadır. Bu durum aynı zamanda hocamızın şahsiyetine dair ipucu vermektedir. Hocamızın işine verdiği önemi gösteren bir diğer anım ise onun tercüme eserlerinden birini okumam ile ilgilidir. Tursoy tarafından bastırılan Said Ahmed Seçme Hikayeler isimli çalışmanın tercümanı Hayrullah hocamızdır. Özbek bir yazara ait bir eseri Türkiye Türkçesi ile okurken hocamızın maharetine, yeteneğine hayran kaldım. Olağanüstü bir itina ile hazırlanmış çalışma aktarma olmasına rağmen oldukça akıcı bir üslupla ve kusursuz bir tercümeyle hazırlanmıştır. 60 yıllık bir ömre onlarca çalışma sığdırmış olan hocamıza öncelikle Türk ve Özbek dilleri arasındaki sağlam bir köprü olma rolünden ve ettiđi hizmetlerden dolayı minnettarım. Bu vesile ile 60. yaşınızı tebrik eder, ömrünüzü sağlık ve afiyet içerisinde geçirmenizi dilerim”.

PhD. **Mehriniso Qayumova**: “X.Hamidov sharofati bilan litsey o‘quvchilari ilk bor turk tili darsligiga ega bo‘ldi. Biz har yili X.Hamidovning yangi nashrlarini kuzatib borar, ulardan darslarda unumli foydalanar edik. X.Hamidov nafaqat litsey, sharqshunoslik universiteti miqyosida, balki respublika miqyosida turk tili bo‘yicha nazariy bilimlarning asoschisi hisoblanadi. Domlaning o‘nlab o‘quv qo‘llanma va darsliklari

qanchadan-qancha ilmi toliblarning turk “tilini chiqargan”, tarjimon, tilshunos qilib yetishtirgan! X.Hamidovni Tarjimashunoslik kafedrasining otasi, deb atasam mubolag‘a bo‘lmaydi. Hayotining eng unumli yillarini, butun ilmini, kuch-quvvatini bu kafedraning rivojiga bag‘ishlagan X.Hamidovning mehnatini hozirgi kunda ham kafedraning har bir hujjatida ko‘rishimiz mumkin. Domla nihoyatda savodxon, har ishni talab darajasida bajaradi. Turk va rus tillarida ham o‘z ona tilidagidek ish yurita oladi. Domlaning tarjimashunoslik sohasiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Respublika miqyosida turk tilidan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan turk tiliga qilingan eng ko‘p badiiy tarjima asarlari X.Hamidovning qalamiga mansubdir. Domla badiiy asarlarni tarjima qilish bilan birga, tarjima nazariyasi, tarjima stilistikasi va tanqidi, turk tili paremiologiyasi, sinxron tarjima singari ko‘plab tarjimashunoslik fanlarning ilmiy-nazariy bazasini o‘zbek tilida yaratib, yildan-yilga rivojlantirib kelmoqda.

2019-yilda Tarjimashunoslik kafedrasida o‘z faoliyatimni boshlagach, X.Hamidovni yaqindan tanishga musharraf bo‘ldim. Talabchan, o‘z ishiga mas‘uliyatli, halol, mehnatkash, hech kimdan yordamini aya-maydigan kafedra mudiri sifatida tanidim domlani. U menga universitetda pedagogik va ilmiy faoliyatimda ustozlik qildi. Men ko‘p narsani undan o‘rgandim. X.Hamidovni oqko‘ngil, iltifotli, haqiqatgo‘y, oilaparvar, oqibatli va saxiy inson sifatida bilaman. Uning o‘z ustozini, ilmiy rahbari f.f.d., prof. A.Mannonovga bo‘lgan sadoqati va hurmati alohida tahsinga loyiqdir”.

PhD. dots. **Dilshoda Muborakova:** “Taqdir Xayrulla Hamidov kabi qalbi ilm va ijod bilan yo‘g‘rilgan insonni tanish baxtini menga ravo ko‘rganidan mamnunman... Uning uchun talaba ham, kichik ilmiy xodim ham, akademik ham birdek. Shu sababli kattayu kichik ilm ahli hech tortinmasdan domla qabuliga kirib kelaverardi. Ustoz haqiqiy fan fidoyilarini hurmat qilar va ularga ilm bilan shug‘ullanish uchun zarur sharoit yaratib berardi. Ustoz “Tarjima” kafedrasining tashkil etilishi va rivojlantirishiga salmoqli hissa qo‘shdilar va bu chamanga o‘zlari hali ham bog‘bondek ijodlari va izlanishlari bilan xizmat qilib kelmoqdalar.

PhD. **Adiba Mahamadtoirova:** Ustoz Hamidovni talabalik yillarimdan buyon bilsamda, magistraturada o‘qigan yilim yaqindan taniganman. O‘shanda magistratura bo‘limi boshlig‘i edilar. 2019-yil Xayrulla akaga ish so‘rab murojaat qilganimda “Hozir kafedrada xitoy tili yo‘nalishida bo‘sh o‘qituvchi shtati yo‘qligi, lekin tez-tez xabardor bo‘lib turishim mumkinligini” aytdilar. Esimda, o‘sha kungi qisqa suhbatimizda ham “eng asosiysi, ilmiy ish qilishim kerak”ligini maslahat berdilar. 2020-yildan kafedrada ish faoliyatimni boshladim. Hozirga qadar nafa-

qat o'quv, balki ilmiy ishlar jarayonida ham turli qiyinchiliklarga duch kelganida yordamlarini ayamay, otamdek g'amxo'rlik qilib keladilar.

PhD. Mohira Umarova: Mening ilk ilmiy rahbarim Xayrulla aka bo'lganlar. Yodimda, ustoz menga ham aytmasdan urdu tilidan o'zbek tiliga qilgan tarjimamni "Oltin qalam" gazetasida nashr ettirganlar. Qo'linga gazetani berganlaridagi quvonchimni so'z bilan ta'riflash mushkul... Talabalik, magistrantlik davrimda ustozdan ko'p narsa o'rgandim, ammo doktorantlik davrimda va ayniqsa, himoyaga chiqish jarayonida Xayrulla aka chin ma'noda mening eng yaqin ustozimga aylandilar. Qanday vaziyat bo'lishidan qat'iy nazar doim meni qo'llab-quvvatladilar, to'g'ri yo'l ko'rsatib, o'z maslahatlarini ayamadilar va doim menga "motivatsiya" berib turdilar. Hozirgacha barcha savollarimga javobni aynan Xayrulla akadan olaman. Menga ustozning shogirdi bo'lish, birga ishlash baxti nasib qilganidan behad baxtiyorman.

Jahongir Abdupattaxov: "Xayrulla aka men uchun nafaqat ustoz, mohir, zabardast pedagog, balki tug'ishgan akadek g'amxo'r, yaqin do'stdek samimiy maslahatgo'y hamda chin insondir. Turli marosim va uchrashuvlarda Xayrulla aka bilan hamroh bo'lishdan kishi o'zida olam-olam zavq, badiiy go'zallik bilan yo'grilgan suhbatidan bahra oladi.

Shahzoda Hasanova: "Meni Xayrulla aka ishga qabul qilganlar. Avvaliga sizga ish yo'q deganlar, so'ngra men qat'iyat bilan so'raganimga "Mayli ishlayvering faqat oyliksiz ishlaysiz, bizda dars soatlari yo'q" deganlar. "Menga oylik kerak emas, tekinga ham ishlayveraman" – deganimda menga ishonchlari ortdimi yo bilmadim oldilariga chaqirib rus guruhida xitoy tilidan dars o'ta olasizmi dedilar. Men rozi bo'ldim. Avvaliga 0,25 stavkaga ishga oldilar, bir haftadan keyin 0,50 stavkaga, 2 oydan keyin to'liq 1 stavkaga qabul qilindim. O'sha paytda menga bildirgan ishonchlari tufayli o'z sevgan ishlarim "o'qituvchilik"ka erishdim. Ustozimning bir ajib xislatlari bor, doim hammani qo'llab-quvvatlaydilar. Bu esa yosh kadrlarga kuch-g'ayrat, o'ziga ishonch bag'ishlaydi. U kishining yana bir xislatlari bor: kafedramizning psixologi. Hammani dardini eshitib, kerakli yechim topib beradilar. Shaxsan men bundan mamnunman... Men ilm yo'lida bu ustozni uchratganimdan Yaratganga shukr qilaman. Men undan nafaqat ilmida o'rnak olaman, balki oilaviy hayotimda ham bebaho maslahatlariga amal qilaman. Oilamning butun bo'lishiga ustozimning otalarcha bergan maslahatingiz sabab bo'lgan. U kishining nasihatlariga quloq solib yo'l tutganman, farzand tarbiyasi, hatto ovqat tayyorlashimda ham maslahatlarining o'rni bo'lakcha. Ustozim, Siz menga doim o'z otamdek mehribonsiz. Sizdek ustozini boshiga

ko'tarib e'zozlaydigan shogirdlaringiz safi ko'payaversin, biz olar oldida birinchilardan bo'lib yuraylik.

Iroda Fatxutdinova: Xayrulla domlaning ismlari ularning baland va shovqinli ovozlari bilan birga 2012 yildan buyon xotiramda muhrlanib qolgan. O'sha davrlarni xursandchilik bilan eslayman, negaki, domla talabchan bo'lishlari bilan birga talabalarga juda mehribon ota bo'lganlar. Biz talabalarni doimo har qanday vaziyatlarda qanotlari ostiga olib himoya qila olgan yagona ustozimiz bo'lganlar. Yosh kafedraning ilk magistrant qaldirg'ochi bo'lganimdan g'ururlanaman. Shuning uchun bo'lsa kerak, kafedramizda yuragimning bir bo'laki qolib ketgan edi va bu yarmimga 2021-yil erishdim. Dastavval ushbu kafedraga ishga chaqirishganida bajonu dil rozi bo'ldim va mana keldim, ishlayapman.

Vazira Hamidova: "Xayrulla Hamidov mening kafedra o'qituvchisi bo'lishimga sababchi bo'lgan inson. Ustozning huzurlariga maslahat so'rab kelgan hamkasblari bo'ladimi, shogirdlarimi, maslahatlari, bilimlarini ayamadan, hech birini quruq qaytarmaydilar. Kafedraga ishga kirganimda tarjimashunoslik sohasiga u qadar qiziqmasdim, lekin shu kishi sababli sohaga qiziqishim ortdi. Garchi bu sohaning ko'plab vakillari bir qancha ilmiy ishlarni amalga oshirgan bo'lsalar-da, hozir tarjima, tarjimashunoslik deganda ko'z oldimga Xayrulla Hamidov va ularning faoliyatlari keladi. Ustozni sharq tarjimashunosligi ning asoschisi deb bila-man... Ustoz haqida bir kitob yozsak kam..."

Oybek Jumaboyev: "Professional tarjimon sifatida ustozning bir oliyjanob xislatlari – ustoz-shogird an'analariga amal qilgan holda talaba va magistrantlarni tarjima sohasiga jalb qilishlaridir. O'zbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripovning she'rlarini turk tiliga tarjima qilish jarayoni yodimdan chiqmaydi. Shoirning bir qancha she'rlarini turkchaga o'girib ustozga olib bordim. O'sha zahotiyoq tarjimalarni tahrir qilishga kirishib ketdilar. U kishi tarjimaga o'ta talabchanlik bilan yondashardilar, doimo tarjimada muallif huquqini himoya qilishga chaqirar edilar. Ertasiga tarjimaning tahrirlangan matnini olgach, mening tarjimam bilan oxirgi variant orasida farq borligini, endi shoir fikri turkchada yanada aniqroq ifodalanganini his qildim. O'shandan so'ng menda nashr qilinadigan ishlar-da talablar yuksak darajada bo'lishi kerak degan fikr paydo bo'ldi".

Gulnoza Nazrullayeva: "...o'qishga kirdim. Ilk kun ustoz Xayrulla aka bizga ulkan zafarlar tiladilar, qanday o'qish, talaba qanday bo'lishi kerakligi haqida ko'p gapirdilar. Men esa ularni gapirayotgan har bir gaplarini qiziqish bilan eshitar va xayolimdan shunday gaplarni o'tqazardim "Men ham shunday olim, shunday chiroyli gapiradigan yetuk in-

son bo‘larmikinman?”. Chunki ustozim Xayrulla aka shunday chiroyli, ravon gapirar edilarki, odamning havasi kelar edi...”

Kamola Rasulova: “Ustoz... Bu so‘zda donolik, sabr va mehr bor. Ustoz deganda, shogird ko‘nglida chuqur hurmat-ehtirom, tuganmas minnatdorlik tuyg‘usi, hech qanday boylik, molu-davlat bilan ado etib bo‘lmaydigan qarzdorlik hissi paydo bo‘ladi... Ustoz oqko‘ngil, samimiy va otalarcha mehribon bo‘lishlariga qaramay, kezi kelganda qattiq-qo‘l va talabchan inson. O‘z yumushi bilan kelgan hech kimni umidsizlantirmaydilar... Xayrulla akaga nisbatan o‘z kasbiga fidoyi, mehnatlari evaziga hech narsa talab qilmaydigan, jonkuyar, shogirdlari yutuqlariga hammadan ko‘p quvonadigan, samimiy, halol degan ta‘riflar o‘rinli. Talabalik davrlarimiz ustoz har birimiz bilan alohida-alohida ishlar, guruhda 12 ta talaba bo‘lsak-da, har birimiz bilan uning tarjimai ustida ishlab, erinmay kamchilik, xatolarini tuzatardilar. Hamma narsa odil bo‘lishi, barcha darsdan mamnun ketishiga e‘tibor berardilar. U kishining sa‘y-harakatlari bilan guruhdagi barcha talabalarning tarjimalari to‘plamda chop etilardi... Ustozim yozgan kitoblarini mutolaa qilar ekanman uni “bilimlar xazinasi” degim keldi. Tinimsiz o‘z ustlarida ishlashlari, yangi-yangi kitoblar yaratishga ishtiyoqlari bizlarga ham ilhom beradi, munosib shogird bo‘lib yetishishga undaydi”.

Kafedramizning 2023 yilda bitirgan talabalari ustozni qutlab shunday yozishibdi: “Biz ustozimiz Xayrulla Hamidov bilan 4 yil muqaddam “Tarjimashunoslik” kafedrasiga ilk qadam qo‘ygan kunimiz tanishishga musharraf bo‘lganmiz. O‘z kasbini jonidan ortiq sevuvchi, unga umrini baxshida etadigan ijodkor ustoz shu kuni bizga universitetning ilk, ya‘ni mustaqillik darsini o‘tib berdilar. Tarjima olamiga kirib kelganimiz, bizga bo‘lgan yuksak ishonch ekanini mamnuniyat bilan ta‘kidlaganlari kechagidek esimizda. Shu kuni kafedramizning boshqa o‘qituvchilari bilan ham tanishtirib, ularni bizga namuna qilib ko‘rsatdilar. Ustoz to bugungacha bizdan o‘z bilim, tajribalarini ayamadilar. Darslarimiz davomida nimanidir tushunmay ulardan yordam so‘rab borganimizda ham savolimizga javob topmasdan qaytarmaganlar. Ustozning ajoyib jumlalari bor: “Har bitta ustoz uning etagini qo‘yib yubormay, ortidan qolmay, savoliga javob topmaguncha yoniga kelaveradigan o‘quvchisi, shogirdi bo‘lishini xohlaydi”. Ustozimizning bizga bergan bilim va tajribalari, hayotiy maslahatlari kelajak hayotimizda katta yordam berishiga ishonamiz”.

Ustozimizni muborak 60 yoshlik tavallud ayyomlari bilan chin qalbimizdan tabriklab, u kishiga uzoq, farovon va baxtli umr kechirib, farzandlari baxtu kamolini ko‘rib yurishlari, bilimli, barkamol shogirdlarni yetishtirishlari, yangi ilmiy tadqiqotlar ijod etish, ko‘plab ajoyib

tarjimalarni amalga oshirishlarida kuch-quvvat, sabr-matонат tilaymiz. Yaratgan ustozimizga ajoyib farzandu nabiralar bergan, aqlu-farosat, shijoat va g‘ayrat bergan, sabr-qanoat va shukr qilishlik ne‘matini ham ato etgan. Ilohim shu ne‘matlar aslo ularni tark etmasin!

MANBA: Xayrulla Hamidov (tarjimashunos, turkshunos olim, tarjimon Xayrulla Hamidov tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan risola). – Toshkent: 2023. – 232 b.



MUNDARIJA

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori, prof. Gulchehra Shavkatovna Rixsiyevaning Kirish soʻzi		4
Tajimashunoslik tarixi va XX asr ikkinchi yarmi tarjimachiligining rivojlanish tamoyillari		
Xayrulla Hamidov, Nargiza Ismatullayeva	Sharq tarjimashunosligining mustahkam poydevori	7
Султонмурод Олим	“Лисон ут-тайр”да назиравийлик ва таржимавийлик синтези	15
Адхамбек Алимбеков	Нозим Ҳикмат ва Мақсуд Шайхзода	24
Бахтиёр Файзуллоев	Одил Икромнинг таржимонлик фаолиятига қисқача қизгилар	29
Эргаш Очилов	Алишер Навоийнинг таржимонлик маҳорати	36
Содиржон Якубов	Ўзбекистон ва Германия адабий алоқаларининг тарихи ва истиқболларига доир	46
Хуррам Рахимов	Бир мўжиза нашр ва унинг таржимаси хусусида	54
Yanxiong Han	China-uzbekistan relations continuously achieving leapfrog development	58
Tarjima stilistikasi va tanqidi hamda tahrir masalalari		
Султонмурод Олим	“Қиёмат”нинг “қиёмат” таржимаси: миллийлик ва услубий изланишлар	64
Саодат Насирова	Влияние внешнеполитической деятельности Китая на стилистику перевода общественно- политических терминов в китайском языке	77
Умеда Гафарова	Стилистические особенности персидско- таджикского перевода «Тафсири табари»	84
Замира Гаффори	Персидские переводы «Вокеоти Бобури»	91
Omadjon Azamov	Zoofrazemalarni nemis tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilish tamoyillari	99
Камола Рахматжонова	Ҳиндий тилида келишик категориясини ифодаловчи грамматик терминларнинг ўзбек тилига таржимаси хусусида	106
Shoira Isayeva	Exploring Antonyms in Kutadgu Bilig: Enhancing Moral Lessons and Narrative Complexity	111
Нилуфар Саидова	Адаптация арабизмов к испанской лексике	116
Gulnoza Ismailova	The Art and Challenges of Religious Translation, Examining the Case of “Kutadgu Bilig”	120
Шахзода	Феъл фразеологизмларда вариантланиш	125

Хасанова	(хитой ва ўзбек тиллари мисолида)	
Наргиза Хайруллаева	Транспозиция и функциональные особенности языковых аффиксов в художественном переводе	130
Сурайё Хамраходжаева	Роль перевода в развитии креативного письма	136
Mohira Umarova, Zaynab Alisherova	Urdu tilida qarindosh-urug‘chilik terminlarining begonalarga nisbatan qo‘llanilishi va tarjimasi xususida	140
Laylo Abdurahimova	Yapon tilidagi onomatopoeetik so‘zlarni tarjimada berish masalasi	143
Zamonaviy nasr va she’riy tarjima muammolari		
Hüseyin Baydemir	Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikâyeler – Şiirler (Antoloji)" Adlı Kitap Üzerine	148
Xayrulla Hamidov, Kamola Rasulova	Oybekni turkcha “so‘zlatgan” ijodkor	153
Ozodjon Ochilov	Xitoy yangi she’riyatining shakllanishida tarjimaning roli	160
Karima Rahmonberdieva	Challenges in Translating Poems from one Language to Another	165
Mashhura Nazarova	Badiiy tarjima qilish mushkulotlari xususida	168
Amanguli Yiming	Analysis of poetry practice based on appreciation and translation	172
Nilufar Abdurashidova	Science Fiction in the Works of Arthur Conan Doyle	181
Sevara Mahmudova, Sarvara Tashaliyeva	O‘zbek bolalar adabiyoti namunalari – rus tilida	186
Umidbek Saidov	“Yulduzli tunlar” romani yapon tilida	192
Marjona Ahrorova	Tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar	200
Nodirbek Salimbekov	Abul Fazl Allomiyning “Oyiniy Akbariy” asari tarjimalarining ayrim o‘ziga xos xususiyatlari haqida	206
Dilobar Asqarova	Mushfiq Kozimiyning “Qo‘rqinchli Tehron” romanida portret tasviri	211
Azamat Bektemirov	Fors tilida “سگ مثل” komponentli komparativ birikmasining o‘zbek tilida ifodalanishi	217
Zebo Shamsiddinova	Uncertain Past Tense In the Translation of Uzbek Artistic Works Into Chinese	224
Mohinur Azimqulova	“Dunyoning ishlari” asaridagi milliy ruhning ruscha tarjimada berilishiga doir	229

Madaniyatlararo muloqot va badiiy tarjimaning lingvomadaniy aspektlari		
Мутабар Шарипова	Анализ и рассмотрение литературных, этических, эпических, героических религиозных произведений переведенных в X-XIV веках	233
Мафтуна Бобораимова	Лексические средства выражения вежливости в английском и китайском языках	242
Adiba Maxamadtoirova	Hozirgi xitoy tilida gradatsiya hodisasining namoyon bo'lishi	248
Farzona Norova	Xitoy tilida ijtimoiy murojaatlar aks etgan gender xosliklar masalasi	251
Dilshodjon Khikmatov	O'zbek va xitoy tillarida inson tana a'zolarini bildiruvchi frazeologizmlarning komponent tahlili	259
Adiba Hatamova	Yapon tilidagi o'xshatishlardagi ayyorlik etalonlari	268
Kumush To'xlijeva	Xitoyshunoslikda polisemiya hodisasining o'ganilishi	272
Madinaxon Sobirova	Xitoy tilida ekoturizm - 生态旅游 terminining semantikasi	277
O'zbek adabiyoti namunalarini sharq xalqlari tillariga va sharq adabiyoti namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilishning dolzarb masalalari		
Hüseyin Baydemir	Atatürk Üniversitesinde Özbek Türkçesinden Türkiye Türkçesine Yapılmış Çeviriler	282
Lolaxon Aminova	Turk va o'zbek tillarida ma'nosi farqli bo'lgan iboralar va ularni tarjima qilish masalalari	289
Дилфуза Умирова	Проблемы перевода в китайском языке	295
Dildoraxon Shukurova	Yapon va o'zbek badiiy asarlari tarjimasini tarixidan	300
Sinxron, ketma-ket va ilmiy-texnikaviy tarjima sohalarini rivojlantirish masalalari		
Шорасул Шамансуров	Влияние искусственного интеллекта на развитие области синхронного перевода	306
Dilshoda Mubarakova Nodira Yunusova	Tarjimani o'qitish va o'rganishdagi oxirgi zamonaviy tendensiyalar	311
Jamilya Abduganyieva	Historical and Technological Outlook of Simultaneous Interpretation	314
Дилшод Шарипов	Сиёсий ва ижтимоий фанларнинг тадқиқот ва методологиясида биринчи манба ва адабиётлардан фойдаланиш ва таржима қилиш муаммолари	320

Шахзода Эгамбердиева	Прагматические аспекты перевода рекламных текстов	327
Sayyora Kurolova	Axborot asrida ilmiy-texnikaviy tarjimoni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar	333
Aysha Abatova	Principles for Standardization of Terms and Recommendations for Translating Tourism Terms into English	336
Muzaffar Tadjibayev	Ilmiy-ommabop matnlar tarjimasining o'ziga xosliklari	342
Xusan Minavarov	Sud tarjimashunosligi va sud terminlari tanqidi	346
Iroda Safarova	Xitoy tilida sud-huquq tizimi terminologiyasining shakllanishi va o'ziga xosliklari	352
Gulshan Ravshanova	Sinxron tarjimada strategiyalarning qo'llanilishi	361
Munisa Erkinova	Og'zaki tarjima turlari va ular yaratgan inqirozlar	364
Xalqaro jurnalistikada tarjima va tahrirning o'rni		
Rustam Sharipov	Turkistonda milliy matbuotning shakllanishi va jadidchilik	371
Muhabbat Saliyeva	Davlat tashqi siyosatida ommaviy kommunikatsiyaning roli	376
Maynur Yunus	The Role of Translation and Editing in the International News Industry	386
Махфуза Артикова	Испания газеталарида ўзлашма сўзлар	392
Xayrulla Hamidov Arzu Karausta	Turkcha jurnalistika terminlari tarkibidagi g'arb tillaridan o'zlashgan affikslarga doir	399
Salomat Nizamova	Amerika matbuotidagi neologizmlarni tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari (Siyosiy atamalar asosida)	406
Рухсора Эльмуратова	Favqulodda vaziyatlar mavzusini yoritishda jurnalistning kasbiy kompetentsiyalari	411
Sevara Bahodirova	Turkiyada jurnalistika ta'limining tashkil etilishiga doir	421
Xayrullaxon Uroqov	Xalqaro jurnalistikada tarjima va tahrirning o'rni	428
Tarjimashunos olim, filologiya fanlari doktori Xayrulla Hamidov tavalludining 60 yilligiga bag'ishlangan maqolalar		
Abdurahim Mannonov	Turkshunosligimizning yirik namoyandasi	431
Gulchehra Rixsiyeva	Tillar va dillarni birlashtirgan olim	436
Qudratulla Omonov	Mehnati bilan yuksalgan olim	439

Zuhriddin Isomiddinov	Ilm-fan xizmatiga kamarbasta olim	440
Shoira Usmanova	Jonkuyar olim	444
Ergash Ochilov	Aqli kirgan oqil va o'zini tanigan orif kishi	447
Nargiza Ismatullayeva	Mehnat bilan yuzaga chiqqan iste'dod	450

“TARJIMASHUNOSLARI FORUMI – 2023” (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari). – Toshkent: TDSHU, 2023. – 470 b.

UO‘K: 81’25

KBK: 81.2-7

T - 23

Tuzuvchi va mas’ul muharrir: filol.f.d., professor v.b. **Xayrulla Hamidov**

Konferensiya tashkilotchilari:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi Konfutsiy nomidagi o‘zbek-xitoy instituti

Tashkiliy qo‘mita:

prof. G.Rixsiyeva – rais

prof. v.b. X.Hamidov

prof. S.Nasirova

dots. R.Sharipov

dots. N.Ismatullayeva

Taqrizchilar:

dots. Ergash Ochilov

dots. Nargiza Ismatullayeva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2023-yil 02-dekabrdagi 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2023

© TDSHU huzuridagi Konfutsiy nomidagi o‘zbek-xitoy instituti